


UMUMIY PEDAGOGIKA



TOSHKENT

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

UMUMIY PEDAGOGIKA

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2018

UO'K: 37.013(075)

KBK 74.00

U 52

U 52 Umumiy pedagogika. –T.: «Fan va texnologiya», 2018, 528 bet.

ISBN 978-9943-11-882-9

Darslik pedagog kadr tayyorlashga qaratilgan ta'lif yo'nalishlariga mo'l-jallangan, unda pedagogika fanining asoslari, maqsad, vazifalari, tadqiqot metodlari, didaktika va tarbiya nazariyasining umumiy mazmuni (chunonchi, tamoyil, shakl, metod va vositalari, ijtimoiy tarbiya turlari, ularning o'ziga xos jihatlari, samarali tashkil etish omillari, O'zbekiston Respublikasi uzlucksiz ta'lif tizimi, pedagogika tarixi va pedagogik mahorat, ijtimoiy pedagogika va maktabshunoslik xususida so'z yuritiladi. Darslik oldingi yaratilgan darslikning mazmun-mohiyatidan tubdan farq qilib, uni tayyorlashda xorjiy adabiyotlar (Michael Uljens. School Didactics and Learning: A School Didactic Model Framing an Analysis of Pedagogical Implications of Learning Theory, 2008-y, Curriculum, cultural traditions and pedagogy: understanding the work of teachers in England, France and Germany (2012). Kenkies, K. (2012). "Pedagogy and Practice: Teaching and Learning in Secondary Schools. Using Technology with Classroom Instruction That Works, 2nd Edition 2nd Edition, ICT in Primary Education Analytical survey. UNESCO Institute for Information Technologies in Education Authors:Ivan Kalaš and others, 2010-y, M. D. Roblyer, Integrating Educational Technology into Teaching (5th Edition) 5th Edition) manbałaridan foydalaniłgan.

Darslik Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tasdiqlagan namunaviy dastur talablariga muvofiq yaratildi.

Darslikdan pedagogika, shuningdek, muayyan mavzularni o'rganishda nopedagogik yo'nalishda faoliyat olib borayotgan oliy o'quv yurtlari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining pedagog xodimlari, talabalar hamda ilmiy izlanuvchilar foydalanishlari mumkin.

UO'K: 37.013(075)

KBK 74.00

Mualliflar:

**R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova,
K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov.**

Taqribchilar:

**B.R.Adezov – p.f.d., professor;
R.H.Jo'rayev – p.f.d., professor.**

ISBN 978-9943-11-882-9

2372512

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2018.

KIRISH

Ilm-fan, texnika ishlab chiqarish hamda texnologiya sohalarida, erishilayotgan yutuqlar uzlusiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalari uchun yangi avlod darsliklarini yaratishni taqozo etmoqda. Bu kabi o'quv manbalarining yaratilishiga qo'yilayotgan talablardan eng muhimi – ularning mazmunida mavjud ilmiy bilimlar o'z ifodasini topibgina qolmay, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasida, ta'lim sohasida olib borilayotgan davlat siyosatining mohiyati ham ochib berish sanaladi. Pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan pedagogika darsligi amaldagi o'quv dasturida ilgari surilgan talablarga muvofiq yaratildi.

Darslikning maqsadi – pedagogika fanining nazariy-metodologik asoslarini ochib berish, bo'lajak pedagoglar tomonidan ularning chuqur o'zlashtirilishiga erishish, talabalarda pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil eta olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Darslikning tarkibiy tuzilmasidan o'rinn olgan mavzular o'z mazmuni va yo'nalishiga ko'ra "Pedagogikaning ilmiy asoslari", "Yagona pedagogik jarayon", "Ta'lim tizimini tashkil etish" hamda "Korreksion (maxsus) pedagogika" kabi bo'limlar o'rinn olgan. Bo'limlarda, o'z ifodasini topgan mavzularni ochib berishda g'oyalar o'rtasidagi o'zaro izchillik va mantiqiylikning ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Mavzularning bayonida, maqsadga muvofiq ravishda Sharq mutafakkirlarining qarashlari, xalq pedagogikasi asoslaridan foydalanish barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Darslikni yaratishda mualliflar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" kabi me'yoriy hujjatlarda ilgari surilgan fikrlarga tayandilar. Pedagogika fanining umumiy asoslari mavjud ijtimoiy zaruriyat nuqtayi nazardan bayon etilgan.

I BO'LIM

I BOB. PEDAGOGIKANING ILMIY ASOSLARI. PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA UNING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

1.Pedagogika predmeti

Pedagogika (yunoncha “paidagogike” bo’lib, “paidagogos”-“bola” va “yetaklayman”) ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlarini, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o’rganadigan fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqlol g’oyalari asosida tarbiyalash, unga ta’lim berish muammolarini o’rganadi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihatini – uni o’qitish va tarbiyalashga asosiy e’tiborni qaratganligi bois didaktika (ta’lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Ko’p sonli fanlarning ta’limni o’rganishdagi ijtimoiy fenomeni sifatidagi hissasi shubhasiz bebaho va zarurdir. Biroq bu fanlar insonning kundalik o’sishi va rivojlanish jarayoni bilan bog‘liq bo’lgan, o’qituvchi bilan o’quvchining o’z rivojlanish davridagi o’zaro munosabatlari va unga mos institutaviy struktura bilan bog‘liq ta’limning tub jihatlariga daxl qilmaydi. Va bu tamomila haqqoniy, chunki maxsus jihatlarni o’rganish obyekt (ta’lim) ning shunday qismini aniqlaydiki, buni maxsus fan pedagogika o’rganishi kerak.

Pedagogika – bu aniq maqsadlar asosida maxsus ijtimoiy institutlar (oila, ta’lim va madaniy tarbiyaviy muassasalar) da tashkil etilgan aniq yaxlit pedagogik jarayon sifatidagi ta’limdir. Pedagogika bu holda o’zini pedagogik jarayon (ta’lim)ning mohiyati, qonuniyatlarini, tendensiyalari va rivojlanish istiqbollarini

o'rganuvchi fan sifatida namoyon etadi. Shu asosda pedagogika uni tashkil etining nazariya va texnologiyalarini, pedagog faoliyati (pedagogik faoliyat) ning shakli va rivojlantirish metodlarini va o'quvchilarning turli ko'rinishdagi faoliyatlarini, shuningdek ularning o'zaro munosabatlardagi strategiya va usullarini ishlab chiqadi.

2. Pedagogika fanining vazifalari

Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shamdi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

Pedagogika fanining vazifalari. Pedagogikaning fan sifatidagi vazifalari uning predmetlariga bog'liq. Bular nazariy va texnologik vazifalar bo'lib, ular uzviy ravishda amalga oshiriladi. Pedagogikaning nazariy vazifalari uch xil darajada amalga oshiriladi:

- *Tavsiflash yoki tushuntirish* – ilg'or va novatorlik pedagogik tajribalarni o'rganish;
- *Diagnostik* – pedagogik hodisalarning holatini, pedagog va o'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyati yoki samaradorligini aniqlash, ularni ta'minlovchi shart va sabablarini o'rganish;
- *Prognostik* – pedagog faoliyatlarini ilmiy tadqiqotlar orqali o'rganish va ular asosida bu faoliyatni o'zgartirish modulini qurish. Nazariy vazifalarni prognostik darajasi pedagogik hodisalarning mohiyatini ochish, pedagog jarayonlaridagi teran hodisalarni topish, taxmin qilingan o'zgarishlarni ilmiy asoslash bilan bog'liq. Bu darajada ta'limiy amaliyotdan oldin turuvchi ta'lim tarbiya nazariyasi va pedagogik tizim modeli yaratiladi.

Pedagogikaning texnologik vazifalarini amalga oshirishning uchta darajasi mavjud: Proekcion, qayta qurish, refleksiv.

1. *Proekcion* – bu o'z ichiga nazariy konsepsiyalarni oluvchi va pedagogik faoliyatlar rejasini, uning mazmunini va

xarakterini aniqlovchi mos metodik materiallar (o'quv rejasi, dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar va pedagogik tavsiyalar) ni ishslash bilan bog'liq;

2. *Qayta ko'rish* – bu fanlar yutuqlarini ta'limiy amaliyotga uni takomillashtirish va rekonstruksiya qilish maqsadida tadbiq etishga qaratilgan;

3. *Refleksiv* – bu ilmiy izlanishlar natijalarining ta'lim va tarbiyaning amaliyotga ta'sirini baholash va ilmiy nazariy va amaliy faoliyatning bundan keyingi korreksiyasini ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, milliy istiqlol g'oyasi asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:

1. Ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish.

2. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.

3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida uzlusiz ta'lim tizimini takomillashtirish.

4. Ta'lim muassasalari hamda, ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash.

5. Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.

6. Pedagoglarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta'lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish.

7. Ta'lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish.

8. O'qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish.

9.Oila tarbiyasini muvaffaqiyatlari tashkil etish yuzasidan otolonalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

10. Ta'limning sifati va sifatli ta'lim jarayoni bilan ta'minlash.

3.Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari

Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatları, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriylar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish.

Shaxs – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta'lim – o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

4.Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi

Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiyligi mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtayi nazardan pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

Falsafa – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi. Bundan tashqari falsafaning istalgan fanga nisbatan, shu jumladan, pedagogikaga nisbatan metodologik vazifasi ham shunda namoyon bo'ladiki, u ilmiy bilishning umumiyligi tamoyillari va usullari tizimini ishlab chiqadi. Pedagogik bilimlarni egallash jarayoni falsafa o'r ganadigan umumiyligi qonuniyatlarga bo'linadi. Falsafa pedagogik tajribani anglash va pedagogik konsepsiylar yaratishning nazariy platformasi hamdir. Pedagogik tajriba o'tkazish va tajriba natijalarini falsafiy asoslashlarsiz fan statusiga ega bo'la olmaydi.

Iqtisod – pedagogikaning iqtisodiy fanlar bilan munosabatlari murakkab va bir ma'noli emas. Iqtisodiy siyosat har doim jamiyat savodxonligining rivojlanishida zaruriy shart bo'lib kelgan. Pedagogikaning rivojlanishida bu sohada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni iqtisodiy rag'batlantirish muhim omil hisoblanadi.

Bu fanlar orasidagi bog'lanish ta'limning iqtisod kabi bilim sohasida amal qilish spetsifikatsiyasi hisoblanadi.

Etika – shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rinni tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rinni tutadi.

Estetika – shaxs tomonidan go‘zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo‘nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Pedagogikaning ijtimoiy pedagogika bilan aloqasi ham an'anaviy aloqalar sirasiga kiradi, chunki ularning birinchisi ham, ikkinchisi ham ta’limni rejalashtirish, aholining u yoki bu guruhi rivojlanishining asosiy tendensiyasini, turli ijtimoiy institutlarida sotsializatsiyalash va tarbiyalash qonuniyatlarini aniqlash maqsadini ko‘zlaydi.

Pedagogikaning politologiya bilan aloqasi shundan iboratki, unda ta’lim siyosati har doim davlat g‘oyasini aks ettiradi, uni konseptual shakllar va nazariyalar qayta ishlab chiqadi. Pedagogika insonning siyosiy ongining subyekti sifatida shakllanish sharti va mexanizmini, siyosiy g‘oyalar, ko‘rsatmalar, siyosiy dunyoqarashni o‘zlashtirish imkoniyatlarini aniqlashga intiladi.

Psixologiya – Pedagogika chinakam fan bo‘lishi va pedagogning faoliyatini samarali yo‘naltirishi uchun inson uning o‘ziga xos va aniq rivojida ishtiroy etadigan reallikni hisobga olishi kerak. Inson tabiatning o‘ziga xos xususiyatlarini, uning tabiiy ehtiyojlarini va imkoniyatlarini tushunish, shaxsning ruhiy faoliyati va rivojlanish mexanizmlarini, qonunlarini hisobga olish ta’lim (o‘qitish va tarbiyalash) ni tashkil etish talabini, shularga mos qonunlar, xossalari, ehtiyojlar imkoniyatlarini barcha mashhur pedagoglar ilgari surishgan.

Shunga ko‘ra pedagogikaning psixologiya bilan aloqasini tahlil qilishda metodologik nuqtayi nazar sifatida psixologizmni ta’lim jarayonida ilmiy asoslangan eng muhim manbai bo‘lgan va manbai bo‘lib qoladigan fan sifatidagi psixologiyadan farqlay olish muhim. Bu qonuniyatlar aniq tarixiy xarakterga ega, shuning uchun ijtimoiy pedagogik shartlarning o‘zgarishi bilan shaxsning rivojlanish qonuniyati ham o‘zgaradi. Pedagogika insonni individ sifatida o‘rganuvchi fanlar bilan ham uzviy bog‘liq. Bu biologiya (odam anatomiysi va fiziologiyasi), antropologiya va meditsina kabi fanlar.

Tibbiy fanlar – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to‘g‘ri rivojlanishini ta‘minlash, uning organizmida namoyon bo‘layotgan

ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

Gigiyena – o'quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi.

Pedagogikaning meditsina bilan aloqasi pedagogik bilimlarni maxsus sohasi korreksion pedagogikaning paydo bo'lishiga olib keladi. Uning predmeti rivojlanishida orttirilgan yoki tug'ma nuqsonlarga ega bo'lgan bolalarga ta'lif berishdir.U tibbiy vositalar tizimi bilan o'zaro aloqa ishlab chiqadi. Uning yordamida terapevtik samaraga erishiladi va shunday pozitsiyalar o'zlashtiriladiki, ularning roli qimmati mayjud nuqsonlar o'rmini bosuvchi yoki ularni og'irliklarini kamaytiruvchi sotsializatsiya jarayonini yengillashtiradi.

Tarix – pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lif-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g'oyalarni kelgusi avlodga uzatish uchun yo'naltiriladi.

Madaniyatshunoslik – o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

5. Pedagogika fanlari tizimi

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasining rivojlanishi pedagogikaning yangi sohalari chegaraviy ilmiy fanlarning ajralib chiqishiga olib keladi. Bugungi kunda pedagogika pedagogik fanlarning murakkab tizimi sifatida naimoyon bo'lmoqda.Uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

1.Umumiy pedagogika – maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lif berish masalalarini o'rganadi.

2.Maktabgacha ta'lif pedagogikasi – maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

3. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash, ularga ta’lim berish, ularning o‘ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o‘rganadi.

4. Korreksion (maxsus) pedagogika – rivojlanishida turli psixologik va fiziologik nuqsonlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalash va o‘qitish bilan bog‘liq muammolarini o‘rganadi.

O‘z navbatida korreksion pedagogika tarkibiga maxsus pedagogika va psixologiyaning turli sohalari kiradi. Ular quyidagilardir:

1. Surdopedagogika va surdopsixologiya – eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.

2. Oligofrenopedagogika va oligofrenopsixologiya – aqli zaif bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.

3. Tiflopedagogika va tiflopsixologiya – ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.

4. Logopediya va nutqiy buzilishlar psixologiyasi – nutqi, shuningdek, motorli-harakatlanish doirasida murakkab nuqsonlari bo‘lgan bolalar (ko‘r, soqov va kar bolalar)ni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.

5. Metodika – xususiy fanlarni o‘qitish xususiyatlarini o‘rganadi.

6. Pedagogika tarixi – ta’lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda yetakchi o‘rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o‘rganadi.

7. Pedagogik texnologiya – ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganadi.

8. Pedagogik mahorat – bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o‘rganadi.

9. Ta’limni boshqarish – ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o‘rganadi.

10. Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlар jarayonida pedagogik g‘oyalarning tutgan o‘rni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirish muammolarini o‘rganadi.

6. Pedagogika fanining metodologiyasi

Fan faqat u yangidan yangi bilimlar bilan olib borilgan holdagina rivojlanishi mumkin. O‘z navbatida, ularni to‘plash va talqin qilsh uchun ilmiy asoslangan izlanish kerak bo‘ladi. Oxirgisi o‘z bog‘lanishlarini fanshunoslikda metodologik nomini olgan nazariy prinsiplar majmuasidan topadi. Na faqat pedagog amaliyotchilar, balki tadqiqotchilar ham ko‘pincha “metodologiya” tushunchasi ortida real hayotdan va ta’limiy amaliyotdan uzoqda bo‘lgan (qandaydir abstrakt) narsani ko‘radilar. Shu bilan birga metodologiya — bu “nazariy va amaliy faoliyatlarni tashkil etish va qurishning prinsip va usullari tizimidir”¹. Psixolog S.L.Rubinshteyn “Katta nazariyalar savollari, bu ish bilan birga katta ahamiyatga ega bo‘lgan amaliy savollar hamdir. Yirik nazariy muammolarni haqiqatdan ko‘rish bu ularning hayotning aniq masalalari bilan munosabatda ko‘rish demakdir”² deb yozadi.

Pedagog kasbiy tayyorgarligining yuqori darajasi unda metodologik madaniyatning mavjudligidan iborat. Bu madaniyatning asosiy alomatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- falsafa kategoriyalari bilan pedagogik fanlarning kontseptual qobig‘ini tashkil etuvchi asosiy tushunchalar bilan “mustahkamlangan” jarayonlarni tushunish;
- Ta’limni turli tushunchalarini abstraktlikdan konkretlik-kacha ko‘tarilib borish pog‘onalari sifatida anglash;
- anglash faoliyati metodida pedagogik nazariyalarni qayta o‘zgartirishni o‘rganish;

¹ Философский энциклопедический словарь. — М., 1983. — С. 365.

² Рубинштейн С.Л. Бытие и сознание: О месте психического во всеобщей взаимосвязи явлений. — М., 1957. — С. 3.

- pedagog tafakkurining pedagogik shakllariga genezisiga yo‘nalganligi va ularning “to‘la yasovchi” xossasi;
- pedagogning tushunchasi atamalar tizimida ta’lim amaliyotini amalga oshirish ehtiyoji;
- pedagogik bilimlarning tarixiy rivojlanish davridagi yaxlitligi va izchilligini aniqlashga intilish;
- “o‘z-o‘zidan ko‘rinib turgan” vaziyatlarga odatdagi pedagogik ong tekisligida yotuvchi dalillarga nisbatan tanqidiy munosabat;
- shaxsiy bilish faoliyati jarayoni va natijalariga, shuningdek, pedagog jarayonining boshqa qatnashchilari fikrlari harakatiga dastlabki shart-sharoitlar bo‘yicha refleksiya;
- insonni bilish sohasidagi ilmga qarshi pozitsiyalarni asosli inkor etish;
- pedagogikaning dunyoqarashlik, insonparvarlik funksiyalarini tushunish.

Metodologiyani o‘rganish bilan o‘qituvchi uning prinsiplariga suyangan holda fikrlay boshlaydi va prinsipial bo‘lib boradi. Xususiy ilmiy metodologiya darajasida ta’lim va ijtimoiy siyosatning yagonaligi, yondashuvning bir butunligi, ta’limning birlidagi subyektining kengayishi yaxlit pedagogik jarayonda tarbiyaviy maqsadlarning ustivorligi prinsiplarini o‘zlashtirish, ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Bo‘lajak pedagogning metodologik madaniyatini shakllantirish bilish metodologiyasi va pedagogik jarayonlarni qayta o‘zgartirishning mohiyatini tushunishga tayanadi. Metodologiya haqidagi faqat ilmiy izlanishlar mantiqiga tegishli prinsiplar tizimi sifatida rasm qilib borayotgan tasavvurlarni yengib o‘tish, ularning ahamiyatini ta’lim va tarbiyaning kundalik amaliyoti uchun ochib berish, yaxlit pedagogik jarayonni boshqarishni takomillashtirish muhimdir. Bo‘lajak o‘qituvchida metodologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan dialektik yondashuv bir qator ketma-ket avj olib borilgan bo‘g‘inlarni o‘z ichiga oladi: talabalarning ularga taqdim etilgan vaziyatlardagi qarama-qarshilik (ziddiyatlarni) tushuntirib o‘tishga va hal qilishga bo‘lgan intilishlari: Shundayin

tajribalar, sog'lom fikrli mulohazalar, ularning bir yoqlama ekanligini ko'rsatish metofizikligiga tayangan holda yechimining samarasizligini olib berish;

- dialektik mantiq talablari asosida muammoli vaziyatlarni samarali hal qilish yo'llarini namoyish qilish;
- taklif etilgan topshiriqlar ustida olib borilgan ish tajribalarini va o'zlashtirilgan mantiqni pedagogik amaliyotni turli sohalariga olib o'tish imkoniyatlarini umumlashtirish.

7. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari

Shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtida, O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiyoq aloqasi, ularning izchil, uzlusiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomillashtirib borishini ta'minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzlusizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lган jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) muammoning dolzarbliji va mavzuning aniq belgilanganligi;
- 2) ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi;
- 3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi;
- 4) tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv;

5) tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to‘g‘ri hisobga olinganligi;

6) tadqiqot natijalarini oldindan tashxislash va uning natijalarini aytib o‘tish;

7) tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo‘nalishda, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanimoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.

2. Suhbat metodi.

3. Anketa metodi.

4. Intervyu metodi.

5. Ta’lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.

6. Test metodi.

7. Pedagogik tahlil metodi.

8. Bolalar ijodini o‘rganish metodi.

9. Pedagogik tajriba metodi.

10. Matematik-statistik metod.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo‘llash jarayonida, ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish assosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba- avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq to‘g‘risidagi ma‘lumotga ega bo‘linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzliksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;

2) kuzatishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish;

3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;

4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o‘rganish;

5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo‘lingan ma’lumotlarni boyitish, mavjud holatga to‘g‘ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to‘la-to‘kis namoyon bo‘lishiga erishish muhimdir. Uning samarali bo‘lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- 1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash hamda savollar o‘rtasidagi mantiqiylik va izchillilikni ta’minalash;
- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma’lum to‘xtamga kelish;
- 4) suhbatdosh to‘g‘risida avvaldan muayyan ma’lumotlarga ega bo‘lish;
- 5) suhbatdosh bilan samimiyl munosabatda bo‘lish;
- 6) suhbatdoshning o‘z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
- 7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- 8) olingen ma’lumotlarni o‘z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (fransuzcha – tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to‘plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko‘p hollarda, yozma ravishda olinadi. O‘rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo‘ladi:

- 1) ochiq turdagи savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
- 2) yopiq turdagи savollar (respondentlar “ha”, “yo‘q”, “qisman” yoki “ijobiy”, “qoniqarli”, “salbiy” va hokazo tarzidagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo'llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;
- 2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo'lmashligi kerak;
- 3) anketa savollari o'quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;
- 4) anketa savollari respondentlar tomonidan to'la javoblar berilishini ta'minlovchi vaqtini kafolatlay olishi zarur;
- 5) anketa o'quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmashligi zarur;
- 6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta'lif muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lif muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarining ta'lif muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'r ganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lif muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Ta'lif muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: O'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta'lif muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasи, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lif muassasasi

jihozlari (o'quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar. Mazkur metod muayyan yo'naliishlarda o'quv-tarbiya ishlari samaradorligi darjasini, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat:

1) ochiq turdag'i savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdag'i savollar (respondentlar "ha", "yo'q", "qisman" yoki "ijobiy", "qoniqarli", "salbiy" va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

3) to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o'z yondashuvlariga ko'ra to'g'ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyatiga ega emas.


Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'naliishlarda o'r ganilganlik darjasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o‘rganish metodi. Mazkur metod o‘quv-chilarning muayyan yo‘nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma’lum fan sohalari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Uni qo‘llashda o‘quvchiarning ijodiy ishlari – kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma’lum o‘quvchiga xos bo‘lgan individual imkoniyatni ko‘ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o‘rganishning quyidagi shakllari mavjud:

- 1) fan olimpiadalari;
- 2) turli mavzulardagi tanlovlar;
- 3) mакtab ko‘rgazmalari;
- 4) festivallar;
- 5) musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment – lotincha “sinab ko‘rish”, “tajriba qilib ko‘rish”) metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyatda o‘z in’ikosiga ega bo‘la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalilaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo‘naltirilgan pedagogik tajriba ma’lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga bera olishi zarur. Pedagogik tajriba tashkil etilish sharoitiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi:



3- chizma. Pedagogik tajriba turlari

Pedagogik tajriba ham bir qator shartlarga amal qilgan holda tashkil etiladi. Xususan:

- 1) tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi;
- 2) tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi;
- 3) tadqiqot obyektlari va usullarining to‘g‘ri tanlanishi;
- 4) tajriba o‘tkazilish vaqtini hamda davomiyligini aniqlanishi;
- 5) zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi;
- 6) tajriba ma’lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash.

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiyl xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Matematik-statistik metod tajriba-sinov ishlari, shuningdek, umumiyl holda tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi, muammo holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. Yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Ayni vaqtda, pedagogik yo‘nalishda, tadqiqotlar olib borishda Styudent, Ko‘virlag, Rokich, V.P.Bespalko hamda V.V.Grechixin metodlaridan keng foydalanimoqda.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar?

1. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlariga nimalar kiradi?
2. Pedagogika va uning mazmuni haqida gapiring.
3. Pedagogika fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
4. Pedagogika fanining asosiy kategoriylariga nimalar kiradi?
5. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi haqida gapiring.
6. Pedagogika fanlari tizimini izohlang.

II BOB. KADRLAR TAYYORLASH MILLIY MODELI. HOZIRGI DAVRDA O'QITUVCHILIK KASBI VA UNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI

1.O'zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati

O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Totalitar boshqaruv usuli asosida, ish yuritilayotgan xalq ta'limi tizimida ham so'nggi o'n yilliklar davomida yuzaga kelgan muammolarni hal etish vazifasi Respublika hukumati hamda mutasaddi tashkilotlarni ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishga undadi. Bu boradagi say-harakatlarning samarasi sifatida 1992 yil iyul oyida mustaqil O'zbekistonning ilk "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun mazmunida Respublika ta'limi tizimi, uning asosiy yo'nalishlari, maqsad, vazifalari, ta'lim bosqichlari va ularning mohiyati kabi masalalar o'z ifodasini topdi. Biroq, 1997-yilga kelib, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va uning mazmunida ilgari surilgan g'oyalarning amaliyotga tadbiqi tahlil etilganda, bu borada muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohot aksariyat o'rnlarda chuqur ilmiy asoslarga ega bo'limganligi ma'lum bo'ldi hamda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish zarurligi belgilandi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Har qanday mamlakatning kuchi uning, fuqarofarining ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyati esa ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama

shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning yaratilishida mazkur jihatlar to'la o'r ganildi. Milliy dastur asosini O'zbekistonning taraqqiyotini ta'minlay oladigan, uni jahonning ilg'or mamlakatlari darajasiga ko'tarilishiga hissa qo'shuvchi dadil, mustaqil fikrlovchi, bilimli, malakali mutaxassis, shuningdek, ijobiy sifat-larga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlab voyaga yetkazish jarayoni tashkil etadi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faoliyka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir¹.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir². "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ilgari surilgan maqsadning to'laqonli ro'yobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobiy hal qilinishini nazarda tutadi. Dasturda bu boradagi vazifalarning quyidagilardan iboratligi ko'rsatiladi:

Yuqoridagi dastur vazifalarning bevosita davomi sifatida, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi davlat dasturining **4.4. bandida: Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish sohasida ham belgilab**

¹ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyyati. 2001. – 20-bet.

² O'sha manba, – 25-bet.

qo‘yilgan vazifalar bevosita milliy dasturning uzviy davomi hisoblanadi³.

Bunda; Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

Maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni takomillashtirish, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish;

Umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish;

Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo‘ycha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

Ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish;


Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarni yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish;

- “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta’lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari hamda ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida, raqobat muhitini shakllantirish negizida ta’lim tizimini yagona o‘quv, ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta’minlash;

³ Узбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги /Расмий нацир/ Узбекистон Республикаси Адлия вазирлиги – Тошкент “Адолат” 2017-йил, 25-бет

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;
- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatining nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;
- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;
- ta'lim oluvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;
- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilindigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;
- ta'lim, fan, ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;
- uzliksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga budjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash;
- o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanishi;
- milliy (elita) oliy ta'lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish;

Ta'lif jarayonini axborotlashtirish, uzlusiz ta'lif tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog'i bilan to'liq qamrab olinishiga erishish kabi vazifalarning ham ijobjiy yechimi ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" tarkibiy tuzilmasi quyidagicha aks etadi (1 - chizma).




Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy, tarkibiy qismlari. Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta'lif-tarbiya jarayoninigina qamrab olmay, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzlusiz ta'lif, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtaqidagi o'zaro aloqadorlik asosida "Yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi" mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha hisoblanadi (2-chizma).

KADRLAR TAYYORLASH MILLIY MODELI

Milliy modelning bosh maqsadi-komil inson va yetuk malakali yetishtirish



“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati yoritiladi. Milliy modelning o‘ziga xos xususiyati mustaqil ravishda to‘qqiz yillik umumiy o‘rta hamda uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini joriy etilishi bilan belgilanadi. Bu esa o‘z navbatida umumiy ta’lim dasturlaridan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi dasturlariga o‘tilishiga zamin yaratadi¹.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchidir.

Shaxs uzuksiz ta’lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o‘zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o‘zida ijtimoiy ta’sirlar yordamida ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. Shaxsda o‘zlashtirilgan bilim, faoliyat ko’nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlar va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo‘lish uchun shaxs o‘z oldiga muayyan maqsadni qo‘ya olishi hamda unga erishish yo‘lida tinimsiz izlanishi, o‘qib-o‘rganishi lozim.

¹ O’sha manba, 34-bet.

Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo‘lib shakllanadi.

O‘z-o‘zini anglash tuyg‘usiga ega bo‘lish, ta’lim sohasidagi xizmatlardan to‘laqonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o‘zlashtirishga erishish shaxsga yetuk mutaxassis bo‘la olishi uchun poydevor yaratadi. Inson kamoloti, eng avvalo, uning o‘ziga bog‘liqdir. Shu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

“Ta’lim xizmatlarining iste’molchisi sifatida shaxsga davlat ta’lim olish va kasb-hunar tayyorgarligidan o‘tish kafolatlanadi. Ta’lim olish jarayonida shaxs davlat ta’lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta’lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta’lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatadi va o‘z bilimi hamda tajribasini o‘rgatishda ishtirot etadi”¹.

Davlat va jamiyat ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.

Shaxs kamoloti nafaqat o‘zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fuqarolari yuksak ma’naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy eta oladi.

Shaxs va davlat (jamiyat) o‘rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga ega. Shu bois har qanday davlat (jamiyat) o‘z fuqarolaring yashashi, mehnat qilishi, iqtidori va salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, uni namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib bera olishi lozim. Respublika ta’lim tizimida davlat va jamiyat shaxsning har tomonlama shakllanishi, o‘zligini namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib berish mas’uliyatini o‘z zimmasiga oluvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Davlat va jamiyat ta’lim muassasalarining yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash yo‘lidagi faoliyatini ham uyg‘unlashtiradi hamda quyidagilarga kafolat beradi:

¹ O’sha manba, 30-bet.

- fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o‘z malakasini oshirish huquqlarning ro‘yobga chiqarilishiga;

- majburiy umumiy o‘rta ta’lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta’lim olish yo‘nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini olishga;

- davlat grantlari yoki pulli-shartnomaviy asosda oliv ta’lim va oliv o‘quv yurtidan keyingi ta’limni olish huquqiga;

- davlat ta’lim muassasalarini mablag‘ bilan ta’minlashga;

- ta’lim oluvchilarning o‘qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalarning hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;

- ta’lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo‘llab - quvvatlashga;

- sog‘liq va rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning ta’lim olishiga¹.

Uzluksiz ta’lim malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlari, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

Uzluksiz ta’lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo‘lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratadi².

Uzluksiz ta’lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb-hunar ma’lumotlarini o‘zlashtiradi, yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim Davlat ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturlari talablariga muvofiq tashkil etiladi.

¹ O‘sha manba, 30-31-betlar.

² O‘sha manba, 31-bet.

Uzluksiz ta'limni tashkil etish muayyan tamoyillarga asoslanadi. Jumladan:

- ta'limning ustuvorligi;
- ta'limning demokratlashuvi;
- ta'limning insonparvarlashuvi;
- ta'limning ijtimoiylashuvi;
- ta'limning milliy yo'naltirilganligi;

- ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;

- iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish¹.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da uzluksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari ham aniq ko'rsatib berilgan. Mazkur yo'nalishlar sirasiga quyidagilar kiradi: kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash; pedagoglarning kasbiy nufuzini oshirish; davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining turlarini rivojlantirish; ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish; ta'lim dasturlarini tubdan o'zgartirish; majburiy o'rta umumiylardan o'rta maxsus, kasbhunar ta'limiga o'tilishini ta'minlash; yangi tipdagisi o'quv muassasalarini vujudga keltirish; yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar, shu jumladan, boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; ta'limning barcha daraja va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish; ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, ta'lim muassasalarini mintaqalashtirish; shaxsga ta'lim berish va uni tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish; ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish; ta'lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnika va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta'minlash mexanizmlarini shakllantirish; uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish;

¹ O'sha manba, 31-32-betlar.

chet el va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish; tub yerli millatga mansub bo‘limgan shaxslar zich yashaydigan joylarda ularning o‘z ona tillarida ta’lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlarni yaratish; ta’limning barcha darajalarida ta’lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiyena ta’limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

Uzluksiz ta’lim quyidagi ta’lim turlarini o‘z ichiga oladi:

- maktabgacha ta’lim;
- umumiy o‘rta ta’lim;
- kasb-hunar ta’limi;
- oliy ta’lim;
- oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta’lim.

2. Maktabgacha ta’lim

Bolaning sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlaydi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriladi. Bu kabi ta’lim muassasalarining faoliyatini tashkil etishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

- ✓ malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
- ✓ maktabgacha ta’limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;
- ✓ bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta’minlash;
- ✓ zamonaviy o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, texnik vositalar, o‘yinchoqlar va o‘yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;

✓ mактабгача ўшдаги балаларни халқнинг男孩 маданийтарихи мероси ва умумбашарија қадриятлар асосида ма’навий-аҳлоқија жиһатдан тарбиялаш учун шарт-шароитлар яратиш;

✓ мактабгача муассасаларинга хар сабакларни тарбианинг барча масалалари бо‘йича малақали консультатсиya хизмати ко‘рсатиш имкониятини яратиш;

✓ мактабгача тарбија ва sog‘lomlashtirish муассасалари тармоғини qo‘llab-quvvatlash ва rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

Maktabgacha ta’lim muassasalari (balalar bog‘chasi, bolalar yasli bog‘chasi, bolalarni rivojlantirish markazi va h.k) bir yoshdan olti yoshgacha bo‘lgan bolalarni tarbiyalashda oilaga yordam berish, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash individual qobiliyatlarini rivojlantirish va rivojlanishdagi nuqsonlarni tuzatishda zarur choralarни ko‘rish maqsadida tashkil etiladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim berish va tarbiyalash tasdiq’langan davlat talablari асосида amalga oshiriladi.

Mazkur давлат талабларидаги quyidagi асосија тушунчалардан foydalaniлади:

talab - бирор-бир анија ўшдаги балалар билishi ва bajara олиши шарт бо‘lgan талаблар мажмui;

indikator - боланing ко‘з билан ко‘rishi va o‘lchashi mumkin bo‘ladigan ко‘nikma va malaқalari ko‘rsatkichi.

Davlat талаблари maktabgacha ta’lim tizimida, shuningdek har bir oilada 7 yoshgacha bo‘lgan bolani tarbiyalash, rivojlantirish, maktabga samarali tayyorlash hamda unga ta’lim berishda qo‘llanilishi majburiydir.

Davlat талаблари асосида:

- боланing bilim, ко‘nikma va malaka mezonlari hamda ularning o‘sish dinamikasi va rivojlanish holatlari аниqlanadi;

- bolalarning rivojlanganligi va yutuqlari baholab boriladi;

- боланing individual rivojlanishi ta’minlanadi;

- kadrlar tayyorlash sifati, ta’lim mazmuniga nisbatan qo‘yiladigan талаблар, maktabgacha ўшдаги bolalarning rivojlanish

darajasi hamda ota-onalarning bola rivojlanishiga oid ko'nikma va malakalari belgilanadi.

Davlat talablari O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi ta'limga muassasalari tomonidan qo'llanilishi shart:

- davlat va nodavlat maktabgacha ta'limga muassasalari;
- maktabgacha ta'limga olayotgan bolalar guruhlari mavjud bo'lgan "Mehribonlik" uylari;
- xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limlarining maktabgacha va boshlang'ich ta'limga nazorat qiluvchi sho'balari;
- kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarining maktabgacha va boshlang'ich ta'limga yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlovchi fakultetlari;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'limga tizimi kadrlarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar.

Davlat talablarining maqsadi:

- maktabgacha ta'limga tizimi faoliyatini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, fan-texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlariga asosan yo'lga qo'yish;
- sifatli ta'limga xizmatlari ko'rsatilishini ta'minlash;
- ta'limga kadrlar tayyorlash sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish;
- sifatli kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish;
- bola shaxsi asoslarini shakllantirish hamda uning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish;
- bolaning intellektual va jismoniy rivojlanishini ta'minlash;
- bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;
- bolalarni maktab ta'limga tayyorlash.

Davlat talablarining vazifalari:

- bolalarga ta'limga va tarbiya berish uchun har tomonloma yondashuvni ta'minlash;
- maktabgacha ta'limga metodikasini tubdan yaxshilash;
- ta'limga tarbiya berishning o'quv dasturlarini yaratish;

- maktabgacha ta’lim muassasalari pedagoglari malakasini oshirish;
- maktabgacha ta’lim monitoringi va tahlilini olib borish;
- ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash;
- bolalarning rivojlanishi va ularni maktab ta’limiga tayyorlashga oid bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlarida ota-onalarga ko‘maklashish;

Maktabgacha ta’lim tizimi sifatini oshirish.

Bolalarga ta’lim-tarbiya berish va rivojlantirish talablari quyidagi prinsiplarga asoslangan holda ishlab chiqiladi:

- jinsi, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi, dini, ijtimoiy ehtiyojlari va madaniy mansubligi, salomatligi va alohida ehtiyojlaridan qat’i nazar, barcha bolalarning ta’lim tizimida teng imkoniyatliligi;
- ta’lim olish jarayonida turli xil o‘yinlardan foydalanish;
- ota-onalar va tarbiyachilarning hamkorligi.

Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish dasturi talablarini bajarish vositalari hisoblanadi:

- mustaqillik;
- ijodkorlik;
- tashabbuskorlik;
- o‘zi va atrofdagilarga nisbatan mas’uliyatni his qilish;
- o‘zaro hurmat;
- tolerant xatti-harakat;
- vatanparvarlik;
- do‘stlik va hamjihatlik;
- jamiyat va davlatga nisbatan hurmat hissi.

Bolaning rivojlanishi va ta’lim olishi quyidagi asosiy yo‘nalishlarga bo‘linadi:

- jismoniy rivojlanish, o‘z-o‘ziga xizmat va gigiyena;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, o‘qish va savodga tayyorgarlik;
- bilish jarayoni va atrof-muhit to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘lish.

I. Jismoniy rivojlanish, o‘z-o‘ziga xizmat va gigiyena yo‘nalishi

Mazkur yo‘nalish o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

– bolalarning jismoniy rivojlanishidagi muammolarini aniqlash va uning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilash;

– doimiy ravishda bolalarning jismoniy rivojlanishini tahlil qilib borish;

– bolalarning jismoniy rivojlanishi bo‘yicha oila bilan hamkorlik qilish;

– sog‘lom turmush tarzining muhimligini tushuntirish va uni ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish. Mazkur yo‘nalishda bolaning rivojlanish jarayonlari quyidagi bosqichlar orqali kechadi:

– yirik motorikani rivojlantirish - bunda bola yurish (tez va sekin), yugurish (tez, sekin va ilon izi bo‘lib), sakrash (uzunlikka va balandlikka), zina bo‘ylab yuqoriga yurish (yurish, yugurish, sakrash) vaqtida o‘zining tana a‘zolarini boshqarishni o‘rganadi;

– mayda motorikani rivojlantirish - bunda bola biron-bir faoliyatni yanada aniqroq bajarish (ushlash, ochish, yopish, qirqish, bo‘lish) uchun o‘z qo‘llari va barmoqlarini ishlatish va ulardan foydalanish malakasiga ega bo‘ladi;

– sensomotorikani rivojlantirish - bunda bola o‘z harakatlarini boshqarish uchun sezgi organlaridan (ko‘rish, eshitish, qo‘l bilan his qilish, hid bilish) foydalananadi;

– madaniy-gigiyenik malakalar - bunda bola o‘z sog‘ligining muhofazasiga ta’sir etuvchi shaxsiy gigiyenik malakalarni egallaydi.

Bola yirik motorikani rivojlantirish bosqichida:

– o‘z tanasini boshqara olishi;

– o‘z tana a‘zolarini boshqara olishi;

– bir yo‘nalishda maqsadli harakatlana olishi lozim.

Bola mayda motorikani rivojlantirish bosqichida:

– qo‘l va barmoq harakatlarini nazorat qila olishi;

– o‘yinchoq va kundalik ehtiyoj predmetlaridan foydalana olishi lozim.

Bola sensomotorikani rivojlantirish bosqichida o‘z xatti-harakatlarini sezish organlari yordamida boshqara olishi lozim.

Bola madaniy-gigiyenik malakalar bosqichida madaniy-gigiyenik malakalarga ega bo'lishi lozim.

II. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish yo'nalishi

Mazkur yo'nalishda bolaning rivojlanish jarayoni quyidagi bosqichlar orqali kechadi:

- ijtimoiy rivojlanish - bunda bola ijtimoiy muhit va atrofidagilar bilan hamkorlik qiladi;
- hissiy rivojlanish - bunda bolada o'zini va o'z hissiyotlarini anglash rivojlanadi.

Ijtimoiy rivojlanish bosqichida bola:

- tanish va notanish kishilarni farqlashi;
- boshqa bolalar va katta yoshdagilar bilan muloqot qilish malakalarini qo'llay olishi lozim.

Hissiy rivojlanish bosqichida bola:

- "men" konsepsiyasini anglashi;
- o'zgalar va o'z hislarini anglashi lozim.

III. Nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik yo'nalishi

Mazkur yo'nalishda rivojlanish jarayoni quyidagi bosqichlar orqali kechadi:

- nutq - bunda bola so'zlashuv tiliga zarur darajada ta'sirlanadi, so'zlarni tushuna boshlaydi va atrofdagilar bilan muloqotga kirishadi;
- o'qish va savodga tayyorgarlik - bunda bolada bosma materiallar, yozuv belgilari va harflarga bo'lgan qiziqish rivojlanadi.

Nutq bosqichida bola:

- nutqni tinglashi va tushuna olishi;
- gapirishi va so'zlasha olishi lozim.

O'qish va savodga tayyorgarlik bosqichida bola:

- bosma materiallar, harflar va belgilarga qiziqish bildiradi;
- yozishga oid ko'nikmalar hosil qiladi.

IV. Bilish jarayoni va atrof muhit to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish yo'nalishi

Mazkur yo'nalishda rivojlanish jarayoni quyidagi bosqichlar orqali kechadi:

– elementar matematik bilim va ko'nikmalar - bunda bolalning matematik jumladan son-sanoq malakalarini rivojlantirish orqali matematik bilimlarini orttirish, mantiqiy fikrlash va muammolarini hal qilish qobiliyatlarini, son-sanoq, miqdor, shakl, kattaliklar va o'lchov birliklaridan foydalanish malakalarini rivojlantirishga erishiladi;

– atrof muhit to'g'risidagi bilimlar - bunda bola kuzatish va amaliyot orqali atrof muhit to'g'risida axborot oladi;

– ijod - bunda bola milliy ma'naviy meros va madaniyatni hurmat qilishga hamda o'z hissiyotlarini musiqa, teatr va tasviriy faoliyat orqali ifodalashga o'rghanadi.

Elementar matematik bilim va ko'nikmalar bosqichida bola:

– son-sanoq va hisoblashga oid bilimlarini namoyon qilishi;
– predmetlarni toifalash, guruqlash va tartib bo'yicha joylashtirish qobiliyatini namoyon qilishi lozim.

Atrof-muhit to'g'risidagi bilimlar bosqichida bola:

– jonli va jonsiz tabiatni kuzatishi va ta'riflay olishi;
– inson tana a'zolarini bilishi lozim.

Ijod bosqichida bola:

– turli tovush va ovozlarni farqlay olishi;
– tovushlarni balandligi va tembriga ko'ra farqlay olishi;
– jamoa bo'lib musiqiy faoliyatlarda ishtirok etishga qiziqish bildirishi;
– cholg'ularda chalish malakalarini namoyon etishi;
– amaliy faoliyatda ishtirok etishga qiziqish bildirishi lozim.

V. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari

2 yoshgacha bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari:

– fikrlash - ko'rgazmali-harakatli tafakkur;
– nutq - nutqni tushunish va uzuq-yuluq ovozlar;
– ixtiyoriy bilish jarayoni - ixtiyorsiz diqqat va xotira;
– fiziologik sezgirlik - katta yoshdagilarning ta'siriga nisbatan yuqori sezgirlik;

- bilish obyektlari - atrofidagi predmetlar va o‘zidan katta yoshdagilar;
- bilish usullari - sezish (ko‘rish, eshitish, ta’m bilish);
- muvaffaqiyatli o‘zlashtirish shartlari - bolaga nisbatan mehribon bo‘lish va muloqot qilish;
- muloqot yuritish shakli - bevosita hissiy muloqot;
- tengdoshlari bilan munosabatlар - qiziqish mavjud emas;
- katta yoshdagilar bilan munosabatlар - fiziologik va himoyalanish ehtiyojlarini qondirish manbai;
- nizolar mavjudligi - tengdoshlari bilan;
- his-hayajonlar - ekspressiv imo-ishoralar orqali;
- o‘yin faoliyati - turli predmetlarni o‘ynaydi.

2 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarning psixologik xususiyatlari:

- fikrlash - ko‘rgazmali-harakatli tafakkur;
- nutq - so‘z birikmalari va fe’llarni tushunadi;
- ixtiyoriy bilish jarayoni - ixtiyorsiz diqqat va xotira;
- fiziologik sezgirlik - noqulaylikka nisbatan yuqori sezgirlik;
- bilish obyektlari - turli predmetlar va ularning ichki tuzilishi;
- bilish usullari - predmetlardan turli maqsadlarda foydalananish, ularni qismlarga ajratish va yig‘ish;
- muvaffaqiyatli o‘zlashtirish shartlari - rivojlantiruvchi muhitning turli-tumanligi bolaga nisbatan mehribon bo‘lish va muloqot qilish;
- muloqot yuritish shakli - vaziyatli shaxsiy muloqot;
- tengdoshlari bilan munosabatlар - qiziqish kam;
- katta yoshdagilar bilan munosabatlар - himoyalanish, erkalanish va yordam berish manbai;
- nizolar mavjudligi - katta yoshdagilar bilan ("men - o‘zim" tamoyili);
- his-hayajonlar - kuchli his-tuyg‘uli, keskin o‘zgarishlar;
- o‘yin faoliyati - turli predmetlarni o‘ynaydi, shuningdek tengdoshlari bilan o‘ynaydi.

3 yoshdan 4 yoshgacha bo‘lgan bolalarning psixologik xususiyatlari:

- fikrlash - ko'rgazmali-obrazli tafakkur;
 - nutq - ravon nutq shakllanadi va sifatlarni tushuna boshlaydi;
 - ixtiyoriy bilish jarayoni - ixtiyorsiz diqqat va xotira;
 - fiziologik sezgirlik - noqulaylikka nisbatan yuqori sezgirlik;
 - bilish obyektlari - predmetlar, ularning xususiyatlari va vazifalari;
- bilish usullari - tajriba qilish va konstruksiya yaratish;
- muvaffaqiyatli o'zlashtirish shartlari - rivojlantiruvchi muhit va katta yoshdagilar bilan hamkorlik munosabatlari;
- muloqot yuritish shakli - vaziyatli amaliy;
 - tengdoshlari bilan munosabatlar - qiziqish kam;
 - katta yoshdagilar bilan munosabatlar - faoliyat usullarini tanlashga yordam berish manbai hamda o'yin va ijod bo'yicha sherik;
 - nizolar mavjudligi - katta yoshdagilar bilan ("men - o'zim" tamoyili);
 - his-hayajonlar - kuchli his-tuyg'uli, keskin o'zgarishlar;
 - o'yin faoliyati - katta yoshdagilar bilan sherik bo'lib, o'yinchoqlarni esa, mustaqil o'ynaydi.

4 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarining psixologik xususiyatlari:

- fikrlash - ko'rgazmali-obrazli tafakkur;
- nutq - faol nutq shakllanishi yakunlanadi, fikrlarni bayon etish;
- ixtiyoriy bilish jarayoni - ixtiyorsiz diqqat va xotira, shuningdek o'yin vaqtida ixtiyoriy ravishda eslab qolish rivojlanadi;
- fiziologik sezgirlik - noqulaylikka nisbatan sezgirlik kamayadi;
- bilish obyektlari - bevosita idrok etilmaydigan predmetlar va hodisalar;
- bilish usullari - katta yoshdagilarning hikoyalari va tajriba qilish;
- muvaffaqiyatli o'zlashtirish shartlari - shaxsiy dunyoqarash;
- muloqot yuritish shakli - vaziyatdan tashqari muloqot;

- tengdoshlari bilan munosabatlar - voqeaga boy bo'lgan o'yinlarda sherik sifatida qiziqarli kechadi;
- katta yoshdagilar bilan munosabatlar - axborot olish manbai;
- nizolar mavjudligi - mavjud emas;
- his-hayajonlar - yanada ravon va o'zini nazorat qilishga urinadi;
- o'yin faoliyati - tengdoshlari bilan jamoaviy va rolga kirishgan holda o'ynaydi, o'yinli vaziyatlarni ijro qiladi.

5 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari:

- fikrlash - ko'rgazmali-obrazli tafakkur, tasvirli-sxemali jarayon shakllana boshlaydi;
- nutq - nutqni rejalashtirish malakasi shakllanadi;
- ixtiyoriy bilish jarayoni - maqsadga yo'naltirilgan eslab qolish qobiliyati rivojlanadi;
- fiziologik sezgirlik - noqulaylikka nisbatan sezgirlik kamayadi;
- bilish obyektlari - bevosita idrok etilmaydigan predmetlar va hodisalar, axloqiy normalar;
- bilish usullari - katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan muloqot qilish, mustaqil faoliyat, tajriba qilish;
- muvaffaqiyatli o'zlashtirish shartlari - shaxsiy dunyo-qarash;
- muloqot yuritish shakli - vaziyatdan tashqari muloqot va uddaburonlik;
- tengdoshlari bilan munosabatlar - o'yinlarda sherik sifatida unga qiziqish chuqurlashadi hamda muloqot yuritishda moyillik sezadi;
- katta yoshdagilar bilan munosabatlar - axborot olish manbai va suhbатdosh;
- nizolar mavjudligi - mavjud emas;
- his-hayajonlar - mo'tadil darajadagi his-tuyg'u, yuqori kayfiyat ustun turishi;

– o‘yin faoliyati – o‘yin haqida fikrlari shakllanadi, shuningdek davomli o‘yinlar, birlashmalar shakllanadi.

6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning psixologik xususiyatlari:

– fikrlash - mantiqiy tafakkur ko‘rgazmali-obrazli jarayon asosida rivojlanadi;

– nutq - ichki nutqning rivojlanishi;

– ixtiyoriy bilish jarayoni - o‘zlashtirish jarayonida ixtiyoriy ravishda o‘z fikrini jamlashga kirishadi;

– fiziologik sezgirlik - individual ravishda, aksariyat hollarda past darajada;

– bilish obyektlari - predmetlar va hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibatli bog‘liqlik;

– bilish usullari - mustaqil faoliyat, bilish uchun katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan muloqot qilish;

– muvaffaqiyatli o‘zlashtirish shartlari - shaxsiy dunyo-qarash, har bir ishda o‘z fikrini bildirish;

– muloqot yuritish shakli - vaziyatdan tashqari shaxsiy muloqot;

– tengdoshlari bilan munosabatlar - suhbatdosh va faoliyat bo‘yicha sherik;

– katta yoshdagilar bilan munosabatlar - hissiy ko‘mak manbai;

– nizolar mavjudligi - 7 yoshga kelib tanazzulga uchrash, ijtimoiy rolning o‘zgarishi;

– his-hayajonlar - yuqori darajadagi his-tuyg‘ularga ega bo‘lish;

– o‘yin faoliyati - zimmasiga olgan rolga muvofiқ o‘zini tutish shakllanadi, shuningdek birgalashib o‘ynaydi. Davlat talablari asosida namunaviy mashg‘ulot rejalari tasdiqlanadi. Dastur maktabgacha ta’lim muassasalari pedagoglari, ota-onalar, bolalar tarbiyasi bilan qiziquvchi barcha mutaxassis va metodistlarga mo‘ljallangan.

3. Umumiy o'rta ta'lim

O'rta ta'limning muddati 11 yil bo'lib, O'zbekiston Respublikasida ta'limning majburiy turi hisoblanadi. 11 yillik majburiy o'rta ta'lim "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi", "Bola huquqlari Konvensiyasi", O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, va YUNESKOning uzlusiz ta'limga doir tavsiyalariga muvofiq tarzda amalga oshiriladi.

11 yillik majburiy o'rta ta'lim tizimi oldiga qo'yiladigan ijtimoiy buyurtma va talablardan kelib chiqqan holda, 11 yillik majburiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi meyoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi va muntazam takomillashtiriladi.

11 yillik majburiy o'rta ta'limning asosiy maqsadi – shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, muntazam rivojlanuvchi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda o'zining ijodiy quvvatlarini namoyon qila oladigan yoshlarni shakllantirish, o'zining shaxsiy hayotiy manfaatlari kabi jamiyat manfaatlari yo'lida ham xizmat qila oladigan, chunonchi, o'zbek xalqining an'analarini davom ettiradigan, fan, madaniyat, texnika hamda texnologiyalarni rivojlanira oladigan, avlodlarning tarixiy uzviyligini mustahkamlaydigan yoshlarni tarbiyalab yetishtirishdan iborat.

11 yillik majburiy o'rta ta'lim maktablarining mavjud ijtimoiy sharoitdagи vazifalari:

a) o'quvchilarning jismoniy salomatligini muhofaza qiladigan, ma'naviy jihatdan boy, yuksak axloqiy, bilimli, o'zi va boshqa xalqlarning an'analarini va madaniyatini hurmat qiladigan shaxslarni tarbiyalaydigan maktab hayotining yangi sohasini shakllantirish;

b) o'quvchilarda fuqarolik, fidoyilik, inson erki va huquqlarini hurmat qilish, o'zi va jamiyat oldida mas'uliyatni his qilish ko'nimalarini tarbiyalash;

d) o'quvchilarda yaxlit tarzdagi ilmiy dunyoqarash, ekologik madaniyatni shakllantirish;

e) o'quvchilar va o'qituvchilarning ochiq axborot maydonlariga chiqishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratish;

f) o'quvchilarning bilish qiziqishlari, ijodiy layoqatlari, umum-o'quv ko'nikmalari, mustaqil bilim olish malakalari, o'zlarini namoyon qilish imkonini beradigan faoliyat tajribalarini har tomonlama rivojlantirishdan iborat.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalgga oshirish uchun:

a) o'quvchilarning to'laqonli rivojlanishlari uchun qulay pedagogik, psixologik shart-sharoitlarni yaratish;

b) fan, madaniyat, iqtisodiyot, texnika, texnologiyalarning taraqqiyoti bilan bog'liq holda 11 yillik majburiy o'rta ta'limgazmuni muntazam yangilash;

d) ta'limgazning madaniyat bilan yo'g'rilganligiga muntazam tarzda e'tibor qaratish asosida uning shaxs ma'naviy olamining shakllanishini ta'minlash;

e) o'quvchilarning ijtimoiy o'zgarishlarga moslashishlariga erishish, natijada o'quvchilarda barqaror mayllar shakllanib, shaxsnинг shaxsiy muvaffaqiyatlari bilan bir qatorda ijtimoiy taraqqiyotni ham ta'minlanadi;

f) o'quvchilarda ilmiy bilimlar tizimini shakllantirish, ularni amaliy faoliyatning turli ko'rinishlarida qo'llay olish ko'nikmalari ni hosil qilish;

g) 11 yillik majburiy o'rta ta'limgazining uzviyligini rivojlantirish, uning darajalari va bosqichlari orasidagi uzviylikni ta'minlash;

h) o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

i) o'quv dasturlarining ko'p variantliligidagi erishish orqali ta'limgazni tabaqalashtirish va individuallashtirish;

j) o'quvchilarning salomatligi va hayotini muhofaza qilish;

k) o'quv jarayonini axborotlashtirish va kompyuterlashtirish, axborot va telekommunikatsiyalarning yangi vositalarini o'zlashtirish;

e) masofadan turib o'qitish tizimini rivojlantirish;

m) iqtidorli o'quvchi-yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish;

n) imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlash tarmoqlari va ta'lif muassasalari faoliyatini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, pedagogik-psixologik korreksiyalash bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish talab qilinadi.

11 yillik majburiy o'rta ta'lif maktablarining tarkibi

11 yillik majburiy o'rta ta'lif maktablari tarkibining asosini o'quvchilarning rivojlanish darajalarini davrlashtirish tashkil qiladi. Bunda o'quvchilarning turli yosh davrlariga xos bo'lgan jihatlariga tayaniladi.

Ilk darajadagi tayyorlov guruhlari bolalarni ruhiy pedagogik jihatdan maktabdagi o'quv jarayoniga tayyorlaydi. Ularda dastlabki o'qish, hisoblash, o'z fikrini bayon qilish, o'quvchilarning jamoada o'zini tutish ko'nikmalari hosil qilinadi.

11 yillik majburiy o'rta ta'lifning birinchi bosqichi boshlang'ich ta'lif hisoblanib, u I-IV sinflarni qamrab oladi. Bu bosqichga, asosan 7 yoshdan, jadal rivojlangan bolalar esa 6 yoshdan jalb qilinadi. Mazkur davrda o'quvchilarda jadal rivojlanish jarayoni kechadi. Ularda o'quv faoliyati usullari, bilimlarni mustaqil egallash layoqatlari va bilish vazifalarini bajarishda mazkur bilimlarni qo'llash ko'nikmalari shakllantiriladi. Natijada, ularda muloqot ko'nikmalari rivojlanadi. Boshlang'ich ta'lif jarayonida o'quvchilarda o'quvchi shaxsining shakllanishi, layoqatlarining yaxlit tarzda rivojlanishi, o'qishga bo'lgan ishtiyoq, moyillik amalga oshadi. O'quvchilar o'qish, yozish, hisoblash, o'zlarini ijodiy jihatdan namoyon qilish, nutq madaniyati, xulq-atvor meyorlari, gigiyenik talablarga rioya qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

Boshlang'ich ta'lif (I-IV sinflar) jarayonida o'quvchilarni rivojlantiruvchi, shaxsga yo'naltirilgan, kompetentsiyaviy yonda-shuvga asoslangan ta'lif-tarbiya tizimi amal qiladi. Maktabga ilk qadam qo'ygan bolalar o'z yosh xususiyatlari hamda tafakkur va ruhiy taraqqiyot darajalariga muvofiq keladigan ta'limiy faoliyatga kirishadilar. Bu davrda o'qish, o'rganishga asoslangan faoliyat yetakchi mavqega ega bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish hamda o'rganishga qaratilgan faoliyatning shakllanishi, har bir o'quv fani bo'yicha bilimlarni egallash jarayonida ularning ongi, tafakkuri jadal tarzda rivojlanadi. Bu ong va tafakkur o'z xarakteriga

ko'ra nazariy hamda ilmiy tushunchalarni o'zlashtirish natijasida vujudga kelgan ong va tafakkur bo'lib, bolaning jadal tarzda taraqqiy etishi, dunyoqarashining rivojlanishini ta'minlaydi.

11 yillik majburiy o'rta ta'limning ikkinchi bosqichi tayanch umumiyligi o'rta ta'lim bo'lib, V-IX sinflarni qamrab oladi. Ta'limning davomiyligi 5 yilni tashkil qiladi. Bu bosqich o'quvchilarining o'smirlik davriga to'g'ri kelib, ularning jadal rivojlanishi, axloqiy meyorlarni egallashi amalga oshadi. O'smir yoshdagi o'quvchilar o'z oldilariga shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlar qo'yadilar, ularda kasbiy mo'ljallar hosil bo'ladi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarini kasbiy faoliyatning turli turlariga yo'naltiradi. Shu bilan bir qatorda ularda o'zlik, o'zlikni anglash hissi tarkib topa boshlaydi. Mazkur tuyg'u ularga o'z mavqelarini aniqlash imkonini beradi. Bu bosqichda V-IX sinf o'quvchilarida tabiat, jamiyat, insonga oid bilimlarni o'zlashtirish, amaliy, bilish hamda ma'naviy faoliyat tajribasini shakllantirish uchun sharoit yaratiladi.

Bu davrda o'quvchilarini ijtimoiylashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ularda huquqiy bilimdonlik va mas'uliyat hissi tarkib toptiriladi. Shuningdek, o'quv faoliyati shakllarining o'zlashtirilishi bilan bir qatorda o'z faoliyatlarini tashkil qilish mexanizmlari, nazariy fikrlash usullari, ilmiy bilish metodlari, kasbiy bilish hamda kasbiy mo'ljallar, faoliyatning turli turlariga nisbatan dastlabki yo'nalishlar hosil bo'ladi. Bu bosqichda ta'lim mazmunini nisbatan yakunlangan o'quv bloklari tashkil etadi. Mazkur o'quv bloklari X-XI sinflarda ta'limni davom ettirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu bosqichda o'quvchilarini ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlash va muayyan sohani tanlashlari uchun sharoit yaratiladi. Bu esa ularning ijtimoiy jihatdan o'z mavqelarini aniqlashlari va mustaqil bilim olishlarini ta'minlaydi. O'quvchilarining shaxsiy imkoniyatlari va mayllarini hisobga olgan holda ta'lim muassasasi sohalar bo'yicha ixtisoslashgan ta'limni joriy etishi mumkin. 15-16 yoshli o'quvchilar o'z xohish-istiklariga ko'ra ixtisoslashgan sinflarda o'qishni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

V-IX sinflardagi ta'lim jarayonida o'quvchilarda bilimlarning izchil tizimi, ilmiy axborotlarni taqdim etish orqali ularda ilmiy, falsafiy, huquqiy, siyosiy dunyoqarash, mustaqil hamda tanqidiy

fikrlash, tahliliy faoliyat tajribasi, kasbiy tafakkur, kasbiy tanlov ko'nikmalari va eng zarur hayotiy kompetensiyalar hosil qilinadi.

11 yillik majburiy o'rta ta'larning uchinchi bosqichi X-XI sinflarni o'z ichiga oladi va to'laqonli majburiy o'rta ta'limdi ifodalaydi. Bu bosqichda ta'larning davomiyligi 2 yil. Ushbu davrda 16-18 yoshli o'quvchilarda tabiat, jamiyat, inson, madaniyat, fan va texnologiyalarga oid bilimlarni o'zlashtirish natijasida to'liq dunyoqarash shakllanadi. O'quvchilar o'z kelajaklarini loyihalash-tirish, o'z maqsadlariga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu davrda o'quvchilarda ijtimoiy hayotda o'zlarini namoyon qilish ehtiyoji paydo bo'ladi. Ular o'z o'quv faoliyatlarini aniq baholash, istiqboldagi o'quv hamda kasbiy faoliyatlarini belgilab olish layoqatiga ega bo'ladilar.

Ushbu bosqichda ta'lim mazmuni sohalar bo'yicha tabaqalash-tirilgan yondashuv asosida tanlanadi va kompetensiyaviy yondashuvga tayanadi. Sohalar bo'yicha tabaqalashtirilgan ta'lim fanlar chuqurlashtirilib o'qitiladigan ixtisoslashgan sinflar shaklida amalga oshiriladi.

Fan sohalari bo'yicha ixtisoslashgan sinflar o'quvchilarning bilish qiziqishlari va layoqatlarini hisobga olgan holda tanlanadi. Jumladan, tabiiy fanlarga ixtisoslashgan sinflar, iqtisodga ixtisoslashgan sinflar, ijtimoiy-gumanitar fanlarga ixtisoslashgan sinflar kabi.

X-XI sinflarda amalga oshiriladigan fanlar bo'yicha ixtisos-lashtirilgan ta'lim mazmuni kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standartlari va variativ dasturlarda o'z ifoda-sini topadi.

11 yillik majburiy o'rta ta'larning pedagogik funksiyalari mavjud umumiy o'rta ta'lim tizimidan yakunlanganligi, variativlikka asoslanishi, darajali hamda sohaviy jihatdan tabaqalash-tirilganligi, muayyan mikrosotsium hududida amalga oshirilishi, o'quvchi shaxsining imkoniyatlariga yo'naltirilganligi, ota-onalar xohish-istaginining hisobga olinganligi, o'quvchilarni uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilganligi, milliy hududiy o'ziga xoslikka tayanilganligi bilan belgilanadi.

11 yillik majburiy o‘rta ta’limning mazmuni va uni tashkil etish mexanizmlari

11 yillik majburiy o‘rta ta’lim mazmunini belgilash va muntazam yangilashning asosiy prinsiplari:

- a) ta’lim mazmunining o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilganligi;
- b) ta’lim mazmunining kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligi;
- d) ta’lim mazmunining insoniylik, insonparvarlik, madaniyatshunoslikka asoslanganligi;
- e) ta’lim mazmunining fundamental xarakterga egaligi;
- f) ta’lim mazmunining o‘quvchi salomatligini saqlash va muhofaza qilishga yo‘naltirilganligi;
- g) ta’lim mazmunining o‘quvchilarda amaliy faoliyat ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltirilganligi;
- h) ta’lim mazmunining darajali integratsiya asosida tanlanishi va muayyan o‘quv bloklari, o‘quv modullaridan tashkil topishi;
- i) ta’lim mazmunida faoliyatli yondashuvga ustuvor o‘rin ajratilganligi;
- k) ta’lim mazmunini optimallashtirishga ustuvor o‘rin ajratilganligi;
- e) ta’lim mazmuniga o‘zbek xalqi ijtimoiy tajribasining singdirilishi;
- m) ta’lim mazmunining tabaqalashtirilishi va sohalar bo‘yicha ixtisoslashtirilishi;
- n) shaxsni rivojlantirishning psixofiziologik va yosh xususiyatlari hisobga olinganligi;
- o) o‘quv jarayonining kutilayotgan natijaga yo‘naltirilganligi;
- p) ta’limning ochiqligidan iborat.

11 yillik majburiy o‘rta ta’lim mazmunida quyidagi ta’lim sohalari: filologiya, matematika, tabiiy-ilmiy bilimlar, inson va jamiyat, texnologiya, jismoniy tarbiya to‘liq amal qiladi. 11 yillik majburiy o‘rta ta’lim mazmuni tayanch o‘quv predmetlari orqali amalgalashirildi: ona tili va adabiyot, rus tili, chet tili, matematika, tarix, davlat va huquq asoslari, iqtisodiy bilim asoslari, tabiyot va geografiya, biologiya, fizika, kimyo, informatika va axborot texnologiyalari, odobnoma, Vatan tuyg‘usi, milliy istiqlol g‘oyasi

va ma'naviyat asoslari, musiqa madaniyati, tasviriy san'at, chizmachilik, texnologiya, jismoniy tarbiya. Xuddi mana shu o'quv predmetlari bo'yicha kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lif standartlari belgilab beriladi.

Davlat ta'lif standartlari talablaridan kelib chiqqan holda ushbu fanlar integratsiyalashtirilishi yoki ularning ayrim komponentlari uyg'unlashtirilishi mumkin.

O'quv predmetlari mazmuni quyidagi yo'naliishlarda o'zgartiriladi:

1. Atrof-muhitdagi o'zgarishlar va tanyach fanlarda vujudga kelgan yangiliklar bilan bog'liq holda o'quv predmetlarining mazmuni yangilanadi va boyitiladi.

2. Jamiyat hayoti uchun muhim bo'lgan, umummadaniy ahamiyat kasb etgan mavzular eski mavzularni chiqarib tashlash hisobiga ta'lif mazmuniga joylashtiriladi.

3. V-IX hamda V-XI sinflar bo'yicha o'quv bloklari va o'quv mavzularini taqsimlash asosida o'quv yuklamasini kamaytirish hisobiga ta'lif mazmuniga o'zgartirishlar kiritiladi. O'quv muddatlarining uzaytirilganligi hamda o'quv materiallarining qayta taqsimlanishi hisobiga o'quv yuklamalarining hajmi kamaytiriladi. O'quv yuklamasining maksimal hajmi O'zbekiston Respublikasi hududida o'matilgan sanitarni-gigiyenik meyorlar doirasida belgilanadi.

Boshlang'ich I-IV sinflarda kunlik o'quv soatlari miqdori – 4, V-IX sinflarda – 6, X-XI sinflarda - 7 soatdan oshmasligi kerak.

11 yillik majburiy o'rta ta'lif tizimida faoliyat ko'rsatadigan pedagog kadrlarga qo'yiladigan talablar

Zamonaviy kasbiy pedagogik faoliyat o'qituvchidan o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik qadriyatlarni o'zlashtirishni talab qilmoqda. O'qituvchilar murakkab ijtimoiy madaniy vaziyatlarda to'g'ri harakat qila olishlari, muhim kasbiy qarorlar qabul qilishlari, nafaqat innovatsion, balki ijodiy jarayonlarda ham faollik ko'rsatishlari lozim.

11 yillik majburiy o'rta ta'limga o'tish jarayonida o'qituvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida bir qator talablar qo'yiladi:

- o'qituvchining ijtimoiy mavqeini oshirish;

- ta'lim jarayonini o'qituvchi shaxsiga yo'naltirish;
- o'qituvchining shaxsiy rivojlanishi va mustaqil bilim olishini ta'minlash;
- o'qituvchining umumiyligi va kasbiy mustaqilligini ta'minlash;
- kasbiy shakllanishning turli bosqichlarini muvofiqlashtirish;
- kasbiy tayyorlarlikdan kasbiy qayta tayyorlashga qadar hamda malaka oshirish tizimi orasidagi o'zaro aloqadorlikning zarurligi kabilar.

O'qituvchilarning kasbiy moyilliklarini rag'batlantirish, ularni safarbarlikka undash, raqbatbardoshligini ta'minlashga erishish zarur. Bu X-XI sinflarda ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash uchun nihoyatda muhim. Shu munosabat bilan oliy pedagogik ta'lim hamda o'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi mazmuni va tarkibiga ham muayyan o'zgartirishlar kiritiladi. X-XI sinflarda ta'lim beradigan o'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun qo'shimcha mutaxassisliklar va kurslar kiritiladi. Shu bilan bir qatorda, ta'lim tizimini boshqarish sohasidagi mutaxassislarini tayyorlash ehtiyoji qondiriladi. Buning uchun o'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi mazmunini ham tubdan yangilash amalga oshiriladi. Mazkur tizim tom ma'nodagi uzluksiz pedagogik ta'limning muhim komponenti sifatida namoyon bo'lishi lozim. Ushbu tizimning rivojlanish tendensiyalaridan biri uning yuqori darajadagi yaxlitlik sari harakatlanishidadir. Shundagina maktab, oliy pedagogik ta'lim muassasalari hamda o'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi orasidagi uzviylik tom ma'noda ta'minlanadi.

11 yillik majburiy o'rta ta'lim tizimiga o'tish pedagog kadrlarni kasbiy tayyorlash va malakasini oshirishni taqozo qiladi.

Mazkur muammoning metodologik yechimlaridan biri kompetensiyaviy yondashuv bo'lib, unga ko'ra kasbiy tayyorlashning maqsadi maktab rahbari, o'qituvchisi va psixologning kasbiy-shaxsiy kompetentliligin shakllantirishdan iborat.

11 yillik majburiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi yuqori darajada shakllangan quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim:

Mutaxassislik kompetensiyasi – yuqori saviyadagi kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish va o‘zining kasbiy rivojlanishini loyihalashtirish qobiliyati;

Ijtimoiy kompetentlik – birgalikdagi (jamoaviy, guruhlardagi) kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish, hamkorlik qilish va boshqa-ruvchilik mavqeiga mansub kasbiy muloqot usullarini qo‘llash qobiliyati;

Ta’limiy kompetentlik – kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga qiziqish, ta’lim faoliyati maqsadini qo‘ya olish, ta’lim faoliyatidagi yaratuvchanlikni rivojlantirishga intilish, pedagogik va ijtimoiy psixologiyaning asoslarini qo‘llay olish qobiliyati.

11 yillik majburiy o‘rta ta’lim maktablarida psixologning o‘quvchilar shakllanishining turli yosh davrlari meyorlariga mos korreksion-rivojlantiruvchi va ma’rifiy ishlarga yo‘naltirilgan faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda psixolog psixotashxis, maslahat berish, tuzatish va ma’rifat tarqatishning barcha zarur uslublarini qo‘llagan holda X-XI sinf o‘quvchilarini ijtimoiylashtirishga yo‘naltirilgan faoliyatni amalga oshiradi.

11 yillik majburiy o‘rta ta’limga o‘tishda ta’limning yangi mazmunini joriy etish sharoitida pedagoglarning tezkor tayyor-garligini amalga oshirish xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish muassasalari faoliyatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Pedagoglarning talab va ehtiyojlarini hisobga olib, tinglovchilar e’tiboriga turli mavzulardagi kurslar taqdim etiladi. Shu jumladan:

- V-IX sinf fan o‘qituvchilari uchun “O‘qituvchining kasbiy-shaxsiy tayyorgarligi”;
- X-XI sinf fan o‘qituvchilari uchun “Kasbiy mahorat”;
- “11 yillik majburiy o‘rta ta’limga o‘tish sharoitida ta’lim siyosatini boshqarish”;
- Respublika ta’lim muassasalari rahbarlari uchun “11 yillik majburiy o‘rta ta’limga o‘tishning ilmiy-uslubiy asoslari”.

11 yillik majburiy o‘rta ta’lim natijalarini baholash tizimi

Natijaga yo‘naltirilgan ta’lim modelida o‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini baholash alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bunda o‘quvchi, o‘qituvchi, maktab va milliy xususiyatga ega bo‘lgan ta’lim tizimi bahosi orasidagi muvofiqlik ta’milnadi.

Maktabda o‘qitish natijalari har bir o‘quvchining o‘quv muva-faqqiyatlari, uning o‘qishga bo‘lgan munosabati va rivojlanish dinamikasini yaxlit tarzda turli yo‘nalishlarda baholash imkonini yaratadi.

Kutilayotgan natijalarga erishilganlikni baholash tizimini takomillashtirish ikki turdag'i baholashni rivojlantirishni nazarda tutadi:

- davlat ta’lim standartida ko‘zda tutilgan natijaga erishishni (tashqi natijalar);

- o‘quvchilarning shaxsiy muvafaqqiyatlarini (ichki natijalar).

O‘qitish sifati yoki o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalar quyidagicha baholanadi:

- umumta’lim tayyorgarligi bosqichlari talablariga muvofiq o‘quvchilarning o‘quv muvafaqqiyatlarini kuzatib borish;

- 11 yillik majburiy o‘rta ta’limning har bir bosqichida joriy nazoratlarni o‘tkazish;

- 11 yillik majburiy o‘rta ta’limning har bir bosqichi yakunida ta’lim sohasi bo‘yicha bosqichli va yakuniy nazoratlarni o‘tkazish;

- IX hamda XI sinflarning yakunida bitiruv imtihonlari;

- O‘zbekiston Respublikasi miqyosidagi monitoring o‘tkazish orqali.

Yagona oraliq nazorat, Davlat imtihonlari, monitoring tadqiqotlari O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining qarori asosida tashkil etiladi va ular kutilayotgan natijani baholash, ta’lim jarayoni sifatini kuzatish, maktabdagi korreksiya va boshqarish, o‘quvchilarning milliy ko‘lamdagi kutilayotgan natijalarining darajasini taqqoslash, ta’lim tizimida paydo bo‘layotgan tendensiyalarni aniqlash uchun o‘tkaziladi.

11 yillik majburiy o‘rta ta’lim tizimini boshqarish

11 yillik majburiy o‘rta ta’lim tizimini samarali boshqarish va sifatini ta’minlash uchun maktab, mahalliy hamjamiyat, ijtimoiy

sheriklar va davlat boshqaruv organlarining vazifalari aniq taqsimlanadi.

Ta'lim sifati, o‘z-o‘zini baholash muntazamligini ta’minlash maktabni boshqarishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Yangi sharoitlardagi ta’lim sifatida o‘quvchilar tomonidan erishilgan turli faoliyat sohalaridagi muammolarni mustaqil hal qilish imkoniyatini ta’minlovchi ta’limiy va shaxsiy natijalar tushuniladi.

11 yillik majburiy o‘rta ta’limdan kutilayotgan natija davlat tomonidan qo‘yilgan ijtimoiy buyurtmaga mos bo‘lishi ta’minlanadi. Ta’lim sifatining muntazam ortishini ta’minlash uchun:

- boshqaruv, rahbarlik, hisobot va tegishli hujatlarni ishlab chiqish tizimini takomillashtirish;

- ta’lim sifati, maktab faoliyatining tashxis va monitoring tizimini rivojlantirish;

- kompetentli yondashuvga asoslangan o‘qitish tizimini keng tatbiq etish;

- turlicha rivojlanish darajasi va alohida ehtiyojga ega bo‘lgan o‘quvchilarning huquqlarini ta’minlash maqsadida ular rivojlanishi uchun zarur ta’lim muhitini yaratish;

- kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim sifatini baholashning yangi tizimini joriy etish choralarini ishlab chiqish taqozo qilinadi.

Ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonining har bir subyektini o‘zini-o‘zi rivojlantirish tizimiga o‘tishiga olib keluvchi ilg‘or texnologiyalarni qo‘llanilishiga erishish nazarda tutiladi.

11 yillik majburiy o‘rta ta’limda tizimida inklyuzivlik

11 yillik majburiy o‘rta ta’limda imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratiladi. Ular:

- o‘quvchilarning alohida ehtiyojlarini qondirish uchun inklyuziv ta’lim muhiti yaratiladi;

- 11 yillik majburiy o‘rta ta’limning barcha bosqichlarida inklyuziv ta’limni amalga oshirishning meyoriy-huquqiy bazasi takomillashtiriladi;

- 11 yillik majburiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun pedagoglarni tayyorlash, malaka oshirish kurslari dasturiga inklyuziv ta’lim muammolari singdiriladi;

- maktab rahbarlari va pedagoglarning malakasini oshirish dasturlariga inklyuziv o'quv muhitida ishlash bilan bog'liq alohida mavzular kiritiladi.

Milliy va xalqaro, shuningdek, jamoat tashkilotlarining tajribalarini hisobga olgan holda 11 yillik majburiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog xodimlari uchun inklyuziv ta'lim bo'yicha ilmiy-uslubiy ishlanmalar ishlab chiqish va imkoniyati cheklangan o'quvchilarining ota-onalarini tavsiyalar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ish olib boradigan pedagoglarni uslubiy qo'llab-quvvatlash uchun xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish muassasalari bazasida zarur sharoitlar yaratiladi.

Akademik litsey o'quvchilarining imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlarini tanlab olgan ta'lim yo'nalishi (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bo'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda o'zlarida fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Akademik litseylar uzlusiz va 11 yillik muddatda amalga oshirilib, asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi.

4. Kasb-hunar ta'limi

Kasb-hunar ta'limi sohasida kadrlar tayyorlash tizimining muhim vazifalari biri bo'lib, iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika va texnologik tendensiyalarini hisobga olib ehtiyoj yuqori bo'lgan va turdosh mutaxassisliklar bo'yicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilgan holda ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan va kamida ikkita xorijiy tilni biladigan malakali kadrlarni tayyorlash; kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni, ish

beruvchi korxonalarining takliflarini hisobga olgan holda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun zarur mutaxassislar tayyorlash;

– yoshlarni har tomonlama barkamol qilib, vatanparvarlik va milliy mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashga, shuningdek, o‘quvchilarda boy ilmiy, madaniy va ma’naviy merosimizga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy va axloqiy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jaryonni yangi pedagogik shakllar va usullar asosida tashkil etish;

– yetakchi mahalliy va xorijiy ta’lim muassasalari bilan har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy innovatsion o‘quv loyihalarini birgalikda amalga oshirish uchun kasb-hunar ta’limi sohasiga yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalgab etish;

– kasb-hunar ta’limi milliy standartlari talablarini xalqaro ta’lim standartlari tasniflagichiga, xalqaro malaka talablariga muvoofiqlashtirish, milliy malaka talablarini bosqichma-bosqich xalqaro analoglarga moslashtirish va e’tirof etilishiga qaratilgan ishlarni tashkil etish;

– kasbga o‘rgatish bilan bir qatorda tarkibiy jihatdan umumiyligi ta’lim olishni birgalikda olib boradigan, shuningdek, nodavlat ta’lim sektorini uzlusiz davlat ta’lim tizimi bilan samarali integratsiyalash, tabaqaqlashtirilgan ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha orttirilgan amaliy tajribani tizimlashtirish va kelgusida amaliyotga joriy etish;

– mamlakat iqtisodiyotini yanada isloh qilish, uni barqaror o‘stirish hamda modernizatsiyalash jarayonlarida samarali ishtiroy etishga qodir bo‘lgan kadrlarni tayyorlash maqsadida o‘quv jarayoniga innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va ishlanmalmalarni faol qo‘llab kasb-hunar ta’limi va ishlab chiqarishning o‘zaro yaqin hamkorligini ta’minalash;

5. Oliy ta’lim

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etilib, mutaxassisliklar yo‘nalishlari bo‘yicha xalq xo‘jaligining turli sohalariga oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi.


Oliy ta'lismuassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalavriat - mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lism olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lism. Bakalavr darajasiga ega bo'lgan shaxs oliy ta'lism tizimi yo'nalishidagi o'zi tanlagan soha bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassis hisoblanadi va davlat klassifikatorida belgilangan lavozimda ishlash huquqiga ega bo'ladi.

Magistratura - aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta'lism muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lism bo'lib, magistraturadagi tahsil yakuniy klassifikatsion davlat attestatsiyasiga muvofiq olib boriladi.

Magistr bakalavr darajasidagi mutaxassisdan farqli ma'lum ixtisoslik bo'yicha ta'lism olgan yuqori malakali mutaxassis hisoblanib, u ilm-fan sohasida, ishlab chiqarishning mas'uliyatli lavozimlarida faoliyat ko'rsatadi. U aspiranturaga kirish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasida quyidagi turdagি oliy ta'lismuassasalari faoliyat ko'rsatadi:



Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta’lim – kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

6. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim

Jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga ehtiyojini ta’minlashga yo‘naltirilgan uzlusiz ta’lim turi;

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim instituti - OTM yoki ITMdA tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik shakllaridagi oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalgalashish tizimi;

Tayanch doktorantura - O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjet mablaglari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o‘rganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish bo‘yicha falsafa fanlari doktori (FD) ilmiy darajasi izlanuvchilar uchun OTM va ITMlarda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklar bo‘yicha oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim shakli;

Doktorantura - O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o‘rganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish bo‘yicha falsafa doktori (FD) ilmiy darajasi izlanuvchilar uchun OTM va ITMlarda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklar bo‘yicha oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim shakli;

Mustaqil izlanuvchilik - ishlab chiqarishdan ajralmagan holda doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o‘rganish va ular tomonidan ilmiy izlanishlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajalari izlanuvchilar uchun OTM va ITMlarda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar bo‘yicha oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim shakli;

Doktorant - OTM yoki ITMga tayanch doktorantura yoki doktoranturaga belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs;

Mustaqil izlanuvchi - OTM yoki ITMga mustaqil izlanuvchilikka belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs;

Izlanuvchi - falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasini tayyorlayotgan shaxs.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutlarida o'qitish qo'yildigan umumiyl talablar va shakllarda amalga oshiriladi:

tayanch doktorantura;

doktorantura;

mustaqil izlanuvchilik.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutlarida o'qish uch yilgacha davom etadi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutini tashkil etish va faoliyat ko'rsatishi uchun OTM va ITMlar doimiy faoliyat ko'rsatidigan muvofiqlashtiruvchi-kollejial organga (ilmiy kengash, kengash, ilmiy-texnikaviy kengash, ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengash va bopsha shakllarda) (keyingi o'rnlarda Kollegial organ deb ataladi) ega bo'lishi lozim.

7. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim tizimi

Mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash va chuqurlashtirish, ularni zamon talablariga javob bera oladigan qilib qayta tayyorlash.

Mutaxassislarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash universitetlarida malaka oshirish institutlarida va professional qayta tayyorlash huquqiga ega bo'lgan o'quv markazlarida amalga oshiridi. Bu muassasa tinglovchilar o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikatga ega bo'ladilar.

Malaka oshirish va qayta tayyorlashdagi ta'limning davlat standartlari.

Standartni joriy etishning zarurligi rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish, malaka oshirish tizimini xalqaro darajaga olib chiqish, o‘quv dasturlari va o‘quv-metodik majmualarni yangi mazmun bilan boyitish, o‘quv jarayonini demokratik va gumanistik tamoyillar asosida takomillashtirish zaruriyatlarini bilan shartlanadi.

Ushbu standart rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimining maqsad hamda vazifalarini hisobga olgan, ta’lim oluvchilarning ehtiyojini qondirish va o‘quv-tarbiya jarayonini demokratlashtirishni ko‘zda tutgan holda yaratilgan.

Mazkur standart rahbar va pedagog shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limning mazmuni, shakllari, metodlari va vositalarini takomillashtirish maqsadini nazarda tutadi.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimidagi ta’limning mazmuni hamda sifatiga qo‘yiladigan talablarni joriy etish quydigilarga yordam beradi:

1. Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi muassasalarining turlari va ulardagi ta’lim shakllarining xilma-xilligi sharoitida ta’limiy makon yaxlitligini ta’minlashga;

2. Ta’lim oluvchilarning o‘zları ustida ishlashga va bilim hamda mahorat saviyalarini oshirishga bo‘lgan motivlarni (o‘quv materiallari tushunarligini oshirish, o‘quv yuklamasini me’yorlashtirish, tinglovchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan natijaviy talablar va baholash mezonlarini anglash) shakllantirishga;

3. Malaka oshirish va qayta tayyorlashdagi ta’limning samadorligini ta’lim oluvchilardagi bilim va kasbiy mahorat saviyasining natijaviy ko‘rsatkichlari orqali baholashga;

4. Tinglovchilardagi boshlang‘ich bilim, ko‘nikma va malaka saviyasidan kelib chiqqan holda ta’limning differensiallashgan va individuallashgan shakllarini joriy etishga.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimidagi ta’limning mazmuni hamda sifatiga qo‘yiladigan o‘quv rejalarini va dasturlarini, shuningdek malaka oshirish ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonini, ta’lim sifatini nazorat qilish va baholash tartibini, ular faoliyatini attestatsiyadan o‘tkazish tartib-qoidalarini tartibga soladigan boshqa hujjatlarni ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri malaka oshirish (ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘qitish):

- malaka oshirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasida (akademiya, institut, markaz, kurslarda) o‘qitish;
- stajirovka shaklida (ta’lim muassasalarida, ta’limni boshqaruv organlarida, horijda) tajriba orttirish;
- mustaqil o‘qib bilim orttirish;
- masofadan malaka oshirish;
- innovatsion menejment, pedagogik yoki axborot texnologiya-larini o‘zlashtirish kurslarida o‘qish.

Bilvosita malaka orttirish (ta’lim dasturlarisiz o‘qitish):

- ilmiy (ilmiy-pedagogik) kengashning qarori bo‘yicha ijodiy ta’til (pedagoglar uchun);
- ochiq o‘quv mashg‘ulotlari (pedagoglar uchun);
- ilmiy, ilmiy-metodik va ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiylar, avgust o‘qishlari va hokazolarda ma’ruzalar bilan qatnashish.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri ya’ni bevosita malaka oshirish belgilangan tartibda tasdiqlangan ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘qitish orqali xodimlarning ta’lim muassasalarida egallab turgan lavozimlariga muvofiq amalga oshiriladi. Malaka oshirish xodimlarni egallab turgan lavozimi bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini chuqurlashtirish va yangilash, zamonaviy ta’limning dolzarb muammlari, ta’limni tashkil etishning yangi tamoyillari, rahbarlikning zamonaviy uslublari va ta’limning yangi texnologiyalari bilan tanishtirishni nazarda tutadi.

Malaka oshirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasida (akademiya, institut, markaz, kurslarda) o‘qitish – buyurtmachilarining yakka tartibdagи topshiriqlari yoki aniq yo‘naltirilgan dasturlari asosida, Davlat talablariga, shuningdek ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan dasturlar bo‘yicha maqsadli kasbiy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish.

Malaka oshirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasida o‘qitish 2+2 yoki 3+1 sxemalari bo‘yicha (tegishli ravishda 50 yoki 75% - yashash joyi bo‘yicha mustaqil ravishda bilim orttirish, 50 yoki 25% - bevosita ta’lim muassasasida) o‘qitish shakllarida ham tashkil etilishi mumkin. O‘qitishning bunday shakllari axborot

uzatishning zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari va pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha maxsus virtual kurslar ya'ni masofaviy ta'limni amalga oshirish imkoniyatlari mavjud bo'lgan taqdirda qo'llaniladi.

Stajirovka shaklida (ta'lim muassasalarida, ta'limni boshqaruv organlarida, xorijda) tajriba orttirish rahbar va mutaxassis kadrlarni ta'lim va uni boshqarish sohasidagi fan-texnika taraqqiyotining eng yangi yutuqlari, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish, rahbarlik salohiyatini oshirish, ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash maqsadida tuzilgan kasbiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirishni nazarda tutadi. Stajirovka xizmat safariga yuborish tarzida amalga oshiriladi. Stajirovka tamom bo'lgandan keyin xodimlarga stajirovka muddati ko'rsatilgan holda ularning stajirovkadan o'tganligi to'g'risida tajriba orttirilgan muassasa rahbarining imzosi va muhri bilan tasdiqlangan ma'lumotnomasi beriladi.

Ta'lim muassasasida (oliy ta'lim muassasasi, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalari, Respublika ta'lim markazi, pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti va hokazolarda) tajriba orttirish rahbar va pedagog kadrlarni boshqaruv va ta'limning zamonaviy yutuqlari, tegishli mutaxassisliklar bo'yicha rivojlanishning ustuvor yo'naliishlari, ta'limiy innovatsiyalarni joriy etishning samarali metodlari bilan tanishtirish maqsadlarini ko'zlaydi. U ta'limning barcha darajalari rahbar va pedagog xodimlari uchun foydalidir.

Ta'limni boshqaruv organlarida tajriba orttirish rahbarlarning amaliy bilimlari, ko'nikma va malakalarini kengaytiradi va chuqurlashtiradi hamda turli darajadagi rahbar kadrlar malakasini oshirishning samarali shakllaridan hisoblanadi.

Ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining xorijda tajriba orttirishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iste'dod" jamg'armasi, xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatimiz ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga ko'maklashish uchun ajratilgan grantlarga muvofiq, shuningdek ta'limni boshqarish organlari bilan ta'lim muassasalarining o'zları o'rtaida tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Mustaqil ravishda bilim olish ta'limning rahbar va pedagog xodimlari tomonidan kasb darajasini oshirishga, kasbiy layoqatini va ilmiy dunyoqarashni kengaytirishga yo'naltirilgan o'zining lavozimi va mutaxassisligi bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarni uzlusiz ravishda mustaqil o'zlashtirishini nazarda tutadi. Mustaqil ravishda bilim olish ta'lim muassasalari (rahbar va pedagog) xodimlari uzlusiz ta'limining ajralmas tarkibiy qismidir, u axborot texnologiyalarining egallanishini rag'batlantiradi. Mustaqil ta'lim, o'matilgan tartibda, malaka oshirishning tegishli o'quv dasturlari bo'yicha amalga oshirilgan bo'lsa, bilimlarning yakuniy nazorati natijalari asosida xodimga mazkur ta'lim muassasasi tomonidan malaka oshirganlik haqida sertifikat beriladi.

Masofadan malaka oshirish ishdan ajralmagan holda amalga oshiriladigan va axborot-kommunikasiya texnologiyalariga asoslangan malaka oshirishning bevosita shakllaridan biri hisoblanadi. Masofadan turib amalga oshiriladigan ta'lim malaka oshirish ta'lim muassasasining tegishli o'quv dasturiga muvofiq amalga oshiriladi, malaka oshirishning mustaqil shakli sifatida yoki malaka oshirish ta'limi boshqa shaklining tarkibiy qismi sifatida amalga oshirilishi mumkin. Masofadan turib amalga oshiriladigan ta'lim kursining davomiyligi kunduzgi o'qishning tegishli kursi akademik soatlarida belgilanadi, bunda kalendar muddatlar akademik muddatlardan ortiq bo'ladi. Yangi bilimlarni o'zlashtirish darajasi masofaviy ta'limni amalga oshirayotgan malaka oshirish ta'lim muassasasi tomonidan nazorat qilinadi hamda masofadan turib amalga oshiriladigan ta'lim muvaffaqiyatli yakunlangan taqdirda belgilangan namunadagi sertifikat beriladi.

Malaka oshirish ta'limi dasturlari asosida tashkil etilgan innovatsion menejment, pedagogik yoki axborot texnologiyalarini o'zlashtirish kurslarida o'qish ham ta'limning rahbar va pedagog xodimlari malakasini oshirishning bevosita shakllariga kiradi. Ushbu kurslar majburiy bo'limgani holda ta'lim xodimlarining kasbiy o'sishiga ko'maklashadi. Mazkur kurslarning o'quv dasturlari malaka oshirish ta'limi o'quv dasturlarining muayyan qismini (fan bloklari yoki modullarini) qamrab olgan va malaka oshirish ta'limi muassasasi tomonidan (yoki u bilan hamkorlikda) o'tkazilgan bo'lsa

kurslarni tamomlagandan keyin berilgan sertifikatlarda ko'rsatilgan o'qish soatlari hajmi navbatdagi malaka oshirish bo'yicha zarur soatlarning jami hajmi kiradi (hisobga olinadi).

Ta'lanning rahbar hamda pedagog kadrlari malakasini orttirish (ta'lim dasturlarisiz o'qitish)ning bilvosita turi ilmiy (ilmiy-pedagogik) kengashning qarori bo'yicha ijodiy ta'tilda bo'lish, ochiq o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish, shuningdek ilmiy, ilmiy-metodik va ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalar, avgust o'qishlari va hokazolarda ma'ruzalar bilan qatnashish ishlarini nazarda tutadi. Malaka oshirishning bilvosita turi xodimlar tomonidan tegishli izlanish va tadqiqotlar olib borish, natijalarni chop etish uchun tayyorlashni taqozo qiladi, ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishda zamonaviy tendensiylar bilan tanishish imkoniyatini yaratish bilan birga ularning kasbiy salohiyati darajasining o'sishiga ko'maklashadi. Malaka oshirish ta'limating bilvosita turi bo'yicha muvafaqqiyatli shug'ullangan shaxslar malaka oshirishning mustaqil yoki masofaviy shakllariga imtiyozli ravishda qabul qilinadilar.

Rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash bo'sh (yoki yangi tayinlangan) lavozimni egallash va mutaxassislikning malaka tasnifiga muvofiq keyinchalik professional faoliyatning yangi turini bajarish maqsadida yangi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga yo'naltiriladi.

Tegishli lavozimga tayinlash uchun zaxiraga olingan yoki mazkur lavozimni egallaganiga 3 yildan oshmagan ta'lanning rahbar va mutaxassis xodimlari qayta tayyorlov kurslariga majburiy tarzda jalg etiladilar. Xodimning lavozimga tayinlangan muddatidan kelib chiqib, qayta tayyorlash kurslarining davomiyligi 2 oydan 4 oygacha etib belgilanishi mumkin. Zaxiradagi va tayinlanganiga bir yildan oshmagan xodimlar uchun qayta tayyorlash kursining davomiyligi 4 oy (576 soat), tayinlanganiga 2 yildan oshmaganlar uchun – 3 oy (432 soat) va 3 yildan oshmaganlar uchun – 2 oyni (288 soatni) tashkil etadi. Bajaradigan vazifalari va lavozim tavsiflaridan kelib chiqib ayrim lavozimlarga qayta tayyorlash kurslarining davomiyligi 4 oydan ortiq etib belgilanishi ham mumkin.

Rahbar va pedagog kadrlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash mazmuni va sifatiga qo'yiladigan umumiy talablar

Malaka oshirish va qayta tayyorlash sifati rahbar va pedagog kadrlar tayyorgarligining zarur va yetarli darajasi, ulardagi bilim va amaliy mahoratning mazkur kadrlarga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiqligi bilan belgilanadi.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'limi mazkur Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan na'munaviy (tayanch) o'quv rejalar va dasturlar asosida tashkil etiladi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslaridagi o'quv jarayoni na'munaviy (tayanch) o'quv rejalar va dasturlar asosida ishlab chiqilgan maqsadli ishchi o'quv rejalarini va ishchi dasturlari asosida amalga oshiriladi. Malaka oshirish kurslaridan o'tishning davriyligi ta'lim muassasalarining rahbar kadrlari uchun 3 yilda kamida bir martani, pedagog kadrlari uchun esa 4 yilda kamida bir martani tashkil qiladi.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablar tegishli ta'lim dasturlari bilan belgilanadi. Quyidagilar malaka oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha *ta'lim dasturlari mazmuniga qo'yiladigan bazaviy talablar* hisoblanadi:

- kasblar va lavozimlarga bo'lgan kasbiy malaka talablariga muvofiqlik;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini bilishga qaratilganlik;
- qayta tayyorlash va malaka oshirishga jamiyat buyurtmasi va shaxs ehtiyojining uyg'unligi;
- ta'lim turlari va bosqichlari bo'yicha davlat talablari (davlat ta'lim standartlari)ning uzviyligi va uzlusizligini ta'minlashga qaratilganlik;
- tinglovchilarning kasbiy bilimlarini yangilash va chuqurlashtirishga qaratilganlik;
- yangi, qo'shimcha kasbiy malaka va ko'nikmalarni hosil qilish va takomillashtirishga qaratilganlik;
- ta'lim-tarbiyaning samarali usullari, texnologiyalarini egallash, takomillashtirishga qaratilganlik;
- zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana olishni nazarda tutish;

– davlat talabHLari hajm va mazmunining qayta tayyorlash va malaka oshirish muddatlariga muvofiqligi.

Malaka oshirish (qayta tayyorlash) bo'yicha ta'lim dasturlari tegishli bazaviy maqsadlar va malakaviy (bitiruv) ishlar mazmuni bilan tugallanadi.

O'quv yuklamasining hajmi

Rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish to'g'ridan-to'g'ri shakllarining umumiyl davom etish muddati, asosiy ishdan ajralgan holda o'qitishda, kamida 144 soat etib belgilanadi.

Malaka oshirishning bevosita shakllarining davriyiligi rahbar va pedagog kadrlar uchun 3 yilda kamida bir marta etib belgilanadi.

Kursning maqsadi va vazifalari, shuningdek tinglovchilarning malaka saviyalaridan kelib chiqib, qayta tayyorlash kurslarining davomiyligi 2 oy (288 soat)dan 4 oy(576 soat)gacha etib belgilanishi mumkin. Bajaradigan vazifalari va lavozim tavsiflaridan kelib chiqib ayrim lavozimlarga qayta tayyorlash kurslarining davomiyligi 4 oydan ortiq etib belgilanishi ham mumkin. Malaka oshirish va qayta tayyorlashning to'g'ridan-to'g'ri shakllari uchun o'quv yuklamasining eng ko'p hajmi haftasiga 36 (54 akademik) soatni, auditoriya mashg'ulotlarining eng ko'p hajmi har haftada 24 (36 akademik) soatni tashkil qiladi.

Rahbar va pedagog kadrlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash ta'limi mazmuni hamda sisatiga qo'yiladigan talablar majmuasi ta'lim oluvchilar (tinglovchilar) tayyorgarligining yetarli, minimal zarur saviyasini belgilab beradi. Uning mazmuni ta'lim tizimiga "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi", jamiyat va davlatning davr talabiga mos taraqqiyoti shakllantirayotgan ijtimoiy buyurtmasi bilan belgilanadi va malaka oshirish tizimiga kiruvchi ta'lim muassasalarini tomonidan kafolatlanadi.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimiga kiruvchi ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya ishlari malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'limining namunaviy (tayanch) o'quv rejalarini va dasturlari asosida amalga oshiriladi. Mazkur talablar o'quv fanlari (modullari) ro'yxatini, malaka oshirish va qayta tayyorlash

ta'limining minimal mazmunini, na'munaviy (tayanch) o'quv rejasi vositasida o'qish davri davomiyligini belgilab beradi.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'limining namunaviy (tayanch) o'quv rejalar

Malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'limining tayanch o'quv rejalar Davlat standartlarining tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sohalarini me'yorlashga hamda tegishli ta'lim muassasalarining moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'ladigan Davlat hujjatidir. Tayanch o'quv rejasi ta'lim sohalari (o'quv fanlari) bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini tinglovchilarga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimum hajmdagi miqdorini ifodalaydi. U har bir malaka oshirish yoki qayta tayyorlash kursida muayyan soha yo'nalishi bo'yicha Davlat standartlariga muvofiq beriladigan ta'lim mazmunini belgilaydi.

Tayanch o'quv rejasi O'zbekiston Respublikasi hududida malaka oshirish va qayta tayyorlash sohasidagi umumiyligini ta'minlaydi, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'limi muassasalarini tinglovchilari tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarning Davlat standartida belgilab berilgan minimum miqdorini egallashlarini kafolatlaydi. Masalan xalq ta'limi tizimi misolida:

Malaka oshirish ta'limining tayanch o'quv rejasi quyidagi har biri bir nechta o'quv fanlarini o'zida mujassamlashtirgan o'quv bloklaridan tashkil topgan:

1. Ijtimoiy fanlar.
2. Umumkasbiy fanlar.
3. Mutaxassislik fanlari.
4. Institut ixtiyoridagi soatlar (dolzarb mavzular).

№	Ta'lim sohasi (o'quv bloki) nomi	O'quv blokiga ajratilgan vaqt	
		Rahbar xo-dimlar MO kurslari uchun	Pedagog kadr-lari MO kurslari uchun
1	Ijtimoiy fanlar	28	26
2	Umumkasbiy fanlar	30	28
3	Mutaxassislik fanlari	78	82
4	Institut ixtiyoridagi soatlar	8	8
	Jami	144	144

Tayanch o'quv rejasiga kiritilgan ta'lim sohalari (o'quv bloklari) tarkibiga kiruvchi o'quv fanlari (modullari) Davlat standartlari asosida tuzilgan dasturlarga binoan o'qitiladi. Ta'lim tizimi xodimlari tarkibini va ularning malakalarini oshirishning xususiyatlarini hisobga olgan holda tayanch o'quv rejasida ta'lim sohalariga (o'quv bloklari) turli toifadagi kurslar uchun mos hajmda o'quv soatlari ajratilgan.

Qayta tayyorlash ta'limining tayanch o'quv rejası quyidagi har biri bir nechta o'quv fanlarini o'zida mujassamlashtirgan o'quv bloklaridan tashkil topgan:

1. Ijtimoiy fanlar.
2. Umumkasbiy fanlar.
3. Mutaxassislik fanlari.
4. Ixtisoslik fanlari.
5. Malakaviy amaliyot va bitiruv ishi.
6. Davlat attestatsiyasi

Tayanch o'quv rejasiga kiritilgan ta'lim sohalari (o'quv bloklari) tarkibiga kiruvchi o'quv fanlari (modullari) Davlat talablari asosida tuzilgan dasturlarga binoan o'qitiladi.

Ta'lim tizimi xodimlari tarkibini va ularning malakalarini oshirishning xususiyatlarini hisobga olgan holda tayanch o'quv rejasida ta'lim sohalariga (o'quv bloklari) turli toifadagi qayta tayyorlash kurslari uchun mos hajmda o'quv soatlari ajratilgan. Masalan:

№	Ta'lim sohasi (o'quv bloki) nomi	O'quv blokiga ajratilgan vaqt		
		4 oylik kurslarda	3 oylik kurslarda	2 oylik kurslarda
1	Ijtimoiy fanlar	54	40	28
2	Umumkasbiy fanlar	132	100	66
3	Mutaxassislik fanlari	192	144	96
4	Ixtisoslik fanlari	54	40	28
5	Malakaviy amaliyot va bitiruv ishi	114	84	54
6	Davlat attestatsiyasi	30	24	16
Jami		576	432	288

Tegishli lavozimga tayinlash uchun zaxiraga olingan yoki mazkur lavozimni egallaganiga 3 yildan oshmagan ta'limning

rahbar va mutaxassis xodimlari qayta tayyorlov kurslariga majburiy tarzda jalg' etiladilar. Xodimning lavozimga tayinlangan muddatidan kelib chiqib, qayta tayyorlash kurslarining davomiyligi 2 oydan 4 oygacha etib belgilanishi mumkin. Zaxiradagi va tayinlanganiga bir yildan oshmagan xodimlar uchun qayta tayyorlash kursining davomiyligi 4 oy (576 soat), tayinlanganiga 2 yildan oshmaganlar uchun – 3 oy (432 soat) va 3 yildan oshmaganlar uchun – 2 oyni (288 soatni) tashkil etadi.

8. Maktabdan tashqari ta'lif

Maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lif muassasalarida davlat organlari, jamoat tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yilib, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqt va dam olishini tashkil etish maqsadida olib boriladi.

Fan – yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi bo'lib, “kadrlar tayyorlash milliy tizimida tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlardan foydalanishni, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tarkibini shakllantirishni, ulardan ta'lif tizimida unumli foydalanishni, shuningdek, kadrlar tayyorlash jarayonining ilmiy tadqiqotlar infrastrukturasini yaratish, ta'lifning axborot tarmoqlarida foydalanish uchun bilimning turli sohalari bo'yicha axborot bazasini shakllantirishni hamda ilmiy tadqiqotlar darajasiga yangicha qarashlar zamirida yosh olimlarning, ilmiy-pedagogik xodimlarning ijtimoiy mavqeい va obro'sini oshirishni va shu kabilarni qamrab oladi”¹. Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri sifatida fan, yana shuningdek, “ta'lif mazmunini tubdan yangilashda: ta'lif standartlari, ta'lif dasturlari, o'quv darsliklari va qo'llanmalar

¹ Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar Sh.Qurbanov, H.Saidov, R.Ahliddinov. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni Bosh tahririyyati, 1999. 172-bet.

tayyorlashda, ilmiy-metodik ta'minotni amalga oshirishda bevosita va bilvosita ishtirok etadi”¹.

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojni shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnika jihatdan ta’minalash jarayonining qatnashchisi.

“Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo‘nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta’limning zamonaviy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi.

Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi”².

Ishlab chiqarishda muassis, homiy va boshqa sifatlarda alohida mutaxassislarni tayyorlashni, guruhlarni va o‘quv yurtlarini moliyalash jarayonida ishtirok etib, mutaxassislarning kasbiy rivojlanishi va shaxsiy faolligini rag‘batlantiradi, ularni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab - quvvatlashda bevosita ishtirok etadi». Avvallari ishlab chiqarish tayyor kadrlar kuchi va salohiyatidan foydalanuvchi iste’molchi sifatidagina faoliyat olib borgan bo‘lsa, bugungi kunda ushbu faoliyatning mazmuni tubdan o‘zgardi. Endilikda ishlab chiqarish kadrlarni tayyorlash sifati va saviyasiga nisbatan o‘z talablarini qo‘ya oladi. Shu bilan birga sifatli hamda yuksak saviyali mutaxassisni tayyorlab yetishtirish yo‘lida uzuksiz ta’lim hamda fan tarmoqlarining moliyaviy, moddiy-texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Shu asosida kadrlar tayyorlash tizimining faol ishtirokchisiga aylandi.

Milliy model Konsepsiyasining mazmuni o‘zbek xalqining milliy turmush tarzi va ma’naviy-axloqiy an’analari bilan ham-nafasdir. Zero, xalq orasida qadimdan «ma’rifatli inson» tushunchasi qo‘llanilib kelingan bo‘lib, u o‘zida keng ma’noni ifoda etadi. Bilim olishga intilish, ma’rifatli bo‘lish o‘zbek xalqi,

¹ O’sha asar, 171-bet.

² Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //Oliy ta’lim: me’yoriy hujjatlar to’plami. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyyati. 2001. 42-bet.

ifoda etadi. Bilim olishga intilish, ma'rifatli bo'lish o'zbek xalqi, millatining ruhiyatida ustuvor o'rin tutuvchi omil sanaladi. Ma'rifatlilik – faqatgina bilim va malakaga ega bo'lish emas, ayni vaqtida chuqur ma'naviy axloq hamdir. Bilimli, komil inson qiyofasida ana shunday xislatlarga ega shaxslar namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham kadrlar tayyorlash milliy modelining butun mohiyati o'zbek xalqining milliy tarixi va hayot tarzi bilan bog'lanib ketgan.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Kadrlar tayyorlash milliy modeli deganda nimani tushunasiz?
2. Hozirgi davrda o'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rni haqida gapiring.
3. O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati nimalardan iborat.
4. Uzluksiz ta'lim turlari haqida gapiring.
5. Oliy ta'lim muassasalarining turlariga nimalar kiradi?
6. Ta'lim tizimi haqida umumiy ma'lumot bering.
7. Maktabgacha yoshdag'i bolalarning xususiyatlarini izohlang.
8. Umum o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi haqida fikringiz?
9. Oliy ta'lim tizimi va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim haqida gapiring.
10. Ta'lim muassasalari o'quv rejasi va dasturlari haqida gapiring.
11. Malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'limi haqida umumiy ma'lumot bering?

II BO‘LIM.

III BOB. DIDAKTIKA- TA’LIM NAZARIYASI

1.Didaktikaning predmeti va uning vazifalari

Didaktikaning predmeti ta’lim-tarbiya muassasasi sharoitida pedagog rahbarligi ostida amalga oshadigan o‘quv jarayonidir. Didaktikada ana shu jarayonning qonuniyatlari tadqiq qilinadi, har xil tipdagi ta’lim-tarbiya muassasalarida u yoki bu darajada beriladigan ta’lim mazmunini belgilashning ilmiy asoslari, o‘qitish vositalari va metodlarining samaradorligini oshirish yo‘llari hamda ta’limning tashkiliy shakllari ishlab chiqiladi.

Didaktika pedagogikaning ta’lim va o‘qitish nazariyasini ishlab chiqadigan tarmog‘idir. Didaktika yunoncha “didaktikos” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, o‘qitish, o‘rganish ma’nosini bildiradi. Yaqin va O‘rta Sharqda Al-Xorazmiy, Kindiy, Abu Nasir Forobi, Al-Beruniy, Ibn Sino, Umar Hayyom kabi mutafakkirlar ilmiy didaktikaga asos solgan bo‘lsalar, Amos Komenskiy, shveysariyalik pedagog I. G. Pestalossi, nemis pedagogi A. Disterveglar Yevropada didaktikaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar.

Al-Xorazmiy, Kindiy, Abu Nasr Forobi, Al-Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy va ularning izdoshlari qarashlarining muhim xususiyati shundan iborat ediki, mazkur olimlar doimo predmetning qiyofasi inson ongida mavhumlashuvi jarayoniga mana shu predmetning mohiyati va o‘ziga xosligini tushunish sodir bo‘lishi hamda shakllanishiga e’tibor berganlar. Ular bilishning predmeti va manbalariga, bilish jarayoni qanday bosqichlardan tarkib topishiga, bilish faoliyati bilan amaliy faoliyat o‘rtasidagi munosabatlarga qiziqqanlar. Al-Xorazmiy shaxsning uzlucksiz kamol topishi nazariyasini rivojlantirish borasida muhim xizmat qildi, induktiv va deduktiv tafakkurdagi alohidilik hamda umumiylarning birligi prinsipini muayyanlashtirdi.

Kindiy substansiyani barcha ilmiy bilimlarning bosh predmeti sifatida ko'rib chiqishda, eng avvalo, miqdor va sifatni hissiy idrok etish zarurligini tasdiqladi. Kimki miqdor va sifatni bilmasa, u substansiyani bilishdan ham mahrumligini uqtirdi. Olim o'zining didaktik g'oyalarida hissiy va ratsional bilishni ifodaladi. Hissiy bilish yakka narsalarni bilishdan iborat bo'lsa, oqilona bilish umumiy narsalarni bilish ekanini ta'kidladi. Uning fikricha, hissiy bilish faqat aql uchun material beradi.

Sabablar haqiqatni bilishda va o'zining ana shu haqiqatga muvofiq xatti-harakatlarini anglashda insonning aqliga ko'maklashadi. "Haqiqat, – deb yozgan edi Kindiy, har qanday narsani va uning barqarorligini bilishning sababidir, binobarin, hayotdagi mavjud hamma narsa haqiqiyligi bilan mavjuddir. Haqiqatni bilish zarur va shunga ko'ra mavjud narsalarni bilish mumkin".

Abu Nasr Forobiy o'qitish metodlarining tasnifini ishlab chiqqan. Ularni amaliy va nazariy metodlarga ajratgan, shu tariqa o'qitishning amaliy yo'nalishi va kishilarning hayoti hamda kundalik faoliyati bilan bog'liqligi g'oyalarini olg'a surgan. Olim o'qitishning tajriba ko'rsatmali, induktiv va deduktiv, amaliy metodlariga alohida e'tibor bergan. Barcha metodlarni o'quvchining hayotiy tajribasiga, mantiqiy tafakkuriga tayangan holda birlashtirgan. O'quv jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqishda deduktiv metodni ustun qo'yib, o'quvchilarga materialni tushuntirishda nimalarga alohida e'tibor berish haqida, eng muhim narsalarni fanga ishonchli bilimlar beradigan va shubhalantirmaydigan dalillar bilan yoritish va hokazolar bo'yicha o'qituvchilar uchun qimmatli tavsiyalarini bayon qilgan.

Abu Nasr Forobiy matematika fani misollari asosida o'qitishning ilmiylik, ko'rsatmalilik, tushunarllilik va izchillik prinsiplarini ishlab chiqqan. Bilish jarayoni va fandagi bilim shakllarining mohiyatini yoritgan. Uning fikricha, ana shu jarayonlar qonunlar sifatida shakllanadi va ularga rioya qilish fikrlashni takomillashtiradi hamda murakkab bilish jarayonida qo'pol xatolarning oldini oladi. Bilish jarayoni fikrlash mantiqi orqali amalga oshadi. Mantiq, obyekti anglashga qaratilgan va aql yetadigan mohiyatlar

tahlil etiladigan fikrlash jarayonining to‘g‘riligini belgilashga xizmat qiladi. Mantiq quroldir va u narsalarni aniq bilishga yordam beradi.

Abu Nasr Forobiy bilish faoliyatini tashkil etish masalalari bo‘yicha ham anchagina mufassal tavsiyalarni ishlab chiqqan. Uning yozishicha, yaxshi nazariyotchi bo‘lish uchun nazariya qaysi fanga taalluqli bo‘lsa-da, quyidagi uchta shartga rioya qilishi shart:

1. Mazkur fan asosidagi hamma prinsiplarni to‘liq bilish.
2. Mana shu prinsiplardan va mazkur fanga doir ma’lumotlardan tegishli xulosalar chiqara bilish.

3. Noto‘g‘ri nazariyani rad eta bilish va haqiqatni yolg‘ondan farqlash, xatolarni to‘g‘rilash uchun boshqa mualliflarning fikrlarini tahlil qila bilish. Borliqning aks etishi sifatidagi hissiy bilish muammozi va eng asosiy masala bilishning manbalari masalasi doimo Beruniy nazariy bilish faoliyatining diqqat markazida turdi.

Olim bilishning nazariy asosini cheksiz va uzlusiz jarayon sifatida tahlil va talqin qildi. U o‘zidan oldingi olimlar ishlab chiqqan bilishning ilmiy metodlarini rivojlantirib, didaktik yo‘sinda muhim xulosalar chiqardi:

“O‘qish va takrorlash orqali, – deb yozgan edi Beruniy, dunyoning tuzilishini, osmonning va Yerning shakllarini bilish astronomiya fani uchun g‘oyatda foydalidir. Binobarin, ana shu tariqa ta‘lim oluvchi malaka hosil qiladi va mazkur san‘at ahli ishlatadigan so‘zlarni o‘rganadi, bu so‘zlarning ma’nosini anglaydi. Keyinchalik astronomiya fanidagi turli sabablar va isbotlarni o‘rganishda ana shunday so‘zlar uchrasa, ularni bemalol tushunib boraveradi va u yoki bu narsalarni o‘zlashtirishda charchamaydi”.

Abu Rayhon Beruniy ta‘kidlaganidek, o‘qitish izchil, ko‘rsatmali, maqsadga muvofiq bo‘lishi va ma’lum tizimda olib borilishi lozim. Binobarin, ko‘rsatmalilik ta‘limning tushunarliroq, muayyanroq va qiziqarliroq bo‘lishini ta‘minlaydi, tafakkurni rivojlantiradi.

Ibn Sinoning bilim orqali erishiladigan natijalari haqidagi ta‘limoti o‘qitish nazariyasida alohida o‘rin egalladi. Uning fikricha, buyumlarni chinakam bilishga tashqi ko‘rinishini tahlil qilish, sabablarini aniqlash asosida aql bilan erishiladi.

Ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan. Mushohada bilan idrok qilishning birinchi bosqichi aqliy kategoriyalarni tushuntirishdir. Ikkinci bosqich ikki xil fikrni idrok etishdir. Aqliy rivojlanishning uchinchi bosqichiga o'zlashtirilgan fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda uni haqiqiy aql deyiladi. Olim aqliy faoliyatni bosqichlarga bo'lar ekan, birinchi bosqichda yodlay oladigan, lekin hali harflarni ham, siyoh va qalamni ham bilmaydigan bolaning aqlini nazarda tutgan; ikkinchi bosqichda tayoqchalarni chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni o'rganayotgan bolaning aqli tasavvur qilinadi; uchinchi bosqichda inson aqliy shakllarni va ularga muvofiq hissiy obrazlarni egallagan bo'ladi.

Ibn Sino aql deganda insonning tug'ma iste'dodini, shuningdek, tajriba asosida va bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi. Aqlni insonning birlamchi tug'ma sog'lom fikrashi, yaxshi va yomon ishlarni vujudga keltiradigan, ularni farqlantiradigan kuch, deb ta'riflaydi. Aql insonning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi.

Inson aql yordamida narsalar va hodisalarni tahlil qiladi, umumlashtiradi hamda ularning eng yaxshilarini tanlaydi, deb uqtiradi. Shuningdek, aqlni ikki kategoriyaga ajratadi. Ularning biri nazariy aql bo'lib, borliqdagi umumiylar narsalarning mohiyatini idrok etishdir, ikkinchisi esa amaliy aql bo'lib, buyumlarni tanlashda turki sifatida ko'rindigan qobiliyatdir.

Abdulla Avloniy o'zining barcha tadqiqotlarida ilm muammosini birinchi o'ringa qo'ygan. "Alhosil, – deb yozgan edi u, butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilm bilan bog'liqdur... Shuning uchun o'qimak, bilmak zamonlarini qo'ldan bermay, vujudimizning dushmani bo'lgan jaholatdan qutulmakka jonimiz boricha sa'y qilmagimiz lozimdir"¹.

Abdulla Avloniy ilm tarbiya jarayonida o'zlashtiriladi va u yaxshini yomondan, ezgulikni yovuzlikdan, joizni nojoizdan farqlash imkonini beradi, deb hisoblaydi. U tarbiya bilan ta'limning

¹ Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud ahloq. T., "O'qituvchi", 1992-y, 23- bet

birligi muammosini ishlab chiqdi. Garchi Avloniy ta'lim bilan tarbiya o'rtasida ozgina farq borligini aytgan bo'lsa ham, ular tana va jon singari bir-biriga chambarchas bog'liqdir, deydi.

Yuqoridagi asarlarning nomlaridan va pedagogik fikrlardan ayon bo'ladiki, mazkur mualliflar didaktikaga o'qitish san'ati sifatida, shuningdek, o'ziga xos amaliy ko'nikma sifatida qaraganlar.

Didaktika tushunchasini Yan Amos Komenskiy (1592–1670) ham ana shu yo'sinda sharhlagan.

Kelajak avlodga tizimli ta'lim berish jarayoni va o'qitishning xususiyatlari va qonuniyatlarini mantiqiy va izchil o'rghanadigan, uning o'ziga xos jihatlarini belgilab beradigan, inson sivilatsiyasining rivojlanish jarayonida shakllangan ilmiy soha – didaktikadir.

Mazkur termin yunon tilidan olingan bo'lib (*didaktikos*), "o'r-gatuvchi", *didasko* esa "o'rghanuvchi" ma'noni anglatadi. Ushbu tushuncha pedagogik atama sifatida nemis olimi *Ratke* (Ratxiem) (1571–1635) tomonidan kiritilgan bo'lib, u didaktikani ta'lim berish sanhati, yahni amaliy ko'nikma sifatida ko'rgan. Mazkur tushuncha turli tarixiy davrda turlicha talqin qilib kelingan:

Y.A.Komenskiy (1592–1670) o'zining "Buyuk didaktika" asarida didaktika "barchani barcha narsaga o'qitishning universal sanhati", "ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish" vazifasini bajaradi, degan g'oyani ilgari surgan;

I.F.Gerbart (17762–1841) didaktikaning nazariy asoslarini ishlab chiqishda ta'lim va tarbiya, o'qitish va o'qish jarayonlarini birlashtirgan holda "tarbiyalovchi ta'lim" deb tushungan;

D.Dyui (1859–1952) ta'lim jarayonida asosiy e'tiborni o'quv-chining faolligiga, shaxsiy tajriba va aqliy faoliyat qobiliyatini shakllantirish asosidagi amaliy faoliyat tamoyillariga qaratgan.

Mazkur pedagogik yondashuvlar va konsepsiylar didaktikani o'qitish va o'rGANISHNING nazariyasini tavsif qiluvchi fan sifatida tushunishga o'zining jiddiy ta'sirini o'tkazdi. Bir vaqtning o'zida didaktika umumlashgan ijtimoiy va madaniy tajribani keyingi avlodga tizimli yetkazish bilan bog'liq fan sifatida shakllanganligiga ehtibor qaratish mumkin. Shu bilan birga, taniqli bolgar faylasufi va pedagog olimi I.Marev didaktikaning tarixiy

rivojlanish davrlarini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratgan.

Birinchi bosqich – YA.A.Komenskiygacha bo‘lgan davr. Ushbu bosqich o‘rtta asr sxolastikasi hukmronlik qilgan sharoitda ilmiy asoslanmagan “pedagogik va didaktik ijodiyot” shakllanganligi, didaktik jarayonni anglash, “tarbiya an’analari va udumlari” rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Ikkinci bosqich – YA.A.Komenskiydan kibernetika fani (*boshqaruv jarayonlari nazariyasi*) kirib kelgungacha bo‘lgan davrni (1950) o‘z ichiga oladi va ushbu bosqichda pedagogik va didaktik nazariyalarning rivojlanishi, ularning asosiy qonun va qonuniyatlarining shakllanishi bilan ajralib turadi.

Uchinchi bosqich – kibernetika fani kirib kelishidan hozirgi kungacha bo‘lgan davrdir. Ushbu bosqich hal qiluvchi bosqich bo‘lib, pedagogika va didaktikaning dolzarb vazifalarini yechish, yangi didaktik materiallarni yaratish va ulardan samarali foydalanish, o‘qitishning texnik vositalarini, o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlarning yaratilishi bilan bog‘liq.

Didaktikaning fan sifatidagi ko‘p asrlik tarixi davomida “pedagogika” va “didaktika” ilmiy kategoriyalar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashga doir turli yondashuvlar shakllandi. I.Marev va boshqa mutaxassislar fikricha pedagogika va didaktika o‘rtasidagi munosabatlar quyidagi konseptual yondashuvlar asosida talqin etilishi mumkin:

- pedagogika va didaktika o‘xshash tushunchalar;
- pedagogika va didaktika o‘rtasida yaxlitlik va uning tashkil etuvchisi (bir qismi) sifatida munosabatlar shakllanganligi;
- “didaktika” – “pedagogika” nisbatan hajm jihatidan kengroq tushuncha;

- pedagogika va didaktika alohida mustaqil fanlar;

Yevropa va Amerika, sobiq ittifoq hamda sharqiy Yevropa pedagog olimlari tomonidan ham mazkur ilmiy sohalar (pedagogika va didaktika) o‘rtasidagi munosabatlar va o‘zaro bog‘liqliklar turlicha talqin qilib kelingan, yagona yondashuv va konseptual

pozitsiyaga kelinmaganligining asosiy sababi “didaktika” tushunchasining o‘zini talqini turlicha bo‘lganligidadir. Bu boradagi an’anaviy yondashuvga asosan didaktika pedagogikaning bir qismi sifatida qaraladi¹.

2.Didaktikaning asosiy kategoriyalari

Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimi. Muayyan fanga xos bo‘lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to‘plangan bilimlar aks etadi. Mavjud ilmiy tushunchalar ikki asosiy guruhga ajratiladi:

- 1.falsafiy tushunchalar;
- 2.xususiy ilmiy, ya’ni, muayyan fangagina xos bo‘lgan tushunchalar.

Didaktika uchun “umumiyl va alohida”, “mohiyati va hodisa”, “qarama-qarshilik”, “bog‘liqlik” kabi falsafiy tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega. Didaktikada qo‘llaniladigan umumiyl ilmiy tushunchalar orasida “tizim”, “tuzilma”, “vazifa”, “element” kabilalar alohida o‘rin tutadi. Pedagogikaga xos didaktik tushunchalar sirasiga quyidagilar kiradi:

1) ta’lim – o‘quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayon;

2) dars – bevosita o‘qituvchi rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli;

3) bilim olish – idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko‘nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

4) ta’lim jarayoni – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

¹ Michael Uljens. School Didactics and Learning: A School Didactic Model Framing an Analysis of Pedagogical Implications of Learning Theory 2008 y

5) o‘quv fani – ta’lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan hamda o‘zida muayyan fan sohasi bo‘yicha umumiy yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manba.

6) ta’lim mazmuni – davlat ta’lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma’lum sharoitda muayyan fanlar bo‘yicha o‘zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Didaktikada “idrok etish”, “o‘zlashtirish”, “mahorat”, “rivojlanish” va boshqalar (psixologiya) hamda “boshqarish”, “qayta aloqa” (kibernetika) kabi turdosh fanlarga xos bo‘lgan tushunchalar ham qo‘llaniladi.

Didaktikaning tushunchali-terminologik tizimi muntazam yangilanib va to‘ldirilib borilmoqda.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: dars, bilim olish, ta’lim, bilim, ko‘nikma, malaka, ta’lim maqsadi, ta’lim mazmuni, ta’lim jarayoni, ta’lim jarayonini tashkil etish, ta’lim turlari, shakllari, metodlari va vositalari, ta’lim natijasi.

So‘nggi paytlarda asosiy didaktik kategoriylar sirasiga ta’limning didaktik tizimi va ta’lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham kiritish taklifi ilgari surilmoqda.

1) bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui;

2) bilim olish – idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko‘nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

3) ko‘nikma – olingen bilimlarga asoslanib qo‘yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig‘indisi;

4) malaka – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tar-kibiy qismi;

5) ta’lim – o‘quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayon;

6) ta’lim metodlari – ta’lim jarayonida qo‘llanilib, uning samarasini ta’minlovchi usullar majmui;

7) ta'lim mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati;

8) ta'lim vositalari – ta'lim samaradorligini ta'minlovchi obyektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, video-magnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va subyektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar;

9) ta'lim jarayoni – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon;

10) ta'lim mazmuni – davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati;

11) ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya;

12) ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) – ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi;

13) ta'limni boshqarish – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash;

14) ta'lim tizimi – yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdag'i o'quv-tarbiya muassasalari majmui.

3.Turli tarixiy davrlarda didaktik tizimlarning shakllanishi va rivojlanishi

Ta'lim va tarbiya insonning shaxs sifatida shakllanishidagi ahamiyatining beqiyosligi qadimgi davrlardanoq ma'lum. Eramizdan avvalgi davrlardan buyon olim va mutafakkirlarni, siyosatchi va davlat arboblarini befarq qoldirmagan masala

shundan iborat ediki, kelajak avlodni qanday qilib tarbiyalash kerak, ularga qanday bilimlarni berish va nimalarni o'qitish zarur.

Ma'lumki, qadimgi Sharq va G'arb sivilizatsiyalarning rivojiga, ularning ilmiy, madaniy, ma'rifiy jihatdan shakllanishi va rivojlanishiga o'zining beqiyos ta'sirini o'tkazgan sivilizatsiyalar – bu qadimgi Antik davrlarda shakllangan qadimgi Yunoniston va Rimdir.

Geografik joylashishi nisbatan yaqin bo'lgan bu ikki sivilizatsiya o'rtasida madaniy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa jabhalarda jiddiy farqlar bo'lishiga qaramasdan, ularning o'sib kelayotgan yosh avlodga beriladigan ta'lim va tarbiya borasidagi umumiyy tendensiyalar, o'ziga xoslik jihatlari mavjud bo'lganligi sababli ularni ko'rib chiqish muhimdir.

Antik davrdagi qadimgi Yunoniston va Rimda ta'lim jamiyat hayotining ajralmas qismi hisoblangan va ijtimoiy hayotda alohida o'rinni egallagan. Qullikka duchor bo'limgan har bir ozod inson ta'lim olishlikni o'zining burchi hisoblagan.

Ushbu hududlardagi ta'lim tizimlari mavjud ijtimoiy munosabatlar, madaniy va tarixiy an'ana va me'roslarni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan. Har bir ma'muriy hududlardagi (*qadimgi Yunonistonning hududi polislari deb ataluvchi ma'muriy hududlarga bo'lingan*) mакtablar o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turar va bir-birlari bilan ta'lim jarayonini tashkil etish hamda mazmun jihatidan jiddiy farqlanar edi. Lekin, umuman olganda, ushbu davrda ta'lim jarayonini tashkil etish hamda ta'lim shakllari deyarli bir xil bo'lgan.

Qadimgi Yunonistonda ikkita polis alohida ahamiyatlidagi hisoblangan – Lakoniyadagi **Sparta** (*qad.yun. Lakedemon*) va Attikadagi **Afina**. Tarixdan ma'lumki ushbu ikki shahar-davlatlar G'arb sivilizatsiyasining beshigi va asoschisi sanalishi bilan birga ularda shakllangan o'ziga xos ta'lim madaniyati keyinchalik butun g'arbda ta'limni shakllantirish yo'llarini belgilab berdi.

Sparta ta'lim va tarbiya tizimi

Klassik Spartada (er.IV asrdan avval) yosh avlodni tarbiyalash davlat ahamiyatidagi vazifa sifatida qaralgan va o‘z davrida aynan Spartada insonni shaxs sifatida shakllanishida aniq maqsadga yo‘naltirilgan tizimli ta’lim va tarbiya berish muhim hisoblangan. Sparta davlatchiligi qat’iy qonun va qoidalar asosida yuritilishi sababli davlat manfaatlari shaxs manfaatlardidan va fuqarolarning shaxsiy erkinligidan ustun qo‘yilgan. Shu sababli ta’lim tizimi ham o‘ziga hos xarakterga ega bo‘lib **eforlar** (qariyalar, oqsoqollar) tomonidan jiddiy nazorat ostiga olingan. Spartada tug‘ilgan barcha bolalar davlat mulki hisoblangan.

Sparta ta’lim va tarbiya berish tizimining bosh maqsadi jangchi-fuqarolarni tayyorlash edi va bunda asosiy e’tibor ularning jismoniy tayyorgarligi va rivojlanishiga qaratilgan. Ruhiy tayyorgarlikka ham alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, ularda qat’iylik, tashabbuskorlik va sodiqlikni shakllantirishga katta urg‘u berilgan.

Sparta ta’lim va tarbiya tizimi **agoge** (*qad.yun. "olib ketish", "yulib olish"*) 7 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il bolalarni “spartancha tarbiya” usulida jangchi-fuqarolarni tayyorlash edi. Ushbu tarbiya tizimiga faqatgina ozod fuqarolar (*spartiatlar va perieklar*), ya’ni qullikka duchor bo‘lmagan insonlar, farzandlari majburiy jalg qilingan hamda boshqa qatlam va toifadagi insonlar uchun, masalan muhojirlar va qullar (*ilotlar*) farzandlarini bu tarbiya jarayoniga jalg etilishi eng oliy ehtirom sanalgan.

Butun Sparta ijtimoiy va siyosiy hayoti urushlar bilan bog‘liqligi sababli yosh avlodni tarbiyalashda harbiy tayyorgarlik ustun turgan. Spartaning maqsadli ta’lim va tarbiya tizimi bir nechta bosqichlardan iborat bo‘lgan.

7 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il bolalar harbiy turdagи maxsus **internatlarda** (*il* va *aggella*) tayyorgarlik ko‘rishgan. Ushbu bosqichda tana mashqlari va jismoniy chiniqishga asosiy ehtibor qaratilgan. Mashg‘ulotlarda harbiy o‘yinlar amaliyoti, musiqa va ashula aytish, raqs tushish bilan ham shug‘ullanishgan. Shuningdek yozish, o‘qishga o‘rgatilgan hamda aniq, ravon va lo‘nda nutq madaniyati (“lakonik” nutq – Lakoniya hududi

nomidan olingan) ko'nikmalari ham shakllantirilgan. Il va aggellalarni boshqarish *paydonomlar* (tarbiyachilar) tomonidan amalga oshirilgan.

Jismoniy tayyorgarlik *gimnastika* va *arxeistika* (harbiy raqs, marosimlarni aks ettiruvchi raqs) mashg'ulotlaridan iborat bo'lган. Gimnastika mashg'ulotlari yugurish, sakrash, suzish, buyum uloqtirish, ovchilik, chavandozlik, yakkakurash va boshqa jismoniy mashg'ulotlardan tashkil topgan.

15 yoshdan 20 yoshgacha bo'lган o'smir yoshlar maxsus fuqarolik huquqlariga ega bo'lishgan, yahni *eyrenlarga* aylanishgan va ularning asosiy vazifasi kichik yoshdag'i tarbiyalanuvchilarni o'qitishda paydonomlarga yordam berishdan iborat bo'lган. Ushbu ta'lim bosqichida o'smirlarni estetik tarbiya asoslari bilan tanishtirish ishlari olib borilgan. Bunda musiqa va ashula aytishga o'rgatilgan, alohida e'tibor esa ularning ma'naviy va vatanparvarlik tarbiyasiga qaratilgan.

20 yoshdan 30 yoshgacha bo'lган eyrenlar davlatning to'laqonli fuqarolari sifatida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini davom ettirishgan.

Ta'lim va tarbiyaning barcha bosqichlarida yoshlar davlatda o'rmatilgan qonun va qoidalarni so'zsiz bajarish hamda o'zlaridan katta yoshdagilarga beqiyos hurmat va itoatkorlik ruhida tarbiya olishgan. Plutarx (46-127 yy.) asarlari hamda saqlanib qolning boshqa manbalardan ma'lumki, Spartada yoshlarni voyaga yetkazishda ta'lim berishdan ko'ra tarbiya (jismoniy va ma'naviy) ko'proq ustunlik qilgan. Il va aggellalarda – o'ziga xos "itoatkorlik maktablarida" – "bo'ysundirish va bo'ysunush san'ati" mashq qildirilgan, yozish, o'qish va boshqa turdag'i an'anaviy ta'limga hayotiy ehtiyojdan kelib chiqib ehtibor qaratilgan xolos. Shu sababli ta'lim dasturlari asosan jismoniy va harbiy mashqlar, siyosat va ma'naviyat mavzularidagi suhbatlardan iborat bo'lган.

Aggella va illardagi ta'lim shakli paydonomlar yoki ularning yordamchilari, va umuman kattalarning barcha topshiriqlarini guruh bo'lib bajarishdan iborat edi. Tarbiyaning asosiy vositasi sifatida kattalarga taqlid qilish va ular bajargan barcha mashqlarni ular ortidan aniq tarzda takrorlash bo'lган. Nutq san'ati

mashg'ulotlarida esa buyuk sarkarda va jamoat arboblari hayotidan tuzilgan qisqa hikoyalarni yod olish hamda ulardag'i turli mulohazalardan iqtiboslar keltirish o'rgatilgan.

Spartancha tarbiya tizimi *agonistika* (musobaqalashish) tamoyillari asosiga qurilgan bo'lib, tarbiyalanuvchilar o'zlarini egallagan bilim va ko'nikmalarni namoyish qilishda tengqurlari bilan musobaqalashish va shu orqali har bir tarbiyalanuvchi boshqalardan ustunligini ko'rsatishga harakat qilishgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Sparta ta'lim va tarbiya tizimi murabbiy, tarbiyachi, ustoz, kattalar, siyosiy va davlat arboblariga so'zsiz bo'y sunush hamda o'quvchilarining shaxsiy dunyoqarashi shakllanmaslik ustunlariga qurilgan. Ta'lim va tarbiyaning bunday tamoyillarini qadimgi Sharq ta'lim madaniyatida kuzatish mumkin. Bunday ta'lim tizimlariga konservativlik, murabbiylarga qat'iy bo'y sunush, ustozni tomonidan ko'rsatilgan namuna asosidagina bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, ularning harakatlarini aniq tarzda takrorlash xosdir.

Sparta ta'lim va tarbiya tizimining o'ziga xos shakl, usul va yondashuvlari jahon pedagogika faniga yosh avlodni harbiy tamoyillarga asosan tarbiyalash namunasini berdi. Ko'pchilik mutaxassislar tomonidan Sparta ta'lim va tarbiya tizimiga nisbatan jiddiy tanqidiy mulohazalar bildirilishiga qaramasdan, ushbu tizim kelgusida didaktik tamoyillarni ishlab chiqishda o'ziga xos namuna sifatida xizmat qildi.

Afina ta'lim tizimi

Umumbashariyatga boy ma'naviy me'ros qoldirgan *antik davr* (lot. *antiquitas* – qadimgi davr: e.av. VII–II asrlar, bunda qadimgi yunon-rim sivilizatsiyasi tushuniladi) ko'plab sivilizatsiyalarning rivojlanishini belgilab bergen hamda ularda ilm, fan, madaniyat shakllanishiga turki bo'lgan. O'sha davrning boshqa hududlaridagi davlatlardan farqli ravishda Qadimgi Yunoniston (Ellada) madaniyati – uning davlatchilik asoslarini belgilab bergen asosiy omillardan hisoblangan. Afina davlatining Yunoniston polislari bilan bo'lgan 30 yillik urushda (er.av. 404 y.) fojiaviy mag'lubiyatidan so'ng Fukidid Afina davlatchiligidagi hokimiyat va fuqarolarning yuqori madaniyati o'rtaida ajoyib

muvozanat o'matilganligi, uning barcha sohalarida gurkirab rivojlangani hamda mag'lubiyatdan so'ng yana tiklanish mumkinligiga ishonch bildirib quyidagilarni qoldirgan: hatto metindek eng mustahkam hokimiyat qulashi mumkin, va faqat guldek nozik inson tafakkuri hech qachon so'nmaydi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, har qanday davlatning rivoji uning ma'naviy madaniyati, ya'ni ilm, fan, san'at, ta'limning rivojlanishiga bog'liq. Umuman olganda Afina madaniyati polis hayotining ajralmas qismi hisoblangan.

Shu o'rinda aytish joizki, Afina ma'naviy madaniyatining asosini ilm, fan va uni egallahsga, keyingi avlodga meros sifatida qoldirishga qaratilgan ta'lim va tarbiya tashkil etadi.

Afina o'z davrining madaniy, siyosiy va iqtisodiy markazga aylanganligi yosh avlod ta'lim va tarbiyasiga qo'yiladigan o'ziga xos talablarni ham belgilab bergen edi. Shu sababli Afina ta'lim tizimi Sparta va Rim ta'lim tizimlaridan jiddiy farqlanadi.

Afinada ta'lim va tarbiya *Paydeyya* deb yuritiladi (*paydeyya* – qad.yunon. bola tarbiyasi; *paydos* – bola, o'smir) va o'sha davrning mutafakkirlari tomonidan falsafa kategoriyasi sifatida qaralgan va hozirgi tilda “ta'lim tizimi”, tarbiyaning ma'lum bir modeli sifatida tushunish mumkin.

Hukmron qatlaming ta'lim va tarbiyasi har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish g'oyasi – *kallogatiyaga* (yunon. etuk, ajoyib inson; boshqalarni lol qoldiruvchi inson) – qaratilgan bo'lib, uning mohiyati insonning aqliy, jismoniy, ma'naviy va estetik rivojlanishidan iborat bo'lgan.

Har bir inson ta'lim va tarbiyasi darajasiga ko'ra jamiyatda ma'lum bir mavqega ega bo'lgan. Afinada ham ta'lim maqsadli ravishda tashkil etilgan va amalga oshgan. Bunga o'g'il bolalar 7 yoshdan jalb qilingan. Afinada Spartadagi kabi davlat ta'lim tizimi bo'lmagan, barcha maktablar xususiy va pullik bo'lgan.

Ijtimoiy hayotda o'qituvchi (*didaskal*) katta mavqega ega bo'lmagan, ular hunarmand va ustalarga tenglashtirilgan, ularning mehnati yuqori baholanmagan va aholining yuqori qatlama qatorida ko'rilmagan. Ular tomonidan ochilgan maktablar hunarmandlarning ustaxonasini eslatar va maktab ochish uchun yuqori

darajadagi bilim va tajribaga ega bo'lish shart bo'lman. Bunday maktablarda turli yoshdagi bolalar ta'lim olishgan va o'qituvchi ularning har biriga individual topshiriqlar berib bajarilishini nazorat qilgan.

O'g'il bolalarga boshlang'ich bilimlarni *grammatist* (didaskal) yozish, o'qish va sanash asoslarini o'rgatish orqali bergen. Boshlang'ich yozish ko'nikmalari eritilgan mum tayyoqchalariga (ser) o'tkir uchli cho'plar (*stilo*) yordamida turli xil belgi va shakllarni yozish orqali shakllantirilgan. Barcha bajariladigan yozuvlar o'qituvchi tomonidan namuna sifatida ko'rsatilgan va ushbu namunalarini talabga mos ravishda bajar-ganidan so'ng ser va stilo husnixat ko'nikmalarini shakllantirish papirus va pero orqali davom ettirilgan. Husnixatga o'rganish ancha murakkab jarayon bo'lib, Aflatun guvohligicha uch yil davom etgan. Dionisiy boshlang'ich savodxonlik mashg'ulotlarini bunday tasvirlagan: "Husnixatga o'rganishda biz avval harflarni, keyin ularning shakllarini yod olamiz; keyin esa so'z bo'g'inlari, so'zlar va ularni hosil bo'lishi, sonlar, urg'ular, gap tarkibi o'rganiladi. Shundan keyingina o'qish va yozish o'rganiladi: avval bo'g'inlab, shoshmasdan va ma'lum darajada ko'nikma hosil bo'lganidan keyin to'liq fikr bayon etilishi o'rganiladi. O'qishni o'rganganidan keyin o'quvchi mazmunli o'qish, urg'ularni to'g'ri qo'yish, ovozning ko'tarilishi va pasayishi, nutq ritmini va umuman "jozibali" o'qishni mashq qilgan".

Afina ta'limiga va umuman Antik davrga xos bo'lgan bir jihat shundan iborat ediki, insonlar mashhur shoir va yozuvchilarining asarlarini yod bilishi va ularni omma oldida san'at darajasiga ko'tarib o'qish urf bo'lgan. O'quvchilar ham o'sha davrning mashhur shoirlari, yozuvchilar, tarixchi va faylasuflarining she'rlari, poemalari, tragediya va "tarixiy komediyalari", *gnomuslar* (qisqa didaktik xarakterdagi matnlar), mif va afsonalar, gimn va boshqa turdag'i adabiy asarlarni yod olishgan. Ayniqsa Ezopa, Gomer, Gesiod va Solon, Esxil va Sofokl asarlari mashhur bo'lgan.

O'qishga o'rgatishning asosiy didaktik usuli sifatida o'qituvchi tomonidan o'qilgan har bir matn parchasini o'quvchilar birgalikda ovoz chiqarib takrorlashgan. Arifmetikaga o'rgatish

birmuncha qiziqarli olib borilgan, chunki o'qituvchilar sanash uchun buyumlardan ko'rgazma sifatida foydalanishgan. O'sha davrda sanashga o'rgatishda hisob taxtasi (*abak*) asosiy va eng samarali didaktik vosita hisoblangan.

O'quvchi bolalar boshalng'ich savodxonlikni *grammatistdan* egallaganlaridan so'ng ularning keyingi ta'lif va tarbiyasi bilan *kifarist* shug'ullangan. Bunda asosiy e'tibor estetik tarbiyaga qaratilgan bo'lib, o'quvchilar musiqa ta'limini egallaganlar. Musiqa ta'limi antik davrning ta'lim va tarbiyasida muhim o'rinn tutgan. O'quvchilar keng tarqalgan musiqa asboblari – lira, kifar, fleyta, sitrada chalishni, jo'r bo'lib ashula aytishni o'rganganlar. Yunon mutafakkirlari fikriga ko'ra, musiqani o'rganish orqali milliy an'analarni saqlab qolish va uni takomillashtirishga erishilgan, jo'r bo'lib ashula aytish orqali esa o'quvchilarning hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirilgan.

Ushbu bosqichdan so'ng o'quvchilar taxminan 12 yoshlarida umumiy jismoniy va boshlang'ich harbiy tayyorgarlik olish maqsadida gimnastika maktablarida (*palestrlarda*) ta'lim olishgan. Palestrlarda olib boriladigan gimnastika mashqlari va harbiy tayyorgarlik davlat nazorati ostida olib borilgan va bu jarayonga alohida tayinlangan *pedotriblar* rahbarlik qilgan¹.

4. Didaktika tamoyillari

Didaktika tamoyillarining tarixi shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar dars oldidan ko'zlagan maqsadlariga ko'p kuch va vaqt sarflamay aniq yetishlari uchun, bir necha avlod olimlari tinimsiz izlanishlar olib borib, didaktika prinsiplar majmui yaratilishiga sababchi bo'lganlar.

Avval ham aytganimizdek, yaqin vaqt largacha pedagogikadagi qonun, qonuniyat va tamoyil degan tushunchalar sinonim sifatida ishlatalib yoki bularning bittasiga – yo qonun, yo qonuniyat, yo prinsipga ustunlik berilib kelilgan.

Ammo ko'p yillik tajribalar va bu sohadagi izlanishlar shuni ko'rsatdiki, qonuniyat turg'un bo'lib, ular asosida yaratilgan qonun

¹ Curriculum, cultural traditions and pedagogy: understanding the work of teachers in England, France and Germany (2012).y

va tamoyillar o‘zgarib ham turishi mumkin ekan. Ba’zi eski tamoyillar, masalan, tabiatga mos ravishda rivojlantirish tamoyili yo‘q bo‘lib ketib, o‘rniga yangi tamoyillar kiritilgan.

Tamoyillar to‘g‘risida didaktikada shunday qoida o‘mashib qolganki, ular tarixiy vaziyatdan kelib chiqib konkret jamiyatning ehtiyojlarini ifoda etar ekan. Ijtimoiy taraqqiyot va ilm-fanning rivojlanishi hamda ta’lim-tarbiya jarayonida yangi qonuniyat-larning aniqlanishi, shuningdek, ilg‘or pedagogik tajribalar natijasida pedagogik tamoyillar tizimi boyib boraverar ekan.

Ko‘p yillik izlanishlar va bahslar natijasida pedagogikada quyidagi dars o‘tishning umumiy tamoyillar tizimi ishlab chiqilgan:

1) **onglilik va faollik** – bilimni talabalar tomonidan ongli ravishda va faol qatnashib egallashlik;

2) **ko‘rgazmalilik** – «yuz marotaba eshitgandan bir marotaba ko‘rgan yaxshi» tamoyilidan kelib chiqib, bilim berishda turlituman ko‘rgazma quollardan samarali foydalanish;

3) **tizimlilik va muntazamlilik** – bilimni ma’lum bir tizimda va uzuksiz ravishda berib borish;

4) **mustahkamlik** – bilimni tushunarli tilda qayta-qayta takrorlash yo‘li bilan berish;

5) **tushunarlilik** – bilimni hammaga tushunarli va hammabop qilib berish;

6) **ilmiylik** – bilimni bolalarda avvaldan mavjud bilimlarga berish;

7) **nazariya va amaliyot birligi** – bilim berishda nazariy bilimlarning amaliyotda ishlashini, ya’ni uni hayot bilan, amaliyot bilan bog‘liqdigini ko‘rsatib berish.

Bu tamoyillar pedagogik jamoatchilik tomonidan *umumiy tamoyillar* deb qabul qilingan.

Onglilik va faollik tamoyili. Bu tamoyil asosida ilm tomonidan aniqlangan, insонning haqiqiy bilim egallashi uchun, u – bu bilimlarni chuqr anglab yetgan holda aqliy quvvatini intensiv ishlatalishi natijasida yetishi mumkin, degan qonuniyat yotadi. Bilimlarni anglaganlik holati quyidagi omillardan kelib chiqadi: o‘qishning sababi; talabaning bilish faolligi darajasi; o‘quvchi va talabalarning bilish faolligining boshqarilishi va bilim berishni

tashkil qilish hamda boshqa omillar. Talabaning shaxsiy bilish faolligi bilib olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Onglilik tamoyilini amaliyotda qo'llash quyidagi qoidalarga rioya qilishni taqozo etadi:

1. Bu bilimning hayotdagi zarurligi va ahamiyatini talaba-yoshlarga tushuntirib, uning istiqbolini ravshan qilib ko'rsatib berish yo'li bilan, ta'lim oluvchilarda aniq maqsad va vazifalarni shakllantirish qoidasi.

2. Talabalarga qanday yo'l bilan bilim olishni tushuntirib, ularda shunday ishonch hosil qilish kerakki, ular hech qachon olinadigan bilimni chuqur anglab yetmay mexanik holda egallamasinlar.

3. O'qitganda barcha bilish shakllaridan: tahlil va sintez; deduktiv va induktiv; taqqoslash va qarama-qarshi qo'yish va hokazolardan foydalanish qoidasi.

4. Bolalardagi mavjud bilim va ko'nikmalariga tayanib, obrazli taqqoslash usulidan foydalanib, har bir so'z va gapning tom ma'nosini ochib berish qoidasi.

5. O'quvchilarning o'zaro o'qitish kuchidan unumli foydalanib, qo'yilgan savollarga jamoa bo'lib javob topish qoidasi.

6. Bugungi faol talaba, ertangi faol ishchi va xizmatchi ekanligini yaqqol bilgan holda, ularni faollashtirishga hech qanday kuchni ayamaslik qoidasi.

7. Bolalardagi mavjud bilimlar bilan berilayotgan bilim orasidagi mantiqiy bog'lanish yo'q joyda onglilik bo'lmasligini esda tutgan holda, ularning aqli yetmay turgan joylarni, ulardag'i bor bilim bilan mantiqiy bog'lab berish qoidasi.

8. O'quv fanini hech qachon dars markaziga qo'ymay, dars markazida doimo o'quvchi turishini, uning shaxsi shakllanayotganini bilgan holda talabaga ta'limiy ta'sir o'tkazish qoidasi.

9. Talabalar fikrini, hayot bilan nazariy bilimlar orasidagi farqlar borligiga qaratish yo'li bilan, ularning tafakkurini faollashtirish qoidasi.

10. O'qitish jarayoni yanada muvaffaqiyatli o'tishi uchun, har bir tushuncha berilganidan keyin, uni bir necha misollar bilan mustahkamlash qoidasi.

11. O'qitilayotgan fanda asosiy va ikkinchi darajali joylarini ajratish yo'li bilan, talabalarda berilgan bilim ichidagi asosiy o'rinalarini ajrata olishga o'rgatish qoidasi.
 12. Hech qachon quruq obro'ga tayanib o'qitmay, faqat aql va hissiyotdan kelib chiquvchi dalillarga tayanib o'qitish qoidasi.
 13. Bolalarni o'qishga o'rgatish qoidasi.
 14. Ta'lif-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir o'tkazuvchi ichki va tashqi omillarni doimo bartaraf etib borish qoidasi.
 15. Talabalarga «nega?» degan savolni tinmay berish yo'li bilan, ularda sabab va oqibat orasidagi bog'lanishni bildirib borish qoidasi.
 16. Berilayotgan bilimning to'g'riligiga, bolalarda hech qanday shubha-gumon qolmasligi va uni esdan chiqmasligi uchun bilimni asos va dalillar bilan berish qoidasi.
 17. Haqiqiy bilimga ega bo'lgan deb, uni qaytarib aytib berganga emas, balki bu bilimni amaliyotda qo'llay olganga aytildi, degan qoida.
 18. Doimo talabalar qiziqish va ehtiyojlarini o'rganib borib, ularni jamiyat ehtiyojiga moslashtirib borish.
 19. Bolalardagi kuzatuvchanlikni rivojlantirib, hayotdagи voqeliklarni ilmiy asoslab berish yo'li bilan ularda onglilikni kamol toptirish qoidasi.
 20. Talabalarga shunday bilim berish kerakki, bu bilimlar ularda qat'iy ishonch hosil qilib, harakat uchun dastur vazifasini o'tash qoidasi.
 21. Hech qachon o'qituvchi aytganlarini qaytarish, birovlardan ko'chirish va aytib turish hollariga yo'l qo'ymaslik bilan, o'quvchi-talabalarni mustaqil fikrlashga va harakat qilishga o'rgatish qoidasi.
 22. Berilayotgan bilimni har tomonlama tahlil qilib berish yo'li bilan bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish qoidasi.
 23. Talabalarni faollashtirish va rag'batlantirish uchun doimo savollar berib, ularga javobni chidam bilan tinglash qoidasi.
- Ko'rgazmalilik tamoyili.** Bu eng hammaga ma'lum va tushunarli bo'ladigan tamoyillardan biri bo'lib, u qadimiy zamonlardan qo'llanilib kelingan. Buning asosida quyidagi qonuniyatlar yotadi: birinchidan, ko'rish va eshitish orqali olingan

axborotlar miyaga turlicha ta'sir etib, turlicha xotirada saqlanadi. Qisqacha qilib aytganda, ko'z bilan ko'rganda quloq bilan eshitgandagiga nisbatan besh barobar ko'p axborot olinib, uning miyada saqlanish darajasi ham yuqori. Ikkinchidan, ko'zdan borgan axborot qayta ishlashga muhtoj emas.

Ta'lim amaliyoti bu tamoyilni amalga oshirishning bir qator qoidalarini ishlab chiqqan.

1. O'qitish jarayonida, ko'rgan narsa eshitganga nisbatan bir necha barobar tez o'zlashtirilib, uzoq muddatga esda saqlanib qolishligini doimo yodda tutish qoidasi.

2. Bolalar shakl, rang, his qilish va tovush orqali fikr yuritishlarini bilish qoidasi.

3. O'quvchilarning, kishi nimaiki narsani tasavvuriga keltilish mumkin bo'lsa, ko'ra olsa, eslab ko'rsa, eshita olsa tafakkur qilinadi degan oltin qoidasini bilish.

4. Hech qachon ko'rgazmani asosiy maqsad qilib olmaslik, ko'rgazma maqsad emas, maqsadga yetish vositasi sifatida bilish qoidasi.

5. Bilim berish va bu bilimlarni bolalar ko'nikmasiga aylan-tirish jarayonida, barcha tushuncha va mavhumliklar, ular tafakkuriga faqat asos, dalil, misol, timsol va qiyofalar orqali tez yetib borishini anglash qoidasi.

6. Ko'rgazmalardan, faqat narsalarni ko'rsatish uchun foydalanmay, ulardan muammoli vaziyatlarni shakllantirishda ham foydalanish qoidasi.

7. Ko'rgazma faqat axborot beribgina qolmay, o'rganilayotgan narsa va hodisa to'g'risida to'g'ri tasavvur hosil qilishligini bilish qoidasi.

8. Ko'rgazmani ko'rsatayotganda ma'lum bir tartib bilan ko'rsatish yaxshi natija berishini tushunib yetish qoidasi.

9. Ko'rgazmani ko'rsatayotganda avval butunlay, so'ng ularni qismlargacha bo'lib ko'rsatib, undan keyin yana butunlay ko'rsatishga e'tibor berish qoidasi.

10. Turli ko'rgazmali qurollardan foydalanish yaxshi, ammo ularning miqdori haddan ziyod bo'lib ketsa, bolalar hayolini yoyib yuborishligini bilish qoidasi.

11. Ko'rgazmani ko'rsatayotganda bolalarning avvaldan egallagan hissiy bilimlaridan unumli foydalanish qoidasi.

12. Eng yaxshi ko'rgazma bolalar o'zi tayyorlagan ko'rgazma ekanligini bilgan holda ko'rgazmani iloji boricha bolalar bilan birga tayyorlash qoidasi.

13. O'zingiz yaxshi bilmagan narsani hech qachon bolalarga ko'rsatmaslik qoidasi.

14. Yangi texnik vositalar — o'quv televideniyasi, video, kompyuter va boshqalardan foydalanilayotganda, avval o'qituv-chining o'zi uni yaxshi o'zlashtirib olishlik qoidasi.

15. Ko'rgazmali qurollardan foydalanilayotganda, bolalar diqqatini, fikrlash madaniyatini, konstruktiv fikrini va o'qishga qiziqishini tarbiyalash qoidasi.

16. Ko'rgazmani, nazariy bilimni hayot bilan bog'lashda foydalanish qoidasi.

17. Kabinet tizimidan foydalanilayotganda ko'rgazma usulidan foydalanish imkoni kengayadi, shuning uchun ko'rgazmalarni ko'rsatish tartibini albatta rejalashtirish qoidasi.

18. Ko'rgazmali qurollardan foydalanilayotganda, bolalarning yosh xususiyatlardan kelib chiqish qoidasi.

19. Ko'rgazma juda ham kuchli ta'sir etuvchi vosita bo'lib, u bolalar hayolini o'ziga qattiq jalb qilib, dars mavzuining asosiy maqsadidan chalg'itishi mumkinligini anglash qoidasi.

20. Ko'rgazmadan haddan ziyod foydalanish, bolalarda abstrakt tafakkur rivojiga to'siq ham bo'lishi mumkinligini bilish qoidasi.

Tizimlilik va muntazamlilik tamoyili. Bu tamoyil quyidagi obyektiv qonuniyatlariga suyanadi:

- inson, faqat tashqi dunyoni o'z tafakkurida aniq aks ettirgandagina, haqiqiy va faol bilimlarga ega bo'la oladi;

- kishi tafakkurida ilmiy bilimlar tizimini shakllantirishining asosiy usuli, maqsadga yo'naltirilgan rasmiy ta'limning tashkil qilinishi;

- rasmiy ta'limning tashkil qilinish tartibi, o'quvchilar imkoniyati va beriladigan bilimning ichki mantiqiy tuzilishidan kelib chiqqanligi;

- bilim berish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilganligi tufayli, bilim berish samarasi, bu bosqichlar orasidagi vaqtning qanchalik qisqa bo‘lishligiga bog‘liq, bosqichlar orasidagi masofa vaqt jihatdan haddan oshib ketsa, bilim berish samara bermaydi;

- agar bilim va uning negizida shakllangan ko‘nikmalar mashq orqali takrorlanib turilmasa, bilim va ko‘nikma yo‘qolib ketadi;

- bolalarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatilgan bo‘lmasa, ular doimo fikr yuritishda qiyinchiliklarga duch keladilar;

- o‘qitishda tizimlilik va muntazamlikka amal qilinmasa, ta’lim-tarbiya jarayoni susayadi.

Pedagogik amaliyotda bu tamoyilning ishlashi quyidagi qoidalar orqali amalga oshiriladi.

1. O‘quvchilar tomonidan bilimlar tizimi to‘liq o‘zlashtirib olinishi uchun beriladigan bilimlarni mantiqiy tugallangan bilim bo‘laklariga ajratib o‘qitish.

2. Mazmunini to‘liq ochib berishga ko‘zingiz yetmagan biron-bir savol va muammoni dars rejasiga kiritmaslik.

3. Mantiqiylikni hech qachon buzmaslik, buzilgan taqdirda o‘zlashtirilmaslikning oldini olish uchun uni darrov bartaraf etishlik.

4. O‘quv fani – katta bir fanning kichraytirilgan modeli ekanini tushuntirib, fanlararo bog‘liqlikni ko‘rsatib berishlik.

5. Nazariy bilimlarning o‘zlashtirilishi to‘g‘ri ketayotganini doimo tekshirib borishlik: o‘rganilayotgan obyekti, predmeti, nazarriy asoslari, asosiy tushunchalari, nazariyasi va uning qo‘llanishi chegaralarini doimo eslatib, ularning bajarilishini tekshirish.

6. Doimo esda tutish lozimki, kunda eshitib, go‘yoki yaxshi bilgan narsani tushuntirib, ilmiy asoslab berish qiyin bo‘ladi. Shuning uchun bolalardagi avvalgi bilimlari va mantiq usullaridan doimo foydalanish zarurligi.

7. Boshlang‘ich, umumta’lim va oliy ta’lim bosqichlaridagi bilim mazmuni va uni berish usullari orasidagi muvofiqlikni saqlash.

8. O‘qitishning ilg‘or usullaridan doimo foydalanish.

9. O‘qitishda tizimlilikni va muntazamlilikni saqlash uchun, avval o‘tilgan bilimlarni doimo qaytarib turish.

10. O‘tgan bilimlarni qaytarish usulidan, faqat dars boshida va uni yakunlayotganda foydalanib qolmay, har bir bilimni tushuntirilayotganda ham undan foydalanish.

11. O‘tgan bilimlar bilan tez kirishib ketuvchi yangi gaplardan boshqa yangi fikrlarni bildirmaslik.

12. O‘quvchilar til savodxonligini faqat til o‘qituvchilar kuzatib boribgina qolmay, barcha o‘qituvchilar ham bu ishni bajarishlari lozimligi.

13. Sabr va chidam bilan hamda uzlucksiz ravishda bolalarni mustaqil fikr yuritishga va bilimlarni mehnat qilib topishga o‘rgatish.

14. Bolalarga o‘qishning istiqbolini doimo eslatib turish.

15. Har bir bo‘lim oxirida, albatta, umumlashtiruvchi mashg‘ulotlarni amalgalash oshirish.

16. Bolalar javobida uchrab turadigan xatolarni doimo tuzatib borish.

17. Charchab qolgan bolalar faoliyatini hech qachon sun’iy ravishda faollashtirishga harakat qilmaslik, faollashtirishda bolalar jismoniy va aqliy imkoniyatidan kelib chiqish.

18. Bolalardan egallagan bilimiga ko‘nikma va malaka hosil qilishni talab qilish.

19. Esda saqlash lozimki, majmuaga tushgan bilim esdan chiqmaydi. Esdan chiqib qolsa, majmua orqali uni darrov esga tushirish oson.

20. YA.A. Kamenskiyning – hamma narsa uzlucksiz ketma-ketlikda olib borilishi kerak, bugungi aytganlaringiz kechagisini mustahkamlashi va ertangi aytganingizga yo‘l ochib berishi kerak – degan nasihatini unutmaslik qoidasi.

Mustahkamlik tamoyili. Bu tamoyilda barcha ilg‘or o‘qituvchilar va pedagog olimlarning ko‘p yillik izlanishlari o‘z ifodasini topgan. Unda nazariy bilimlar bilan empirik bilimlar birlashib mustahkamlangan.

Bilimlarni mustahkam egallash jarayoni juda murakkab bo‘lib, keyingi yillardagi tadqiqotlar bu jarayonga o‘zgarishlar kiritdi.

Bilimni mustahkam egallash jarayonini shu kundagi tushunilishi, bu jarayonga quyidagi yangi qoidalarni kiritishni taqozo etdi.

1. Bugungi kungi ta'limda fikr yuritish eslab qolishdan ustunlik qilishi isbotlangan. Shuning uchun bolalar aqliy quvvatini tejash maqsadida, ulardan keraksiz va kam e'tiborli narsalarni eslab qolishiga kamroq e'tibor berib, uning hisobiga fikr yuritishiga ko'proq kuch sarflashiga yordam berish.

2. Bolalar tushunib yetmagan yoki noto'g'ri tushunib qolgan narsalarni eslab qolmasliklariga e'tibor berish lozim. Bola faqat yaxshi tushunib yetib, uning to'g'riliqiga ishonch hosil qilgan narsasini xotirasida saqlash.

3. Bola xotirasini kam e'tiborli axborotlarni eslab qolishdan holi qilish maqsadida, ularni turli lug'at va ensiklopediyalardan foydalanishga o'rgatish.

4. Eslab qolinadigan narsalarni nihoyatda qisqa qilib, yod olishga oson bo'lishi uchun, ravon, iloji bo'lsa she'r vazniga solib turib esda saqlashga bolalarni o'rgatish.

5. Esdan chiqarish bilimni egallab olgandan keyin tez kechishini hisobga olgan holda, ularni psixologiya fanining esda saqlash qoidasi asosida xotirada saqlashga yoshlarni o'rgatish.

6. Yod olishni uyga vazifa qilib bermay, uni shu narsaga qiziqtirib qo'yish va vaqt-vaqt bilan bu qiziqishni yangilab turish.

7. Takrorlash mashqlarini bola yangi bilimni egallagan paytdan boshlash. Chunki bu narsalar keyin esdan chiqib ketishi aniq.

8. Bola diqqatini susaytiruvchi ichki va tashqi omillar faoliyatiga yo'l qo'ymaslik. Dangasalik kasali bilan tinmay kurash olib borish, bilim olish sur'atini pasaytirmaslik.

9. Beriladigan bilimga qiziqish va ijobiy munosabatni shakllantirmasdan turib, yangi bilim berishni boshlamaslik. Zo'r lab berilgan bilim bola xotirasida uzoq saqlanmasligini unutmaslik.

10. Bilimni egallash sur'ati pasaya boshlashi bilan uning sababini aniqlash va bartaraf etish. Odatda, bilim olish sur'atining pasayishi charchagandan keyin paydo bo'ladi.

11. O‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda darsni qaytarish eslab qolishning muhim omili ekanini unutmaslik va o‘zini o‘zi tarbiyalashga katta e’tibor qaratish.

12. Qaytarish darslarini shunday tashkil qilish kerakki, u faqat bilimni xotirada tiklashga xizmat qilmay, fikr yuritishga ham foydasi bo‘lsin. Shuning uchun qaytarish darslarini asosiy dars tizimida o‘tmay, uning hajmini yo ko‘paytirish, yoki kamaytirish.

13. Berilgan bilim xotirada mustahkam saqlanishi uchun, uni qiziqarli qilib, ko‘rgazmali qurollardan foydalanib turib berish.

14. Yangi beriladigan bilim xotirada mustahkam qolishi uchun, uni avvalgi bilim bilan bog‘lab berish.

15. Bilimni mantiqan bir butun qilib berishga o‘rganish.

16. Oson va bir turdagи topshiriq berishdan tiyilish, ular bolalarga qiziq bo‘lmay ularni toliqtiradi.

17. Mashqlar o‘tkazishdan oldin, ularning bajarilish tartibi va natijasi to‘g‘risida ma’lumot berish.

18. Mashq davrida bolalarni charchab qolishdan saqlash.

19. Hozirgi zamon nazorat usullaridan to‘g‘ri foydalanish.

20. Bolalarni o‘z mehnatini nazorat qilish va baholashga o‘rgatish.

Tushunarilik tamoyili. Bu tamoyil bir tomondan, didaktikaning boshqa tamoyillarining talablaridan, ikkinchi tomondan, talabalar yosh xususiyatidan, uchinchi tomondan, ko‘p yillik pedagogik tajriba asosida yaratilgan.

Bu tamoyil zaminida tezaurus qonuni yotadi. Bu qonun bo‘yicha – kishiga bilim faqat uning tezaurusiga mos kelganigina tushunarli bo‘ladi. Tazaurus lotinchada «xazina»ni bildiradi. Ma’nosи, *kishining to‘plagan bilimi, ko‘nikma va fikrlash uslubi uning tezaurusini tashkil qiladi*.

Boshqa qonuniyatlarni ham ko‘rsatishimiz mumkin: beriladigan bilimning tushunarligi, uni egallayotgan bolaning yoshi individual xususiyatlariga bog‘liq; tushunarilik bilim berishni tashkil qilishga va unda qo‘llaniladigan bilim berish usul va uslublariga bog‘liq; bilimning tushunarligi o‘quvchining saviyasiiga va bilim sifatiga bog‘liqligi; bilimni tushunarligi uni berilish sur’atiga bog‘liqligi va hokazo.

Ya. A. Komenskiy shakllantirgan quyidagi qoidalar mavjud: osondan qiyinga, ma'lumdan noma'lumga va oddiyidan murakkabga. Shu zamonning pedagogik nazariya va amaliyoti tushunarlilik tamoyilini qo'llanish qoidalarini kengaytirdi va boyitdi. Ular quyidagilar:

1. Bilimni bolaning yoshiga qarab berish.
2. Bola tafakkuri berilayotgan bilimga tayyorlangan bo'lishi shart.
3. O'qitayotganda bolaning tayyorgarlik va rivojlanganlik darajasiga qarab bilim berish.
4. Bolaning individual qobiliyatidan kelib chiqib bilim berish.
5. Bilim berish sur'ati o'rtacha olib borilishi shart.
6. Bilim berishda, muayyan kuchlanishning hosil bo'lishini esda saqlash. Bu kuchlanish oshib ketsa, bolalar toliqib, kuchlanish pasayib ketsa, bolalar zerikib qolishini bilish.
7. Psixologiya va pedagogikaning yangi kashfiyotlaridan unumli foydalanish, kichik qadamlardan asta-sekin katta qadamlarga o'tish yo'li bilan ta'lim jarayonini intensivlashtirish.
8. Yangi dars o'tishda bilimi kuchli talabalardan va darsni mustahkamlayotganda bilimi o'rta va kuchsiz talabalardan foydalanish.
9. Berilayotgan bilimlarning qarama-qarshi tomonlarini ham tushuntirib, talabalarining bilim olishini osonlashtirish.
10. Talabalarga eng qiyin singadigan bilimlar tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiyligini qonunlaridir. Shuning uchun muayyan fanni o'tayotganda ustalik bilan ularni qo'shib tushuntirib ketish.
11. Sekinlik bilan shoshish! Ta'lim-tarbiya jarayonini asossiz tezlashtirmaslik va susaytirib yubormaslik.
12. Talabalarnig oraliq-yakuniy fikrlarini «bildi»ga yo'ymasdan, ulardan fikrni davom ettirish uchun foydalanish.
13. Tushunarlilik o'qituvchining so'zlarini yuqori hissiyot va har bir so'zni asoslab berilganligi bilan ham belgilanganligi.
14. Uzoq maruzalardan ochish.
15. O'qitishning bosh qismida faqat asosiylarini aytib o'tish bilan kifoyalanish.

16. «Yomon o‘qituvchi haqiqatni aytib qo‘ya qoładi, yaxshi o‘qituvchi bu haqiqatni topishni o‘quvchilarga o‘rgatadi» iborasini unutmaslik.

17. Tushunarli qilib dars o‘tish, butun bilimni talabalarga sodda tilda tushuntirib berish yoki bu bilimlarni topishni tushunarli qilib aytib berishda emas, balki kalavaning uchini ushlatib qo‘yib, bilimni sekin-asta chiqib kelishini ko‘rsatish, ularni rag‘batlantirib turish va hokazo tadbirlarga aytildi.

Ilmiylik tamoyili. Bu tamoyil asosida bir qator qonuniyatlar yotadi. Jumladan:

- dunyoni o‘rganib bo‘ladi va insoniyat aniqlagan va amaliyotda sinab ko‘rilgan qonuniyatlarni o‘rgansa bo‘ladi;

- ta‘lim-tarbiya jarayoni – ilmiy faoliyat orqali to‘plangan, obyektiv olam to‘g‘risidagi ma’lumot tizimini o‘sib kelayotgan avlodga bildiradi;

- ilmiylik – beriladigan bilimlar ma’lum bir ketma-ketlikda berilishini taqozo etadi;

- ilmiylik yana berilayotgan bilimning hozirgi zamon ijtimoiy va ilmiy-taraqqiyot darajasiga mosligi bilan hamda tuzilgan dastur va ishchi rejaga mos bo‘lishligi bilan ham belgilanadi.

Didaktika bu tamoyilni amaliyotga qo‘llashlikning bir qator qoidalarini ishlab chiqqan.

1. Pedagogik amaliyot bilan shug‘ullanganda pedagogika, psixologiya hamda dars berishning usul va uslublarining eng ilg‘orlaridan foydalanish.

2. Hozirgi zamon didaktika va psixologiya fanlarining ko‘rsatmalari bo‘yicha dars berganda, mantiqning faqat induktiv usulidan foydalanibgina qolmay, deduktiv usulidan ham bemalol foydalanish.

3. Boshdanoq o‘quv fanining ichki mantig‘ini ochib berishga intilish.

4. Talabalalarda narsa va hodisalarga dialektik yondashuvni shakllantirish maqsadida, har bir bilimni berishda uning ichki dialektikasiga ahamiyat berish.

5. «Qaytarilmasa esdan chiqadi», degan qoidadan kelib chiqib, har bir darsda yangi bilimni takrorlab turish.

6. Qonuniyatlarni tushuntirayotganda, ularni tashqi muhit, vaqt, eskilik va yangilik orasidagi tafovut hamda ichki sharoitlarga bog‘liqlikda tushuntirish.

7. O‘qitganda izlanuvchanlik hissiyotini rivojlantirish.

8. Muayyan qonuniyatni tushuntirishda, uni kashf etgan olimning qisqacha tarjimai holini gapirib berish.

9. Bilim berishda, uning tadqiq qilingan usullarini ham aytib, bolalarda tadqiqot usullaridan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

10. Dars o‘tganda atama, ta’rif va tushunchalarning eskilariga tanqidiy yondashib, eng yangilaridan foydalanish.

11. Bilim berishda tarixiylik qoidasidan kelib chiqib, berilayotgan bilimning kashf qilinish tarixini aytish.

12. Fan bilimlarini berishda, ular ichidan asosiyalarini ajratib, fandagi ustuvor yo‘nalishlarini ham ko‘rsatib o‘tish.

13. Yuqori sinf, akademik litsey, kollej, va ayniqsa, oliy o‘quv yurtlarida fandagi baxsli o‘rinlarini aylanib o‘tmaslik.

14. Bolalarning tadqiqotchilik faoliyatini rag‘batlantirib borish.

15. Yangilik topishga keng imkoniyat yaratib berish.

Nazariya va amaliyot birligi tamoyili. Bu tamoyil falsafaning bilish nazariyasining markaziy qoidasiga asoslanadi. Unda, bilishning birinchi va asosiy nuqtayi nazari – bu hayotning va amaliyotning nuqtayi nazaridir, deyiladi. U quyidagi qonuniyatlardan kelib chiqadi:

- har qanday bilimning to‘g‘riligi amaliyotda sinalib, tasdiqlanadi;

- amaliyot – haqiqat mezoni, bilishning manbai va tadqiqot natijalarining qo‘llanish ko‘lami;

- to‘g‘ri tashkil qilingan ta’lim-tarbiya hayotdan kelib chiqadi;

- ta’lim-tarbiyaning samaradorligi uning amaliyot bilan qanchalik bog‘liqligi bilan belgilanadi;

- bilim berishning samaradorligi. uning politexnik ta’lim bilan bog‘liqligi bilan belgilanadi;

- berilayotgan bilim hayot bilan qanchalik bog‘lansa, bolalardagi bilim egallash shunchalik ongli kechadi.

Bularning amaliyotda qo'llanishi quyidagi qoidalar orqali kechadi.

1. Bilim va tarbiya berishda, bola ularning, o'z hayotiga naqadar zarur ekanini bilib borishi.

2. Bilim berishda hayotdan bilimga yoki bilimdan hayotga qarab borish.

3. Bilim berishda, bu bilim hayotda zarur bo'lgani uchun kashf qilinganligini ta'kidlash.

4. Bolalarni eng yangi mehnat qurollari va mehnat munosabatlari bilan tanishtirib borish.

5. Bolalarning olgan bilimlarini amaliyotda albatta sinab ko'rishlarini talab qilish.

6. Maktabning ishlab chiqarish bilan bog'liqligini amalda ko'rsatish.

7. Bilim berish jarayonini ishlab chiqarish yutuqlaridan misollar keltirish yo'li orqali bilimni amaliyot bilan bog'lash.

8. Dars berishda, bolalarning mehnat tajribalaridan kelib chiqish.

9. Ijtimoiy mehnat faqat dars jarayoni asosida amalga oshirilishi.

10. Aqdiy mehnatni jismoniy mehnat bilan olib borish.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Pedagogikadagi qonuniyatlarni aytib bering.

2. Pedagogik qonunlarni aytib bering.

3. Pedagogik tamoyillar va qoidalar deb nimalarga aytamiz?

4. Onglik va faollik tamoyilini sharhlang.

5. Ko'rgazmalilik tamoyilini tushuntirib bering.

6. Tizimlilik va muntazamlilik tamoyili nimani talab qiladi?

7. Mustahkamlilik tamoyilini tushuntiring.

8. Tushunarlik tamoyili nima va unda qancha qoidalar bor?

9. Ilmiylik tamoyilining asosini nima tashkil qiladi?

10. Nazariya va amaliyot birligi tamoyilini tushuntirib bering.

IV.BOB. TA'LIM MAZMUNI

O'zbekiston maktablaridagi ta'limning mazmuni

1.Ta'limning maqsad va vazifalari

Har bir ijtimoiy tuzum ta'limga oldiga o'ziga xos maqsad va vazifalarni qo'yadi. Bunday vazifalar turli davrlarda turlicha bo'lgan. Jamiyat, fan, texnologiya va ijtimoiy munosabatlar o'zgarishi ana shu maqsadlarning yangilanishiga sababchi bo'ladi. Qadimgi Afina, Sparta va Rim ta'limga tiziminining oldiga qo'yilgan maqsadlar yoshlarda asosan harbiy, jismoniy va estetik tarbiyani shakllantirish bo'lgan bo'lsa, o'rta asrlarga kelib matematika, astronomiya, falsafa, geografiya fanlarining gurkiranib rivojlanishi sababli ularni o'rghanish asosiy maqsad qilib belgilangan. Uyg'onish davri va ayniqsa o'rta asrlardan keyingi davrlarda ta'limning nafaqat bilim berish, balki ta'limga oluvchini shaxs sifatida rivojlantiruvchi funksiyalariga alohida e'tibor qaratila boshlandi.

XX asr boshlarida progressiv pedagogika vakillari ta'limning maqsad va vazifalarini belgilashda turli yondashuvlarga asoslanishgan bo'lsa ham ularning umumiyligi jihatiga shundan iborat ediki, ta'limning maqsadlari, uning mazmuni va tuzilishi (strukturasi) pragmatik nuqtayi nazardan (g'arb pragmatizmi g'oyasiga asoslangan), ya'ni jamiyatning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilandi. Jamiyat, uning ijtimoiy tuzilishi va undagi munosabatlarning o'zgarishi, ilm, fan va texnologiyalarning taraqqiy etishi ta'limga oldiga yangi maqsadlarni qo'yaveradi.

YUNESKO 1988 yili o'zining mashhur qarori bilan XX asr pedagogik konsepsiyanining shakllanishiga jiddiy hissa qo'shgan to'rt pedagogi alohida e'tirof etgan. Bular Djon Dg'yui, Georg Kershenshteyner, Maria Montessori va Anton Makarenkolar. Ular tomonidan ilgari surilgan ta'limning maqsad va vazifalari o'z davri

uchun hamda aksariyat g‘oyalar bugungi kun ta’limi uchun ham g‘oyat dolzarbdir. Hususan, A.Makarenkoning fikricha, ta’limning bosh maqsadi ta’lim oluvchilarining sifatlarini shakllantirishda aks etmog‘i kerak. Birinchi bo‘lib “ta’lim” tushunchasini kiritgan shveysariyalik pedagog I.G.Pestallotsi (1746-1826) tabiat qonunlari asosida ta’lim berish g‘oyasini ilgari suradi. Bu g‘oyaning asosiy tezisi shundan iboratki, ta’lim va tarbiya inson tabiatining rivojlanishiga mos ravishda olib borilishi kerak. Uning fikricha, tabiat ta’lim va tarbiyaning eng optimal usullarini insoniyatga taqdim etgan va bu usullar tabiyatning abadiy qonunlariga tayanadi.

I.G.Pestallotsi g‘oyalarining qattiq ta’sirida bo‘lgan G.Kershenshteyner ta’limning maqsadlari haqida bunday yozgan edi: “... *Iqtisodiyot va tarbiyaning asosiy muammolari o‘zaro chambarchas bog‘liqdir: iqtisodiyotning ko‘plab muammolarini sifatli xalq ta’limisiz yechib bo‘lmaganidek, sifatli ta’lim va tarbiyaga iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vaziyatlarni yaxshilamasdan erishib bo‘lmaydi*”. Ya’ni, yosh avlodning tarbiyasi asosan davlat manfaatlaridan kelib chiqib qurilishi kerak, degan g‘oyani ilgari suradi.

Ta’lim nazariyasi va amaliyoti rivojlanishining barcha bosqichlarida turli pedagogik qarashlar, g‘oyalar, yondashuvlar shakllangan bo‘lib, ba’zilari bir-biriga tubdan qarama-qarshi bo‘lgan. Masalan, XVIII asr oxirlari – XIX asr boshlarida formal va material ta’lim nazariyalari (*Pestallotsi ushbu nazariyalarga butkul qarshi pozitsiyada bo‘lgan*) hukmron bo‘lgan. Formal ta’lim bolaning xotirasi, diqqati, qabul qilish kabi psixologik funksiyalarni rivojlantirishni, material ta’lim esa aksincha – bolaning bilim olishini asosiy maqsad qilib oladi. Bugungi kunga kelib ma’lumki, ushbu g‘oyalar bir-birini to‘ldiruvchi, uzilmas g‘oyalardir.

XIX asr oxirlari – XX asr boshlari ham ta’lim nazariyasi va amaliyotiga yangi g‘oyalar kiritilganlik bilan alohida ehtiborga loyiqidir. Bunday g‘oyalardan biri pedagogikada pragmatizm (*amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan g‘oya*) g‘oyasidir. Uning moschilari Djon Dg‘yui, U.Kilpatrik, E.Parkxerst, E.Kollings va boshqalarning fikricha tarbiyaning maqsadi “*turli vaziyatlarga*

moslashuvchan" shaxs tarbiyasidir. D.Dg'yui va uning izdoshlari fikricha, har bir insonning bolalik davridan sog'lig'iga, hayot tarziga va ma'naviyatiga g'amxo'rlik ko'rsatish orqali uning hayotiga ijobjiy ta'sir o'tkazish mumkin. Bola tarbiyasiga turli faktorlar – iqtisodiy, ilmiy, madaniy, ma'naviy va boshqalar – orqali intensiv ta'sir ko'rsatiladi. D.Dg'yui o'z davrining reformatori sifatida ta'kidlaganki, fan sifatida pedagogika uchun eng muhim manba – bu hayot sinovlaridan o'tgan va o'zining samarasini isbot qilgan metodgina afzal. D.Dg'yui falsafiy pragmatizm yo'nališining yorqin vakili sifatida "faqat foyda bersagina haqiqatdir" (*falsafada pragmatizm yo'nališining asosiy g'oyasi*) nuqtayi nazaridan kelib chiqib ta'limning ham shunga mos maqsadlarini belgilagan. Ya'ni, samarasi yo'q ta'lim metodlari va vositalari haqiqat emasdir. Biz keyingi boblarda D.Dg'yuining ta'lim berish g'oyalari asosida yaratilgan bugungi kunimizda eng samarali hisoblangan muammoli, ta'lim yondashuvining texnologiya, metod va vositalari, ya'ni loyihamiy yondashuv texnologiyasi haqida, alohida to'xtalib o'tamiz.

O'tmishdan hozirgi kungacha ta'limning bosh maqsadlari o'q tomir sifatida quyidagilar belgilanib kelingan: yoshlarni ta'lim va tarbiya jarayoniga jalb etish, insoniyat madaniy merosini keyingi avlodga tizimli ravishda yetkazish, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiya qilish.

O'tmishga nazar solar ekanmiz, XX asr boshlarigacha bizning o'lkamizda ta'lim asosan madrasalarda olib borilgan va ushbu madrasalarda diniy ta'limot olib borilgan. Xuddi shunday holatni g'arbda ham kuzatish mumkin edi: g'arb ta'limining asosiy maskanlari iezuit maktablari bo'lgan. Ularning ham asosiy maqsadlari diniy tarbiya bo'lgani bilan, lekin qisman bo'lsa-da dunyoviy bilimlar berilgan. Diniy bilimlar berilishining asosiy sababi shundan iborat ediki, ushbu davrda sanoat va ishlab chiqarish XX asrdagi kabi gurkirab rivojlanmagan edi. XX asrga kelib esa sanoatning ko'plab jabhalari ilm-fan yutuqlariga asoslangan holda rivojlanishi hamda yangi bosqichga ko'tarilishi sababli mehnat bozorida malakali, dunyoviy ilmlardan xabari bor, texnika va texnologiyani tushunadigan kadrlarga ehtiyoj kuchaya

boshlagan edi. Bunday sharoitlarda jamiyat ta'lim oldiga yangi maqsadlarni qo'ya boshladiki, bunda yosh avlod ijtimoiy munosabatlar o'rnatadigan, tabiiy fanlarni chuqur o'rgangan, insoniyatning boy madaniy merosidan xabardor bo'lishi taqozo etildi. Chindan ham XX asr davomida ta'limning asosiy maqsadlari sifatida ushbu tezislar ilgari surilgan edi. Yuqorida aytilgan fikr yana o'z tasdig'ini topmoqdaki, jamiyat ehtiyojlari va talablari ta'lim oldiga o'z maqsadlarini qo'yadi. Ya'ni, davlat jamiyat nomidan ta'limning asosiy buyurtmachisi sifatida unga yangi maqsad va vazifalarni belgilab beradi.

Bugungi kunga kelib, ya'ni XXI asr boshlarida ham, mazkur jarayon takrorlanmoqdaki, bu jarayon ta'lim oldiga jamiyatning yangi ehtiyoj va talablari asosida yangi maqsadlarni qo'yish bilan namoyon bo'lmoqda.

Bunday yangi talab va ehtiyojlar nimalardan iborat?

Ma'lumki, XXI asr postindustrial asri deyiladi. Ya'ni, insoniyat sanoat davridan yangi bosqichga, axborot asriga, bilimlarga asoslangan iqtisodiyot davriga qadam qo'ydi. Tabiiyki, bunday yangi sharoitlarda mehnat bozori ishtirokchilari, ya'ni kadrlarga bo'lgan talablar ham o'zgarib boradi.

XX asr murakkab asr edi, XXI asr undan ham murakkab davr hisoblanadi. Ushbu murakkablikni ta'limga proeksiyalasak xulosa shuki, insonlardan nafaqat fanlarga oid bilimlarni egallashni (*akademik bilimlarga ega bo'lishni*), balki ularda yangi ko'nikmalarni (*XXI asr ko'nikmalari ham deb yuritilmogda*) shakllantirishni talab qilmoqda. Avvalgi asrda insondan fanlarga oid bilimlarni egallashi, kasbiga oid tushunchalarni yaxshi bilishi yetarli bo'lган bo'lsa, hozirgi davrda inson o'z hayotini muvaffaqiyatli qura olishi uchun avvallari tasavvurimizda bo'lmagan **hayotiy** ko'nikmalarni egallashlarini taqozo etmoqda. Bunday **hayotiy** ko'nikmalar haqida keyingi boblarda batafsil to'xtalib o'tamiz.

Ta'limning maqsadlari nimalardan iborat? Yosh avlodga **qanday** ta'lim va tarbiya berish va nimalarni va qanday o'qitish kerak? Ushbu azaliy savollar pedagog-olimlarni, o'qituvchilarni,

jamiyat va davlat arboblarini, va umuman har qanday ongli insonlarni o‘ylantirib kelgan.

Ijtimoiy hayot ishtirokchilarining har biri o‘ziga xos talablarni qo‘yadi: ota-onalar o‘z farzandlari baxtli bo‘lishlarini, kerakli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlarini xohlaydilar; hukumat vakillari esa jamiyat a’zolari davlat qurilishida faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, demokratik va insonparvarlik g‘oyalarini hayotga joriy etadigan, ijtimoiy munosabatlarni faol qura oladigan insonlar yetishib chiqishini xohlaydi; iqtisodiyot o‘zining talablariga javob beradigan, raqobatga bardosh bera oladigan, tegishli kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan yetuk mutaxassislarga ehtiyoj sezadi. Bunday sharoitda, ya’ni jamiyat a’zolari ilgari surgan talab va ehtiyojlarning xilma-xilligi sharoitida, ta’lim maqsadlarini belgilashda yagona konsensusga kelish mumkinmi?

Bu savollarga to‘g‘ri javob topish nafaqat pedagogik hamjamiyatning asosiy muammolariga, balki global miqyosda ko‘tarilayotgan va yechimini kutayotgan, insoniyat oldidagi katta chaqiruvga aylangan masaladir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT: un.org) hamda uning ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (UNESCO: unesco.org), yirik jamoat tashkilotlari, xalqaro hamkorlik tashkilotlari (Global Partnership for education: gpe.com, ASCD: ascd.org, Partnership for 21st Century skills: p21.org, Technology, Environment and Design – TED Education Talks: ted.com), yirik universitetlar va ularning olimlari ham XXI asrda ta’limning maqsad va vazifalari qanday belgilanishi kerak, degan savollarga o‘zlarining aniq taklif va tavsiyalarini berib kelmoqda.

Turli davrlarda ta’limning maqsad va vazifalariga nisbatan turli, hattoki qarama-qarshi g‘oya va yondashuvlar, mavjud bo‘lganki bizning davrimiz ham bundan mustasno emas.

Pedagogik hamjamiyat bu masalada bir nechta yo‘nalish tarafdarlariga bo‘linadi. Birinchi yo‘nalish tarafdarlari, ya’ni “ta’limda pragmatizm” tarafdarlari, ta’limning masqadlarini belgilashda asosiy tezis sifatida ishlab chiqarish, sanoat va mehnat bozori talablariga javob beruvchi malakali mutaxassislarni tayyorlash g‘oyasini ilgari suradi. Ikkinchi yo‘nalish tarafdarlari

“gumanistik ta’lim”, ya’ni ta’limni insonparvarlashtirish g‘oyasini ilgari surishadi. Gumanistik ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy qonuniyati shaxsnı rivojlantirishga, uning shaxsiy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan. Bunday g‘oyaga asoslangan ta’lim maqsadlarining mazmunini belgilashda jamiyatning madaniy qadriyatlari yadro sifatida xizmat qiladi.

Pedagogik nazariyada o‘qitish maqsadlarini belgilashda alohida o‘rin egallagan, ushbu masalada yetuk mutaxassis bo‘lgan amerikalik mashhur pedagog va psixolog B.Bluм taksonomiyasini keltirish mumkin. ...

Uchinchi g‘oya tarafdlari (Ken Robinson, Dayana Xalpern, Edgar de Bono) avvalgi yo‘nalish tarafdlaridan tubdan farq qilgan holda ta’limning asosiy maqsadi inson qobiliyatini ro‘yobga chiqarishdan iborat ekanligini, har bir insonga tabiat tomonidan ma’lum bir yoki bir nechta qobiliyat in’om etilganligi va o‘zining hayot yo‘li va mehnat faoliyatini belgilashda ana o’sha qibiliyatni ro‘yobga chiqarish nuqtayi nazaridan amalga oshirishdan iborat, deb hisoblashadi.

Ushbu qarashlar avvalgi boblarda ko‘rilgan ta’limning falsafiy tamoyillari (*antropologik, akseologik, germenevtik, gumanistik, sinergetik va madaniy*) bilan bevosita bog‘liq.

BMTning “Ming yillikning rivojlanish dasturi”da qabul qilingan maqsadlar ichida insoniyatga sifatli ta’lim berish asosiy maqsadlardan qilib belgilangan. Chunki, insoniyat oldida turgan bugungi kunning global muammolarini (*ekologik, infektion kasalliklar, ocharchilik, toza ichimlik suviga ega bo‘lish kabi*) yechishda aynan sifatli va samarali ta’lim orqaligina erishish mumkinligi butunjahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etildi.

Xususan, davlatimiz ichki siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ham ta’lim tizimini rivojlantirishdan iboratdir. Bunda asosiy maqsad qilib kelajak avlodga sifatli, jahon andozalariga mos ta’lim va tarbiya berish, har tomonlama yetuk va barkamol shaxsnı tarbiyalash kabilar belgilangandir. Ushbu maqsadlar hukumatimiz tomonidan qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” kabi huquqiy-me’yoriy hujjatlarda o‘z aksini topgan.

Mazkur huquqiy-me'yoriy hujjatlarda "... fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslari..." belgilangan bo'lib, ushbu hujjatlar "... har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan".

Ushbu Qonuning 3 bandida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzlusizligi va izchilligi;
- umumiyoq o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish¹.

Ta'lim asosida jamiyat rivojlanishining obyektiv ehtiyojlari turadi. Ta'lim insonning mehnat olamiga samaraliroq kirishini, jamiyat hayotiga qo'shilishini ta'minlaydi. Mustaqillikka erishib, erkin bozor munosabatlari asosida demokratik huquqiy davlat sifatida shakllanish yo'liga o'tgan O'zbekistonda hozirgi bosqichda Xalq ta'limi tizimiga, pedagogika faniga, yosh avlodda mustaqillik va faoliytni, ishbilarmonlik va tadbirkorlikni shakllantirishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

XX asr pedagoglari va psixologlarining diqqat markazida o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish, ularni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish jarayonlarini uyg'unlashtirish,

¹ Michael Ulijens School Didactics and Learning: A School Didactic Model Framing an Analysis of Pedagogical Implications of Learning Theory 2008 y.

faoliyat va ongning o‘zaro bog‘liqligi nazariyasini ishlab chiqish, mustaqil o‘quv bilish ishlari, o‘qishni faollashtirish, ta’lim jarayonlarini optimallashtirish, faol ta’limning shakl va metodlaridan foydalanish kabi muammolar asosiy o‘rin oladi. Ularni ishlab chiqish mamlakat pedagogika va psixologiya fanlarida jahonda haqli ravishda e’tirof etilgan turli yo‘nalish va maktablar vujudga kelishini oldindan bilish imkonini yaratdi.

Ta’lim jarayon bo‘lib, u natija va tizimdir. Ta’lim jarayon sifatida bilimlar, ko‘nikma va malakalarning ma’lum yig‘indisini, faoliyat va munosabatlarning tegishli tajribasini o‘zlashtirishga qaratilgan maxsus ishlarning tashkil qilinishidir. Ta’lim natija sifatida bilimlarni, faoliyat va munosabatlar tajribasini o‘zlash-tirishda erishilgan darajadir. Ta’lim tizim sifatida davlat muassasalarini va boshqarish organlarining majmuasi bo‘lib, ular doirasida insonni tarbiyalash jarayoni amalga oshiriladi. Shu tariqa, ta’lim doimo bir yo‘la tarbiyalash jarayonini ham, o‘qitish jarayonini ham ifodalaydi. Yosh avlod haqida gap borar ekan, shaxsning kamol topishi, o‘z mavqeyini anglash va o‘zini ko‘rsatish masalalari birinchi o‘rinda turadi. Bu masalalar butun jamiyat va maxsus yaratilgan ijtimoiy institutlar va insonning o‘zi tomonidan tasodify ravishda ham, maqsadga muvofiq yo‘sinda ham hal qilinishi mumkin. Ta’lim tizimida shaxsning ijtimoiylashuvi, kasbni egallashi va moslashuvi jarayonlarini maqsadga muvofiq tarzda boshqarishga ham da’vat etilgan. Bugungi kunda har bir xalqning faqat o‘z milliy madaniyati asosida o‘qishi va tarbiyalanishi yetarli emasligi, u jahon madaniyati boyliklarini ham anglashi zarurligi to‘g‘risidagi fikrlar tasdiqlanmoqda. Bilimdon kishilarni tarbiyalashdek an’anaviy vazifa o‘rniga atroflicha fikr yuritadigan ijodkor kishilarni kamolga yetkazish vazifasi olg‘a surilmoqda. Ilgari ma’lumotlilik darjasini o‘rganilgan qoidalar, tahlil qilingan asarlar, yodlangan she’rlarning soni va bir xil masalalarni yechish ko‘nikmasi bilan belgilangan bo‘lsa, hozirgi kunda bu daraja miqyosi kengaydi. Eng muhim masalalarni qo‘ya bilish har qanday ishga ijodiy yondashish kabi xislatlar ma’lumotlilik darajasini ko‘rsatadi.

Avvalgi vaqtarda o‘quvchilarni axborotlardan xabardor qilingan bo‘lsa, endi ularda hayotni o‘zgartirish, uni yaxshi tomonga burish ko‘nikmalari va qobiliyatlarini shakllantirishga jiddiy ahamiyat berish zarur. Eng muhimi, butun tarbiyaviy jarayonni insonga qaratishdir. Ta’lim insonni bilimlar bilan qurollantiribgina qolmasligi, balki uni shaxs sifatida kamol toptirishi va takomillashtirishi ham kerak.

Boshqacha aytganda, jamiyatda ta’limni insonparvarlashtirish g‘oyalari tobora keng yoyilmoqda. Shubhasizki, jamiyat va maktabni insonparvarlashtirish muammosi ta’limning og‘zaki axborot usulini unumli, yaratuvchilik usuliga aylantirish bilangina hal bo‘lmaydi. Mazkur jarayonning eng muhim yo‘nalishi ta’lim mazmunini insonparvar qilishdir. Bu tadbir, birinchidan, shaxsda madaniyatni shakllantirishda fanlarning rolini oshirishdan, xalq milliy madaniyatining barqaror boyliklarini tushunishdan, ikkinchidan, tabiiy ilmiy va texnika fanlarini ekologik hamda ijtimoiy ahamiyatli jihatlar bilan boyitishdan iboratdir.

Ta’limni insonparvarlashtirishning eng zarur tomonlaridan biri maktab o‘quvchilarga faqat ma’lum hajmdagi bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishda yordam berib qolmay, balki ularni madaniyati, uning boyliklari va xilma-xilligiga jalb etishi kerak. Hozir o‘zbek maktabining milliy xarakteri muammosi g‘oyat jiddiydir.

2. Ta’lim mazmuni va uning tuzilishi

Pedagogik nazariyada ta’lim mazmuniga turlicha talqinlar berilgan bo‘lib, ba’zida ushbu talqinlar bir-birini inkor etuvchi hollar ham uchrab turadi.

D.Dyui o‘zining “Dunyodan – bolaga, boladan – dunyoga” kitobining (1921y.) “Bola va o‘quv dasturi” (*The Child and Curriculum*) bobida mazmun va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi munosabatni shunday ta’riflagan: “O‘rgatayotgan fanningizni qismlarga bo‘ling... Uning alohida qismlarini bosqichma-bosqich o‘rganishga majburlang va bola fanni to‘laligicha egallaydi. O‘qitishning bunday tamoyilini tutganda darsliklar shunday

yozilishi kerakki, u mantiqiy qismlarga bo‘linishi va ular mahlum ketma-ketlikda joylashishi hamda ushbu qismlarni o‘rgatish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak... Agar ta’lim mazmuni o‘quvchining asta sekin shakllanib va kengayib borayotgan tafakkurida ma’lum o‘rin egallashi, keyingi faoliyatida foydali bo‘lsa, o‘quvchining “qiziqishini” uyg‘otish uchun xilmalix metodik harakatlarga ehtiyoj qolmaydi”. Ko‘rinib turibdiki, ta’lim berishda uning mazmuni metodologiyaga (*uning ahamiyatini pasaytirmagan holda*) nisbatan birlamchi o‘rinda turadi. Aynan ta’lim mazmuni o‘qitish strategiya, yondashuv, texnologiya va metodlarni qanday bo‘lishini belgilab beruvchi birlamchi omildir.

Ta’lim mazmuniga ijtimoiy-madaniy jihatdan qaraydigan bo‘lsak, u insonni jamiyatdagi hayotga tayyorlash va ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni bajarishga tayyorlovchi, ma’lum pedagogik qoidalarga moslashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar, ijodiy faoliyat vosita va usullaridan iborat tizimdir. Boshqacha so‘z bilan aytganda, ta’lim mazmuni – ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi bo‘lib, ularni egallah o‘quvchilarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarining rivojlanishi, ularning dunyoqarashi va ahloq normalarining shakllanishi, ijtimoiy hayot va mehnat faoliyatiga tayyorlanishi ta’milnadi.

Zamonaviy didaktikada ta’lim mazmuni va uning strukturasi haqida so‘z borganda turli yondashuvlar mavjud. Uning birinchi sababi shundan iboratki, ta’limning maqsadlari hamda uning amalga oshiradigan vazifalari jiddiy tarzda o‘zgarganligidadir. Yana bir sababi esa ta’lim – insoniyat tomonidan erishgan fan yutuqlari va madaniy me’roslarni o‘quvchilar tomonidan egallah degan tushuncha o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish va ko‘zlagan maqsadlariga erishish bilan to‘qnash kelishidir.

Bir tomondan ta’lim mazmuni deganda o‘quvchiga bog‘liq bo‘lmagan tashqi ta’sir qiluvchi omil tushunilsa, boshqa jihatdan o‘quvchida ta’lim olish jarayonida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, uchinchidan esa shaxsiy va ijtimoiy madaniy jihatlar aloqasi tushuniladi.

Ta'lim mazmuniga nisbatan turli yondashuvlar va qarashlar mavjud bo'lishidan qat'iy nazar uning manbasi insoniyat tomonidan to'plangan ijtimoiy-madaniy tajriba va merosdir.

Ta'lim mazmunini belgilash va shakllantirish bir nechta bosqich orqali amalga oshiriladi. Bular:

- ta'lim mazmuni yaxlit holda, o'rganiladigan ijtimoiy tajriba elementlari, strukturasi va ijtimoiy funksiyalari umumlashgan holda pedagogik talqinda berilib davlat ta'lim standartlarida aks etgan *nazariy bosqich*;

- *maxsus bosqich*, bunda alohida o'quv predmetlarining mazmuni belgilanib o'quv dasturlarida o'z aksini topadi;

- ta'lim mazmunini shakllantiruvchi alohida o'quv predmetiga xos o'quv elementlardan iborat bo'lgan *quyi bosqich* bo'lib, darslik va qo'llanmalarda o'z aksini topadi.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida ta'lim mazmuni belgilash tartibi quydagicha amalga oshiriladi:

Davlat ta'lim standartlari umumiyl o'rta, o'rta maxsus, kasbhunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

DTSnинг ташкіл этиувчилари:

1. o'quvchilar bilimiga, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan minimal talablar
2. o'quv reja
3. o'quv dastur
4. baholash me'zonlari

O'quv predmeti pedagogik nuqtayi nazardan asoslangan va talqin etilgan ilmiy bilimlar, aqliy va amaliy faoliyat usul va vositalari (ko'nikma va malakalar) tizimi bo'lib fanning asosiy mazmuni va usullarini aks ettiradi.

O'quv predmetining fandan farqlari quydagilardan iborat: birinchidan, bilimlar hajmi bilan; ikkinchidan, bilimlarni talqin etish usullari bilan; uchinchidan, fanning barcha elementlarini o'quv fanida keltililishi bilan farqlanadi.

Odatda o'quv predmetlari tabiiy-matematik va ijtimoiy (gumanitar) bloklarga bo'linadi. Tabiiy-matematik siklga oid fanlarda deyarli barcha tabiiy va aniq fanlarning elementlari keltiriladi, ijtimoiy o'quv predmetlarida esa asosiy urg'u faktlar va tushunchalarga beriladi.

O'quv predmetlarini klassifikatsiya qilishning boshqa usuli ham mavjud bo'lib, bunda o'quv predmetini o'qitishdan asosiy komponent nimaligidan kelib chiqiladi. Masalan, fizika, ximiya, matematika, biologiya, astronomiya, geografiya, tarix fanlari "ilmiy bilimlar" asosiy komponent hisoblanadigan fanlar turkumiga kiradi; informatika, chet tillari, chizmachilik, jismoniy tarbiya, mehnat fanlarida esa "faoliyat usullari" asosiy komponent hisoblanadi; tasviriy sanhat va musiqa o'quv predmetlari esa "badiiy ta'lif va estetik tarbiya" asosiy komponent hisoblanadigan fanlar turkumiga mansub.

Umumiyl o'rta ta'lifning davlat ta'lif standarti o'quvchilar umumta'lif tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi.

Davlat ta'lif standarti (DTS) ta'lif mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lif mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'lifning barqaror darjasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. DTS o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Umumiyl o'rta ta'lifning davlat ta'lif standarti o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra davlat, hudud, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi hamda eng assosiysi o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi. Umumiyl o'rta ta'lifning davlat ta'lif standarti quyidagi tamoyillarga tayangan holda ishlab chiqiladi:

- davlat ta'lif standartining davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;
- o'quv dasturlari mazmunining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda fan-texnika rivojlanishi bilan bog'liqligi;

- umumiy o‘rtta ta’limning boshqa ta’lim turlari va bosqichlari bilan uzlusizligi va ta’lim mazmunining uzviyiligi;
- umumiy o‘rtta ta’lim mazmunining insonparvarligi;
- ta’lim mazmunining Respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;
- umumiy o‘rtta ta’limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsion texnologiyalarga tayanish;
- o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan majburiy minimal talablar.

Umumiy o‘rtta ta’lim ikki bosqichdan iborat bo‘lib, boshlang‘ich (1-4 sinflar) va umumiy o‘rtta ta’lim (1-9 sinflar)ni qamrab oladi. Umumiy o‘rtta ta’limning davlat talim standarti boshlang‘ich hamda umumiy o‘rtta ta’lim nihoyasida o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarining minimal darajasini belgilab beradi. Har bir sinf yakunida o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar o‘quv fanlari bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv dasturlarida o‘z aksini topgan.

Barcha maktab predmetlarida beriladigan ta’limning mazmuni davlat hujjatlarida, o‘quv rejasida, o‘quv dasturlari va darsliklarida aks etgan. Ana shu hujjatlar respublikadagi barcha maktablar uchun majburiydir.

O‘quv rejasi. Maktabning o‘quv rejasi maktabda o‘rgatish uchun tanlangan o‘quv predmetlarini, ularning ta’lim olish yo‘llari bo‘yicha taqsimlanishini, har bir predmetga ajratilgan soatlar miqdorini va shu soatlarning haftalarga bo‘linishini belgilaydi.

O‘quv rejalarini Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi hamda respublikadagi barcha maktablar uchun majburiy hisoblanadi. O‘quv rejalarini tuzishga predmetli o‘qitish prinsipi asos bo‘ladi. O‘quv rejasi ta’limning mazmunini belgilaydigan eng muhim hujjat bo‘lib, unda mazkur o‘quv yurtida o‘rganiladigan o‘quv predmetlarining tarkibi, ularning o‘quv yillari va haftalari bo‘yicha taqsimlanishi hamda har bir o‘quv predmeti uchun ajratilgan vaqtlar miqdori ana shularga muvofiq ifodalanadi. O‘quv rejasi aslida ta’lim mazmunining qabul qilingan u yoki bu nazariy konsepsiyasini normativ yo‘sinda va yaxlit holda aks

ettiradigan asosiy hujjatdir. Ta’limning mazmunini ifodalovchi hujjat sifatidagi o‘quv rejası ijtimoiy buyurtmaning pedagogik talqini natijasida tarkib topgan ta’lim mazmunining ifodasiiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Jahon pedagogikasida o‘quv rejasini ayrim o‘quv predmetlaridan tuzish kerakmi yoki turli fanlarga doir bilimlar qandaydir amaliy ish yoki tadqiqot doirasi guruhanadigan komplekslar va loyihalardan tuzish kerakmi, degan masala xususidagi munozara bormoqda. „Amerika Qo‘shma Shtatlarida kompleks o‘qitish uzoq muddatli elementar maktabdagina emas, balki o‘rta maktabda ham davom etadi. Komplekslik g‘oyasining o‘zi nihoyatda keng tus olgan. Amerika pedagogikasida o‘quv dasturlarini predmetlar bo‘yicha tuzishga qarshi kurash boshlanganiga yarim asrdan oshdi“. Ish tajribalari va anchagina pedagogik tadqiqotlardan ko‘rinishicha, maktabda o‘rgatish uchun tanlangan o‘quv predmetlarini bir yo‘la o‘rganish mumkin emas. Chunki, birinchidan, bunga jiddiy chegaralangan o‘quv vaqtini imkon bermaydi, ikkinchidan, ayrim o‘quv predmetlarini o‘zlashtirish uchun oldin boshqa o‘quv predmetini o‘rganish shart. O‘tmishda ana shunday fikr yuritish ma’lum predmetlarni o‘rganishda jiddiy izchillik prinsipini mustahkamlashga urinish imkonini berdi. O‘quv rejalarini o‘quvchilarning yosh xususiyatlariiga muvofiq tuziladi. O‘quv rejasiga mazkur yoshdagi o‘quvchilarga mos predmetlar tegishli hajmda kiritiladi va ular o‘quvchilarning har tomonlama muvaffaqiyatli kamol topishiga yordam berishi ko‘zlanadi. Har bir predmet uchun o‘quv soatlarining miqdorini belgilashda, birinchidan, predmetning ta’lim tizimidagi roli va ahamiyati, ikkinchidan, mazkur predmet bo‘yicha o‘rganilishi lozim bo‘lgan o‘quv materialining hajmi, uchinchidan, u yoki bu predmetni o‘rganishning didaktik xususiyatlari e’tiborga olinadi. Bulardan tashqari o‘quv rejasida o‘quvchilarning ayrim fanlarga qiziqishi, xohishlarini qoniqtirish va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida o‘tkaziladigan fakultativ mashg‘ulotlariga soatlar miqdori ajratiladi.

O‘quv rejası tuzishda quyidagi omillarga asoslaniladi:

1. Ta’limning uzluksizligi va izchilligiga;

2. O'quv fanlarining hajmi, o'quvchilarning yoshi, bilim saviyasiga qarab belgilanadi;

3. O'quv rejasiga kiritilgan fanlar dunyoviy va ilmiy xarakterga ega bo'lib, umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalgalashirishga qaratiladi.

O'quv rejasida tabiiy fanlar – matematika, fizika, kimyo, biologiya, geografiya, informatika kabi fanlar asosiy o'rinni egallab, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga ijtimoiy fanlar – ona tili, tarix, chet tili kabi fanlar bilan bir qatorda o'quvchining ma'naviy dunyosini boyitadigan va ijtimoiy hayotga tayyorlashda ahamiyatga ega bo'lgan tasviriy san'at, musiqa, jismoniy tarbiya, mehnat ta'limi va iqtisod asoslari singari fanlarni o'qitish uchun soatlar ajratiladi.

O'quv rejasining tushuntirish xatida ikkita qoida yoritiladi: o'quv rejasining tuzilish prinsiplari ta'lim mazmunining tarkibi va strukturasiga ta'sir etadigan, uni to'g'rilaydigan omillardan biri sifatida ifodalanadi; ta'lim mazmunining, ta'lim konsepsiyasini aks ettiradigan hujjat sifatidagi o'quv rejasining vazifalarini kengaytirmay turib, rejada va o'quv dasturlarida ta'lim mazmunining tarkibi va tuzilishini to'liq yoritib bo'lmaydi. O'quv rejasida o'quv predmetlarining yaxlit kontegratsiyalangan tizimi ikki marta: maktabdagagi ta'limning dastlabki va oxirgi pog'onalarida, o'qitishning boshlang'ich va yakunlovchi bosqichlarida ifodalanadi. Maktabning o'rta zvenosida predmetlarni tabaqali o'rganish asosiy o'rinni oladi.

Ta'limning boshlang'ich bosqichida integratsiyalangan kurslar kiritilishining sababi bolalarda yaqqol tabaqalangan kurslarga qiziqish bo'lmasligi, ya'ni ana shu davrda ular dunyoni yaxlit bilishi va idrok etishidir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchini bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'zi qiziqtiradi. Predmetni bilishga qiziqish aqliy faoliyatning murakkab shakllari rivojlanishiga va keyinchalik predmetlarning tavsiflanishiga bog'liq holda vujudga keladi. Amaliyotdan ko'rindan, yangi tipdagi maktablarni yaratish, ta'lim mazmunidan ortiqcha mafkuraviylashtirish va cheklashlarni chiqarib tashlash orqali ta'limdagi qoliplarning

barham topishi ancha tezlashmoqda. Lekin ta'lim jarayonining o'zini qayta qurish, o'qituvchi bilan o'quvchilar munosabatining uslublarini o'zgartirish natijalari yaxshi sezilmayotir.

Maktablarda ta'limning mazmunini yangilash borasidagi tadbirlar va echimlar orasidagi o'rta maktab o'quv materiallarini quyi sinflarga oddiygina ko'chirish bilan o'quvchilarning qobiliyatini tezroq rivojlantirishga, ta'limning sifatini oshirishga intilishlar ham uchramoqda. Bunday materiallar esa bolalar o'zlashtirishining psixologik xususiyatlariiga ham, quyi sinfdagi o'qitish metodlariga ham to'g'ri kelmaydi. Shunga ko'ra, mazkur tadbir ortiqcha so'zlarni kiritish, axborotlarni ko'paytirish bilan ta'limning mazmunini murakkablashtiradi va hajmini oshiradi, bolaning xotirasi cheksiz bo'lsa-da, uning uchun o'quv mashg'ulotini qiyinlashtiradi, xolos. Insonparvar munosabatni barpo etish qadriyatlarning o'zgarishini talab qiladi. Endilikda boshlang'ich ta'limda bilimlarning tayyor shakllarini o'zlashtirish va, asosan, faoliyatning qayta tiklash turlaridan foydalanish emas, balki bola faoliyatining bilim olish jarayoniga bog'liq izlanish turlarini faollashtirish kerak. Psixologlarning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, ta'lim ana shu yo'sinda qayta qurilsa, bola to'liq kamol topish subektiga aylanadi. Shunda u faqat qayta tiklash va to'ldirish lozim bo'lgan bilimlar bilan ta'minlanadigan pedagogik ta'sir ko'rsatish obyekti hisoblanmaydi. Bola faoliyatining jamoaga taqsimlangan shakllarida yoki o'qituvchi bilan birga ishslashda mustaqil bilim olish jarayoniga faol kirishadi va o'zining ijodiy qobiliyatlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xususan, mustaqil bilim olish jarayonidagi faol izlanish ishlarida, hatto qiyinchiliklarga duch kelinsa ham, bolaning sog'ligiga ijobiy ta'sir etadi. Shifokorlar va psixologlarning tasdiqlashicha, bolalar faolligining ro'yobga chiqmasligi ularga yomon ta'sir ko'rsatishi, intizomsizlikni, huquq buzish hollarini vujudga keltirishi, bolalarni „yuqoriga“ emas, balki „pastga“ yetaklashi mumkin. Ta'lim mazmunini qayta qurishning butun murakkabligi shundaki, bolalarni kamol toptirish talabi ularning ijodiy ishslashini kuchaytiradigan metodlarni faol qo'llashga olib boradi, ko'nikma va malakalarni shakllantirish zarurligi esa tafakkurning reproduktiv

komponentlaridan voz kechishga yo'l qo'ymaydi. Bunda ularni oqilona birlashtirish, tafakkurning samarali va reproduktiv komponentlari shakllanishining dialektik birligiga erishish, ayrim tadqiqotchilar taklif qilayotganidek, reproduktiv komponentlarni inkor qilmaslik kerak.

Jamiyat uchun nihoyatda zarur alternativ maktablarga bolalarning yaxshi o'sgan va tayyorlangan sara qismi yig'ilayotgan, qolgan barcha bolalarni o'qitish odatdagi maktablarga yuklanayotgani sababli insonparvar pedagogika g'oyalarini amalga oshirish yo'liga kirgan ommaviy maktabning vazifasi juda murakkablashmoqda. Tabiiyki, bunday maktablarda ham bolalarga ma'lum bilimlar doirasida axborotlar berish va dastlabki ko'nikmalarni singdirish bilan cheklanish mumkin emas: ularni imkonli boricha yuqori darajada kamol toptirish kerak.¹

Dastur. O'quv dasturlari DTSga asoslanib tuziladigan davlat hujjati bo'lib, unda ma'lum bir o'quv fani bo'yicha o'qitiladigan bilim hajmi va ta'lim mazmuni ifodalanadi. O'quv dasturi odatda 3 qismdan iborat bo'lib:

Birinchi bo'lim uqtirish xatidir. Bu qismda fanni o'qitishning maqsad va vazifalari, yo'nalishlari, dasturdan foydalanish tartibiga oid metodik maslahatlar beriladi.

Ikkinci bo'limda o'quv fanining asosiy mazmuni o'rGANILADIGAN nazariy va amaliy materiallar, ular o'rtaSIDAGI aloqadorlik, mavzular bo'yicha o'rGANILADIGAN bilimlar ko'lami va o'quvchida hosil qilinadigan ko'nikma va malakalar majmui ko'rsatiladi. Dasturdagi mavzular ta'lim standarti bo'yicha o'quvchilar bilimining zaruriy va yetarli bilim darajasini o'z ichiga olmog'i lozim.

Uchinchi bo'limda o'quvchilar qo'shimcha ravishda o'rGANISHLARI lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati beriladi.

O'quv dasturi quyidagi prinsiplar asosida tuziladi:

1. Dasturning ilmiylik prinsipi. Dasturga obyektiv reallikni (voqelikni) aniq, to'g'ri va haqqoniy aks ettirgan, ilmiy jihatdan tekshirilgan ishonchli materiallar kiritiladi. Ma'lumki, hozirgi kunimizda fan va texnika tobora rivojlanib bormoqda. Fanga oid

¹ Curriculum, cultural traditions and pedagogics: understanding the work of teachers in England, France and Germany (2012).

yangi ma'lumotlar va masalalar kirishi bilan o'quv dasturidagi ayrim eskirgan masalalar o'quv fanlaridan chiqarib tashlanadi.

2. Dasturning qat'iylik prinsipi. O'quv dasturlari jamiyatimiz taraqqiyotining har bir bosqichida fan, texnika, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy munosabatlar sohasida erishilgan darajasini aks ettirishi lozim. Hamma o'quv fanlariga oid dasturlarning bir necha yillar mobaynida qat'iy bo'lishiga erishish shu fan bo'yicha qat'iy darsliklar ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga ega.

3. Nazariyaning amaliyot bilan birligi prinsipi. Ilmiy bilimlarni puxta egallash va o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish uchun o'quvchilarga beriladigan nazariy tushunchalar ijtimoiy qurilish amaliyotiga bog'lab, aniq hayotiy misollar bilan: mashqlar, tajribalar ko'rsatib, xulosalar chiqarish kabilar bilan bog'lanishi lozim. Bu o'quvchining ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Dasturning asosiy vazifasi - o'quv predmetining mazmunini ifodalashdir. Unda kursning sinflarga, qismlarga, mavzularga bo'linishi, ularni o'rganish tartibi, soatlar turi ko'rsatiladi. Hatto, dasturdagi masalalar ro'yxati ham undagi boshqa bo'limlarning mazmunidan tashqari, prosessual yo'nalishi ham mavjudligidan dalolat beradi. Shunday qilib, dastur ikkita vazifani bajaradi: ta'limning mazmunini o'quv predmeti doirasida aks ettiradi va predmet uchun muayyan normativ sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, u darslikka o'tishni tayyorlaydi va uning mualliflari faoliyati uchun yo'llanma hisoblanadi.

Masalalar ro'yxati - dasturning markaziy bo'limidir, ammo unda boshqa bo'limlar ham bo'lib, ular darslikning tuzuvchilari fikrini va o'qituvchilarning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solishi kerak. Har bir o'quv predmeti bo'yicha haqiqiy dastur umuman to'rt qismdan: tushuntirish xati (har xil dasturda mazmuni turlicha); ro'yxat ko'rinishidagi mazmunning o'zi (mavzular, masalalar, laboratoriylar va amaliy ishlar, namoyishlar, ekskursiyalar); predmetlararo aloqalar ko'rsatilgan bo'lim hamda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar ifodalangan bo'limlardan iborat bo'ladi.

Kursning maqsadlari va vazifalarini ifodalash - dasturning eng muhim elementidir. Xususan, ana shu maqsad va vazifalar darslik muallifining dasturni amalgalashishdagi ma'lum nuqtayi nazarini va o'qituvchining darslikni to'g'rilashi hamda o'qitish jarayonini tashkil etishi uchun tegishli yo'naliishni belgilaydi.

O'qituvchi, ayniqsa, yosh o'qituvchilar o'z izlanishlarining yo'naliishini belgilab olish uchun kursning maqsadini chuqur anglashlari kerak.

Dasturlarda shunday vazifalar ham beriladi, o'qituvchi ularni hal qilish uchun institutda tayyorlanmagan bo'ladi. Buning misoli sifatida ta'lim mazmuniga metodologik bilimlarning kiritilishini aytish mumkin. Kursga mana shunday talablar qo'yilishining o'zi o'qituvchilarni chuqur o'ylashga majbur etadi. Tajribali pedagog o'tgan yillardagi dasturlarda bunday vazifalar bo'lmaganini sezadi. Bu hol uning mustaqil bilim olishi, ijodiy izlanishi, shuningdek, metodik birlashmada ishlashi uchun turtki bo'ladi.

Darslik. Dasturda ta'limning mazmuni *masalalar ro'yxati* orqali ifodalanadi. O'quv materiali o'quvchilarga mo'ljallangan darsliklar, o'quv qo'llanmalari, kitoblar va didaktik materiallarda, o'qituvchiga mo'ljallangan metodik tavsiyalarda yoritiladi. Darslik asosiy normativ hujjat hisoblanadi.

Darslik ma'lum bir fanning mazmunini dastur asosida didaktik talablarga rioya qilgan xolda bayon etuvchi o'quv kitobidir. Darslik bilan bir qatorda o'quvchilarni o'quv materiallari ustida tizimli ish olib borishlari ilmiy bilim-ko'nikma va malakalarni shakllantiradigan quyidagi kitob va qo'llanmalardan ham foydalananadilar:

- 1.Badiiy adabiyot.
- 2.Ilmiy adabiyot.
- 3.Ilmiy ommabop adabiyot.
- 4.Masala va mashqlar to'plami.

Darslik – o'quvchilarning kitobi va uning eng muhim qurolidir. U faqat darsda tahlil qilinadigan o'quv materialini o'zlashtirishda o'quvchiga yordam beribgina qolmay, unda mazkur predmetga qiziqish uyg'otishi, shu soha bo'yicha mustaqil bilim olish ishtiyoqini ham vujudga keltirish kerak.

Darslik o'qituvchi uchun ham metodik qo'llanma sifatida xizmat qiladi: tushunchalarni kiritish tartibini, ularni yoritish churqligini, kiritilgan o'quv materiallariga vaqtning taqsimlanishini belgilaydi.

Obrazli qilib aytganda, darslik o'qitish jarayonining „ssenariysi“dir. Unda o'qituvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar, faoliyat usullari qayd qilinadi, bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash yo'llari belgilanadi, emotsional – qimmatli qadriyatlarni tarbiyalashning ayrim vositalari ko'rsatiladi.

Darslikda ta'limning ana shu barcha mazmuni muayyan tartibda o'quvchilarning ta'lim muvaffaqiyatini ta'minlaydigan bosqichlar bo'yicha joylashtiriladi. Lekin boshlang'ich maktab darsliklari bag'oyat o'ziga xosdir. Ularning hammasida metodik apparat kichkina bo'lib, u sinflar sayin asta-sekin vujudga keladi. O'rta maktabda ba'zan o'quvchi darslikdan tamomila mustaqil holda foydalana olish-olmasligi muhokama qilinsa, boshlang'ich maktabda bu ishga o'qituvchining rahbarligi majburiyidir.

Ijodiy ishlaydigan o'qituvchilarning tajribasini tahlil qilib, juda muhim kuzatishni amalga oshirish mumkin.

Ular darslik va o'zlarining metodik qo'llanmalaridan aqida sifatida emas, balki normativ model foydalanadilar. Aslida o'qituvchilar sinfining ehtiyojini, kasbiy imkoniyatlarini nazarda tutib, o'z darsliklarini yozadilar. Ular darslikka zid ishlamaydilar, balki uni to'ldirib, kengaytirib va chuqurlashtirib, uning mualliflari bilan hamkorlikka kirishib ish olib boradilar. Binobarin, muallif bolalarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish, ularga tabaqali yondashish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

O'qituvchi doimo o'quv yili boshlanishidan oldin va keyinchalik har kuni darslikka murojaat qiladi. Uning bundan maqsadi har gal har xil bo'ladi. Darslik o'qituvchining qo'lida juda ko'p vazifalarni bajaradi. U, avvalo, predmetni o'qitish vositasi sifatida xizmat qiladi. Har bir o'qituvchi ana shu vazifani biladi va uni muvaffaqiyatli amalga oshira oladi.

Darslik va uning didaktik xarakteristikalari

Darslik o‘zining mazmun va tuzilishi jihatidan o‘quv dasturi va o‘quv predmetiga mos kelishi jihatidan o‘quv adabiyotlari ichida alohida o‘rin egallaydi. Shuning bilan birga u ta’lim jarayonini mustaqil tashkil etishning muhim vositasi ham hisoblanadi.

Darsliklar ta’lim mazmuning tarkibiy qismi sifatida ta’lim maqsadlaridan, DTS talablaridan, o‘quv dasturiga mos holda tayyorlanadi.

Ma’lumki, ta’lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri darslikdir. Uning sifati u qanday yozilganligi, qanday xarakteristikalarga ega ekanligi, bugungi kun talablariga mosligiga, didaktik tamoyillarni qay darajada aks ettira olishligiga bog‘liqdir.

Bugungi kunga kelib darsliklarga qo‘yiladigan alohida talablar birmuncha shakllangan bo‘lib, umumiyl holda quyidagilardan iborat: o‘rganilishi zarur bo‘lgan o‘quv materialining qadriligi va muhimligi; uning ilmiyligi; taqdim etilayotgan faktlarning hayotiy obrazlar bilan o‘zaro bog‘liqligi; yoritilayotgan bilimlarning hayot bilan bog‘liqligi va b.

Darsliklarga qo‘yiladigan talablar doimiy tarzda yangilanib bormoqda. Albatta, darsliklar ta’lim mazmunining barcha talablariga javob berishi, qiziqarli bo‘lishi, lo‘nda va tushunarli tilda yozilishi, o‘quvchi tomonidan o‘quv materialini to‘la o‘zlashtirish imkonini berishi kerak.

Didaktikada darsliklarning vazifalari aniqlangan bo‘lib, bugungi kunda ular quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

– *Axborot tashuvchi funksiya*. Darslik o‘quvchiga o‘quv predmetiga oid uning dunyoqarashini shakllantirishga, ma’naviy ozuqa beruvchi va olamni anglashga qaratilgan yetarli mahlu-motlarni yetkazishi;

– *Transformatsion funksiya* o‘rganishi kerak bo‘lgan ilmiy bilimlarni pedagogik tamoyillarga asosan qayta ishlash bilan bog‘liq. Darslikdagi o‘quv materiali ilmiylik, tizimlilik va ketma-ketlilik, yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, o‘quv materialining hayot va amaliy faoliyat bilan bog‘liqlik kabi didaktik tamoyillar asosida pedagogik moslashtiriladi;

– *Tizimlilik funksiyasi* o‘quv predmetiga oid o‘quv materiallarini tizimli va ketma-ketlikda bayon etilish talablarini amalga oshiradi;

– *Mustahkamlovchi va nazorat funksiyasi* o‘quv materialini takrorlash imkonini berish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘quv materiallarini o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash bilan bog‘liq;

– *Integratsion funksiya* avval egallagan bilimlarini boshqa fanlarga oid qo‘srimcha axborotlar bilan to‘ldirish imkonini beradi. Mazkur vazifaning yana bir jihat shundan iboratki, o‘quv predmetining mazmuni fanning asoslaridan iboratligidandir;

– *Muvofiqlashtiruvchi funksiya* o‘quv materiallarini o‘zlashtirish jarayoniga turli o‘quv vositalarini (*xaritalar, mashqlar to‘plami, elektron o‘quv vositalari, ensiklopediya, audio va video materiallar, o‘quv qo‘llanmalarni*) jalb etishni taqozo etadi.

– Darslik mazmunining o‘quvchiga ma’naviy qadriyatlar orqali ta’sir ko‘rsatuvchi *tarbiyaviy funksiyasi*.

Darslik asosan matndan iborat bo‘lib, u o‘z navbatida ta’rif beruvchi matn, bayon etuvchi, mulohaza yurituvchi matnlarga bo‘linadi. Bundan tashqari darslikda qo‘srimcha komponentlar ham ishtirok etishi muhim hisoblanadi: savollar, topshiriqlar, masala va mashqlar, eslatmalar, jadvallar, muhim termin, ta’rif va tushunchalarni alohida shriftlar bilan ajratilishi, grafik va illyustrativ materiallardan iborat bo‘lishi, sarlavhalarga ajratilishi.

Darslik bilan o‘quv jarayoni o‘zaro bog‘liq bo‘lib, unda savollar, topshiriqlar, jadvallardan, statistik, xronologik ma’lumatlar va hokazolardan o‘z o‘rnida foydalanish lozim.

Darsliklardiagi savollar va topshiriqlar ta’lim konsepsiysi asosida tuzilgan va metodik nuqtayi nazardan to‘g‘ri joylashtirilgan (kamol toptirish maqsadida yoki rasmlar orqali ifodalangan) bo‘lishi lozim. Ular, asosan, quyidagi uch guruhga bo‘linadi.

Birinchi guruhga bilimlarni musta’kamlash, o‘zlashtirilgan narsalarni esga tushirish va malakalarni shakllantirishga doir savol va topshiriqlar kiradi.

Ikkinchi guruh tafakkurni o‘stiradigan (mustaqil ishlashni, taqqoslash, umumlashtirish, baholash, xulosa chiqarish, bilimlar

tizimini musta'kamlash, aniqlash va tajribaga solishni talab qiladigan) savol va topshiriqlardan iboratdir.

Uchinchli guruhi o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llashga (mustaqil ishlarni bajarish va malakalarni egallashga) doir savol va topshiriqlarni o'z ichiga oladi.

Darslikda dasturning barcha talablari aks etishi va asosiy g'oyalar, xulosalar yaqqol ifodalanishi lozim.

Darslikni bolalarga moslashtirishda quyidagilarni alohida e'tiborga olishni bilish kerak:

- materiallarni darsliklarga to'g'ri taqsimlash;
- o'quvchilarga beriladigan vazifalarni asta-sekin qiyin-lashtirib borish (tizimga solish);
- o'quvchilarga tabaqali yondashishni nazarda tutish (topshiriqlarni qiyin yoki osonligiga qarab tanlash);
- darsda, uy vazifalarini bajarishda, takrorlashda asosiy va qo'shimcha materiallarni ajratish;
- darslikdagi savol va topshiriqlarning mo'ljallangan vaqtga mosligi va o'quvchilarni qiy nab qo'ymasligi;
- darslikning mazmuni (o'quvchilarni qiziqtirishi, matnlarning g'oyaviy va estetik jihatlari) uni o'rgatishning metodik tizimiga muvofiq bo'lishi;
- darslik tilining osonligi va ravonligi, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun namuna bo'la olishi.

Darslikning asosiy komponenti uning matnidir. Matnlar asosiy va qo'shimcha materiallardan (murojaat, hujjat, xrestomatiya va hokazolardan) hamda tushuntirishlardan iborat bo'ladi.

Darslikni tahlil qilishda uning tuzilishi, mavzularning o'rni, illyustratsiyalarga boyligi va eng muhimmi o'quvchilarga ta'siri hisobga olinishi kerak. Mana shu talablar amalga oshirilishi uchun har bir yangi darslikni yaratishning o'ziga xos muammolarini to'g'ri hal qilish, darslik o'quv-metodik ishlarning asosi bo'lishi kerakligini nazarda tutish shart.¹ Darslikni tahlil qilishda uning tuzilishi, mavzularning o'rni, illyustratsiyalarga boyligi va eng

¹ Peter Menck. Looking Into Classrooms: Papers on Didactics. 2010-y

muhimi o‘quvchilarga ta’siri hisobga olinishi kerak. Mana shu talablar amalga oshirilishi uchun har bir yangi darslikni yaratishning o‘ziga xos muammolarini to‘g‘ri hal qilish, darslik o‘quv metodik ishlarining asosi bo‘lishi kerakligini nazarda tutish shart.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartini izohlang.
2. O‘quv rejasи, dasturlar va darsliklar nimalarga asoslanib tuziladi.
- 3.O‘quv rejasini tuzishda qanday omillarga asoslaniladi?
- 4.O‘quv dasturi qanday prinsiplarni o‘z ichiga oladi?
- 5.Darsliklarni tahlil qilishda nimalarga e’tibor berishimiz kerak.

V BOB. O'QITISH JARAYONI

1.O'quv jarayonini tashkil etishning shakllari

O'quv jarayonini tashkil etishning shakllari haqida tushuncha. Ta'lim ijtimoiy hodisa bo'lib, uning tarixi juda uzoqdir. Ta'lim kishilik jamiyatni rivojining dastlabki davrlaridayoq katta rol o'ynagan. U to'plangan tajribalarni, dunyo haqidagi axborotlarni berish jarayonini ta'minlagan, insoniyatning faqat ijtimoiy rivojlanishiga emas, balki qiyin sharoitlarda yashay olishiga ham yordam bergen. Ta'limning tashkiliy masalalalari Al-Forobiyning "Fan va aql zakovat" asarida o'quv fanlarini guruhlarga bo'lib o'qitish. Ularning tarbiyaviy mohiyatini ochib berish masalalariga bag'ishlangan. Uzluksiz rivojlangan jamiyatda ta'limning mukammal jamoa shakli, ya'ni dars ming yillar mobaynida vujudga kelgan. Y.A. Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida tarbiyaning oldingi barcha tajribalarini umumlashtirdi, sinfning dars tizimida ta'limning asosiy didaktik prinsiplarini izchil ifodaladi. O'sha zamondan buyon 350 yil o'tdi. Shuncha vaqt mobaynida darsning tashkiliy shakllari ham, ta'limning metodlari ham uzluksiz takomillashib bordi.

Xalq maktablari tashkil topganidan boshlab o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi hamda o'zaro munosabati muammolari ham vujudga kelgandir. Ma'lumki, o'qituvchining bilimi uning darsdagi va uydagi faoliyatining xarakteriga bevosita bog'liqdir, faoliyatsiz bilimlar ham bo'lmaydi. O'qituvchi ajoyib yo'sinda dars o'tishi, lekin bu darsning natijasi muayyan o'quvchi uchun hech narsaga arzimasligi mumkin.

Shularga ko'ra, o'qituvchi o'zini ana shunday o'quvchining o'rniga qo'ya bilishi, uning darsdagi faoliyatini va unga mактабда butun o'qish davridagi munosabatini tasavvur qilishi g'oyat muhimdir. Zotan tarbiya va ta'lim asta-sekin amalga oshadi hamda o'quvchiga barcha darslar majmui qanday ta'sir etishiga, o'quvchi

o‘qituvchi rahbarligida ongli va faol bajaradigan ishlarning hajmi hamda muntazamligiga bog‘liqdir.

O‘qituvchining vazifasi - darsda tafakkur va faoliyatning ana shu turlarini eng to‘g‘ri uyg‘unlashtirishdir. Binobarin, bunday uyg‘unlik dars samaradorligini oshirishning muhim omilidir. O‘qituvchi dars muammolariga to‘g‘ri yondashishi uchun ta’lim jarayonining asosiy komponentlarini bilishi, ularning o‘zaro bog‘liqligi va bir-biriga ta’sirini tushunishi lozim. Obyektiv mavjudlikning mohiyatini bilishi ta’limning maqsadlaridan biridir.

Ta’limda bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga quyidagi komponentlar kiradi:

1.Hodisalarini, narsalarini kuzatish, axborotlarni idrok etish.

2.Olingan axborotlarni tahlil qilish (bilimlarning xarakterli belgilarini aniqlash, taqqoslash, ko‘chirish, birinchi jarayonda olingan axborotlarni o‘zgartirish va undan olingan axborotlar doirasidan chiqish).

3.Eslab qolish.

4.Ishlar, umumlashtirishlarning to‘g‘riligini tekshirish hamda baholash.

Umuman aytganda, ta’limni boshqarish o‘qituvchi o‘qish jarayonining asosiy strukturasi, elementlari, xususan, o‘quv materialining mazmuni, ta’lim metodlari, faoliyat usullari, shakllari va vositalari to‘g‘ri amalga oshuvi hamda o‘zaro ta’sirini ta’minalashdan iboratdir.

2.Ta’limda sinf-dars tizimining vujudga kelishi

Ta’limni boshqarishning asosiy tashkiliy shakli quyidagi ma’lum belgilarga ega bo‘lgan mashg‘ulotlar guruh yo‘sunida o‘tkaziladi:

- mashg‘ulotlarning har yili va har bir o‘qish kuni bir paytda boshlanishi;

- mashg‘ulotlar va ular orasidagi tanaffuslarning ma’lum vaqt davom etishi;

- guruhlardagi bolalarning yoshi va soni jihatdan baravarligi;

- material o‘rganish sur’atining bir xilligi;

- o'quv mashg'ulotlarining ma'lum tashkiliy shaklda o'tkazilishi.

Guruqlik mashg'ulotlarning sinf-dars tizimi deb atalgan bunday shakli keng tarqaldi, mustahkamlandi va hozir ham ancha takomillashgan holda mavjuddir.

Maktab rivojlanishi tarixida 20 yillarda ta'limning yakka tartibdagi shakli notanqidiy yo'sinda qabul qilindi va amaliyotga ta'limning brigada - laboratoriya metodi bilan kiritildi. Unda bir guruh (5-6 nafar) o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan materialni mustaqil holda o'rganganlar. O'qituvchi maxsus tushuntirishlar bermay, faqat yo'l-yo'riqlar ko'rsatgan. Hamma narsa uchun brigadir javob bergen. Bunday ta'lim bolalarining o'quv faoliyatini uchun mas'uliyatini pasaytirgan. Maktab barham topishining noto'g'ri pedagogik konsepsiyalari davrida talimning "loyihalar metodi" deb atalgan shakli vujudga kelgan. Unda o'quvchilar o'qituvchining topshirig'i bo'yicha qandaydir obyektning loyihasini tayyorlaganlar. Mazkur g'oyalar mualliflarining aytishicha, o'quvchilar loyihani tuzishda o'quv rejasi bo'yicha o'tiladigan predmetlarga doir kompleks bilimlarni o'zlashtirgan. So'nggi yigirma yil mobaynida pedagogika nazariyasini kombinatsiyalashgan darsni o'rghanishdan darsni elementlari bo'yicha bosqichma-bosqich o'zlashtirishga, undan sintetik va nihoyat, muammoli o'rghanishga o'tdi. Tadqiqotlarning uzviyligi va uzviy yondashi to'g'risida juda ko'p ilmiy adabiyotlar mavjud. Masalan, M.I.Maxmutov, T.D.Kirilova, F.F.Korolyov va E.G.Yudinlarning hozirgi zamon darsi, uni tashkil etish, kamol toptiruvchi ta'lim sharoitidagi dars nazariyasini va amaliyotini, muammoli dars va hokazolarga doir kitoblarida darsga sistema sifatida qaralsagina, uni chuqur tushunish mumkinligi qayd qilingan. Lekin pedagoglar 70 yillardagina darsni o'rghanish va tushuntirishga sistemali yondashish zarurligini to'la angladilar. Fanlar rivojlanishining hozirgi bosqichida darsni qanday tushunish kerak?

Dars nazariyasida hozirgacha bu tushunchaning yangi ta'riflari yo'q. Ko'p ta'riflarda xuddi ilgarigidek, dars ma'lum vaqt mobaynida tarkibi o'zgarmaydigan o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini tashkil etishning shakli bo'lib, u bolalarni o'qitish,

tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish uchun muntazam qo'llanishi ifodalangan. Darsda o'quv-tarbiya ishlarining barcha komponentlari: maqsad, mazmun, vositalar, metodlar, tashkil etish va boshqarish faoliyati hamda uning hamma didaktik elementlari mujassamlangan, deb hisoblash qabul qilingan. Tabiiyki, dars yaxlit ta'lif jarayonini o'quv-tarbiya ishining boshqa tashkiliy shakllari - uy vazifalarini bajarish, predmet to'garaklarining mashg'ulotlari, sayrlar va hokazolar bilan uzviy birlikda aks ettiradi. "Darsni ikki jihatdan: umuman, ta'lif jarayoni va ta'lifni tashkil etish shakli sifatida ta'riflab uni foydali deb hisoblash taklifi bor (M. I. Maxmutov). Ta'limga umumiy jarayoni dars o'qitish harakatining ta'lif mazmuni, prinsiplari va metodlari bilan belgilanadigan, ma'lum makon-zamon chegaralarida o'qituvchi rejalashtiradigan hamda boshqaradigan birgalikdagi obyekt o'qituvchi va o'quvchilar amalga oshiradigan asosiy shaklidir.

Mazkur tushuncha ikkinchi nuqtayi nazaridan quyidagicha ta'riflanadi: dars ma'lum tarkibdagi o'qituvchilar (muallimlar) bilan o'quvchilarning maqsadga muvofiq o'zaro ta'siri (faoliyatlar va aloqalari) jarayonini tashkil etishning, ta'lif mazmuni, shakllari, metodlari, vositalarini o'z ichiga oladi, ta'lif jarayonida o'qitish, kamol toptirish va tarbiyalash vazifalarini amalga oshirish uchun (bir xil vaqt ichida) muntazam qo'llanadigan boy va o'zgaruvchan shaklidir". (Qarang: M.I.Maxmutov. "Современный урок".)

3.Dars – mактабда о'quv ishlarini tashkil qilishning asosiy shakli

Hozirgi paytda o'quv ishlarini tashkil etishning quyidagi shakllari qo'llanadi: dars, ekskursiya, o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlar, mehnat va ishlab chiqarish ta'limi shakllari, uy ishlari, sinfdan tashqari o'quv ishlarining shakllari (predmet to'garaklari, studiyalar, olimpiadalar, tanlovlari).

Pedagogik adabiyotlarda va mакtab amaliyotida darsdagi ishlarni tashkil etishning asosan uchta: yakka tartibdagi, umumiy

va guruhiy shakllari qabul qilingan. Biz darslardagi va uydagi yakka tartibdagagi ishlari deganda o'quvchilarning o'zlarini uchun maxsus tanlangan va har birining imkoniyatlariga mos topshiriqni bajarishlarini tushunamiz. Shunga ko'ra o'qituvchi o'quvchining o'ziga xos imkoniyatlarini aniqlab, unga faqat tayyor namuna bo'yicha emas, balki mustaqil holda ishlashni ham talab qiladigan topshiriqlar sistemasini tanlaydi. Bunday ish tasodifiy emas, balki muntazam, puxta o'yangan bo'lishi va bunda o'quvchining xususiyatlari hamda imkoniyatlari hisobga olinishi lozim. O'quvchi imkoniyatlarining ikki tomoni nazarda tutilishi zarur. O'quv imkoniyatlarining ichki tomoniga fikrlash va eslab qolishdan iborat o'qish qobiliyati; o'quvchi ilgarigi ta'lilda olgan maxsus bilimlar, shuningdek, o'quv mehnatiga doir ko'nikma va malakalarning, ma'lum darajada ish qobiliyati va mas'uliyatning, o'qish sabablari majmuyining mavjudligi kiradi. O'quvchi imkoniyatlarining tashqi tomoni unga maktabda xilma-xil ta'sir ko'rsatishdan va uning oila muhitida oladigan taassurotlaridan iboratdir. Yakka tartibdagagi ta'limga har bir o'quvchiga yetarli darajada chuqur va puxta bilimlar berish uchun, har bir o'quvchi maqsadga muvofiq kamol topishini va zaruratga qarab o'zining bilimlarini mustaqil holda to'ldirib borish ko'nikmalariga ega bo'lishini ta'minlash uchun kerak. Yakka tartibdagagi ishlarni darsning hamma bosqichlarida tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday ishlardan bilimlarni mustahkamlash, takrorlash va turli mashqlarni uyushtirishda foydalanish juda osondir. Ular yangi materialni o'rganishda ham g'oyat samaralidir. O'quvchilar bilan olib boriladigan yakka tartibdagagi ishlari rejasini quyidagi yo'sinda tuzish mumkin:

- dastlab mustaqil ishlarni o'tkazish hamda o'quvchi yashaydigan va o'qiydigan sharoitlarni tahlil qilish orqali uning imkoniyatlarini o'rganish;
- o'quvchilar bilan yakka tartibda ishslashning didaktik vositalarini yaratish;

- har bir o'quvchi uchun eng maqbul topshiriqlarni hamda bilim olishi va kamol topishini nazorat qilish sistemasini belgilash, o'quvchini o'z vaqtida murakkabroq masalalarni hal qilishga

o‘rgatish, amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish va umumlashtirish, tuzatish va xulosalar chiqarish.

4.Darsga qo‘yiladigan talablar

1. Har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo‘lmog‘i lozim. Buning uchun:

a) dars yoshlarni barkamol shaxs ruhida tarbiyalashning umumiyl maqsad va vazifalaridan kelib chiqadigan aniq bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lishi;

b) darsning maqsadi albatta, o‘quvchilarga tugallangan bilim berishni nazarda tutgan bo‘lishi;

c) bir soatlik darsda o‘tishga mo‘ljallangan mavzu dastur materialining bir qismi sifatida ifodalanishi va bu materiallar o‘zaro ichki mantiqiy bog‘lanishga ega bo‘lishi;

d) o‘tilishi kerak bo‘lgan materialning xarakteriga ko‘ra qanday dars tipi, o‘qitish metodidan foydalanish nazarda tutilishi;

e) sinf o‘quvchilarining faolligini oshirish maqsadida umumsinf va ayrim o‘quvchilar bilan qanday ish olib borish kerakligi belgilangan bo‘lishi kerak.

2. Har bir dars mustahkam g‘oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyaviy yo‘nalishga ega bo‘lmog‘i lozim:

a) darsning mazmuni o‘tilayotgan mavzuning mohiyatiga bog‘liq holda o‘quvchilarni g‘oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladigan materiallar bilan boyitilishi;

b) dars o‘tilayotgan mavzuning mazmunidan kelib chiqadigan tabiat, jamiyat va kishi tafakkuri taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlar o‘quvchilarining ilmiy dunyoqarashi va e’tiqodlarining shakllanishiga qaratilgan bo‘lishi;

c) dars o‘tilayotgan mavzuning mazmunidan kelib chiqadigan ilmiy nazariyalar orqali o‘quvchilarining dialektik, materialistik dunyoqarashlarini shakllantirish va o‘quvchilarni barkamol shaxs ruhida tarbiyalashi lozim.

3. Har bir dars albatta, turmush bilan, amaliyot bilan bog‘langan bo‘lmog‘i lozim. Bunda ayniqsa:

a) matematika, fizika, kimyo, biologiya, geometriya va boshqa fanlarning ilmiy asoslari, uni turmushda, ishlab chiqarish amaliyotida qo'llashi;

b) sanoat va qishloq xo'jaligining rivojlanishida fanning tutgan o'mi kabilar nazarda tutilishi lozim.

4. Har bir dars xilma-xil metod, metodik usul va vositalardan keng va unumli foydalangan holda olib borilishi lozim.

5. Darsga ajratilgan har bir soatni tejab undan samarali foydalanish lozim.

6. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyati birlashgandagina qo'yilgan maqsadga erishish mumkin. Buning uchun:

a) o'qituvchi darsga puxta tayyorlanishi;

b) shu dars davomida ishlatiladigan ko'rgazmali o'quv materiallarini to'g'ri tanlashi va ishlatishi;

d) sind jamoasi va har qaysi o'quvchi bilan munosib muomalada bo'lishi;

e) sind faolligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni to'g'ri belgilashi, ayniqsa, o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishlarini, ularning diqqatini jalb qilish va ma'lum topshiriqlarni kitob bilan ishslash, tajriba o'tkazish va yozma grafik ishlarni bajarish.

5. Dars tizimi strukturasi elementlari va tiplari

Ta'limning strukturasi va tizimi haqida tushuncha. Avvalo, strukturaning nimaligini ko'rib o'tamiz. Har bir fandagi „struktura“ tushunchasi o'ziga xos mazmunga ega. Chunki har qanday obyekt, jarayon, hodisaning ichki tuzilishi bo'lib, unda turli aloqa va munosabatlar mavjud. O'quv jarayoni ham o'zining tuzilishiga ega va u zvenolar, deb ataladigan o'zaro bog'liq ma'lum qismlardan tashkil topadi. Butun ichidagi ana shu zvenolarning o'zaro bog'lanishi mazkur jarayonning strukturasini vujudga keltiradi. Lekin, ma'lumki, strukturasiz tizim bo'lmanidek, tizimsiz struktura ham bo'lmaydi. Shunga ko'ra, strukturani tizimdagи o'zaro bog'liq elementlarning tartiblari, deb ta'riflash mumkin. Biz tizim tushunchasiga nimalarni kiritamiz?

Tizim - o'zining xossalari va bog'lanishlari bo'yicha u yoki bu tartibdagi o'zaro bog'liq ko'p elementlardir.

O'quv jarayonining strukturasi va tizimini yaqqol tasavvur etish uchun bu jarayon qanday zvenolardan tashkil topganini, ular orasidagi o'zaro bog'lanish qandayligini va har bir zveno qanday elementlardan iboratligini aniq bilish zarur. Avval o'quv jarayoni qanday zvenolardan tashkil topishini va ular orasidagi bog'lanishlarni ko'rib chiqamiz.

Dars tuzilishi – bu darsning ko'plab elementlardan tashkil topgan elementlari bo'lib, u o'qitish jarayonida yuzaga keladigan faoliyatni maqsadli yo'naltirishga xizmat qiladi.

O'quv jarayoni quyidagi zvenolarga ega bo'ladi:

1. O'qituvchining o'quvchilar diqqati va tafakkurini jalgilishi, shu orqali ularni o'quv materialini faol idrok etishga olib borish maqsadida bilish vazifasini o'rtaqa qo'yishi.

2.O'qituvchi tomonidan bilimlarning berilish jarayoni va o'quvchilarning yangi materialni o'zlashtirishi.

3.Ilmiy tushunchalarning shakllantirilishi va umumlashtirilish jarayoni, o'quvchilarни bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va takomillashtirish.

4.O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tegishli vaziyatlarda qo'llash.

5.O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirayotganini tekshirish.

Har kuni o'quv jarayonining tarkibiy qismi umumiyl vazifalarni ham, o'ziga xos funksiyalarni ham bajaradi. O'quvchilar ularning birida bilish vazifasini anglaydilar, ikkinchisida o'rganilayotgan materialni idrok etadilar va tushunadilar, uchinchisida ko'nikma va malakalarini takomillashtiradilar. Har bir zvenoda yangilikning qandaydir qismi idrok etiladi, mehnat madaniyatining qandaydir elementlari o'zlashtiriladi. Ularning har birida ta'limning umumiyl va o'ziga xos funksiyalari ma'lum yo'sinda birlashadi. O'quv jarayonining mazkur barcha zvenolari o'zaro chambarchas bog'langan. Masalan, o'quvchilar bilish jarayoniga loqayd munosabatda bo'lsa, o'quv materialini chuqr va ongli o'zlashtirishi mumkin emas. Bunday holda zveno ikkinchi vazifaga

faol tayyorgarlik rolini bajaradi. Agar o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida o'z mushohadalari kuchi bilan ilmiy tushunchalarni, qonunlarni umumlashtirmasa, yangi materialni idrok etish jarayoni yuzaki bo'lib qo'jadi. Shu maqsadda o'qituvchi yangi materialni o'tishda:

a) induktiv;

b) analitik-sintetik, ya'ni tushunchalarni muayyan hodisalarini analiz va sintez qilish asosida asta-sekin shakllantirish;

d) deduktiv yo'llardan foydalanadi.

Yangi materialni o'zlashtirishning har bir yo'lida muayyan va mavhumlikning, tasavvur va tushunchalarning o'zaro bog'lanishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tasavvur predmetning, asosan, tashqi ko'rinishini, ya'ni insonning sezgi organlari bevosita idrok etishi uchun qulay belgilarini aks ettiradi.

Tushuncha esa narsalarning mohiyatini anglash imkonini beradi va mazkur sinfga mansub barcha predmetlar uchun umumiyligi xususiyatlari, belgilar va bog'lanishlarni aks ettiradi. Har bir fan o'zaro bog'liq tushunchalar tizimini tashkil qiladi. Demak, qandaydir fanning asoslarini o'zlashtirish, avvalo, mana shu fandagi tushunchalar tizimini o'rganishga chambarchas bog'liqdir.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini dastlabki, vaziyatlarda, ya'ni namuna bo'yicha, shuningdek, hayotiy sharoitlarga yaqin yangi vaziyatlarda qo'llash ta'lim jarayonining muhim zvenosi hisoblanadi. Chunki insonning amaliy faoliyati bilimlar haqiqatligining mezoni sifatida xizmat qiladi. Ana shunday faoliyatsiz ta'limni hayot bilan, amaliyot bilan bog'lashdan iborat muhim vazifani hal qila olmaymiz.

Shu tariqa barcha zvenolar o'zaro chambarchas bog'lanishda o'quv jarayonini tashkil etadi. O'z-o'zidan ayonki, ta'lim jarayonida mana shu hamma zvenolar belgilangan tartibda yoki to'laligicha amalgalashuvining ahamiyati yo'q. Bunda o'quv jarayonining ma'lum qismida bir zvenoning ikkinchi zvenoga qo'shilishi, o'zaro singishi qandaydir zvenoning yetakchilik rolini bajarishi kuzatiladi. O'quv jarayoni amalda ancha o'zgaruvchandir. Aytaylik, o'quv jarayonining ma'lum bir qismida o'quvchilar

bilimini tekshirish va baholash asosiy vazifa hisoblanadi. Lekin **bundan boshqa zvenolar jarayonida daxlsiz bo‘ladi,** degan ma’no **kelib chiqmaydi.** Bunda barcha zvenolarning umumiyl vazifalari **namoyon bo‘laveradi.** Negaki, bilimlarni tekshirish va baholash **to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa,** hamma o‘quvchilar faollashadi, ularning har biri tegishli bilimlarni ongli ravishda eslaydi, o‘rtoqlarining javoblarini tanqidiy eshitadi, masalalarning yechilishini diqqat e’tibor bilan kuzatadi, tajribalarning bajarilishiga qiziqadi va o‘zi ham har onda ishga qo‘shilish uchun tayyor bo‘ladi.

Dars strukturasi o‘quvchilar bilish faoliyatining xarakteri bo‘yicha tasniflanadigan darslarning tipiga bog‘liq bo‘ladi. Ularni o‘tkazish usullari, ta’lim metodlari esa o‘quvchilar mustaqil ishining darajasi bo‘yicha tasniflanadi. Darsning quyidagi tiplari mavjud: o‘quvchilar yangi bilimlarni o‘zlashtiradigan, faktli materiallar to‘planadigan, kuzatishlar o‘tkaziladigan, jarayon va hodisalar o‘rganiladigan, ularni anglanadigan, tushunchalari shakllantiriladigan, ko‘nikma va malakalar tarkib toptiriladigan darslar, bilimlar umumlashtiriladigan va tizimlashtiriladigan darslar, bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni takrorlash, mustahkamlash, boshqacha aytganda, kompleks qo‘llash darslari, bilim, ko‘nikma va malakalar og‘zaki hamda yozma ravishda sinaladigan nazorat tekshirish darslari, bir necha didaktik masalalar baravar hal qilinadigan kombinatsiyalashgan darslar. Darsning muayyan miqdordagi tiplarini belgilashning turlari, yo‘llari bilan uning ancha jiddiy strukturasi ishlab chiqilgan. Masalan, kombinatsiyalashgan darslar quyidagi sxema bo‘yicha tashkil qilingan: tashkiliy jihat, o‘quvchilar uy vazifasini qanday bajarganini tekshirish, o‘quvchilardan o‘tilgan mavzu bo‘yicha so‘rash, o‘qituvchining yangi materialni bayon etishi, o‘rganilayotgan materialni mustahkamlash, uygaga vazifa berish. O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasini tahlil qilish, didaktlar (I.T. Ogorodnikov, M.I. Maxmutov, V.A. Onishchuk, R.A. Mavlonova va boshqalar)ning tanqidi, darsning strukturasini tushuntirish, ta’limning hozirgi talablariga javob bermaydi, degan xulosaga olib keladi. Darsning strukturasi faqat o‘qituvchi va o‘quvchilarning darsdagi hamkorlik faoliyati tashkil topishining tashqi ko‘rinishini aks ettirib

qolmasligi, balki o‘quvchilar bilish faoliyati bilan bog‘liq ichki jarayonning mohiyatini ham ifodalashi lozim. Kamol toptiruvchi ta’lim sharoitida “darsning strukturasi” tushunchasini aniqlashda uni uchta: didaktik, mantiqiy psixologik va metodik shartlar asosida ko‘rib chiqish tavsiya etiladi. Bunda doimiy komponentlar: oldin o‘zlashtirilgan bilim va harakatlar usullarini faollashtirish hamda qo‘llashdan, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat didaktik struktura asos bo‘ladi (M.I. Maxmutov).

Hozirgi zamon darsining eng muhim xususiyatlari yangi o‘quv materialini va uni amalda qo‘llashni o‘zlashtirish bilan birga, ilgari o‘rganilgan narsalarini o‘zlashtirish, sintez qilish, takrorlash va mustahkamlash, nazorat qilish kabi elementlarining o‘zaro bog‘lanishidir. T.A. Ilina darsning o‘z strukturasiga barcha asosiy elementlarini olgan tipini, ya’ni umumiy yoki aralash darsni tavsiya etadi.

Darsning birinchi bosqichi tashkiliy qism. Odatda, bu qismga salomlashish, o‘quvchilarning, sinf xonasidagi jihozlarning darsga tayyorligini tekshirish, darsda yo‘q o‘quvchilarni aniqlash, ishning rejasini e‘lon qilish kiradi. Tashkiliy qismning maqsadi darsda ish vaziyatini vujudga keltirishdir.

Darsning ikkinchi bosqichi yozma uy vazifasini qo‘ylgan maqsaddan qat’iy nazar, turli metodlar bilan tekshirish.

Darsning uchinchi bosqichi o‘quvchilarning bilimlarini og‘zaki tekshirish (yoki ularidan so‘rash).

Darsning to‘rinchi bosqichi o‘qituvchining bayon etishi asosida yoki o‘quvchilarning mustaqil tahlil qilishi orqali yangi materialni tushuntirish.

Darsning beshinchi bosqichi uyga topshiriq berish. Darsning bu qismiga mazkur topshiriqning mohiyatini, lozim bo‘Isa, uni bajarish metodikasini ham tushuntirish, uni o‘qituvchining o‘zi doskaga yozishi, o‘quvchilarning daftarga yoki kundalikka ko‘chirishi kiradi.

Darsning oltinchi bosqichi yangi materialni mustahkamlash, ya’ni dastlabki yoki yo‘lakay mazkur material bayon qilinayotganda amalga oshiriladigan mustahkamlashdir.

Darsning yettinchi bosqichi uni tugallashdan iborat bo‘lib, bu ish tashkiliy ravishda amalga oshirilishi kerak. Chunki dars faqat o‘qituvchining ko‘rsatmasi bo‘yicha mustahkamlanadi. Muallif darsning ana shu yettita elementini nazarda tutib, uning strukturasini quyidagicha ifodalaydi: Bilim va malakalarni shakllantirish darsining tuzilishi:

- Darsning maqsadini qo‘yish;
- Yangi materialni o‘zlashtirish uchun zarur o‘quvchilarning bilim va malakalarni takrorlash;
- Tekshirish mashqlarini o‘tkazish;
- Yangi bilimlar bilan tanishtirish, o‘zlashtirish namunasini ko‘rsatish;

- Ularni o‘zlashtirishga qaratilgan mashqlarni bajarish;
- Ularni mustahkamlashga qaratilgan mashqlarni berish;
- Mashqlarni namuna asosida takrorlash;
- Ijodiy xarakterdagi mashqlarni bajarish;
- Darsni yakunlash;
- Uyga topshiriq berish;

Takrorlash darsining tuzilishi:

- Darsning tashkiliy qismi;
- Ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning qo‘yilishi (aniqlashtirilishi);

Uy vazifasini tekshirish, bilim, ko‘nikma faoliyati asoslarini tashkil etuvchi fikrleshga e’tibor qaratish (amaliy va nazariy tarzda). Avvalgi darsda kelgusi dars takrorlash darsi bo‘limini nazarda tutgan holda uyga vazifa berilishi kerak; Darsdagi takrorlashni umumlashtirish, o‘quv jarayoni natijalarini tekshirish, uyga vazifa berish.

- Bilimlarni tekshirish darsining tuzilishi;
- Darsning tashkiliy qismi. Mazkur holatda ishchan, sokin holatni bo‘lishi zarur. O‘quvchilar tekshiruv va nazorat ishidan qo‘rmasliklari yoki o‘qituvchi ularning o‘zlashtirishlarini tekshirishi haqida ortiqcha hayajonlanmasliklari kerak;

- Darsning maqsadini qo‘yilishi. O‘qituvchi o‘quvchilarga ularning qaysi dars materiallari yuzasidan bilimlari tekshirilishi va nazorat qilinishini e’lon qiladi. O‘quvchilarga tegishli qoidalarni

eslash va nazorat ishi jarayonida qo'llash ta'kidlanadi. O'quvchilarga o'z ishlarini o'zlari tekshirib chiqishi zarurligi aytildi;

- Tekshiruv yoki nazorat ishi mazmunining bayoni (masala, misollar, diktant, insho yoki savollarga javoblar o'z tarkibi, qiyinlik darajasi bo'yicha dasturga mos bo'lishi va har bir o'quvchining imkoniyati yetadigan darajada bo'lishi kerak);

- Darsni yakunlovchi bosqichi. O'qituvchi o'quvchilarning eng yaxshi ishlarini rag'batlantiradi, boshqa ishlarda yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil qiladi, xatolar ustida ishslashni tashkil qiladi (ba'zi hollarda bu ishlar kelgusi darsda olib boriladi). Tipik xatolarni, bilim, malakalarni egallahsha yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish, bilim va malakalarini takomillashtirish.

Yangi bilimlarni, malakalarni egallovchi dars tuzilishi:

- Darsning tashkiliy qismi (o'quvchilarni psixologik yo'naltirish)

- Dars mavzusi va maqsadining bayoni
- Malakalarni shakllantiruvchi yangi bilimlarni o'rganish;
- Qabul qilingan va o'xhash vaziyatlar bo'yicha dastlabki malakalarni egallah va mustahkamlash;
- Bilim va malakalarni o'zgartirilgan vaziyatlar misolida ko'rib chiqish;

- Bilim va malakalarni ijodiy qo'llash;
- Malakalarni egallah mashqlari;
- Uy vazifa;
- O'quvchilar bajargan ishlarini baholash orqali darsni yakunlash. Takrorlash, umumlashtirish darsining tuzilishi:

- Tashkiliy vaziyat;
- O'qituvchining kirish so'zida takrorlash umumlashtirilishi rejalashtirilgan mavzu yoki mavzularning ahamiyati ta'kidlanadi, darsning maqsadi va rejasi e'lon qilinadi. O'quvchilar tomonidan turli og'zaki va yozma umumlashtiruvchi va tizimlovchi topsiriqlari yakka va jamoa holatda bajaradilar, bunda malakalarni shakllantiruvchi, umumlashtiruvchi bilimlar, umumlashtiruvchi faktlar asosida olib boriladi;

- Bajarilgan ishlarni tekshirish, korrektirovkalash (zarur holatlarda);

- O‘rganilgan material bo‘yicha xulosalash;
- Darsning erishilgan natijalarini baholash;
- Darsni yakunlash;
- Uyga vazifa berish (doimiy).

Aralashgan dars tuzilishi (bunday dars tuzilishi odatda o‘z oldiga bir nechta didaktik maqsadlarni qo‘yadi)

- Darsning tashkiliy qismi;
- Uy vazifani tekshirish, darsning maqsadini qo‘yilishi;
- O‘quvchilarni yangi bilimlarni qabul qilishga tayyorlash, bilimlarning dolzarbligi, amaliy va aqliy malakalarining egallanishi;

- Yangi mavzuning bayoni, shu bilan birga tushuntirish;
- Dars davomida o‘rganilgan yangi bilimni mustahkamlash, avval o‘rganilgan bilimlar bilan bog‘lash;
- Yangi bilimlarni avvalgilari bilan bog‘lagan holda bilim va malakalarini umumlashtirish va tizimlash;
- Darsni yakunlash va dars natijalarini;
- Uyga vazifa berish;

O‘quvchilarni yangi materialni o‘zlashtirishga tayyorlash (zarur hollarda)

6.Darsslarning turlari

Darsslarning faqat tiplari bo‘yicha emas, balki turlari bo‘yicha ham tasniflanishi ularni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun muayan darajada ahamiyatga molikdir. Pedagogik adabiyotlarda darsslarning turlari har xil asoslar bo‘yicha ifodalanadi. Darsslarni o‘quvchi va o‘qituvchilar faoliyatining xususiyati bo‘yicha turlarga ajratish amaliy maqsadga muvofiq emas, bunday ajratishni ta’lim metodlarini amalga oshirish usullari bo‘yicha bajarish lozim.

Mazkur holda darsslarning tiplari va turlari bo‘yicha tizimlashtirish mukammal shaklga ega bo‘ladi:

- pedagogik maqsad va o‘quv materiali darsning tipi, turini, didaktik maqsadlarini tanlash zaruratini keltirib chiqaradi va bular, o‘z navbatida, ta’limning metodlarini, vazifalarni hamda maqsadga

erishishning omillari sifatidagi ta'limning vositalari, masalalarini yechish usullarini oldindan belgilaydi.

Darslarning turlari quyidagicha:

- I. a) dars ma'ruza
- b) dars suhbat
- d) kino darsi
- e) nazariy yoki amaliy mustaqil (tadqiqot tipidagi) ishlar darsi
- f) aralash dars (bitta darsda darsning har xil turlari birikmasi)
- II.a) mustaqil (og'zaki yoki yozma mashqlardan iborat reproduktiv tipdagi)
- b) dars laboratoriya ishi
- d) amaliy ishlar darsi
- e) dars ekskursiya
- III.a) og'zaki (umumiyl, yakka tartibda, guruhiy) so'rash
- b) yozma (yakka tartibda) so'rash
- d) sinov
- e) sinov amaliy (laboratoriya) ishi
- f) yozma ish
- g) aralash dars.

7.Darsga qo'yiladigan psixologik talablar

I. Darsga qo'yilgan talablar:

Zamonaviy darsga qo'yiladigan didaktik talablar:

- Ta'limiy topshirqlarni uning barcha elementlarini hisobga olgan holda aniq qo'ya bilih.
- O'quv rejasi va darsning maqsadini hisobga olgan holda hamda o'quvchilarning tayyorligi, tayyorgarligini, darsning optimal mazmunini belgilash.
- Darsda va uning har bir bosqichida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishlarini hisobga olish.
- Darsdagi jamoa va individual ishlash yo'llarini hisobga olgan holda samarali metod, usul va shakllarni tanlash.
- Darsda barcha didaktik prinsiplarni qo'llash.

- O'quvchilarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

II. Darsga bo'lgan psixologik talablar:

Darsning psixologik maqsadlari:

- Aniq olingan o'quv fani va aniq darsni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning rivojlanishini loyihalash;
- O'tilgan darsdagi topshiriqlarni o'zlashtirish darajasi asosida darsdagi psixologik topshiriqlarni hisobga olish;
- O'quvchilarni rivojlanishiga sharoit yaratuvchi alohida ahamiyatga ega bo'lgan psixologik pedagogik ta'sir etishni rejalashtirish;
- Rivojlantiruvchi ta'lim prinsiplari asosida darsning mazmuni va tuzilishini aniqlash;
- O'quvchilarning fikrlash va esda saqlashlaridagi mutanosiblik;
- O'quvchilarning qabul qilish va ijodiy faoliyatlarini hajmini aniqlash;
- Mustaqil izlanish mobaynida o'qituvchi so'zlari asosida o'quvchilarni bilimini o'zlashtirishiga tayyorgarligi;
- O'quvchilarda yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarini ya'ni (muammo kim tomonidan qilinganligi va uni qanday hal qilishni);
- O'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, tahlil etish va baholash, hamda o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilishini amalga oshirish;
- O'quvchilarni hamkorlikdagi faoliyatga chorlash qilingan ishlarni tahlil qilish, qiyinchiliklarni bartaraf etish.

O'qituvchi faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari;

- Darsga tayyorgarlik va eng asosiysi uni amalga oshirishning psixologik maqsadlarini anglash va uni amalga oshirishga bo'lgan tayyorgarlik;
- Darsni boshlash va uni olib borish mobaynida o'qituvchi faoliyatida quyidagilar;
- Fikrning aniqligi, darsning psixologik maqsadini pedagogik maqsadlar bilan uyg'unligi, harakatchanlik, maqsad sari sobitlik,

dars jarayonida yuz beradigan barcha holatlarga ijodiy yondashish, pedagogik topqirlik va h.k.

– Darsdagi psixologik holatda xushvaqtlik, kayfiyatini saqlash, o‘zaro munosabatlardagi samimiylilik, ishchanlik muloqoti va h.k.

O‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil qilish

– O‘quvchilarni samarali faoliyat yuritishi va fikrlashi uchun zarur bo‘lgan choralarini aniqlash:

– O‘quvchilarning obyekt va holatlarni qabul qilish va fikrlash yo‘llarini rejalashtirish;

– Ishontirish, uqtirish shakllarini qo‘llash;

– O‘quvchilarning diqqatini jamlash sharoitlarini rejalashtirish;

– O‘quvchilarning yangi bilimlarini o‘zlashtirishlari uchun zarur bo‘lgan ilgari egallagan bilim, ko‘nikma va malakalaridan foydalanish (suhbat, yakka so‘rov, o‘tilgan mavzular yuzasidan mashqlar)

– Yangi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda o‘quvchilarga sharoit yaratish:

– O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari darajasini aniqlash;

– Tushuncha, tasavvur, tushunish, yangi fikrlarni qabul qilish darajalarini aniqlash;

– O‘quvchilarning faolligini oshirish uchun ish usullarini rejalashtirish;

– O‘quvchilar faoliyatida turli xildagi ijodiy ishlardan foydalanish (ishning maqsadini tushunish, uni bajarish shartlari, materialni tanlash va tizimga solish, hamda natijani aytish);

Ishning natijalarini mustahkamlash:

– Mashqlar asosida;

– Ilgari o‘zlashtirilgan bilimlardan keyinchalik ish faoliyatida foydalanishda.

O‘quvchilarning individualligi:

– O‘quvchilar o‘zlarining bilimini rivojlantirish va aqliy faoliyatini mustahkamlashi uchun zarur omil sifatida qarashi;

– O‘quvchilarni o‘zlashtirish darajasiga qarab guruqlash, ularga beriladigan individual topshiriqlarni e’tiborga olish.

O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.

- Dars jarayonini o'quvchilarning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish;
- Dars jarayonini tashkil etishda o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarni hisobga olish va ularga individual yondashish;

III. Darsga qo'yilgan gigiyenik talablar:

- Havoning fizik va kimyoviy holati (shamollatishning zarurligi);

- Toliqish va charchashning oldini olish;
- Faoliyat turlarining almashinuvi (nazariyaning amaliy mashg'ulotlar bilan almashinuvi)
- Jismoniy daqiqalarni o'z vaqtida hamda talab darajasida bajarilishi;
- O'quvchining dars mobaynida qabul qilish va o'zini tutishiga e'tibor berish;

IV. Darsni tashkil etish texnikasiga qo'yilgan talablar:

- Dars o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va intilish uyg'otishi.
- O'quvchi va o'qituvchi faoliyati tugallangan bo'lishi, darsning davomiyligi optimal bo'lishi;
- Darsda pedagogik takt va pedagogik optimizm bo'lishi, o'qituvchi va o'quvchilarning to'liq hamkorligida amalga oshirilishi zarur;
- Faol ijodiy mehnat va ixtiyoriy faoliyat yuritish holatini ta'minlanishi;
- Imkoniyat darajasida o'quvchilar bilan olib boriladigan faoliyat turlarini almashtirish;
- Maktabning kun tartibini saqlashga harakat qilish;
- Har bir o'quvchining faol bo'lishiga erishish.

V. Dars bosqichlarini rejalashtirish:

- Mavzu yoki bo'lim yuzasidan dars tizimini ishlab chiqish.
- Dastur, metodik qo'llanma, maktab darsligi va qo'shimcha adabiyotlarda berilgan tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni aniqlash.
- Dars materialining zaruriy mazmunini saralash, ularning didaktik xususiyatlariga qarab tanlash;

- O‘quvchi dars jarayonida eslab qolishi zarur bo‘lgan materialni ajratish;
- Darsning tuzilishi, tipini, samarali metodlarini aniqlash asosida darsni tashkil etish.
- O‘quvchilarni yangi bilim va malakalarini shakllantirish jarayonida mazkur materialning yoki axborotning mazmunini avvalgi va keyingi material mazmuni bilan bog‘lash.
- O‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining barcha bosqichlarini rejalashtirish.
- Darsning didaktik vositalarini tanlash.
- Ta‘limning texnik vositalarini tanlash.
- O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga xizmat qiluvchi mustaqil ishlarning shakl va hajmini aniqlash.
- O‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash yo‘llarini bilish.
- Uyga vazifa berish yo‘llarini o‘ylash.
- Darsni yakunlash shakllarini o‘ylash.
- Dars rejasи va borishini talablar asosida yozib borish.

8.Darsga tayyorlanish

Darsning samaradorligi deganda uning ikkita tarkibiy qismini ko‘rish mumkin, bular: darsga puxta tayyorgarlik ko‘rish va darsni o‘tish mahoratidan iborat. Yomon rejalashtirilgan, yetarlicha o‘ylanmagan, shoshilinch loyihalangan va o‘quvchilar imkoniyatlari bilan uyg‘unlashmagan dars yaxshi sifatli bo‘lishi mumkin emas.

Darsga tayyorlanish – bu butun bir tadbirlar majmuasini ishlab chiqish, ayni paytda pirovard natijani ta’minlaydigan o‘quv tarbiya jarayonini tanlashdir. O‘qituvchining darsga tayyorlanishi uch bosqichdan iborat: aniqlash, oldindan aytib berish, loyihalash (rejalashtirish). Bu o‘rinda o‘qituvchining materialni yaxshi bilishi, o‘z fani doirasida erkin fikrlay olishi ko‘zda tutiladi. U o‘z kasbiy mavzusiga oid papkasini yoki ish kitobini yuritib, unga o‘zi dars o‘tadigan fan sohasidagi eng yangi ma’lumotlarni to‘playdi,

muammoli masala va topshiriqlarni, test materiallarini jamlaydi. Takror aytamiz, muvaffaqiyatli dars o‘tish uchun o‘qituvchi amaliy va o‘quv materialini ishonch bilan puxta egallagan bo‘lishi zarur. Darsga puxta tayyorgarlik ko‘rish ishlari o‘quv axborotlarini sinf imkoniyatlariga, yuqori samara beradigan bilish mehnati va jamoa hamkorligini tashkil etishda qulay shart-sharoit (shakl) ni baholash va tanlashga “moslashishga” olib keladi. Dars berishning oqilona shaklini tanlash uchun o‘quv mashg‘ulotini qat’iy ravishda rejalashtirish zarur. Uning asosida darsni tayyorlash algoritmi (qidalar majmui), barcha muhim omillar va holatlarni hisobga olishni kafolatlaydigan izchil tadbirlar bo‘lishi zarur. Demak, algoritm (qidalar majmui)ni amalgalash oshirish muayyan shart-sharoitlarni aniqlash bilan boshlanadi. Diagnostika (tashxis) bu – tarbiyaviy ishlarni loyihalash munosabati bilan dars o‘tishdagi barcha vaziyatlarni “ochib” berish bilan o‘quvchilarning imkoniyati, ularning faoliyati va xulq-atvori motivlari, o‘qitish darajasi talab qiladigan ehtiyojlar va ishtiyoqlari, qiziqish va qobiliyatlar, o‘quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, darsning tuzilishi, shuningdek, o‘quv jarayonida butun vaqtini qanday sarflanishini, tayanch bilimlarni takrorlash (aktualizatsiya)ga, yangi axborotlarni o‘zlashtirishga, mustahkamlash va sistemalashtirishga, bilim, malakanai tekshirish va xatolarni to‘g‘rilashga ketgan vaqtini chuqur tahlil etish bilan ifodalanadi. Ushbu bosqich mashg‘ulotlar samaradorligini belgilovchi omillarning ta’sirini yorqin tasavvur etiladigan darsning diagnostik kartasini vujudga keltirish bilan yakunlanadi. Oldindan aytish bo‘lajak darsni o‘tishdagi turli variantlarni baholash va ular orasidan eng maqbulini tanlashga qaratilgan. Oldindan aytishning zamонавиу texnologiyasi dars samaradorligi miqdoriy ko‘rsatkichlarini quyidagi yo‘llar bilan chiqarishga yordam beradi. Darsning asl maqsadi bo‘lgan bilim (malakalar) hajmini shakllantirish 100% deb qabul qilinadi. Unga to‘sinqilik qiluvchi omillar, tabiiy ravishda bu ko‘rsatkichni pasaytiradi, yo‘qotishlar kattaligi (maxsus metodika orqali aniqlanadi) va ideal natijada chegirib tashlanadi, shunday qilib, pedagog o‘ylagan shakl bo‘yicha dars samaradorligining erishishi mumkin bo‘lgan aniq

ko'rsatkichi aniqlanadi. Agarda bu ko'rsatkich o'qituvchini qoniqtiradigan bo'lsa, u darsga tayyorlanishning yakunlovchi bosqichi, rejalashtirishga o'tadi. Qoniqtirmasa – o'zgartirish mumkin bo'lgan omillar vositasida darsni tashkil etishning yanada mukammal shaklini izlashga majbur bo'ladi.

Loyihalash (rejalashtirish) – tayyorlanishning yakunlovchi bosqichi bo'lib, u o'quvchilarni aqliy faoliyatini boshqarish dasturini tuzish bilan tugaydi. Boshqarish dasturi bu – qisqa va aniq, erkin tuzilgan hujat bo'lib, unda o'qituvchi jarayonni boshqarishning o'zi uchun zarur o'rinlarini qayd qiladi, kimdan va qachon so'rash, qayerda muammoni yuzaga keltirish, mashg'ulotning keyingi bosqichiga qanday o'tish kerakligi, oldindan ko'zlangan qiyinchiliklar paydo bo'lganda jarayonni qanday shaklda qayta qurish mumkin va boshqalar shular jumlasidandir. Boshqarish dasturi darsning an'anaviy rejasida boshqarish ta'sirini aniq, ravshan belgilash bilan farq qiladi.

Yosh o'qituvchilar darsning reja konspektini bat afsil yozishlari kerak. Bu qoida amaliyot talabi bo'lib, undan hali biror o'qituvchi bo'lajak darsni tashkil etishning har bir tafsilotigacha o'ylab chiqmasdan haqiqiy ustoz bo'la olmagan. Qachonki, takror-takror tuzilishlar odatga aylanib qolganda, rejaning hajmi muttasil kamaya borib, u harakatlarning aniq dasturiga aylangandagina, qisqartirilgan yozuvlarga o'tish mumkin bo'ladi.

Yosh o'qituvchi rejasida quyidagilar aks etgan bo'lishi kerak:

- darsning o'tish sanasi va mavzu rejasiga muvofiq uning tartib raqami;
- dars o'tilayotgan sinf va dars mavzusining nomi;
- o'quvchilarga ta'lim tarbiya berish va ularni rivojlantirish maqsad va vazifalari;
- dars izchilligini ko'rsatgan holda uning tuzilishi va har bir bosqichlari bo'yicha vaqt taxminiy taqsimlangan bo'lishi;
- o'quv materialining mazmuni;
- darsning har bir qismida o'qituvchi tomonidan qo'llanadigan metod va ish usullari;
- dars o'tish uchun zarur bo'lgan o'quv qurollari;
- uyga topshiriqlar.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

- 1.Ta’lim olish jarayonida qanday komponentlardan foydalilanildi?
- 2.Darsning tashkiliy shakllarini ochib bering.
- 3.Dars tizimi, strukturasi, elementlari va tiplarini so‘zlab bering.
- 4.Laboratoriya mashg‘ulotlarida dars tizimi, uning tiplari va turlariga oid munozara uyushtiring.
- 5.Maktab o‘qituvchisining darsga tayyorlanishini o‘rganib, u haqda konspekt yozib keling.

VI BOB. O'QITISH METODLARI

1.O'qitish metodlarining nazariy asoslari

Maktabdagagi o'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirilishiga, o'quvchilarda mustaqillik va ijodiy faoliyotning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Usul va metod tushunchalari o'zaro bog'liqdir, chunki ularning har biri metod sifatida ham, usul sifatida ham namoyon bo'ladi. Pedagogika amaliyotida o'qitish usullari va metodlarining juda katta boyligi to'plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o'qitilayotgan fanning xarakteri, bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokazolar hisobga olinadi. Forobiyning fan va san'atning afzalligi haqidagi risolasida o'quv jarayonini tashkil etishga va o'qitish metodlariga qo'yiladigan talablar ifodalangan. Olimlar o'zlarining o'qitish metodlari haqidagi tushuntirishlarida o'quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatish, ularni bilimlarning zarurligiga shak-shubhasiz ishontirish kerakligini uqtirgan Sharq qomusiy olimlarining asarlarini tahlil qilish, hozirgi terminologiyadan foydalanib, mazkur asarlar mualliflarining prinsiplari va o'qitish metodlari bilishning umumiy qonunlariga muvofiqligini aniqlash imkonini beradi. Barcha qomusiy olimlar foydalangan o'qitish metodlarini bir necha guruhg'a ajratish mumkin. Bular: ko'rsatmali tajriba metodlari (Ibn Sino), bilimlarni bayon qilishning savol javobli yo'llari (Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy), ko'nikma va malakalarни shakllantirish metodlari, bilimlarni tekshirish metodlari (Forobiy, Al-Xorazmiy) va hokazolardan iboratdir. Shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olimlarning barchasi o'quvchilar faoliyatini kuchaytirish va ularda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish maqsadini ko'zlaganlar. Burhoniddin Zarnudjiyning fikricha, insonning bilish faoliyati

bilmaslikdan bilishga qarab boradi. Aqil ravot, yuvaly kuchlari, Koinotni bilish qurolidir. Ammo, dastlabki tajribasiz bilishning bo'lishi mumkin emas. Chunki umuminsoniy aql tushunchasi taqqoslash, kuzatish va tajriba yo'li bilan tarkib topadi. Bundan shunday pedagogik xulosa chiqarish mumkinki, inson hissiy idrokni boyitish bilangina o'zining bilimlarini oshira oladi. Shuning uchun ta'limda o'quvchilarning o'zidagi tajribaga tayangan metodlardan iloji boricha keng foydalanish kerak.

Metodlar va usullarni tanlash o'qituvchi darsda hal qilishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo'llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llanadi. Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylash va samarali usullar hamda metodlarni tanlash juda muhimdir. O'qituvchi darsning eng boshida 4–5 daqiqa umumiyo so'rashni amalga oshiradi va o'quvchilarning qaysi guruhi o'tgan dars bo'yicha yetarli darajada o'zlashtirmaganini aniqlaydi va keyingi so'rashda sinfning diqqat-e'tiborini eng avval ana shu masalaga qaratadi. Dastlab savollarga bat afsil javob bera oladigan o'quvchilardan so'raydi. Natijada sinfning bir qismi uchun murakkablik qilgan material tushunarli bo'ladi. Bu usul o'quvchilarning mashg'ulotlardagi nuqsonlarini payqash va shu zahoti bartaraf etishda yordam beradi. Mazkur usulning samaradorligi ham xuddi ana shunday. Garchi har bir o'qituvchining ishida anchagina usul va metodlar mavjud bo'lsada, ularni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining ta'limiy ishlarini faollashtirishdir. Bu tadbir juda muhim bo'lib, birinchidan, o'quvchilarни ularning e'tiqodiga, e'tiqodni esa amaliy faoliyatga, xatti-harakatga aylantiradi, ikkinchidan, o'qitish jarayonining ishini osonlashtiradi. Zotan, o'qish, o'rganish, diqqat, e'tiborni talab qiladigan murakkab faoliyatdir va unda o'tkir aql, mustahkam iroda, tiniq tasavvur, kuchli xotira zarur. O'qituvchining vazifasi samarali usul va metodlardan foydalaniib, o'quvchilarda ana shu sifatlarni tarkib toptirish va ularga qiyinchiliklarni yengishni o'rgatishdir. Hozirgi o'qitish jarayonida qo'yiladigan talablar nima va o'quvchilarda darsga qiziquvchanlikni oshiradigan, uni yangilik elementlari bilan boyitish uchun nima qilish kerak? Hozirgi zamon

ta'limi faqat insoniyat erishgan bilimlarni o'zlashtirishni emas, balki jamiyat endi hal qilishi va bunda bugungi o'quvchilar qatnashishi lozim bo'lgan masalalar bilan tanishishni ham talab qiladi. Bunday masalalar kosmosni o'zlashtirish, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish, cho'llarni hosildor yerlarga va bog'-rog'larga aylantirish, qishloq xo'jaligini intensivlashtirish va hokazolardan iborat bo'lishi mumkin. Xalq xo'jaligi va fanning hamma sohalarida juda katta burilishlar ro'y bermoqda va har bir o'qituvchi o'zining tarbiyalanuvchilarini o'zi o'qitadigan fan sohasi bo'yicha navbatdagi qayta qurilishlar va erishilgan yutuqlar bilan keng tanishtirishi kerak. Bu ishni o'quvchilarga mos shaklda va o'quv dasturiga muvofiq amalga oshirish lozim. Mazkur talabning ikkinchi xususiyati o'qituvchining o'quvchilar fikr doirasini kengaytirish to'g'risida doimo g'amxo'rlik qilishidir. Ta'limning mana shu bosqichida o'qituvchi oldida o'quvchilarga oddiygina bilimlar berish emas, balki ularning fikr doirasini kengaytirish, qiziquvchanligini oshirish va ularda o'zi o'qitadigan fanga muhabbat uyg'otish vazifasi turibdi. Shunday qilib, o'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchilar nazariy hamda amaliy bilsiz faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'ldir. Unga quyidagi muayyan talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'li fikrlashning dialektik-materialistik usuli, mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va xulqning shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu talab nuqtayi nazaridan metod tarbiyaviy tusda bo'lishi lozim.
2. O'qitish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo'lmasligini ko'ra oladi.
3. O'qitishning tizimliligi uning samaradorligini belgilaydi.
4. O'qitish metodining tushunarligi: o'qitishning yo'li o'quvchi uchun qabul qilinishi va qo'llanishi, o'quv materialini o'rganishning usuli esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim.

5. O‘qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.

6. Bilimlarning puxtaligi va asosliligi.

7. O‘qitish metodikasi nazariy va amaliy hodisalarning muvoifiqligi.

Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko‘zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo‘yishni, unga erishish bo‘yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi. Har qanday faoliyat uning obyektini talab qiladi. Nihoyat, metod maqsadga olib borishi kerak, aks holda; oldinga qo‘yilgan maqsad uchun yaroqsizligini yoki bu holatda uning umuman noto‘g‘ri qo‘llanganini e’tirof etish lozim. Shunday qilib, har qanday metod uni qo‘llashdan ko‘zlanadigan maqsadni, shu maqsadni amalga oshirish faoliyatini va faoliyatni bajarish vositalarini talab qiladi. Bu vositalar faoliyat obyekti to‘g‘risidagi predmetli yoki aqliy bilimlar, qo‘yilgan maqsadga albatta erishishdan iborat bo‘lishi mumkin. Bularning hammasi har qanday metodga nisbatan maqsadga muvofiqdir, lekin o‘qitish metodi uchun yetarli emas. Metod strukturasiga o‘qitish usullari kiradi. Lekin metod mazkur usullar majmuidan iborat emas. Usul o‘qituvchi yoki o‘quvchilar aqliy yoki amaliy ishining alohida operatsiyalarini bo‘lib, ular mazkur metoddha tavsiya etilgan materialni o‘zlashtirish shaklini to‘ldiradi. Masalan, o‘qituvchi eslab qolish usulini beradi. Usul metoddan ajraladi, o‘zining bilimlarini o‘zlashtirishdagi va ko‘nikmalar hamda malakalarni shakllantirishdagi ahamiyatini yo‘qotadi. O‘qitish usullarini quyidagilarga bo‘lish mumkin:

- tafakkur, xotira, diqqat va hayolning alohida operatsiyalarini tarkib toptiradigan va faollashtiradigan usullar;

- fikrlash faoliyatida muammoli va izlanishli vaziyatlarni vujudga keltiradigan usullar;

- o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirish bilan bog‘-liq kechinmalari va hissiyotlarini faollashtiradigan usullar;

- nazorat va o‘quvchilarning o‘zini o‘zi nazorat qilish usullari;

- o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning jamoaviy va kasbiy o‘zaro munosabatlarini boshqarish usullari.

O'qitishning turli metodlariga bir xil usullarni kiritish mumkin. So'nggi yillarda pedagogika fani va maktab amaliyotida o'qitish metodlari muammosiga alohida e'tibor berilmoqda. Shu muammo bo'yicha anchagina tadqiqotlar bajarilmoqda, ilg'or pedagogik amaliyotda o'qitishning samarador metodlarining va ularning tizimlarini qo'llashning talaygina yo'llari topildi. Ammo umumiy ta'lif maktabiga qo'yilayotgan yangi talablar o'qitishning metodlari va usullarini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda. Yuqorida qayd etilganidek, ta'lifning mazmuniga qo'yilayotgan yangi talablar yosh avlodga, xususan, fanlarning asoslari bo'yicha yuksak ilmiy nazariy bilimlar berishdan iborat bo'lib, bu ish nazariy bilish metodlariga, shu jumladan, o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, mantiqiy operatsiyalarini bajarish usullari bilan qurollantirishni tobora kuchaytirishni taqozo etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'qitish metodlarining yagona ta'rifi yo'q. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning ta'limi, tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga qaratilgan o'zaro hamkorlikdagi faoliyat usullarining tartibga solinishidir. Umuman, o'qitish metodlarining majmui atrofdagi voqelikni bilishning yo'li, deya xulosa chiqarish mumkin. O'quvchilar aqliy kamol topishining xarakterini belgilaydigan yo'l bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi, shaxsning xususiyatlarini shakllantiradi. O'qitishning maqsadi insoniyatning tajribasini o'zgartirishning o'zidir.

O'qitish nazariyasi metodlarini insoniyat tajribasidan oladi va ularni o'quv mashg'ulotlariga moslashtiradi. Shuning uchun o'qitish metodlari doimiy ravishda yangilanadi, takomillashadi, fan-texnikaning rivojlanishi va ijtimoiy rivojlanish asosida yangi metodlar vujudga keladi. O'qitish metodlarining juda ko'p turlari mavjud va ularning sonini aniq belgilab bo'lmaydi.

Metodlar o'qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga asoslanib tasniflanadi. Maktabdagagi o'qitish metodlarining yagona tasnifi yo'q. Nazariya va amaliyotda bir qancha tasniflar mavjud bo'lib, ular o'zaro zid kelmaydi, biri ikkinchisini inkor etmaydi, balki bir-birini to'ldiradi, o'qitish jarayonini ko'rish imkoniyatini yaratadi.

Tasnif tartib va tizimni vujudga keltiradi, umumiy va muayyan nazariy va amaliy, muhim va tasodifiy o'qitish metodlarini aniqlashga yordam beradi, shu orqali ulardan amaliyatda samaraliroq foydalanishga xizmat qiladi. O'qitish metodlarini tasniflashda o'quvchiga dastur materialini o'rganishning maqsadga muvofigroq yo'llarini tanlash imkonini yaratadi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni tushunishda yordam beradi, o'qituvchilarning faoliyatini takomillashtirish uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi.

2.O'qitish metodlarining tasnifi

Pedagogikada o'qitish metodlarini tasniflashga yagona yonda-shuv mavjud emas. Hozirgi didaktikada o'qitish metodlarini bilimlar manbai bo'yicha (S.O. Lordkipanidze, Y.Y. Golant), di-daktik maqsadlar bo'yicha (B.P. Yesip), bilish faoliyatining saviya-si bo'yicha (I.Y. Lerner, M.N. Skatkin, M.I. Maxmutov) farqlash eng ko'p tarqalgan.

Metodlarning binar shakllari, ularni uch o'lchovli va hatto, keng qamrovli farqlash ham uchraydi. Ana shu tasniflarning har birida afzalliklar va kamchiliklar mavjud bo'lib, ular adabiyotlarda yetarlicha tahlil qilingan.

O'qitish metodlarini bilish manbalari bo'yicha tasniflash ancha oddiy bo'lib, ular maktab amaliyotida keng tarqalgan. Bu belgi bo'yicha metodlar quyidagi uch guruhga bo'linadi:

1.Og'zaki metodlar (bilimlarni so'z bilan bayon qilish, suhbat, darslik, ma'lumotnomalar va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash).

2. Ko'rsatmali metodlar (rasmlar, namoyishlar, kuzatishlar).

3. Amaliy metodlar (mashqlar, laboratoriya yadagi amaliy ishlar). Bular ma'lum darajada shartlidir, chunki mazkur metodlarning hammasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularni doim ham aniq chegaralab bo'lmaydi.

Har bir o'qitish metodining o'z vazifasi bor. Adabiyotlarda o'qitish metodlarining rag'batlantiruvchi (motivlashgan), ta'limiy, tarbiyaviy va kamol toptiruvchi umumpedagogik vazifalari ifodalangan.

O'qituvchi darsga tayyorlanishda va uning uchun eng muvofiq metodlarini tanlashda ana shu metodlarning bajarilishi mumkinligini va ularning strukturasini hisobga olib, shu asosda rag'batlantirish, tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalarini kuchaytiruvchi murabbiydir.

Tasniflash ta'limning nazariy asoslarini ko'rishga yordam beradi, pedagogik fikrni chuqurlashtiradi va shunga ko'ra ijod uchun asos bo'ladi. O'qitish metodlarini tasniflash o'qituvchilar faoliyatini o'rtasida taqsimlanadi. Birinchi guruhga o'qitish usullari va ikkinchi guruhga esa o'qish usullari kiradi. Quyida o'qitish metodlarining taniqli olimlar tavsiya etgan tasniflarini ko'rib chiqamiz.

Xorazmiy, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Burhoniddin Zarnudjiylarning metodlari tasniflarida asosan mantiqiy bilish faoliyatini kuchaytirish nazarda tutilgan bo'lib, ular ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash, ko'rsatmalilik nazariya bilan amaliyotni o'zaro bog'lash, izlanish metodlaridan iboratdir.

I.Y. Lerner va M.N. Skatkin o'qitish metodlarini quyidagilarga ajratadilar:

- tushuntirish rasmlar metodi;
- reproduktiv metod;
- muammoli bayon qilish metodi;
- qisman izlanish metodi;
- tadqiqot metodi.

M.A.Danilov va B.P.Yesipning tasnifi ma'lum turdag'i darslarda qo'yiladigan vazifalarga bog'liqdir.

1. Bilimlarni bayon qilishda: hikoya, tushuntirish, ma'ruza, suhbatlar, ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish etish.

2. O'quvchilarda ko'nikma va malakalarni shakllantirish: mashqlarni shakllantirish va amaliy ishlari.

3. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish, joriy kuzatishlar, og'zaki so'rash, yozma va amaliy nazorat ishlari.

S.I.Perovskiy va Y.Y. Golant tasnifi: faol va passiv metodlarga bo'lish:

- agar o'quvchilar mustaqil ishlasa, faol metodlar (laboratoriya metodi, kitob bilan ishlash);

– agar o‘quvchilar faqat tinglasa va eshitsa, passiv metodlar (hikoya, ma’ruza, tushuntirish, namoyish qilish metodi, ekskursiya).

Bunday tasniflash ma’qul emas, chunki u o‘quvchilarning ongliligi va faolligi prinsipini buzadi.

Y.K. Babanskiyning tasnifi bo‘yicha metodlar uchta katta guruhga bo‘linadi:

- o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;
- nazorat va o‘zini-o‘zi nazorat qilish metodlari. (Ikkinchi guruhda ishning qator yangi metodlari va usullari mavjud.) Muallif quyidagilarni tavsiya etadi:

– bilishga doir o‘yinlar, o‘quv munozaralari, qiziq vaziyatlarni vujudga keltirish, rag‘batlantirish, tanbeh berish va nazorat metodlari.

T.A. Ilina olimlarning tasniflarini umumlashtirib, Y.K. Babanskiyning tasnifini ma’qullagan va tasniflashning quyidagi tartibini tavsiya etgan:

– yangi bilimlarni (o‘qituvchining so‘zlariga tayangan holda berish uchun foydalanilgan tushuntirish, hikoya, maktab ma’ruza metodlari);

– yangi bilimlar o‘zlashtirilishi, mustahkam malakalar shakllanishi uchun foydalaniladigan metodlar: suhbat, ekskursiya, eksperiment va laboratoriya ishi, darslik va kitob bilan ishslash, o‘yinlari, mashqlar;

– darsning har bir bosqichida foydalansa bo‘ladigan texnik vositalar bilan ishslash metodlari;

– mustaqil ish.

S.P.Baranov o‘z tasnifini guruhlар bo‘yicha taqsimlaydi.

Birinchi guruhga o‘qitishning o‘qituvchi eng asosiy rol o‘ynaydigan hikoya, suhbat, tasniflash, tushuntirish va hokazolarni kiritadi. Bunda o‘quvchining asosiy vazifasi o‘qituvchi mulohazalarining mantiqiga ergashish, bayon qilinayotgan mazmunni tushunish, eslab qolish va keyinchalik o‘rganilgan materialni qayta gapirib bera olishdan iborat bo‘ladi. Uning fikri o‘qituvchi mulohazalarining tizimiga qanchalik yaqin bo‘lsa, o‘quv materialini o‘rganishning tavsiya etilgan yo‘li shunchalik ishonchli bo‘ladi.

O'quvchining asosiy vazifasi – o'qituvchining gaplarini tinglash va ularni tushunib olishdir.

Ikkinchi guruhgaga o'qishning yo'llari: mashqlar, mustaqil, laboratoriya, amaliy va nazorat ishlar kiradi. O'quvchi faoliyatining xarakteri tavsiya etilgan metodning samaradorligini belgilaydi. O'qituvchinig roli bolalarning o'qishiga mohirona rahbarlik qilishdan iborat bo'ladi.

Tasniflashning shunday turlari ham mavjudki, ularda o'qitish metodlari o'qishning tegishli metodlariga: axborot, umumlash-tirish, ijrochilik, tushuntirish, reproduktiv, instruktiv, amaliy va mahsulli amaliy, tushuntirish da'vat va qisman izlanishli, undovchi va izlanish tarziga mos keladi (M.I. Maximutov).


Amalda o'qitish metodlarini tasniflashga bilimlar manbayi mantiqan assoslар bo'yicha (N.M. Verzilin), bilimlar manbayi va o'quvchilarining o'quv faoliyatidagi mustaqillik darajasi bo'yicha (A.N. Aleksyuk, I.D. Zverov va boshqalar) baravar yondashish eng ko'p uchraydi.

S.G. Shapovalenko metodlarning to'rt jihatini: mantiqiy-mazmuniy, protsessual va tashkiliy boshqarilishi jihatlarini ko'rib chiqadi.

Metodlarni tasniflash muammosiga turlicha qarashlar ular haqidagi bilimlar tabaqlanishi va birlashishining tabiiy jarayonini aks ettiradi.

3.O'qitish metodlarining mohiyati va mazmuni

Qayd etib o'tilganidek, ta'lim metodlari tizimida og'zaki bayon qilish metodlari muhim o'rinn tutadi.



Og'zaki bayon qilish metodlarining turlari.

Og‘zaki mashqlardan ta’lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular o‘quvchilarning umumiyligi madaniyati, mantiqiy fikrlashi hamda bilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog‘liqdir. Shuningdek, og‘zaki mashqlarning nutq boyligini oshirish va xorijiy tillarni o‘rganishdagi ahamiyati beqiyos.

Hikoya – o‘qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo‘lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo‘li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi. Metodning samarasini ko‘p jihatdan o‘qituvchining nuqt mahorati, so‘zlarni o‘z o‘rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, o‘quvchilarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog‘liq. Shu bois hikoya mazmuni o‘quvchilarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.

Hikoya qilinayotgan materialni samaralash maxsus reja assosida amalga oshiriladi. O‘qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg‘u berishga e’tiborni qaratadi. Hikoya qisqa (5-10 daqiqa), shu bilan birga o‘quvchilarda his-hayajon va mavzuga nisbatan qiziqishni uyg‘otishi kerak. Bu holat hikoyani boshqa ta’lim metodlari (xususan, namoyish yoki muammoli bayon etish va hokazolar) bilan birga solishtirganda ro‘y berishi mumkin.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta’lim metodi bo‘lib, u fanga qadimdan ma’lum, xatto undan o‘z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta’lim jarayonida ko‘p funksiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi o‘quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o‘qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi.

Suhbat – faoliyatni endigina boshlagan o‘qituvchi uchun murakkab ta’lim metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta’minlash ko‘p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha o‘quvchilarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O‘qituvchi oddiy savollar berishi, o‘quvchilarga ular

yuzasidan batafsil o‘ylash uchun vaqt ajratishi, o‘quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o‘rinlarda ularni sharhlashi lozir. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo‘l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat o‘quvchilarga oldindan ma’lum bo‘lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o‘quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiy xulosaga kelinadi.

Suhbat ko‘proq o‘quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o‘zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda ijobjiy natijalarni beradi. Suhbat turli ko‘rinishlarda, ya’ni, kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat tarzida tashkil etiladi.

Kirish suhbat o‘quv ishlarining boshida tashkil etiladi. Uni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad hal etilishi zarur bo‘lgan ishlar mohiyatining o‘quvchilar tomonidan anglab yetilganligini tekshirib ko‘rishdan iborat. Bunday suhbatlar o‘quvchilarning o‘quv salohiyatini aniqlash, loyihalashtirish ishlarini tashkil etish hamda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga kirishish oldidan uyushtiriladi.

Yakuniy suhbat o‘quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Katexizism (qisqa bayonli) suhbat – o‘quvchilarning boshlang‘ich bilim darajasi hamda ularning yangi o‘quv metodikasini o‘zlashtirishga tayyorgarligini aniqlash uchun tajribali o‘qituvchilar tomonidan dars avvalida yohud o‘rganilgan materialni mustahkamlash uchun dars so‘nggida qo‘llaniladi.

Evristik suhbat yangi bilimlarni muammoli tarzda egallahsga yo‘naltiriladi. Bunda savollar shunday ketma-ketlikda berilishi zarurki, natijada ularga «ha» yoki «yo‘q» tarzidagi javoblarni olish emas, aksincha, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, ularda faollikning yuzaga kelishini ta’minlash, ularni tahlil qilishga undash, dalillarni ilgari surishga erishish imkoniyati yaratilsin.

Demak, evristik suhbat jarayonida o‘quvchilar bilimlarni o‘zlarining tirishqoqliklari va mustaqil fikr yuritish layoqatiga egaliklari bois o‘zlashtira olsinlar.

Tushuntirish o‘quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo‘llaniladi. Undan odatda, nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o‘rganishda foydalaniadi. Tushuntirish jarayonida o‘quv materialining bir qadar qiyin unsurlari ko‘zga tashlanadi va shu asosda materialning mohiyati ochib beriladi. Tushuntirish samarasi ko‘p hollarda o‘qituvchining ko‘rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Ma’ruza – yirik hajmdagi o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish metodi sanalib, uning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: qat’iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko‘pligi, bilimlar bayonining tizimliligi. Maktab ma’ruzasi mazmunini murakab tizimlar, hodisalar, obyektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog‘lanishlari, qonun va qoidalar tashkil etadi. Shu bois ma’ruza maktab sharoitida yuqori sinflardagina qo‘llaniladi. Chunki u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma’ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi va bir vaqtda o‘quvchilarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o‘rgata boradi.


Maktab ma’ruzasining samaradorligini ta’minalash shartlari¹ quyidagilardan iborat:

- o‘qituvchi tomonidan eng maqbul ma’ruza rejasingning tuzilishi;
- rejadan o‘quvchilarni xabardor etish, ularni ma’ruza mavzusining maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish;
- rejada aks etgan barcha bandlarning mantiqiylik va ketma-ketlikda bayon etilishi;
- rejaning har bir bandi yoritilgach, ular yuzasidan qisqacha umumlashma asosida xulosalanishi;
- ma’ruzaning bir qismidan ikkinchisiga o‘tishda ular o‘rtasidagi mantiqiy aloqalarning o‘rnatalishini ta’minalash;
- bayon qilishning muammoli va emotsiyal xususiyat kasb etishi;

¹ Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. Кн. 1. -- Москва, Владос, 2002. - с. 491.

- jonli til, o‘z vaqtida misollar, aniq dalillar va qiyoslashlardan foydalanish;
- auditoriya, muloqot jarayoni, shuningdek, o‘quvchilarning aqliy faoliyatlarini mohirlik bilan boshqarish;
- ma’ruzaning muhim jihatlarini turli tomonidan ochib berilishi;
- ma’ruzaning asosiy qismlarini o‘quvchilar tomonidan qayd etib (yozib) borilishiga imkon beradigan holatda bayon qilinish tezligi;
- zarur (yozib olinadigan) o‘rnlarni oldindan ajratib qo‘yish;
- o‘rganilayotgan holatlarni yozib olish asosida, qabul qilish va ularning mohiyatini aniqlashtirish maqsadida ko‘rgazmalar (namoyish, illyustratsiya, videofilm va boshqalar)dan foydalanish;
- alohida holatlarni chuqur muhokama qilishda ma’ruzani seminar, amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish.

Ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlashda ko‘rgazmali metodlar ham alohida ahamiyatga ega.



Ko‘rgazmali metodlarning turlari.

Ushbu metodlardan foydalanish zaruriyati ko‘rsatmalilik tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligida ko‘rinadi. Inson miyasining 30 foiz hajmi ko‘rishni, faqat 3 foizigina eshitishni ta’minlovchi nevronlar tashkil etadi. Pedagogik-psixologik yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma’lum bo‘ladiki, shaxs tomonidan o‘zlashtirilayotgan bilimlarning 85 foizi ko‘rish retseptorlari yordamida o‘zlashtiriladi. Demak, o‘zbek xalqi tomonidan ko‘p bora qo‘llaniladigan «Yuz marta eshitgandan bir marta ko‘rgan yaxshi» maqoli ilmiy asosga ega ekan.

Namoyish metodi o‘rganilayotgan obyekt harakat dinamikasini ochib berishda qo‘l keladi va ayni chog‘da predmetning tashqi ko‘rinishi va ichki tuzilishi haqida to‘laqonli ma’lumot berishda keng qo‘llaniladi. Tabiiy obyektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko‘rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o‘zaro munosabatlari)ga e’tibor qaratiladi, so‘ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o‘rganishga o‘tiladi. Ko‘rsatish ko‘p holatlarda o‘rganilayotgan obyektlarning subyekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Tajribalar namoyishi esa sinf taxtasiga chizish yoki o‘qituvchining maxsus jihozlar yordamida ko‘rsatib berishi hisobiga amalga oshadi, bunda ushbu tajriba asosida yetuvchi tamoyillarni tushunish osonlashadi.

Predmetlar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish yanada ko‘proq didaktik samara beradi, biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo‘lavermaydi. Shu bois o‘qituvchilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun‘iy muhitga murojaat qilishadi (masalan, hayvonlar bilan hayvonot bog‘ida, turli o‘simliklar bilan esa issiqxonalarda tanishish) yoki sun‘iy ravishda yaratilgan obyektlar (maket, model, mulyaj, skelet va boshqalar)dan foydalaniadi.

Bu metod yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarni mustaqil ravishda obyektlarni o‘rganish, zaruriy o‘lchov ishlarini olib borish, aloqadorlikni o‘rnatish, shuningdek, hodisalarning mohiyatini anglab yetishga bir so‘z bilan aytganda faol bilish jarayoniga yo‘-naltirishi lozim. Namoyish samarasi ko‘p jihatdan o‘qituvchining bilish jarayoni mohiyatan o‘quvchilarning yoshiga mos holda to‘g‘ri tanlanishi hamda mumkin qadar ularning diqqatini namoyish etilayotgan predmetning muhim jihatlariga yo‘naltirishiga bog‘liqdir.

Tasvir (illyustratsiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, didaktikada alohida o‘rganiladi. Illyustratsiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko‘rinishlari – chizma, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko‘rsatishni taqozo etadi.

Namoyish va tasvir metodlari o‘zaro bog‘liqlikda bir-birini to‘ldirgan holda qo‘llaniladi. Agar hodisa va jarayonni o‘quvchi


yaxlit holda qabul qilishi zarur bo'lsa namoyishdan foydalanish, agar hodisa mohiyati hamda uning unsurlari o'rtasidagi bog'lanishlarni anglash talab etilsa illyustratsiyaga murojaat qilinadi.

Tasvirning samarasi ko'pincha o'qituvchi tomonidan ko'rsatuv texnologiyasi qay darajada o'zlashtirilganligiga bog'liq bo'ladi. Ko'rsatmalardan foydalanishning bilish jarayonidagi didaktik ahamiyati o'rganilayotgan obyekt mohiyatini to'laqonli yorita olishi bilan belgilanadi. Aslida illyustratsiyalar oldindan tayyorlanib, dars jarayonida zarur o'rnlarda kerakli hajmda ko'rsatiladi, aks holda ular sonining oshib ketishi o'quvchilarni hodisa mohiyatini anglashda chalg'itadi. Ayrim hollarda tarqatma materiallar (fotosurat, jadval, tabiiy obyektlar va boshqalar) yoki texnik vositalar xizmatidan foydalanishga to'g'ri keladi.

Ko'rgazmali metodlardan foydalanishda samaradorlikka erishish uchun quyidagi shartlarga amal qilish maqsadga muvoqidir:

- ko'rgazmalilikning o'quvchilar yoshi va rivojlanish darajasiga mos kelishi;
- namoyish etilayotgan obyektlar barcha o'quvchilarga yaxshi ko'rniib turishi;
- namoyishda uning boshlang'ich bosqichi va asosiy jarayon (holat)larning ajralib turishi;
- tajribalar namoyishi maket, jihoz, qurollar yoki tajriba sxemasini chizib ko'rsatish asosida tashkil etilishi;
- namoyish va illyustratsiya o'quv materialining mazmuni bilan uyg'un bo'la olishi lozim.

Amaliy ishlар metodlari o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar yordamida ularda amaliy ko'nikma va malakalarini hosil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.



Amaliy metodlarning turlari.

Amaliy ishlar metodi – o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo‘naltirilgan jarayonda qo‘llashni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliyatda qo‘llash ko‘nikmasi hosil qilinadi. Amaliy ishlar sinfda yoki tabiiy sharoitlar – maktab yer maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirishda sodir etiladigan harakatlar o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo‘riqnomalar yoki maxsus ko‘rsatmani o‘quvchilar e’tiboriga havola etadi.

Qayd etilganidek, ushbu metodlar o‘quvchilarda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Aynan amaliy faoliyat jarayonida nazariy bilimlar harakatdagi shaklga ega bo‘ladi.

Mashq - aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko‘nikmalarini egallash yo‘lidagi ko‘p marta takrorlanishlar bo‘lib, mashqsiz ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og‘zaki, yozma, gradikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo‘linadi.

Yozma mashqlar – ta’limning tarkibiy qismi sifatida zaruriy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida qo‘llaniladi. Diktant, insho, masala, misol, shuningdek, referat yozish va tajriba mohiyatini yoritish ham yozma mashqlar sirasiga kiradi.

Grafikaviy ishlar ham yozma ishlar bilan o‘xshash jihatlarga ega bo‘lib, ulardan asosan texnik jarayonlar (jumladan, geografiya, fizika, matematika, chizmachilik, rasm hamda texnologik ta’lim)da keng ko‘lamda foydalaniladi.

Mashqlarning bajarilish samarasi quyidagi shartlar hisobga olinganda birmuncha yuqori bo‘ladi:

- mashqlarni bajarishga nisbatan ongli yondashish;
- bajarish qoidasini bilish;
- vaqt bo‘yicha takrorlanishning to‘g‘ri taqsimlanishi.

Mashqni bajarishni tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat:

- o‘qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;
- topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko‘rsatishi;

- o'qituvchi nazorati ostida o'quvchilar tomonidan o'quv harakatining dastlabki bajarilishi;

- zarur ko'nikma va malakalar shakllangunicha o'quv harakatlarning ko'p bora takrorlanishi.

Ayrim holatlarda o'quvchilar ovoz chiqarib o'quv harakatlarini takrorlashlari va bajarishlari lozim bo'ladi. Ular izohli mashqlar deb nomlanadi va bajariladigan harakatlarning mohiyatini anglagan holda ko'nikma va malakalarni egallahsga imkon beradi.

Laboratoriya ishlari o'quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, quroq hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o'tkazish metodlari bo'lib, ular ko'proq tabiiy fanlar asoslarini o'rganishda qo'llaniladi. Bu metod o'quvchilarning asbob-uskunalar bilan ish ko'rish, o'lhash ishlarini amalgaloshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko'nikmalarini tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqtini sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar o'quvchilarning yuqori darajadagi faolligi asosida mustaqil ravishda tajriba va o'lhash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi.

Laboratoriyadan amaliy ishlarning farqi shundaki, bu metod o'quvchilarning mavjud nazariy bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo'naltirilgan faoliyatini tashkil etishga xizmat qiladi. U o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, bilish faoliyatini nazorat qilish hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish borasidagi ko'nikmalarini shakllantirish kabi funksiyalarini bajaradi.

Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilish faoliyati quyidagi besh bosqichda tashkil etiladi:

1. O'qituvchining tushuntirishi, faoliyat mohiyatini nazariy jihatdan anglash bosqichi.

2. Ko'rsatma, yo'l- yo'riq berish bosqichi.

3. Sinov bosqichi (bu bosqichda ikki-uch nafar o'quvchi amaliy harakatlarni bajaradi, qolgan o'quvchilar esa ularning faoliyatini kuzatadi).

4. Faoliyat (harakat)ni bajarish (har bir o'quvchi topshiriqni mustaqil ravishda bajaradi, ayni o'rinda topshiriqni bajarishga qiynalgan o'quvchilarga alohida e'tibor qaratilib, ularga yordam ko'rsatiladi).

5. Nazorat bosqichi (bu bosqichda o'quvchilarning ishlari qabul qilinadi va baholanadi; ishning sifati, materialning maqsadga muvofiq tanlanganligi, vaqt nutqayi nazardan tezkorlik, topshiriqni bajarish tizimining to'g'riligi va samaradorligi kabi holatlarga alohida e'tibor beriladi).

Zamonaviy ta'lif tizimida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar negizida amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Didaktik o'yin o'rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyatini turi. Ayni vaqtida o'yin ham ijtimoiy faoliyat ko'rinishi sanaladi.

Hozirgi vaqtida o'qituvchilar qo'lida barcha o'quv fanlari bo'yicha didaktik o'yinlarning ishlanmalari mavjud, ayniqsa, boshlang'ich ta'lif bo'yicha yaratilgan o'quv dasturlarda turli didaktik o'yinlarning ro'yxati yetarli darajada ko'rsatilgan.

Ta'lifning globallashuvi ta'limi va rivojlantiruvchi xarakteriga ega va yo'nalishi jihatidan xilma-xil bo'lgan kompyuter o'yinlarining mifik tabiiyotiga jadal kirib kelishini ta'minla-moqda. Didaktik o'yinlar o'quvchilarga ijtimoiy-foydali mehnat hamda, o'qish ko'nikmalarini faol o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning ahamiyati uning natijasi bilan emas, balki jarayonning mazmuni va uning kechishi bilan belgilanadi. O'yinlar bolalarni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ularning turli psixologik zo'riqishlarini kamaytiradi. Didaktik o'yinlardan foydalanilganda o'quvchilarning manfaatdor bo'lishlari ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan taqdirdagina ularni taqdirlash mumkin. Aksincha, metodik jihatdan puxta asoslanmagan hamda shunchaki tashkil etilgan o'yin ijobiy natija bermaydi.

O'qitish metodlarini tanlash. Pedagogika fanida, o'qituvchilarning amaliy tajribasini o'rganish va umumlashtirish asosida ta'lif metodlarini tanlashga o'quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog'liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta'lif metodlarini tanlashda quydagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- zamonaviy didaktikaning yetakchi g'oyalari, ta'lif, tarbiya va rivojlantirishning umumiyligi maqsadlari;
- o'rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o'ziga xosligi;
- xususiy fanlar metodikasining o'ziga xosligi va umumididaktik metodlarni saralashga qo'yiluvchi talablarning o'zaro aloqadorligi;
- muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni;
- u yoki bu mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt;
- o'quvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi;
- o'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi;
- o'quv muassasalarini, auditoriyalarning moddiy ta'minlanganlik darajasi, jihozlar, ko'rgazmali quollar, texnik vositalarning mavjudligi;
- o'qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darajasi, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatlari;
- o'quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o'rnatilganligi.

O'qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og'zaki, ko'rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq yechimlar qabul qiladi.

4.O'qitishning induktiv va deduktiv metodlari

O'qitishning induktiv va deduktiv metodlari – o'quv materiali mazmunining xarakteri va mantiqini yoritish usulidir.

O'qitishning induktiv metodi – o'qituvchi va o'quvchining turli variantlardagi faoliyatidir. Bunda o'qituvchi avval dalillarni

tushuntiradi, tajribalarni, ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish qiladi, umumlashtirish va tushunchalarni ta'riflash bo'yicha mashqlar bajarishni tashkil etadi. O'quvchilar oldin xususiy faktlarni o'zlashtiradilar, keyin xulosalar chiqaradilar va o'quv materialini umumlashtiradilar. Yoki o'quvchilar oldiga xususiy qoidalardan umumiy xulosalargacha mustaqil mushohada yuritishni talab qiladigan muammoli topshiriqlar qo'yiladi. O'quvchilar esa dalillar ustida mustaqil holda fikrlaydilar va tegishlicha xulosalar chiqaradilar hamda umumlashtirish qiladilar.

Deduktiv metod – o'qituvchining avval umumiy qoidalarni, ta'riflarni aytishi, keyin asta-sekin xususiy hollarni, muayyan vazifalarni keltirib chiqarish usulidir. Bunda o'quvchilar umumiy qoidalarni idrok etadilar, formulalarni o'zlashtiradilar, keyin esa ulardan kelib chiqadigan natijalarni egallaydilar. Agar mana shu metodlar taqqoslansa, o'quvchilar ma'lum mushohadalarni keltirib chiqaradigan faktlar va materialni o'zlashtirishlariga ko'ra induktiv metod foydaliroqdir. Masalan, o'qituvchi matematik masalaning yechimini yoritadi, keyin o'quvchilarga ana shu xildagi masalani mustaqil holda yechishni tavsiya qiladi, lekin bunda fikrlash tez rivojlanmaydi va materialni o'rganishga ko'p vaqt ketadi. Deduktiv metod materialni tezroq o'tishga yordam beradi va bunda mavhum fikrlash faolroq rivojlanadi. O'qitishning induktiv va deduktiv metodlarida uning og'zaki, ko'rsatmali va amaliy metodlari, shuningdek, reproduktiv yoki muammoli izlanish metodi ham qo'llaniladi. Ta'limning reproduktiv xarakteri, asosan, o'quvchilarning ijodiy faoliyatidir. Fikrlashning xarakteri – o'qituvchi bergan o'quv axborotini faolroq idrok etish va eslab qolish, o'qitishning og'zaki, ko'rsatmali va amaliy metodlaridan hamda usullaridan foydalanmay, mazkur metodlarni qo'llab bo'lmaydi. Reproduktiv metodda o'qituvchi faktlarni, isbotlarni, tushunchalar ta'rfini to'la bayon qiladi, asosiy masalaga alohida e'tibor beradi. O'qitishning reproduktiv metodida ko'rsatmalilik ham qo'llaniladi. Reproduktiv yo'sindagi amaliy ishlар o'quvchilarning namuna bo'yicha ilgari yoki endigina o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llashi bilan farqlanadi. Ammo bunday ishlarda

bilimlarni mustaqil holda boyitish amalga oshmaydi. O'qitishning muammoli izlanish metodi muammoli ta'linda qo'llaniladi.

5.Nazariy bilimlardan foydalilaniladigan mashqlar

Maktab amaliyotida mashqlar o'tkazish uchun o'quvchilarning nazariy bilimlariga murojaat qilishning ba'zi yo'llari belgilangan. Bu ishning eng keng tarqalgan, lekin eng kam samarali usuli dars rejasida ko'zda tutilgan mashqlarni bajarishda tayaniladigan ma'lum tushunchalar va qoidalarni og'zaki qayta tiklashdir. Mashqlarni bajarishdan oldin nazariy materialni takrorlashning samaraliroq usuli mazkur materialni qo'llash bo'yicha amaliy topshiriqlarni qo'yishdir. Bunday topshiriqlarga tanlanma diktant o'tkazishda ma'lum so'ziar yozishni, nutqning ma'lum bo'laklarini qisqa vaqt ichida tahlil qilishni, nutqning ahamiyatli qismlarini ajratishni, didaktik tarqatma material bilan ishlashda ma'lum orfogrammalarini qayd qilishni, masalalar yechishda asos bo'ladigan matematik ifodalar bilan ishlash va hokazolarni kiritish mumkin. Mashqlar o'tkazishda nazariy materialga murojaat qilishning navbatdag'i usuli o'quvchining keyingi amaliy ishni bajarishdan oldin uning yo'llarini asoslashidir. Amaliy ishlarni bajarish vaqtida nazariy asoslash pedagogik jihatdan o'zini oqlagan. Bu usulni ikki variantda bajarish mumkin. Bular navbatdag'i ishni keng tushuntirish va sharhlashdan iboratdir. O'quvchilar bilan ularning tayyorgarligidagi ayrim kamchiliklarini to'ldirish bo'yicha ishlashda navbatdag'i ishlarni keng tushuntirish o'zini ancha oqlagan. Bunda avval o'quvchidan keng mushohada yuritishni talab qilish lozim va talabni bajarish esa hisoblash usulini chuqurroq anglashni ta'minlaydi. Mushohada jarayoni asta-sekin kengaya boradi va harakatlar ma'lum tartibda, ketma-ket amalga oshadi. Hisoblash usulini asoslovchi qoidaning yo'naltiruvchi roli yo'qoladi va u faqat qiyinchilik tug'ilganida eslanadi.

6.Mashq – o‘quvchilarda malakalarini shakllantirish faoliyatining asosiy turi

O‘quvchilar malakalarining saviyasi ana shu ishning qanday tashkil etilishiga bog‘liq. Mashqlarni tasniflashning bir necha tizimlari mavjud bo‘lib, uning hamma turlarini malakalar hosil bo‘lishi jarayonidagi o‘rniga qarab uch guruhga: *tayyorgarlik*, *o‘quv* va *o‘rganish* mashqlariga bo‘lish mumkin.

Tayyorgarlik mashqlarining vazifasi dasturdagi yangi materialni ongli ravishda o‘zlashtirish uchun zarur bilimlar va amaliy ish usullarini esga tushirishdan iboratdir. Masalan, III sinfda fe’llarni o‘rganish tajribasi bo‘yicha oldin fe’llarni eshitib idrok etish, fe’lning zamon shakllarini aniqlash mashqlari o‘tkaziladi. Bolalar so‘zlar orasidagi fe’llarni ajrata oladigan bo‘lganlaridan keyin ana shu so‘z turkumini ongli ravishda qo‘llash mashq qilinadi.

Boshqa bir misol. Matematika darsligining mualliflari I.Oxunjonov va N.U.Bikbayevalarning fikricha, 10 ichidagi amallarni mustahkamlashda va ikkinchi o‘nlikdagi sonlarni nomerlashni o‘rganishda tarkibli masalalarni qo‘llashdan oldin quyidagi tayyorgarlik mashqlarini muntazam o‘tkazish kerak:

1. Oddiy masalaning shartiga savol qo‘yish. Chunonchi, bir qutichada 6 ta, ikkinchi qutichada undan 2 ta kam qalam (opasida 10 ta va ukasida 8 ta marka) bor. Masalaning ana shu shartidan nimani bilish mumkin?

2. Masalaning berilgan shartidagi yetishmaydigan sonni to‘ldirish. Chunonchi, akasida 4 ta daftar bor, aka va singilning daftarlari qo‘silsa, nechta bo‘ladi? (Maydonda turgan mashinalarning 3 tasi ketsa, nechta mashina qoladi?)

3. Berilgan savolga javob uchun kerakli ma’lumotlarni tanlash. Chunonchi, ikkita yashikda qancha olma borligini (qizchada necha tiyin qolganini) aniqlash uchun nimani bilish kerak?

O‘quv mashqlari yangi material yoritilishi bilanoq boshlanadi va ana shu materialni o‘zlashtirishda yordam beradi. Ularning farqli xususiyati o‘quvchilarga o‘qituvchining doimiy yordam berishidan iboratdir. Bu yordam ko‘pincha bajariladigan ishning usullari va natijalarini jamoa bo‘lib muhokama qilishda, sharhlashda o‘zining

ifodasini topadi. Birinchi o'quv mashqida bolaga baho qo'yish ma'qul emas, chunki undan hali o'rganilmagan narsani so'rash pedagogik jihatdan noto'g'ridir. O'quv mashqlarini o'tkazishda algoritmik ko'rsatmalar, ya'ni aqliy va amaliy harakatlarning didaktik jihatdan o'zini oqlagan turlari belgilangan o'ziga xos xotiranomalar g'oyat foydalidir. Algoritmik ko'rsatmalarning keng doiradagi bir xil masalalarni yechish uchun qo'llanishi maqsadga muvofiq bo'lib, ular ishda to'g'ri natijalarga erishish imkonini beradi.

O'qish darsida hikoyaning rejasini tuzish uchun quyidagicha xotiranoma juda foydalidir.

1. Hikoyani o'qi.
2. Uni qismlarga ajrat.
3. Har bir qismdagi asosiy masalalarni top.
4. Har bir qismga sarlavhalar qo'y.
5. Qismlarning sarlavhalaridan reja tuz.

O'quv topshiriqlarining har xil turlaridan foydalanish o'quvchilarni ishga ijodiy yondashishga va nazariy bilimlarni amalda qo'llashga yordam beradi. Bunga erishish uchun o'quvchilarning bilimlarini ularning dastlabki tushuncha, tasavvur va ko'nigmalarini shakllantirgan materiallardan boshqacha materiallar asosida mustahkamlash va takomillashtirish kerak. Shuningdek, bu materiallar ko'p variantli topshiriqlardan tashkil topib, ularning har biri o'ziga xos bilishga doir va manтиqiy topshiriq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. O'rganish mashqlarining ana shunday yo'lga qo'yilishi o'quvchilar ongida yangi bog'lanishlar hosil bo'lishiga va shunga ko'ra materialning yaxshiroq o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Amaliy metodlar o'qitishning og'zaki va ko'rsatmali metodlari bilan uzviy birlikda qo'llaniladi. Chunki mashqlarni bajarish, tajribalarni o'tkazish va mehnat operatsiyalarini amalga oshirishdan oldin pedagog instruktiv tushuntirishlar o'tkazishi kerak. Og'zaki tushuntirish va rasmlarni ko'rsatish, odatda, mashqlarni bajarish jarayonida amalga oshiriladi va uning natijasini aniqlash va tahlil qilish bilan tugallanadi.

4. Laboratoriya ishi tadqiqotchilik metodlari qatoriga kiradi va bunday metodlar yordamida o'quvchilar o'zlari uchun yangilik

kashf etadilar. Boshlang‘ich sinflarda laboratoriya ishlari, asosan, tabiatshunoslik va mehnat darslarida o‘tkaziladi.

5. Mehnat darslarida qog‘oz, gazlama, loy va boshqa ashylarning xossalari o‘rganiladi. O‘quv tajriba uchastkasida turli o‘simliklarning rivojlanishi kuzatiladi. Maktab laboratoriyasida amalga oshiriladigan ishlar bolalarda mehnat madaniyatini tarbiyalaydi, asboblarni ehtiyyotlab ishlatish, ish o‘rnini batartib tutish odatini vujudga keltiradi.

6. O‘yin, hozircha, hatto boshlang‘ich maktabda ham o‘qitishning metodi sifatida tegishlicha o‘rin olgan emas. O‘yinlar o‘quvchilarning bo‘sh vaqtı bekor o‘tmasligi va ularni jismonan chiniqtirish uchun o‘tkaziladi. Ta’limiy o‘yinlar darsda yoki darsdan tashqari o‘tkazilishidan qat’iy nazar, beixtiyor eslab qolish jarayonlarini ancha faollashtirishda, bilish faoliyatiga qiziqishini oshirishda, mustaqil mehnatga tayyorlashda katta ahamiyatga molikdir.

O‘yinlarni psixologik-pedagogik tashkil etish, tayyorlash va o‘tkazish bosqichlari o‘qituvchining o‘yinni tashkil qilish va o‘tkazishga nazariy-metodik tayyorgarligi:

- kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning yoshi, o‘ziga xos psixologik va tipologik xususiyatlarini o‘rganish, ana shu xususiyatlarni hisobga olish hamda ular o‘yininining maqsadi, vazifasi va mazmuniga muvofiq ravishda tuzatishni rejalashtirish;

- o‘quvchilarning hayotiy tajribasini, qiziqishlarini, mayllari va qobiliyatlarini o‘rganish hamda o‘yinda ulardan foydalanib, har bir o‘quvchida to‘la qoniqish hosil qilishni rejalashtirish;

- texnik vositalardan foydalanib, namunaviy o‘yinlarni ko‘rsatish va tushuntirish;

- o‘quvchilarni o‘yining mazmuni, sujeti, maqsadi va vazifalarini, bosqichlari, borishi va qoidalari bilan tanishtirish;

- o‘quvchilarni o‘yin jarayonida o‘zini-o‘zi nazorat qilishga shaylash;

- o‘yinga rahbarlikning xarakterini, o‘yinda o‘qituvchining o‘zi ham hakam yoki kuzatuvchi sifatida qatnashishini yoki rahbarlikni peshqadam o‘quvchiga berishini belgilash;

– o‘yin jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishi;

– o‘tkazilgan o‘yinni muhokama qilish: qo‘yilgan vazifalar yuzasidan o‘yining natijalarini, ishtirokchilarning harakatlarini baholash va ularni rag‘batlantirish;

– mazkur o‘yinning o‘quvchilarni vatanparvarlik va baynal-minallilik ruhida tarbiyalashdagi samaradorligini pedagogik tahlil qilishdan iboratdir.

O‘yinlarni tashkil qilishda quyidagi pedagogik omillarni hisobga olish zarur:

– o‘quvchilarning o‘yining mohiyati, mazmuni, bosqichlari va natijasini to‘la tushunishini;

– ularning navbatdagi o‘yin faoliyatiga shaxsan qiziqish bilan ijobiy munosabatda bo‘lishini; o‘yinda zarur bilim, ko‘nikma va malakalarini safarbar etishini;

– o‘yingacha, o‘yin jarayonida va undan keyin o‘qituvchining barcha talablarini bajarishlarini.

Muammoni hal qilishning optimal psixologik pedagogik shartlari quyidagilardan iborat:

– mazmunan dolzarb o‘zbek xalq o‘yinlari majmuasini tanlash;

– o‘quvchilarni o‘yin faoliyatiga emotsional jihatdan shaylash;

– o‘qituvchining kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni o‘zbek xalq o‘yinlariga qiziqtira olishi;

– o‘zbek xalq o‘yinlariga rahbarlik qilish mazmuni, shakllari va metodlarining birligi;

– o‘yin jarayonining hayotiyligi, uning haqqoniyligi;

– kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘yin faoliyatida qatnashuvining ixtiyoriyligi:

– o‘yinlarning mazmunini asta-sekin murakkablashtirib borish.

O‘zbek xalq o‘yinlarini tanlashga qo‘yiladigan talablar:

– o‘yinlar mazmunining hayotiyligi va haqqoniyligi;

- mazmuni bo'yicha mosligi;
- sujetning soddaligi, qiziqarliligi va hissiyotliligi;
- o'yinda faol fikrlashni, ijodkorlikni, sezgirlikni, tashabbuskorlik va faollikni, hissiy ta'sirchanlikni, o'tkir zehn va kuzatuvchanlikni, diqqat e'tiborlilikni talab qilish;
- o'yinning o'quvchilar yoshiga, psixologiyasi va ularning pedagogik tayyorgarligiga mosligi.

O'qituvchi sinflar bo'yicha o'yinlarni "Milliy harakatli o'yinlar" (T. Usmonxo'jayev va b. Milliy harakatli o'yinlar. Toshkent, "O'qituvchi", 2000) kitobidan yoki mahalliy bolalar o'yinlaridan foydalanishi mumkin.

O'yinlarni o'tkazishning tarbiyaviy maqsadi va vazifalari uchta (boshlang'ich, asosiy, yakunlovchi) bosqichda amalga oshiriladi.

Boshlang'ich bosqich o'quvchilar bilan ularning yoshiga mos, tushunarli, ijodiy yo'sindagi tayyorgarlik ishlarini olib borishdir. Ana shu ishlar orqali o'yinlar o'quvchilarda o'z xalqining tarixiga, an'analariga: xalq ijodiga, shu jumladan, o'yinlariga, o'zbek xalqining qahramonona, inqilobiy o'tmishiga qiziqish hamda mehnatga hurmat va muhabbat uyg'otishi lozim. Shuningdek, ularda respublikamizning mehnatdagi yutuqlari bilan faxrlanish hissini; xalq yaratgan go'zal narsalarga muhabbat tuyg'usini, tabiatdagi boyliklarni qo'riqlash ehtiyojini tarkib toptirish zarur.

Nazorar uchun savol va topshiriqlar

1. Ta'lrim usullari haqida umumiylar ma'lumot bering .
2. O'qitishning og'zaki va ko'rgazmali metodlari haqida fikringiz.
3. Ta'lrim usullarining mazmun mohiyatini ochib bering.
4. O'qitishning amaliy metodlari nimalardan iborat.
5. Milliy o'yinlar, ularning turlarini aytинг.

VII BOB. TA'LIMDA INNOVATION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

1. Ta'lim texnologiyasi

Texnologiya – bu berilgan parametrlarga mos keladigan mahsulot olishga yo'naltirilgan dastlabki materiallarni o'zgartirish jarayoni va uslublarining yig'indisi.

Pedagogik texnologiya – bu faqat kompyuter va texnologik vositalarni qo'llash emas, bu ta'lim samaradorligini oshiradigan faktorlarni tahlil qilish yo'li bilan umumta'lim jarayonini optimallash usullarini ishlab chiqish va prinsiplarini aniqlash.

"Texnologiya" - yunoncha so'z bo'lib, "tehnos"-mahorat, san'at. "logos" -ta'limot, fan ma'nolarini anglatadi.

Texnologiya – bu sifat jihatdan yangi masalalarini yechish uchun ta'lim evolutsiyasi bosqichini tayyorlagan obyektiv jarayon.

"Texnologiya" tushunchasi texnik taraqqiyot natijasida paydo bo'ladi va uning lug'aviy ma'nosi (kasb, fan, tushuncha, ta'lim, san'at) materiallarning ishlash usul va uslublaridan iboratdir. Fan va texnika taraqqiyoti inson imkoniyatlarining kengayishiga olib keldi.

Yangi texnologiyalar katta ta'lim imkoniyatlarini ochdi. Ro'y berayotgan sifat o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, odat bo'lgan tushuntirishda "o'rgatish" jarayonlari o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari chegarasidan tashqari chiqib keta boshladi. Vujudga kelgan yangi texnik, axborot, bosma, eshitish va ko'rgazma vositalari o'ziga xos tarzda yangi metodikalar bilan ta'lim jarayoniga ko'pgina yangiliklar kiritib, uning ajratilmas qismi bo'lib qolmoqda. Biroq, pedagogik texnologik jarayonning o'ziga xosligi, uning an'anaviy shakllaridan ustuvorligi va hozirgi zamon ta'limi muammołari real yechish usullari hali to'la o'rganilmagan.

Bu haqda chet ellik va o‘zbek avtorlari ko‘p yozmoqdalar. Lekin barchalari pedagogik texnologiyalar kelajakda ustuvor o‘ringa ega bo‘lishiga ishonadilar.

1950 yillarda, o‘quv jarayoniga texnik vositalarni joriy etish boshlanganda, “ta’lim texnologiyasi” termini vujudga keldi, so‘ngira u TTV qo‘llanish metodikasi bo‘yicha keyingi yillarda “pedagogik texnologiyalar” ga aylandi.

1960 yillar o‘rtasida bu tushuncha mazmuni xalqaro anjumanlar va chet el pedagogik bosma nashrlarida keng muhokama qilindi.

1967 yillar PFA qoshidagi ochilgan institutni “Maktab jihozlari va texnik vositalari ITI” deb atashdi. Shunday bo‘lsada institut olimlari ta’lim texnologiyasi muammolari bilan shug‘ullanishar edi.

1970 yillar boshida rivojlangan kapitalistik davlatlar: AQSh, Angliya, Yaponiyada pedagogik texnologiyaga oid jurnallar nashr qilindi, keyinchalik bu muammo bilan maxsus muassasalar shug‘ullana boshladи. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniyada bo‘lib o‘tgan pedagogik texnologiya bo‘yicha milliy kengashlar bunga misoldir.

Budapeshtda 1977 yilda YUNESKO tomonidan tashkil qilin-gan xalqaro seminarda ta’limdagi texnologik jarayonning asosiy xususiyatlari ko‘rsatib o‘tildi;

1. Texnikani mukammal bilish va ishlatish.
2. Audiovizual materiallar fondi bilan tanishish.
3. Ularning samarali ishlatish metodikasini egallash va ijodiy yondoshish. Hozirgi zamon chet el va vatanimiz tajribasini tahlil qilish asosida, bugun ta’lim jarayonini shakllantiruvchilar doirasi kengaytirilmog‘i lozim.

“Ta’lim texnologiyasi” tushunchasiga ta’lim maqsadlarini tahlil qilish va rejalashtirish, o‘quv-tarbiya jarayonini ilmiy tashkil qilish, ta’lim samaradorligini ta’minlaydigan vosita, material va metodlar tanlanadi.

Hozirda ta’lim texnologiyasi yordamchi vosita bo‘lib qolmay balki, o‘quv jarayonining rivojlanishida katta rol o‘ynab, uning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini o‘zgartiradigan yangi

sistema deb tushunilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, o‘qituvchi va o‘quvchining pedagogik tafakkuriga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Texnologiyani bunday tavsif qilish ta’lim jarayonidagi barcha tuzuvchilar orasidagi uzviy bog‘lanishning muhimligini, pedagog va o‘quvchining o‘zaro hamkorligini ko‘rsatadi. O‘quvchi passiv ta’lim obyektidan faol shaxs ta’lim va tarbiya subyektiga aylanadi va aktiv subyekt sifatida o‘qituvchi bilan bu jarayonda qatnashadi, mustaqil bilim olishga intiladi. Fikrimizcha, yangi pedagogik texnologiyaning boshlang‘ich maktabdagagi roli va vazifalarini ko‘rsatish zarur.

Metodika asosiga qurilgan ta’limga qaraganda “ta’lim texnologiyasi” ko‘p qirralidir.

Birinchidan, texnologiya asosida tub mahsulotlarni aniq tavsifi turadi. Texnologiyada maqsad markaziy komponent hisoblanib, bu holat unga erishish darajasini aniq topishga olib keladi.

Ikkinchidan, tub va oraliq maqsadlari aniqlangани учун texnologiya maqsadga erishish va nazorat obyektiv usullarini ishlab chiqishga yo‘l ochadi.

Uchinchidan, texnologiya o‘qituvchining pedagogik eksperiment qilishga majbur qiladigan holatlarini kamaytiradi.

To‘rtinchidan, texnologiya o‘qituvchi va uni faoliyat turlariga yo‘naltirilgan dars ishlanmalari o‘rniga, o‘quvchilarning o‘quv-o‘rganish faoliyati mazmuni va tuzilishini aniqlaydigan o‘quv jarayonining loyihasini beradi. Metodik dars ishlanmasi har bir o‘qituvchi tomonidan turlicha o‘zlashtiriladi, dars va o‘quvchilar faoliyati ham turlicha tashkil qilinadi. O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini loyihalashtirish esa, programmalashtirilgan ta’lim tajribasi ko‘rsatganidek o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini ko‘taradi. Inson - bu murakkab tizim va unga kuchi va yo‘nalishi har xil yoki qarama-qarshi bo‘lgan ko‘p sonli tashqi kuchlar ta’sir etadi, shuning uchun u yoki bu ta’sirning samarasini oldindan aytib berish qiyin. Ijtimoiy texnologiya bu borada katta samaraga ega, chunki u qayta aloqaga kirisha oladi.

Masalan, o‘qituvchi doimiy nazoratni tashkil qilib, o‘quv materialini o‘zlashtirishda qiyinchilikka duch kelgan o‘quvchilarni aniqlaydi va ular bilan qo‘sishma ish olib boradi. Bunday paytda

o'qituvchi yangi materialni tushuntirish va mustahkamlash texnologiyasini qo'llaydi. Ya'ni, bu narsa materialni yetarli darajada o'zlashtira olmaganlar uchun o'tkaziladi. Endi texnologiyaning yana bir turi haqida to'xtalib o'tamiz. Bu tushuntirish metodi va mustahkamlashdir.

Masalan, dars boshida o'qituvchi 4–5 daqiqa savol-javob qilib, o'tgan darsdagi qaysi savollarni qaysi o'quvchi qay darajada o'zlashtirganini aniqlaydi. So'ngra, o'qituvchi mavzuni boshqatdan tushuntirib o'tirmay, so'rash davomida sinf diqqatini aynan shu savollarga qaratadi. Savolga to'liq javob qaytargan o'quvchilar tinglanadi va sinfdagi barcha o'quvchilar o'zlashtirmaganlarini bilib oladilar. Bu usul o'qituvchilarga mashg'ulotidagi muammolarni aniqlab, tezda ularni yechish, ya'ni o'quvchilarga yordam berishga imkon yaratadi.

Bunday texnologiya jarayoni vaqtini tejab, o'tilgan materialni so'rash metodi orqali mustahkamlashga ko'maklashadi. Ijtimoiy texnologiya muayyan barcha sharoitlarga tezda moslashishi bilan ko'zga yaqqol tashlanadi.

Ta'linda joriy etilayotgan texnologiyaning asosiy o'ziga xosligi, ularning insonparvarlikka yo'naltirilganligidadir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim ta'limning insonparvarlikka yo'naltirilganligi bilan bog'liq bo'lib, bunda bolalarning axborotlar bilan ishslashdagi kasbiy yondashuvi, har bir o'quvchi olingan ma'lumotni tizimlashtira olishi, fikrlashda mantiqiy izchillikka rioya qilishi bilan xarakterlanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining asosiy komponenti ta'limiy vaziyat bo'lib, ta'lim oluvchilarning kasbiy funksiyalari to'rt asosiy texnologiya asosida tahlil qiladi:

1) "Masala bilan yondashuv texnologiyasi" shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini belgilovchi elementlardan tuzilgan turli darajadagi masalalardan iborat;

2) "O'quv dialogi texnologiyasi" didaktik kommunikativ muhitni yaratish bilan bog'liq, subyektiv fikrlovchi muloqotni ta'minlovchi, refleksiya va shaxsni mustaqil o'z-o'zini tashkil etishi;

3) "Imitatcion ta'limiy o'yin texnologiyasi" musobaqa shartlarini ta'minlovchi bellashuv;

4) “Ta’limning moslashuvchanlik texnologiyasi” intellektual tizimlarning o‘ziga xosligiga asosan vujudga keladi, mazmun, jara-yonlarni o‘zarboq qirrali aniqlanishi, har bir bosqich doirasida ish tarkibining sikl modeli moslashuv algoritmi yordamida, operativ tahlil asosida va ta’lim oluvchining kasbiy rivojlanish darajasi korreksiyasi misolida aniqlanadi. Ta’lim jarayonini chiziqsiz tashkiliy va boshqaruv texnikasidan foydalanish kam vaqt ichida maqsadga erishishni ta’minlaydi.

2. Innovatsion pedagogika mazmuni

Innovatsion pedagogika – hozirgi davrda norasmiy fan sifatida ma’lum bo’lgan, biroq kun sayin butun jahon soha mutaxassislarining e’tiboriga tushib, jadal rivojlanib borayotgan bilimlar tizimidir. Uning ta’limiy ahamiyatini tan olgan pedagoglar jamoasi, olimlar, shu boisdan ham mavjud an’anaviy pedagogikaga tanqidiy yondashmoqdalar.

Hozirgi kunnarda shakllanib, rivojlanib borayotgan mazkur yangi fan haqida jiddiy fikrlar bildirilyapti, uning asosiy vazifasi hukmron bo’lib turgan butun o‘quv tarbiya tizimi nazariyasini innovatsiya asosida qayta tashkil etib o‘zlashtirishdir.

Innovatsion pedagogika-hukmron nazariya, nazariy va amaliy muammolarni hal etishning asosi qilib olingan. Innovatorlar fikriga asosan odatiy mumtoz pedagogik nazariyalar eskirib qolgan, yangi sharoitda hozirgi avlodni bu yo‘l bilan tarbiyalash mumkin emas.

Hozirgi pedagogik fandagi vaziyat umumiyligi holda shundan iborat. Bu vaziyatda innovatsiya juda muhim. Pedagogika-bilimlar tizimidir. Obyektivlik, maqsadga muvofiqlik, mustahkamlik, bir-biriga zid bo‘lmashlik - uning asosiy xarakteristikalaridir. Pedagogika tizimini har qanday ilmiy nazariya kabi tizimini tashkil etuvchi tamoyillari loyihalashtiradi, birlashtiradi va ushlab turadi ya’ni ushbu tizim asosiy bilimlarga asoslanishi asosiy holdir.

Obyektiv nazariyaning asosiy tamoyillari faqatgina ilmiy prinsip bo‘lishi shart ammo g‘oyaviy bo‘lmashligi lozim.

Insonning aqliy rivojlanganligi va tarbiyasi haqidagi bilim darajasining talabga muvofiqligi - obyektivlikning yagona talabidir.

Ideologiya (g'oyaviylik) - bu har doim ham u yoki bu ijtimoiy guruhlarning bir tomonlama ijtimoiy qiziqishlari bo'lib, ular buni qimmatli yo'l-yo'riq va g'oya sifatida boshqalarga majburlaydilar. Jahon pedagogik nazariyasi tarbiyaviy jarayon sharoit bilan bog'liq yuqorida turgan odamlarning g'oyalari qanday bo'lishi bilan bog'liq bo'lmasligini allaqachon e'tirof etganlar. O'sib borayotgan avlodlar tarbiyasi juda jiddiy ish bo'lib, uning o'tkinchi narsalarga bog'liq etib qo'yish mumkin emas.

Mustabidlik davrida mamlakatimizda ko'p vaqt insonni (sobiq) kommunistik g'oyalalar ruhida tarbiyalashga oid pedagogik ko'rsatmalar ustun bo'lib kelgan, uning juda ta'sirligi, turli chaqiriqlarni hayotga tatbiq etish kabi maqsadiga qaramay, uni ilmiy deb bo'lmaydi, chunki bunday g'oyalarni tashkil etuvchi qoidalar inson tabiatini va uning rivojlanishi haqidagi tizimini faqatgina fan o'rnatgan obyektiv asoslar va amaliyotda tasdiqlangan qoidalar yordamida rivojlantirish mumkin.

Ma'lum bo'lishicha, amaliyotda yo'l ko'rsatuvchi pedagogik nazariyamizning asosiy kamchiliklaridan biri bilim va ta'limning ustunligini qattiq bo'rttirib (kuchaytirib) yuborishdadir.

Insoniy, ma'naviy, mehnat tarbiyasi zarariga bilimda yodlab olish hajmi ko'payib borishi maktab hayotida odatiy hol bo'lib qoldi. Hozirgi tarbiya nazariyasi va u boshqarayotgan amaliyotning hamma belgilari bo'yicha inqiroz holatda ekani ko'rinish turibdi.

Bu holatdan chiqish uchun bo'lgan har qanday harakat innovatsion deb hisoblanayapti va bu holda ular o'z nomlariga mosdir. Innovatsion pedagogikani ko'pincha an'anaviy, muqobil pedagogika deb ataydilar. Bu fikrga qo'shilmaslik mumkin emas, hech bo'limganda eng oddiy tushunchalar bo'yicha; sinf ham, o'qituvchi ham va dars mazmuni va darsliklar yo'qolib ketmaydi-ku. Agarda, pedagogik tizim saqlanib qolsa, unda faqat uni mukammallashtirish haqida gapirish mumkin.

Faraz qilayotgan rivojlanish strategiyamiz "rivojlantiruvchi o'qitish" yo'naltirishlaridan eng avvalo o'z intilishlarini maktabda

o'qishga boshlashgacha yaxshi rivojlangan tuzilmalarni shakllantirish hamda bu harakatlarga endi paydo bo'lib kelayotgan jarayonlarni uyg'unlashtirib, olib borishga qaratilgan.

Strategik yo'limiz "Butun taraqqiyotning o'z avlodlari haqidagi g'amxo'rligi mantiqiga asoslangan didaktik va pedagogik tizim tuzishda amal qilishdir". Xuddi ana shuning uchun ham metodologik asos negizi sifatida, keng ma'noda tabiatni o'rgatuvchi soha bo'lib, xalq pedagogikasi hisoblanadi.

Bolalar qanday bo'lib tug'ilishi uning ota-onasidan bo'lak hech kimga bog'liq emas. Lekin har bir insonning yetarlicha rivojlanishi, barkamol shaxs darajasiga erishishi, o'ziga yoqqan mashg'ulot va hayotda o'z o'rnini topishi, o'z umrini hayotiy me'yorlarga munosib o'tkazishi-avvalo maktabga bog'liq. Har bir bola shaxsini sevish, hurmat qilish va uning rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish lozim. Agarda tabiatni o'rgatuvchi pedagogika moslashishni talab etmagan bo'lsa, gumanistik pedagogika bu masalani munosabatlar markaziga qo'yishni va bola me'yoriy darajada rivojvana olishi uchun: ... hamma ishni qilishni talab qiladi. Gumanistik pedagogikani ko'pincha innovatsion deb ataydilar. Lekin uning innovatsionligi faqatgina ayrim ta'lim tizimlariga aloqador. Hozirgi zamon G'arb mamlakatlari ta'lim tizimlari uchun esa allaqachon gumanistik yo'nalishga o'ta boshlagan. Ta'lim astasekin yangi munosabatlarga aylana boshlagan. Gumanistik pedagogikani innovatsion pedagogika deb atalganda so'zning to'la ma'nosida aytish mumkin: u tashqaridan "in'eksiya" talab qilmaydi, yuqori o'quv tarbiyaviy ta'sir natijalari tizimining ichki qayta tashkil etilishi evaziga erishiladi.

Gumanizm (insonparvarlik)-insonning dunyodagi eng qimmatli ma'naviy boyliklar yagona konsepsiysi. Bu konsepsiyaning asosiy qoidasi shaxs qadr-qimmatini himoya qilish, uning erkinlik, baxt, rivojlanish va o'z qobiliyatini namoyon etish huquqini tan olish, buning uchun zarur, qulay sharoitlarni yaratib berishdir.

Gumanizm - inson turmushi yagona va xususan alohida shaxs uchun ahamiyati umumiy ekanini tasdiqlovchi g'oya va qadriyatlar yig'indisidir. Qimmatli yo'naltirish va ko'rsatmalar tizimi sifatida gumanizm ijtimoiy g'oya mazmunini oladi.

Gumanistik pedagogika – o‘quv-tarbiya jarayoni ishtirokchisini, o‘z imkoniyati bo‘yicha rivojlantiruvchi teng huquqli, ongli, faol tarbiyalanuvchining yetishib chiqishida rol o‘ynovchi ilmiy-nazariy tizimdir.

Inson - qadr-qimmatini eng yuqori o‘ringa qo‘yilgan bizning davlatimizda insonparvarlik g‘oyalari uchun keng yo‘l ochib berdi.

Hozircha, unchalik insonparvar deb bo‘lmaydigan mamla-katimiz pedagogikasi asta-sekinlik bilan bo‘lsada, albatta bu innovatsion jarayon tomon intilib, harakatlana boshlagan.

Insonparvarlik nuqtayi nazaridan tarbiyaning asl maqsadi, har bir tarbiyalanuvchi munosabatlar, o‘zlashtirish faoliyati to‘la huquqli subyekti, mustaqil erkin shaxs bo‘lib yetishishidan iborat. Tarbiya jarayonining insonparvarlik darajasi, ushbu jarayon shaxs o‘zini namoyon eta olishi, o‘zidagi hamma tabiiy imkoniyatlarini ochib bera olish, uning erkinlikka qobiliyati, ijodga ma’suliyatini ochib berish uchun shart-sharoit yaratib berishi bilan (belgilanadi) va baholanadi.

Insonparvarlik pedagogikasi shaxsga qaratilgandir, Uning belgilari: ma’lumotlar egallab olish va ma’lum doiradagi mahorat va ko‘nikmalar yuzaga keltirish o‘rniga texnik, jismoniy, intellektual (aqliy) rivojlanishiga diqqatning qaratilishi: erkin, mustaqil fikrlovchi va harakat qiluvchi shaxsni shakllantirishga qaratilgan kuchlarni jamlash, har qanday hayotiy va o‘quv vaziyatlarida asoslangan qarorini tanlay-qabul qila oladigan insonparvar fuqaro bo‘lib yetishishi: o‘quv-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli qayta yo‘naltirishga erishish uchun kerakli tashkiliy shart-sharoitlar bilan ta’minlash.

O‘quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishni avtoritar pedagogikadan uning shaxsga pedagogik bosimdan voz kechib, o‘quvchi va pedagog o‘rtasida haqiqiy insoniy munosabatlar o‘rnatish o‘quvchi faoliyati va shaxsiy erkinligiga asosiy ahamiyat kasb etuvchi shaxsga qaratilgan pedagogikaga o‘tish deb tushunish kerak.

Bu jarayonni insonparvarlashtirish shunday sharoit yaratish deganiki, bunda o‘quvchi ilm olmasligi, imkoniyatlaridan past darajada olmasligi mumkin emas, tarbiyaviy ishlarga befarq yoki

muddatli o‘tib boruvchi hayotda kuzatuvchi bo‘lib qolishi mumkin emas. Gumanistik (insonparvar) pedagogika maktabni o‘quvchiga moslashuvi, quay sharoit va «psixologik himoya» bilan ta’minalashni talab qiladi.

Insonparvarlik maktabi amaliyotini innovatsion faoliyatining aniq shakl va uslublarini ishlab chiqish.

Ulardan ba’zilari:

1. O‘quv-tarbiya faoliyatini defferentsiyalash.
2. O‘quv ta’lim jarayonlarini har bir shaxs xislatiga qarab muvofiqlashtirish.
3. Har bir tarbiyalanuvchini va qiziqishini rivojlantirish uchun kerakli sharoitlarni yaratib berish.
4. Gotogen sinflar va shunga o‘xshashlarni tashkil etish.
5. O‘quv - tarbiya faoliyatining qulayligi.
6. Psixologik xavfsizlik, o‘quvchilarни himoyalash.
7. O‘quvchiga, uning kuchi va imkoniyatlariga ishonish.
8. O‘quvchini-qanday bo‘lsa shunday qabul qilish.
9. Ta’lim-tarbiya muvaffaqiyatini ta’minalash.
10. Maktab maqsad yo‘nalishini o‘zgartirish.
11. Har bir o‘quvchi rivojlanish darajasining asoslanishi.
12. Sirtqi ta’limni (ekstronat) «o‘quvchi bilan ma’naviy aloqasi yo‘q» ta’minalanmasligi sababli to‘xtatish, yo‘qotish.
13. O‘qituvchi shaxsiy ichki yo‘l-yo‘riq ko‘rsatmalarini qayta yo‘naltirish.
14. Insonparvarlik ta’limini kuchaytirish.

Insonparvarlik pedagogikasini statistik baholash juda qiyin. Ammo shu narsa aniqlanganki, autentingligi, empatiya va so‘zsiz ma’qullash o‘quvchilar rivojlanishi bilan moslashib, bog‘lanib ketishi va intizom, maktabga salbiy munosabat kabi muammolar bilan yomon moslashuvi aniqlangan.

3.Innovatsion jarayonning rivojlanishida umumiy yo‘nalish

Innovatika muammolariga murojaat etish va ularni muhim zamонавиyl ilmiy fikrlash yo‘nalishlariga qo‘sish, jamiyatda

innovatsion jarayonlar dinamikasi o'sib borayotganini tushunish natijasi bo'ldi.

Bizning adabiyotlarimizda innovatsiya muammolari ko'p vaqtgacha iqtisodiy tadqiqotlar tizimida o'rganib kelindi.

Ammo vaqt o'tishi bilan jamiyat hayoti faoliyatining hamma sohalarida innovatsion o'zgarishlar sifat xarakteristikalarini baholash muammosi yuzaga keladi, ammo bu o'zgarishlarni faqatgina iqtisodiy nazariyalar bilan aniqlab bo'lmaydi. Innovatsion jarayonlarni o'rganish uchun boshqa yo'llar zarur, unda innovatsion tahlil faqatgina. Fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlaridan foydalanishnigina o'z ichiga olmay, balki boshqarish, ta'lim, huquq va boshqa sohalarni ham qamrab oladi. Innovatsion pedagogik muammolarini yechilishini izlash ta'lim sohasida innovatsion jarayonlar borishi xususiyatlari, mazmuni, tarkibi va klassifikatsiyasini tekshirish natijalarini tahlil (analiz) qilish bilan bogliq.

"Innovatsiya" tushunchasi birinchi marta XIX asrda madaniyatshunoslar o'rganishlarida paydo bo'ldi va bir madaniyat elementlarini boshqasiga joriy qilish ma'nosini bildirgan. Uning bu ma'nosi hozirgacha etaografiyada saqlanib qolgan. XX asr boshlarida yangi bilim sohasi-yangiliklarni kiritish, qo'llash yuzaga keldi. U mahsulot ishlab chiqarish sohasida texnik yangiliklarni kiritish qonuniyatlarini o'rgana boshladi. Yangiliklarni kiritish haqidagi fan - innovatika -firmalarning yangi reja, xizmatlarni ishlab chiqish va tatbiq etish faoliyatiga talabalari keskin oshib borishi aks ettirilgan holda paydo bo'ldi.

30 yillarda AQShda "firma innovatsion siyosati", "innovatsion jarayon" atamalari paydo bo'ldi. 60-70 yillarda g'arbda firmalar va boshqa korxonalar amalga oshirilayotgan yangiliklarni empirik tekshirishlar keng quloch yoyadi. Shu bilan birga diqqat ikki asosiy tekshirishlar sohasiga qaratiladi, ularning har birida o'z nazariy - metodologik madaniyati ustun turadi.

Firma yangiliklarni kiritish tashabbuskori va yaratuvchisi sifatida bo'lib, uning yangiliklarni kiritishga "sezuvchanligini", "ta'sirchanligini" va bu ta'sirchanlik bogliqligi boshqarishning tuzilishi va uslublari bilan bog'liqdir. Tekshirishlar dasturi sifatida "qaror qabul qilish jarayoni" konsepsiysi hisoblanib, bunda

alternativlarni tanlash va analiz qilish qabul qilingan qarorlarni ketma-ket bosqichlar bilan amalga oshirishga o'tiladi.

Marketing yoki firmaning bozorga yangilik kiritishga, tavakkalchilik omillari, kiritilayotgan yangiliklar muvaffaqiyatini oldindan bilish metodlari, alohida bosqichlar samaradorligi iqtisodiy ko'rsatkichlari va yangilik kiritish umumiyligiga: ustun turuvchi tekshirishlar paradigmasi bo'lib, ochiq tizim va o'yin sifat yondashuvi nazariyasi hisoblanadi, unda firmalar bozor bilan o'z muhitlari sifatida o'zaro munosabatda bo'lib va u yerda innovatsion jarayonning yakunlovchi bosqich ko'pgina subyektlar o'zaro bog'liqligi natijasi bo'lib qoladi, bu subyetklarning har biri o'z manfaatiga qarab ish olib boradi va o'z sheriklari harakatlarini ehtimolini hisobga oladi.

Bu ikki sohada yangiliklarni kiritishni amaliy tekshirishlar bir qator fanlar nazariy yangiliklaridan foydalanadilar. Ular turmush va mehnat texnik vositalari rivojlanishi qonuniyatlariga murojaat etib, o'rganilayotgan texnika tarixi, texnik va ijtimoiy o'zgarishlar o'zaro bog'liqligini o'rganadilar: yangiliklarni kiritishni boshqarish amaliyotiga yangi g'oyalarni rag'batlantiruvchi omillar va uslublar haqidagi sotsiolog va ijtimoiy psixologlar xulosalarini, innovatsion yangilik kirituvchilar va boshqa ishtirokchilar xislatlari haqidagi mulohazalarini faol tatbiq etadilar.

Olimlar yangiliklar kirtishni tekshirish uch bosqichga ajratadilar. Birinchi bosqich yangiliklar muvaffaqiyatiga yordam beruvchi yoki to'sqinlik qiluvchi omillarni o'rganish va turli xil yangiliklar ko'pgina empirik ma'lumotlarni analiz qilish bilan bog'liq.

Ikkinci bosqich yangilik kiritish jarayonining o'zini, ularni bir soha muhitida ikkinchi sohaga olib o'tish mexanizmini hisobga olish bilan birgalikda o'rganish deb qaraydilar.

Uchinchi bosqichda tadqiqotchi diqqati turli xil innovatsion vaziyatlarni analiz qilish, tavakkalchilikni baholash metodlarini ishlab chiqish, yangiliklarni kiritish sohasida tavsiyanomalar yuzaga keltirishga qaratiladi. Bu bosqichda innovatsion siyosat davlat faoliyati bo'lib qoladi.

Pedagogik innovatsion jarayonlarni G'arbda 50 yillar oxirlaridan boshlab bizning mamlakatimizda keyingi 10 yillikdan boshlab olimlar maxsus o'rgana boshladilar.

Jahon pedagogik jamoatchiligining qiziqishi maxsus innovatsion xizmat, nashriyot, jurnallar innovatsion maqolalar ko'rinishida bo'lyapti. Xususan YUNESKO qoshida ta'llimi rivojlantirish Osiyo pedagogik innovatsiyalar markazi mavjud bo'lib, dunyodagi turli mamlakatlardagi pedagogik yangiliklarni umumlashtirib, ta'lif masalalari bo'yicha xalqaro byuro bilan birgalikda pedagogik jamoatchilikka maxsus nashrlarda ular haqida ma'lumotlar tarqatadi.

Bizning mamlakatimizda pedagogik innovatsiyaning rivojlanishi keng jamoatchi-pedagoglar harakati maktabning tez rivojlanishiga bo'lgan talab va uni pedagoglar amalga oshira bilmasliklari o'rtasidagi yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar bilan bog'liq. Yangiliklarni qo'llash umumiyligi kengaydi. Shu sababli yangi bilimlarga bo'lgan talab, yangi "yangilik", "yangi innovatsiya", "innovatsion jarayon" tushunchalarini anglash talabi keskinlashdi.

"Innovatsiya" so'zi ingliz tilidan kelib chiqqan, uning tarjimasи "yangilanish", "o'zgartirish", "yangilik kiritish" degan ma'noni bildiradi.

Innovatsion jarayonning mikrostrukturasini o'rganib olishlar yangilik kiritishning "hayotiy sikli, (davri)" konsepsiyasini alohida ko'rsatdilar, u yangilik kiritish vaqt davomida o'tab boradigan jarayon degan fikrdan kelib chiqadi. Bu jarayonda yangilikni yaratilishi va ijro etilishini ta'minlovchi faoliyatlarni turlarga ajratuvchi bosqichlarga bo'linadi. Shu davrga kelib ilmiy adabiyotlarda quyidagi innovatsion jarayonni bosqichlarga ajratish sxemasi mavjud:

1. Yangi g'oya paydo bo'lishi yoki yangilik konsepsiysi yuzaga kelish bosqichi; uni shartli ravishda fundamental va amaliy-ilmiy tekshirishlar (yoki birdan paydo bo'ladigan) natijalaridan kelib chiqadigan yangilik bosqichi deb ataydilar.

2. Kashf etish vaqtி, ya'ni amalga oshgan obyekt, moddiy yoki ma'naviy mahsulot na'muna ko'rinishidagi yangilik yaratish.

3. Yaratilgan yangilikka amaliy ko'payish topilib uni qo'shimcha ishlab mukammallashtirish amalga oshiriladi; bu bosqich yangilik kiritishdan mustahkam samaradorlikka erishish bilan yakunlanadi.

Shundan so'ng yangilikning mustaqil mavjudligi boshlanib, yangilik kiritish jarayoni keyingi bosqichga o'tadi, bu bosqich faqatgina yangilikni qabul qilish shartidagina amalga oshadi. Yangilikdan foydalanish davrida keyingi bosqichlar ko'rindi.

4. Yangilikning tarqalishi uning yangi sohalarga diffuziyalanib (qo'shilib) keng tatbiq etilishidan iborat.

5. Yangilikning biror sohada hukmron bo'lishi, bunda xususan yangilik o'z yangiligini yo'qotib, yangilik sifatida mavjud bo'lmay qoladi.

Bu bosqich yangi samarali yangilik paydo bo'lishi yoki uning yanada samarasi bilan almashishi bilan yakunlanadi.

6. Yangilik qo'llanilishi doirasi qisqarib uning yangi mahsuldori bilan almashadi. Yuqorida keltirilgan innovatsion jaryonning bir-birini vaqt bosqichida ketma-ket almashtirib, muntazam tizim uning real rivojlanib borishining soddalashtirilgan sxemasini ifodalaydi. Biror aniq innovatsion jarayon bu bosqichlarni o'z ichiga olib, ular ketma-ketligi va bog'liqligiga so'zsiz rioya qilishi shart emas. Yangilik kiritishni yangilikni yaratish va tarqatish kompleks va maqsadga muvofiq jarayoni sifatida qarab, uniig maqsadi inson talab va ehtiyojlarini yangi vositalar bilan qondirish bo'lib, bu samaradorligi, muntazam va hayotiyligini ta'minlovchi uslub va tizimlarni ma'lum sifatli o'zgarishiga olib keladi. Innovatsion jarayon boshqa sitatlari holatga o'tish, eskirib qolgan qoida, vaziyat va ahamiyatlarni qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq bo'ladi. Bir darajali qator yangiliklar (yig'indisi) umumiyligi innovatsion yaxlitligini tashkil etadi. Yangilik kiritish ichki mantiq va yo'nalishlarga ega bo'lib, u yangilik g'oyasi (fikrni) tug'ilishidan to uning foydalanila boshlanishigacha bo'lган harakterlarni rivojlantirish ham innovatsion jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat mantig'ini ifodalaydi. Shu tariqa yangilik kiritish dinamik tizim bo'lib, ichki mantiq kabi vaqt davomida qonuniy rivojlanishi, uning atrof muhit bilan o'zaro bog'liqligini ifodalaydi. Innovatsion jarayoni tuzilishi yangilikning bir bosqichidan ikkinchi bosqichiga o'tib borishi bilan o'zgarib boradi. Shu bilan birga yangilikning dinamik xususiyatlaridan uning natija-yakuni va samarasi bog'liq bo'ladi. Yangilikning yakunlaganligi

yakunlaganligi yoki uning imkoniyatlari amalga oshirilganlik darajasi innovatsion jarayonning hamma bosqichlari qanchalik muvaffaqiyatli o'tib borishiga bog'liq bo'ladi. Oddiy ishlab chiqarishdan kengaytirilganiga o'tish keskin vaziyat hisoblanadi, bu o'tish amaliyotda ko'p hollarda amalga oshirilmaydi, bu hol qaysi bir yangilikning yakunlanmasligiga sabab bo'lib, ko'pgina innovatsion muammolar mavjudligini yuzaga keltiradi.

Yangilikning yakunlanganligidan uning samaradorligini belgilash kerak, ya'ni innovatsion jarayon amalga oshirilayotgan tizim, turli ko'rsatkichlarga yangilikning amalga oshirilgan imkoniyatlari ta'sirini aniqlash mumkin, shu bilan birga ularning o'zaro bog'liqligi yaqqol ko'rindi.

"Innovatsion" terminiga yaqin bo'lgan tushunchalar "o'zgarish", "mukammallashtirish", "isloh qilish" tushunchalari hisoblanadi. Ammo ular o'rtasida ma'lum fikrlar ham mavjud. Yangilik-pedagogik tekshirishlarni baholash asosiy o'lchovlaridan biri bo'lib, u iqtisodiy jarayonning asosiy natijasi, bu har qanday yangilik kiritishning mustaqil qimmati va xususiyatidir. "Yangi" tushuncha innovatsion pedagogikada markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. Agarda birinchi - "birinchi yaratilgan" - ta'rifi ilgari umuman ma'lum bo'lmagan biror narsa haqida tasavvur bersa, keyingi yaqindan beri va ayniqsa "yangitdan ochilgan" - ta'riflar esa yangilikda qandaydir darajada "eskilik" elementi, nimadir, ilgari bo'lgan biror narsa borligini ifodalaydi. Shu tariqa yangilikning ikki turi haqida gapirish mumkin.

1. Birinchi marta yaratilgan yangilik. Bu yangilik ixtiroga teng, ya'ni yana o'rnatilgan yangi haqiqat demakdir.

2. Avvalgi mavjud bo'lgan nazariyani yanada takomillashtirib, zamonaga moslashtirishdan iborat.

4.Ta'limda muammoli va axborot texnologiyalardan foydalanish

Muammoli ta'lim bu – o'quvchiga beriladigan bilimning qaysi qismini, qanday yo'l bilan berish muammosini samarali hal qilishga qaratilgan o'qituvchi faoliyatidir. Muammoli ta'lim darsda bir

vaqtning o‘zida o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi harakati bo‘lib, u o‘quvchi shaxsidagi muhim belgi ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. N.G.Dayri aytganidek, darsda o‘rganiladigan mazmunning murakkab qismini o‘zlashtirishda o‘qituvchining faoliyati qanday bo‘lsa, o‘quvchi faoliyatini ham shu darajaga yetkazish muammoli ta’limning asosiy maqsadidir.

Muammoli ta’lim – o‘quvchilarning erkin fikrlashlariga, o‘zining fikrini erkin bayon qila olishlariga va fikrlarini yanada rivojlantirishga ta’sir etishidir. Muammoli ta’lim o‘qituvchidan aniq harakat qilishni, darsning har bir minutini hisobga olishni, ushbu vaqtida kerakli samara hosil bo‘lishi uchun o‘zining barcha imkoniyatlarini va mahoratini ishga solishni talab etadi. Bu masalani hal etishning muhim sharti o‘qituvchining bo‘lajak o‘quv mashg‘ulotiga tayyorgarligidir.

Tayyorgarlik jarayonida muammoli ta’limning barcha ko‘rinishlarini hisobga olish va uning uslubini ishlab chiqish zarur. Muammoli ta’limga tayyorgarlik ko‘rishda o‘qituvchilar qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklarni yengishda o‘qituvchini innovatsion ijodiy laboratoriyasining ahamiyati katta.

Muammo – ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning subyektiv shaklidir. U muammoli vaziyatda, ya’ni jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o‘rtasida obyektiv ravishda vujudga keladigan ziddiyat. Muammoli ta’lim deganda o‘quv materialini o‘quvchilar ongida ilmiy izlanishga o‘xhash bilish vazifalari va muammolarini vujudga keltiradigan yo‘sinda o‘rgatish tushuniladi. O‘quvchining fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlar vujudga keladi va ular bolani obyektiv ravishda izlanishga va mantiqan to‘g‘ri ilmiy xulosalar chiqarishni o‘rganishga da’vat etadi.

Muammoli ta’lim an’anaviy ta’limning salbiy jihatlarini bartaraf etish maqsadida yuzaga kelgan insonni fikrlash, xotirasini mustahkamlash ekspluatatsiya qilish asnosida yuzaga kelgan. Fanda muammoli o‘qitish bilan aloqador ikkita tushuncha ishlataladi: “**muammo**” va “**muammoli vaziyat**” tushunchalari. Ayrim hollarda ular sinonimdek tushunilsa-da, lekin bu atamalar bilan belgilangan obyektlar o‘z hajmi bilan farqlanadi. Muammo

muammoli masalalar ketma-ketligiga ajraladi. Muammoli ta'limga shunday shaklki, u ta'limga jarayoni subyektlarini muammoli izlanish asosida bilim olishiga asoslanadi. Bu jarayonda ular ilmnning obyektiv qarama-qarshiliklariga, ijtimoiy va kasbiy amaliyat hamda ularni hal etishda, fikrlashda, samarali muloqotga kirishish va bilimlarni ijodiy o'zlashtiradilar. O'qitishni bunday shakl-lanishing asosi muammoli vaziyatlar hisoblanadi.

Ko'plab olimlar (T.V.Kudryavsev, A.M.Matyushkin, S.L.Rubinshteyn, I.Y.Lerner, M.N.Skatkin, M.Maxmutov, R.A.Mavlo-nova va boshqalar) muammoli ta'limga afzal jihatlari haqida fikr yuritib, u shaxsda bilimlarni o'zlashtirish, ijodkorlik, izlanuv-chanlik, tanqidiy fikrlash kabi xususiyatlarni shakllantirishni, fikrlash va ta'limga muammoli vaziyatning chuqur psixologik xarakteristikasini ifodalaganlar.

Psixologlarning ta'kidlashicha, fikrlash doimo muammo yoki savoldan, ajablanish yoki tushuna olmaslikdan va ziddiyatdan boshlanadi (S.O.Rubinshteyn). Ana shularga ko'ra, pedagogika nazariyasi va amaliyoti asosini o'quv muammosi tashkil etadigan ta'limga muammoli yondashish tushunchasi faol kirib kela boshladи. Bu muammoning mohiyati o'quvchiga ma'lum ko'nikma va malakalar bilan tushunish hamda tushuntirish uchun ilgarigi bilimlar kamlik qiladigan voqealar o'rtaсидagi didaktik ziddiyatlar-dan iboratdir. Bunday ziddiyat ijodiy o'zgartirishga turtki bo'ladi (M.Maxmutov).

M.N. Skatkin muammoli ta'limga quyidagi uchta asosiy turini alohida ifodalagan:

1. *Bilimlarni muammoli bayon qilish*. Bunday bayon qilishda o'qituvchi o'quvchilarga u yoki bu qoidalarni faqat gapirib bermaydi, balki og'zaki fikr yuritib, muammoni ham aytadi va uni hal qilish jarayonini ko'rsatadi.

2. *Bayonning ayrim bosqichlarida o'quvchilarni izlanishga jalb etish*. Bunda o'qituvchi muammoni qo'yadi, o'quv materialini tushuntiradi, lekin ana shu jarayonda o'quvchilarga ularidan izlanish jarayoniga qo'shilishni va u yoki bu bilish vazifasini mustaqil holda hal etishni talab qiladigan savollarni beradi.

3.Ta'lanning tadqiqiy metodi. O'quvchilar bilish muammosini anglab, o'zlari izlanish rejasini belgilaydilar, taxmin (gipoteza)ni tuzadilar, uni tekshirish yo'lini muhokama qiladilar, tajribalarni va dalillarni taqqoslaydilar, umumlashtiradilar.

Muammoli bayon qilish jarayonida izlanishni o'qituvchi olib boradi, o'quvchilarga ilmiy isbotlash bo'yicha fikrlash namunasini ko'rsatadi, o'quvchilar faqat uning mulohazasini kuzatadilar, muammoni hal qilishga qaratilgan qiziqishni o'rganadilar. Shuningdek, ularning shaxsida qiziquvchanlik, o'tkir zehnlilik, mustaqillik, o'qishga qiziqish va ijodga intilish kabi fazilatlarni tarbiyalaydi. Boshlang'ich ta'linda muammoli vaziyatning har xil turlari bo'lishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari bolalarda qiziqish va qiziquvchanlikni tarkib toptiradigan topishmoqlarni, zehnni o'tkirlashtiradigan masala va tegishli jumboqlarni ko'p vaqtlardan buyon qo'llaydilar. Bunday hollarda muammoli vaziyat topishmoqlar mazmunining o'zida, shuningdek, bolalarda savolni va shu savolga javob topish istagini vujudga keltiradigan yo'sinda tuzilgan masalalarda beriladi. Bunda bola to'g'ri javob uchun o'zidagi bilimlar yetarli ekanini tushunadi. U masalani hal qila olishni, buning uchun nima haqida gap borayotganini tasavvur qilish va fikrlashning to'g'ri yo'nalishini topish kerakligini his etadi. Zehn va topqirlikni o'stiradigan topishmoqlar hamda masalalar bolalarni mantiqan to'g'ri fikrlashga, o'zlari uchun tushunarli daliliy material yuzasidan fikr yuritishning qiziqarli tizimini topishga o'rgatadi.

Ilmiy muammo shaxsdan mazkur sohadagi noma'lum narsalarni yoritishni talab qiladi. Shuningdek, o'zining hal qilinishi uchun fanda ma'lum bo'lmagan anchagina yangi bilimlarning o'zlashtirilishini taqozo etadi. Amaliy muammoni hal qilish uchun amalda kuch sarflanishi, oldingi bilimlar, ko'nikma va malakalar yangitdan tashkil etilishi zarur. O'quv muammosida obyektiv yangilik bo'lmaydi. O'qituvchi o'quvchilar oldiga har qanday o'quv muammosini emas, balki faqat ular tushuna oladigan va subyektiv muammo sifatida qabul qilishi mumkin bo'lgan muammolarni qo'yishi kerak.

Muammoli vaziyat – o‘quvchining ma’lum psixik holatidir. Bunday holat biror topshiriqni bajarish (masala yechish, savolga javob topish) jarayonida ziddiyatni anglash tufayli vujudga keladi. Ana shu ziddiyatni anglash o‘quvchilarda predmet to‘g‘risidagi, ishni bajarishning usuli yoki shartlari haqidagi yangi bilimlarni izlash ehtiyojini uyg‘otadi.

Muammoli vaziyatlarni yaratish va hal qilishning yo‘llari.

M. I. Maxmutov muammoli vaziyatlarning tiplarini quyida-gicha bayon qilgan.

Birinchi tip. Muammoli vaziyatlar ko‘pincha o‘quvchilar ilgari o‘zlashtirgan bilimlaridan yangi amaliy sharoitda foydalanishga majbur bo‘lganida vujudga keladi.

Ikkinchchi tip. Masalani mavjud yo‘llar bilan nazariy hal qilish va tanlangan usulni amalga oshirib bo‘lmasligi o‘rtasida ziddiyatlar mavjudligida muammoli vaziyat vujudga keladi.

Uchinchi tip. Ta’limiy masalani hal qilish bo‘yicha amalda erishilgan natija bilan o‘quvchida uni nazariy asoslash uchun bilimlar yo‘qligi o‘rtasida ziddiyat mavjud bo‘lgan holda muammoli vaziyat vujudga keladi.

To‘rtinchi tip. O‘quvchilar qo‘yilgan masalani yechish yo‘lini bilmaydigan, muammoli savolga javob bera olmaydigan, ular yangi faktini izohlash uchun ilgari o‘zlashtirgan bilimlari yetarli emasligini anglagan holda muammoli vaziyat vujudga keladi.

5. Muammoli ta’lim metodlari

Juda ko‘p didaktlar, o‘qituvchilar va metodistlar (Babanskiy, Lerner, Matyushkin, Maxmutov, Pishkalo, Okon, Fleminch, Markov, Sani va boshqalar) muammoli ta’lim masalalarini quyidagi beshta asosiy metodlar sifatida farqlaydilar:

1. *Tadqiqot metodi.*

Bu metod, birinchidan, bilimlarni ijodiy qo‘llanishini ta’milashga, ikkinchidan, ilmiy bilish metodlarini izlash jarayonida mazkur metodlarni va ularning qo‘llanishini o‘zlashtirishga qaratiladi. Uchinchidan, ijodkorlik faoliyatni xislatlarini shakllantiradi,

to‘rtinchidan, ana shunday faoliyatga qiziqish hamda ehtiyojni tarkib toptirishning sharti hisoblanadi.

2. Qisman izlavish yoki evristika metodi

O‘quvchilarni asta-sekin muammolarni mustaqil hal qilishga yaqinlashtirish uchun ularga, avvalo, yechimning ayrim sodda qismlari, tadqiqotning ayrim bosqichlarini bajarishni o‘rgatish, ularda asta-sekin ko‘nikma hosil qilish zarur. Tadqiqot metodining birinchi variantida o‘quvchilarga ko‘rsatilgan rasmga va so‘zlab berilgan mazmunga mos savollar tuzishni tavsiya etish orqali muammolarni ko‘ra olish, aytilgan faktlardan xulosa chiqarish o‘rgatiladi.

3. Tushuntirish, namoyish etish metodi

Bu metodning asosiy vazifasi o‘quvchilarning axborotni o‘zlashtirishini tashkil etishdir. Uni axborot-reseptiv metod deb ham ataladi (retsepsiya-idrok) va unda o‘qituvchi bilan o‘quvchi faoliyati davom etadi. Bu faoliyat shundan iboratki, o‘qituvchi tayyor axborotni turli vositalar bilan beradi, o‘quvchilar esa ana shu faoliyatni idrok etadilar va eslab qoladilar. O‘qituvchi axborot berishni og‘zaki so‘z (hikoya), matbuot (darsliklar, qo‘sishimcha qo‘llanmalar)dagи iboralar, ko‘rsatmali qurollar va hokazolar yordamida amalgalashadi.

4. Muammoli bayon qilish metodi.

Ushbu metodning mohiyati o‘qituvchi muammoni qo‘yib, uni o‘zi hal qilishi va yechimning ahamiyatini o‘quvchilarga tushunarli ziddiyatlar orqali ko‘rsatishdan iboratdir.

5. Reproduktiv metod

O‘quvchilar ko‘nikma va malakalarni egallashi, shu bilan birga, bilimlarni o‘zlashtirishning ikkinchi darajasiga erishishi uchun o‘qituvchi topshiriqlar tizimi orqali ularning o‘zlariga berilgan bilimlarni bir necha marta eslatadi.

U topshiriqlar beradi, o‘quvchilar esa topshiriqlarni bajaradilar – o‘xshash masalalarni yechadilar, namunaga qarab turlaydilar va tuslaydilar.

O‘qituvchining necha marta va qanday oraliqlarda takrorlashi uning qobiliyatiga, topshiriqning qiyin yoki osonligiga *bog‘liq*.

6. Muammoli boshlash bilan bayon qilish.

O'qituvchi yangi bilimlarni bayon qilishni boshlashda muammoli vaziyatni yaratsa, keyin o'quv materialini an'anaviy, axborot usulida tushuntiradi.

6.Ta'lif jarayonida axborot texnologiyalarning o'rni

Mamlakatimizda ta'lif sohasida ro'y berayotgan tub yangilanishlar har bir ta'lif muassasasida o'quv jarayoni metodik ta'minotini rivojlantirishni talab etadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari yaqin yillar ichida pedagogik innovatsiyalarning asosiy manbai bo'lib qoladi.

Ta'lif oluvchilar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ta'lifning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun tegishli sharoitlarni yaratish ta'lif mazmunini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri sanaladi. Zamonaviy ta'lif tizimining asosini sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, ammo bunday muhit ta'lif tizimini takomillashtirishga, ta'lif jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot vositalari keng joriy etilgan jamiyatda barcha fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lif oluvchilar oldiga ularni tez va sifatli egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilimlarni egallash vazifasini qo'ymoqda. Bu vazifani amalga oshirishda o'qitishning to'rtta asosiy metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdır. Bular:

- tushuntirish illyustratsiyalash;
- reproduktiv;
- muammoli;
- tadqiqotchilik.

Birinchi metod – tushuntirish illyustratsiyalash o'quvchi bilan ta'lif tizimi o'rtasida aks aloqaning mavjudligini ko'zda tutmagani bois uni kasbiy kompyuter (axborot kommunikatsiya texnologiyalari) dan foydalilaniladigan tizimlarda qo'llash befoya.

O'qitishning hisoblash texnikasi vositalaridan foydalilaniladigan, reproduktiv metodi o'quvchiga o'qituvchi va (yoki) axborot

komunikatsiya texnologiyalari tomonidan xabar qilinadigan bilimlarni o'zlashtirishni hamda ta'lif oluvchining o'rganilgan materialni qayta yaratish, uni o'xshash (analogik) vaziyatlarda qo'llashga oid faoliyatini tashkil qilishni ko'zda tutadi.

Mazkur metodni axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan qo'llash ta'lif jarayonini tashkil qilish sifatini jiddiy yaxshilash imkonini bersada, biroq o'quv jarayonini an'naviy qo'llanadigan sxemadan (axborot kommunikatsiya texnologiyalarisiz) foydalanilganiga nisbatan tubdan o'zgartirishga imkon bermaydi. Bu jihatdan muammoli hamda tadqiqotchilik metodlaridan foydalanish ko'proq o'zini oqlaydi. O'qitishning muammoli metodi axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'quv jarayonini qandaydir muammoni qo'yish va uni hal qilish yechimlarini izlash sifatida tashkil qilishga oid imkoniyatlaridan foydalanadi. Asosiy maqsad ta'lif oluvchilarning bilish faolligini oshirishga maksimal darajada ko'maklashishdan iborat. Ta'lif jarayonida olinayotgan bilimlar asosida turli toifadagi masalalarning yechilishi, shuningdek, qo'yilgan muammoni hal qilish uchun zarur bo'ladigan qator qo'shimcha bilimlarni olish va tahlil ko'zda tutiladi. Bunda axborotni toplash, tartiblashtirish, tahlil va uzatishga oid ko'nikmalarni egallahsga alohida e'tibor qaratiladi.

O'qitishning axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan tadqiqotchilik metodi ta'lif oluvchilarning ma'lum darajada ilmiy texnik tadqiqot olib borish jarayonidagi mustaqil ijodiy faoliyatini ko'zda tutadi. Bu metoddan foydalanilganda ta'lif faol tadqiqot, kashfiyot va o'yin natijasi sanaladi, buning natijasida, odatda, yuqorida sanab o'tilgan metodlardan foydalanilganidan ko'ra yoqimliroq va muvaffaqiyatliroq bo'ladi. O'qitishning muammoli metodi – metod, obyekt va vaziyatlarni ularga ta'sir o'tkazish jarayonida o'rghanishni ko'zda tutadi. Muvaffaqiyat qozonish uchun ta'sirlarga ta'sir qiladigan muhitning bo'lishi zarur. Bu ma'noda tengsiz vosita modellashtirish, ya'ni real ob'yekt, vaziyat yoki muhitning dinamikada imitatsion tasavvuri sanaladi. Eng so'nggi texnik yutuqlar ko'pincha ta'lif jarayonida o'zining munosib o'mini egallagan, bu ma'noda axborot kommunikatsiya texnologiyalari ham istisno emas.

O'quv jarayonida kompyuterlardan foydalanish bo'yicha dastlabki tajribalar hisoblash texnikasidan foydalanish ta'lim jarayoni samaradorligini sezilarli darajada oshirishi, bilimlarni hisobga olish va baholashni yaxshilashi, qiyin vazifalarni hal qilishda o'qituvchining har bir ta'lim oluvchiga yakka tartibda yordam berishini ta'minlashi, yangi kurslarni yaratish va qo'yishni osonlashtirish kabi imkonyatlarni berishini ko'rsatdi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari so'z, raqam, tasvir, tovush va boshqa ko'rinishlarda beriladigan axborotni qayta ishslash uchun keng imkoniyatlarni sanaladi. Ularning vosita sifatidagi asosiy xususiyati axborot olish va qayta ishslash bilan bog'liq turli xil amallarni bajarish uchun sozlash (dasturlashtirish) imkon mavjudligidir. O'quv jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish foydalanuvchilarining tafakkur ko'nikmalarini va murakkab vazifalarni hal qilish malakalarini rivojlantirishning yangi yo'llarini ochib beradi, ta'limni faollash-tirish uchun prinsipial yangi imkoniyatlarni taqdirm qiladi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari auditoriya va mustaqil mashg'ulotlarni yanada qiziqarli, dinamik va ishonchli, o'rganiladigan axborotning katta oqimini oson o'zlashtiriladigan qilish imkonini beradi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining ta'limning boshqa texnik vositalariga qaraganda asosiy ustunliklari nozikligi, ta'limning turli modellari va algoritmlariga sozlash, shuningdek har bir ta'lim oluvchining xatti-harakatlariga yakka tartibda ta'sir qilish imkoniyati sanaladi. Bunday vositalardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada faollashtirish, unga tadqiqotchilik va izlanuvchanlik xarakterini bag'ishlash imkonini yaratadi. Darsliklar, televideniye va kinofilmlardan farqli o'laroq, axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim oluvchining xatti-harakatiga zudlik bilan javob berish, turli toifadagi ta'lim oluvchilar uchun materialni takrorlash, tushuntirish, puxtarloq tayyorgarlikka ega bo'lgan ta'lim oluvchilar uchun yanada murakkab va o'ta murakkab materialga o'tish imkoniyatini ta'minlaydi. Bunda individual sur'atlarda o'qitish oson va tabiiy tarzda amalga

oshiriladi. Shubha yo'qki, ko'p hollarda kompyuterning afzalliklari to'g'risida gapirib o'tirishning o'zi nojoiz. U nafaqat talabalarni mashaqqatli mehnatdan ozod qiladi, balki ularga mehnat talab amaliy topshiriqlar bilan chiziqli dasturlashtirish hamda murakkab analistik tadqiqotlardan foydalanib shug'ullanish imkonini beradi.

Test muharirlaridan foydalanish talabalarni mashinkada terishdek og'ir ishdan xalos etib, o'qituvchilarga berilgan mavzuni u qoniqarli darajaga yetmagunicha ko'p marta qayta ishlashni talabidan talab qilish imkonini beradi. Uslubni bu kabi "takrorlash" kompyutersiz mumkin bo'lmasdi.

Avvallari mashaqqatli, birin-ketin takrorlanadigan operatsiyalarga sarflanadigan vaqt endilikda, fikr kuchlanishi va ijodiy yondashuvni talab etadigan yanada muhim. Bilimlar hajmining ortib borishi va tahlil metodlarining murakkablashishi bilan ta'limni asosan ma'ruzalarni passiv tinglash hamda o'quv matnlarini o'qish tamoyili asosida tashkil etish tobora qiyinlashib bormoqda. Tanqidiy fikrlash, murakkab muammolarni tushunish va hal qilish malakalari, juda katta hajmdagi dastlabki ma'lumotlarni foydali umumlashtirish, qila olish, qobiliyatni bularning hammasi katta ahamiyat kasb etib, talabidan yanada faol bo'lishni talab etadi. Aynan, shu nuqtayi nazardan kompyuter ta'lim sohasi uchun nihoyatda keng imkoniyatlar taqdim qiladi. Axborot kommunikatsiya texnologiya vositalari o'quv jarayonida quyidagi eng muhim jihatlari bilan alohida ahamiyatga egadir:

- differensial va individual o'qitish jarayonini tashkil qilishi;
- o'qish jarayonini baholash, teskari aloqa bog'lashi;
- o'zini-o'zi nazorat qilish va tuzatib borishi;
- o'rganilayotgan fanlarni namoyish etishi va ularning dinamik jarayonini ko'rsatishi;
- fan mavzularida animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalardan foydalanishi;
- o'quvchi talabalarga fanni o'zlashtirish uchun strategik ko'nikmalar hosil qilishi va hokazo. Shuningdek, axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining amaliy tomoni ulardan

o'quv jarayonida foydalanish va kelgusida ta'limgiz tizimida o'quv jarayoni uchun ma'lumotlar bazasini va virtual stendlar yaratishdek muhim vazifani amalga oshirishga zamin hozirlaydi. O'quv tarbiya jarayonining axborot metodik ta'minotini amalga oshirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarning bajaradigan asosiy vazifasi ikki tomonlama muloqotni ta'minlashdir. Teskari aloqasiz, o'qituvchi va o'quvchi orasidagi doimiy muloqotsiz o'qitish mumkin emas. O'qitish (mustaqil o'qishdan farqli o'laroq) ta'rifiga muvofiq muloqotli hisoblanadi. Ta'limgiz kunduzgi shaklida muloqot imkoniyati o'quv jarayonini tashkil etish shakli, o'qituvchi va o'quvchining bir joyda va bir vaqtida bo'lishini taqozo qiladi.

Zamonaviy pedagogikada ta'limgiz paradigmalar (modeli) lari

Pedagogik paradigma (yunoncha "paradeigma" - misol, na'-muna) – pedagogika fani rivojining ma'lum bosqichida ta'limiylar va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko'rsatmalar to'plami bo'lib, u ta'limgiz konseptual modeli sifatida qo'llaniladi. Bugungi kunda ta'limgizning quyidagi paradigmalar keng tarqalgan:

1. An'anaviy – konservativ paradigma (bilim paradigmasi).
2. Ratsionalistik (bixevoiristik) paradigma.
3. Fenomenologik (gumanistik) paradigma.
4. Texnokratik paradigma.
5. Ezoterik paradigma.

Ayni vaqtida ta'limgiz paradigmalarini belgilashga nisbatan uch xil yondashuv mavjud:

1. *Qadriyatli (aksiologik) yondashuv* - madaniyat inson hayotining mazmuni sifatida tushuniladi.
2. *Faoliyatli yondashuv* - asosan madaniyat moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratishga yo'naltirilgan faoliyatning sinalgan usullari sifatida talqin etiladi.
3. *Shaxsiy yondashuv* - madaniyat muayyan shaxs timsolidan namoyon bo'ladi.

Madaniyatga nisbatan turli yondashuvlarning mavjudligi bir qator paradigmalarning yaratilishiga zamin yaratadi.

Har bir paradiigma muayyan ta'limiy muammolarni hal etishga yo'naltiriladi. Xususan:

- ijtimoiy institut sifatida o'quv muassasalarining vazifalari;
- ta'limning samarali tizimi;
- o'quv yurtlari oldida turgan eng muhim, ustuvor masala;
- ta'limning ijtimoiy ahamiyatli maqsadlari;
- muayyan bilim, ko'nikma va malakalarning qimmatli hisoblanishi.

Ayni vaqtda quyidagi paradigmalar mavjud:

1. Bilim olishning an'anaviy paradigmasi (modeli) (J.Majo, L.Kro, J.Kapel va boshqalar)

Unga ko'ra ta'limning asosiy maqsadi - "Bilim, qanchalik qiyin bo'lmasisin bilim olish". An'anaviy paradiigma maktabning maqsadi yosh avlodga individual rivojlanishi hamda ijtimoiy tartibni saqlab qolishga yordam beruvchi madaniy meroslarning muhim elementlari – bilim, ko'nikma va malakalar, ilg'or g'oyalar va qadriyatlarni saqlab qolish hamda ularni yoshlarga yetkazish muhim ekanligini yoritadi. Bilim olish paradigmasining asosiy maqsadi: ta'lim olish, taraqqiyot va madaniyatning eng muhim elementlarini avloddan-avlodga yetkazish.

2. Ratsionalistik (bixevoiristik) paradiigma (P.Blum, R.Gane, B.Skinner va boshqalar). Ratsionalistik paradiigma diqqat markazida ta'lim mazmuni emas, balki o'quvchilar tomonidan turli bilimlarni o'zlashtirilishini ta'minlovchi samarali usullari yotadi. Ta'limning ratsionalistik modeli asosini B.Skinerning ijtimoiy injeneriya bixevoiristik (inglizcha *behavior* - xulqi) konsepsiysi tashkil qiladi.

Maktabning maqsadi – o'quvchilarda g'arb madaniyati ijtimoiy qoidalari, talablari va ko'zlagan maqsadlariga mos keladigan moslashtiruvchi "xulqiy repertuar"ni shakllantirishdir. Shu bilan bir vaqtda, "xulqi" atamasi bilan "insonga xos hamma ta'sirlanishlar – uning fikrlari, sezgi va harakatlari" ifodalanadi (R.Tayler).

Bunda ta'limning asosiy metodlari, o'rgatish, trening, test sinovlari, individual ta'lim, tuzatishlari bo'lib qoladi. Buning oqibatida, ta'limninggina emas, balki dars berishning ham ijodiy xarakterini aniqlash muammosi muhokama qilinmaydi.

P.Blum barcha o'quvchilar faqat o'zlashtiribgina qolmay, balki muvaffaqiyatlari o'qishlari mumkin deb hisoblaydi. O'quvchining optimal qobiliyatlar ma'lum sharoitlarda, o'quvchiga ta'lim berish natijasi uning sur'ati bilan aniqlanadi. Olimning fikricha, ta'lim oluvchilarning 95 foizi ta'lim muddatlariga bo'lgan cheklashlar olib tashlanganda o'quv kursining butun mazmunini o'zlashtirib olishga qodirlar. Ana shu nuqtayi nazardan o'quvchilar tomonidan bilimlarning muvaffaqiyatlari o'zlashtirishini ta'minlovchi metodika ishlab chiqiladi, uning mohiyati quyidagichadir:

1. Butun sinf yoki kurs uchun to'la o'zlashtirish etaloni, mezonini aniq belgilab olish asosida, o'qituvchi ta'lim yakunida erishilishi kerak bo'lgan aniq natijalarning ro'yxati va unga muvofiq keluvchi testlarni tuzadi.

2. O'quv birliklari, ya'ni, o'quv materiallarining yaxlit bo'limlari ko'rsatiladi, ularni o'zlashtirish natijalari aniqlanadi, yakuniy bahoga ta'sir ko'rsatmaydigan navbatdagi testlar tuziladi. Bu testlarning vazifalari – tuzatish, korrektsiyalashdan iborat.

3. To'la o'zlashtirishga yo'naltirilgan har bir o'quv kurs materiallarini o'zlashtirish darajasini baholash uchun test sinovlarini o'tkazish. Bu o'rinda har bir o'quvchiga baho va ta'lim maqsadlarning ahamiyatini tushuntirish muhim.

Predmetlarni bo'sh va o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchilarning qobiliyatlarini jadal rivojlantirish P.Blum konsepsiyasining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Turli mamlakatlarning (Avstriya, Belgiya, AQSh va boshqalar) ta'lim tizimlari tajribasi ratsionalistik (bixevoristik) paradigma g'oyalariga muvofiq ish ko'rildganda 70 % o'quvchilar yuqori natijalarni qayd etganliklarini ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan ta'lim yo'naliislari o'zida insonparvarlik g'oyalarini ifoda etmagan, ular bola dunyoqarashining rivojlanishi, shaxsning rivojlanishida shaxslararo munosabatlarning muhim o'rinn tutishini nazarda tutmaydi.

3. Gumanistik (fenomenologik) paradigmaga ko'ra (A.Maslou, A.Kombs, K.Rodjers, L.S.Vo'godskiy va boshqalar) ta'lim oluvchi erkin shaxs, ijtimoiy munosabatlar subyekti sifatida o'ziga xos rivojlanish imkoniyatlariga ega. Ular bolani rivojlantirish maqsadida uni shaxslararo munosabatlar jarayoniga yo'naltiradi. Ta'limning fenomenologik (fenomen yunoncha "phainomenon" – hisoblangan, ya'ni, mashhur, alohida nodir odam) modeli o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ularning talab va qiziqishlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ko'zda tutadi. Uning vakillari o'quvchini nodir shaxs deb hisoblaydilar. Gumanistik paradigma doirasida faoliyat olib boruvchi har bir ta'lim tizimi ijodiy rivojlanadi va o'quvchi hamda o'qituvchining erkinligi va ijodkorligini yoqlaydi.

Gumanistik paradigma g'oyalari 1991 yildan keyin respublika uzluksiz ta'lim tizimiga joriy etila boshlandi. Paradigmaning diqqat markazida o'quvchining barkamol rivojlanishi, uning intellektual ehtiyojlari, "erkin fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash" masalasining ijobiy hal etilishi yotadi. Ayni vaqtda, respublika ta'lim muassasalarida qo'yidagi g'oyalarga amal qilinmoqda: "Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashga o'r ganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. ... Mustaqil fikrlash – ham katta boylikdir"¹.

Ezoterik paradigma (yunoncha "esoterikos" ichki, sirli, yashirin, faqatgina biluvchilar uchun mo'ljallangan insonning dunyo bilan o'zaro aloqalari yuksak darajalarini aks ettiradi). Modelning mohiyati haqiqat abadiy va o'zgarmas, doimiy ekanligini ta'kidlashdan iborat. Paradigma tarafдорлари haqiqatni bilib bo'lmasligi, unga faqatgina fahmlash asosida erishish mumkinligini ta'kidlaydilar. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi koinot bilan muloqot, o'quvchining tabiiy kuchlarini ozod etish va rivojlantirishdan iborat. Shu bilan birga, o'qituvchining himoyalash vazifasi muhimdir, u o'quvchining mavjud imkoniyatlarini uni ma'naviy, jismoniy, psixik jihatdan rivojlantirishga yo'naltiradi.

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997, 9-bet.

Ilmiy-texnik, *texnokratik paradigmaning* asosiy maqsadi amaliyotni takomillashtirish asosida ta'lim oluvchilarga "aniq" ilmiy bilimlarni berish va ularning o'zlashtirilishini ta'minlashdir. Bilim - kuchdir, shu bois shaxs qimmati uning o'r ganish, bilim olish, imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shaxs muayyan (o'rtacha, standartlashtirilgan) bilim yoki xulq-atvor egasi bo'lsagina qadriyat sifatida e'tirof etiladi degan g'oya ushbu paradigmanning asosini tashkil etadi.

So'nggi yillarda noinstitutsional paradigma rivojlanan boshladidi. U ta'limni ijtimoiy institutlar, ya'ni, maktab va oliy ta'lim muassasalaridan tashqarida tashkil etish g'oyasini ilgari suradi. Bu ta'lim "tabiatda" - Internet, "ochiq maktablar" – kompyuterlar vositasida ta'lim dasturlariga (masofadan o'qitish) muvofiq o'qitish samarali deya hisoblaydi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Pedagogik texnologiya tushunchasini izohlang .
2. Innovatsion jarayonning rivojlanishi haqida ma'lumot bering.
3. Muammo nima? Muammoli ta'lim deganda nimani tushunasiz.
4. Muammoli vaziyat bilan muammoli ta'limni izohlang.
5. Axborot texnologiyasi haqida fikringiz?

VIII BOB. KREATIV TA'LIM

1.Kreativ ta'limga zamonaviy yondashish

Pedagogika va psixologiyada kreativlik xususiyatlarining rivojlanishi. Ta'limning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishi va takomillashuvini innovatsiyalarning turli shakllarini tadqiq etmasdan, bugungi kunda mutaxassisni nimaga va qanday tayyorlashga bir qator yondashuv va munosabatlarni tamoyillar asosida ko'rib chiqmasdan amalga oshirish mumkin emas. Shu bilan birlgilikda, oliy maktab pedagogik tarkibi jadal rivojlanayotgan innovatsion ta'lim tizimi, bиринчи navbatda, ijodiy qobiliyatlar, ijod potensiali, o'z-o'zini ijodiy rivojlantirish, ijodiy individuallik va kreativlik talablariga javob berish muammosiga katta e'tibor qaratishi lozim. Shaxsning ijodkorlik imkoniyatlarini tadqiq etishga bo'lgan ijtimoiy buyurtma kreativlik muammosining alohida muhimligini belgilaydi. Shaxsiy ijodkorlikning dinamik (rivojlanib, o'sib boruvchi) tasniflanishi kreativlik va uning asosiy qirralarida aks etadi. Biroq, kreativlik psixologiya va pedagogika fanlarining belgilangan ilmiy kategoriyasi bo'lsa-da, «kreativlik» tushunchasi tegishli lug'atlarda munosib defferensiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O'nlab ilmiy ishlarda ilmiy ijodkorlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o'ziga va na unga taalluqli bo'lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to'xtam mavjud emas.

Hozirda, rivojlanishning zamonaviy bosqichida, mazkur an'analarini inson faktorining hal qiluvchi o'mini belgilamoqda. Bu faktorning fenomenologiyasida ijodkorlik uning belgilangan asosini tashkil etadi. Ijodkorlik inson fenomenining namoyon bo'ladigan yuksak ko'rinishi bo'lishiga qaramasdan, u eng kam o'rganilgan soha bo'lib, tabiiy qonuniyat sifatida qaraladi. Gap shundaki, ijod jarayonining tabiatidagi tasodifanlik, kutilmaganlik avval-

boshdanoq uning zamonaviy ilmiy metodlarda o‘rganish imkoniyatini chegaraladi. Zamonaviy fan imkoniyatlari ijodkorlik tabiatining mavjud dalillar va savollarni to‘liq qoniqtiradigan universal tushuntirish imkoniyatiga ega emas. Hozirgacha Vatanimizda va chet ellarda to‘plangan bilimlar ijodkorlik psixologiyasi mo‘hiyatini tushunishga yetarli emas. Jamiyat taraqqiyoti tajribasida psixologiya va pedagogikada ijodkorlik psixologiyasi sohasida izlanishlarni faollashtirish taqozo etilmoqda, chunki ijodkorlik natijalari faqatgina shaxsiy tasnifga ega emas, balki ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Psixologiyada ijod va ijodiy faoliyat muammosini o‘rganuvchi alohida yo‘nalish – ijodkorlik psixologiyasi yo‘nalishi vujudga keldi. Ijodkorlik psixologiyasining asosiy maqsadi psixologik qonuniyatlar, ijod jarayoni mexanizmi va kreativ (*creativity* – inglizcha *ijodiy*) likni o‘rganishdan iborat. Ijodkorlikka rivojlanishning asosiy mexanizmi sifatida (N.V.Kipiaki, A.M.Matyushkin, Y.A.Ponomarev, I.N.Semenov va boshqalar) qaraladi va uning o‘rganilishi M.S.Bernshteyn, V.S.Bibler, V.N.Shkin, O.K.Tixomirov, E.G.Yudin va boshqalar nomi bilan bog‘liq.

Psixologik ijodkorlikning kreativlik deb nomlanuvchi yo‘nalishi ustida g‘arb olimlari: J.Gilford, S.Liding, V.Smit, D.Xalperik va boshqalar izlanishlar olib borishgan. Chet el olimlarining kreativlik tushunchasi haqidagi izlanishlarini tahlil qilib va umumlashtirib R.Xameni yozadi: «Kreativlik o‘zida yangicha yo‘sinda amalga oshirilgan o‘zlashtirish to‘lqinini (Makkelif), yangicha aloqadorliklarni aniqlash (Kyubi), yangicha munosabatga kirishish (Rodgers), yangiliklar (Lassuel), ongning yangicha e’tirozlariga sabab bo‘luvchi faoliyatidir». Ko‘pchilik tadqiqotchilar kreativlikni belgilashda shaxsning o‘ziga xosligi va xususiyatlariga e’tibor qaratadilar. J.Gilfodning fikricha, kreativlik va ijodiy imkoniyat qobiliyatlar va ijodiy tafakkurga ta’sir etuvchi omillar yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. E.Torrens kreativlikni yechimlarni topishda bilimlarning yetarli bo‘lmasligi muammosi, qiyinchiliklar qarshisidagi indentifikasiya va taxminlarning shakllanishi, yechimlarning topilish jarayoni deb qaraydi. (E.Torrens, 1996y.)

Ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-boshqaruv darajasida – ijodkorlik determinantlari borasida, jamoa ijodkorligini boshqarishda tashkilotchilik muammosi, jamoaning funksional-rolli differensiyasi yo‘nalishi bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Kreativlik ijodiyl tafakkurning yangi mahsuli yoki natijasi ekanligi yuzasidan bahslar hali ham ayrim olimlar orasida davom etmoqda. Boshqa izlanishlarda ijodkorlikning yangilik yaratishdagi yetakchiligi ta’kidlanadi. V. Arteymning izlanishlarida ijodkorlik uning mahsuli bo‘lgan obyektga qarab baholanmaydi, deb aniq munosabat belgilanadi. Uning fikricha: «Kreativlik bilim, faoliyat va istakning uyg‘unligi». Psixologiyada evristika muammosini o‘rganish borasida V.N.Pushkin: «Evrestik faoliyat shunday psixologik jarayonki, uning yordamida muammo yechimi topiladi, yangi yondashuv ishlab chiqiladi, evrestik faoliyat deb ataluvchi qandaydir yangilik yaratiladi», degan edi. Kreativlikning tasniflanishi kasbiy faoliyat jarayonida namoyon bo‘luvchi psixik komplekslar tarkibi bilan bog‘liq. Kreativlikning psixologik izlanishlardagi asosiy urg‘u muammolarni mustaqil yechishga undovchi, o‘ziga xos katta hajmdagi g‘oyalarni yuzaga keltiruvchi va ularning o‘ziga xos yechimini topishga asos bo‘luvchi individning intellektual va shaxsiy qobiliyatiga qaratiladi. Kreativlik istisno etilgan va g‘aroyib fenomen deb baholanuvchi dastlabki izlanishlardan farqli ravishda, zamonaviy izlanishlarda kreativlik har bir shaxs ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan individ kompleksi sifatida qaralmoqda. Bu kreativlik muammosiga turlicha yondashuvlarda namoyon bo‘ladi: u faqatgina har bir shaxs ham qo‘lga kirita olmaydigan natija emas, balki refleksi va o‘z-o‘zini baholashdagi shaxsning yangicha sifat ko‘rsatkichi deb o‘rganilmoqda. Kreativlik haqidagi ko‘pgina izlanishlarda har bir shaxsda u yoki bu daraja va miqdorda mavjud bo‘ladigan psixologik kreativlik mexanizmi va ijodkorlik imkoniyatlariga asosiy e’tibor qaratilmoqda.

An’anaviy psixologiya va pedagogikada kreativlikka shaxs kategoriyasi sifatida qaraladi, uni talqin qilish, aniqlash borasida bahslar yuritilgan: Kreativlik tafakkur sifatida (J.Gilford, Y.K.Tixomirov) yoki intellektual faollik sifatida (D.B.Bogolevs-

kaya, L.B.Yermolayeva-Tomina), yoki shaxs sifatlarining integratsiyalashuvi (Y.A.Ponomarev va boshqalar). Biroq oliv ta'lim pedagogikasi (kreativ androgogika)da uning sifat ko'rsatkichini va namoyon bo'lish darajasini aniqlashning o'zi yetarli emas. Kreativlik biryoqlama salbiy jihat sifatida qaralsa-da, uning muammolar tizimi umumlashtiriladi va bir butunlikni tashkil etadi, bu ayniqsa o'zida ta'lim jarayonida ijodiy ta'lim va tarbiyani mujassamlashtirgan shaxsning ijodiy imkoniyatlari va kreativlikni rivojlantirish jarayonida oliy maktab pedagogikasiga taalluqlidir. Shu sababli, kreativlikni rivojlanish imkoniyatlarini kreativ ta'lim va tarbiya jarayonida shaxs kategoriyasi sifatida o'rganish zarur. O'tgan asrning 60–70 yillari pedagogikada kreativlik muammosini o'rganishda keskin burilish yillari bo'ldi. Shu davrda ijodiy izlanuvchan pedagog-novatorlar paydo bo'ldi. Novatorlar erishgan natijalar nafaqat pedagoglarni, balki psixologlarni ham qiziqtirdi, ular ijodiy ta'limning psixologik tomonlarini, ijod faoliyatining pedagogik psixologiyadagi mexanizmini o'rgandilar. (V.V.Davidov, I.A.Zimnaya, N.V.Kuzmina, A.M.Matyushkin, Y.A.Ponomarev, R.A.Mavlonova rahbarligidagi pedagogika fanlari ilmiy-tekshirish instituti jamoasi.) Kreativlikni o'rganishda amalga oshirilgan nazariy tahlil uni kasbiy anrogogikada qo'llashning umumiyl qonuniyatlarini va o'ziga xosligini aniqlash imkonini beradi (V.M.Morozov). Biz kreativlikning tizimlilik tuzilishidan kelib chiqib, unga shaxsning o'ta intellektual-evristik jihatni sifatida emas, balki shaxsni qadrlovchi, tabaqalashtirilgan ta'lim sifatida qaraymiz. Kreativlik – shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'matilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Kreativlik jarayonini tashkil etish va boshqarishning murakkabligi shundaki, bunda ijodiy individuallikning nafaqat ongli, balki ong osti tushunchalari paydo bo'ladi.

Kreativlik tabiatini o‘rganish muammosiga bag‘ishlangan psixologo-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilib, odatda, intellektual kreativlik masalasiga duch kelamiz. Ijtimoiy va aniq pedagogik kreativlik sohasida amalga oshirilgan izlanishlar ancha kam. Ko‘p hollarda tadqiqotchilar pedagogik kreativlik emas, balki pedagogik muloqot jarayonini o‘rganadilar, o‘qituvchi va o‘quvchi muloqotini yaxshilash uchun tavsiyalar beradilar. Pedagogika va psixologiyadagi kreativlik tabiatini uning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki va tashqi omillar haqidagi yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirib quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: bu hodisa yaxlit va tuzilish jihatdan tushunish uchun yagona tu-shunchalar tizimi mavjud emas. Inson shaxsida kreativlik, uning darajasi, tuzilishi va o‘ziga xosligi inson individualligining boshqa bir jihatini o‘zlashtirish jarayonining o‘ziga xosligi va shaxsiy xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq. Bu bog‘liqlikni tasniflash kreativlik hodisasining kelajakda o‘rganilishi kutilayotgan yangi bir yo‘nalishidir. Kreativlikni intellektual kreativlik va ijtimoiy kreativlikka bo‘lish mumkin. Intellektual kreativlik analiz va sintezdan iborat. Analiz va sintez qila olish qobiliyati umumiyl intellektning asosidir. Ijtimoiy kreativlik o‘zida kasbiy kreativlikni mujassamlashtiradi, uning ko‘pgina turlari orasida pedagogik kreativlik ham mavjud. Pedagogik kreativlik kommunikativ va didaktik kreativlikdan iborat. Didaktik kreativlik o‘zida intellektual boyliklarga intilish va shu bilan birga novatorlik qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Kommunikativ va didaktik kreativlik pedagogik qobiliyatning asosi hisoblanadi. Pedagogik qobiliyat ijodkorlik qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatadi va o‘z navbatida ichki sezimni rivojlantiradi. Pedagogik ijodkorlik qobiliyati, ichki sezim va umumiyl intellekt kesishganda ijod mahsuli yaratiladi.

Kreativlikni rivojlantirishda kreativ insonlarni kreativ emas insonlardan farqlovchi hissiy chizgilari (o‘z-o‘ziga ishonch, tajovuzkorlik, o‘z-o‘zidan qoniqish, ijtimoiy cheklavlarga va boshqalar fikriga toqatsizlik) individning shaxsiy o‘ziga xosligi katta ta’sir ko‘rsatadi. Kreativlikning motivlikka munosabatini belgilovchi yagona qarashlar tizimi mavjud emas. Nuqtayi nazarlardan biriga ko‘ra, kreativlikda individ o‘z imkoniyatlaridan

maksimal darajada foydalanadi, faoliyatning yangi qirralarini izlab topadi. Boshqa bir nuqtayi nazarga ko'ra kreativ kishilarni motivlashtirish, tavakkalchilikka intilish, o'z imkoniyatlari chegarasini aniqlashga intilishdir.

Aytish mumkinki, har ikkala nuqtayi nazar ham o'zida kreativ insonlarning, motivlashning individual variantlarini mujassam-lashtirgan. Innovatsion faoliyatning o'ziga xosligi muammosida o'qituvchi xulq-atvorining o'quvchilar kreativligini rivojlantirish bilan bog'liq tasniflanishi katta ahamiyatga ega, chunki oxir-oqibat bilim emas, balki rivojlanish omili bo'lgan alohida malakalar va ularning xulq-atvorga qo'llanishi muhimdir. Torransning izlanishlarida o'qituvchi xulq-atvorida bolalar kreativ rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatuvchi dalillar keltirilgan: ijodiy fikrlash qiymatini baholash, bolalarni atrofdagi qo'zg'atuvchi omillarga nisbatan sezuvchanligini oshirish, obyekt va g'oyalarni erkin boshqara olish, ijod jarayoni haqida konstruktiv axborotni rivojlan-tirish, tanqidchilikni emas, konstruktiv tanqidni rivojlanirish, o'z-o'ziga hurmatni orttirish, baholanishdan qo'rqish hissining oldini olish va boshqalar. Shunday qilib, potensial kreativlik imkoniyatlar kreativligidir.

Imkoniyatlar kreativligi amaldagi kreativlikka – dolzarb kreativlikka aylanishi uchun, dastlabkisi ma'lum faoliyatda o'zlashtirilishi uchun ichki o'zgarishlarga duch keladi. Shunday qilib, kreativlik o'zlashtirilganlar asosida rivojlantiriladi, keyinchalik o'zgartirishlar kiritiladi, o'qituvchining mavjud tajribasi qayta tuziladi. Pedagogik innovatsiyalarga moslashishdan toki qayta tuzishgacha bo'lgan yo'l o'qituvchi innovatsion faoliyati dinamikasi assosini tashkil qiladi.

Olimlar pedagogik mahoratning quyidagi uch darajasini ko'rsatadilar: birinchi daraja – bu sinf bilan elementar munosabat. O'qituvchi teskari aloqani qo'llaydi, uning natijasiga ko'ra o'z harakatlarini belgilaydi. Lekin bu faoliyat metodik qo'llanmalar yoki boshqa o'qituvchi tajribasi asosida amalga oshiriladi. Ikkinci daraja – dars faoliyatini, uning rejasini tuzishdanoq optimal-lashtirish bosqichidir. Bunda ijodkorlik o'qituvchiga ma'lum maqsadni amalga oshirishda mazmun, metod va shakllarni to'g'ri

tanlashdan iborat. Uchinchi daraja – evristik. Pedagog o‘quvchilar bilan jonli muloqotning ijodiy imkoniyatlarini qo‘llaydi. O‘qituvchining eng yuqori darajadagi ijodkorligi uning to‘liq mustaqil faoliyatida namoyon bo‘ladi. U avvaldan ma’lum bo‘lgan usullarni qo‘llashi mumkin, ammo u ularga o‘zining shaxsiy munosabatini qo‘llaydi. O‘qituvchi ijodiy individualligi, tarbiyalanuvchining shaxsiy o‘ziga xosligi, ta’limning aniq darjasи, tarbiyalanganlik darjasи, sinfning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda zaruriyat taqozo etgan darajada ish olib boradi. Tayyor tavsiyalarni amalda qo‘llash darajalari ham farqlanadi: optimallashtirish, evristik daraja, shaxsiy, mustaqil. Tadqiqotchilar fikrlari orasida kreativ insonlar boshqalarga taqlid qilmasdan, o‘zlarini tanlagan faoliyatlarining barcha bosqichlariga ijodiy yondashadilar, degan fikr yetakchilik qiladi. O‘rganilayotgan muammoga V.A.Slastenin, L.S.Podimova, N.M.Gnatko qarashlari bilan birgalikda, kreativlik mexanizmini ikki turga bo‘lishni taklif qiladilar: potensial va dolzarb. Potensial kreativlik – muallifning fikricha, kreativlik faoliyatidir, individuumni potensial joylashuviga ma’lum tashqi sharoitlarda dolzarb kreativlikni egallashning asos tayyorgarligini tashkil etadi; potensial kreativlik – ijodning subyektiv zarur sharoitidir. V.A.Slastenin, L.S.Podimova potensial kreativlikning dolzarb kreativlikka izchil taqlid qilish mexanizmi orqali o‘tishi muammosiga o‘ziga xos yondashganlar. Shunday qilib, kreativlik taqlid qilish, nusxa ko‘chirishdan ijodiy nusxa ko‘chirish, taqlidiy ijod va haqiqiy ijodkorlikka tomon rivojlanib boradi. Tabiiyki, barcha o‘qituvchilar ham kreativ rivojlanishning barcha bosqichlari bilan tavsiflanmaydilar: ba’zilar tayyor metodik tavsiyalardan nusxa olib, faqat birinchi darajaga erishadilar; ikkinchilari to‘liq konsepsiya va tizimlarga ega bo‘lmassandan turib, ba’zi metodik usullarga o‘zgartirishlar kiritadilar, uchinchilari ma’lum g‘oya asosida to‘liq mazmun, metod va shakllarni ishlab chiqadilar; to‘rtinchilar esa ta’lim va tarbiyada o‘zlarining konsepsiya va metodikalarini tavsiya etadilar. Yuqoridaqilarga munosabat bildirib aytish mumkinki, dastlabki uchtasi taqlid bosqichida bo‘lib, to‘rtinchisi ularga qarama-qarshi tarzda ijod bosqichida. Intellektual faollik darajasini belgilangan kreativlik bosqichlari

bilan taqqoslash, ikkala yo‘nalish orasida ma’lum mutanosiblikni, innovatsion-pedagogik faoliyatning bir necha bosqichda takomilashib borish darajasidagi tushunchalarni aniqlashga imkon berdi. Pedagog faolligining borgan sari yuqoriroq darajadagi faoliyatga ko‘tarilib borishi kelajakda innovatsion ta’lim strategiyasini tashkil qilishni belgilaydi.

2. Kreativlik va uning tashxislanishi

XX asrning 50 yillarida ingliz-amerika psixologlarining izlanishlarida kreativlik deb nomlanadigan (*creatio* – lotincha “yaratish”) alohida qobiliyatlarni o‘rganish katta ko‘lamda qiziqish uyg‘otmoqda. Kreativlikni alohida o‘rganishga an‘anaviy intellekt testlari bilan muammoli vaziyatni muvaffaqiyatli yechimi orasida aloqaning mavjud emasligi haqidagi ma’lumotlarning aniqlanishi turtki bo‘ldi. E’tirof etilishicha, kreativlik ma’lum masalaning yechimini topishdagи axborotlarni tez sur’atda foydalanish qobiliyatiga bog‘liq. Bu qobiliyatni kreativlik deb atadilar va uni intellektga bog‘liq bo‘lmagan holatda – individning yangi tushunchalar yaratuvchi va shakllantiruvchi yangi malakalari sifatida o‘rgandilar. Kreativlik shaxsning ijodiy ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi. Kreativlikni o‘rganish asosan ikki yo‘nalishda olib boriladi:

1-yo‘nalish. Kreativlikni intellekt bilan bog‘liqligi masalarini va kreativlik bilan bog‘liq ta’limiy jarayonlarni belgilashni o‘rganadi.

2-yo‘nalish. Shaxs va uning psixologik o‘ziga xosligi kreativlikning asosiy aspekti ekanligi, shaxsga va uning motivatsion chizgilariga urg‘u berilishi bilan tasniflanadi.

Intellektual faktorlarni ta’limiy yo‘nalishlarda qo‘llanilishida, kreativlikni o‘rganish, baholashda 1950 yillarda J.Gilford va uning izdoshlari 16 ta gipotetik intellektual qobiliyatni ajratib ko‘rsatadilar. Ular orasida: fikrning turliligi (ma’lum vaqt oraliq‘idagi g‘oyalarning miqdori), fikrning (bir g‘oyadan ikkinchisiga ko‘cha olishi) originalligi (o‘ziga xoslik – umume’tirof etilgan

qarashlardan farq qiluvchi g'oyani yaratish qobiliyati), qiziquvchanlik (o'zini o'rabi turgan olamdag'i muammolarga ta'sirchanlik), gipoteza qilish qobiliyati (reaksiyaning stimuldan mantiqiy mustaqilligi), fantastikali (stimul va reaksiya orasidagi mantiqiy bog'liqlikning borliq hayotdan butunlay uzilganligi). Gilford bu faktorlarni tafakkurning divergentligi degan umumiy nom bilan ataydi, u muammo endigina aniqlanayotgan, uning yechimini avvaldan belgilangan, aniq yechimi bo'limgan vaqtida yuzaga keladi, deydi (ma'lumotga tayanuvchi yoki muammoning «mos» yechimi, konvergent tafakkurdan farqli ravishda).

Tafakkurni ifodalovchi qobiliyatlarni o'rganish, an'anaviy intellektual testlar vositasida kreativlikni maxsus testlar vositasida aniqlash jarayonida olimlar qarama-qarshi natijalarga erishdilar. Bu natijalar asosida intellekt va kreativlik o'zaro aloqadorligi haqida xulosa chiqarish mumkin emas. Agarda testlar o'rniga kreativlikni baholovchi boshqa mezon – bajaruvchi faoliyat yuritgan ish turi bo'yicha erishilgan ijodiy muvaffaqiyatlar bo'yicha baholanganda, intellekt va kreativlikni belgilovchi bir xil mazmunga ega natijaga erishish mumkin. Ba'zi olimlar kreativlikka intellektning an'anaviy testlar yordamida o'lchab bo'lmaydigan bir qirrasi sifatida yondashadilar. Ular kreativlikni orttirilgan tajribaga, o'zlashtirilgan bilim va malakalar tasnifiga, qurshab turgan muhitning o'ziga xosligiga bog'liqligini ko'rsatadigan tajribalar natijasiga tayanadilar. Barcha mamlakatlarda tabaqalashtirib o'qitiladigan sinflarda o'qiydigan tengdoshlariga nisbatan yaxshiroq natijaga ega bo'lganlar.

Kreativlikni baholashda atrof-muhitning bog'liqligi uning shakllanishi va rivojlanishida namoyon bo'ladi. Avvalo qanday muhitdan rivojlantiruvchi ta'sirni kutish mumkin? Tadqiqotlarning natijasiga ko'ra, muhit, axborotning ko'pligi va erkinlikni ta'minlanganligi bilan ajralib turishi kerak. Tadqiqotlar kreativlikning rivojlanishida shaxsiy qobiliyatning katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kreativlikni o'rganishda yakka yondashuvda asosiy e'tibor hissiy va motivatsion omillarga qaratiladi. Kreativlik bilan bog'liq

shaxsiy qobiliyatlar munosabatida turli tadqiqotlar natijasida o'zaro moslik mavjud. Kreativ individlarni kreativmaslardan ajratib ko'rsatadi. Ba'zilarda shaxsiy o'ziga ishonch, tajovuzkorlik, o'zo'zidan qoniqish, ijtimoiy cheklari va o'zgalar fikriga toqatsizlik aniqlangan. Ba'zi psixologlarning fikricha, kreativ bo'limgan tipdan farqli ravishda, kreativlikka ega bo'lgan kishilar tipi mavjudligini bildiradi. Shunisi qiziqki, bolalar va yoshlar orasida o'tkazilgan tadqiqotlar yosh va balog'atga yetgan individlarda kreativlik belgilari bir xil bo'ladi. Shunday xulosa chiqarish mumkinki, kreativlik shaxsiy qobiliyatlarga asoslangan holda bolalarning juda kichikligidan bashoratlash mumkin. Ijodiy muvaffaqiyatlar asabbuzarliklar bilan bog'liq degan nuqtayi nazar ham mavjud. Shu bilan birga bu fikrga qarama-qarshi ravishda yuksak kreativ individlarda katta ruhiy kuchga egalik, tashqi muhitga, turli nizolarga nisbatan muvozanat mavjudligini ta'kidlovchi tadqiqotchilar ham mavjud. Kreativlikni motivatsion tasniflashga aloqador yagona qarashlar mavjud emas. Bir nuqtayi nazarga asosan kreativ individ o'z imkoniyatlaridan iloji boricha samarali foydalanishga, yangi, o'zlashtirilmagan yangi faoliyat turlarini bajarishda o'z qobiliyatlarini ishga soladi. Boshqa nuqtayi nazarga ko'ra kreativ bolalar motivatsiyasi tavakkalchilik, o'z imkoniyatlari chegaralarini aniqlashga asoslanadi. Yuqorida aytilganlarni xulosalab aytish mumkinki, intellektual qobiliyat-larning kreativlik deb nomlanadigan alohida tipi bugungi kun psixologlari tomonidan keng ko'lamba o'r ganilmoqda.

Kreativlik va shaxsning ijodiy muvaffaqiyatlari orasida bog'-liqlik mavjud, ammo uning xususiyatlari oxirigacha o'r ganilmagan. Kreativlikni intellektning an'anaviy tushunchalaridan ajratib olish mumkin emas. Kreativlikning birinchi testlari J.Gilford tomonidan XX asrning 50 yillarida yaratilgan.

Bu metodika Janubiy Kaliforniya testlari nomi bilan mashhur bo'lib, Gilford tomonidan divergent deb nomlangan fikrlashning o'ziga xos tipini belgilashda foydalanilgan 14 ta testdan iborat bo'lgan. Ularning dastlabki 10 tasiga og'zaki javob, 4 tasiga tasvir orqali javob talab etilgan. Verbal vazifalardan namunalar:

1. So‘zdan foydalanishda yengillik. Berilgan tovush ishtirokida so‘z yozing (“o” – oy, ro‘mol, oddiy, muddao va b.);
2. Assotsiatsiyalardan foydalanishdagi yengillik. Berilgan so‘zga mazmunan o‘xhash so‘zlarni yozing (“og‘ir”, “zilday”, “vazmin” va boshqalar).

Tasviriy vazifa na’munasi. Bezash. Ma’lum obyektlarni detallar bilan to‘ldirish.Gilford testlari kattalar va yuqori sinf o‘quvchilariga mo‘ljallanadi. Ularni standartlashtirish katta bo‘lmagan tanlovlarda, ishonchlilik ma’lumotlari bir testdan ikkinchisiga o‘tganda o‘zgarib turadi va to‘liq qoniqarli bo‘lmaydi. Psixologlar fikricha, ijodiy qobiliyatlarni baholashda Gilford testlari samaraliligi kam bo‘lishiga, bilimlar natijasini bilish shaxsiy xarakterlarga emas, balki bajarish tezligiga asoslangani sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, vazifalar ma’lum sondagi javoblarni belgilanmagan, bu natijani aniq hisoblash imkonini bermaydi. Shu sababli, ba’zi psixodiagnostlar kreativ testlar uchun va ularning natijalarini aniqlashda ishonchl mutaxassislarini jalb etishni taklif qiladilar. Hozirgi kunda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda E.P.Gorrensning kreativlik testlaridan foydalanilmoqda. Gorrens test topshiriqlari ijodiy jarayon modeli sifatida ko‘rilib, unda talabalarning bilimi natijaga emas, balki ijod jarayoniga qaratilgan.

1966 yilda angliyalik olimlar tomonidan Verbal shakldagi test ishlab chiqilgan. Bu test 5 yoshli bolalardan boshlab kattalarga mo‘ljallangan. U 7 ta topshiriqdan iborat. Dastlabki uchta topshiriq bir rasmga bog‘liq savollardan iborat: rasmga ko‘proq savollar tuzish, tasvirlangan narsalarning nima uchun chizilganligi va oqibatlari haqida iloji boricha ko‘proq sabablarni ko‘rsatish so‘raladi.

1-topshiriq – “Rasm chizib bering”. Vazifa bajaruvchi qog‘oz varag‘iga rangli qog‘ozlardan qirqib olingan noto‘g‘ri shakldagi qog‘ozni yopishtirish va uning asosida o‘ziga xos rasm chizish so‘raladi.

2-topshiriq – “Rasm chizishni tugallang” – test daftarlarda berilgan tugallanmagan shakllar rasmi asosida noodatiy sujet, rasm va predmetni chizib berish so‘raladi.

3-topshiriqda parallel chiziqlar va doiralar asosida iloji boricha ko‘proq predmetlarni chizib berish so‘raladi. Har bir subtestning

bajarilishi uchun 10 minut vaqt ajratiladi (javoblarning tahlili tezkorlik, ko‘p qirralik, egiluvchanlik, o‘ziga xoslik va mukammallik mezonlari bo‘yicha tahlil qilinadi).

4-topshiriqda berilgan rasmdagi o‘yinchoqlar o‘rnini iloji boricha ko‘proq va qiziqroq tarzda almashtirish so‘raladi.

5-topshiriqda turmushda ishlataladigan predmet (masalan, bo‘sh quti) dan ko‘proq noodatiy va qiziq foydalanish usullarini o‘ylab topish so‘raladi.

6-topshiriqda shu predmet haqida noodatiy savollarni o‘ylab topish so‘raladi.

7-topshiriq noodatiy vaziyatning yechimlari haqida iloji boricha ko‘proq izlanishlar olib borish so‘raladi.

1980 yilda Torrens tomonidan maktabgacha yoshdagagi bolalar uchun yangi kreativlik testlari tuzildi. Bu testning vazifalari shundan iborat ediki, go‘dak o‘zining ijodiy qobiliyatlarini biror bir xonada erkin harakatlanish asnosida namoyon qiladi. Ijodiy fikrlashni reproduktivga qarshi qo‘ygan psixologlarning intilishlariga qaramasdan, amaliyotda kreativlik testlari intellekt testlari bilan bir xil prinsiplarda, ya’ni tezlik metodikasi va qat’iy mazmun asosida qurilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, ularning asosiy kamchiligi motivlarni va individning boshqa ijodiy qobiliyatni tashkil etuvchi tavsiflarini hisobga olinmaganligidadir. Ko‘pgina psixologlar kreativlikni testlar yordamida aniqlash mumkin emas, deb hisoblaydilar. Fan, texnika, san’at va boshqa inson faoliyatidagi muvaffaqiyatlarga erishish, turli qobiliyatlarning va shaxsiy xususiyatlarining murakkab tuzilmasini (shu jumladan, intellektual va maxsus) talab qiladi. Hozirgi davrda mavjud bo‘lgan kreativ testlarda ijodiy qobiliyatning alohida elementlariga e’tibor qaratiladi, ijodiy muvaffaqiyatlarni bashoratlashda buning o‘zi yetarli emas. Ayrim psixologlar ijodning ayrim qismlarini tahlil qilish yo‘li bilan kreativlikni aniqlash mumkin deb hisoblaydilar. Kreativlikni tashxislash yo‘nalishi deyarli o‘rganilmagan. Bu sohada professor D.B.Bogoyavlenskaya (1983 yil) ijodiy qobiliyat intellektual tashabbuskor birliklarini yaratdi. U muammoning yechimini topishda inson oldiga qo‘yilgan masalani fikrlash faoliyati deb ataydi. D.B.Bogoyavlenskaya gipotezasi (taxmini)ga

muvofig bajaruvchiga tashqi qo'zg'atuvchilar ta'sirisiz nazariy umumlashtirishlarga va vaziyatni baholashga o'ta oladigan "kreativ doira metodi"ni taklif qiladi. Bu metod doirasida bir necha metodikalar ishlab chiqilgan. Tashqi mezonlarni belgilashda muallif sezilarli qiyinchiliklarga duch keldi. Ijodiy muvaffaqiyat bir qator kamchiliklarga ega bo'lgan tajribalar asosida aniqlanadi. «Kreativ doira» ning tamoyillari:

- 1) Tashqi qo'zg'atuvchidan va baholashni belgilovchi stimulidan voz kechish.
- 2) Obyektni tadqiq etishda "chevara"ning bo'lmashligi – chegaralanmagan faoliyat.
- 3) Eksperimentning davomiyligi.

3.Kreativ dars tuzilishiga doir metodik tavsiyalar

Kreativ darsi ijodiy metodologik tuzilishiga ko'ra an'anaviy darsdan farq qiladi va o'zida dars maqsadini qamrab oluvchi bloklari bilan kreativ ta'limning maqsadlarini amalga oshiradi. Ijodiy darsning tuzilishi mantiqan ta'limni haqiqatda rivojlantiruvchi jarayonga aylantirishni ko'zda tutadi. Ta'limning birinchi navbatda insonparvarlik maqsadlarini ko'zlagan holda ta'lim faoliyati tuzilishida ma'lum o'zgarishlar olib boriladi.

Ta'lim faoliyatining yangi shakllarini konstruksiyalash boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy shakllanishi asosini tashkil qiladi.

Dastur fikrlash shakllarini tubdan yangilash; maktab o'quvchilarini intellektning yangi bosqichida o'tkazishni ko'zda tutadi. Chunonchi: ko'rgazmali – aniqlikdan og'zaki mantiqiylikka; emperikdan na'zariy-tadrijiy fikrlashga.

D.B.Elkoninning fikricha, ta'lim samaradorligi o'qitish jarayonida egallangan bilimning miqdori va sifati; rivojlanish samaradorligi o'quvchilar qobiliyati o'sishi darajasi bilan belgilanadi.

Qobiliyatning rivojlanishi shaxs sifatlaridan biri bo'lib, faoliyat samarasini belgilaydi, mazkur dasturni amalga oshirishda qobiliyatning funksional tizim samaradorligi oshishidagi ahamiyati katta. Rivojlanishga ta'sir etuvchi ta'lim tuzilishi boshlang'ich sinf

o'quvchilarini faol ta'limiya faoliyat turlariga safarbar etadi, faol faoliyat turining turli shakllarini turlicha vositalar yordamida egallash; hayratlanarli buyumlar haqida fikrlash; boshqotirmalar yechish; kompyuterda o'lchamli masalalar yechish o'quvchining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur texnologiyaning psixologik asosi o'quv jarayonining o'quvchi tomonidan rejalshtirilishidir. Tizimli refleksiya tashkil etilishiga ehtiyoj hosil qiluvchi omil – ta'lim jarayoni natijasini vaqtı-vaqtı bilan testlar yordamida aniqlash va o'quvchilarni o'quv faoliyatini rejalshtirishga o'rgatish.

Darsga motivatsion sayqal berish deganda, dars davomida ijobiy motivatsiyani qo'llab-quvvatlovchi tuzilgan maxsus topshiriqlar tushuniladi.

Har bir o'quv sikli so'nggida o'quvchilarning yutuqlar haqidagi ijobiy hissiyotlari rag'batlantirilib, keyingi bosqichga o'tish ishtiyoiqi kuchaytiriladi.

Ikki fan umumlashgan darsning tuzilishi – namuna sifatida

Nº	Dars bloklari	Qisqartma belgilanishi	Vaqt	Izoh
1.	Motivlash («Mo'jiza bilan uchrashuv»)	M	5	1 akademik soat
2.	Dasturiy materialning mazmuni (DM i F + propedevtika TRIZ)	DMM-1	20	
3.	Psixologik dam olish (autotrening, o'yin yoki jismoniy daqiqasi)	PDO	5	
4.	Boshqotirma	B	10	
Tanaffus				
5.	Intellektual mashqlar	IM	10	1 akademik soat
6.	Kompyuter intellektual yordam	KIYO	10	
7.	Rezyume	R	5	


Kreativ darsning ma'lumot kartasi quyidagi yo'naliishlardan iborat:

1-yo'naliish. Motivlash.


Bu bo'limda go'dakni surpriz qarshi oladi. U tafakkurini u yoki bu darajada hayratlantiradigan nima bilandir to'qnashadi.

2-yo'naliш. Dasturiy materialning mazmuni. Darsning bu qismida ta'lim mazmuni berilgan mavzu bo'yicha aniq dars materiali ikki qismda beriladi.

Axborot kartasi (kreativ darsning tuzilishi)



Kreativ dars komponentlarining tizimli bog'lanishi



3-yo'naliш. Psixologik dam olish.

Darsning bu qismi jismoniy daqiqada sport, raqamli, jismoniy mashqlarning o'yin shaklidá yoki bosh miya yarim sharlarining uyg'unligini ta'minlovchi mashqlardan tashkil topdi.

4-yo'naliш. Boshqotirma.

Darsning bu qismi ijodiy faoliyatga, motivlashtirishga, topqirlikni, ijodiy tafakkurni, go'dakning ijobiy qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

5-yo'nalish. Intellektual mashqlar.

Darsning bu qismi ijodiy faoliyatni, tafakkurni va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni ko'zda tutadi.

6-yo'nalish. Fikrlashning kompyuterli intellektual tayanchi.

Ta'limning bu shakli ijodiy fikrlashning chuqur rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilar ijodiy qobiliyatini kompyuter muhiti, multimediyalar, interaktiv ta'sir va boshqalar yordamida qo'shimcha imkoniyatlar bilan darsda foydalanilgan boshqotirmalarning davomi sifatida foydalaniladi.

7-yo'nalish. Rezyume

4.Kreativ dars yo'nalishlarining mazmuni va psixologik asosi

1-yo'nalish. Motivlashtirish (hayratlanish, surpriz).

"Hayratlanish – donishmandlikning boshlanishidir" (Suqrot).

Axborotlardan toliqishning oldini olish va o'quvchilarini intellektual faolligini oshirish maqsadidagi izlanishlar yo'lidagi muqobil usullaridan biri "hayratlanish" yoki boshqacha aytganda, "mo'jiza effekti". Hayratlanarli predmetlar bilan to'qnashuv tizimi, ularni yaratilish haqidagi izlanishlari kichik maktab o'quvchilarining qiziqish va faoliyati samaradorligini ta'minlaydi. Motivlashtirish dars jarayonida predmetlar timsolida, masalan, go'dak tafakkurini jumboqliligi, siri va favqulodda go'zalligi bilan olib boriladi. Bunday predmetlar turlicha bo'lishi mumkin. Jumladan, oynasi orasiga o'rgimchak kirib qolgan soat, ichiga yelkanli kema joylashtirilgan butilka va h.k. Bolalar qiziqishini oshiruvchi oddiy fokuslar. Masalan: quti ichida bir ko'rini, bir ko'rinxaydigan sichqoncha va b.

Bunday jihozlar unutilgan qadimiy o'yinchoqlar vazifasini ham bajarishi mumkin. Yog'ochdan yasalgan cho'qiyotgan tovuq, pianino chalayotgan ayiq, ayiq bilan o'tin arralayotgan dehqon. Bolalardasovun ko'piklarida hosil bo'ladigan shakllar ham hayrat va qiziqish uyg'otadi. Sovun pufagini hosil qiluvchi qismi bo'lgan

oddiy ruchka yokisovun pufagidan chiroyli shakllar yasovchi to‘pponcha – avtomat o‘yinchog‘i. Obyektning tortishish markaziga asoslangan o‘yinchoqlar: yiqilmas matryoshkalar, magnit tortishiga asoslangan kamondan o‘q otish o‘yinchoqlari o‘quvchilarda kuchli qiziqish uyg‘otadi. Bundan tashqari, o‘yinchoqboshqtirmalar ham qiziqrarlidir.

2-yo‘nalish. Dasturning mazmuni.

Dasturning mazmuni boshqa yo‘nalishlarni tizimli umumlash-tirish asosida bir butunlikda ijodiy tafakkurning va fantaziyasining rivojlanishiga hamda tasviriy masalalarning nazariy yechimi degan jiddiy muammoni (G.S.Altmuller) yechishga xizmat qiladi. Bu yerda shuni hisobga olish kerakki, qiyin masalalarni yechishda yuqori natijalarga erishish uchun 3 ta muhim omil mavjud: Qobiliyat, imkoniyat, individualliklarni og‘zaki, matematik va texnik hisoblash, o‘zlashtirish qobiliyati, abstrakt va murakkab fikrlash natijasidir. Bunday qobiliyatlar boshqa kishilar tomonidan ijobiy e’tirof etilishi muhimdir. Imkoniyatlar go‘dakni intellektual faol va o‘z muammolarini mustaqil hal etishdan manfaatdor bo‘lgan, atrofdagi eng yaxshi, o‘z-o‘ziga ishonch tug‘diradigan boshlang‘ich tajribalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Individuallik dastlabki ikki omilning ta’sirini kuchaytirishga, shu bilan birga qobiliyatlar shakllanishini qiyinlashtirishga ta’sir qiladi. Ijodkor shaxsning shakllanishida uni qurshab turgan muhit ijobiy sharoitni yaratishi lozim.

3-yo‘nalish. Psixologik dam olish.

Psixologik dam olish sifatida qo‘llaniladi. Bosh miya yarim sharlarini garmonik rivojlanishiga ta’sir etuvchi jismoniy mashqlar (Shuni esda tutish lozimki, o‘ng va chap qo‘llar imkoniyatini rivojlantirish muhimdir. Psixologlarning ta’kidlashicha, o‘ng va chap qo‘lda birday harakatlanish xotira, fikrlash va nutqning rivojlanishi, yaxshilanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.)

O‘yinlar, sport-hissiyotli, teatr lashgan, taqlid etuvchi raqslar. Sport hissiyotga asoslangan “Jangler”, “Arqon tortuvchilar” kabi o‘yinlarni shu turkumga kiritish mumkin. Quvnoq bolalar kuylariga raqsga tushish, go‘dakka harakat va teatrlashtirilgan taqlidchan “Tabassum o‘yini” va shu kabilar o‘ziga xos kulgi terapiyasidir.

Topshiriqlar turlari xilma-xil bo'lib, o'qituvchining ixtiyoriga qarab yangilari bilan to'ldirib boriladi. "Pantomima" o'yinlarida 2 tomonlama dam olishga erishiladi: tegishli guruh muskullari dam oladi va o'yin ijobjiy hissiyotlar hisobiga reaksiya amalga oshadi. Pantomimo bilan shug'ullanish ijodkorlik rivojlanishining boshlanishi bo'libgina qolmay, go'dakni o'z-o'ziga ishonchini orttiruvchi ijobjiy hissiyotdir. Psixologik va fiziologik kuzatishlar aqliy va hissiy toliqish bilan, vegetativ qo'zg'alishlar bilan skelet muskullaridan toliqishning uzviy bog'lanishini ko'rsatmoqda. Hammaga ma'lumki, muntazam jismoniy mashqlar ishchanlik va sog'lomlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Bosh miyaning optimal funksional holatini ta'minlash, bundan tashqari, miyadan chiqayotgan nerv impulslarining to'lqinini boshqarishga ham bog'liq. O'z-o'zini boshqarish tizimi yordamida markaziy qo'zg'alishni periferikka ko'chirish, eng avvalo, skelet muskullarini va shu bilan birga asabiy zo'riqishning oldini olishni ta'minlaydi.

Ta'kidlash kerakki, tetik holatda fikriy qabul qilish (ijobjiy hissiy reaksiyalar ta'sirida yuzaga kelgan) kelgusida quyidagi siljishlarga olib kelishi mumkin: o'z-o'ziga ta'sir etish orqali oldin boshdan kechirilgan emotsiyal holatlari tiklanishi mumkin. O'z-o'ziga ta'sir faqatgina oliy nerv faoliyatining xarakteriga ta'sir etib qolmasdan, organizmning hujayralargacha bo'lgan mexanizmini boshqarishga ta'sir ko'rsatadi. Autogen mashqlarning psixologik nazorat mashqlari – "Tinch maskan", "To'liq potensial", "Lazzatlar ro'yxati" kabilar muskul va psixologik reaksiya jarayonida o'z-o'ziga ta'sir etuvchi holatlarda yordam beruvchi formula va timsollardir. O'quvchilarda o'z-o'zini boshqarishga o'rgatishga o'qish va ijodiy faoliyati, munosabat va xulqi jarayonida o'z ustida nazorat o'rnatuvchi muhim omil sifatida qarash kerak.

4-yo'nalish. Boshqotirmalar.

Zamonaviy kreativ darsning muhim elementlaridan biri sifatida o'quvchilar ijodiy faoliyati tabiiy obyektlar tizimida o'tkir aql va topqirlik mujassamlashgan boshqotirmalar muhim ahamiyatga ega. Boshqotirmalar o'quvchi oldiga yechimini topish jarayoni fikrni noan'anaviy birikishga olib keladigan muammo zararsiz materiallar

(yog'och, qog'oz, metall, plastmassa)dan yasalgan buyumlardan foydalanish mumkin. Taklif etiladigan boshqotirmalar ko'p sonli obyektlar ichida didaktik prinsiplarga mos ravishda tanlab olinadi. Quyidagi talablar qo'yiladi:

- Boshqotirmaga asoslangan g'oyaning jozibadorligi.
- O'quvchilar qiziqishlariga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik quvvati.
- Maktabda o'qitiladigan predmetlar bilan bog'liqlik (fizik, kimyoiy, biologik va boshqalar.).
- Go'dakning obyekt bilan estetik uyg'unligi.
- Go'dakning qiziqishlari va yoshiga bog'liq ijodiy imkoniyatlari.
- Natijani topishda asta-sekin yuksalish.

Boshqotirmalarning bunday tizimi biz tomonimizdan dunyo tajribasida birinchi marta dars tizimining yaxlit bir bo'lagi sifatida tavsiya etilmoqda. Biz tomonimizdan saralangan boshqotirmalar tizimi kreativ ta'llim tizimining yangi didaktik vositasidir. Uning bosh funksiyasi ijodiy fikrlashni, topqirlilikni, fikrlash to'siqlarini yengish, ijodiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat. Bundan tashqari, bu tizim kuzatuvchanlikni, qiziquvchanlik va ijodkorlik faoliyatini natijasi sifatida intellektual faollikni rivojlantiradi. Boshqotirmalarni yechish insonning doimiy o'yinga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. O'yin ijodiy faoliyatning o'ziga xos tayyorgarlik turi bo'lib, boshlang'ich mакtab o'quvchisining kreativ sifatlarini rivojlantiradi. Ehtiyojning kitob javoni matematik boshqotirma va o'yinlar bilan to'la bo'lganligi ham bejiz emas. "Alisa mo'jizalar mamlakatida", "Alisa ko'zgu ortida" kabi umume'tirof etilgan ertaklarning muallifi, ajoyib ertakchi, Oksford universitetida matematikadan dars o'tgan Lyuis Kerrol boshqotirmalarning katta ixlosmandi edi. U oddiy qog'oz varag'ini buklash orqali g'aroyib figuralar (origami)dan juda ko'p foydalangan. Uning qo'llarida varaqni buklash orqali oddiy geometrik chiziqlardan kutilmaganda o'quvchilar ko'z o'ngida o'zining mukammalligi bilan miniatURA asarlari, yarim abstrakt haykallar paydo bo'lgan.

Boshqotirmalar tizimida yana bir muhim (motivatsion) funksiyasi shundan iboratki, ular o‘quvchilarning o‘rganilayotgan materialga nisbatan qiziqishini orttiradi, bundan ko‘p samaraliroq motivlash shaklini topish mushkuldir. Berilgan masalalarni bir necha usullarda yechish ham samaralidir. Boshqotirmalar bilan olib boriladigan faoliyat fikrlash mahsuldarligini oshirishda qo‘shimcha imkoniyatlarni ishga soladi. Tafakkurda hayoliy obrazlarning mavjudligi, taxminlarni tekshirishda kattalar yordamiga tayomaslik o‘quvchida zoriqmasdan belgilar olamidan obrazlarga yoki aksinchaga o‘tishga yordam beradi. Yaxlit ta’limiy ish shaklida o‘qish, o‘z holicha aqliy rivojlanish amalga oshiriladi.

5-yo‘nalish. Intellektual mashqlar.

Intellektual mashqlar ham boshqotirmalar singari o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga, motivlashtirishga xizmat qiladi. Ijodiy bilimlar tizimi (IBT) intellektual mashqlar izchil kreativ ta’limning didaktik prinsiplari asosida tuzilgan. U maxsus bilimlarni talab qilmaydigan, faqat fikrlash, topqirlik va mustaqil yechimlarni talab qiladigan ijodiy topshiriqlarni o‘z ichiga oladi. Bu bilimlarning murakkablashtirilgan tizimi bo‘lib, o‘quvchilar yoshiga mos maqsadga yo‘naltirilgan qiziquvchanlikni, ijodiy qobiliyatni, tafakkurni, narsalarga o‘zgacha qarashni talab etadi. Ijodiy bilimlar tizimi – intellektual mashqlar o‘zida asosan quyidagicha topshiriqlarni qamrab oladi:

- Taxminiy xulosalar chiqarish: ular o‘quvchilarni sabablar va oqibatlar haqida fikrlashga majbur qiladi.
- Obyektlarni noodatiy qo‘llanishi.
- Qonuniyatlarni izlab topish (bu topshiriqlar mantiqiy fikrlashni, umumlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi).
- Kutilmagan vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tanlay olish, bunday topshiriqlar go‘dakda mardlikni rivojlantiradi.
- Mavjud obrazlar asosida obrazlar sxemasini tuzish (abstrakt tafakkurni, asosiy sifatlarni, obyekt tarkibi).
- Obyektni rivojlantiruvchi vazifalar, masalan, o‘yinchoqlarni (kuzatuvchanlikning mustaqil yechimini topa olish va o‘z fikrini himoya qila olish mashqlari).

- Topshiriq chegarasidan chiqa olish qobiliyatini rivojlantirish, fikrlash inersiyasini yengib o'tish.
- Maqsadga yo'naltirilgan savollar bera olish va javoblar asosida predmetni aniqlash.
- Tafakkurni bosqichma-bosqich rivojlantirish.

Mazkur dars komponentining psixologik qiymati shundaki, aqliy mehnat qoidasi va shakli mustahkamlanadi, fikrlash samaradorligini oshirish, yechimlarning alohida bosqichlarida ijodiy jarayonning malakalari shakllanadi.

Intellektual mashqlar bosh funksiyasi murakkab topshiriqlar bajarishda axborot tahliliga asoslanishdan iboratdir.

6-yo'nalish. Fikrlashning kompyuter intellektual (tayanchi) yordami.

Fikrlashning kompyuter intellektual yordami motivlashtirilgan topshiriqlar, boshqotirma shaklidagi mashqlar, intellektual topshiriqlar asosida yuzaga kelgan g'oyalarni davom ettiradi va chuqurlashtiradi. Fikrlashning kompyuter intellektual yordamini qo'llash kompyuter muhitining, ayniqsa, multimediyalar, interaktiv o'zaro ta'sir vositalarining qo'shimcha imkoniyatlaridan foydalaniлади.

Fikrlashning kompyuter intellektual yordami bloki topshiriqlarining avvalgi bloklar topshiriqlari bilan chambarchas bog'liq bo'lishi zarurligini esda tutish kerak. Hayotdagi aniq obyektlar ustida topshiriqlar bajarishdan virtual obyektlarga ko'chirish, tashqi o'rganishdan ichki o'rganishga, ya'ni fikriy o'rganishga olib keladi. Virtual muhitda o'quvchining ko'rish kanali haddan ziyod faollashadi, muammoning yechimini topishga bo'lган qiziqish va ehtiyoji faoliyatni kompyuter texnikasi bilan uyg'unlashtiradi. Fikrlashning kompyuter intellektual yordamida topshiriqlar bajarish o'quvchi tafakkurini, fikrashi, diqqati, xotirasini rivojlantiradi va qonuniyatlar haqidagi malakalari hosil bo'lishiga imkoniyat yaratadi.

Kompyuter didaktik o'yinlar mazmuniga qo'yiladigan talablar quyidagicha:

1-talab. Kompyuter didaktik o'yinlardan foydalanishda belgilangan bosqichlarga qat'iy amal qilish kerak. Dastlab bolalar

«Boshqotirma» blokida tanish bo‘lgan obyektlar bilan ishlaydilar, o‘ynaydilar. Keyin ular notanish elementlar qo‘shilgan obyektlar bilan, keyin notanish obyektlar bilan ishlaydilar.

2-talab. Mazmunan ular ketma-ketlikda bo‘lishi kerak.

Sodda topshiriqlardan murakkabga.

Aniq (konkret) dan mavhum (abstrakt)ga.

Kam hajmdan katta hajmga.

3-talab. Kompyuter didaktik o‘yinlar turli tipda bo‘ladi: alohida qismli suratlarni yig‘ish, rangli mozaikalar, elementlardan konstruksiyalash, xotirani, diqqatni rivojlantiruvchi, qonuniyatlarni aniqlovohi, obyektlarni klassifikatsiyalovchi va b.

4-talab. Topshiriq: yorqin rangli, bezatilishi tajovuzkor bo‘lmasligi kerak. Bezash ishlarida o‘rganilayotgan kursdagi mavjud materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday holatda o‘rganish samarasi oshib, o‘quv material qo‘shimcha mustahkamlanadi.

5-talab. Ekranning maksimal to‘laligi minimal tugmalarni ishlatgan holatda amalga oshirilishi kerak.

6-talab. Qo‘llab-quvvatlovchi bolalar musiqasining jo‘rligining ta’minlanishi, zaruratda ularni o‘chirib qo‘yish imkoniyatining mavjudligi.

7-talab. Topshiriqning ayrim bosqichlarini muvaffaqiyatli yakunlashda, rag‘batlantirish maqsadida qiziqarli kitoblar sovg‘a qilish lozim. Fikrlashning kompyuter intellektual yordamining psixologik asosi shundaki, dars jarayoniga virtual obyektlar ishtirokida topshiriqlar va mashqlarni kiritish har xil shakl va turdagи fikrlash operatsiyalarining analiz va sintez qilinishiga olib keladi. Tavsiya etilayotgan o‘yinlar tizimli differensiatsiyalangan bo‘lib, dastur materialini to‘liqroq o‘zlashtirish bilan birgalikda o‘quvchining ijtimoiy hayotga kirib borishi samaradorligini oshiradi. Ma’lumki, o‘quvchiga o‘z xulqini samarali tashkil etish uchun yangilikni qabul qilish va o‘zgarishlarga tayyorlik muhimdir. Yaratuvchanlik ruhidagi kompyuter o‘yinlar orqali go‘dak yangilik yaratuvchisiga aylanadi, uni o‘rab turgan olam tuzilishining ko‘pgina yangi tomonlarini o‘zlashtiradi va o‘rganadi. Falsafaning

miqdor va sifat o‘zgarishlari, butun va qism birligi haqidagi qonuniyatlarini o‘zida kashf etadi.

N.M.Sechenov ta’kidlaganidek, mustaqil tushunish o‘z tushunchalariga tanqidiy yondashuvni shakllantiradi, ya’ni o‘z ichki tushunchalarini tashqi muhitdan ayro holda tahlil qilish, taqqoslash imkonini beradi. Go‘dakning ongi uning ongli kompyuter virtualini vizual shaklda ko‘rsata oladi. Go‘dakning ongi uning ongli harakatlari bilan uyg‘unlikda rivojlanadi, ong uning harakatlariga asos sifatida sharoit yaratadi.

Refleksiya o‘zini anglashning yana bir xarakterli ko‘rinishi bo‘lib, u o‘z qarorlarining oqibatlarini ko‘ra bilish va o‘zi boshqalarning xulq-atvori ustidan tizimli kuzatishni ta’minlaydi. Tafakkur va o‘zini anglashning uyg‘unligida mustaqil va maqsadga yo‘naltirilgan holda o‘z hulqini boshqarishdek muhim ijtimoiy samaraga erishiladi. Kompyuter yordamida ishlash o‘quvchilarning fikrlashining yangi psixologik yoki ommaviy shakli bo‘lib, ta’lim sifatini va axborotlarni o‘zlashtirish tezligini oshirish imkonini beradi. Masalalarning yechimini topishdagi qiyinchiliklar yangicha usullarda yechimlarni izlab topishni taqozo etadi. O‘zgartirilgan sharoitlarda noodatiy qarorlar chiqarish qobiliyati shaxsning o‘z ustida ishlashini ta’minlaydi.

7-yo‘nalish. Rezyume.

Darsning bu qismi o‘qituvchi va o‘quvchi orasida aniq dars mavzusi bo‘yicha materiallar yuzasidan fikrini bilish va baholashda qarama-qarshi aloqa o‘rnatish imkonini beradi.

Har bir kreativ yo‘nalishning dars mazmuni va psixologik asosi quyida berilgan:

“Dars” tizimida tizimli tashkil etuvchi element bo‘lib, go‘dakning ijodiy potensialini yuqoriga ko‘taruvchi o‘quvchining ijodiy faoliyati ko‘zda tutiladi.

O‘qituvchi diqqatiga bunday mashg‘ulotlarning dastlabkisi shunisi bilan diqqatga sazovorki, u pedagog va sinf orasida ijodiy mikroiqlimni o‘zaro tushunish va ishonchni uyg‘otadi. Buning uchun o‘qituvchi darsni o‘yin shaklida qiziqarli tarzda o‘quvchilar diqqatini bir faoliyatdan ikkinchisiga qaratib, istisnosiz barcha o‘quvchilarni faol izlanish faoliyatiga jalb qila bilishi kerak.

Nazorar uchun savol va topshiriqlar

1. Kreativ ta’lim deb nimaga aytildi?
2. Kreativ ta’limning mazmun mohiyati nimalardan iborat?
3. Kreativlik va uning tashxislanishi haqida gapiring
4. Kreativ dars tuzilishiga misollar keltiring.
5. Kreativ dars yo‘nalishlarining mazmuni nimalardan iborat?

III BO'LIM

IX BOB. TARBIYA NAZARIYASI VA USULLARI


1.Tarbiya jarayonining mohiyati va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni

Pedagogika fanining muhim bo'limlaridan biri tarbiya nazariyasidir. Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayon mazmuni, tamoyillari, qonuniyatları, uni tashkil etish masalalari, metodikasi, shakllari, metodlari, vositalari, usullari va muammolarini o'rganadi.

Mazkur bo'limda tarbiya jarayonining mazmuni, shakli, metodlari, vosita va usullari o'rganiladi. Tarbiya pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib – insonni ijtimoiy tajribalar bilan, uning barcha shakllarida - bilim, xis-hayajon, estetika, odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish va individning ichki o'ziga xos jihatlarini, imkoniyatlari va layoqatlarini rivojlantirish bo'yicha faoliyat hisoblanadi. Tarbiya nazariyasi Sharq mutafakkirlari va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayandadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya kabi fanlarning ma'lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo'limlari: ya'ni pedagogikaning umumiylasoslari, ta'lim nazariyasi hamda xalq ta'limi tizimini boshqarish bilan uzviy bog'liq. Tarbiya bu muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Turli zamon va makonda tarbiya mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlaridan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya g'oyasi turlicha

ifodalangan bo‘lsada, ammo yo‘naltiruvchanlik xususiyati hamda ob‘yektiqa ko‘ra yakdillikni ifoda etadi.

Tarbiya jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi) lar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, xis-tuyg‘ulari rivojlanadi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirish g‘oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta’sirlarga nisbatan ma’lum munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoji va xohishlarini ifodaydi. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongigina emas, balki, his tuyg‘ularini ham o‘stira borish, unda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan ahloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o‘quvchining ongiga (ta’lim jarayoni asosida) hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda) va irodasiga (faoliyatni uyushtirish, hulqini idora qilish jarayonida) sistemali va muntazam ta’sir etib boriladi. O‘quvchini tarbiyalashda bularning birontasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e’tibordan chetda qolsa maqsadga erishish qiyinlashadi. Shuning uchun tarbiya jarayoni ko‘p qirrali va murakkab jarayon deb yuritiladi. Uning xususiyatlari 1-shaklda quyidagicha aks ettiriladi.



Tarbiya jarayoni, odatda, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini qayta tarbiyalash, bolaning atrof-muhitdagi u yoki bu hodisalar bilan salbiy aloqasi natijasida vujudga keladigan munosabatlar va

ularning xususiyatlarini bartaraf etish bilan olib boriladi. Insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklar bisotida donishmandlarning pand nasihatlari va o'gitlari va tarbiya haqidagi fikrlari alohida o'rinn egallaydi. Donishmandlarning pand-nasihatlari umrboqiy ma'naviy boylik hisoblanadi. Chunki ular hayotdan, hayot tajribalaridan kelib chiqqan va ezgu orzu niyatni ifodalaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, eng qadimgi tarbiya haqidagi fikrlar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Bu fikrlar insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyatining yillar davomida rivojlanishi natijasidan dalolat beradi. Shuning uchun ham har bir davrda yashab ijod etgan mutafakkir allomalarimiz «tarbiya» so'zini turlicha izohlagan.

Tarbiya – arabcha so'zdan olingan bo'lib, parvarish qilmoq, ta'lim bermoq, o'rganish, odob o'rgatish, mehribonlik ko'rsatish, himoya qilish singari ma'nolarni anglatadi. Shu o'rinda Zardushtlik dinining muqaddas kitobi bo'lmish "Avesto" katta ahamiyatga ega. "Avesto"da insonning barkamol bo'lib yetishi-shida uning so'zi, fikri, ishi, birligiga katta e'tibor berilgan. Bu axloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab undan keyin yaratilgan barcha ma'rifiy asarlarga asos bo'lган desak xato qilmagan bo'lamiz. Ayniqsa, "Avesto"da inson tarbiyasiga, insonlarning jamiyatda tutgan o'mniga munosabati to'liq yoritilgan. Zardusht ta'limotida tarbiya haqida quyidagicha fikr bildirilgan.

Tarbiya – hayotning eng muhim tirygagi (tayanchi) bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi o'qishni va so'ngra esa yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin deb aytadi va yana yaxshi ovqatlanadigan xalqdan yaxshi nasl – sog'lom avlod qoladi" – deb ta'kidlaydi. Tarbiya ijtimoiy hodisa. Tarbiya kishilik jamiyatining paydo bo'lishi bilan vujudga keladi, taraqqiy etdi, jamiyatning o'zgarishi bilan tarbiya ham o'zgarib bordi. Tarbiya xulqni boshqarish va belgilash bir-birini talab etadigan va belgilaydigan tarkibiy qismlar – axloqiy ong axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlarning murakkab yig'indisidir. Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirishning pedagogik jarayoni bo'lib, tarbiyanuvchilarining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya – o'sib kelayotgan yosh avlodda

hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot – dunyoqarashni, insoniy e’tiqodni, burch va mas’uliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo’lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi.

Tarbiya deb - tarbiyachi o’zi xohlagan sifatlarini tarbiyalanuvchilarning ongiga singdirishi uchun ularning ruhiyatiga ma’lum maqsadga ko’ra tizimli ta’sir ko’rsatishiga aytildi. Tarbiya bola tug’ilganidan umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir.

Tarbiya – biror maqsadga qaratilgan jarayon, u doimo muayyan rejaga ega bo’ladi va buning uchun maxsus vakolatga ega bo’lgan kishilar tomonidan amalga oshiriladi. Hamma davrlarda ham tarbiyachilar yoshlarning axloqi va odobi, iy’moni va vijdoni, bilimi – malakasi, xatti-harakati, yo’nalishi, tarixiy tajribasi, davr talablari va ehtiyojlari, istiqlol vazifalari bilan uyg‘unlashtirib shakllantirishga, rivojlantirishga harakat qilganlar. O’z oldiga inson kuchi, bilimi va irodasi bilan bajarilishi mumkin bo’lgan muayyan maqsadlarni qo’ygan davlatlar ham ta’lim–tarbiya ishlariga befarq qaramagan.

O’rta Osiyo mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlari – o’gitlari shunday kuchga egaki, ular yoshlar qalbida insoniylik urug‘larining unishiga, katta hayot yo‘liga olib chiqishiga yordam beradi.

Shu bois mutafakkir allomalarimizdan Bahovuddin Naqshband, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Xojib, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Munavvarqori, Abdulla Avloniy va boshqalarning ta’lim–tarbiya va ma’rifat haqidagi g‘oyalaridan keng foydalanim bugungi kun talabiga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo’lib hisoblanadi.

Bahovuddin Naqshbandiyning tarbiya haqidagi fikr mulo-hazalari va pandu nasihatlari g‘oyat qimmatlidir. U barkamol insonni tarbiyalash dastlab odobdan boshlanishini ta’kidlab Shunday degan edi: “Adab hulqni chiroyl qilish, so‘z va fe’lni soz qilishdir... Adab saqlash – muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxtining urug‘i hamdir. Agar adabdan ozgina nuqsonga yo‘l qo’ysangiz ham, nimaiki qilsang, beadablik ko’rinadi. Odam o’zining bir xil sifat va ko’rinishida olib yurishi lozimki, toki odamlarda unga tasarruf (ta’sir qilish) ta’masi paydo bo’lmasisin”.

Abu Nasr Forobiy birinchi bo’lib ta’lim va tarbiyaga ta’rif

bergan olimdir. Ta'lim – so‘z va o‘rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarb‘ya – esa amaliyot, ish–tajriba bilan, ya’ni shu yo‘l orqali amalga oshiriladi, deydi.

Abu Nasr Forobiyning fikricha, har bir shaxs munosib odam bo‘lishi uchun unga ta’lim va tarbiya zarurdir. U ta’lim orqali nazariy kamolotga erishadi. Tarbiya orqali esa kishilar bilan muloqtoni, axloqiy qadr qimmatni va amaliy faoliyatni o‘rganadi. Forobiy bolalarning fe’l – atvoriga qarab tarbiya jarayonida “qattiq” yoki “yumshoq” usullardan foydalanish kerak deb hisoblaydi:

1.Tarbiyalanuvchilar o‘qish – o‘rganishga moyil bo‘lsa, ta’lim-tarbiya jarayonida yumshoq usul qo‘llanadi.

2.Tarbiyalanuvchilar o‘zboshimcha, itoatiz bo‘lsa, qattiq usul qo‘llanilishi lozim degan fikrni bildiradi.

Yusuf Xos Xojib – tarbiya kishini ezgulikka o‘rgatmog‘i kerak. Ezguning har ishi chiroyli, har bir qadami go‘zal. Ezgulik aslo qarimaydi.

Yusuf Xos Xojib tarbiyani juda murakkab jarayon deb tushunadi. U beldan madorni, tandan quvvatni, ko‘zdan nurni, dildan oromni talab qiladi degan fikrni bildiradi.

Abu Rayhon Beruniy inson va axloqiy tarbiya haqida fikr yuritar ekan, «insonga yer yuzini obod etishi va uni boshqarib turishi uchun aql–zakovat ato etilgan, shuning uchun har bir inson yuksak axloqli bo‘lishi lozim», – deydi.

Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi haqida fikr bildirar ekan, bola tarbiyasini unga ism qo‘yishdan boshlashni lozim deb topadi. Bolaga munosib ism tanlash ota-onaning dastlabki olijanob vazifasi deb biladi. Ibn Sino bola tarbiyasi bilan avvalo ota-ona shug‘ullanishi kerak deydi.

Umar Xayyomning ta’kidlashicha tarbiyaning maqsadi “sog‘lom fikr, ziyrak aql va o‘tkir zehnga ega bo‘lgan insonni shakillantirishdan iborat bo‘lmog‘i kerak”. Faqat chuqur zehngina, barkamol xalqni qondira oladigan ilhomga erishishi va uning yordami bilan yuksak aql-idrok farog‘atni hosil qilish mumkin, lekin shuning o‘zi kifoya qilmaydi, inson yuksak axloqqa ega bo‘lishi, yaqinlarini sevishi lozim.

Jalołiddin Devoniy bolaning tarbiya olishi, odob axloqli

bo‘lishi, uning keyingi tarbiyasiga bog‘liq. Chunki hayotda har kuni bola ko‘radigan, muloqotda bo‘ladigan narsalar uning xulqiga yaxshi va yomon tomondan ta’sir etadi. Bolada har kuni insoniy xislatlar: yurish-turish qoidalari, xushmuomalalik, ota-onasi va boshqa katta yoshdagilarni hurmat qilish, to‘g‘rilik va rostgo‘ylikni o‘rganish, shirinsuxanlik, kamtarlik, so‘zlashuv odobiga rioya qilish kundalik turmushda o‘rganiladi.

Munavvarqori bolalar tarbiyasida faqat ota-onalar emas, balki muallim va keng jamoa javobgar ekanligini aytib, ulardan bolalarni axloqli qilib tarbiyalashni talab etdi. U yoshlarni bilimlarni puxta egallashga, mehnat qilishga, umuminsoniy qadriyatlargacha sadoqatli bo‘lishga chorladi, ota-onalarni farzandlarida ma’naviyat, nafosat, go‘zallik tuyg‘usini rivojlantirishga da’vat qildi. Munavvarqorining fikricha, yosh avlodni tarbiyalash bilangina millatni uyg‘otish, Vatanni ozod qilish, xalq ma’naviyatini yuksaltirish, turmushni farovonlashtirish mumkin. Adib yoshligidan bolalarda mehnatga qiziqish, g‘ayrat, jasorat fazilatlarini tarbiyalashni tavsiya etadi.

Tarbiya xususida taniqli o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo falokat, yo saodat yo falokat masalasidur¹. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi hususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Shu o‘rinda yurtboshimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek “Farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish — ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak ”. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi. Jamiyatimiz komil insonni tarbiyalashda, uning ma’naviyatini shakllantirishda eng asosiy o‘rinni egallaydi. Komil inson tarbiyasi davlat siyosatining ustivor sohasi hisoblanadi. Komil inson deganda biz, avvalo yuksak ongli, mustaqil fikrlaydigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz.

¹ Abdulla Avloniy, Turkiy guliston yoxud ahloq. Toshkent, O‘qituvchi, 1992.

2.Tarbiya qoidalari

Tarbiya qoidasi - pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir.

Tarbiya qoidalari o'qituvchi, tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalari hisoblanadi, yangi kishini shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya qoidalari Sharq va Markaziy Osiyo faylasuf-donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiya qoidalari mustaqil xarakterga ega bo'lib, tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini va qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda bu qoidalarga rioya qilish uning samarasini oshiradi, yaxshi natijalarga olib keladi. Tarbiya qoidalariiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tarbiyaning maqsadga qaratilganligi qoidasi.
- tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasi.
- tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi qoidasi.
- tarbiyada o'quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarning hisobga olish qoidasi
- izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning birligi va uzuksizligi qoidasi va boshqalar.

Tarbiyaning maqsadga qaratilganligi qoidasi. Tarbiyadan ko'zlangan asosiya maqsad, har tomonlama ma'nnaviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Shunga ko'ra tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari va usullari shu maqsadga erishishni ko'zda tutadi. Umumiy ta'lim maktabining asosiya vazifasi - shaxsning aqliy, axloqiy, his-tuyg'uli va jismoniy rivojlanishi, qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish imkonini boricha qulay sharoitlar yaratishdan iboratdir. Shuningdek, o'quvchilarda milliy g'urur va milliy axloq-odobni shakllanitirishni ko'zda tutadi.

Shaxsning shakllanish manfaatlari har bir pedagogik tadbirni tarbiyaning umumiy maqsadlari bilan bog'lashni, uni rejali tarzda va qat'iy suratda amalga oshirishga harakat qilishini talab etadi.

Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganlik qoidasi bolalar jamoa-sining rivojlanish istiqbollarini ko'ra bilishga yordam beradi. Har bir tarbiyaviy tadbir oldindan puxta o'yangan, muayyan maqsadni amalga oshirishga bo'ysundirilgan bo'lsa, uning g'oyaviy-siyosiy darajasini ko'taradi, tanlangan usul va vositalar maqsadga muvofiq keladi, ularning tarbiyaviy ta'siri yuqori bo'ladi.

Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasi. O'quv yurtlari yangi pedagogik tafakkur egasi, munosib shaxs, o'z ishining ustasi bo'lgan o'qituvchiga muhtoj.

O'qituvchining bilim saviyasi, ma'naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotga eltuvchi yetakchi omillardan biridir. O'qituvchi yurish-turishi, xatti-harakati, kiyinishi, muomalasi bilan o'quvchi qalbiga kirishi, uni ezgulik sari yo'naltirishi kerak. O'quv yurtlarida ruhiy xizmatdan foydalanib bolalar kayfiyatini, intilishini va qobiliyatlarini aniqlash ta'lim-tarbiya jarayonlariga ijodiy yondoshishga imkon beradi.

Yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda muqaddas kitob Qur'oni Karim, Hadisi sharifdan foydalanish juda muhim. Shunday ekan, o'quv yurtlarida o'quvchilarga gumanitar - ijtimoiy fanlardan ta'llim berishda tarbiyaga ko'proq e'tiborni qaratmoq lozim. Ayniqsa hozirgi sharoitda O'zbekiston tarixi, adabiyotini o'qitish jarayonida bevosita tarbiyaga oid bo'lgan milliy manaviyatga, milliy ruh, urf-odat va, shuningdek, umumbashariy qadriyatlarga alohida urg'u berish zarur. Yaxshi o'qituvchi o'quvchilarning so'zini diqqat bilan tinglaydi ularga dalda beradi, tinchlantiradi, to'g'ri baho qo'yadi, hammani teng ko'radi, bolalarni sevadi. Tarbiyani demokratiyalash - bu tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlaridan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. O'qituvchi o'quvchiga, avvalgidek, tarbiya obyekti emas, xuddi o'zi kabi subyekt deb qarashi darkor. Ya'ni o'quvchiga faqat mening buyrug'imni bajaruvchi emas, balki mening o'zim bilan teng huquqli, birga ishlovchi, hamkorlik qiluvchi deb qarashi lozim. Bola butun qalbini darsga bag'ishlasa, uni og'ir ahvolga solib qo'ygan bo'lamiz, u faqat o'quvchigina emas, avvalo, rang-

barang qiziqishlar, ehtiyojlar, intilishlarga ega bo‘lgan insondir.

Tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalash va insonparvarlashtirish uning mohiyati va mazmunini qayta tafakkur etishni ko‘zda tutadi, shaxsning rivojlanish va o‘zligini anglash huquqini ta’minlaydi.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi qoidasi. O‘zbek xalqining madaniy merosini o‘rganishda va rivojlantirishda milliy o‘ziga xosligi, ma’naviy xususiyatlari hisobga olinib, xalq pedagogika an'analariga suyangan holda ish ko‘rilishi maqsadga muvofiq. Xalq pedagogikasining bola tarbiyasidagi boy tajribalari hayotga to‘la tadbiq etilmaganligi, buyuk allomalarning pedagogik qarashlari, Sharqona urf-odatlar, boy an'analarini hayotga joriy etilmaganligi tarbiya borasida talay qusurlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Xalqimizning ko‘p asrli qadriyatlarini, ulkan va boy madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur tuyg‘usini qaror toptirish mumkin emas. O‘zbek xalqi ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyotida katta madaniyatni yaratdi. U yaratgan boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ismoil-al Buxoriy, al-Xorazmiy, Beruniy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Sa‘di Sheroziy, Ahmad Yassaviy, Nizomiy Ganjaviy, Farididdin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali o‘quvchilar go‘zal axloq, baxt, insof, poklik, iffat, sabr-matonat, mehr-shafqat, sihat-salomatlik, ota-onani hurmat qilish qoidalari haqida keng tasavvurga ega bo‘ladilar. Insoniylik o‘z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, ya’ni odamlar o‘rtasida o‘zaro yaxshi munosabatda bo‘lish, do‘slik, ota-onaga sadoqatlik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarni qamrab oladi. Ota-bobolarimiz bolalarda yoshlikdan ana shu go‘zal fazilatlarni qaror toptirishga ahamiyat bergenlar.

Tarbiyada o‘quvchilarning yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish qoidasi. Bolalar maktabda rivojlanishning turli davrlarini bolalik, o‘smirlilik, o‘spirinlik pallalarini bosib o‘tadilar. Shu davrlar ichida ular hayot, inson va tabiat, umuman atrofimizni o‘rab olgan dunyo haqida aniq bilimlarga ega bo‘ladilar. Ularnig axloqi ham o‘zgarib boradi. Shu yillar ichida bolaning axloqiy tuyg‘ulari rivojlanadi, ongi bilan xulqi o‘rtasida uyg‘unlik vujudga

keladi, xarakteri tarkib topadi, o‘z xulqi va xatti-harakatlarini ehtiyojga va sharoitga muvofiqlashtirishga intilish odatlari tarbiyalanadi.

Bolalarning yoshi rivojlanish darajasiga ko‘ra ularga beriladigan tarbiyaning mazmuni, pedagogik rahbarlikning xarakteri ham o‘zgarib boradi. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari maktabdagi o‘z asosiy vazifalarini: o‘zini mактабда, uyda, ko‘chada qanday tutish qoidalarini bilib oladilar. Bunday odatlar ularga namuna ko‘rsatish, tushuntirish yo‘li bilan singdiriladi. Bolalarning yoshi ulg‘aygan sari ularga talab ham orta boradi. Shu tufayli o‘rta va katta yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ularning mustaqilligiga suyanib ish ko‘rish yaxshi natija beradi. Tarbiyada bolalarning kuchi va imkoniyatlarini tola ishga solish yaxshi, lekin ularning kuchiga ortiqcha baho berib yuborish ham yaramaydi.

Tarbiya berishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan tashqari, har qaysi bolaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish ham katta ahamiyatga ega. Bolalarning yoshi, bo‘yi bir xil bo‘lsada, ularning mijozи, fazilatlari, qobiliyat va mayllari, qiziqishlari har xil bo‘ladi. Bu farqlar bolalarning xulqida, o‘qish va mehnatida aks etadi. Bir o‘quvchiga nisbatan muvofiq bo‘lgan tarbiya uslubini boshqa bir o‘quvchiga nisbatan qo‘llaganda u kutilgan natijani bermasligi mumkin. Sinfdagи o‘quvchilarning ba’zilariga oddiy tanbehning o‘ziyoq samarali ta’sir ko‘rsatadi, ammo boshqa o‘quvchilarga tanbeh berishning o‘zi kifoya qilmaydi. Ba’zi bir o‘quvchi ayrim axloqiy fazilatlarni tezda uqib oladi va unga amal qiladi, ikkinchisi esa unga amal qilmaydi, ayrim bolalar esa bu xil sifatlarni o‘zlariga juda sekinlik bilan singdiradilar.

Ayrim o‘quvchilar o‘zlarining faoliyatlari, saranjom-sarishtaligi, intizomliligi, fahm-farosati bilan o‘qituvchi va bolalar jamoa-sining ishonchi va hurmatiga sazovor bo‘ladilar, boshqalari esa intizomsizligi, pala-partishligi, betgachoparligi, bema’ni qiliqlari bilan tezda “tanilib” qoladilar. Demak, har bir o‘quvchining qibiliyati, qiziqishi, his-tuyg‘ulari, kuchli va zaif jihatlarini aniqlab, tarbiyaviy ishlarda ularni hisobga olish tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish imkoniyatini beradi.

Tarbiyada izchillik, tizimlilik - tarbiyaviy ta'sirlarining uyg'unligi va uzluksizligi qoidasi tarbiyaga yaxlit tizimli yondashish tarbiyaning pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo'naltirilganlik darajasini belgilab beradi. Bunda pedagogik maqsad va vazifalar, uning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashchilari tomonidan tan olinishi shart.

Tarbiya ishida izchillik juda muhimdir. Tarbiyachi avvaliga bolalardan biror narsani talab qilib, so'ngra o'zining bu talabini unutib qo'ysa yoki o'zi bu talabga xilof ish tutsa, bu hol tarbiyaga juda yomon ta'sir qiladi. O'qituvchi subutli; o'z lavozimiga sobit bo'lmog'i kerak. Masalan: "Ertaga kundaliklariningizni tekshiraman", "Oyoq kiyimlaringizni moylaganligini ko'raman" deb va'da berdingizmi, ijrosini unutmang. Pedagog biror tarbiyaviy tadbir uyushirishni bolalarga va'da qilib sal orada va'dasini esidan chiqarib qo'ysa o'quvchilar bunday o'qituvchiga ishonmay qo'yadilar. Har bir pedagogning ishi bilan so'zi bir bo'lishi lozim. Bolalarga birdaniga juda ko'p talab va qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. Bolalarga tarbiya va ta'lif berishda uzlusiz va tizimlilikka rioya qilish kerak. O'qituvchilar orasida ham talabalarning bir xilliligi hamisha ta'minlanavermaydi. Tarbiya uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, unda ota-onasi, o'qituvchi jamoatchilik va boshqalar qatnashadilar. Shu sababli ularning ishida izchillik va davomiylik bo'lishiga rioya etish, o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini, tarbiya usullari va shakllarini o'z vaqtida aniqlab olish juda muhimdir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlari:

1. Tarbiya nima? Tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi o'mi nimalardan iborat.
2. «Avesto»da inson tarbiyasi haqida qanday fikr bildirilgan?.
3. Allomalarimizdan Bahovuddin Naqshband, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Xojib, Abu Rayhon Beruniylarning tarbiya haqidagi fikrlaridan misollar keltiring.
4. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov komil insonni tarbiyalashda qanday fikrlar bildirgan?.
5. Tarbiya qoidalari deb nimaga aytildi?

X BOB. MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA

1. Ma'naviy qadriyatlar – tarbiyaning omili

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, o'rtaga tashlagan eng dolzarb muammolardan biri- ma'naviyat masalasi edi. Chunki, har qanday jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy madaniy taraqqiyoti bevosita uning ma'naviy-axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqidir. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov qayd qilganidek, bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonni o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- vatanparvarlikdan iboratdir.

Mazkur ma'naviy axloqiy negizlar zaminida umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligiga respublikamizning barsha fuqarolarining ma'naviy madaniyatini shakllantirishiga erishish yotadi. Bir so'z bilan aytganda shaxs tafakkurini o'stirmasdan, uning ma'naviy dunyosini boyitmasdan turib, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jahhalaridagi vazifalarni bajarish, milliy istiqlol mafkrasini to'la-to'kis yaratish mumkin emas.

Avvalombor ma'naviyatning o'zi nima-yu, ma'naviy qadriyatlarining axloq-odob bilan mushtarakligi bugungi tarbiyamizda qanday o'rin egallash masalasiga to'xtalib o'tmoqni o'rinli deb o'ylaymiz. Zeroki, ma'naviyatsizlik har qanday jamiyatning tanazzulga olib borishi shak-shubhasizdir. Insonning ma'naviyati uning odobi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Ma'naviyat esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi.

Ma'naviyat inson uchun moddiy ehtiyoj emas, siyosiy zaruriyat ham emas. Ma'naviyat insonning o'z mohiyati oldidagi mas'ulligidir.

Shu o'rinda Yurtboshimiz I.A.Karimov ma'naviyat tushunchasini quyidagicha izohlaydi.

“Ma’naviyat – insonni ruhan poklanishi, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymone-tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”¹.

Ma’naviyat - inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi. Har bir millatning ma’naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning birligidan tashkil topadi. Ma’naviy meros o’tmishning yutug‘i. Uni to‘la, odilona egallash va rivojlantirish esa hozirgi avlodlarning vazifasidir². O‘z madaniy merosini, qadriyatlarini bilmaslik yoki mensimaslik madaniyatsizlikdir. Ularni boyitib, yuksak darajaga ko‘tarishga intilmaslik esa millat va uning istiqboli uchun ziyondir. Ma’naviyatini yuksak darajada rivojlantirgan insongina o‘zligini va nodir betakrorligini anglaydi, bugungi jamiyatning ravnaqi uchun kurashda o‘zida kuch va qudrat topa oladi.

Asrlar davomida xalqning ma’naviy ehtiyoji, talabi asosida yaratilgan qadriyatlarda olg‘a surilgan ilg‘or g‘oyalarni o‘z ongida yaxlit shakllantirgan, ularning mohiyatini amaliy faoliyatida namoyon qila oladigan, oilaning, xalqning, jamiyatning ma’naviy rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan shaxs ma’naviy madaniyatli hisoblanadi. Milliy va umuminsoniy ma’naviy qadriyatlardan to‘la bahramand bo‘lmagan, ona tilini bilmagan jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga ongli tarzda hissa qo‘shmagan inson ma’naviy qashshoqdir.

– Mustaqil respublikamiz istiqbolini belgilovchi har bir fuqaroning o‘z burchi va majburiyati mohiyatida ma’naviyat va axloqiylikni qayta tiklash;

– o‘zbek xalqi asrlar mobaynida yaratgan madaniy boyliklarni, noyob tarixiy obidalarni avaylab saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish tadbirlarini ko‘rish;

– qadimiy va zamонавиyy xalq qadriyatlarini, adabiyot va san’atni bilish va rivojlantirish;

– o‘zbek tilini taraqqiy ettirish, respublikada yashovchi boshqa

¹ Karimov I.A. «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch». T. «Ma’naviyat». 2008 y.

² O’sha asar.

xalqlar madaniyatiga, tiliga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

- hurfikrlilik, vijdon va din erkinligini qaror toptirish;
- ma’naviy mulkni milliy qadriyat sifatida himoya qilish;
- oilani milliy qadriyatlar asosida mustahkamlash;
- maorif tizimining barcha bo‘g‘inlarida umuminsoniy va milliy qadriyatlarning mazmuni va mohiyatini chuqur o‘rganishga erishi kabi shartlarini amalga oshirish yotadi.

Bir so‘z bilan aytganda, insoniyat paydo bo‘libdiki, hamisha odamiylik qiyofasini, fe'l-atvorda o‘ziga yarashadigan xatti-harakatlarini, u yoki bu fazilatlarini mujassamlashtirishga intilgan. Hozirgi zamон kishisiga odob, xulq atvor qoidalari asrlar davomida tarkib topib, takomillashgan. Bu fazilatlar har bir odamning bokiriy va botiniy xislatlarida, o‘zini tuta bilishida, xatti-harakatida, muomala-munosabatida o‘z ifodasini topgan.

Ma’naviy barkamollik «hayot qonunini ilmini idrok etish» demakdir. Ilmni har qanday ko‘rinishi esa ta’lim –tarbiya orqali ustoz-muallimlar boshchiligidagi beriladi.

Ushbu ma’noda umumta’lim maktablari mazkur masalani hal qilishda asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Bugungi ta’lim oldiga qo‘yilgan muhim masala-umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda ta’lim-tarbiyaning mazmunida insonparvarlik g‘oyasini kuchaytirish xalqchillashtirish, uning uzviyligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi asosida yoshlarni ma’naviy madaniyatini shakllantirishdan iboratdir.

Zeroki, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida ham, “... ta’limda umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlarning ustivorligi”¹ ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri ekanligi ta’kidlangan.

Demak, ta’lim-tarbiya jarayonida umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlarning ustivorligiga erish o‘quvchilarining ma’naviy madaniyatini shakllantirishning muhim omilidir.

Ayniqsa boshlang‘ich sinflardan boshlab murg‘ak qalblarda axloq-odobga oid sodda tushunchalardan boshlab sekin-astalik bilan milliy qadriyatlarni elementlarini singdirib borish katta ahamiyatga ega, ular ta’lim-tarbiya jarayonida o‘zbekona

ibratomuz urf-odatlarimizdan xabardor bo'lib boradilar. Insoniy fazilatlarni kichi'k hikoyalar, tanbehlar va rivoyatlar orqali anglab, axloqan tarbiyalanadilar. Salbiy xislatlardan o'zlarini saqlab, otabobolarimizdan meros qolgan udum va qadriyatlarni tiklashga, amal qilishga hissa qo'shishga intiladilar. Bu esa ularning milliy mafkuramizning asl mohiyatini tushunishga olib keladi.

Eng asosiysi bizning davlat demokratik tamoyillarga asoslangan holda, barcha mafkuralarning yashash huquqini ta'minlovchi institut sifatida ish ko'rishini tushunib yetadilar.

Shu sababli biz ma'naviy qadriyatlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga kiritib yoshlarni axloqan pok va ruhan tetik, sog'lom aqli qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasidir. Shaxsning ma'naviy madaniyatini shakllantirishga qo'yiladigan hozirgi zamon talablarini amalga oshirish muammolari dinamik xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy tuzum taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Bu muammoni falsafa, etnografiya, adabiyot, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, etika, estetika fanlari tadqiq etadi.

Madaniyat – arabcha so'z bo'lib, u jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotda qo'lga kiritgan yutuqlari majmuidir. Demak, madaniyat- insoniyat faoliyati mahsuli natijasi sifatida, insonlarning moddiy va ma'naviy faoliyatları jarayonida vujudga keladi.

Madaniyat - jamiyat va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi.

Madaniyat shaxs kamolotiga moddiy (texnika ishlab chiqarish tajribasi, moddiy boyliklar) va ma'naviy (fan, adabiyot, san'at, maorif, din, umuminsoniy va milliy ma'naviy ruhiy qadriyatlar) jihatdan ta'sir etadi. Moddiy va ma'naviy madaniyatning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siri natijasida aqlan yetuk yaxlit shakllangan shaxs tarkib topadi.

Ma'naviy madaniyatning negizi hisoblangan umuminsoniy va milliy qadriyatlar shaxslar ijtimoiy tuzumiga munosabati, turli ma'rifiy ma'naviy g'oyalar, tushunchalar, qarashlar, tasavvurlar tizimining mahsulidir. Ma'naviy madaniyatning mohiyatini namoyon etuvchi obyekt shaxs hisoblanadi.

Shuningdek, asrlar davomida jamiyatning moddiy va ma’naviy rivojlanishiga diniy ta’limot tarbiya vositasi bo‘lib kelayotgan diniy ma’naviy qadriyatlar ham ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganligi sir emas.

Jumladan, islom diniga qadar mavjud bo‘lgan va islom tomonidan to‘ldirilgan, rivojlantirilgan axloqiy ma’naviy an’analar yoshlari tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Zeroki, Qur’oni Karimda bayon etilgan quyidagi axloqiy va ma’naviy mezonlar bugungi kunning tarbiyasi uchun ham ayni haqiqatdir: o‘zaro muloqot uchrashish, xayr lashish va hamkorlik faoliyatidagi odob-axloq talablari; mehnimon kutish, mehmonga borish, katta va kichikka bo‘lgan munosabat, ota-onaga bo‘lgan hurmat, oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari masalalarining o‘ziga xos odobi; bayram, tantana, marosim va an’analarda ishtirok etishning tartibotlari haqidagi da’vat va boshqalar.

Qur’onda keltirilib, keyinchalik Sharq xalqlarining milliy – ma’naviy qadriyatlariga aylangan yuzlab qadriyatlar va odob-axloq mezonlarini keltirish mumkin. Lekin biz yuqorida keltirilgan salomlashish odatini izohlash bilan kifoyalanamiz.

Sharq xalqlarining salomlashish odatlarining negizida: shu xalqning ruhiy xususiyatlari, o‘zaro munosabatlarining ma’naviy asoslari, bo‘lajak muloqotning xarakteri, o‘zaro hamkorligi yotadi. Qur’oni karimda bu odat qat’iy majburiy burch tarzida belgilab qo‘yilgan: “Ey mo‘minlar, o‘z uylaringizdan boshqa uylarga to izn so‘ramaguningizcha va egalariga salom bermaganingizcha kirmangiz. Mana shu sizlar uchun yaxshiroqdir. Shoyad ushbu eslatmadan ibrat olsangiz”. Muqaddas meroslarimizdan biri Qur’ondan keyingi muqaddas diniy-axloqiy manba hadislardir.

Hadislarning asosiy mohiyati “savob” va “gunoh” tarzida insonlarning fazilat va salbiy xususiyatlarini sharhlash, da’vat etish va ishontirish orqali beriladi.

Hadislarda “savob”ning mohiyatini beruvchi fazilatlar: Otona, keksalarga hurmat, ilmlni bo‘liish, hamkorlik, do’stlik, insonparvarlik, ayollarni qadrlash, sahovat, rostgo‘ylik, iffat, nonni e’zozlash, diyonat, rahm-shafqat, e’tiqod, mehmondo’stlik, mehr-oqibat, xayr-ehson, tozalik, pokizalik, bilimdonlik, vazminlik, tadbirkorlik,

halollik, sabr-qanoat, ishonch, himmat, bardoshlilik, xushxulqlilik, muloyimlik, latiflik, marhamat, to‘g‘rilik, shukur, vafo, saxiylik, sadoqat, sabotilik, kamtarlik, viqorlilik, salohiyat, hayo, tejamkorlik, sir saqlash va shu kabilar jamiyat ma’naviy taraqqiyotini belgilovchi axloqiy ma’naviy omillar tarzida namoyon bo‘ladi.

Musulmon ma’naviy olamida iymon talablariga zid noaxloqiy xususiyatlar keskin qoralanadi va huquqiy qonunlar bilan man etiladi. Hadislarda taqiqlangan bunday salbiy xususiyatlarni ba’zan “gunoh” ham deb yuritiladi. Bunday salbiy xususiyatlar jumlasiga: o‘g‘rilik, zino, hayosizlik, munofiqlik, yolg‘on so‘zlash, bevafolik, kek saqlash, nopoliklik, riyokorlik, xusumat, nohaqlik, hasad, nodonlik, qotillik, fitna, yolg‘onchilik, g‘iybat, ochko‘zlik, tamagirlilik, isrofgarchilik, itoatsizlik, bid‘at, xurofot, chaqimchilik, kibr, gina, adovat, hiyonat, baxillik, zulm, maqtanchoqlik, ikkiyuzlamachilik, takabburlik, manmanlik, shuhratparastlik, shoshqaloqlik va boshqalar kiradi.

Sharq mutafakkirlari dunyoviy bilim bilan bir qatorda diniy bilimni o‘zları egallagan holda, umuminsoniy qadriyat tarzida har bir insonda uning mazmun va mohiyatidan voqif bo‘lish kerak, ilm olib aqliy kamol topish kishining yoshligidan va umrining oxirigacha davom etmog‘i lozim degan g‘oyani ilgari suradilar. Barcha guruhdagi ma’naviy qadriyatlarning mohiyatida eng oliy tuyg‘u- insonparvarlik yotadi. Insonparvarlik qadriyati mazmunida musibatli kishiga hamdard bo‘lish, keksalarga, muhtojlarga, ayolmandlarga yordam berish, hojatbarorlik qilish, andishalik, vazminlik, samimiylilik, kamtarlik kabi yuksak fazilatlar yotadi.

A.Navoiy nazdida ta’ma aralashgan yaxshilik, hikmat, himmat insonning ma’naviy hissiyotiga salbiy ta’sir etuvchi holatdir. Ta’masiz yaxshilik qilish, bu – saxiylikdir. Odamgarchilikning eng yuksak belgisi saxiylik va himmatdir. Demak, insonparvarlik qadriyatining mohiyatida samimiylilik hojatbarorlik tushunchasi yotadi. Yuksak insoniylikning o‘lchovi burch va vijdon hisoblanadi. Shu boisdan sharq mutafakkirlari vijdona pokligi, oila, ota-ona, ustoz, xalq, farzand burchi haqida olg‘a surilgan g‘oyalarning asosini insonparvarlik tashkil etadi.

Mehnat avvalo insonning moddiy ehtiyojini qondirish, qolaversa

ma'naviy ongini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Mehnatsevarlik qadriyatining mohiyatini aqliy va jismoniy ijodiy munosabat ongli va halol mehnat qilib, jamiyatning moddiy va ma'naviy rivojlanishiga ta'sir etish, mehnat natijalaridan rohatlana bilish, o'zgalar manfaati uchun mas'uliyatni his etish kabi tushunchalar yotadi.

Yu.X.Xojib mehnat jaryonida shoshmasdan ishlash, sabrli va ehtiyyotli bo'lish kerak deb ta'kidlaydi.

Sharq mutafakkirlari didaktik xarakterdagi ilmiy asarlarida ma'naviy madaniyatni shakllantirishning shakl, usul va vositalarini umumlashtirilgan holda bayon etdilar. Chunki o'rta asr pedagogik fikrlar nazariyasi va amaliyoti tarbiyaning insoniy shakl va usullariga tayangan. Ta'lif-tarbiya berishning vositasi esa amaliyot bo'lib hisoblangan edi. Bu qoida ayniqsa Ibn Sinoning tibbiy risolalarida, "Donishnoma" asarida, Kaykovusning "Qobusnoma", Yu.X.Xojibning "Qutadg'u bilig", Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston", A.Navoyning "Hayrat-ul abror", "Mahbub ul-qulub" asarlariga bevosita taaluqlidir.

Bir so'z bilan aytganda, mutafakkir olimlar yuksak ma'naviy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar doirasida talqin etdilar va targ'ib qildilar, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ma'naviy omillarni yuksak baholadilar.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash zamон talabi bo'lib kelmoqda. Buning uchun esa ta'lif tizimining barcha bo'g'inlarida jumladan umumiyligi maktablarida xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-qanoat,adolat, ma'rifat, insonparvarlik, iymon, e'tiqod, mehnatsevarlik tuyg'ularini har bir yosh ongiga singdirish talab etiladi.

2.Milliy tarbiya va uning mazmuni

"Milliy tarbiya" tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, uning milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyat; umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va

mos betakror shakli; xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirishdan iborat. Milliy tarbiyaning manbai - milliylikdir!. "Millat", "milliylik", "milliy g'urur", "milliy odob", "millatlararo muloqot madaniyati" tushunchalarining o'zagini arabcha "mil" so'zi tashkil qiladi. Bu so'z arabchada "o'zak", "tub mohiyat", "negiz" ma'nolarini anglatadi. "Millat" so'zi esa bir necha ma'noni; 1) din: mazhab; 2) ummat: bir mazhabga mansub aholi; 3) xalq ma'nolarini anglatadi¹.

"Millat", "milliylik" tushunchalarining talqini bilan tanishar ekanmiz, ularning g'arbona va sharqona tarzlari bor ekanligini ko'-ramiz. Aniqrog'i, g'arbiy talqin xristian, sharqiy talqin esa islomiy o'zbeklarga borib tutashadi. Ya'ni Ovro'po xalqlari tillariga "millat" tushunchasi lotincha "natio" - qabila, xalq sifatida xristian dini bilan birga kirib kelgan bo'lsa, Osiyoga esa Islom ta'limoti orqali yuqorida uch xil ma'noda kirib kelib singdi. Milliy tarbiya mazmunini eng yaxshi o'zbek oilalarida amal qilingan va amal qilinib kelinayotgan tarbiya mazmuni va mustaqillik sharoitida davlat, jamiyat maktab tarbiyasiga qo'ygan talablardan mujassamlangan fazilatlar hosil qiladi. Muayyan fazilatlarning izchil, turli vaziyatlarda, turli vositalar yordamida singdirilib, tuzatilib, takomillashtirilib borilishi pirovard natijada davlat va jamiyat, oila, mahalla, maktab uchun namunaviy o'quvchi, o'g'il-qiz axloqini hosil qiladi. Milliy tarbiya mazmunini quyidagi bilim, ko'nikma va malakalar uyg'unligini pedagogik ta'minlash tashkil qiladi:

- katta-yu kichik bilan avval salomlashib, keyin so'z boshlash;
- ota-onaga mehrlilik;
- nafaqat yoshi ulug'larni, balki o'zidan kichiklarni ham samimiy izzat qilish;
- boshqa millat bolalarini ham xuddi o'zidan millatparvar bilib, hurmat bilan e'zozlovchi, ularning milliy madaniyatiga samimiy qiziqish;
- nohaqlik va axloqsizlikni ko'rsa xoh katta, xoh kichikni noto'g'ri ishlardan qaytarib, insofga chaqira olish;

¹ Farhangi zaboni tochikiy (Az asri X to ibtidoi asri XX). 2 child. 1 child. Sovetskaya entsiklopediya. – M.: 1969.-689 b.

- jamoat transportida o‘zidan katta va kichikka izzat ko‘rsatish;
- o‘zi mansub jamoa muammolariga tegishli yig‘ilish, majlis, xayriyalarda faollik;
- yo‘lovchilarga xalaqit beruvchi narsalarni yo‘ldan olib qo‘yish; qanoatlilik; xalqlar, millatlar orasidagi fitna-fasod, jaholatga qarshi turish;
- umummilliy jipslikni hamshaharlik, mahalliychilikdan ustun qo‘ya olish;
- o‘zining tabiatga, jamiyatga, o‘ziga bo‘lgan munosabatlarni “yaxshi niyat”, “yaxshi so‘z”, “yaxshi ish” asosiga qura olish, tavozelilik, ochiq chehrilik;
- inson umri, vaqtini qadrlash;
- gunoh, xato qilsa, kechirim so‘ray olish;
- o‘zining yetti pushti tarixini mufassal aytib bera olish;
- barcha qarindoshlarining yaqinlik darajalari va nomlarini bilish va ularga mehrini namoyish qilish;
- sinfdoshi, o‘rtog‘i oilasida noxush voqeа sodir bo‘lganida, bemor bo‘lganida albatta borib, hol-ahvol so‘rash;
- tanishlari, do‘satlari, notanish bolalar arazlashganda ularni yarashtirishga harakat qilish;
- birovning shodligidan shodlanish, qayg‘usiga hamandard, sherikligini bildira olish;
- (o‘g‘il bolalar uchun) qiz bolalarni har tomonlama nozik deb e’zozlash, ularga o‘z hurmatini amalda namoyon qilish;
- (qiz bolalar uchun) o‘g‘il bolalarni g‘ururli, mard, shijoatli deb bilish, ularga o‘z hurmatini bildirish;
- aka va opani ota-onasi kabi izzat qilish;
- bir marta ko‘rishgan kishining ismini so‘rab qo‘yish va esda saqlash;
- vafot etgan yoki o‘zi shu yerda yo‘q kishi haqqiga g‘iybat va tuhmatdan xazar qilish;
- Unga ishongan kishining sirini saqlay olish;
- “Yomon” deb nom chiqargan bolalardan o‘zini tuta olish;

- yaxshi kishilarga havas va taqlid qilish;
- birovning a'ybiga kulmaslik, yuziga solmaslik;
- kek saqlamaslik;
- badavlat kiyangan bola qarshisida o'zini xor tutmaslik, kambag' al kiyangan bola oldida kekkaymaslik;
- o'g'il bo'lib qizlarning, qiz bo'lib o'g'illarning kiyimini kiymaslik;
- milliy axloq va sharoitga xilof xatti-harakatlardan tiyilish;
- o'ziga topshirilgan ishni oliy darajada bajarishni ilohiy e'tiqod darajasida tushunuvchi;
- sinab va o'rtaga Allohni qo'yib do'st bo'lish, millat, vatan manfaatlariga zid harakat qilgan do'stidan kecha olish, ota-onasi lozim ko'rib bergen ovqat, kiyim-boshga qanoat qilish;
- balog'atga yetgach, g'usl qilish;
- nonni ilohiy darajada e'zozlash;
- ona tilida sof fikrlash, so'zlash;
- uyat, xarom so'zlarni hech qachon, hech qayerda, hatto urishgan paytida ham tiliga keltirmaslik, kattalarning ijobiy-axloq namunalarini diqqat bilan kuzatish va asta-sekin o'z xatti-harakatlarida namoyon qila borish;
- har bir jiddiy ishni ota-onai bilan maslahatlashgan holda boshlash, o'z tarixi haqida allomalari, xizmatlari haqida, minnatdorlik bilan hikoya qilib bera olish;
- milliy madaniy yodgorliklar tarixini yaxshi bilish va ularni asrashga xizmat qilish;
- savdo-sotiq, bozor munosabatlarida insofli, chaqqon, jur'atli bo'lish;
- milliy istiqlol maskurasi g'oyalarini o'zlashtirish, ijtimoiy-siyosiy voqealarga tarixiy nuqtayi-nazardan turib mustaqil munosabat bildira olish;
- kitobxonlik; barvaqt uyquga yotib, barvaqt uyg'onish;
- sabrli, andishalilik;
- o'z kelajagiga taalluqli masalalar bo'yicha mustaqil, yoshiga mos fikr yurita olish va h.k.

Axloqiy tarbiyaning eng ta'sirchan vositalaridan biri hadisdir. Chunonchi, Qur'oni karim oyatlari mazmuni, Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom Hadislari, sharq allomalari va faylasul-larining kitoblari tarbiyamizning manbai bo'lib xizmat qilgan.

Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha qirralarini, hatto mayda jihatlarigacha qamrab olgan. U go'daklarni emizish-dan tortib, qanday kiyintirishgacha, ovqatlanish odobidan tortib, ko'cha-ko'yda, kattalar qoshida o'zini qanday tutish lozimligining barcha jihatlarini o'z ichiga olgan. Eng asosiysi, islomiy odob farzandlarning halol, pok, mehnatkash, ilmgaga intiluvchan, kattalarni, ayniqsa, ota-onani hurmatlash ruhida tarbiyalanishni shart qilib qo'ygan.

Payg'ambar alayhissalom Hadislarida: "Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga, axloq-odobini ham yaxshilanglar!" "Hech bir ota o'z farzandiga xulq-u odobdan buyukroq meros bera olmaydi", deyilgan.

Yana bir Hadisda esa: "Mo'min kishiga berilgan narsalarning eng yaxshisi chiroyli xulqdir", deyilgani bejiz emas. Bobokalon-larimiz hamisha barkamol inson shaxsini tarbiyalashga intilganlar va o'z farzandlari, mahalla yoshlari va butun jamiyatning tarbiyali bo'lishi uchun kurashganlar.

Yoshlarni tarbiyalashda "Mening bolam", "Sening bolang" deb ajratishmagan. Tarbiya berish hammaning vijdoniylar burchi, deb qaralgan. Payg'ambar alayhissalom Hadislarida yana shunday deyilgan:

Masalan: Munofiqlikning belgisi 3 tadir

- 1) Yolg'on so'zlash
- 2) Va'daning ustidan chiqmaslik
- 3) Omonatga hiyonat qilish

Tangri nazarida eng yaxshi gap-rost gapdir. Yana xadislarda, halokatga olib boruvchi 7 xil gunohdan saqlanening deyilgan:

1. Tangriga shak keltirmaslik
2. Sehr ishlari bilan shug'ullanmoq
3. Birovni nohaq o'lдrimoq
4. Sudxo'rlik

5. Yetimlar molini yemoqlik

6. Vatan mudofaasi uchun bo‘layotgan urushdan qochmoq

7. Erli, mo‘mina, iffatli ayollarni fohisha deb haqoratlamoq.

Umuman Sharq xalqlarida odob-axloq, izzat-hurmat, xayolandisha uning insoniylik qiyofasini belgilovchi asosiy omildir.

Bu haqida rus pedagogi N.Krupskaya shunday deydi: “O‘zidan kattalarni hurmat qilishni Sharq, xalqlaridan o‘rganish kerak”.

Darhaqiqat, Sharq xalqlarining ibrat bo‘larli ahloqiy fazilatlari benihoyat ko‘pdir. Musulmonlarda ayollarga bepisandlik bilan qaraladi degan bid’atlar bor, holbuki, hadisda onalarni ulug‘lovchi hadislar son-sanoqsiz.

Masalan: Jannat onalar oyog‘i ostidadir.

Ota ona birdan chaqirganda, avval onaga 3-marta “labbay” deb javob berib, so‘ng otaga javob berish kerak.

Ota-onani hurmatlash borasida:

Otaga itoat qilish-Tangriga inoat qilishdir. Uning oldida gunoh qilish-Tangri oldida gunoh, qilish bilan barobardir. Ota-onasi qarg‘aganni- Tangri qarg‘aydi.

Bu haqida buyuk allomalarimizning fikrlari ham ibratlidir:

Masalan: A.Navoiy:

Boshni fido ayla Ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa Ano boshig‘a...

Ustozni hurmatlash borasida:

Haq yo‘linda kim sanga bir harf o‘rgatmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqqin yuz ganj ila.,

Odob haqida:

“Odobli garchi barcha kishilardan yaxshidir, hamma haloyiq-dan yoqimlidir. Odobli o‘z tengqurlari orasida bir-biriga matonatli bo‘ladi, kattadan-kichik orasida yaxshi ko‘rinadi.

Saxiylik qilmay, elni shod qiladi va bir narsa xadya qilmay kishini g‘amdan ozod qiladi. Odob kichik yoshdagilarni ulug‘lar duosiga sazovor etadi va duo barakati bilan umrbod baxramand

bo'ladi. Odob kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi".

3.Milliy tarbiyaning o'ziga xosligi va mezonlari

Xalqimiz azal-azaldan axloqiy fazilatlarga boy bo'lgan. Otabobolarimiz farzand o'sтирар ekanlar, ularning xulq-atvorlariga, gap-so'zlariga, kishilar oldida o'zlarini qanday tutib, nimalar haqidagi fikrlashib, o'z maqsadlarini qanday so'zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Ular farzandlarining qo'rslik qilishi, kattalar suhbatiga aralashishi, nojo'ya ishlariga zinhor va zinhor yo'l qo'ymanlar. Bu narsalarga farzand tarbiyasining eng muhim tomoni deb qaraganlar. Ammo, ming taassufki, yaqin tariximizda sharqona tarbiya, axloq-odobning ming yillik tajribalardan "estetik sarqiti" deb voz kechdik, o'zligimizni unutayozdik. Axloqsizlik, hayosizlik, ichkililikbozlik, qadimiy merosimizdan nafratlanish asosida ko'rilgan "yangi ahloq" zo'r lab targ'ib qilindi. Bu "ovro'pocha odob"ning samarasini, xalqimiz boshiga solgan kulfatlarini, ma'naviyatimizga yetkazgan zararlarini bugun hammamiz ko'rib turibmiz.

Sharqona odob ming yillar mobaynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borganligi tarixdan ma'lum.

Odamzod dunyoga kelibdiki, mudom mukammal timsol axtaradi, komillikka intilib, ruhiy najot yo'lini qidiradi. Shu orzu-intilish samarasi o'laroq, ma'naviyat bobida beqiyos kashfiyotlar qilingan. Komil inson haqidagi ta'limot insonni yuksak kamolotga yetishini ko'zda tutadi. Komillik bu – insonning Yerda qilgan hamma ishlari ma'naviy e'tiqod bilan sug'orilishidir.

O'zbek xalqi o'z madaniyati va ma'naviyatida komil insonlarni voyaga yetkazishga katta e'tibor bergan. Buning natijasida asarlar davomida aql-zakovatga, qomusiy bilim va qobiliyatga ega bo'lgan Az-Zamaxshariy, Abu Rayhon Beruniy va Al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino va Al-Xorazmiy, Amir Temur va Ulugbek, Alisher Navoiy va Bobur, Ogahiy kabi komil insonlar yetishib chiqli va olamga tanildi. Ular tufayli xalqimiz mag'rur yashadi,

mehnat qiladi, doimo hurriyat va erk sari intildi. Bizga ma'lumki, Abu Ali ibn S'no buyuk qomusiy olim sifatida tibbiyot, riyoziyot (matematika), falakkiyot, fizika, kimyo, biologiya, dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, filologiya, falsafa, axloq va badantarbiya kabi ko'plab fanlarning yetuk bilimdoni bo'lgan. Uning aql-zakovati, yaratgan asarlari O'rta Osiyodagina emas, balki Sharq va G'arbiy Ovro'po mamlakatlarida ham hurmat bilan tilga olinadi. U har tomonlama komillik darajasiga yetgan ulug inson bo'lgan. Abu Ali ibn Sino yigirma to'rt yoshida ilmlarning hammasidan xabardor bo'lib, Buxoroda olimlar bilan bo'lgan baxsda ularni mot qilganligi ma'lum. Bunday muvaffaqiyatga olim kamolotga erishganligi tufayli muvaffaq bo'lgan edi.

Abu Ali ibn Sino o'z hayoti va faoliyati davomida doimo ezgulikka intilgan komil inson bo'lgan. Uning nomi va asarlari hamisha tillardan-tillarga, dillardan-dillarga o'tib yuraveradi.

Inson komilikka intilar ekan, zinhor bu intilishning oxiriga yeta olmaydi. Shu bois, men komilman, kamolotga erishdim, degan odam xato qiladi. Inson o'z faoliyati mobaynida, nuqson va kamchiliklarga ham yo'l qo'yadi. Ammo shu nuqson-u kamchiliklarini tushunib, tuzatib ularni takrorlamaslikka harakat qiladigan kishi barkamol insondir. Bu haqda Alisher Navoiy shunday degan:

Nokis uldirkim, o'zin komil degay,
Komil ukim, nuksin isbot aylagay.

Inson kamolotiga chek-chevara yo'q. Muttasil kamolot sari intilmoq – taraqqiyot boisidir. Kishi umrini baland himmat bilan boyitmog'i shart. Yuksak maqsadlar sari intilmoq, insoniyatga naf yetkazib yashashni hayotning mazmuni deb bilmoq - himmat balandlikdan nishonadir. Alisher Navoiy bu xususda bunday degan:

Birovkim, anga himmat uldi baland,
Erur olam ahli aro arjumand
Ani, anga mufliski yuk himmati,
Chu yuk ximmati, yuk aning hurmati.

O'tmish ma'naviy merosimiz komil inson g'oyasi bilan charog'on. Hazrat Alisher Navoiy dostonlarining har biri komillikning o'ziga xos mezonidir. Darhaqiqat, Navoiy asarlarining har bir

sahifasi, misrasi va xulosasida ana shu mezon zo'r kuch bilan tashviq etila boradi. Chunonchi, buyuk shoirning "Arba'in" asarida quyidagi hikmat, ayniqsa, muhimdir:

El aro yaxshiroq, deding, kimdur,

Eshitib shubha ayla raf andin.

Yaxshiroq bil ana ulus arokim,

Etsa ko'proq ulusga naf andin.

Ya'ni, el orasidagi eng yaxshi odam – ulusga (xalqqa) ko'p foyda yetkazgan kishidir. Inson koinotdagi barcha mavjudotlar ichida hammadan ulug'i hisoblanadi. Uning kamoloti oldida aql hayron qoladi, chunki, inson haqiqat haqida chuqur o'laydi. Kamolot yo'liga chiqish uchun u asta-sekin o'zligini izlaydi, olimni tanlaydi. Alisher Navoiy „kamol et kasbkim“ deya da'vat qilganlarida komillik uchun zarur juda ko'p xususiyatlarni nazarda tutgan. Kishi o'zini xirs-ta'ma, nafs, g'aflat, nodonlik singari mayllardan poklansa, hech payt komil bo'la olmaydi. „Olam uyi“da yashash – uning fuqarosiga aylanishdir. Alisher Navoiy insonning jahon farzandi mavqega ko'tarilishini xohlagan. Xuddi shu mavqeni esa kamolotning oliy cho'qqisi deb bilgan.

Navoiy o'z davrida komil insonlarni „ahli ma'ni“ deb bilgan. „Ahli ma'ni“ bu fikrli odamlardir. Fikrsiz haloyiqning ongida ma'ni chuqurligi bo'lmaydi. Fikrlash – haqiqatni anglashdir. „Ahli ma'ni“ deganda oqil va dono, kamtar va olijanob, haqiqatparvar va fidoiy kishilarni tushunish kerak. Bunday fazilatlarga ega bo'lgan kishilarning tafakkur qilishi keng bo'ladi. Chunki ular aql oddiy so'z va tushunchalardan emas, balki diyonat, adolat, insof, iymon, ishq, dard tuhfalaridan kamol topgan bo'ladi. Inson go'zal xislatlar, yaxshi fazilatlar, nurdek pokiza umid-niyatlar bilan komillikka – kamolotga intilib boradi. Hayotning hamma achchiq-chuchugini, bulardan namuna-yu ibrat olib, yashash va yaratish iqtidoriga erishadi; inson minglarcha yillar mobaynida boshidan kechirgan barcha tajriba-saboqlaridan xulosa chiqarib, munavvar yo'lga chiqqan. Dunyoda insonga tuhfa etilgan aql ne'mati shunday qudratli kuchki, u bilan odam o'zini istagan holatda tarbiya eta oladi, har qanday azob-mashaqqatni, har qanday yomonlikni, eng murakkab muammolarni ham aql ne'mati bilan yengadi va hal

etadi. Ruhiy kamolot odam qalbida ezgulikning yuksak koshonasini yaratadi. Aql-zakovatning kamoli o'qish, o'rganish, tahlil etish, idora qilish, e'tiqod qilish, hayot tajribasini egallash bilan ro'yobga chiqadi. Yosh niholning basavlat daraxtga aylanishi parvarishga bog'liq bo'lganidek, odam bolasining komil inson bo'lib yetishishi uchun uni murg'aklikdan tarbiyalashga e'tibor berib borish lozim.

4. Sharqona tarbiyaning o'ziga xos ko'rsatkichlari

Davlatimiz sobit qadamlar bilan o'z taraqqiyot yo'lidan bormoqda. Bu yo'l -- milliy xususiyatlar, qadriyatlarni tiklash, saqlash, rivojlantirish, milliy g'ururimizni uygotish, vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan maskura negizida kamolotga erishish yo'lidir. Bu esa, o'z navbatida sobiq sho'ro tarbiya nazariyasida o'rganilish mumkin bo'lmagan milliy odob, milliy e'tiqod, iymon-diyonat kabi insonning butun milliy xususiyatiga bevosita bog'liq fazilatlarni yosh avlodning shaxsiy sifatlariga aylantirilishini dolzarb vazifa qilib qo'ydi. Shu tariqa yuqoridaq fazilatlarni shakllantirishni o'z ichiga oluvchi yangi pedagogik yo'nalish dunyoga keldi. Darhaqiqat, milliy tarbiya – O'zbekiston milliy mustaqilligining pedagogik maqsadi va shartidir.

Milliy tarbiya O'zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlash va amalga oshirishga tayyor farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qiladi. Bu maqsadga erishishning o'ziga xos nazariy muammolari bor. Shulardan biri – milliy tarbiya nazariyasining asosiy qoidalari va ilmiy tushunchalari yaratilmaganligidir.

Ikkinci muammo – «O'zbekiston mustaqilligini amalga oshirishga, mustahkamlashga tayyor farzandlar qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak?» degan savolga aniq tajribada asoslangan javoblar olish masalasiadir. Bularning barchasi O'zbekiston mакtablarida milliy istiqlol tarbiyasining mezonlarini ilmiy asoslash zaruratini vujudga keltirmoqda. O'quvchilarini milliy tarbiyalash mezonlari mustaqillik tufayli yanada dolzarb ahamiyat kasb etgan shaxsning milliyligiga bevosita aloqador bo'lgan fazilatlarini singdirish tamoyilidan kelib chiqib belgilanadi.

Milliy tarbiya mezonlarini belgilashda mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy buyurtmasi bo'lmish ijobiy sifatlar: milliy iftixor, vatanparvarlik, millatlararo muloqot madaniyati, milliy odob, vijdoniylik, iymon-e'tiqod, milliy istiqlol mafkuraviy ongini rivojlantirish zarur. Ularning aksi bo'lgan salbiy sifatlar: milliy befarqlik, vatanfurushlik, xoinlik, manqurtlik, millatchilik, mahalliychilik, vijdonsizlik, mafkurasizlik kabilarga nafrat uygotish darkor. Bu ishlarni bir-biri bilan uzviy bog'lab olib borish o'qituvchi-tarbiyachi tomonidan maxsus mezon qilib olinishi kerak. Milliy tarbiya mezonlarini belgilashda o'quvchilarning yosh, aqliy imkoniyatlarini e'tiborga olinadi.

Quyida boshlang'ich sinf o'quvchisining milliy tarbiyalanganlik ko'rsatkichlari va mezonlari qanday bo'lishini taxminiy na'munasini keltiramiz. O'zbekiston – Vatanim mening.

O'zbekistonning tabiiy, ma'naviy, jug'rofiy va milliy xususiyatini anglash; o'lkaning o'tmishini, hozirgi hayot va kelajagi haqida tushunchalarga ega bo'lish; O'zbekistonning, o'zbek xalqining qahramon farzandlari xizmatlarini bilish; O'zbekiston Davlat ramzlarini bilish.

Milliy g'urur asoslari. O'zining o'zbek millatiga mansubligini anglash; "o'zbek xalqi" tushunchasining madaniy mohiyatini tushunish, o'zini o'zi millatining farzandi deb bilib, milliy burchlarini anglash; ona tilini cheksiz sevish, shu tilda to'gri so'zlash va fikrlash.

Milliy odob. Avval salomlashib, keyin so'z boshlash; o'zbek xalqida "yaxshi", "yomon" deb baholanuvchi xulq namunalarini bilish, barchani "siz"lash, o'zidan katta va kichiklarni izzatlash, do'stlik burchlarni bilish; ustozlarini e'zozlash munosabati, uyat so'z, so'kinishga, odobsizlikka salbiy munosabat bildirish.

Vijdoniylik. Biror ishga qo'l urishdan avval "Bu ilmga odamlar nima deyisharkan?" degan mulohaza va andishaga borish, rostgo'ylik, yaxshi xulq va yomon xulqning farqlarini tushinish, yaxshi xulqqa ijobiy, yomon xulqqa salbiy munosabatini bildirish, ko'nglidagi gapni ochiq aytishga o'rganish.

Shu tushunchalar mohiyati ochib berilishi lozim.

Nazorat uchun va savol topshiriqlar

1. Ma'naviyat deb nimaga aytildi?
2. Madaniyatga izoh bering.
3. Milliy tarbiya deb nimaga aytildi?
4. Sharqona tarbiya deganda nimani tushunasiz?.

Qur'oni karim, Hadis, Sharq allomalari asarlarida komillikka erishishning muhim vositasi qanday ifodalangan?

XI BOB. TARBIYA USULLARI

1.Tarbiya usullari haqida umumiy tushuncha

Tarbiya metodlari (usullari) – o‘qituvchi - tarbiyachining o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish usullari, ularga ijobjiy xulq-atvor ko‘nikmalari va malakalarini singdirish maqsadida ularning hayoti va faoliyatini tarbiyaviy jihatdan to‘g‘ri ta’sir etish yo’llaridir.

Tarbiya usuli deb tarbiyachining bolalarga axloq-odob fazilatarini tarkib topishi maqsadida ularning ongi va irodasiga ta’sir etish yo’llariga aytildi. Ilmiy adabiyotlarda tarbiya usullarini tarbiya metodlari deb ham ishlatiladi.

“Metod” - grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, “yo‘l”, “usul” ma’nosini bildiradi.

O‘tmishdan bizga ma’lumki, ota-bobolarimiz bola tarbiyasida turli xil ya’ni, nasihat, tushuntirish, maqtash, rag‘batlantirish, na’muna ko‘rsatish, tanbeh berish, taqiqlash, majbur qilish, po‘pisa qilish, qo‘rqitish kabi usullardan foydalanganlar. Jamoa azolari bu usullarni qo‘llashda, axloq qoidalariga suyangan holda, qilgan ishi, xatti-harakatining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riliqi haqida bolada ishonch hosil qilishga harakat qilganlar, unga axloqlilik va axloqsizlik, odillik vaadolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning ma’nosini tushuntirganlar. Bu tartib tarbiyada asosiy qoida hisoblangan. Tushuntirishda bolalarning yoshi hisobga olingan.

Ota-onalar bolalarga axloq qoidalarini tushuntirishda, “Kamtarlik ham bir xislat”, “Odob-kishining zeb-u ziynati”, “Eshik ochiq bo‘lsa ham so‘rab kir” kabi maqollaridan foydalamishgan. Chunki maqollar bolalar ongiga, hissiyotiga kuchli ta’sir etgan.

Ajdodlarimiz davr sinovidan o‘tgan ajoyib insoniy fazilatlar hamda ularni amalga oshirish usul va vositalarini yaratganlar, shu asosda yoshlarmi ijtimoiy hayat talablariga javob beradigan kishilar qilib tarbiyalab kelganlar.

Bolalarda insoniy his-tuyg'ularni tarbiyalashning asosi - kishilarga mehr-muhabbat qo'yish, izzat-hurmat bilan muomala qilish, insoniy huquqlarini himoya qilish, qadrlash, kishilar oldidagi o'z burchini anglash, odamlarga nisbatan samimiy, halol, rostgo'y bo'lish kabi odob va axloq qoidalarini o'z ichiga oladi.

O'tmishda axloq tarbiyasida nasihat qilish, maslahat berish usuli ham keng qo'llangan. Ota-onalar o'z bolalariga kattalar o'rtasida ular bilan so'zlashganda mehmonga borilganda, o'zini qanday tutish haqida nasihat qilganlar, axloq qoidalariga rioya etgan bolalar va kattalar nomini o'rnat qilib tilga olganlar. O'zbek xalq pedagogikasining muhim ahamiyatga ega bo'lgan xusiyatlaridan yana biri folklor materiallarida xalq pegogikasida qo'llaniladigan tarbiya yo'llari, usuli va vositalarining yoritilishidir.

Mehnatkash xalq ommasi, yuqorida qayd qilib o'tilganidek, uzoq davrlar davomida vujudga kelgan tarbiya usullari va vositalaridan foydalangan. Chunonchi, tushuntirish, odatlantirish (o'rgatish va mashq qildirish), bolalarning kundalik hayot tartibi, ibrat ko'rsatish, maslahat berish, o'git-nasihat, undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istik bildirish, ma'qullah, maqtash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash, taqiq qilish, man etish, ta'na, gina qilish, qoralash.

Allohdan qo'rqishga undash, tanbeh berish, uzr so'rash, majbur qilish, masxara-mazax qilish, zaharxandalik, ayplash, uylaltirish, koyish, qarg'ash, qo'rqtish, nafrat bildirish, aybiga iqror qildirish, ont-qasam ichirish, la'natlash, so'kish, urish-kaltaklash; jamoa hukmiga havola qilish kabi usullar tarbiyada qo'l kelganligi ta'kidlanadi.

Bolalarni odob-axloq ruhida tarbiyalashda, asosan, quyidagi metodlardan foydalilaniladi:

I. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari.


II. Ibrat-na'muna metodlari.

III. Rag'batlantirish va jazolash.

I. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari.

O'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va ishonch-e'tiqodni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'ulari va irodasiga

har tomonlama ta'sir ko'rsatishqa quyidagi metodlardan keng foydalilaniladi:



Tushuntirish. Tushuntirish tarbiya ishlari jarayonida juda ko‘p qo‘llaniladi. Bolalarga biror fazilatning afzalligi va kishi uchun zarurligi qisqa, aniq qilib tushuntirib beriladi.

Uqtirish. Uqtirish biror axloqiy fazilatni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish va ular tomonidan uqib olinishini ta‘minlashga asoslanadi. Shuning uchun o‘qituvchilar va tarbiyachilar o‘quvchilarni tarbiyalaganda va ularga axloqiy fazilatlarni tushuntirganda uning afzalliklarini va zarur ekanini ko‘rsatuvchi dalillar keltirishi, isbotlashi, ishontirishi lozim. “O‘qigandan uqqan yaxshi” degan xalq maqoli bor. Uqib olingan axloqiy fazilat bolada mahkam singib qoladi.

Ishontirish. Ishontirish deb, bolalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash va mustahkamlash, xarakter va xulqlaridagi salbiy tomonlarni yo‘qotish maqsadida ularning ongi, tuyg‘usi va irodasiga ta’sir ko‘rsatishga aytildi.

Ishontirish metodi o‘quvchilarni g‘oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyalashda va ularning xarakterini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi ishontirish metodini bиргина o‘quvchigagina emas, balki butun jamoaga ham qo‘llashi mumkin.

Ishontirish metodi o‘quvchilar jamoasida sog‘lom jamoatchilik fikrini vujudga keltirishga yordam beradi, axloq normalalariga, axloq

qonun-qoidalariga va ayrim o'quvchilarning xatti-harakatlariga sinfdoshlari tomonidan to'g'ri bera bilishni tarbiyalaydi.

O'git-nasihat. O'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda tajribada sinalgan va xalqimiz tomonidan doim qo'llanib kelingan o'git-nasihatdan ham foydalanmoq kerak.

O'qituvchi, tarbiyachi va kattalarning yoshlarga o'z tajribalari, ko'rgan-bilganlari va o'qiganlarini dalillar, konkret misollar bilan ishonarli qilib aytib berishlari, yaxshi fe'l-atvorga, odobga va axloq qonun-qoidalarini bajarishga da'vat etish, yo'l-yo'riq ko'rsatishga o'git-nasihat deyiladi.

Nasihat qilmoq yoshlarni yaxshilik tomon yo'llamoq, yaxshi fazilatlarni egallashda ularga yo'l-yo'riq ko'rsatmoq demakdir. O'qituvchilar ham, tarbiyachilar ham, ota-onalar ham hamma vaqt bu metodni qo'llaydilar.

O'git-nasihat o'quvchilarga yakka holda va guruh-guruh qilib berilishi mumkin.

Maslahat berish. Maslahat – biror hodisa ro'y berganida, ishda, xatti-harakatda, xulq-atvorda qanday qilsa yaxshi bo'lishi haqida fikr berish demakdir. Har bir kishi, ayniqsa bolalar bir ishni boshlashdan avval bu ish haqida kattalarning, ayniqsa o'qituvchining fikrini bilishni istaydi. Yoki biror ishda, harakatda qiyinchilik tutilib qolsa, shu qiyinchilikni yengish yo'lini topish maqsadida o'qituvchidan, kattalardan maslahat so'raydi. Bunday maslahat olish o'quvchi hayotida tez-tez uchrab turadi. Shuning uchun tarbiyachilar bolalardagi bu xususiyatdan tarbiya maqsadida mohirlik bilan foydalanishlari kerak. Shuni ham aytish kerakki, bolalarning hammasi ham biror ish qilganda yoki biror ishni boshlashdan oldin hamma vaqt ham maslahat olishga jur'at etmaydi. Bunday vaqtarda o'qituvchi yoki tarbiyachi bolalarni maslahat olishga rag'batlantirmog'i kerak. Maslahatni ham o'quvchilarning mustaqil bo'lishlariga yordam beradigan qilib berish kerak.

Iltimos va istak. Iltimos, o'tinch, so'rov bilan bolalarga murojaat etish, ularga va ular kuchiga bo'lgan ishonchni ifodalaydi. Shuning uchun ham sinfga yoki ayrim bolaga biror ishda yordam berishlarini iltimos qilinganda ularga ma'qul tushadi, ularning faolligini safarbar qiladi va buni bolalar bajonudil bajaradilar. Iltimos bolalarning

kuchiga ishonish va hurmat etishga asoslanadi. Iltimos yoki so'rash xushmuomalalik va nazokat bilan amalga oshiriladi.

Buyruq va talab. Buyruq – qat'iy amr-farmon shaklida ifodalangan talabdir.

Tarbiya jarayonida bolalar oldiga davlatimiz hamda ota-onalar tomonidan qo'yilgan muayyan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishmoq uchun talab etish va buyruq berish kabi vositalardan ham foydalaniladi. Bolalardan talab qilinadigan talablar hamda ularga beriladigan amr-farmon va buyruqlar aniq, ravshan, tushunarli, muayyan ham qat'iy bo'lishi kerak.

Har bir buyruq yoki talabning maqsadi bolalarga tushunarli bo'lsin. Bolalar bu buyruq yoki talabni nima uchun bajarishlari zarurligini yaxshi anglashlari lozim. Shu bilan birga, ular yaxshi va puxta o'ylab berilishi lozim. O'quvchilar oldiga qo'yilgan buyruq va talabning albatta bajarilishiga erishish kerak. Agarda qo'yilgan talablar va beriladigan buyruqlar qat'iy bo'lmasa, o'quvchilarning bajarish imkoniyati susayadi. Bunday buyruqlar bajarilmay qoladi. Shuning uchun buyruq va talab qat'iy bo'lsin. Maktab va oilada bolaga beriladgan har bir buyruq yoki talab bolaning yoshi, imkoniyati, kuchiga qarab berilishi hamda shu buyruq va talablar o'quvchining tarbiyasiga yordam berishi kerak. Buyruq yoki talabning bolalarga tushuntirib berilishi va bolalar tomonidan puxta anglab olinishiga erishish lozim.

Beriladigan buyruq va qo'yilgan talabning albatta bajarilishiga erishish kerak; buyruq asossiz bo'lganda yoki buyruqni bajaruv-chining uzrli sabablari bo'lgan taqdirda bekor qilinishi mumkin.

Axloqiy suhbatlar. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashda suhbatlar, ma'ruza va munozaralar o'tkazish keng qo'llanib kelmoqda. Ishontirish va tushuntirishning eng yaxshi vositalaridan biri bo'lgan axloqiy suhbat yolg'iz maktabdagina emas, balki oilada ham, maktabda ham olib boriladi.

Suhbatni etik, estetik, siyosiy ta'lim va bilishga oid mavzularda, ijtimoiy-foyDALI mehnatni tashkil etish, huquqiy, ekologik, iqtisodiy shuningdek, gigiyenik mavzularda tashkil etish mumkin.


Ibn Sino suhbat uslubini qo'llaganda bolaning shaxsini hurmat qilish lozimligi xususida shunday yozadi: "bolaga zug'um

qilib, unga hurmatsizlarcha munosabatda bo‘lmaslik, aksincha, tengdosh o‘rtoqlarday gaplashish lozim”. Suhbat mobaynida bir qator talablarga rioya etish har ikki tomon uchun ham foydalidir. Bu qoidalar quyidagilardir:

1. Suhbat chog‘ida o‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlariga sharoit yaratish;
2. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashlariga imkon beruvchi savollar bilan murojaat qilish;
3. Suhbatdoshning shaxs sifatidagi huquq va erkinliklarini tan olish.
4. Suhbat mavzusi o‘quvchining yoshiga mos bo‘lishi;
5. Suhbat adabiy tilda o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

II. Ibrat-na’munा metodlari. Na’munा yoki ibrat bolalardagi taqlidchanlikka asoslanadi. Taqlid boshqalarning xulq-atvorini, yurish-turishini ongli yoki ixtiyorsiz ravishda takrorlash demakdir. O‘qituvchilar, tarbiyachilar va ota-onalarning o‘zлari, hammadan burun, bolaga na’munा bo‘lmoqlari, o‘zлarida eng yaxshi fazilatlarni aks ettirmoqlari kerak, o‘quvchilar o‘z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko‘rishlari va ulardan ijobjiy na’munा olishlari nihoyatda muhimdir. Shu bilan birga, o‘quvchilar ibrat uchun na’munalarni ilg‘or kishilarning hayoti va faoliyatidan, fan, adabiyot va san’at arboblari hayoti va faoliyalidan, xalq og‘zaki ijodi, bolalar adabiyoti, maktab, sinf hayoti, ota-onalar faoliyatidan olmoqlari kerak.

O‘quvchilar quyidagilardan na’munा oladilar:



Na'munadan xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Ota-bobolarimiz o'z farzandlarini hamisha yaxshilardan, donolardan, ulug' kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar.

Bolalar faqat yaxshi hislatlarga emas, ba'zan yomon sifatlarga ham taqlid qiladilar. Shuning uchun kattalar har qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Xalqimiz "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deb bejiz aytmagan.

III. Rag'batlantirish va jazolash. Bola o'z xatti-harakati, qiling'iga boshqalarning baho berishlariga muhtojdir. Shuning uchun ham bolalar biror harakat yoki qiliq qilsalar, darhol atrofdagi kishilarga qaraydilar.


Bu bilan ular «mening qilig'im sizlarga ma'qulmi yoki ma'qul emasmi» demoqchi bo'ladilar. Boshqalar tomonidan uning harakatiga berilgan ijobjiy baho unga yoqimli bo'ladi, kayfiyatini yaxshilaydi, quvontiradi, salbiy baho esa uni xafa qiladi va tashvishga soladi. Bolalar hayotida va kamolotida ularni qurshab olgan va tevarak-atrofdagi kishilar hamda jamoatchilikning ularning xatti-harakati va xulqiga bergen bahosi g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Har bir bola o'sgan va kamol topgan sari har qadamida ota-onaning va tevarak-atrofdagi odamlarning maqtovi, ma'qullashiga sazovor bo'lishga, tanbeh eshitmaslikka intiladi. Rag'batlantirish va jazolash dastavval bolalarning xarakteri va xulqida ijobjiy hislatlar tarbiyalashga yordam beradi, ularning xatti-harakati va xulqini to'g'ri yo'lga solib yuboradi hamda paydo bo'lgan ijobjiy fazilatlarni mustahkamlashga da'vat etadi.

Rag'batlantirish va jazoni mohirlik bilan qo'llash orqali bolalarni tarbiyalashda g'oyat katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

Shuni ham aytish kerakki, har qanday ma'qullah ham, qoralash ham o'quvchilarga ijobjiy ta'sir ko'rsatavermaydi, balki aksincha salbiy natija berishi mumkin.

O'quvchilarni tarbiyalashda maktab tajribasida rag'batlantirishning quyidagi turlari qo'llaniladi.



Ma'qullash. Rag'batlantirishning eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri o'quvchining muvaffaqiyati va yaxshi xulq-atvorini ma'qullashdir. O'qituvchi bolaning xulqini ma'qullaganda bu xulq va xarakterni yanada takomillash yo'llarini ko'rsatib bermog'i kerak.

Bosh qimirlatish, tabassum, yuz va qo'l harakatlari, "balli", "barakalla" kabi so'z va imo-ishoralar bilan bolalar xatti-harakati ma'ullanadi.

Ko'ngil ko'tarish, dalda berish. Ba'zan o'qish va intizomda yaxshi natijalarga erishmagan va bunga intilayotgan, harakat qilayotgan bolalarning ko'nglini ko'tarish katta ahamiyatga egadir. Ko'ngil ko'tarish bolalarga kuch bag'ishlaydi va ularda optimizmni o'stiradi va ularning kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shadi.

Ishonch bildirish, ishonish. Bolalar, ayniqsa boshlang'ich maktab o'quvchilarini o'z o'qituvchilarini pok qalb bilan samimiy sevadilar va ularga qattiq ishonadilar. Shuning uchun ham kichik yoshdagи bolalar oldida o'qituvchining hurmati va obro'si g'oyat kattadir. O'z navbatida, o'quvchi o'qituvchidan o'ziga ishonishni talab etadi. O'quvchiga ishonish, ishonch bildirish unga katta mukofotdir. Bolalardagi bunday holatni o'qituvchidan o'ziga yaxshi bilishi va ularga ishonch bilan qaramog'i lozim.

Qayd etish. Bolalar xulq-atvorning yaxshilanib borayotganini qayd etish, ayniqsa bolalar jamoasi oldida (sinfda, maktab o'quvchilarini o'rta-sida, ota-onalar oldida) qayd qilish, ruhini

ko'tarish o'quvchini tetiklantiradi va uni yaxshi intizomga yo'llaydi.

Shuning bilan birga biror bola haqida devoriy gazetaga yozish, maktab radiosи orqali so'zlash, ota-onalarga xat yozish orqali bolalar xulqining yaxshilana borayotganligini qayd etish bolalarda intizomlilikni o'stirishga yordam beradi.

Maqtash. O'quvchini biror yaxshi ishi va odobliligi uchun sinfda bolalar oldida, umum o'quvchilar majlisida, devoriy gazetada, ota-onalarga xat yozish va shu kabi yo'llar bilan maqtash katta ijobiy natija beradi.

Mukofotlash. Maktabdagи eng oliv mukofot boshlang'ich mактабни bitirganda, sinfdan-sinfga o'tganda maqtov qog'ozi berish va o'rta maktabni bitirganda hamma fanlardan a'lo o'qigani va namunali xulqi uchun imtiyozli attestat berishdir. Rag'batlantirish yolg'iz ayrim o'quvchilargagina emas, balki butun bir sinf jamoasiga ham qo'llanadi.

Pedagogikada bolalarni rag'batlantirish bilan bir qatorda jazo choralarini ham qo'llaniladi.

Jazo. Jazo – bolalarning o'z xulqi va harakatidagi nojo'yalik hamda kamchiliklarni anglashiga, tugatishiga, yaramas harakatlardan, sho'xliklardan o'zlarini tiyishiga yordam beradi. Maktab yoshidagi kichik bolaning xatti-harakatidagi yomon tomonlarni o'z vaqtida qoralash va ta'qiqlash, bolani ikkinchi marotaba shu nojo'ya harakatlarni qilmaslikka, o'z xulq-atvorini tuzatishga yo'llaydi. Lekin bo'lar-bo'lmasga jazolayverish ham zararlidir.

Bolalarga nisbatan jazo choralarini qo'llashda quyidagi pedagogik talablariga amal qilish kerak:

- jazoning haqqoniyligi
- jazo aybdorni tarbiyalashi
- aybdor nima uchun jazo olayotganini bilishi lozim

Asosan quyidagi jazo choralarini qo'llanishi mumkin: o'qituvchining, sinf rahbarining, direktorning o'quv yoki ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yich o'rinnbosarining tanbehi; parta, sinf doskasi yoki o'qituvchi stoli yonida tikka turg'azib qo'yish; sinf o'quvchilari oldida ogohlantirish berish, darsdan chiqarib yuborish; bajarilmay qolgan sinf yoki uy vazifasini bajarish uchun darsdan

keyin olib qolish; ta'sir ko'rsatish uchun pedagoglar kengashiga chaqirish; direktorning maktab bo'yicha beradigan buyrug'i bilan ogohlantirish e'lon etish; xulqiga qo'yilgan bahoni pasaytirish; sanab o'tilgan jazo choralarini qo'llanganda o'qituvchi har bir bolaning shaxsiy va yosh xususiyatlarini, sinfning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmog'i kerak.

Po'pisa. Po'pisa – man etilgan va be'mani xatti-harakatlarni to'xtatishga va oldini olishga yordam beradi. «Abbos, so'kishni tashlamasang, sinfga kirgizmayman» yoki «Vali, kelgusi darsga yozib kelmasang, shu yerda olib qolib yozdiraman». Mana bunday po'pisa kichik bolalar uchun mos hamda ishonarli bo'ladi. Shuni ham aytish kerakki, po'pisa qilgan bilan aytganini qildirolmagan o'qituvchining obro'si tushib ketadi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarga oqilona, onda-sonda po'pisa qilishi va har bir buyurilgan ishning qat'iyat bilan amalga oshirilishiga erishishi kerak.

Koyish. Koyish – bema'ni qiliqlarning yaramasligini aytish va ogohlantirish shakllaridan biridir. Bolalarning salbiy harakatlari, qiliqlari va tartibni buzganliklari uchun ularni koyib qo'yish zarur. Koyish o'git-nasihat bilan birga qo'shilgan holda qo'llanadi. Ya'ni bolaga qilgan gunohining yaramas ekanligi, bu gunohning oqibati xayrli emasligi yotig'i bilan tushuntiriladi va uni tuzatish yo'llari ko'rsatiladi va yana qaytarmasligi uqtiriladi.

Bolalarni koyiganda ularni to'g'ri yo'lga solib yuborish ko'zda tutiladi. Shuning uchun har bir qilingan aybning o'z darajasiga qarab bolaga shu aybning yaramasligi tushuntiriladi. Koyish paytida nihoyatda osoyishta hamda muloyimlik bilan gapirilishi lozim.

Uylatirish, qizartirish. Odamning eng nozik his-sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-hayo hissidir. Odam o'z: «shaxsi»ning boshqa odamlar ko'z oldida qadrsizlanishini, ya'ni belgilangan qoidalarni buzganini yoki bilishi kerak bo'lganini bilmay qolganini anglagan taqdirda qizaradi, uyaladi.

Bolalarni tarbiyalashda ularning uyat, sharm-hayo hissiga ehtiyyotlik bilan ta'sir etish kerak. Bolaning uyalishi va qizarishi uni shu ayb-xatoni qaytarmaslikka olib kelishi, u tavba qilishi mumkin. Lekin uyalish-qizarish natijasi hamma vaqt ham bolani tavba

qilishga olib bormaydi. Bola boshqalar oldida sharmanda bo‘lish, qizarishni istamagani uchun noto‘g‘ri xatti-harakatlarni yashirinchal qilishga intiladi. Mana bunday holda uyat ikki yuzlamalik, munofiqlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham bolalarni hadeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o‘z o‘rnida foydalanishgina ijobiyl natija beradi. Bolalarni yolg‘iz ekanida yoki kamroq bolalar o‘rtasida uyaltirish kerak. Yuqorida aytib o‘tilgan metodlardan tashqari kun tartibi, odatlantirish va o‘yin hamda sport vositalaridan foydalaniladi.

Odatlantirishda, asosan o‘rgatish, mashq qildirish va biror yomon odattdan qaytarib olish shakllaridan foydalaniladi.

2.O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash va taffakurni shakllantirish

Yosh avlodda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamma davrlarda millatning ilg‘or kishilari diqqat markazida bo‘lib kelgan. Insoniyat boshidan kechirgan barcha tuzumlarda davning o‘qimishli, ziyoli, bilimdon kishilari dunyo ilm faniga umuminsoniy madaniyatiga salmoqli xissalarini qo‘shganlar. Bilim ilmiy dunyoqarashning asosi bo‘lib hisoblanadi. Bilim olish, albatta, yoshlikdan boshlanadi. “Yoshlikda olingan ilm toshga o‘yilgan naqshdir”, - deydi dono xalqimiz. Bilimli kishi hech qachon tarix sahifalaridan, xalqimizning qalbidan o‘chmaydi.

Dunyoqarash faqat insongagina xos xususiyat bo‘lib, hayvonot dunyosi boshqa narsa, buyumlar va mavjudotlar uchun bu hayotdir. Ularda dunyoqarash kishilarning olam va uning o‘zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik diniy, qarashlari va tasavvurlari tizimidan iborat. Demak, dunyoqarash bu olam haqidagi yaxlit umumiylashtirilgan bilimlar to‘plamidir. Kishilar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to‘g‘risida qancha ko‘p ma’lumotlarga, bilimga ega bo‘lsa, ularning dunyoqarashi ham shu darajada mukammal va puxta bo‘ladi. Avvalo ta’kidlash lozimki ilmiy dunyoqarash turlichcha bo‘ladi. Turli kasb egalari turli xil dunyoqarashga ega bo‘ladi.

Dunyoqarash deb, shaxsning tabiatga, jamiyatga, o‘zining ijtimoiy muhitdagi o‘rniga, o‘z-o‘ziga, turli voqeliklarga munosabatini belgilab beradigan qarashlari, e’tiqodi, hayotiy tajribasi va faoliyat tamoyillarining tizimidir.

Dunyoqarash kishilarda olam haqida yaxlit umumlashtirilgan bilimlar, g‘oyalalar turkumini hosil qiladigan, ularni muayyan ijtimoiy guruhi, sinflar, ommaviy harakatlar, davlatlar maqsadi dan kelib chiqib baholaydigan va shunga qarab hayotdagi o‘z-o‘zini, amaliy faoliyat yo‘nalishlarini, maqsadlarini aniqlab olishga imkoniyat beradigan ko‘p qirrali va sermazmun tushunchadir.

Dunyoqarashning ikkita darajasi mavjuddir.

birinchisi, kishilarning kundalik hayotiy amaliy tajribasi hamda kasbiy faoliyati asosida to‘plangan bilimlar, tasavvurlar, qarashlar tashkil qilsa,

ikkinchisini ilm-fan tufayli to‘plangan nazariy bilimlar, g‘oyalalar yig‘indisi tashkil etadi. Ularning ikkalasi bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi.

Dunyoqarash ijtimoiy borliqning inikosidir. Unda ijtimoiy turmush aks etadi ya u ijtimoiy tuzumga bog‘liq bo‘ladi.

Dunyoqarashning doimo o‘zgarib, rivojlanib turishi uning tarixiy turlarining almashuvida yaqqol namoyon bo‘ladi. Dunyoqarash quyidagi turlarga ajratiladi:

- 1) mifologik dunyoqarash;
- 2) diniy dunyoqarash;
- 3) falsafiy dunyoqarash;
- 4) ijtimoiy-siyosiy dunyoqarash;
- 5) estetik dunyoqarash;
- 6) ilmiy dunyoqarash;
- 7) hayotiy tajriba.

Mifologik dunyoqarash – ibtidoiy jamoa tuzumida borliqni obrazli qabul qilish asosida shakllangan tasavvurlar majmuasini ifodalovchi dunyoqarash. “Mifologiya” tushunchasining o‘zi (yunonchadan “mythos” – afsona, rivoyat, “logos” – fan, ta’limot) “biror xalqqa tegishli afsonalar” ma’nosini anglatadi.

Diniy dunyoqarash mifologiya (afsona) negizida shakllangan va rivojlangan, voqelikning kelib chiqishi, rivojlanishi, istiqbolini hayoliy obrazlar, tasavvurlar va tushunchalarda aks ettiruvchi

dunyoqarashdir. Diniy dunyoqarashning xalq ongiga singib, qalbida chuqur ildiz otib ketishining boisi shundan iboratki, ular oddiy kishilarning ruhiyatiga moslab, ularning hissiyoti, tafakkuriga ta'sir etadigan va ko'p vaqtgacha esda saqlanib qoladigan yorqin obrazlar, afsona va rivoyatlar shaklida izhor qilinishidadir.

Falsafiy – tabiiy va ijtimoiy borliqni nazariy qabul qilishga, shaxsning borliqqa nisbatan falsafiy munosabatiga asoslangan dunyoqarash. “Falsafa” tushunchasining o‘zi (qadimgi grek tilidan tarjima qilinganda “fal” – muhabbat, intilish, ishtiyoq, “sofa” – donishmandlik, so‘zma-so‘z tarjima qilinganda esa “falsofa”) “donishmandlikka intilaman” ma’nosini anglatadi. Mifologik va diniy dunyoqarash hissiy a’zolarimiz orqali erishilgan ma’lumotlar asosida shakllansa, falsafiy dunyoqarash hissiy va aqliy a’zolarimiz tufayli ilm-fan yordamida to‘plagan bilimlar yig‘indisidir. Falsafiy dunyoqarash kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishining umumiy qonuniyatlari haqida ma’lumot beradi. Shu bilan birga u insonni qurshab turgan olamni, dunyoni va uning taraqqiyot qonunlarini bilish mumkinligini, bilish esa murakkab, ziddiyatli jarayondan iboratligini tasdiqlaydi.

Ijtimoiy-siyosiy dunyoqarash kishilarning obyektiv mavjud bo‘lgan siyosiy hayotga nisbatan siyosiy qarashlari, siyosiy faoliyatga nisbatan munosabatlarining umumlashtirilgan tizimi ijtimoiy-siyosiy dunyoqarash deb ataladi.

Estetik dunyoqarash tabiiy va ijtimoiy borliqqa estetik qadriyatlar – go‘zallik, xunuklik, kulgili, fojiaviy va boshqalar asosida yondashishga asoslananadi.

Ilmiy dunyoqarash – bu ilmiy metodlar yordamida ko‘p bor tekshirish, umumiy holda insoniyat tajribasi bilan tasdiqlanish qonunlariga tayanuvchi dunyoqarash.

Ilmiy qarash (yunoncha “idea” – g‘oya, tasavvur, tushunchalar yig‘indisi) muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g‘oya bo‘lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o‘zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. Ilmiy qarash ilmiy dunyoqarashdan farqlanib, uning shakllanishi uchun asos vazifasini o‘taydi.

Hayotiy tajriba – har bir shaxs tomonidan uning umri davomida orttirgan bilimlar, malakalar, o‘quvlar majmui.

Hozirgi kunda kishilarning ongi dunyoqarashida yangicha fikrlash yo‘sini mustahkamlanmasa, milliy istiqlol g‘oyasi, mazmuni va mohiyati ularga tushuntirilmasa katta o‘zgarish sodir bo‘imasligi mumkin. Hozirgi muhim dolzarb masalalardan biri kishilarning eskicha dunyoqarashini o‘zgartirish, iqtisodiy, siyosiy, madaniy jabhalarda fikrlashni o‘rgatish, mustaqillikni mustahkamlashda o‘z haq-huquqlarini anglab olish va noo‘xshov holatlarning hayotga kirib qolmasligiga qarshi kurashishga undashdan iborat. Milliy ong va mafkurani shakllantirish hozirgi kun talabi ekan, bu tushunchalar mohiyatini ham chuqur bilishimiz zarur.

Milliy ong va mafkura. Ongni arabcha “aql” so‘zidan olingan, deb ta’kidlaydi bir qator olimlar. Lekin ong va aql iboralari o‘rtasida farqlar ham bor.

Odamning fikrlash qobiliyati nazarda tutilganda, ong va aql atamalari bildirgan ma’nolar bir-biriga mos keladi, ong ham, aql ham odam miyasining mahsulidir. “Odam onglaydi (anglaydi), aql yuritadi, fikrlaydi. Ong, shuningdek, kishining ruhiy, ruhoniy, siyosiy, falsafiy nuqtayi nazarlari, diniy, badiiy qarashlarining ham majmuyi hisoblanadi”.

Milliy ong - bevosita har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e’tiqodlari, madaniyati, boshqa xalqlarning o‘zaro ta’siri tufayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy va madaniy-ma’naviy sohalarda faollik darajasi.

“Milliy ong - O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning samarali omillaridan biridir”. Milliy ongni davr talabi darajasiga ko‘tarish uchun davlatimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda taolim-tarbiya muassasalarining roli ayniqsa muhimdir.

Mafkura (arabcha “mafcura” - nuqtayi nazarlar va e’tiqodlar tizimi, majmuyi) - jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g‘oyalar majmui.

Mafkura ijtimoiy borliqning, ya’ni keng ma’noda jamiyat ha-yotining ma’naviy-siyosiy inikosidir, uning inson ongida aks etishi, inson tomonidan anglanib, bir butun tizim holiga keltirilishi va bu

**tizimning amaliy taoliyatda nazaryi asos namua rumy tayanch
bo'lib xizmat qilishidir.**

Ongimiz va dunyoqarashimizda milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishimiz kerak ekan, dastlab bu mafkuraning mohiyatini chuqur anglab olishimiz kerak.

3. Shaxsning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda allomalarimizning fikrlari

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzlusiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rinn tutadi.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi. Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o'rinn tutadi.

Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga aqliy tarbiyani berishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 1997 yilda

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O'zlekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mazmunida ham yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligiga urg'u beriladi. Yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadr bo'lib yetishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallah demakdir. Binobarin, chuqur bilimlarga ega bo'lish tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglash, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'ra va baholay olishga imkon beradi.

Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

1. Tarbiyanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.
2. Ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.
3. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.
4. Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg'usini shakllantirish.
5. Bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, hotira, tafakkur, ijodiy hayol) va xususiyatlari (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.

Aqliy ta'lif va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqeа-hodisalarining ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Manbalarning ko'rsatishcha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo'lib, quyidagi belgilarga ko'ra aniqlanishi mumkin:

1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.
2. Mavjud ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olish jarayoni.

3. Fikrlash ko‘nikmasiga egalik.
4. Bilimlarni egallahsga bo‘lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e’tiqod o‘ziga hos o‘rin tutadi.

Aqliy tarbiyani sarnarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurning yuzaga kelishini ta’minlaydi. Ilmiy tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqeа-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi.

E’tiqod dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy-falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy-axloqiy, estetik hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko‘rinishi; muayyan g‘oyaga cheksiz ishonch bo‘lib, uning shakllanishi bir necha bosqichda kechadi. Birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko‘ra o‘zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi. Ikkinci bosqichda ma’naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatlari vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko‘rish taqozo etiladi. Uchinchi bosqichda e’tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma’naviy-axloqiy tamoyil bo‘lib qoladi. O‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo‘llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e’tiqodga aylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida yoshlarning bilimli, yuksak tafakkur egasi bo‘lish borasidagi qarashlar muhim o‘rin egallagan bo‘lib, ularning intellektual salohiyatini jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi omil ekanligiga alohida urg‘u beriladi. Chunonchi, “... ilmu ma’rifat insomni yuksaklikka ko‘taradi. XXI asrda, men ishonaman, madaniyat uchun, ilmu ma’rifat uchun jonini beradigan va buni hayotining asosiy maqsadi qilib qo‘yadigan yangi avlod paydo bo‘ladi. Biz ana shu avlod uchun yashayapmiz. Biz ana shu oljanob maqsadlarni odamlar ongiga singdirish uchun harakat qilayapmiz. Biz kutayotgan avlod mana shu boylikni dunyodagi eng katta

boylik deb bilsa, hayotini shunga bahshida etsa, bilingki, odamzod yorug‘ kunlarga erishishi muqarrar”.

Sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o‘rin bergan. Xususan, Abu Nasr Forobiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug‘ilganda mavjud bo‘lgan bo‘lsa, aqliy bilimi, ma’naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urfodatlari, ma’lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta’sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Abu Nasr Forobiyning e’tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o‘zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: “Inson narsa va hodisalarining faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarini taqqoslaysi. bir-biri bilan solishtirib ko‘radi, o‘z bilimlarining chinligini aniqlaydi”. Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: “Ilmlar ko‘pdir. Ular zamoni iqbolli bo‘lib, turli fikr va xotiralar ularga qo‘silib borsa, ko‘payadi. Odamlarning ilmlarga rag‘bat qilishi, ilmlarni va ilm ahilarini hurmatlashi o‘sha iqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi.

Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o‘zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: “Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o‘rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytildi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo‘ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo‘ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo‘lsayu, isbotlar chinakamiga bo‘lsa, u holda bunga hikmat – donishmanlik deyildi”.

Yusuf Hos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga boshlovchi bilim”) asari ta’bir joiz bo‘lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta’minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to‘g‘risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo‘lish ezgu ishlar tantanasini ta’milovchi garov bo‘lib, uning yordamida hatto osmon sari yo‘l ochiladi:

Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidur,
Bilim tufayli, go‘yo ko‘kka yo‘l topiladi.

Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to‘qqiz-o‘n asr vaqt o‘tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabit etishga muvaffaq bo‘ldi.

Bahovuddin Naqshbandiy tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm-ma‘rifatni rivojlantirishga yo‘naltirish yetakchi o‘rin tutadi. Binobarin, ilm-ma‘rifat zulm va bid‘atdan forig‘ bo‘lish yo‘lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan “Hilvat dar anjuman”, “Safar dar vatan” g‘oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o‘zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Zero, bahs-munozaralarda, doimiy izlanishlarda hosil bo‘lgan ilm puxta va mustahkam bo‘ladi.

Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzuksiz o‘zlashtirish zarurligini uqtiradi. Shuningdek, ilm o‘rganish mashaqqatli yumush bo‘lib, uni o‘rganishda ayrim qiyinchiliklarni yengib o‘tishga to‘g‘-ri kelishi, bu yo‘lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo‘lish orqaligina mukammal bilimga ega bo‘lish mumkinligini ta’kidlaydi.

Abdulla Avloniy esa inson aqliy kamoloti xususida to‘xtalar ekan, quyidagilarni bayon etadi: “Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga o‘z axvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko‘rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur”. Alloma bilim insonni jaholatdan qutqarishning eng samarali vositasi ekanligiga ham urg‘u beradi: “Ilm bizni jaholat qorong‘usidan qutqarur; madaniyat, ma‘rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog‘liqdur”.

O'quvchi dunyoqarashini shakllantirishning bir necha maqbul shakl, metod va vositalari bo'lib, ular sirasida ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzularda tashkil etiluvchi suhbatlar, bahs-munozaralar, ma'ruzalar, muammoli vaziyatlarni yaratish asosida o'quvchilarni fikrashga undovchi amaliy treninglar, debatlar, mustaqil ishlar, shuningdek, ishchanlik o'yinlari yanada samarali sanaladi.

Mustaqil ishlarni tashkil etish, xususan, muayyan mavzu asosida o'quvchilarni kichik ilmiy izlanishlarni olib borishga yo'llash ularning dunyoqarashlarini yanada boyib borishida poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'smir hamda o'spirinlarni ma'lum nazariya yoki ta'limotlarning g'oyalariga nisbatan tanqidiy munosabat bildirish, metodologik mohiyatini ochib berish, shaxsiy fikrlarini bayon etishda asosli dalillarga tayangan holda ish ko'rishga undash ham o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining izchil, uzlusiz, tizimli hamda aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi, mazkur jarayonda fanlararo aloqadorlik, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishda samarali sanaluvchi barcha mavjud omillarning birligiga tayangan holda ish ko'rish ko'zlangan maqsadga erishishning kafolatidir. Mazkur holat ma'lum ijtimoiy voqeа-hodisalar mohiyatini turli nuqtayi nazardan baholash, ularning rivojini ko'ra bilish, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini kuzatish, ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, bir-birini taqozo etishini tushuna olish imkonini beradi.

Ta'lim-tarbiyani tashkil etish jarayonida fanlararo aloqadorlik, ijtimoiy va tabiiy omillarning o'zaro muvofiq kelishiga erishish omillari, atrof-muhit hamda ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shaxs kamolotini ta'minlashga erishish imkoniyatlaridan unumli foydalishga intilish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim muassasalarida o'quv predmetlari sifatida tavsiya etilgan fanlar asoslarining o'quvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirilishi ularda keng dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. O'qituvchilar o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllanishi xususida g'amxo'rlik qila borib, doimiy ravishda ular tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni amaliyatda qo'llay olinishiga e'tibor berishlari zarur. Fan

o‘qituvchilari u yoki bu qonuniyatlar va ularning mohiyati bilan o‘quvchilarni tanishtirib borar ekanlar, o‘quvchilarga turli hayotiy vaziyatlarda ulardan foydaalanish yoki ularga tayanib ish ko‘rish lozimligini tushuntirib borishlari kerak.

Dunyoqarashning shakllanishida jamiyatda ustuvor o‘rin tutgan mafkuraviy g‘oyalar va ularning mohiyatidan to‘laqonli xabardor bo‘lish o‘ziga xos ahamiyatga ega. Shu bois ta’lim muassasalarida yo‘lga qo‘yilayotgan ta’lim-tarbiya, xususan, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar asoslari mohiyati bilan o‘quvchilarni tanishtirish jarayonida O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy hayotida bosh mezon sifatida e’tirof etilgan milliy istiqlol g‘oyasi va mafkura mazmunida ilgari surilgan qarashlar xususida batafsil ma’lumotlar berib borish, ularga nisbatan o‘quvchilarda muayyan munosabatni shakllantirish pedagogik jihatdan samarali yo‘l hisoblanadi.

4.Ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmuni

Axloq kishilik jamiyatni tarixiy taraqqiyoti davomida vujudga kelib, tarkib topgan, takomillashib kelgan me’yor va qoidalardan iborat bo‘lib, ular kishilarning jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga soladi. Bu me’yor va tartib qoidalari kishilardan jamiyat uchun zarur bo‘lgan axloqqa ega bo‘lishlikni talab qiladi. Shunga muvofiq, biror shaxsning xulq-atvori, yurish-turishiga axloqli yoki axloqsiz deb baholashga imkon beradi.

O‘zbek milliy pedagogi Abdulla Avloniy axloqqa quyidagicha ta’rif beradi: “Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va isbotlar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur”. Axloq – inson hayotida o‘z-o‘zini idora qilish me’yolarini, boshqalar bilan munosabatda bo‘lish madaniyatini, halol ishlab, to‘g‘ri hayot kechirish mezonlarini o‘rgatadi. Ibn Sino ham “axloq har bir kishi uchun o‘z-o‘zini idora qilshi ilmidur” deb uning mazmunini ifodalab bergan edi. Axloq me’yori va qoidalari tarixiy taraqqiyot davomida tarkib topib, takomillashib borgan va kishilarda birgalikda yashash sharoitidan,

tabiiy ehtiyojidan, ijtimoiy manfaatlari va hayotiy talablaridan kelib chiqqan va ular muayyan tarixiy davrdagi kishilarning xatti-harakati, yurish-turishi va boshqalarga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘lgan. Ana shu tartib-qoidalarsiz biron-bir jamiyat bo‘lmagan va bo‘lmaydi ham.

Axloqiy fazilatlar hech qachon o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasida vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Demak, axloqning rivojlanishi obyektiv shart-sharoitlari bilan subyektiv omillarning o‘zaro munosabati qay darajada ekanligi bilan bog‘liqdir.

Inson ijtimoiy hayotga aralashar ekan, ijtimoiy munosabatlar ta’siriga tushadi. Ijtimoiy munosabatlar o‘zgarishi bilan shaxsning ma’naviy qiyofasi, yangi dunyoqarash, g‘oya va tasavvurlari, jumladan axloqi ham, shuningdek, unga bo‘lgan qarashlari ham o‘zgarib boradi. Har qanday shaxs o‘z dunyoqarashi, axloqiy qoidalarini va ular ta’sirida shakllangan odat va ko‘nikmalarini o‘zlashtirib borishi bilan birga, aniq ijtimoiy voqealarga, o‘zini o‘rab olgan narsa va hodisalarga, kishilarning xatti-harakatlariga, yurish-turishlari va muomalalariga muayyan hayotiy mavqeda turib, maqsadga muvofiq tarzda baho beradi.

“Axloq” so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, “hulq” so‘zining ko‘plik shaklidir. “Axloq” iborasi ikki xil ma’noga ega: umumiy tushuncha sifatida fanning tadqiqot obyektini anglatsa, muayyan tushuncha sifatida inson fe’l-atvori va xatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi.

Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bo‘lsak, doiraning eng kichik qismini odob, undan kattaroq qismini xulq, eng qamrovli qismini axloq egallaydi.

Odob – inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega bo‘lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Xulq – oila, jamoa, mahalla-ko‘y miqyosida ahamiyatli bo‘lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.

Axloq esa – jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun na’muna bo‘la oladigan ijobjiy xatti-harakatlar yig‘indisidir. Axloq me’yorlari hulq atvorning regulyatori sifatida odat me’yorlariga zid xatti-harakat axloqsizlik harakati deb qaraladi. Shunisi ham borki, huquq majburiy bo‘lsa, axloq ixtiyoriydir.

Axloqiy tarbiyaning maqsadi jamiyat talablariga bog‘liq bo‘lib, bu talablar o‘z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o‘qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma’naviy axloq va e’tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. Yoslarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishda boshlang‘ich mакtab muhim o‘rin egallaydi. Insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatini shakllantirish, salbiy illatlarga qarshi nafrat uyg‘otish, ongli intizomni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish kabilar axloqiy tarbiyaning vazifalaridir.

Axloqiy tarbiya vazifalaridan yana biri insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatini yuqori pog‘onaga ko‘tarishdir.

Iymon va insof, so‘z va ish birligi, insonparvarlik – yangi qurilayotgan jamiyatning asosiy xususiyatlari bo‘lib qoladi. Shunday ekan, jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish mas’uliyatini har bir fuqaro teran his etishi va unga amal qilishi lozim. Yoslarni tarbiyalashda sharqona va milliy axloqodob normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat, mustaqillikni mustahkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo‘lish kabi fazilatlarni singdirish taqozo etiladi. Axloqiy tarbiya odamlarni nomusli, vijdonli, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar bo‘lishga o‘rgatish bilan profilaktika ishlarini ham olib boradi. Axloqiy tarbiyada yaxshi xulqni takomillashtirish uchun kurashildi. Xalq ta’limi tizimida o‘qitish tarbiyalanuvchilarning axloqiy mukammallahish bilan bog‘liq bo‘ladi. Ularda ong bilan xulq birligi tarbiyalanadi. Shaxsning jamoat va vatanga, mehnatga, kishilarga, o‘z hulqiga munosabatlarni quyidagilarda o‘z aksini topgan:

- jamiyatga, vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash;
- mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash;
- atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat, yuqori muomala madaniyatiga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish;
- shaxsning o‘ziga, o‘z xulqiga, axloqiy munosabatni tarbiyalash.

Dars va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonini Algomish, To‘maris, Shiroq kabi xalq qahramonlari; A.Temur, Ulug‘bek, Bobur singari davlat arboblari va sarkardalarimiz, Ibn Sino, Beruniy kabi olimu fuzalolarimiz qarashlariga tez-tez murojaat qilishimiz, yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash ishning asosini tashkil qiladi. Shu bilan birgalikda tarbiya borasidagi jahon standartlariga ham e’tiborni qaratmoq lozim. Estetik tarbiya ancha keng ma’noga ega bo‘lib shaxsni tabiat va jamiyatdan go‘zalliklarni ideal nuqtayi nazardan idrok etishga o‘rgatadi.¹

Tarbiya turlarining hammasi bir-birlari bilan o‘zaro uzviy bog‘liq, lekin shunga qaramasdan o‘z mazmunidan kelib chiqqan holda, ular o‘z spetsifikasiga ham egadir. Endi biz quyidagi: aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, ekologik tarbiya, huquqiy tarbiya, estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi kabi tarbiya turlarining har biriga alohida-alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Inson kundalik hayotida undan (axloq normalaridan) norma sifatida foydalanadi. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo‘ladi. Axloqiy tarbiyada kishi axloqiy bilimlarni o‘zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o‘zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi. Axloqiy tarbiyalangan kishida barqaror ma’naviy motivlar shakllangan bo‘ladi. Bu motivlar esa o’sha kishini jamiyatda munosib xulq-atvorga rag‘batlantiradi.

Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o‘ziga munosabatni ochib beruvchi ma’naviy fazilatlarga muvofiq ravishda tarbiyalash - tarbiyalanuvchi shaxsni, axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqr bilishni talab qiladigan murakkab jaryondir. Axloqiy bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirib olishgina

¹ Mirjalilova Yu. “ Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida talaba shaxsini axloqiy jihatdan tarbiyalash” Bitiruv malakaviy ishi. 2004 yil.

o‘quvchilarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi.

5. Ma’naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish usullari

Axloq-kishining atrofidagi kishilarga munasobatiga ko‘ra uning burchini belgilaydigan normalar sistemasi, qisqa qilib aytganda, inson xulqining qoidalaridir. Qizig‘i shundaki, bu qoidalar hech qaysi Kodeksda ko‘rsatilmagan. Axloq me’yorini ham, axloqlilik yoki axloqsizlik haqidagi bahoni ham xalq beradi. Xalq nazaridan qolishning o‘zi axloqsizlik uchun berilgan eng oliv jazodir.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, axloq, avvalo, tarixiy va milliy xarakterga ega. Chunki birinchi xalq, uchun axloqiy fazilat bo‘lgan xislat ikkinchi bir xalq uchun axloqsizlik sanaladi.

Axloqiy tarbiya mazmuni asosan quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

1. Jamiyatga, Vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash. Bu xildagi munosabatlar shaxsning vatanparvarligi, fuqaro yetukligi, baynalminallik kabi fazilatlarda aks etadi, uning maqsadlarida vatan boyliklarini ko‘paytirish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi.

2. Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash. Bu axloqiy munosabat shaxsning mehnat jarayonida namoyon bo‘ladigan yuksak ongida, mehnatning hayotdagi rolini anglashida, xususiy va jamoa mehnatiga tayyorlik, mehnatsevarlikda ifodalandi,

3. Atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat. Shaxsning jamoat-chilik, ko‘pchilik manfaatini o‘z shaxsiy manfaatidan ustun qo‘yishidir.

4. Shaxsning o‘ziga, o‘z hulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalashi - bu o‘quvchini ongli intizom ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Axloqiy tarbiyani amalga oshirish yo‘llari.

Maktabda o‘quvchilarga axloqiy tarbiya berishda xilma-xil usullar qo‘llaniladi:

- dars, ta’lim jarayonida axloqiy tarbiyani qo‘sib olib borish;

- ahil, inoq uyuşdırılmış intizomli jamoa orqali axloqiy tarbiya berish;
 - to‘g‘ri rejalashtirilgan tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish orqali;
 - maktabda ijobiy emotsiyonal sharoit yaratish orqali. Masalan, Mustaqillik kuni, Navro‘z bayrami;
 - barcha o‘quvchilaming maktabdagi umumiy va yagona tartib qoidaga rioya qildirish orqali;
 - turli tushuntirish, uqtirish, suhbat, munozara, rag‘batlantirish, jazolash usullaridan foydalanish orqali;
 - tarbiyaviy soatlar, “Odobnama”, “Ma’naviyat asoslari” darslari saviyasini oshirish orqali;
 - mehnat ilg‘orlari, ilm-fan xodimlari, mehnat faxriylari, hojilar bilan uchrashuvlar uyuşdırış orqali;
 - maktabda turli kechalar, olimpiada, festival, musobaqalar o‘tkazish, turli axloqiy-ma‘rifiy teleradio eshittirishlaridan foydalanish;
 - dars va tarbiyaviy tadbirlar jarayonida milliy qadriyat va an'analarimiz aks etgan asarlarni o‘qib-o‘rganish orqali.

Insonning ma’naviyati uning odobi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Ma’naviyat esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi va tarkib topadi. Axloq, odob haqidagi tushuncha, tasavvurlarni, odatlarni tarkib topshirishda xalq, og‘zaki ijodining, oilaning, atrof-muhitning tarbiyaviy ta’siri beqiyosdir. Bayramlarimiz, urf-odatlarimiz, marosimlarimiz, udumlarimiz ham bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

Axloqiy tarbiya usullariga tushuntirish, na’muna ko‘rsatish, odatlantirish o‘rgatish, mashq qildirish) iltimos qilish, tilak-istik bildirish, rahmat aytish, duo qilish, olqish (oq yo‘l tilash) kabilar kiradi. Ta’kidlash, ta’na (gina, o‘pka) qilish, masxara qilish, majbur qilish, tanbeh berish, koyish, qarg‘ash, qo‘rqitish, uzr so‘rash, la’natlash, urish, kaltaklash singari tarbiya usullari ham keng tarqalgan.

Axloqiy tarbiya vositalaridan biri maqollardir. Maqollar odamlarning hayoti va turmush jarayonida to‘plangan tajribalari

dunyoqarashi, o'zi yashab turgan ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati, o'tmish hayoti va uning ibratl saboqlari, shaxsning ruhiy holati, umid va orzularini ifodalaydi. Shuning uchun ham ular bola tarbiyasida, xususan axloq va odobiga ijobiy ta'sir etadi. O'zbek maqollari tinglovchiga o'git-nasihat tarzida band o'xshatishlar orqali aytildi:

Oltin olma, duo ol,

Duo oltin emasmi.

Onangga boshingni ham qil,

Otangga gapingni kam qil.

Ertak va dostonlarda bola tarbiyasining deyarli hamma tarkibiy jismlari tarkib topishgan oid materiallar ko'p.

Masalan: "qorasoch pari" ertagida Nodira yosh chog'ida otadan yetim o'sgandi. Onasi Nodirani safarga jo'natishdan oldin unga 3 nasihat aytadi:

1) Birovga hiyonat qilma.

2) Birovning dilini og'ritma.

3) Qaysi shaharga borsang, o'sha shaharning qariyalari bilan suhbatlash. U onasining nasihatiga kirib, murod-maqsadiga yetadi.

Yoki o'z farzandini salomlashishga odatlantirolgan ota-onada ulug'lanadi;

Qizil-qizil olma terdim, tepe shoxdan egilib,

Qizlarjon o'tib boradir, soch bosh yerga tegib,

Salom bersam alik oldi, tol xivichdek egilib,

O'stirgan onangga rahmat, o'Imagaysan ko'z tegib.

Yoki ota-onada qoralanadi, ta'na va isnodga qoladi:

Ikki yuzing pishgan olma,

Noz etib hargiz buralma.

Ishdan hech bo'yin tovlama,

Chiroylisan ko'rdik, kelin.

Onang seni o'stirgan xom,

So'zlarimni uqding tamom.

Kattalarga bergil salom,

Shunda qadring ortar kelin.

Qo'shiqlarda ham salomlashish yoshlarning odobli yoki odobsizliklarini belgilaydigan omil ekanligi ko'rsatiladi.

Aka, yoringni ko'rdik,
Dalada yurgan ekan,
Qaytarilib salom bersam,
Tili yo'q, hayvon ekan.
Yoki allani ko'raylik:

Har daraxtning mevasi ko'p bo'lsa, boshi ham kelur,
Har kishining dardi bo'lsa, diydasidan nam kelur,
Shodmonlik istasang oxir boshingga g'am kelur,
Nola qilsam, qo'rqaman-majlisga nomahram kelur,
Marhabojon, bibing aylansin bolam, dod allayo.

Yoki «Usta Nishon» ertagini o'qigan bolada yaxshi xulqli bo'lish, duo olish, ota-onaga rahmat keltirish ishtiyooqi uyg'onadi.

Yoki kuyida qoralash usulining qarg'ish shakli ishlatilgan:
Sen, juvonmarg, eshit mening tilimni,
Nega sen yig'latding mening ulimni
Nega urding echki boqar kalimni
Senda odam, bilib yurgin yo'lingni!
Otang hurmati siylab turayin
E juvonmarg, bilganimday qilayin,
Qarab turgin, sen ham meni bilasan,
Echki boqar-kalga tegsang, o'lasan.

Shu satrlarni o'qigan bolada yomon yo'ldan yurish, odobsiz bo'lishdan chekinish tuyg'usi paydo bo'ladi.

Yoki «Zumrad va qimmat» ertagini olaylik. Zumrad aqlli, odobli, xushmuomala bo'lgani uchun ham, u ertalab suvga borganda yo'lda gullar ochilib, egilib salom berishadi, qushlar sayrab Zumradni maqtashadi, Qimmat suvga chiqsa, gullar qovog'ini uyib, yumilib oladi, qushlar jum bo'lib qolishadi.

Chunki Qimmat gullarni oyog'i bilan ezib, yulib tashlar, gullarga toshlar otar edi.

Buni eshitgan bolalar Zumradga o'xshab odobli bo'lishni, Qimmatga o'xshamaslikka harakat qolishadi.

Ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, unda ezzulik va yovuzlik o'rtasida kurash ketadi va oxirida yaxshi bo'lsang, albatta

murodingga yetasan degan xulosaga kelishadi va yaxshilikka intili shadi. Axloqiy tarbiyaning eng ta'sirchan vositalaridan biri hadisdir.

Umuman Sharq xalqlarida odob-axloq, izzat-hurmat, hayo-andisha uning insoniylik qiyofasini belgilovchi asosiy omildir. Darhaqiqat, Sharq xalqlarining ibrat bo'larli axloqiy fazilatlari benihoya ko'pdir.

Axloqiy tarbiya usullari

Axloqiy tarbiya o'qitish jarayoni bilan birga olib boriladi	Axloqiy tarbiyada ra g'-batlantirish va jazolash usullaridan o'rinli foydalanish
Axloqiy tarbiyani shakllantirishda jamoaning o'rni	O'quvchilarning mustaqil fikr yuritishlari, shaxsiy fikrlarini ilgari surishlari uchun qulay muhit yaratish
Tarbiyaviy ishlarning rejali bo'lishi	Tarbiyaviy soatlar, "Odob-noma" darslarini savyasini oshirish yaxlit tizimli jarayon
Ta'lrim muassasasida ijobjiy emotsiyonal sharoit yaratish	Dars jarayoni, darsdan tashqari mashq'ulotlarda sharq qadriyat-lari va milliy an'analar aks etgan "Qur'oni karim", "Hadis", "Xotamnomma" "Odobnomma", "Hikmatnomma", "Qobusnomma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" va shunga o'xshash tarbiyaviy asarlardan o'rinli foydalanish
Barcha tarbiyalanuvchilarni yagona tartib - qoidaga amal qilishlarini ta'minlash	
Mehnat ilg'orlari, ilm – fan xodimlari, ibratli shaxslar bilan uchrashuvlar	
Ta'lrim muassasasida turli tadbirlar uyushtirish	
Axloqiy odatni shakllantirishda mashhq, bolalarning turli faoliyatini uyushtirish	

Darhaqiqat mutafakkirimiz Abdulla Avloniy "Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilar. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar" deb ta'kidlaydi.

Demak, intizom ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladigan xislat, tartib-odob, ma'naviy quvvatdir. Intizom yaxshi xulqlarning manbaidir.

O‘quvchilarda ongli intizomni, odobni tarbiyalashda o‘qituvchilar o‘z xuiq-atvorlari, muomala madaniyati bilan namuna bo‘lishlari darkor.

Chunki ularning yurish-turishi, odobi o‘quvchining ichki e’tiqodiga aylanishi va ma’naviyatiga ta’sir etishi kerak.

Shundagina o‘quvchilar jamiyat va jamoa oldida axloqiy tarbiya talablariga javob beradigan xulq-atvor egalari bo‘la oladilar.

6. **Huquqiy tarbiya mazmun mohiyati**

Huquqiy davlat qurish jarayonida (jarayoni) barchaning ishtirok etish muvaffaqiyatlar garovidir. Bunga fuqarolarning iqtisodiy siyosiy, huquqiy savodxonligi, o‘z haq-huquqlari, burchlari va majburiyatlarini chuqur anglashi orqali erishish mumkin. Huquqiy tarbiya huquqiy ta’lim bilan (uzviy) bevosita bog‘liqdir. Huquqiy tarbiya bu insонning ongi va tafakkurida, fe’l-atvorida mavjud huquqiy shiorlarga, hayot tajribasini shakllantirish maqsadida ta’sir etish, ko‘rsatish huquqiy bilim qilish degani emas. Masalan, bilim o‘rganib, undan amalda foydalaniladigan chopayotgan, ammo o‘sha yerga urug‘ sochmaydigan odamga o‘xshaydi, - degan edi o‘z davrida Sa’diy.

Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobjiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi.

Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

- o‘quvchilarga huquqiy me’yorlar, qonunlar va ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati hamda ularning ijtimoiy hayotdagि ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotlar berish;
- o‘quvchilarda huquqiy bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni qaror toptirishga erishish;
- o‘quvchilarda huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko‘nikma va malakalarni hosil qilish;
- ularda ijobjiy mazmundagi huquqiy sifatlar (huquqiy tasavvur,

huquqiy idrok, huquqiy tafakkur, huquqiy savodxonlik, huquqiy mas'ullik, huquqiy faollik, huquqiy e'tiqod va huquqiy salohiyat)ning qaror topishini ta'minlash;

- o'quvchilar huquqiy madaniyati (huquqiy me'yorlar, qonunlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini to'g'ri baholash, harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, davlat Konstitutsiya-si va ramzlarini, shuningdek, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday ko'rinishdagi huquqbazarliklarga qarshi murosasiz kurashni tashkil etish)ni shakllantirish.

Huquqiy madaniyat bu – shaxs tomonidan huquqiy bilimlar-ning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichidir.

Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

- *keng ko'lamlı ijtimoiy – huquqiy axborotli muhitning mavjudligi;*

- *shaxs huquqiy ongini shakllantirish;*

- *shaxs huquqiy faoliyatini yo'lga qo'yish.*

Huquqiy tarbiyani tashkil etish davrida o'quvchilar faoliyati mazmunini tahlil etish, ularda o'z faoliyatlariga nisbatan tanqidiy yondoshuvni qaror toptirish, shuningdek, o'z faoliyatlarini real baholashga o'rgatib borish talab etiladi.

Huquq – qonun belgilab bergen erk me'yordir.

Huquqiy ong huquqiy madaniyatning g'oyat muhim qismalaridan biri bo'lib, u eng avvalo odamlarning qonunga munosabatlarini ifodalovchi qarashlari va e'tiqodlaridan, ularning huquqiy tasavvurlaridan, intilish va tuyg'ularidan iboratdir. **Huquqiy ong o'z ichiga: huquqiy tushuncha; huquqiy his-tuyg'u; xohish-iroda kabi qismalarni qamrab oladi.**

Huquqiy ongni shakllantirish orqali huquqiy tarbiya me'yorlarini hayotga tadbiq etish muayyan qoidalarga amal qilishga yordam beradi. Huquqiy ongni oshirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa mavjud qonunlar yoki huquqiy me'yoriy hujjalarni asosida amalga oshiriladi.

Xususan, bu borada “Huquqshunoslik”, “Inson huquqlari”, “Huquqiy tarbiya uslubiyati” kurslarini o’rganish muhim sanaladi. Huquqiy bilim asoslarini o’rgatuvchi maxsus ta’lim turlari bilan bir qatorda huquqiy targ’ibot-tashviqot ishlari ham katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, huquqshunoslardan ishtirokida muloqotlar huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari bilan uchrashuvlar, savol-javob kechalari va shuning singari tashkiliy tadbirlar ijobjiy samara berishi shak-shubhasizdir.

Huquqiy tarbiyaning maqsadi o’quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirish, ularda huquqiy demokratik davlat sharoitida yashash ko’nikmasini tarbiyalashdir.

Huquqiy tarbiyaning mazmuni. Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o’quvchilarga davlat Konstitutsiyasi, davlat haqidagi ta’limot, fuqarolik, oila, mehnat, xo’jalik, ma’muriy nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma’nosini tushuntirish, ularga ijtimoiy-huquqiy me’yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tushunchalarni berish, huquqiy munosabatlar mohiyati yuzasidan tasavvurga ega bo‘lishlarini ta’minlash, ularda huquqiy ong, shuningdek, huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko’nikma va malakalarni hosil qilish, huquqiy madaniyatni shakllantirish masalalariga e’tibor qaratiladi.

Huquqiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:

- (qonunga) huquqqa, jamoatdagi tartibni saqlovchi organ va shaxslarga hurmat va muomalani shakllantirish;

- O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qonunchilik asoslari zimmasidagi huquq va majburiyatlarini bilish;

- qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarga qat’iy amal qilish va fuqarolik burchi va mas’uliyatini chuqur his etish;

- qonunbuzarlarga qarshi kurashishga shay turish;

- huquqiy demokratik davlat insoniylik prinsiplariga hurmat bilan qarash va h.k

Huquqiy bilim demak, huquqiy me’yorlardan (norma) o’z faoliyati davomida o’rinli foydalana bilish qobiliyatidir. Shuningdek, u shaxsnинг huquqni anglashi bilan uzviy bog’liq. Huquqiy me’yorlarning hamda noqonuniylikning, qonunga xilof xatti-harakatning, qonunga munosabatning kishilar tomonidan to’g’ri anglashidir.

O‘quvchilarning huquqiy ongini oshirmsasdan fuqarolik davlatini barpo etish murakkab vazifadir. Huquqiy ong poydevoriga avvalo oilada asos solinadi. So‘ngra ta’lim-tarbiya muassasalarida bu faoliyat davom ettiriladi.

Huquqiy tarbiya metodlari:

- *ishontirish; majburlash; kasbiy na’muna; rag ‘batlantirish.*

Bolalarning qalbi va vujudiga go‘daklik paytidan boshlab odob-axloq, huquqiy qonun-qoidalar haqida ilk tasavvur va tushunchalarni singdirishda jamiyatning asosi, negizi bo‘lgan oilaning roli va ahamiyati katta. Daho xalqimiz bu borada ham o‘ziga xos huquqiy tarbiya maktabini yaratgan. Ota-bobolarimiz bolalarga turli mavzularda ertaklar aytib berish orqali ularning ongida ilk huquqiy tushunchalarni shakllantirganlar. “*Tekin tomoq bo‘lma*”, “*Mehnatdan qochma*”, “*Yolg‘on gapirma*”, “*Yomonga yaqinlashma*”, “*Yomon bilan yurma*” kabi ibrat, o‘git mazmunida gi gaplar ham kichkintoylarni tasavvurida ilk huquqiy tushunchalarni paydo qiladi. Huquqiy tarbiya serqirra, o‘ta murakkab, uzoq davom etadigan jarayondir. Aslida “*Qonunlar qonuni vijdondir*”. “*Faqat vijdongina insonlar hayotining odil rahnamosidir*” (Lev Tolstoy). Yoshlarni huquqiy savodxon qilib tarbiyalashda huquqiy ta’lim katta ahamiyatga ega. Huquqiy ongni shakllantirish orqali huquqiy tarbiya me’yorlarini hayotga tadbiq etish muayyan qoidalarga amal qilishga yordam beradi. Huquqiy ongni oshirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa mavjud qonunlar yoki huquqiy me’yoriy hujjatlardan asosida amalga oshiriladi.

Huquqiy tarbiyaning umumiy pedagogik xususiyatlari

Maktabdagagi huquqiy tarbiya – o‘z ichiga o‘quvchilarni huquqiy bilimlar bilan qurollantirish, mazkur bilimlar asosida o‘z xulq-atvoriga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirish, qonun va qoidalarga rioya qilish muhimligini uqtirish, muayyan huquq va erkinliklardan foydalanish yo‘l-yo‘riqlarini singdirishni qamrab oladi. Umuman, uslubiy rejadan kelib chiqib, tarbiyaga kompleks yondashuv prinsipi nuqtayi nazardan qaralganda, uni g‘oyaviy, siyosiy, axloqiy, estetik tarbiya ta’sirining yig‘indisi sifatida

tushunish mumkin. Huquqiy tarbiyaning quyidagi uslublarini ajratish lozim:

1. Huquqiy ongni shakllantirishda:
 - e'tiqod, isbot; huquqiy mavzularda suhbatlar, ma'ruzalar, hikoyalar;
 - Huquqiy mavzularga oid bosma materiallarni va san'at asarlarini muhokama qilish.
2. Huquqiy axloq asosini, malakasini, odatlarini va huquqni himoya qilish faoliyati tajribasini shakllantirish usuli:
 - Umumiy talab (ayrim holatlarida huquqiy asoslari bilan);
 - O'rnatish;
 - Misol:
 - O'quvchilarning huquqini himoya qilish faoliyatini tashkillashtiradi;
 - Ijodiy o'yindan foydalanish;
 - Musobaqa;
3. Huquqiy tarbiyani kuchaytirish uchun rag'batlantirish yoki jazo usullarini qo'llash.

O'quvchilar huquqiy tarbiyaning nafaqat subyektlarida, balki subyektlari sifatida ular avvalo jamoa fikri bilan o'z a'zolariga faol ta'sir etib jamoa a'zolari sifatida ham qatnashmoqdalar. Maktab o'quvchilarini huquqiy tarbiyalash shakllar tizimi ikki qismdan iborat bo'lib, og'zaki va amaliy ishlardir. Ular o'zaro bog'liq. Huquqiy tarbiyaning asosiy og'zaki shakli darslar jarayonida o'z ifodasini topadi. Fikrimizning dalili sifatida olib borilayotgan darslarni misol tariqasida keltirish mumkin. Shu o'rinda huquqiy tarbiya o'quvchilar ruhiyatiga qanday singdirilayotganligi ma'lum bo'ladi. Darhaqiqat, yaxshi dars yirik bir asardir.

Huquqiy darslar davomida o'quvchilarni qonuniy va qay holatlarda qonun buzilishlar sodir etilishini chuqur idrok etib borishlari lozim. Shuningdek, ushbu darajalarda davlat ramzlari, ularga nisbatan faxr-iftixor, Ona Vatanga cheksiz mehr tuyg'ulari singdirilib borilishi lozim.

Huquqiy tarbiyaning og'zaki yana bir shakli yoki ko'rinishi bu qonunchilikning asoslari bo'yicha fakultativ darslardir. Bunday darslarga amaliy tashkiliy tadbirlar, jumladan, qonunni muhofaza

qiluvchi idoralar xodimlari, qonunshunoslar bilan uchrashuvlar bilan, huquqiy mavzuda uyushtirilgan muloqotlarni o'tkazish, tashkiliy hujjatlarni tuzish singari faoliyatlarni kiritish mumkin emas. Tarbiyaning mustaqil shakli huquqiy mavzuda bahs yuritish. Bunda o'quvchilarining faolligi, huquqiy mavzular bo'yicha bilimi, qonuniy va noqonuniy xatti-harakatlar to'g'risidagi e'tirozlari, u yoki bu qonunbuzarlarga nisbatan qarashlari aniqlanadi.

Huquqiy tarbiyaning yana bir shakli bu huquqiy mavzularda suhbatlar, huquqiy yo'naltirish, konferensiyalar, seminarlar va hokazolar tashkil etish.

Huquqiy tarbiyada shaxsni hisobga olish. Huquqiy tarbiyada tarbiyalanuvchning shaxsi hisobga olinishi muhim ahamiyatga ega. Bunga uning yoshi, u o'sgan muhit, bilim doirasi (darajasi), fe'l-atvori, jinsi, rivojlanishi, kuch-quvvati, tuzilishi, va hokazolar kiradi.

Maktab yoshigacha bo'lgan bolalar uchun, masalan, huquqiy bilimlar, elementar axloqiy bilimlar bilan uyg'unlashgan holda yo'naltiriladi. Masalan, kichkintoylarga har bir narsaning nimasi yaxshi-yu nimasi yomonligini misollar orqali tushuntirish lozim. Aniq vazifalar davlat va huquq masalalari bo'yicha bilimlar tizimini, tushunarli ko'rinishda shakllantirish, davlat organlari va tashkilotlarga, huquqqa qonunchilik prinsiplariga, huquqiy majburiy va umumiy ko'rinishdagi xulq-atvor shakllarini shakllantirish; fuqarolarga har qanday qonunbuzarlikka murosasizlik ruhini singdirish; nafaqat o'zi, balki davlat, jamiyat, boshqa shaxslar huquqi va manfaatini himoya qila olish kayfiyatini shakllantirish. O'quv jarayonida o'quvchilarни huquqiy tarbiyalash uslubiyati xususiyatlari quyidagilardan kelib chiqadi. Birinchidan, o'quvchilarining axloqiy tasavvurlarini to'g'ri shakllantirish, o'qituvchining nafaqat umum tarbiya faoliyati davomida, balki darsda, o'qitish jarayonida ham e'tiborda bo'lish lozim. Ikkinchidan, maktabda huquqiy tarbiya jarayonida har bir holatning mohiyatini aniq, ravshan va tushunarli ravishda singdirish muhimligini ta'kidlab o'tish lozim. O'qituvchi o'quvchilar ruhiyatida mavzuga katta qiziqish uyg'ota olishi zarur. Uchinchidan, jamiyatda huquqiy talablarning mavjudligi va mazmun mohiyati to'g'risidagi umumiy

tasavvurdan kelib chiqqan holda yuqori sinflarda o'quvchilar ongida bilimlar tizimini, hukumat va qonun chiqaruvchi organlar, huquq institutlari, huquqiy me'yorlarning rivojlanish asoslari, qonuniyatlar, shuningdek, huquq va majburiyatga oid qarorlar hamda ularning bajarilishi xususida ma'lumotlar berib borilishi maqsadida muvofiqdir. To'rtinchidan, huquqiy tarbiya jarayonida ba'zi bir qonunlar matnlarni o'qib berish, o'quvchilarga me'yoriy qonunlar muhim moddalarini yozib olishga imkoniyat va vaqt berish joiz. Beshinchidan, dars o'tish jarayonida o'quvchilarga davlat va huquq to'g'risida umumiy tushuncha berish, shuningdek, huquqiy yo'nalishlar (yo'l-yo'riqlar) ga alohida to'xtalib o'tish lozim. Oltinchidan, o'qituvchining ish quroli sifatida unda davriy bosma materiallar, oliy majlis sessiyasi hujjatlari, farmon va qarorlari vazirlar mahkamasi qarorlari hamda Huquqiy me'yoriy hujjatlar bo'lishi kerak.

O'qituvchi o'qitish jarayonida huquqiy tarbiya masalalari va uslublarni...

O'qituvchi o'qitish jarayonida huquqiy tarbiya masalalarini hal qilishda bolalarning yoshini e'tiborda tutmog'i joiz, hamda tarbiya muammolarini "markaziy tarmog'i" ni aniqlashga harakat qilish zarur. Xususan, u shu tarzda o'quvchining yoshiga qarab, (maktab, litsey, kollej, oliygoh, va hokazo). Huquqiy tarbiyaning shakl va uslublarini chuqurlashtirib borgani durust. O'qituvchining bor sa'y-harakati, o'quvchi qalbida o'z xatti-harakatiga nisbatan chuqur mas'uliyat hissini uyg'otishdan iboratdir. Inchunun, huquqiy fanlarni o'rghanish jarayoni uchta asosiy elementlarning uzviy bog'liqligi bilan xarakterlanadi. Jumladan, bu o'qituvchi faoliyati, o'quvchilar sa'y-harakati va ta'lim mazmun-mohiyatidan iboratdir.

Xususan, buni shunday izohlash mumkin. Ushbu faoliyat huquqiy tarbiyaning maqsadlarga yo'naltirilishi (bo'ysundirilishi) va ularning bilim olish jarayonida o'quvchilar yutuqlari natijalarida namoyon bo'lishidir. Shu tarzda huquqiy bilimlar (sistemasi) tizimlar qay tarzda singdirilganligi aniqlanadi hamda tinglovchilarda huquqiy qarashlar va axloqiy e'tiqod mavzusini shakllantiradi.

7. Mehnat tarbiyasi

Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirishda mehnat tarbiyasining o'rni beqiyosdir. Insonning kundalik turmush tarzi mehnat va faoliyat bilan bog'liqidir. Shu sababli mehnat butun moddiy va ma'naviy boyliklarning ijtimoiy taraqqiyotining negizidir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek, bolaning har tomonlama shakllantirish vositasi, uning shaxs sifatda ulg'ayish omili hamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonidagi bola o'z aqlini, irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlantirishi mumkin.

Mehnat – farovon va baxtli hayot kechirishning eng asosiy sharti bo'lganligi sababli hamma insonlar uchun majburiydir.

Bolalarni mehnatni sevish ruhida tarbiyalash-butun insoniyatni tarbiyalash demakdir. Shu boisdan yosh avlodni mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash barcha ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyatining asosiy negizi bo'lib qolmoqda.

Pedagogikada yosh avlodni shakllantirishda mehnat tarbiyasi juda katta ro'l o'ynashini ta'kidlab o'tgan rus pedagogi K.D. Ushinskiy bunday deb yozgan edi: "Tarbiyaning o'zi, agar u kishining baxtiyor bo'lishini istar ekan, uni baxt uchun tarbiyalash kerak emas, balki turmush mehnatiga taylorlashi lozim".

Mehnat faoliyati bolaning tevarak-atrofidagi muhitini, real buyumlarni anglab, bilib olishning mustahkam vositasi bo'lib, unga nazariy bilimlarni qo'llanish imkoniyatini yaratib beradi, uning ongini hissiy tasavvurlar bilan boyitish. Jumladan, mehnatning ijtimoiy axloqiy ahamiyatiga e'tibor berish, mehnat o'quvchining yoshi, hayot tajribasi va imkoniyatlariga mos bo'lishi, mehnat faoliyatları ijodiy harakatda bo'lishi, o'z vaqtida turli kasblar haqida ma'lumotlar berib borilishi, mehnat ahllari bilan doimo suhbat va uchrashuvlar tashkil qilish kabilar. Umuman olganda, mehnat tarbiyasi ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismidir. Mehnat tarbiyasining bosh g'oyasi shaxsda mehnat faoliyatini tashkil etish, ko'nikma va malakalarini hosil qilish, ijtimoiy mehnatni qadrlash, mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash sanaladi. Insoniyat tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar, ijtimoiy

taraqqiyot asosida, mehnat faoliyati natijasidir. Jamiyatda tashkil etiladigan mehnat tarbiyasi yosh avlodni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, ularning vatan ravnaqi, el-yurt farovonligi yo'lida mehnat qilish, rivojlangan demokratik va huquqiy davlatni barpo etish jarayonida faol ishtirok etishga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, yagona maqsad yo'lida harakat qilishga tayyorlashdan iborat jarayonni o'z ichiga oladi. Sharqning yetuk mutafakkirlari mehnatning shaxs kamoloti, shuningdek, jamiyat rivojidagi ro'liga yuksak baho berishgan. Zero, mehnat insonning ham ruhan kamolotga yetishini ta'minlaydi. Inson o'z mehnati bilan moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratib berar ekan, ayni vaqtida uning o'zi ham shaxs sifatida shakllanib boradi, chunki inson aksariyat hollarda o'z mehnat faoliyati bilan ijtimoiy munosabatlar subyekti (ishtirokchisi)ga aylanadi. Shu bois insonni yoshligidanoq mehnat faoliyatiga jalb etish maqsadga muvofiqdir. Mustaqil har tomonlama kamolga yetgan barkamol shaxs uchun zarur bo'lgan ma'naviyat qirralari iymon, e'tiqod, vatanparvarlik, insonga cheksiz muhabbat, do'stlik, sadoqatlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur kabi fazilatlarini shakllantirish zarur.

Mehnat tarbiyasining mohiyati, maqsad va vazifalari. Mehnat tarbiyasi o'quvchilarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydalı harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mehnat tarbiyasini shunday tashkil etish kerakki, inson mehnat jarayoni va uning natijasidan qanoatlanishini tarkib toptirishga ko'maklashsin. Mehnat tarbiyasining provard maqsadi shaxs xarakterining asosiy xislati sifatida uning mehnatga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishdir.

O'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda mehnat tarbiyasi muhim shartlardan biri bo'lib hisoblanadi. Uning amalga oshirilishi davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy siyosat mazmuni bilan belgilanadi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishning asosiy tamoyillari jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning asosi sanaladi.

Hozirgi davrda texnika va texnologiyalar rivojlanshini yuksak bosqichga ko'tarish uchun ishlab chiqarishni keng ko'lamda kompyuterlashtirish, iste'mol mahsulotlarini jahon standartlari darajasida ishlab chiqishni yo'lga qo'yish talab etilmoqda.

Bularning barchasi yuksak intellektual va jismoniy kamolotga ega bo'lish, ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy asoslaridan to'laqonli xabardor bo'lish, mehnatga ongli, ijodiy munosabatda bo'ladigan yoshlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim muassasalarida mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishga nisbatan ulkan talablarni qo'yadi.

Mehnat tarbiyasining maqsadi o'quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalarni ijobjiy hal etish maqsadga muvofiq:

- yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;
- o'quvchilarda umumjamiyat manfaati yo'lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;
- ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarning mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;
- ularda mehnat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;
- o'quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatlari bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish, hayotiy faoliyat yo'naliishini belgilash malakalarini shakllantirish;
- o'quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular yashab turgan hududlar ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq kasblarni egallashga bo'lgan qiziqishni oshirish;
- o'quvchilarni kasbga yo'llash, ularni mehnat faoliyatining barcha turlari, shuningdek, ular yashayotgan hududda ehtiyoj mavjud bo'lgan mutaxassisliklar bilan tanishtirish.

Mazkur vazifalar tizimida o‘quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlash ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Mehnat tarbiyasi o‘quvchilarning aqliy, ma’naviy-axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasi bilan o‘zaro bog‘liq holda yaxlit tizimda amalga oshiriladi. Chunonchi:

1. Aqliy tarbiya o‘quvchilar mehnat tarbiyasi, ularni kasbga tayyorlashning asosi sanaladi. Zero, mehnat – nazariy va amaliy bilimlarni egallashga yordam beradi, bilim esa o‘z navbatida shaxsni mehnatga tayyorlashni takomillashtiradi. Mehnat tarbiyasining samaradorligi o‘quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazifasi bilan belgilanadi.

2. Mehnat tarbiyasi axloqiy tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Chunki mehnat faoliyati yordamida o‘quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, irodalilik, tashabbuskorlik, mustaqil harakat qilish kabi axloqiy xislatlar ham shakllanadi.

3. Mehnat tarbiyasi estetik tarbiya bilan mustahkam aloqada olib boriladi. Mehnat tarbiyasi mazmuniga estetik elementlarni singdirish asosida uni amalga oshirish o‘quvchilar mehnat tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Mehnatda go‘zallik va o‘z mehnatidan zavqlanish uning yanada samarali kechishiga yordam beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, o‘quvchilar mehnat tarbiyasida quyidagi mezonlarni asos qilib olish maqsadga muvofiq. Bular:

- o‘quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyatini tushunilishi;
- ularning ixtiyoriy ravishda mehnat qilishlari;
- ularda mehnat qilmay hayot kechiruvchilarga nisbatan nafrat uyg‘otish;
- o‘quvchilarda mehnat va mehnat ahliga hurmat tuyg‘ularini qaror toptirish;
- ularda mehnatda javobgarlikni his etish tuyg‘usini tarbiyalash;
- ularning mehnatga ongli munosabatda bo‘lishlariga erishish;

- mehnatda ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- o'quvchilarda jamiyat va umumxalq mulkini ko'z qora-chig'iday asrash tuyg'ularini shakllantirish;
- mehnatda do'stlik, o'rtoqlik va hamkorlikka erishish;
- o'quvchilarning mehnatni go'zallik manbai sifatida tushunishlariga erishish va boshqalar. Mehnat inson hayoti, uning farovon turmush kechirishi uchun hamisha asos bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Mehnat odamlarning biror maqsad uchun sarflangan vaqt, aqliy va jismoniy kuchi yoki zarur faoliyatidir. Mehnatsiz yashash mumkin emas.

Mehnat tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlari. Mehnat tarbiyasini tashkil etish jarayonida o'quvchilar dastlab ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy asoslari bilan tanishadilar.

Mehnat tarbiyasi maqsadga muvofiq, tizimli, izchil tashkil etiladi. Mehnat ta'limi sinf xonalari, o'quv-tajriba maydoni, mashina-traktor saroyi, o'quv-tarbiyaviy tadbirlar jarayoni, ishlab chiqarish korxonalari va xo'jaliklarning dalalarida olib boriladi.

Natijada ma'lum qiymatga ega bo'lgan ijtimoiy-foydali mahsulotlar yaratiladi hamda ilg'or kasb sohiblariga xos bo'lgan shaxslik fazilatlari shakllanadi.

Shu jihatdan olib qaraganda bugungi kunda mehnat ta'liming mazmuni, maqsad va vazifalari o'zgardi, texnologik ta'lim ustuvorlik kasb etdi, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish tizimi yangilandı. Mehnatni ilmiy tashkil etishning birinchi darsini ham o'quvchi ta'lim jarayonida oladi.

Mehnat tarbiyasi bilan mehnat ta'limi bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Mehnat faoliyati ma'lum bilimga ega bo'lishni talab etadi. Zero, bilim va ko'nikmalar o'quvchini mehnat faoliyatiga tayyorlaydi.

Ta'lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'rildilar, Umumiyl mehnat jarayonida o'quvchilarning kombinatlar, jamoa hamda fermer xo'jaliklari, korxona, zavod va fabrikalarda texnik va texnologik bilimlari mustahkamlanadi, shuningdek, ular tashkilotchilik malakalariga ham ega bo'ladilar.

Sinfdan tashqari ishlar jarayonida mehnat tarbiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning turli shakllari o'quvchining texnik ijodkorligini rivojlantiradi, u yoki bu bilim sohasida bilimga bo'lgan qiziqishini shakllantiradi. To'garaklarda o'quvchining qiziqish va qobiliyatlarini namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning to'garaklardagi faoliyati ma'lum pedagogik talablarga rioya qilganda samarali bo'ladi. Chunonchi:

- to'garak faoliyati ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim, ya'ni, o'quvchilar tayyorlagan buyumlar kishilar uchun amaliy qiymatga ega bo'lishi zarur;

- texnik ijodkorlik o'quv muassasasidagi o'quv-mehnat jarayoni bilan uzviy aloqada bo'lishi kerak (maktab, kollej, oliy ta'lim va boshqalar);

- ijtimoiy-foydali, unumli mehnat jarayonida o'quvchining texnik ijodkorligini tashkil etishda faoliyatni ijtimoiy buyurtmadan ijodkorlikka aylantirish kerak bo'ladi.

To'garak faoliyati jarayonida o'quvchilar o'z kollejlari uchun o'quv-ko'rsatmali qurollar: jadvallar, rasmlar, diagrammalar, kolleksiyalar, oddiy modellar, yuqori sinflarda – stendlar, harakatdagi modellarni yaratish mumkin.

Tabiatshunoslik, botanika, zoologiyadan amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar o'quv-tajriba uchastkalarida ishlaydilar, jonli burchaklar tashkil etadilar, o'quv maskanini ko'kalamzorlashtiradilar.

Mehnat tarbiyasi oilada tabaqalashtirilgan holda olib boriladi: bolalar o'z-o'ziga xizmat qiladilar, uy hayvonlarini parvarishlaydilar, ro'zg'or texnikalarini ta'mirlash bilan shug'ullanadilar. Oila budgeti va uni yuritish bilan bog'liq topshiriqlarni bajaradilar, Oilada bolalar va kattalar mehnatini hamkorlikda tashkil etishning imkoniyatlari cheksiz.

So'nggi yillarda o'quvchilar mehnat tarbiyasiga jamoatchilik katta e'tibor bermoqda. Yirik fermer xo'jaliklari, qo'shma korxonalarining jamoalari maktablarni otaliqqa olmoqda, ularning moddiy bazasini yaratish, o'quvchilarning bilim olishlari, ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil etishda yordam bermoqdalar.

O'quv mehnati o'quvchilarning ilmiy bilimlar hamda turli fanlar asoslarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyati turidir.

Ijtimoiy-foydali mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamda uning muayyan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan hamda ijtimoiy mehnat harakteridagi faoliyati turidir.

Hozirgi davrda ta'lim muassasalarida o'z-o'ziga xizmat keng yo'lga qo'yilmoqda. O'z-o'ziga xizmat o'quvchilarning ijtimoiy va o'quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida ularning o'zlarini tomonidan amalga oshiriluvchi mehnat faoliyati turidir. O'quvchilarning navbatchiligi o'z-o'ziga xizmat qilishni tarkib toptirishning muhim shaklidir.

Unumli mehnat turlari xilma-xildir. Masalan, o'quvchilarning mehnat haftaligi, chorvaga yem-xashak tayyorlash va shirkat xo'jaliklarida faoliyat yuritish va boshqalar. Unumli mehnat – o'quvchilar mehnatining eng ommaviy shakli sanaladi.

O'quvchilar hozirgi davrda „Kamolot“ yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatida ishtirok etadilar, dorivor o'simliklar, urug'larni yig'ish, məktəb binolarini ta'minlashda qatnashmoqdalar, fermer, shirkat va jamoa xo'jaliklarida ishlab chiqarishni tashkil etishda ishtirok etmoqdalar.

Ayni vaqtida juda ko'plab maktablarda yordamchi xo'jalik mavjud. Korxona va xo'jaliklar ta'lim muassasasiga majmuaviy yondashuv asosida mehnat tarbiyasini tashkil etishga ko'maklashmoqdalar. O'quvchilar ishlab chiqarish subyektlarining iqtisodiy rivojlanishi bilan tanishadilar, Bu jarayon ularni turli kasblarni egallash shartlari va sharoitlari bilan tanishtirishga yordam beradi.

Mehnat tarbiyasi o'quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashni nazarda tutadi. Zero, mavjud sharoitda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar shaxs kamolotiga nisbatan juda katta talablarni qo'ymoqda. Xususan, mehnatga muhim ijtimoiy burch sifatida qarash, ma'lum faoliyatni bajarishda mas'uliyatni his etish, mehnatga va uning natijasi, shuningdek, mehnat jamoasiga hurmat, mehnat faoliyatini tashkil etishda tashabbuskorlik, faollik ko'rsatish, o'z aqliy va jismoniy qobiliyatini to'liq namoyon etishga bo'lgan ichki ehtiyoj, mehnatni

ilmiy tashkil etish yo'lida amaliy harakatni olib borish shular jumlasidandir.

Mehnatga psixologik jihatdan tayyor bo'lish esa tarbiyaviy ishlar tizimida amalga oshirilib, ularning har biri quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- o'quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyati, mehnatni tashkil etish hayotiy zaruriyat ekanligining anglab yetilishiga erishish;

- ularda mehnat faoliyatini amalga oshirishga nisbatan rag'bat uyg'otish;

- o'quvchilarda mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish va hokazolar.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, mulkka egalik, xususiy mulkni yaratish yo'lida qonun doirasida olib borilayotgan amaliy faoliyatni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ijtimoiy harakatlar mehnat tarbiyasiga yangicha yondashuvni talab etmoqda.

Mehnat tarbiyasining yangi texnologiyalar asosida o'quv dasturlari, ta'lim metodlarining variativligi tamoyili yotadi. Dasturlar kasb-hunar kollejlari ixtisoslashgan turli kasblar bo'yicha yaratiladi. Ularda kasbiy ta'limni o'zlashtirishga nisbatan qo'yilgan davlat talablari o'z ifodasini topadi.

Ta'lim jarayonida egallangan bilim, ko'nikma va malakalar mehnat tarbiyasida pedagogik faoliyatning yakuniy natijasi emas, balki inson qobiliyatining rivojlanishi, ya'ni, mehnatga bo'lган layoqatini rivojlantirishning samarali vositasidir. Bu esa mehnat tarbiyasida an'anaviy metodlarni emas, balki bilim olishning faol metodlaridan foydalanib, o'quvchilarda tadqiqotchilik hamda ixtirochilik malakalarini rivojlantirish metodlarini qo'llashni nazarda tutadi. Bundan tashqari muammoli, izlanuvchan tadqiqot metodlari, konstrukturlash, loyihalash, texnik modellasshtirish, mehnatni tashkil etish jarayonida uning eng yaxshi variantlarini izlab topish, ijodiy topshiriqlarni to'g'ri tanlay olish, shuningdek, tanlovlardan yoshlarning ijodiy ko'rgazmalarni tashkil etish ham eng samarali metodlardan sanaladi.

Mehnat ta'limi va tarbiyasining tashkiliy-metodik shakllari o'qituvchi tomonidan tanlanadi. Bu shunday shakl va metodlar bo'lishi kerakki, u o'quvchiga mehnati muvaffaqiyatidan quvonch baxsh etsin, o'z mehnatidan o'zi faxrlansin.

Mehnat tarbiyasining texnologiyalari o'quvchining nazariy bilimlarini amaliyatda qo'llash imkoniyatini yaratishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, mehnat ta'limi mazmunini ham takomillash-tiradi. U kompleks xarakter kasb etib, o'quvchilarda o'quv texnika va texnologiyalari haqida tasavvur hosil qilishi, amaliy masalalarni hal etish malakasini shakllantirishi, sifat natijalarini ta'minlashi lozim. Ayniqsa, o'quv topshiriqlarini hal etishga ijodiy yondashish, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy, ijtimoiy ko'rsatkichlarini yuqoriga ko'tarishga intilish hosil qilishi maqsadga muvofiqdir.

8. Iqtisodiy tarbiya

O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlari shakllanayot-gan sharoitda o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish va ularda iqtisodiy faoliyatni yurita olish ko'nikma, malakalarni shakllan-tirish o'ziga hos ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy tarbiya - o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila budgetini shakllantirish, oila xo'ja-ligini yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Iqtisodiy tarbiya ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilayotgan iqtisodiy ta'lim bilan chambarchas holda olib boriladi. Iqtisodiy tarbiyani tashkil etishda oila, ta'lim muassasasi va jamoatchilik o'rtaсидаги mustahkam hamkorlikka tayanish ijobiy natijalarni kafolatlaydi.

Iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'quvchilarga iqtisodiy bilim asoslari (iqtisod, oila xo'jali-gini yuritish va boshqarish, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, ishlab chiqarishni moliyalashtirish, kapital, tadbirkor, tadbirkorlik

faoliyati, kichik va o‘rta biznes, ijara, shartnomalar va ularni tuzish, banklar, bank operatsiyalari, bujudetni shakllantirish, daromad, bankrot, biznes-reja va boshqalar) borasida chuqur bilimlar berish va ularni takomillashtirish;

– o‘quvchilarda iqtisodiy ong va tafakkur, xususan, mavjud moddiy boyliklarga nisbatan oqilona munosabatni tarbiyalash;

– ularda muayyan kasbiy yoki ishlab chiqarish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

– ularni iqtisodiy ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish;

– o‘quvchilarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga nisbatan ehtiyoj va layoqatni yuzaga keltirish;

– ular tomonidan tor doirada bo‘lsada tadbirkorlik faoliyatining yo‘lga qo‘yilishiga erishish.

Iqtisodiy mavzulardagi suhbat, bahs-munozara, hamda treninglar, ishlab chiqarish ilg‘orlari bilan uchrashuvlar, ishlab chiqarish korxonalariga uyushtiriluvchi ekskursiyalar, tadbirkorlik yoki muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi ishchanlik o‘yinlari, o‘quvchilarning ishlab chiqarish borasidagi ijodiy qobiliyatlarini namoyish etishga imkon beruvchi ko‘rik-tanlovlari, ularning iqtisodiy tafakkurini o‘stiruvchi iqtisodiy yo‘nalishdagi konferensiya, seminar va munozaralarni tashkil etish iqtisodiy tarbiya samaradorligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Xalqimizning yo‘li – mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo‘lidir” nomli asarida quyidagilarni bayon etadi: “Bozor munosabatlariga o‘tish davrida o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni, marketing, menejment, biznes sohasida bizning iqtisodiy rivojlanishi-mizda bu tushunchalarnig mohiyati va roli borasida ko‘proq bilim berishimiz maqsadga muvofiqidir”, - deya ta’kidlagan edi. O‘zbekiston rahbariyatining mustaqillikni e’lon qilgandan keyingi dastlabki qadamlaridan biri iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdan iborat bo‘ldi. Bunga quyidagi tamoyillar asos qilib olindi:

1. Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ta'siri ostida bo'lmasligi kerak. Bu iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerakligini bildiradi. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarning mafkuradan holi bo'lishini ta'minlash kerak.

2. Davlat bosh islohotchi sifatida namoyon bo'lishi darkor. U ustunlikni belgilashi, o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va izchillik bilan amalga oshirishi, jaholatparast va mutaasiblar qarshiligini bartaraf etishi lozim.

3. Qonunning ustuvorligi, qonunga rioxha qilish. Bu demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiyani va qonunlarni istisnosiz hamma kishi hurmat qilishi hamda ularga so'zsiz rioxha qilishi kerakligini bildiradi.

4. Aholining demografik tuzilishini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish. Bozor munosabatlarining joriy etilishi aholini ijtimoiy himoya qilishga doir amaliy tadbirdarning o'tkazilishi bilan birga olib borilishi kerak. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan edi va shunday bo'lib qoladi.

5. Bozor iqtisodiyotiga o'tish puxta o'ylangan holda, bosqichma-bosqich, obyektiv iqtisodiy qonuniyatlar talablarini hisobga olish tamoyillarini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy tarbiyani uzluksiz amalga oshirishda ta'lim muassasalarida dars va darsdan tashqari sharoitlar, shuningdek, oilada amalga oshirilayotgan harakatlar muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy mazmundagi suhabatlar, uchrashuvlar, ekskursiyalar, to'garaklar ko'rinishidagi amaliy tadbirdorlik faoliyati (u yoki bu hunar yo'nalishidagi ijodiy ishlari)ni tashkil etish o'quvchilarda iqtisodiy tafakkurning shakllanishiga yordam beradi. Demak, iqtisod inson faoliyatining asosiy jihatni bo'lib, jamiyatning eng muhim negizi, uning poydevori hisoblanadi. Chunki, eng avvalo, insonning inson sifatida talab-ehtiyojining qondirilishi, albatta, uning iqtisodiy faoliyati asosida erishiladi.

Bulardan ma'lumki, inson o'z hayotida iqtisodiyot bilan doimiy munosabatda bo'ladi. Iqtisodiy tarbiya, avvalo, oiladan boshlanadi. Oilada iqtisodiy tarbiya zamirida ham mehnatsevarlikni tarbiyalash yotadi. Bolalar o'z mehnati natijalarini

ko'rgandagina o'z imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanayotganini anglab yetadi, mustaqil faoliyat yuritishni o'rganadi, ularda tadbirkorlik va ishbilarmonlik xislatlari tarkib topadi.

Oilada yo'lga qo'yiladigan bolalar mehnati hovli va xonalarni tartibli saqlash, kiyim-kechaklarni asrab-avaylash, uy jihozlarini ta'mirlash, ro'zg'or yumushlariga yordam berish kabilar ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Ota-onalar bolalarni mehnat faoliyatini kuzatib borib, ularga zarur o'rinda maslahat beradilar. Ayniqsa, o'quvchi-yoshlarda oilada ham, ta'lim muassasalarida ham tejamkorlikka riosa qilishga o'rgatish katta ahamiyatga ega.

Iqtisodiy tarbiya o'z ichiga o'quvchilar tomonidan iqtisodiyot asoslarini o'rganish, ularning unumli va ijtimoiy mehnatning turli ko'rinishlarida ishtirok etish, rejalashtirishga doir bilim va malakalarga ega bo'lish, ishlab chiqarish mahsulotlarini hisobga olish va nazorat qilish kabilarni oladi.

Iqtisodiy tarbiyaning inson va jamiyat, iqtisodiy geografiya, tarix, matematika, kimyo, biologiya, mehnat ta'limi darslarida amalga oshirilishi yanada ijobiy samaralarni beradi. Eng muhimi «Iqtisodiyot asoslari» o'quv fani asosida o'quvchilar iqtisodiy tushunchalar, kategoriylar hamda ishlab chiqarishni rivojlantirish qonuniyatlarini o'rganadilar.

Jamiyatda keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish, xo'jalikni oqilona tashkil etish, sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini takomillashtirish, moliya operatsiyalarni to'g'ri tashkil etish, rejalashtirish, mehnat unumdarligi, ishlab chiqarish samaradorligi, korxonalar rentabelligi, kichik va o'rtaligining biznes, ijara, bozor infrastrukturasi, mahsulot qiymati, sof daromad, qo'shimcha daromad, budjet, xaridor, tovar, tovarlar importi va eksporti, shartnoma, birja, raqobat, menejment, marketing, pul, bank, banknot va boshqalar haqida to'la ma'lumotlarning berilishi o'quvchilarning iqtisodiy ongini shakllantirishga yordam beradi. Maktabda olib boriladigan iqtisodiy ta'lim va tarbiya ishlari aynan shu maqsadga xizmat qilishi lozim. Iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida – o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish asosida mamlakat iqtisodiy

barqarorligini ta'minlash, bozor infrastrukturasi qoidalalariga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta biznesni yaratish borasidagi faoliyat jarayonida ishtirok etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, inson mehnati bilan bunyod qilingan moddiy boyliklarni asrash, ularni ko'paytirish borasida qayg'urish tuyg'ularini qaror toptirish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish yotadi.

Iqtisodiy tarbiya vazifalari:

- o'quvchilarda iqtisodiy ongni izchillik bilan rivojlantirib borish;
- oqilona ehtiyojlarni, ularni moddiy imkoniyatlar bilan taqqoslash qobiliyatini shakllantirish;
- bolalarda o'z ehtiyojlarini to'laroq qondirishga bo'lgan izlanishlarda mehnatga yo'nalghanlikni tarbiyalash;
- kasb tanlashga ongli munosabatda bo'lish, tejamkorlik, rejaliilik, omilkorlik, ishchanlik, xo'jalikni tejab-tergab olib borish kabi sifatlarni tarbiyalash;
- o'quvchilarni iqtisodiy tahlil qilish malaka va ko'nikmalari bilan qurollantirish, tejamkorlik va iqtisod qilish odatlarini tarbiyalash, aqliy va jismoniy mehnat madaniyatini shakllantirish, mehnatni ilmiy tashkil etish asoslarini egallab olish;

- mas'uliyatsizlikka, mehnatdagi tartibsizlikka, bekorchilikka, boqimandalik kayfiyatlariga, xo'jasizlikka, isrofgarchilikka, beparvolikka murosasiz munosabatda bo'lish hissini tarbiyalash va hokazo.

Iqtisodiy tarbiyaning ahamiyati xususida Sharq mutafakkirlari, pedagog olimlar o'z qarashlarini bayon etganlar. Ibn Muso al-Xorazmiy kishi hisob ilmini bilishi va o'z ishiga pishiq bo'lishi kerakligi, shundagina u o'z mehnatining natijalarini o'lchovlar orqali aniqlay olishi mumkinligini ta'kidlasa, Abu Nasr al-Forobiy insonga yashash uchun juda ko'p narsalar kerakligi va ularni vujudga keltirish yo'lida boshqa shaxslarga murojaat qilishni e'tirof etadi. Al-Forobiy "Baxt-saodatga erishuv haqida" asarida shunday yozadi: "*Inson o'z mablag'ini sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchiqlik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboslikka yetaklaydi*".

Ibn Sino bolalarni hayotga tayyorlash uchun ularga hunar o'rgatish lozim deb ko'rsatadi. Inson hunarni puxta o'rghanishi shart. Chunki hunar unga kelajakda ro'zg'or tebratish uchun kerak. Bu shunday olib borilishi kerakki, u o'z mehnatining natijalarini ko'ra bilsin. Shundagina bola o'z imkoniyatidan to'g'ri yoki noto'g'ri foydalanayotganini anglashi lozim. Hunar egallash yoshlarni mustaqillikka o'rgatadi. Bu jarayonda bola hisob-kitob qilishni ham o'rGANADI, ishbilarmonlik va tadbirdorlik hususiyatlariga ega bo'ladi.

Tejamkorlik, ijodkorlik, mas'uliyat hissi tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, hisob-kitob mohirligi o'quvchilar iqtisodiy tarbiyadan qanday saboq olayotganliklarini ko'rsatuvchi muhim belgilardir.

9. Ekologik tarbiya

"Ekologiya" tushunchasi ilk bor nemis zoologi E.Gekkel tomonidan qo'llanilgan. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ekologik tarbiya (grekcha "oikos" -turar joy, makon, "logos" - fan) o'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

O'zbekiston Respublikasida tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'lda amalga oshiriluvchi ijtimoiy-ekologik harakat mazmuni "O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish Milliy harakat rejasii"da o'z ifodasini topgan.

Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish, shuningdek, ekologik muammolarning ijtimoiy xavfi xususida to'xtalib, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrni qayd etadi: "Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachon milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Ekologiya hozirgi zamoning keng miyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha halqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning

hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir".

O'quvlarda tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatni qaror toptirish, mehr-muhabbatni uyg'otish, atrof-muhit musaffoligiga erishish ekologik muammolarni hal etish yo'lida muhim bosqich sanaladi.

Ekologik ta'lif o'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'lifiy jarayonidir.

Nazariy ekologik bilimlar (ekologik ong) hamda atrof-muhit va tabiat muhofazasi yo'lida olib borilayotgan faoliyat birligi ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ekologik ong tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarining ongdagi ifodasi bo'lib, u murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ekologik faoliyat esa ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalgalash oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui demakdir.

Ekologik madaniyat o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etilishi zarur:

1. O'quvchilarning ta'lif jarayonida o'zlashtirgan ekologik bilimlarini yanada oshirish.

2. Ularning tabiat va atrof-muhit ekologiyasi to'g'risidagi tasavvurini boyitish.

3. O'quvchilarda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash ijtimoiy zaruriyat ekanligi to'g'risidagi e'tiqodni shakllantirish.

4. O'quvchilarda ekologik faoliyat ko'nikma va malakalarni tarbiyalash hamda ularning tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash jarayonida faol ishtirok etishlariga erishish.

Oila va jamiyatda tashkil etilayotgan ekologik tarbiyaning suhbat, davra suhbat, ekskursiya, bahs-munozara, ijodiy tanlovlardan, uchrashuv, ijtimoiy-foydali mehnat (shanbalik, xashar, ko'kalamzorlashtirish) kabi shakl hamda suhbat, kuzatish, amaliy

faoliyatni tashkil etish, rag‘batlantirish va jazolash kabi metodlar yordamida tashkil etish o‘quvchilarda ekologik madaniyatni qaror topishini ta‘minlaydi.

O‘quvchi tarbiyasida ishtirok etayotgan subyektlarning shaxsiy namunalari, o‘quv manbalari, badiiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari (shu jumladan, internet) materiallari va ularning g‘oyalari o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim vositalari sanaladi.

“Ekologiya” tushunchasi ilk bor nemis zoologi E.Gekkel tomonidan qo‘llanilgan. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ekologik tarbiya (grekcha “oikos” -turar joy, makon, “logos” -fan) o‘quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Ekologik ta‘lim deganda o‘quvchilarga berilishi lozim bo‘lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi. Ekologik tarbiya esa insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir.

Ekologik ta‘lim-tarbiya umumiyligi ta‘lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo‘lib, mакtabda barcha fanlarni o‘qitishda amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi. Ekologik ta‘lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodga atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir. Ekologik tarbiyalash jarayonida yoshlarni yashab turgan tabiatimiz boyliklarini tejab-tergashga, uni muhofaza qilishga o‘rgata boriladi.

Atoqli pedagog V. A. Suxomlinskiy “Bolalarga jonim fido” asarida “Men bolalar “Alifbe”ni ochib, birinchi so‘zini g‘ijjalab o‘qishlariga qadar avval dunyodagi eng ajoyib kitob-tabiat kitobini mutolaa etishlarini istardim” deb ta‘kidlaganidek, bu boradagi barcha ishlarni bolaning kichikligidanoq boshlash maqsadga muvofiqdir.

Ekologik tarbiyada o‘quvchilarni o‘z mакtabini; yashaydigan muhiti-shahar va qishloq ko‘chalarini ko‘kalamzorlashtirish, mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari ekish, hiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash, uy hayvonlariga qarash kabi ishlarda

kuchi yetgancha qatnashishga jalb etish katta ahamiyatga ega. Ekologik savodxonlik va madaniyat, avvalo, oiladan boshlanadi. Ekologik duyonqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir. Agar bu masala oilada to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, uni maktablarda, keyingi ta'lif bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo'ladi.

Ajdodlarimiz bola tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor bilan qaraganlar va bu borada ibratli an'analarni vujudga keltirganlar. Bolalar go'daklik chog'laridanoq axloqiy va mehnat tarbiyasini oilada boshlaganlar. Ularda mehnatga muhabbat, atrof-muhitga hurmat, obodonchilik va ko'kalamzorlashtirish hissi sabot bilan singdirilgan. Masalan, atrofni ifloslantirmaslik uchun axlatlarni alohida chuqurchalarga tashlash; xojatxonalarini ariq, soy, buloq suvlaridan uzoqroq joyda kovlash; yong'in chiqmasligi chorasin ko'rish; turli ehtiyojlar uchun yashnab turgan daraxtda emas, balki qurib qolganlaridan foydalanish; nihollarni sindirib, payhon qilmaslik; qushlarning uyasini buzmaslik kabi xatti-harakatlar shakllantirilgan. Oila davrasida farzandlarga "Suvga tuflama, uni iflos qilma, chunki barcha jonivorlar uni ichib bahra oladi", "Gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirma, u meva beradi, uni o'zing iste'mol qilasan", "Pishib yetilmagan uzumni uzma, agar uzsang katta gunoh ish bo'ladi. Chunki unda ahli mo'minning nasibasi bor" – deb pandu-nasihatlar qilganlar. Islomdan avval zardushtiylik dinida tabiatni, xususan, suvni iflos yoki isrof qilgan kishi 400 darra kaltaklangan. Suvga hurmat islom dinimizda ham saqlanib qolgan. Mana shu hurmat ta'sirida xalqda ko'plab maqollar, rivoyatlar, ibratli hikoyalar, ertaklar vujudga kelgan. Ekologik ta'lif va tarbiyalash tizimi bolalar bog'chalarida, umumiylar ta'lif maktablarida, keyingi ta'lif bosqichlarida hamda mehnat jamoalarida davom ettiriladi. Ekoliya fani hozirgi bozor munosabatlari davrida ko'pgina tarmoqlarga ega: o'simliklar ekologiyasi, zooekologiya, tuproq ekologiyasi, inson ekologiyasi va boshqalar. Ekoliya fani tanlab olingan bir yoki bir necha obyektning yashash sharoitini yoki normalarini o'rganadi va yashashning optimal darajasini aniqlashga yordam beradi. Bu yo'nalishdagi ishlar bizga ekologik bilimlarni yetkazadi, ammo bu

bilan insoniyat cheklanib qolmaydi. Davr talabiga ko'ra, yana boshqa yo'nalishda ham ish olib borishni talab etmoqda. U ham bo'lsa **ekologik tarbiya masalasidir**.

Ekologik tarbiya albatta ekologik bilim asosida shakllanadi, lekin u o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ekologik tarbiya insonda tabiatga nisbatan to'g'ri, oqilona munosabatni shakllantirish masalasi ustida ish olib boradi va o'z oldiga talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishdek maqsadni qo'yadi. Ekologik tarbiyaning mazmuniga ekologik onglilik, ekologik his-tuyg'ular (tabiatga, insonlarga, hayotga nisbatan munosabatlar) kiradi. Shunday qilib, ekologik tarbiya inson hayotida, jamiyatda, vatanda muhim ahamiyat kasb qiladi.

Ekologik tarbiyaning shakllanishiga ekologik bilimlarni egallash bilan bir qatorda ekologik munosabatlarni ham shakllantirib borish zarur bo'ladi. *Ekologik munosabatlarga:*

1. Hayotga munosabat.
2. Yaxlitlik hissini tarbiyalash.
3. Javobgarlik hissini tarbiyalash.
4. Tabiat go'zalliklarini his etish kabi komponentlarni kiritish mumkin.

Inson umrining asosiy qismi oila davrasida kechganligi uchun uning kamoloti tarbiya, iqtidor, salomatlik kabi tushunchalar bilan uyg'undir. Chunki bularning asoslari aynan oilaviy muhitda shakllanadi.

Oila shunday maskanki unda hayotning davomiyligini ta'minlovchi shaxs shakllanadi.

Oila, jamiyat va tabiatda bugungi kunda shunday muammolar paydo bo'lmoqdaki, bularni osonlikcha hal etib bo'lmaydi. Bu muammolar eng avvalo, ekologiya, salomatlikni saqlashga tegishli. Aholi istiqomat qilayotgan joylarni, ularni o'rab turgan atrof-muhitni tezroq sog'lomlashtirish, go'zal tabiatimizga rahna solmaslik, odamlarni turli kasallikkardan asrash, avaylash va kasalliklarning oldini olish eng muhim masalalardan hisoblanadi. Shuning uchun oilada ekologik tarbiyani shakllantirish juda katta ahamiyatga ega.

Ekologik xavf mavjud bo'lib turgan holatda, bu bilan faqat mutaxassislar shug'ullanishi lozim yoki ekologik tarbiyani faqat tarbiyachilar yoki o'qituvchilar beradi deb hisoblab, qo'l qovushtirib o'tirish noto'g'ri. Ekologik tarbiyani avvalo, eng mustahkam va xotirada umrning oxirigacha saqlanib qoladigan qismini ona va ota – ya'ni oila beradi. Oilada bolani kichik yoshdan ekologik tarbiyaga o'rgatishda quyidagi omillar mavjud:

- milliy qadriyatlar, diniy, qadimiy urf-odatlarni tushuntirib borish;

- shaxsiy ibrat, ya'ni, ota-onaning amalda tabiatni asrashga harakat qilishi, bevosita o'z faoliyatlari orqali buni isbotlab berishi.

Ota-onas, bobo-momolarni e'zozlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, oilani muqaddas bilish, er-xotin o'rtasidagi muomalada teng huquqlilik farzandlar tarbiyasiga mas'ullik, qarindoshlik urug'chilik munosabatini me'yorida olib borish, yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatish – bular umuminsoniy qadriyatlarning eng oddiy ko'rinishlaridir. Chunki oila vakillari tor darajadagi qiziqishlaridan umuminsoniy qadriyatlarga ko'proq yaqin bo'lishi, odamlar o'rtasidagi milliy, irqiy, ijtimoiy farq-larga falsafiy qaray bilishlari kerakligini hayot ko'rsatmoqda.

Ilmiy tarbiya esa bolaga dastlabki ekologik ko'nigmalar paydo bo'lgandan so'ng, mustahkamlovchi omillar sifatida singdiriladi. Masalan, ekologiyaga oid maqolalarni sodda bir tarzda sharhlab tushuntirishni, oilaviy dasturxon ustida suhbat chog'ida ekologik fojialar har bir insonning aybi bilan yuzaga kelishini isbotlab berish orqali amalga oshiriladi. Ko'rgazmali tarbiya esa bevosita onaning xatti-harakati orqali bola mustaqil ish bajara oladigan yoki ona bilan birga ish qila boshlagan bir paytda olib boriladi. Masalan, uydagi gullarni ehtiyyotkorlik bilan, hayvonlar, qushlarni mehr bilan parvarishlashi, suv, gazning tejab ishlatalishi va boshqa ishlarni olib borishi, shuningdek, ko'chalarining go'zal joylarini alohida ko'rsatish, yoki chiqindi uyumlarini, sindirilgan daraxt, toptalgan o't-o'lanlarni bolaga ko'rsatib, unday ishni qilgan bolalarni yaxshi inson bo'lib yetisha olmasligini misollar bilan aytish orqali amalga oshiriladi.

Aslida, bu tarbiya uzlusiz, mantiqiy izchillik bilan har doim davom etishi lozim. Bunday tarbiya uchun avvalo, ota-onaning o'zlarini ekologik ma'lumotga ega bo'lishi zarur. Hech bir oila yo'qki o'z farzandlarining barkamol bo'lishini xohlamasa, hech bir zot yo'qki, go'zal, xushhavo, serobgarchilik yurtni istamasa. Zero, ekologik tarbiya barkamol insonning o'zagidir. Oilada bola o'simlik va hayvonlarni e'zozlash, avaylash mohiyatini tushunmasa va bilmasa, kundalik turmushda unga o'rgatilmasa, bolaning umumiy tarbiyasida tabiatni qadrlash, e'zozlash fazilatlari va u bilan bog'liq axloqiy va insoniy ko'nikmalari yetishmaydi. Hozirgi sharoitda ekologiya muammosi axloqiy ongning bu masalaga oid tomonlarini chuqur va har tomonlama o'rganish ilmiy uslubiy asoslangan amaliy tavsiyalar berish kerakligini taqozo etmoqda. Umuman olganda, inson umrini qamrab oladigan ekologik ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish payti keldi. Bugungi kunda tabiat va uning boyliklariga nisbatan bo'layotgan ehtiyyotkorlik ko'pgina obyektiv ehtiyojlar tufayli emas, balki ekologik madaniyatsizlik, tabiatdagi o'zaro aloqadorlikni tushunmaslik oqibatida sodir bo'lmoqda. Tabiatga yetkaziladigan salbiy ta'sir asta-sekin kishilar hayoti uchun xavf tug'dirishini aholi, ayniqsa yoshlar ongiga singdirish darkor. Yoshlarni ekologik ruhda tarbiyalash dastavval oilada boshlanadi. Xalqimizda bola boshdan degan naql bor. Yoshlikdagi to'g'ri tarbiya kamolotni ta'minlaydi. Ekologik tarbiyaning o'ziga xos va juda murakkab xususiyatlarini hisobga olgan holda, uni ekologik ma'naviyat va ommaviy tarbiya ishlarining muhim tarmoqlaridan biri sifatida yuqori darajaga ko'tarmoq kerak. Bizning farzandlarimiz kamolotga yetishlari uchun oilada sog'lom muhit barqaror bo'lishi lozim. Oila asosi er-xotin orasidagi munosabatlar samimiyligi, bir-biriga mehribon bo'lib, yolg'on gaplarsiz, gumonsiz ochiq chehra, shirin so'z orqali kechishi oiladagi ruhiy va ma'naviy muhitning sozligini ta'minlaydi. Shu o'rinda birinchi navbatda oilada ota-onaning ekologik ma'lumotlar bo'yicha pedagogika madaniyatini hamda uni amalda qo'llashga o'rgatish bilan ta'lim berish muammolarini ham hal etish darkor. Shuningdek, oilada bolalarga ekologik tarbiya haqida ma'lumot berish hamda hayotda qo'llashga

o'rgatuvchi ko'nikma va milliy urf-odatlarni shakllantirish lozim. Bu muhim muammoni hal qilmay oilada bolalarni ekologik tarbiyalash mushkuldir. Inson hayoti bilan tashqi muhit o'rtasidagi bog'liqlikni hech kim inkor etmaydi. Lekin uni ko'pincha yuzaki tushunamiz. Aslida, mana shu nuqtayi nazar, tasavvur insonni tashqi olamdan ajratib qo'yishi mumkin. Ekologik madaniyat, eng avvalo, insonning o'z-o'zini bilishidan boshlanadi. Ekologik madaniyat sohibi bo'lish, tabiatga zarar keltirish emas, balki uning gullab yashnashi, yanada yaxshilanishiga hissa qo'shish, unga yomon munosabatda bo'lganlarga qarshi mardonavor kurashmoq ham demakdir.

10. Nafosat tarbiyasi

Nafosat tarbiyasi barkamol shaxs tarbiyasining ajralmas tarkibiy qismidir. O'quvchilarda nozik didlilikni, go'zallikni fahmlay va qadrlay olishga o'rgatish nafosat tarbiyasining asosiy masalalaridan biridir.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya) bu o'quvchilarni voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir.

Nafosat tarbiyasining vazifalari:

- nafosat tarbiyasiga doir bilimlarni shakllantirish;
- nafosat madaniyatini tarbiyalash;
- madaniy qadriyatlarga estetik munosabat;
- faoliyatga estetik munosabat;
- nafis his-tuyg'ularni rivojlantirish;
- insonni hayot, tabiat, mehnat go'zalliklariga oshno qilish;
- hayoti va faoliyatini qurishda go'zallik qonunlariga qurish istagini rivojlantirish;
- hayolda, faoliyatda, xatti-harakatda, tashqi ko'rinishda go'zal va yoqimli bo'lish istagini uyg'otishdan iborat.

Madaniy qadriyatlarga, faoliyatga estetik munosabatni shakllantirish maqsadida tevarak-atrofdan tanlab olingen turmush, tabiat, san'at go'zalligi va bolalarning badiiy faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon nafosat tarbiyasining muhim vositalari hisoblanadi. Ba'zi ota-onalar bolalarda did va farosat o'stirishni yuzaki tushunadilar va o'z bolalarida shu hislatlarni tarbiyalamoqchi bo'lgan vaqtlarida jiddiy xatolarga yo'l qo'yadilar. Chunonchi, bolani sodda va ozoda kiyintirish o'rniga qimmatbaho kiyim va buyumlar olib beradilar va shunday qilish bilan bolaning did va farosatini buzayotganliklarini sezmaydilar. Shuni yaxshi bilish kerakki, did va farosat tug'ma bo'lmaydi. U bolalarda yoshlik chog'dan boshlaboq oilada, bog'chada, mакtabda, qurshab olgan muhit, kishilar, o'rtoqlari ta'siri ostida, shuningdek, kinofilmlar va turli madaniy muassasalar ta'sirida tarbiyalanadi va kamolotga yetabordi.

Shuning uchun oila, maktab, mакtabdan tashqi muassasalar, "Kamolot" va "Kamalak" tashkilotlari bolalardagi yaramas odatlarni yo'qotishga, ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari orasidagi "stilga" intilish (harakatlari)ga barham berishga, ularda chin insonga xos bo'lgan did va farosatni tarbiyalash va takomillashtirishga alohida e'tibor berishlari kerak. Barkamol shaxsning nafosat tarbiyasidagi zaruruiy jihatlardan biri, ularning eng yuksak nafosat tuyg'uga ega bo'lishlari, sodda, ozoda va chiroyli kiyinishlari, san'atni qadrlashlari va ma'naviy jihatdan pok bo'lishlari lozim.

Pedagog-tarbiyachilarining birdan-bir vazifasi bolalarga ana shunday xislat va odatlarni singdirish hamda bolalarda did va farosat qanchalik taraqqiy etgan bo'lsa, ularning intizomi ham shuncha yaxshi bo'lishini unutmaslikdan iborat. Bolalarda did va farosatni tarbiyalash masalasi bilan faqat oila, bog'cha va mакtabgina emas, balki mакtabdan tashqari muassasalar va butun jamoatchilik ham shug'ullanishi lozim.

Bolalar o'rtaida "*Madaniy xulq to 'g'risida*", "*Odob to 'g'risida*", "*Xushmuomalalik to 'g'risida*", "*Kiyinish to 'g'risida*" va boshqa shu singari mavzularda tez-tez suhbat, ma'ruza va munozaralar o'tkazib turish kerak.

Nafosat tarbiyasini berish yo'llari: Maktabda nafosat tarbiyasini berish turli yo'llar bilan amalga oshiriladi. Nafosat tarbiyasi o'qish jarayonida, o'quvchilarga badiiy jihatdan tarbiyalaydigan "Matematika", "O'qish", "Jismoniy tarbiya" "Mehnat darsi" fanlarni o'qitish jarayonida, ijtimoiy foydali mehnat jarayonida, turmushni chiroqli qilib tashkil etish va o'quvchilarning bir-birlari bilan bo'ladigan munosabatlarda beriladi.

Ta'lim jarayonidagi nafosat tarbiyasi. Maktabning boshlang'ich sinflarida o'qitiladigan har bir fan hamda maktabdan va sinfdan tashqari jarayonda tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirdilar, tarbiyaviy soatlar bolalarga nafosat jihatdan ta'sir etish imkonini beradi. O'quvchilar she'rlar, hikoyalar, xalq og'zaki ijodi namunalari – maqol, matal, ertak, doston, qo'shiq, rivoyat va hikoyatlarni o'qish orqali ularda go'zallikka intilish kuchayadi. Shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodiy faoliyati, asarlari bilan tanishish tahlil qilish orqali o'quvchilarning bilim doirasi kengayadi, his-tuyg'ulari va til boyligi takomillashadi. O'qish darslari o'quvchilarda go'zallikni idrok etishni ta'minlaydi. Boshlang'ich sinflardagi mehnat darsi ham bolalarda nafosat tuyg'usining o'sishiga yordam beradi. O'quvchilar arralash va kesish, kashta tikish, loydan turli buyumlar yasash malakalarini orttirish paytida chiroqli bezak va shakllarni tanlashga, rangiga qarab ip tanlashga, ishda saranjom-sarishtalikka, sabr-toqatli bo'lishga, eng asosiysi, o'zlarining chiroqli qilib yasalgan buyumlaridan zavqlanishga o'rghanadilar. Mehnat jarayonida tayyorlangan har bir buyum (tovar)ning ahamiyati, funktsiyasi, zaruriliği insonning tabiiy ehtiyojlarini qondirishi jihatidangina emas, balki uning qanchalik go'zalligi bilan ham baholanadi. Go'zallik bu hayotning o'zi, tabiat hamda inson mehnati natijalari, insoniy munosabatlarning mukammalligidir.

Jismoniy tarbiya fani bolalarni aniq va chiroqli harakat qilish, ularda musiqaga jo'r bo'lib ommaviy ravishda jismoniy mashqlarni bajarish vaqtida muvofiqlashtirilgan jamoa harakatlarining chiroqli chiqishini ko'rish va undan quvonish imkonini beradi.

I-IV sinflarning jismoniy tarbiya rejasiga harakatli o'yinlar, musiqi va sanoqqa qarab harakat qilish kiritilgan. Bu o'yin va

mashg‘ulotlar bolalarda nafosat tuyg‘usi va kechinmalarini hosil qiladi.

Maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida nafosat tarbiyasi. Boshlang‘ich maktablarning o‘quv rejasiga umumiy ma’lumot beradigan fanlardan tashqari nafosat fanlar sikli: rasm, ashula va sinfdan tashqari o‘qish kiritilgan.

Bu darslarni o‘qitishdan maqsad bolalarda nafosat tuyg‘usini uyg‘otibgina qolmasdan, balki o‘quvchilarga muayyan san‘at turining xususiyati va asosi haqida tushuncha berish, ularda ijodiy malaka va ko‘nikmalarni, tegishli qobiliyatlarni o‘stirishdir.

Badiiy so‘z vositasi bilan nafosat tarbiyasini berish. Bola o‘qishni o‘rganmasdan ilgariroq unga badiiy so‘z ta’sir eta boshlaydi. U kattalar o‘qib beradigan bolalar kitobini, kattalar hikoyasini tinglaydi, maqol va masallarni eshitadi, bolalar yozuvchilarining she’rlarini yod oladi.

Sinfdan tashqari o‘qish darsining asosiy vazifasi bolalarni kitobga qiziqтирish, ularning zamondosh yozuvchilarimiz haqidagi bilimlarini kengayтириш, o‘qish darsi rejasiga kirmagan asarlarni ham o‘qishga qiziqтирishdir. Sinfdan tashqari o‘qish darsiga o‘qish texnikasini o‘stirish vositasi deb emas, balki bunday dars jarayonida bolalarda kitob o‘qishga qiziqish hislarini, nafosat tuyg‘ularini uyg‘otuvchi vosita deb qarash kerak.

Shuning uchun o‘qituvchi sinfdan tashqari o‘qish darsida o‘quvchilarning odatdagи darslardagiga qaraganda ifodaliroq, o‘qishiga ko‘proq e’tibor berishi lozim, chunki ta’sirchan va ifodali qilib o‘qilgan asarlar kishiga ta’sir etadi.

O‘qituvchining o‘zi ifodali o‘qishda namuna bo‘lishi, ya’ni hikoyani ta’sirchan ohangda o‘qiy olishi, hikoya qahramonlarining kayfiyati va ularning nutqidagi o‘ziga xos xususiyatlarni yetkazib bera olishi, o‘qilayotgan narsaga o‘z munosabatini bildirishi lozim.

Tasviriy san‘at vositasida nafosat tarbiyasini berish. Badiiy ishlangan rasm va suratlar o‘quvchilarni tevarak-atrofdagi hayot bilan tanishtiradi, tabiatni, insonni va uning mehnatini sevishga o‘rgatadi, o‘z imkoniyatiga qarab, go‘zalliklar yaratishda ishtirok etish orzusini uyg‘otadi.

Agar o‘qituvchi rasm darsini xilma-xil metodlar (san’atga oid suhbatlar o‘tkazish, bolalar tushuna oladigan badiiy materiallar ko‘rgazmasini uyushtirish, rassomlar va san’at arboblari bilan uchrashuvlar o‘tkazish) qo‘llangani holda qiziqarli olib borsa, bu dars bolalarning sevimli darsiga aylanishi mumkin.

Badiiy materiallar yuzasidan ish olib borilganda bolalarda kuzatuvchanlik o‘sadi, ular tasviriy san’at janrlari to‘g‘risida, ranglarning bir-biriga uyg‘unligi to‘g‘risida, har xil ranglar to‘g‘risida boshlang‘ich tushunchaga ega bo‘ladilar, o‘tmishdagি va hozirgi zamon atoqli rassomlarining nomlarini bilib oladilar, ularning ijodi bilan tegishlichcha tanishadilar.

Musiqa vositasi orqali nafosat tarbiyasini berish. Musiqa kishining fikr va tuyg‘ularini musiqiy obrazlar yordamida ifodalaydi. Ashula darsi va xor yoki musiqa to‘garaklariga ishtirot etish o‘quvchilarni kuy, ohanglar dunyosiga olib kiradi, ularning tuyg‘u va kayfiyatiga ta’sir etadi.

Bolalar ashula darsida va xor to‘garagi mashg‘ulotlarida nota savodini o‘rganadilar, musiqa terminlari bilan, musiqa janrlari va cholg‘u asboblarining turlari bilan tanishadilar hamda vokal ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar.

Musiqa ta’sirining kuchayib borishi, musiqa eshitish uquvining o‘sishi, bolalarning musiqa va ashula sohasidagi bilim doirasining kengayishi o‘quvchilarning musiqani o‘zlashtirib olish qobiliyatining o‘sishiga yordam beradi, ularda durustgina nafosat musiqa didini hosil qiladi.

Raqs san’ati vositasi orqali nafosat tarbiyasini berish. Raqs san’ati san’atning boshqa turlari kabi bola fikri va tuyg‘usini boyitadi, ijrochilarga ham, tomoshabinlarga ham nafosat zavq bag‘ishlaydi. Raqsni yaxshi ijro etish uchun chaqqonlik, noziklik, maqomni bilish, kuzatuvchanlik, hayol va xotira kerakdir. O‘quvchi raqsga tushayotgan paytida raqsning g‘oyasi va kayfiyatini tushunishi, o‘zining his-tuyg‘ularini raqsda ifodalay bilishi kerak.

Raqs texnikasini egallash uchun ko‘pgina kuch va mehnat sarflash, jismoniy jihatdan chiniqqan, chaqqon, epchil bo‘lishi, o‘z harakatini ongli ravishda kuzata bilish lozim. Raqs san’ati jismoniy tarbiya bilan mustahkam bog‘langandir.

Raqs mashg‘ulotlari jarayonida ko‘pchilik ma’naviy hislar: iroda, qat’iylik, intizom, mehnatsevarlik, o‘rtoqlik tuyg‘usi va shu kabilar tarbiyalanadi.

Har qanday raqs his-tuyg‘u ko‘tarinkiligi bilan bog‘langan bo‘lib, ijrochiga quvonch baxsh etadi, uning butun borlig‘ini egallab oлади va unga nafosat jihatdan ta’sir ko‘rsatadi. Boshlang‘ich maktab bolalarini raqs vositasi bilan tarbiyalash juda muhimdir, chunki raqs nafosat kechinmalarini vujudga keltirish bilan bir vaqtda shu yoshdagi bolalarning harakatlanishga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi, ularni maqomga o‘rgatadi, bir-biriga moslab qilinadigan jamoa harakatidan quvonish hissini uyg‘otadi.

Tabiatni hissiy idrok etishni tarbiyalash. Qurshab olgan tabiat go‘zallikning tunganmas manbaidir. Gullar, bepoyon dalalar, qor bilan qoplangan tog‘larning go‘zal ko‘rinishlari ko‘zni quvontiradi, kishida nafosat kechinmalarini tug‘diradi. Kishiga, ayniqsa, o‘zi o‘sib-ungan joyning tabiatni kuchli ta’sir etadi. Biroq o‘quvchilarning tabiatni estetik idrok etishlari uchun ularni o‘z tevarak-atroflaridagi go‘zalliklarni payqashga, qurshab olgan olamning jozibadorligini ko‘ra bilishga, yilning har faslidagi go‘zalliklarga e’tibor berishga o‘rgatish kerak.

O‘qituvchi shu maqsadda tabiatga ekskursiya uyushtirishi mumkin. Maktab bolalarda tabiatdan shunchaki zavqlanish hissiga emas, balki dunyoni yanada go‘zalroq qilishga, tabiatdan insonga foyda beradigan narsalarni olishga intilish hislarini ham tarbiyalaydi.

Nafosat tarbiyasiga qo‘yiladigan talablar:

- nafosat tarbiyasini berishning xilma-xil usullarda amalga oshirish, badiiy materiallarni tushuntirishda o‘quvchilarini zeriktirib qo‘ymaslik va ularga ortiqcha nasihatgo‘ylik qilmaslik;
- nafosat tarbiyasini berishda san’at asarlaridan, radio va televideniyadan foydalanish hamda bolalarni didini buzadigan narsalardan ehtiyyot qilish;
- nafosat tarbiyasiga doir suhbatlar va boshqa tadbirlarni oldindan ishlab chiqilgan rejaga muvofiq tizimli va rejali o‘tkazish

hamda bu jarayonda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;

– tabiiyki, o‘qituvchi o‘quvchilarning nafosat tarbiyasini olishlariga muvaffaqiyatlari rahbarlik qilishi uchun o‘zi barcha go‘zalliklarni sezishi va sevishi, san’atning turli sohada yaratilayotgan barcha yaxshi narsalardan xabardor bo‘lishi, bu sohada o‘z bilimini kengaytirib borishi, bitta-ikkita badiiy to‘garakka rahbarlik qila olish qo‘lidan kelishi lozim.

Yaxshi yo‘lga qo‘ylgan nafosat tarbiyasi yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda yanada katta muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritishga yordam beradi.

11. Jismoniy tarbiya

Barkamol avlodni jismoniy tarbiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, bu tarbiyaning bosh maqsadi jismonan chiniqqan, mard va sabotli, qat’iyatli va vatanparvarlarni kamol toptirishdir. Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan 2010 yilni “Barkamol avlod” yili deb e’lon qilinishi bu tarbiyaga e’tiborni yanada kuchaytirdi.

Prezidentimiz: “*Farzandlari sog‘lom yurt qudratli bo‘ladi, qudratli yurtning farzandlari sog‘lom bo‘ladi*”, deb ta’kidlaydi. Yurtboshimiz fikrini davom ettirar ekan, eng avvalo har bir odam o‘z sog‘ligi haqida qayg‘urishi, har bir oila o‘zidan sog‘lom nasl, sog‘lom surriyot qoldirishni o‘ylashi zarur.

Agar farzand sog‘lom, oqil, iymon-e’tiqodli bo‘lsa, ota-onasiga faqat rahmat keltiradi. El-yurt nazaridan hech qachon chetda qolmaydi deb uqtiradi.

Jismoniy salomatlilik tarbiya tizimida muhim o‘rinni egallaydi va boshqa tarbiyalar bilan birga amalga oshiriladi. Jadidshunos olim Fitrat bolalarning jismoniy tarbiyasida turli harakatlari o‘yinlar katta o‘rin tutishini, ota-onalarga o‘z bolalarining shunday o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lishlarini ta’min etishlarini maslahat beradi: “Harakat har bir kishi uchun, ayniqsa bolalar uchun zarurdir. Shuning uchun bolalarni jismoniy chiniqtirishda ularni ayrim o‘yinlar bilan mashg‘ul qilish foydalidir. Bolalarni o‘yindan man etishning foydasi yo‘qdir. Ularning doimo bir joyda o‘tirishlari, harakat qilmasliklari ularni badanlarini zaif bo‘lishlariga olib keladi.

Ota-onalar doim o‘z bolalarini o‘yinga tashviq va targ‘ib qilishlari lozimdir. Ammo bolalarming o‘yinlari odob va axloq doirasidan tashqari chiqmasligi kerak”. Fitrat bu harakatli o‘yinlar bolaning aqli, farosati, ilmini rivojlanishiga va to‘g‘ri axloqiy tarbiya topishiga yordam berishi kerak, deb hisoblaydi. U bu o‘yinlar orqali bolaga hayotni o‘rgatish, aqliy va axloqiy tarbiya ham berish mumkin, asosiysi bolani jismonan chiniqtirishdir deb biladi.

Jismoniy tarbiyaning maqsadi – o‘quvchilar tanasidagi barcha a’zolarni sog‘lom o‘sishini ta’minlash barobarida ularni aqliy va jismoniy mehnatga, shuningdek, Vatan mudofaaasiga tayyorlash yotadi. Abdulla Avloniyning fikricha, sog‘lom fikr, yaxshi axloq va ilm-ma’rifatga ega bo‘lmoq uchun badanni tarbiya qilish zarurdir.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari:

- sog‘lijni mustahkamlash, jismoniy jihatdan to‘g‘ri rivojlantirish;
- aqliy va jismoniy layoqatlilikning oshishi;
- tabiatan berilgan harakat sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish;
- harakatning yangi turlariga o‘rgatish;
- asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish (kuchlilik, epchillik, chaqqonlik v.h.k.);
- sanitar-gigiyena ko‘nikmalarini shakllantirish;
- axloqiy sifatlarni tarbiyalash (mardlik, maqsadlilik, intizom-lilik, javobgarlik, jamoada yashash);
- jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy ravishda shug‘ullanish ehtiyojini shakllantirish;
- sog‘lom, tetik bo‘lishga intilishni rivojlantirish asosida o‘ziga va atrofidagilarga quvonch ulashish.

Jismoniy tarbiya kishilarga katta ta’sir ko‘rsatib, salomatligini mustahkamlaydi, ishslash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko‘rishga yordam beradi. Sport – har qanday yoshda ham qaddi-qomatni tarbiya qilish, kuch-quvvatni saqlab turishning vositasi hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya tarbiyaning ajralmas qismlaridan biri bo‘lib, maktabda tarbiyaning boshqa tomonlari bilan birgalikda amalga oshiriladi. Bu bilan jismoniy tarbiya inson shaxsining har tomonlama kamol topishini ta’minlaydi.


Bolani oilada jismoniy jihatdan tarbiyalash u tug‘ilgan kundan boshlanadi. Bu davrda jismoniy tarbiya, asosan, uning to‘g‘ri o‘sishi va sog‘lom bo‘lishini ta’minlaydigan gigiyenik talablarga rioxva qilishdan, jismoniy jihatdan parvarishlashdan iborat bo‘ladi. Jismoniy tarbiya bolaning jismoniy kuchi va kishi psixik faoliyatining moddiy negizi bo‘lgan markaziy nerv tizimini o‘stirish va taraqqiy ettirish bilan birga, uning aqliy qobiliyatlarini to‘g‘ri o‘sishiga ham yordam beradi. Jismoniy tarbiya axloqiy tarbiya bilan uzviy bog‘liqidir. Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish mardlik, qat’iylik, o‘zini tuta bilishlik, matonatlilik kabi axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Harakatli o‘yinlar va sport o‘yinlari, turli estafetalar bolalar o‘rtasida jamoali, o‘rtoqlik va do‘stlik hissini o‘z oldidagi va sport jamoasi oldidagi burchini, mas’uliyatlilik va talabchanlikni his qilishni tarbiyalaydigan eng yaxshi vositalaridandir.

Jismoniy madaniyat jismoniy tarbiyaning tarkibiy qismi bo‘lib, unga quyidagilar kiradi:

- inson a’zolarining tuzilishi va ularning funksional kamoloti. Ichki a’zolar, nerv va harakat, suyak-muskul tuzilishi, badanning uyg‘unligi va ularning funksional faoliyatini boshqarish;
- o‘quvchilar sog‘ligini mustahkamlash;
- gigiyena qoidalariga ko‘nikish;
- o‘quvchilarni har tomonlama mohirligini o‘stirish;
- bo‘lajak ishchi, mehnatkashlarning jismoniy va fizik sifatlarini, kasb ahamiyati jihatidan shakllantirish, ish qobiliyatlarini oshirish;
- o‘quvchilarning jismoniy va yosh xususiyatlari uchun sharoit yaratish;
- o‘quvchilarning iroda, chidamlilik, qat’iyan intizom, do‘stlik hissini kamol toptirish;
- kasbiy, jismoniy qibiliyatlarini tarbiyalash.

Jismoniy mashqlar gavdaning yirik muskullari (orqa, yelka kamari, qorin go'shti muskullari) ning o'sishi va mustahkamlanishiga, yurak-qon aylanish tizimi hamda nafas olish jarayonlarining yaxshilanishi va ular faoliyatining normal o'sishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Organizmning odatdagicha faoliyati butun tana qismlarini qon bilan to'xtovsiz ta'minlab turilishini talab qiladi. Kishi tinch, zo'riqmasdan ishlaganda, mayda qon tomirlarining hammasi harakatga keltirilmaydi, natijada tananing ayrim qismlarini qon bilan to'la ta'minlanmay, o'sishdan orqada qolishi mumkin. Jismoniy mashqlar organizmda qon aylanishi va modda almashinuvining to'g'ri bo'lishini ta'minlaydi. Jismoniy mashqlar organizmda qon aylanishi va modda almashinishing yaxshilanishi uchun imkon beradi. Jismoniy mashqlar asab tizimining faoliyatiga, xususan bosh miya po'stlog'ining tana harakatlarini boshqaradigan qismlariga ham yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida harakatlarning mosligi, uyg'unligi takomillashadi, harakatlarning aniqligiga, zaruriy kuch va bir maqomdaligiga erishiladi.

Gimnastika. Gimnastika maktab o'quvchilarini jismoniy jihatdan tarbiyalashning asosiy vositalaridan biridir. Gimnastikaning quyidagi turlari farqlanadi (jadvalga qarang):



Asosiy gimnastika saflanishlar, barcha muskullarni o'stridigan mashqlar, yurish, yugurish, sakrash, irg'itish, muvozanat saqlash, tirmashib chiqish va oshib o'tish kabilardan iboratdir. I-II sinflarda gimnastika va o'yinlar asosiy o'rinni egallaydi. III sinfdan boshlab gymnastikaga akrobatika mashqlari, tayanib sakrashlar, oddiy va aralash osilishlar, yengil atletika mashqlari, harakatli

o‘yinlar va sport o‘yinlariga tayyorlaydigan o‘yinlarni mashq qilish kiritiladi.

Gigiyenik gimnastika. O‘quvchilarning jismoniy jihatdan to‘g‘ri o‘sishlari uchun kundalik ertalabki gimnastika yoki zaryadka katta ahamiyatga ega. Kishi sog‘lig‘ini mustahkamlash, uning kun buyi charchamay, normal ishlash qobiliyatini ta‘minlash va unda turmushda zarur bo‘ladigan muhim gigiyenik ko‘nikmalar hosil qilish – gigiyenik gimnastikaning vazifasidir. Ertalabki gimnastika ochiq havoda yoki derazasi (fortochkasi) ochib qo‘yilgan xonada uyqudan turish bilanoq qilinadi. Bu gimnastika barcha muskullarning ishtirok etishini ko‘zda tutadigan bir necha mashqlar va suv protsedurasidan iborat bo‘ladi. Lanjlik, ta’sirchanlik, betoblik sezilganida, ishtahasizlik va uyqusizlik paydo bo‘lganida darhol shifokorga murojaat qilish va gimnastika mashg‘ulotini vaqtincha to‘xtatish lozim. Bolani har kuni ertalabki gimnastika bilan shug‘ullanishga odatlantirishda ota-onalar va o‘qituvchilarning o‘zлari namuna ko‘rsatishlari juda katta rol o‘ynaydi.

Sport gimnastikasi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga jismoniy tarbiya dasturi asosida umumiy jismoniy tayyorgarlik beriladi. Bu yoshdagi o‘quvchilar sport gimnastikasi bilan to‘la shug‘ullanmaydilar, uning oddiy elementlari bilangina tanishadilar. Ularning yoshi ulg‘aygan sari sport gimnastikasi darsda ham, darsdan tashqi jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida ham borgan sari katta o‘rin egallay boshlaydi. Sport gimnastikasi mashg‘ulotlarini ehtiyyotlik bilan o‘tkazish, jismoniy yuklamani sinchiklab taqsimlash, o‘smir organizmiga ortiqcha nagruzka berib yuborishga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Davolash gimnastikasi – maxsus davolash muassasalarida mutaxassis shifokorlar va jismoniy tarbiya sohasida ish olib boruvchi xodimlar rahbarligida o‘tkaziladi. Ayrim hollarda, agar maktab shifokori yoki jismoniy tarbiya o‘qituvchisining ma’lum tayyorgarligi bo‘lsa, davolash gimnastikasini maktabda o‘tkazsa ham bo‘ladi. Agar maktab shifokori yoki jismoniy tarbiya o‘qituvchisi bu maxsus sohani, ya’ni davolash gimnastikasini bilmasalar, uni o‘tkazishga urinmasliklari kerak.

Jismoniy daqiqalar Gimnastikaning yuqorida ko'rsatib o'tilgan turlaridan tashqari quyi sinf o'quvchilari bilan o'quv mashg'ulotlari davomida jismoniy daqiqalar o'tkaziladi.

Odatda, jismoniy daqiqalar o'quv kunining ikkinchi yarmidagi darslarda, ya'ni o'quvchilarning charchaganligi o'quv materialining idrok qilinishi va o'zlashtirilishiga ta'sir eta boshlagani sezilganda o'tkaziladi. Charchashlikning oldini olish, markaziy nerv tizimiga qisqa dam berish va bolaning harakat qilishga bo'lgan tabiiy istagini qanoatlantirish uchun 2-3 daqiqa davomida bir necha mashq (2-3 mashqni partalar yoniga chiqib turib bajarish) qildiriladi.

Jismoniy daqiqalarni sinf o'qituvchisi bolalar diqqatining susayganini, o'quv materialining o'zlashtirilishi pasayganini yoki o'quvchilarning charchaganligini payqagandan keyin o'tkazadi.

Sinfdan tashqari ishlar O'quvchilarni jismoniy jihatdan tarbiyalash ishlari darslardagina emas, balki sinfdan tashqari vaqtarda ham olib boriladi. Boshlang'ich mакtabda jismoniy tarbiyada sinfdan tashqari mashg'ulotlarning asosiy shakllari: fizkultura to'garaklari, fizkultura bayramlari, fizkultura chiqishlari, musobaqalar, mакtabda va mакtabdan tashqarida dam olishni uyushtirish (tanaffus vaqtaridagi o'yinlar, ekskursiyalar, sayrlar) dan iboratdir. Sinfdan va mакtabdan tashqari tashkil etiladigan turli shakldagi ishlar jismoniy tarbiya darslarini mazmunan to'ldirib boradi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida bolalar va o'smirlar sportiga alohida e'tibor qaratilib, mazkur yo'nalish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi. Respublikada yoshlarni jismoniy tarbiyalashga qaratilgan "Sog'lom avlod dasturi" ishlab chiqildi. Mazkur dastur talablariga muvofiq respublika miqyosida quyidagi uch bosqichli sport musobaqalarining o'tkazilishi yo'lga qo'yildi:

1. Umumiy O'rta ta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasidagi "Umid nihollari" bellashuvi.
2. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari o'rtasidagi "Barkamol avlod" bellashuvi.

3. Oliy o‘quv yurtlarida tahlil olayotgan talabalar o‘rtasidagi “Universiada” bellashuvi. Shuningdek, sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha joylarda ommaviy sport bayramlari, musobaqalarning tashkil etilishi ommaviy tus oldi. Jismoniy tarbiya maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlab tizimli ravishda amalga oshiriladi hamda mакtabda jismoniy tarbiya asosiy fan sifatida o‘tiladi.

12. Oila tarbiyasi

Oila jamiyatning bir bo‘lagi. Shunday ekan, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo‘lib, biologik, ijtimoiy, ahloqiy mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Oila tor maishiy tushuncha emas, balki u ijtimoiy jamoa. Shu sababli oilalar birlashib, jamiyatni tashkil etadi. Jamiyatdagi o‘zgarishlar oilaga ta’sirini ko‘rsatganidek, oiladagi o‘zgarishlar ham jamiyatga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Darhaqiqat oila, ayniqsa o‘zbek oilasi asrlar osha yosh avlodni tarbiyalashda, komil insonni voyaga yetkazishda muqaddas maskan bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Har bir insonda Vatan tushunchasi ilk bor tetapoya bo‘lib o‘sib kelayotgan yosh go‘dakning ongi, ruhi va qalbiga kirib boradi, butun umri, hayotiy faoliyati davomida yana ham sayqallanib, mazmunan mujassamlashadi. Bu jarayon oiladagi sog‘lom muhitda, otabobolar o‘giti, ota ibrati, ona mehri, aka-uka, opa-singillarning mehr-oqibati orqali amalga oshib boradi. Shaxs ma’naviyati, dunyoqarashi, tafakkuri, e’tiqodi, iymoni avvalo oilada shakllanadi.

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek “Bu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson o‘z farzandlari baxtu saodati, fazl-u kamolotini ko‘rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, o‘zini ayamaydi. Bola tug‘ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an‘analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimmi, farzandlar oilaviy hayot mакtabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his qiladi ”.

Shu sababli Prezidentimiz tomonidan 1998 yilning “Oila yili” deb e’lon qilinishi va shu yilning o‘zida Oila kodeksining qabul qilinishi hamda mamlakatimiz tarixida ilk bor tashkil etilgan

Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazining maqsadi ham davlatimizning oilani har tomonlama mustahkamlash, himoya etish borasidagi siyosatiga hamohang bo‘lib, oilaga taalluqli boy va sermazmun milliy an’analarni avaylab-asrash, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo‘li bilan oilani mustahkamligi, barqarorligini ta’minlash, oila a’zolarining huquqiy savodxonligini oshirish muammolarini ilmiy o’rganish, oilaviy hayotga bog‘liq muammolarni tadqiq etish va fuqarolarga bu masalalarda amaliy yordam berishdan iboratdir. Shuningdek Yurtboshimiz I.A.Karimov tomonidan 2012-yilni “Mustahkam oila yili” deb e’lon qilinishi ham oilalarga bo‘lgan e’tiborni yana bir bor tasdig‘i desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu munosabat bilan hukumatimiz tomonidan “Mustahkam oila yili” Davlat dasturi ishlab chiqilishi oilada yoshlar tarbiyasiga e’tiborni yanada kuchaytiradi va oilalarni mustahkamlash bilan bog‘liq masalalarni yechimini topishga xizmat qiladi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: "... hammamizga ayon bo‘lishi tabiiyki, oila sog‘lom ekan — jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan — mamlakat barqarordir". Oila davlatning, jamiyatning asosiy tayanchi ekan, uning mustahkamligi, tinch-totuvligi, farovonligi va barqarorligidan jamiyat manfaatdordir. Oilada ma’naviy va jismoniy yetuk avlodni tarbiyalash, yoshlarni oilaviy hayot qu’rishga tayyorlash, zamonaviy kasb-hunar sirlari bilan qurollantirish lozim. Shuni unutmaslik lozimki, farzandlarimizning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina, oila tarbiyasi muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Yosh avlod hayotining ko‘p qismi oilada o’tadi. Shu boisdan turmushning murakkab muammolari bilan oilada tanishadilar. Oiladagi mavjud an’alar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiyligi ta’sirida yigit-qizlar asta-sekin kamol topib boradilar. An’ana va marosim tarbiyaning qudratli quroliga aylanadi. Kelajagimizning bunday bo‘lishi hozirgi kunda biz tarbiyalayotgan yoshlarga bog‘liq. Bu qonuniyat oilaning tarbiya borasidagi faoliyatiga ham bog‘liq. Oilaviy tarbiyaning murakkabligi shundaki, har bir oila o‘ziga xos bir olam, u tarbiya ishida ham o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon

qiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina, o'sib kelayotgan yosh avlod farovonligini ta'minlashi mumkin. Oila tarbiyasi ota-onalarga pedagogik bilimlar berish, oilaviy tarbiya bo'yicha yutuqlar, tajribalar almashishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishiga ham bog'liqidir. Har bir ota-onan o'z farzandlarini tarbiyalash borasidagi burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlariga bog'liqidir. Bundan tashqari normal oilaviy muhit, ota-onaning obro'si, to'g'ri kundalik reja, bolaning kitob o'qishiga, mehnat qilishiga o'z vaqtida jalb qilishlari ham muhim muvaffaqiyat garovidir. Oilada ota yoki onanining yo'qligi yoki ketib qolishi tarbiyaga juda katta zarar ko'rsatadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta'siri kuchi yo'qoladi. Oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qattiq jarahotlanadi. U tajang, serjahl, qo'pol, dag'al bo'lib qoladi, kattalarga ishonmay qo'yadi. O'qishi ham pasayib ketadi. Oila tarbiyasidagi muammolardan biri yolg'iz farzandni tarbiyalashdir. Bunday sharoitda bola faqat kattalar davrasida bo'ladi. O'ziga yaqin yoshdagi bolalar bilan muomala qilish imkoniyati bo'lmaydi. Oilada ko'p bola bo'lsa, ular bir-birini tarbiyalaydi. Bundan tashqari oiladagi kelishmovchiliklar, ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi tengsizlikka asoslangan munosabatlari, ayrim ota-onalarning madaniyat va ma'lumotining nisbatan past saviyada ekanligi tarbiyaga xalaqit beradi, oilaviy muhitda qarama-qarshiliklar, o'zaro kelishmovchiliklarni vujudga keltiradi. Oila tarbiyasi uydagi omillarga diqqatini qaratmog'i lozim. Jumladan, oilada ruhiy xotirjamlik, samimiylilik munosabatlari shakllangan bo'lishi, ota-onan obro'si yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oiladagi kattalar o'rtasidagi birlikni saqlanishi, bola shaxsini mehnatda tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rganish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, boladagi mustaqillikka intilishni va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash kabilardir. Oila tarbiyasida ota-onan obro'si muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bu obro'ni esa ibratli hulqi, ahloqi, intizomi, kamtarligi, ishbilarmonligi bilan qo'lga kiritadilar. Obro'

orttirishda eng avvalo, ibrat-namuna muhim rol o'ynaydi. Oilada ota-onalarning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim ahamiyatga egadir. Ularning odilona me'yorli talabchanligi obro' orttirishning muhim yo'llaridan biridir. Tarbiya jarayoni zerikarli, quruq haqiqatgo'ylikdan iborat bo'lib qolmasligi lozim. O'zbek oilasi tarbiyasida, ayniqsa, otaning obro'si katta ahamiyatga egadir. Ayoli, bolalari oldida obro'ga ega bo'lgan ota, jamoat orasida ham obro' topadi. Oilada obro'si yo'q otadan tarbiya olgan bola, ko'pincha, o'g'ri, muttaham, yolg'onchi bo'lib yetishishi shubhasizdir. Ota-onalarning farzandlari nigohida eng buyuk kishilardir. Shuning uchun eng yaxshi sifatlari bilangina obro' qozonishlari kerak. Insoniy fazilatlar sohibi bo'lgan ota-onalarning o'z farzandlari tomonidan bir umr e'zozlanadi. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan bog'lamasdan, muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun mакtab va ota-onalarning o'rtasidagi ta'lim-tarbiyaga oid ishlarni kengaytirish lozim. Ota-onalarning o'qituvchilar bilan bo'lgan uchrashuvlarida aytgan fikrlari ayniqsa, ota-onalarning uchun qimmatlidir. Chunki ular o'z farzandlari to'g'risida ko'proq ma'lumotlarni bilib oladilar. Shunday ekan, bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-onalarning oila bilan mакtab o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladilar. Bola mакtabga kirib, to uni tamomlab chiqqunga qadar ota-onalarning mакtab bilan yaqin aloqa o'rnatib, farzandining o'zlashtirishi, hulq-atvoridan hamisha xabardor bo'lishi, tarbiya masalalari bo'yicha o'qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib, uni darsdan so'ng nima bilan mashg'ulligidan xabardor qilishi lozim. U o'z navbatida o'qituvchi ham bolaning o'qishi, odobi, hulqi, mакtabda o'zini tuta bilishi haqidagi ma'lumotlarni ota-onaga yetkazish, zarurat tug'ilganda hosil bo'lgan muammolarni bирgalikda hal qilish zarur. Shundagina o'quvchi oldiga bir talab qo'yilishiga erishiladi. Bolasi mакtabga borgan ota-onalarning mакtabning ijtimoiy hayotida faol qatnashishlari shart. O'qituvchi ham o'z o'quvchisining oilasi bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yymog'i lozim. Ota-onalarning mahalla faollari, mehnat faxriylari bilan tarbiya sohasida hamkorlik qilishlari zarur. Bu ishlarni oila tarbiyasiga salmoqli hissa qo'shadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida oilaviy tarbiya masalalariga e’tibor yanada kuchayib, dolzarb mavzuga aylanmoqda. Oila deb atalmish aravani tortib borayotgan er va xotinning bir-biriga yelkadosh bo‘lishini, o‘zaro odoblarini, bir-biriga bo‘lgan mehribonliklarini ko‘rgan farzandlar ulardan o‘rnak oladilar va ularga o‘xshashga harakat qiladilar. Chunki farzand aytgan nasihatingizni esidan chiqarishi mumkin, ammo ko‘rganini hech qachon esidan chiqarmaydi. Oilada farzand tarbiyasining bu jihatini hech qachon esdan chiqarmaslik zarur.

13. Oilada bola tarbiyasida ota-onaning o‘rni

Inson kamolotining ko‘rinishlaridan biri – obro‘-e’tiborga ega bo‘lishdir. Obro‘ bir kun yoki bir yil mobaynida hosil bo‘ladigan jarayon emas. Obro‘ni inson hayot mazmunidagi faoliyati jarayonida asta-sekin shakllanib boradi. Ota-onaning oiladagi obro‘sni tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Obro‘ oilaviy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Ma’naviy axloqiy hislatlarni, zamon ruhiga mos tushadigan fazilatlarni shakllantirishga qaratiladi. Mazkur toifadagi oila a’zolari davrasidagi suhbatlar, munozaralar, baxslar mulohazalar o‘zaro tenglik, hurmat ruhiga bo‘ysundiriladi. Oilaviy munosabatlarning ushbu ko‘rinishda turli yoshdagi, jinsdagi bolalarga maqsadga muvofiq tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyati mavjuddir. Shu boisdan tasodifiy voqeа va hodisalarning sodir bo‘lish turli tarzda baholanadi va ularga bevosita aloqador oila a’zolari turmush tajribasidan kelib chiqqan holda rag‘batlantiriladi yoki tanbeh beriladi, jazolanadi. Bunday odilona amalga oshirilgan muloqot ta’sirida o‘g‘il-qizlar ruhiy dunyosida ota-onaga nisbatan dilkashlik, xushmuomalalik, o‘z faoliyati uchun javobgarlik, o‘z-o‘zini boshqarish kabi muhim insoniy fazilatlar paydo bo‘ladi.

Oilada munosabatning yana bir turi “avtoritar” yoki “obro‘ talab” munosabat deb atalib, bunda ota-onaning obro‘sni shaxslararo muloqotda hal qiluvchi, yetakchi rol o‘ynaydi. Shaxslararo teng huquqlilik, erkin xatti-harakat qilish, tashabbuskorlik bunda o‘z

ahamiyatini yo'qota boshlaydi. Oila a'olarining yurish-turishi, xatti-harakati ko'pincha kattalar tomonidan cheklab qo'yiladi. Ota-onan tomonidan tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning asosiy usuli bu jazolash hisoblanadi, biroq, onda-sonda rag'batlantirish usulidan foydalanilganda ham ma'naviy rag'batlantirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi, munosabatdagi bunday noxushlik ota-onan ko'zlagan tarbiyaviy maqsadni amalga oshirmaydi va past samara beradi. Buning oqibati natijasida oila a'zolari o'rtasida, mehr-oqibat hissi pasayadi. Ushbu paydo bo'lgan salbiy nuqtayi nazar ota-onaga nisbatan qo'llaniladi. Farzandlarda ota-onaga yaqinlik mehr-muhabbat hissi biroz bo'lsa-da kamayadi, keyinchalik bu tuyg'u uzoqlashishi "begonalashish" tomoniga o'sib o'tadi. Oilaviy turmush munosabati ichida "liberal" (murosasizlik) toifasi ham ko'zga tashlanib turadi. Oila davrasida ota yoki ona murosasoz, ko'ngilchang bo'lishlik tashqi ko'rinishidan iliq ruhiy iqlimini o'ziga aks ettinganday bo'lib tuyulsa ham, aslida unda hamjihatlik, o'zaro tushunish yetishmaydi. Murosasizlik ta'sirida farzandlar fe'l-atvorida munofiqlik, ikkiyuzlamachilik, kelishuvchilik kabi illatlar tarkib topishi mumkin. Ota-onan obro'si oiladagi axloqiy tarbiyaning garovi hisoblanadi. Buyuk allomalarning mulohazalariga ko'ra, tarbiyada hazilga yo'l qo'yuvchi jiddiylik hukm surishi lozim, lekin hamma ish hazilga, ermakka, sertakalluflikka, adovat, tirnoq orasidan kir izlashga aylanib ketmasligi kerak. Shu boisdan muayyan pedagogik-ruhiyat qonun-qoidalariga riosa qilingan holda ota-onalar tarbiya qoidalari, usullari, vositalari bilan qurollangandagina haqiqiy nazokatga va odobga erishish mumkin. Bu narsa ulardan chuqur izlanishlarni talab qiladi.

Oilada farzandlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishining iltimos, maslahat, ishontirishi, talab qilish, buyruq va tanbeh berish, jazolash, rag'batlantirish singari qator usullaridan o'z o'mida va me'yorida foydalanilmasa, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Mezon tuyg'usi va me'yor hissiga amal qilish ota-onan ruhiy dunyosiga, ma'naviyatiga singib borsa, u holda farzandlaridan uzoqlashishi, begonalashish, bordi-keldiga borish, anglashilmov-chilik g'ovining vujudga kelishi, bachkanalashish, badjahllik, asab-buzarlik xulq-atvori namoyon bo'lmaydi. Tarbiyaning muhim roli

nutq hisoblanadi, shuning uchun ota-onal o‘z nutqida yoqimsiz ohang bilan, mantiqsiz va qaytariq so‘zlarini ishlatish va qo‘llash bilan farzandlarni ranjitmaslik, ularda ishonch hissini so‘ndiradigan, hazil-mutoyiba, samimiyl bo‘lmagan fikr va mulohazalardan saqlanishi kerak. Hayotda muloyimlikka, shirinsuxanlikka, samimiylilikka, sof vijdonligi, dilkashlik va xotamtoylilikka ham-dardlikka nima yetsin!

Odatda, ota-onal nazokatli bo‘lgandagina haqiqiy obro‘-e’tiborga erishadi. Bundan tashqari obro‘li bo‘lmoq uchun ishonch har tomonlama rivojlangan bo‘lishi, shuningdek aqliy, ahloqiy estetik jihatdan muayyan cho‘qqiga erishgan bo‘lishi darkor.

Bularning barchasi ota-onadan aql-zakovatli, milliy udum va urf-odatlarni mukammal egallagan shaxs bo‘lishni talab qiladi. Oilaviy turmushda farzand kamol topishini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishning asosiy vositasi bolada e‘tiqodni shakllantirishdir. Buni bolani faqat ishontirish yo‘li bilan amalga oshirsa bo‘ladi. Shuning uchun ota-onal o‘g‘il-qizlarni voyaga yetkazishda ularni ishyoqmas qilishga yoki asossiz buyruq berishga tayanmasligi kerak.

Xo‘sh, ota-onal obro‘si farzandlarda qachon paydo bo‘ladi? Oilaviy turmush tajribalaridan shu narsa ma’lumki, ota-onaning obro‘si davlat va oila a‘zolari oldida javobgarlikni his qilishdan boshlanadi. Mabodo ota-onal o‘z ishi, o‘z burchi uchun javobgar ekanligini tasavvur qila olsa va unga amaliyotda rioxal qilsa, mana shu narsa ularning obro‘-e’tibor qozonishi uchun asosiy zamin hisoblanadi. Ularning ruhiy dunyosi, ma’naviyati oilaviy iliq muhit uchun yetarli va ta’sirchan bo‘lsa, o‘z-o‘zidan obro‘ qozonilaveradi, oila a‘zolari o‘rtasida mehr-muhabbatga erishadi. Agarda ota-onalar o‘zlarining hulq-odob hislatlari, his-tuyg‘ulari, xatti-harakatlarida bularga rioxal qilsalar, oila a‘zolari hamda jamoatchilik o‘rtasida yetarli darajada obro‘ qozona oladilar. Lekin, obro‘ qozonish shaxsning tezkorlik bilan amalga oshiriladigan sifati emas. Ota-onal obro‘si butun hayot davomida kundalik ibratli hulqi, axloqi, intizomi, aql-zakovati, kamtarinligi, ishbilarmonligi bilangina qo‘lga kiritishadi. Ibrat, na’muna, chekilgan zaxmat, zakovat, chin ezgu niyat, hayrli ish, samimiylilik evaziga yuzaga kelgan obro‘ haqiqiy obro‘ bo‘ladi. Bunday obro‘ farzandlar

xayrxohligi va hamdardligiga sazovor bo‘ladi. Natijada oila a’zolari totuv, osoyishta, inoq, ahil, xotirjam, hamjihat turmush kechiradilar. Oiladagi farzandlar yuksak his-tuyg‘uli, ma’naviyatli, madaniyatli inson sifatida ruhiy ozuqa oladilar, ular ota-onalari bilan bexad faxrlanadilar, his-hayajonga to‘ladilar va shu g‘urur bilan yashaydilar, asta-sekin eng zarur shaxsiy fazilatlarini egallab boradilar. Oilaviy turmushda ayrim ota-onalar faqat tazyiq o’tkazish yo‘li bilan farzandlari hamda boshqa oila a’zolari davrasida obro‘ orttirishni xohlaydilar, bu narsani yashashning asosiy vositasi deb hisoblaydilar. Bunda ular qo‘rqitish, buyruq berish, ruhan ezish, tahqirlash, tazyiq o’tkazish usullarini qo‘llaydilar. Goho ular zaharxandalik va badjahllikni bola tarbiyasining eng muhim usuli deb biladilar. Qo‘rquinch asosida bolada vujudga kelgan “tobelikni”, “bo‘ysunishni” ular o‘zlaricha farzandlari davrasida erishgan obro‘si deb o‘ylaydilar, tarbiyaning bu usuli yuqorida aytib o‘tilganidek avtoritar deb aytildi. Ayrim ota-onalar esa o‘z farzandlari bilan kamroq muloqotda bo‘lishni, o‘zlarini ulardan uzoqroq olib yurishni shu yo‘l bilan obro‘ orttirishni ham hayol qilishadi. Ularning nazarida go‘yo farzand bilan qancha kam uchrashishsa, ma’lum masofadan muomala qilishsa, shuncha ko‘proq obro‘ qozonish mumkin emish. Bu noto‘g‘ri tushuncha, yuzaki qarorga kelish hisoblanadi. Aksincha ota-onalari o‘z farzandi bilan qancha kam muloqotda bo‘lishsa, ularning ruhiyati bilan yaqindan tanishmasa, o‘z ta’sirini o’tkazmasada, ular o‘rtasida begonalashish, befarq bo‘lish, his-tuyg‘ulari, ishonishlari, xohishlari kelib chiqadi. Hozirgi paytda shunday ota-onalar ham uchraydiki, ular bolaga faqat rasmiyat-chilik bilan munosabatda bo‘lish orqali obro‘ orttirishga harakat qilishadi.

O‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun ular qildan qiyiq qidirishadi, xatti-harakatlarini keltirib chiqargan asl sababdan ko‘z yumishadi. Bolaga hadeb tanbeh berishadi, begonalar davrasida kalaka qilishadi. Uning yurish-turishlarini cheklab qo‘yishadi, bo‘lar-bo‘lmasga tanbeh berishadi-yu, arzimas harakat uchun

jerkib, siltab tashlashadi. Farzandlariga ko'p pand-nasihat qila-verish ham shaxslararo munosabatda noxush kechinmalarni vujudga keltiradi.

Ota-onalar arzimagan mayda-chuyda muammo, mulohaza, ko'mak uchun ham uzundan-uzoq o'git-nasihat qiladilar. Farzand erkini poymol etib, mustaqil fikr yuritishi, intilishini oyoq osti qilishgacha borib yetadilar. Ular o'zlarining nasihatgo'yliklarini ota-onalik burchi deb baholaydilar. Mayda gaplik, ezmalik bilan o'g'il-qizlar o'rtasida haqiqiy obro' qozonib bo'lmaydi.

Turmushda soxta yaxshilik qilish orqali farzandlari oldida obro' orttirishmoqchi bo'ladigan ota-onalar ham bor. Bunday ota-onalar o'zlarining yumshoq muomalaligi, beozorligi, kechiruvchanligi, yon beruvchanligi, kam talabchanligi bilan farzandlarini o'zlariga rom qilib olishni istaydilar. Ularning fe'l-atvorida, na ma'naviyatida qat'iyatlilik, na talabchanlik, na barqarorlik mavjud.

Tilyog'lamachilik, soxtalik, sun'iylik bilan bolada yuksak insoniy hislatlarni, oljanob his-tuyg'ularni, irodaviy sifatlarni tarkib toptirib bo'lmaydi.

Ota-onalik obro'sini orttirishda ibrat ko'rsatish usuli muhim rol o'ynaydi, oilada tarbiya ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ota-onalik tinmay o'zlarini ham pedagogik, ham ruhiy jihatdan tarbiyalab borishlari kerak, ular o'zlarida yetishmaydigan sifatlarni egallab borib, mavjud illatlarni batamom tugatishlari lozim. Chunki ota-onaning tarbiya jarayonidagi iste'dodi – bu farzandlarga nisbatan muhabbat va sadoqatdan iboratdir. Ota-onalar o'z farzandlari o'rtasida obro'ga ega bo'lishlari uchun qator chora tadbirlarni amalga oshirishlari zarur. Farzandlarni yoshiga mos holda qator tarbiyaviy ishlar olib borishlari darkor.

– Ota-onalar farzandlari davrasida obro' orttirish uchun ularning ruhiy dunyosiga kirib borishlari ayni muddaodir. Chin obro'ga ega bo'lmoqchi bo'lgan har bir ota-onalik qimmatli vaqtlanini o'z norasidalaridan hech mahal ayamasliklari kerak

– Oila davrasida ota-onalarning kuzatuvchanligi, ziyrakligi, sezgirlingi, fahmliligi, hozirjavobliligi, samimiyligi muhim ahamiyat kasb etadi.

– Ota-onalarning o‘z farzandlariga va oilaning boshqa a’zolariga (buva, buvi,kelin va boshqalar)ga mehribonligi obro‘ orttirishning eng muhim yo‘lidan biridir.

– Farzandlarining kuchiga, qobilyatiga, aql-zakovatiga xotirasiga, diqqat-e’tiboriga, irodaviy xislatiga, qiziqishlariga, ko‘nikma va malakalariga qarab aqliy va jismoniy topshiriqlar berilishi va o‘z vaqtida, uzlusiz ravishda ularning natijasini tekshirish va oqilona baho berish, rag‘batlantirish bolalarda qat‘iylik va dadillik fazilatini vujudga keltiradi, mustaqil intimini, tashabbus ko‘rsatish sari chorlaydi, kattalarga nisbatan ixlosi ortadi.

– Ixlos, hurmat, intilish, tirishqoqlik obro‘ning uzviy zanjirlari hisoblanadi.

– Ota-onalarning ijtimoiy muhitda, jamoatchilik o‘rtasida va oila davrasidagi samimiyligi va g‘amxo‘rligi ularga katta obro‘ keltirishi mumkin.

Ulardagi samimiylilik, g‘amxo‘rlik fazilatlari farzandlar ruhiy dunyosiga katta ta’sir etadi, ruhlanish, to‘lqinlanishi, shijoat, ehtirosni vujudga keltiradi. Ularning ibratli xislatlari, shaxsiy fazilatlari, irodaviy sifatlari, o‘z-o‘zini qo‘lga olish kabi jihatlari yigit va qizlar qalbida o‘chmas iz qoldiradi. Ota-onaga nisbatan ishonch, intilishi moyillik hamdardlik sifatlari shakllana boradi. Oilada ruhiy muhit, totuvlik mavjud bo‘lishi uchun ota-onalarda haqiqiy ma’nodagi nazokat hamda obro‘ mustahkam shakllangan bo‘lishi kerak.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Tarbiya nazariyasi va uning usullari nimalardan iborat?
2. Milliy tarbiya nima?
3. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashi va taffakurni shakillangan-tirishning mazmuni nimalardan iborat?

4. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunini izohlang.
5. Huquqiy tarbiya mazmun mohiyati nimalardan iborat? .
6. Iqtisodiy va mehnat tarbiyasining maqsadi va mazmunini yoritib bering.
7. Ekologik tarbiyaning bosh vazifasi nimalardan iborat?
8. Nafosat va jismoniy tarbiyaning vositalari nimalardan iborat?
9. Oila – uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

IV BO'LIM

XII BOB. PEDAGOGIKA TARIXI

1. Pedagogika tarixinining bo'limi maqsad va vazifasilar

Tarixni unutgan xalq, jamiyat o'z yo'lini yo'qotadi. Bunday xalq va jamiyatning kelajagi yo'q. Axborot-kommuniqatsiya texnologiyalari, matematika, fizika, kimyo, sanoat, menejment –bularning hammasi kerak, albatta. Lekin, avvalambor tarixni bilish – bu hayotiy zarurat. Hayotni bilish, biz qaysi asrda yashayotganimizni anglash bu hammamizning burchimiz. Ya'ni hayotdan oyog'i uzilgan, real voqelikdan uzoqlashgan odam hech qachon o'z maqsadlariga erisha olmaydi. Bugun yurtimizda kechagi kunni eslmaydigan, ajdodlarni, bobolarini yodga olmaydigan odamning o'zi yo'q, desam, adashgan bo'laman. Dunyo tarixida qudratlil sultanat yaratgan sohibqiron Amir Temur bobomiz, o'z aqlzakovati, ulkan ilmiy salohiyati bilan jahon tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan buyuk allomalarimsiz, aziz-avliyolarmiz bilan kim faxrlanmaydi deysiz? 2014 yil may oyida Samarcanda bo'lib o'tgan "*O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati*" mavzusidagi xalqaro konferensiya dunyoning 50 mamlakatidan kelgan atoqli olimlar bu tarixiy merosini butun insoniyat manfaati yo'lida birgalikda o'rganish, uni targ'ibu tashviq qilish, amaliy hayotdan yanada keg qo'llash kerakligini alohida ta'kidlagani, aytganlar, hammamizga g'urur va iftixon bag'ishlamaydimi?

O'zlikni anglash - bu o'z tarixmizni, ming-ming yillik an'analarimizni bilish degani. Agarki har qaysi odam kechagi kunni yaxshi biladigan bo'lsa, hech qachon avvalgi xatosini yana takrorlamaydi. Buyuk alloma va mutafakkirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqadigan joyda, avvalo, ilmu ma'rifat, madaniyat va ma'naviyat

o‘choqlari rivojlangan bo‘lishi kerak. Bo‘m-bo‘sh joyda hech qachon buyuk sivilizatsiya paydo bo‘lmaydi. Jahon tarixi buni ko‘p-ko‘p misollarda isbotlab beradi¹.

Pedagogika tarixi fanini o‘zlashtirish ma’naviy-ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lishi inson kamoloti haqidagi g‘oyalarni nihoyatda puxta bilishni talab etadi. Pedagogika tarixi fani – kishilik jamiyatni taraqqiyotida ijtimoiy o‘zgarishlari bilan bog‘liq va talim tarbiyaning yangi yo‘nalishlari va bu yo‘ldagi tarbiya pillapoyalarining tajribalariga suyangan holda har bir bo‘lg‘usi o‘qituvchida pedagogik bilim, malaka, ko‘nikma va mahoratni, didaktik va tarixiy asarlarni tahlil qilish va ularga munosabat bildirish kabi malakalarni shakllantiradi.

Pedagogika tarixi ijtimoiy fan bo‘lib uning metodologik asos yosh avlodni tarbiyalash an‘analarini jamiyatning taraqqiyoti bos-qichidagi o‘qitish va kamol toptirish tizimlarini ularning qonun-qoidalarini, qomusiy mutafakkirlar, ma’rifatparvar adiblar va pedagoglarning ta’lim-tarbiya, ma’rifatga doir g‘oyalarni va ularning rivojlanishini mukammal o‘rganadigan fandir. Pedagogika tarixi fani umumjahon, shu jumladan Markaziy Osiyo xalqlari tarixidagi ma’naviyat va ta’lim-tarbiya faniga oid fikrlarni o‘zlashtirish uchun xizmat qilar ekan. Bu fan o‘tgan avlodlarimiz qoldirgan boy pedagogik manbalar va ularning milliy asoslarini o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, «Pedagogika tarixi» bo‘lajak o‘qituvchilarga bilim beribgina qolmay ularda milliy iftixor va g‘urur hissini ham tarbiyalaydi. Chunonchi yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Xalqimiz tayanchi-ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy merosning o‘zi bir xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanish kerak”².

Pedagogika tarixi bo‘limi o‘z oldida quyidagi vazifalarni belgilaydi:

- Bo‘lg‘usi pedagogik kadrlarni asrlar jarayonida yaratilgan pedagogik g‘oyalarni majmuasi bilan tanishtirish;
- Bo‘lg‘usi kadrlarda tarixiy xronologik asosida ta’lim-tarbiya maqsad vazifalari bilan tanishtirish;

¹ I.A.Karimov, Ona yurtimiz baxti iqboli va buyuk kelajagi yo‘lda xizmat qilish – eng oliy saodatdir. T.: O‘zbekiston. 2015 yil 109-114 betlar

² (I.A. Karimov. Buyuk maqsad yo‘lda og‘ishmaylik, T. 1993 yil. 85-b)

- Tarixiy taraqqiyot jarayonida ta'lim-tarbiya tizimini sinfiy xarakteri bilan tanishtirish;
 - Jamiyatning turli bosqichlarida ilmiy-nazariy pedagogik qarashlarni egallah;
 - Turli bosqichlarda shaxs kamoloti konsepsiysi va uni bugungi kun maktab-maorif tizimi, uning maqsad vazifalari bilan qiyoslash malakasini shakllantirish;
 - Ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy meroslarimiz umuminsoniy va milliy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish;
 - Turli shakllarda ta'lim-tarbiya uslublari va vositalarini egallah;
 - Tarixiy jarayonlarda g'oyalar-maorif tizimi mazmuni, xalq an'analarining o'rganish orqali talabalarga vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish.
- Pedagogika tarixi ta'lim mazmuni va zamonaviy ta'lim mavzuni, ta'lim-tarbiya sohasidagi Davlat me'yoriy hujjatlari, ularning mohiyati bilan bog'lash;
 - Rivojlangan davlatlar maktab-maorif tizimi va Respublikamiz maorifini qiyosiy holda o'rganish;
 - Pedagogika tarixi ilmi mazmun asosida bo'lg'usi pedagoglarning ijodiy pedagogik tafakkurini shakllantirish.

Pedagogika tarixi kursida o'tmish pedagoglarining ta'limoti bilan bir qatorda mashhur filosoflar, yozuvchi va jamoat arbollarining pedagogik qarashlari ham o'rganiladi. Pedagogika tarixiy kasbiy ahamiyatga ega bo'lishdan tashqari muhim umumiy madaniy ahamiyatga ega, chunki u talabalarda o'zları uchun qadrdon bo'lgan predmet orqali insoniyat tafakkuri tarixi, ijtimoiy taraqqiyoti tarixi bilan yaqindan tanishishga yordam beradi.

2. Eng qadimgi davrdan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar

Hozirgi o'zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo'lib, ular yuksak va o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan. Dastlabki tosh quollaridan tirikchilik uchun foydalanish, ancha

takomillashgan mehnat quollarini yasash, urug‘chilik davriga kelib, xo‘jalik hayoti va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlarni o‘z ichiga olgan davrgacha bo‘lgan tariximiz ota-bobolarimizning boy qadimiy madaniyatga ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Ajdodlarimiz tomonidan qo‘lga kiritilgan qadimiy madaniyati tarkibidan ta’lim-tarbiyaga oid merosi ham alohida o‘rin olgan. Zero, hozirgi turkiy va forsiyzabon xalqlarning bizgacha yetib kelgan muhim arxeologik topilmalari, tarixchilar, adabiyot va san‘at namoyandalarining ijodiy merosi, san‘at va adabiy asarlarning namunalari buning dalilidir. Ma’lumki, kishilik jamiyatining vujudga kelishi jarayonida inson ham biologik jihatdan, ham ijtimoiy jihatdan takomillashib borgan. Dastlabki diniy e’tiqodlar, eng oddiy ixtirolarning takomillashib borishi kabi holatlар inson ongingin ham shakllanib borishiga turki bo‘ldi. Bu jarayon minglab yillarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ana shu davrda inson ongi shakllanishining asosi sifatida qabul qilingan xulq-odob qoidalari, ijtimoiy talablar yuzaga kelgan. Ushbu talablar muayyan davrda yaratilgan yodgorliklarining asosiy mazmuni va mohiyatini tashkil etadi. Eng qadimgi kishilarga xos bo‘lgan xislatlar, ularning dastlabki, oddiy istaklari, orzu-umidlari qadimgi eposlarda aks etgan afsonaviy obrazlar hamda qahramonlar qiyofasida o‘z ifodasini topgan. Ruhga sig‘inish (onimizm), ajdodlar ruhiga sig‘inish (totemizm), sehrgarlik kabi diniy e’tiqodlar va marosimlar yoritilgan afsona va rivoyatlarda eng qadimiy ajdodlarimizning tafakkur dunyosi aks etgan. Ma’lumki, ibridoiy kishilar mehnat faoliyati jarayonida o‘z ehtiyojlarini qondirgan va bu jarayon yosh avlodda ham mehnat qilish, amaliy faoliyatni yo‘lga qo‘ya olish borasidagi nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga zamin hozirlagan. Mehnat faoliyatini tashkil etish jarayoni dastlabki paytlarda butun ijtimoiy hayotni yo‘lga qo‘yish negizida amalga oshirilgan bo‘lsa, keyinchalik tarbiya inson faoliyati asosiy jihat, ijtimoiy ongni shakllantirishning muhim omiliga aylandi. Dastlabki urug‘chilik jamiyatidan oldin ham inson yashash uchun kurashgan, mazkur davrda urug‘ning barcha a‘zolari jamoa bo‘lib harakat qilganlar. Keyinroq kishilar mehnat faoliyatini jamoa

a'zolarining yosh jihatlariga ko'ra quyidagi uch guruh asosida tashkil etganlar.

- bolalar va o'smirlar;
- ijtimoiy hayot va mehnatda to'la ishtirok etuvchilar;
- keksalar.

Ibtidoiy jamiyatda bola o'zi uddalay oladigan faoliyatning tashkil etilishida bevosita ishtirok etib, hayot kechirish va mehnat qilish ko'nikmalarini o'zlashtirgan. Bu holat og'ir sharoitda kechgan. o'g'il bolalar erkaklar bilan ov qilish, quroq yasash kabi yumushlarni bajarsalar, qizlar, ayollar tomonidan bajariladigan mehnat sirlarini o'zlashtirar edilar. Hech qayerda yozilmagan odat va an'analarga ko'ra, yosh bolalar keksalar nazorati ostida ma'lum tajribalarga ega bo'lardilar. Bola ma'lum tayyorgarliklardan so'ng maxsus sinovlardan o'tib, amaliy faoliyatda faol ishtirok eta olish huquqini qo'lga kiritar edi. Ushbu an'ana, ya'ni, bolalarni ma'lum yoshgacha enaga yoki murabbiyga topshirish yaqin davrlargacha saqlanib qolgan, hatto hozirgi kunda ham ko'zga tashlanadi.

Jamiyatning ijtimoiy jihatdan taraqqiy eta borishi bolalarga dalalarni o'Ichash, suv toshqinlarining oldini olish, kishilarni turli kasalliklardan davolash usullariga oid bilimlarni berishga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Mazkur ehtiyojni qondirish yo'lidagi harakatning tashkil etilishi natijasida turli maktablar faoliyat yurita boshladi. Maktablarda asosiy e'tibor bolalarga og'zaki bilimlar berish bilan birga ularda yozuv ko'nikmalarining shakllantirilishiga qaratildi. Dastlab suratkashlik rivojlanib, piktografik xat paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik qo'shni mamlakatlardan kirib kelgan harflar yordamida yozish usuli paydo bo'ladi va bu usul tez tarqala boshlaydi.

Eng qadimgi davrlarda yo'lga qo'yilgan ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni biz yana xalq og'zaki ijodi namunalari: afsonalar, qahramonlik eposlari, qo'shiqlar, maqol va iboralarda ilgari surilgan g'oyalardan ham olishimiz mumkin. Chunki xalq donishmandligining yorqin namunasi bo'lgan xalq og'zaki ijodida xalq pedagogikasiga xos bo'lgan tarbiya tajribalari umumlashgan. Ibtidoiy kishilarning tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari, ular

tomonidan amal qilingan urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlari mazmuni xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan biri bo‘lgan afsonalarda ifodalangan. Afsonalarning qahramonlari yaxshilikning tantana qilishi uchun yomonlik hamda nurning muqarrar mayjud bo‘lishi uchun zulmat bilan kurash olib boradilar, yaxshilik va baxt-saodatga chulg‘angan o‘lkalarini yaratadilar. Aksariyat afsonalarning qahramonlarini inson sifatida gavdalangan xudolar tashkil etgan. Ibtidoiy tuzum kishilarining orzu-istiklari, o‘y-fikrlari, maqsad va intilishlarini yoritishga xizmat qilgan afsonalarning ko‘pchiligi bizga eng qadimgi yodgorliklar - “Avesto”, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asarlari orqali ma’lumdir.

Qadimgi miflarda kishilarning tabiiy ofatlar va yovuz kuchlardan saqlanish borasidagi dastlabki tasavvurlari tirik mavjudot boshiga falokat keltiruvchi tabiiy kuchlarga qarshi mardonavor kurashgan inson va uning xatti-harakatlari orqali ifoda etilgan.

Miflar asosida yaratilgan afsonalarning qahramonlari tomonidan olib borilgan harakatlar qahramonlik eposlarining yaratilishi uchun zamin hozirlagan. Qahramonlik eposlarida vatanga bo‘lgan muhabbat, erk va ozodlik uchun kurash, yurtining har bir qarich yerini asrash, qadrdon qabilasining farovonligi, to‘kin-sochinligini ta‘minlash yo‘lida jonini fido etish, qabilaning sha’ni, sharafi, ori va nomusi uchun kurashish tuyg‘ulari tarannum etilgan. Zarina, Sparetra, To‘maris hamda Shiroq (Siroq)lar tomonidan ko‘rsatilgan yuksak vatanparvarlik na’munalari, Zarina va Striangey, Zariadr va Odatida muhabbatlari, mardlik va qahramonlik timsollari bo‘lgan Rustam va Siyovush (Xorazm-Qang‘ eposi)larning jasoratlari to‘g‘risida hikoya qiluvchi epopeyalar shular jumlasidandir. Bizgacha yetib kelgan epik asar (afsona va rivoyat)larda asosan ajdodlarimizning yurt ozodligi, vatan ravnaqi va qabila farovonligi yo‘lida olib borgan kurashlari o‘z ifodasini topgan. qahramonlar vatanni va xalqni sevadi. Ornomusni muqaddas deb bilish, do‘sit va safdoshlarga sadoqat, burchni yuksak darajada anglash, unga sodiqlik, vatan va xalqi uchun o‘z jonini qurbon etish, har qanday mashaqqatga bardosh berish, o‘z sevgi-muhabbati yo‘lida aziyat kechishga tayyorlik kabi

insoniy tuyg'ular ularning asosiy xususiyatlardir. Qahramonlik eposlarida ulug'langan eng asosiy axloqiy xislatlari - jasurlik va mardlikdir.

Jasurlik, kuchlilik va mardlik – qadimiy kishilarda tarkib topishi zarur bo'lgan eng muhim fazilatlar sanalgan. Tarixiy shaxslarning hayoti va qahramonliklari borasida ma'lumotlar beruvchi rivoyatlar fikrimizning yorqin dalilidir. Ularda muayyan shaxs faoliyati, donishmandligi, qahramonliklari, tarixiy shaxs ega bo'lgan axloqiy fazilatlar: nazokat, kamtarlik, aql-idrok, o'zgalarga muhabbat, yorga vafo, sadoqat, baxt, odillik, odamiylik, oliy himmatlilik va mehnatsevarlik kabilar ulug'langan.

Qadimgi ajdodlarimiz insonga xos jasurlik, adolat, sadoqat va insoniylik kabi xislatlarni qadrlaganlar. Bu xislatlar insonda o'z-o'zidan shakllanmagan. Tabiat va jamiyat hayotida ro'y bergan o'zgarishlar, ibtidoiy urug'chilik davrida qaror topgan turmush tarzi insonda ana shunday xislatlarning shakllanishini taqozo etgan. Eng qadimgi qo'shiq va lirik she'rlarda jasurlik, adolat, sadoqat va insoniylik kabi xislatlar tarannum etilgan. Bunday qo'shiq va lirik she'rlar XI asrda yashagan ulug' olim Mahmud Qoshg'ariy tomonidan yaratilgan "Devonu-lug'atit-turk" asari orqali bizgacha yetib kelgan.

Turkiy xalqlarning tarixini yorituvchi qadimgi manbalarda pand-nasihat va o'gitlar etilgan asarlar ham ko'plab uchraydi. Ana shunday asarlar jumlasiga Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asari ham kiradi.

Asarning mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi manbalarning aksariyatida Mahmud Qoshg'ariyning qo'shiqlarni xalq orasidan yiqqanligi ta'kidlanadi. Aziz Qayumov esa bu she'r parchalarining asl nusxasida o'sha davrda mavjud bo'lgan badiiy ijodga nisbatan yuksak talabchanlik aniq sezilib turishi, she'rlarni yaratgan shoirlarning juda ma'lumotli ekani, chuqur bilim va nafis badiiy didga ega ekani xususidagi fikrlarni qayd etadi va pand-nasihatga oid qo'shiqlarni alohida guruhga ajratib, ularni tarjima qilib, mazmunini tahlil etadi.

Pand-nasihat janridagi asarlarning mazmunida asosiy o'rinni ilm olishga undash, uning foydalari, ilm ahlini hurmat etish

to‘g‘risidagi fikrlar egallaydi. Yoshlarga ilmli kishilarga yaqinlashish, ulardan o‘gitlar olish maslahat beriladi:

O‘g‘lim, senga qoldirdim o‘git,
Unga amal qil.

Olimlarga yaqinlash, bahra olgil,
Tutib dilo‘ (3-t. 445-bet).

Demak, o‘g‘ilga nasihat qilgan ota bilimli kishilardan yaxshilik kelishiga ishonadi, ammo ularning fikrini eshitibgina qolmay, amalda unga rioya etish lozimligini ham uqtiradi.

O‘gitlarda ilm-ma’rifat hamda muayyan hunar borasidagi ko‘nikmalarning ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qilishiga erishish kerak deyiladi.

Ilm o‘rganish yo‘lida aziyat chekkan, mashaqqat tortgan kishigina uni to‘laqonli o‘zlashtira olishi, kasb-hunar sirlarini mukammal egallashi mumkin, deydi. Bilimli, yuksak fazilatga ega bo‘lgan kishilar hayoti doimo mashaqqatli kechadi. Umr bo‘yi ilm va hunar asoslarini o‘zlashtirgan olim va fozillar hayoti ham bir kun kelib poyoniga yetadi. Bilimlarining ko‘لامи ortib, yuksak orzu-istiklari amalga oshayotgan bir paytda insonning umri tugaydi.

“Devonu-lug‘atit-turk” asarida insoniy fazilatlarning yana biri - xushxulqlik alohida ajratib ko‘rsatiladi. Bilim va hunar egasi bo‘lish, ezgulik, yaxshilik yo‘lida hamda umum manfaati uchun mehnat qilish xushxulq insonga xos fazilat ekanligini alloma alohida qayd etib o‘tadi:

Ulug‘liging oshsa agar,
Xushxulq bo‘lg‘il.
Bek yonida xalq uchun
Xo‘b ish qilg‘il (1-t. 95 bet).

Kishilar o‘rtasida totuvlik, o‘zaro ahillikning yuzaga kelishi yurtning farovon bo‘lishi, odamlarning to‘kin-sochin yashashining asosiy omili ekanligiga alohida urg‘u berar ekan, alloma mazkur fikrlarni quyidagicha ifodalaydi:

Qo‘ni-qo‘shni qarindosh
Ko‘rsin sendan yaxshilik.
Ne-ne sovg‘a qilishsa,
Yaxshirog‘in qil tortiq (1-t. 137 bet).

Ushbu pand-nasihatlar she'rlarning amaliy hayot bilan uzviy bog'langanidan dalolat beradi.

Mol-dunyo toplashga nisbatan yuzaga kelgan hirsni shoir xuddi tog'dan kelayotgan selga o'xshatadi. Molu-davlat yig'ish hirsiga berilgan kishi sel ostida qolgan toshdek chilparchin bo'ladi, deyiladi:

Mol yig'ishni sel kelish deb hisobla,

Mol egasini tosh kabi yumalatar (3-t. 69 bet).

Shu bois aqlli inson bunday xavf ro'y berishining oldini olishi, atrofdagilarning nazaridan qolmasligi lozim.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ta'lim-tarbiyaga oid pand-nasihatlarga boy she'rlar turmush tarzining turli tomonlarini yoritishga xizmat qiladi. She'rlarda ilgari surilgan g'oyalardan yana biri inson bayotining abadiy emasligi, shu sababli imkon qadar kishilarga yaxshilik qilish lozimligi, yoshlik kuchi va husniga ishonish suvga suyanish bilan barobar ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Demak, eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklarda ifoda etilgan va qadrlangan xislatlar - jasurlik, mardlik,adolat, sadoqat, insoniylik, xushmuomalalikdan iborat bo'lgan. Tabiiyki, ushbu xislatlar insonda o'z-o'zidan shakllanmagan. Tabiat va jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, ibridoiy urug'chilikka asoslangan turmush tarzi insonning ana shunday xisatlarga ega bo'lishini taqozo etgan. Ikki katta kuch - yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi ayovsiz kurash insonda yuqorida qayd etilgan xisatlarning bevosita shakllanishiga turtki bo'lgan.

3. "Avesto"

Zardusht taxminan miloddan avvalgi 570yilda tug'ilgan bo'lib, 77 yoshida, ibodat qilayotgan paytida dushman kohinlaridan biri tomonidan o'ldirilgan.

"Avesto" asari eramizdan avvalgi VI asrning oxiri va IV asrning boshlarida yaratilgan bo'lib, u uzoq davrlar mahsuli sanaladi, davrlar o'tishi bilan qayta-qayta ishlanadi. Asarning to'liq kitob holida shakllanishi eramizdan avvalgi birinchi asrga to'g'ri kelishi barcha manbalarda alohida qayd etiladi.

Zardusht eramizdan avvalgi VI asrda yashagan. Xorazmda yashagan chorvadorlar oilasi Spitama urug‘idan bo‘lgan. Otasi Paurushasp, onasi Dugdova ot va tuya boqish bilan shug‘ulanganlar. Zardusht ko‘p xudolikka sig‘inish hamda ko‘plab qurbanliklar qilinishi natijasida mollar qirilib ketayotganligi, shuningdek, turli qabilalar o‘rtasida mizolar kelib chiqayotganligini ko‘rib, uning oldini olish choralarini izlaydi va ana shu maqsadda o‘z ta’limotini targ‘ib qila boshlaydi. Lekin qabila boshliqlariga uning ta’limoti va unda ilgari surilgan g‘oyalar yoqmaydi. Zardusht xudodan kelgan vahiy orqali ko‘pxudolikka qarshi yakka xudolikni targ‘ib qila boshlaydi, kuchli hokimiyat o‘rnatib, yer yuzida tinchlikni barqaror etish uchun kurashadi, yaxshilik va ezzulik xudosi Axura Mazdani himoya qiladi.

Inson va uning jamiyatda tutgan o‘rniga nisbatan munosabat masalasi “got”lar mazmunida o‘z ifodasini topgan.

“Avesto” tarbiyaviy manba sifatida katta ahamiyatga ega. Yuqorida aytib o‘tilganidek, Zardusht qadimgi qabilalar a’zolaring diniy e’tiqodlariga aylangan qarashlar mazmunini isloh qilgan. Zardusht ta’limotining ilg‘or g‘oyalari shundan iboratki, Axura Mazda (qodir iloh) dunyoda mavjud bo‘lgan adolat va yaxshilikning ijodkori sanaladi. Anxra Mani (Yovuz ruh) barcha yomonliklarni yuzaga keltiradi. “Avesto”ning mazmuni borasida uning bizgacha yetib kelgan parchalarda ilgari surilgan qarashlar mohiyatiga asoslanib quyidagi xulosaga kelish mumkin:

“Vendidat”ning dastlabki uch bobida xalq hayotida yerning qay darajada ahamiyatga ega ekanligi kuyylanadi. Chunonchi, birinchi bobda yovuzlik va adovat hukmron bo‘lgan o‘lkalar tasniflanar ekan, Axura Mazda Tinchlik va Adolat o‘lkasining asoschisi, Anhra Manyu esa jaholat urug‘ini sochuvchi sifatida talqin etiladi. Asarda ana shunday o‘lkalardan 16 tasi qayd etib o‘tiladi.

“Avesto”da tasvirlangan adolat o‘lkasining keyingi davrlardagi nomlari: 1. Aryana Vedja - Xorazm yoki Araks daryosi qirg‘og‘i yoki Amu va Sirdaryo deltasidagi o‘lka. 2. Gava-So‘g‘diyona. 3. Mouru (Margav)-Marshana (Marv, hozirgi Mari shahri joylashgan hudud). 4. Baxdi-Baqtriya (Balx). 5. Nisaya - Nisa, Parfiya poytaxti. 6. Xaroy-Isfaxondagi bir joy. 7. Xnenta-Gurkaniya.

8. Xaraxvaiti-Garut (Araxoziya bilan bog'liq). 9. Xetumant - Gilmenda havzasidagi viloyat. 10. Raga-midiyadagi bir shahar. Ray Tehronga yaqin. 11. Chaxra-Xurosondagi bir joy. 12. Varna - Janubiy Kaspiy bo'yи viloyati. 13. Xapta Xindav - Inda, Panjob havzalarida joylashgan hududi. 14. Rangxa irmoqlari-mifologik o'lka¹.

XIX bobda odamlarning Axura Mazdaga bo'lgan e'tiqodlari darajasini ifodalash maqsadida ular boqiy dunyoda qil ko'prikan o'tadilar, ko'priknинг o'rtasi qilich kabi o'tkir bo'ladi, deyiladi. Kimki Axura Mazdani tan olmasa, unga ishonmasa, u "qil ko'pri"dan o'tolmay, jahannamga tushadi. Dindor va doimiy ravishda ibodat qiluvchilar esa jannatga tushadilar. Axura Mazda yaratilgan vaqtdan boshlab oradan o'n ming yil o'tgach, Axrimanning kuchi tugab, Adolat o'lkasi qaror topadi. Shunda barcha mayitlar (qazo qilgan kishilarning tanalari) bir joyga to'planadi, ularga jon ato etilib, yaxshi kishilar bir tomonga, yomon kishilar ikkinchi tomonga ajratiladi. Shu tariqa yaxshilar jannatga, yomonlar esa do'zaxga tushadi. Yaxshi odamlar uch kun davomida otash irmog'ini kechib o'tgach, gunohlardan poklanib, Axura Mazda yurti - Adolat o'lkasiga kiradilar. Bu o'lkada inson o'zining axloqi va yaxshi amallari, xatti-harakatlari bilan yaxshilik tarafdoi ekanligini isbotlashi kerak. Inson o'z hayot yo'lini tanlar ekan, o'z zimmasiga olgan majburiyatni bajarishga javobgar sanaladi. "Got"larda Axura Mazdaning yerdagi yordamchisi hisoblangan chorvadorlarning dunyoqarashlari ifodalangan. Yaxshi kishilar yuksak axloqiy xislatlarga ega bo'lsalar, yovuz kishilar yomon xislatlarning egasidir. Zardushtiylikda yaxshilik va yomonlik tushunchalari orqali yer yuzida mavjud bo'lgan yaxshilik va yomonlik dunyosining mohiyati ochib beriladi.

Taqvodor chorvador odil va oqil bo'lib, atrofdagilarning hurmatlariga sazovor bo'lsa, katta podaning egasiga aylanadi. Chorvadorlarning nazarlarida ko'chmanchilar ularning dushmanlaridir. Chunki ular odamlarni talaydi, molini haydar ketadi. Asarda ko'chmanchilar axloqsiz mahluqlarga qiyoslanadilar. Ular

¹ Маковелский А.О. Авесто. – Баку, Изд-во Азерб, 1960. с. 48-56.

azob-uqubatlarga loyiq, zero serhosil yaylovlarni yakson etadilar, yaxshilik homiylariga hujum qiladilar. Bildirilayotgan fikrlardan anglashiniladiki, zardushtiylik dinining g'oyalariga ko'ra shaxsning axloqiy xislatlarga ega bo'lishi Adolat o'lkasini qaror toptirishda tayanch omil bo'lib xizmat qiladi. Zardushtning asosiy yo'riqlaridan biri ham Axura Mazdaning ko'makchisi sanalgan inson sahovatli bo'lishi kerak, degan aqidadir. Garchi, zardushtiylikda diniy rasm-rusumlarga rioya etish, Zardusht tomonidan ilgari surilgan barcha axloqiy yo'l-yo'riqlami bajarish har bir kishining muqaddas burchi ekanligi e'tirof etilishi bilan birga dunyoviy ishlar va ularning mohiyati ham ochib beriladi. Zardusht Axura Mazdadandan dunyoda shodlik va baxt makoni, eng sevimli joy qayerda ekanini so'raganda, u shunday javob beradi: u shunday joyki, kishilar u yerda uy-joy quradilar, otashkada (ibodatxona)lar barpo etadilar, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib, bola-chaqali bo'ladilar; men har ikkala qo'li bilan mehnat qiluvchi kishini qo'llayman, uning ishiga baror, hosiliga baraka bag'ishlayman, deydi. Bunda mehnat, dehqonchilik yovuz kuchlarga qarshi kurash, yaxshilik manbai, tayanchi deb ko'r-satiladi. Zero, zardushtiylikda axloqiylikning asosi, sahovatilik belgisi - mehnat deb ko'rsatilsa, ishyoqmaslik barcha nuqsonlarni keltirib chiqaruvchi sabab ekanligiga urg'u beriladi. Ayniqsa, dehqonchilik sohasida qilinayotgan mehnat yaxshilikni yuzaga chiqaruvchi asosiy omil deya ta'kidlanadi. Dehqonchilik bilan shug'ullanish, mo'l-ko'l hosil yetishtirishga qaratilgan harakat Axura Mazda qonuniga bo'ysunish sanalgan. Don ekkan kishi taqvodorlik urug'ini ekishi, Mazdaga ixlosmandlik e'tiqodini ilgari surishi, iymonni oziqlantirib turishi o'n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbanlik qilishga teng deyiladi. "G'alla yerdan unib chiqqanda, devlar larzaga keladi, g'alla o'rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g'alla yanchib, un qilinayotganda ular qocha boshlaydi, xamir qilinganda esa devlar mahv bo'ladi. G'allaning mo'l-ko'l bo'lishi devlarning labiga qizitilgan temir bosilgandek ularni tum-taraqay qiladi".

Ushbu misollarda "Avesto"da inson mehnati tufayli barcha yomon xislat, yomonlik hamda yovuzliklardan qutilishi mumkin,

degan g'oya ilgari suriladi. "Avesto"da inson fikri, so'zlar va ishlariga ikki qarama-qarshi kuch: Voxu Mana (Ezgu fikr) va Ako Mana (Yovuz fikr) ta'sir ko'rsatadi, deydi. Barcha fikr, so'z va ishlar asosida aslida ezgulik va yovuzlik yotadi ("Yasna", 30-bob). Asta-sekin axloqiy tushunchalar shaxsiy mazmun kasb eta boshlaydi. Masalan, "yaxshi so'zlar" deganda ahdida turish va berilgan va'dani bajarish kabilar nazarda tutilsa, "yaxshi amallar" deganda esa savdo-sotiqlar ishlarida halol bo'lish, qarzni vaqtida to'lash, o'g'rilik va talonchilik qilmaslik, o'zgalarning moliga ko'z olaytirmaslik, buzuqliklardan o'zini tiyish, atrofdagilarga ziyon yetkazadigan har qanday harakatni sodir etmaslik va hokazolar tushunilgan. "Yaxshi fikr" iborasining mazmuni o'zida ilohiy qonun ruhidagi g'oyalarga ega bo'lish, yaqin kishisiga nisbatan mehribonlik ko'rsatish, muhtojlarga ko'maklashish, yovuzlikka qarshi kurashga doimo tayyor turish, kishilarning baxt-saodati yo'lida harakat qilish, ahillik, qabiladoshlar bilan birga do'stlik va totuvlikda yashashga intilish ruhidagi niyat va fikrlar musaffoligini aks ettiradi. Inson fikran ham boshqalarga hasad qilmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi darg'azab bo'lmaydi, jaholatlarga berilmaydi. Zero, bunday ruhiy holatda inson yaxshilik haqida o'ylamaydi, burch vaadolat haqida unutadi va nojo'ya harakatlar qiladi.

"Avesto"dagi uchlikning haqiqiy manbalariga yondashiladigan bo'lsa, ular qadimgi zamon kishilarning axloqiy tasavvurlariga batamom muvofiq bo'lib tushadi. Fikr, so'z va ishning birligi ibridoiy insonning ham ajralmas xislati edi. Uning ong, axloq va boshqalar xususidagi tasavvurlari o'zi mansub bo'lgan jamoa bilan uzviy bog'langan. Jamoaning fikri uning ham fikri, jamoaning so'zlarini uning ham so'zlarini, jamoaning ishlari uning ham ishlari bo'lgan. Ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarning uyg'unligi – urug'chilik jamiyatining muhim belgisidir. Jamoaning har qanday topshirig'ini bajarish uning a'zolari uchun muqaddas qonun edi".

Tarozining bir pallasiga ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amal — xayrli ishlar, boshqa pallasiga esa yovuzlik va yomonlikka asoslangan xatti-harakatlar qo'yiladi. Ezgu amallar salmog'i og'irlilik qilsa, marhum ruhi yuqoriga uchadi va jannatga tushadi,

yovuz va yomon harakatlar qo'yilgan palla og'irlik qilsa, chohga tushadi.

"Avesto"da inson omili, uning salomatligini ta'minlash masalasi alohida bayon etilgan. Bugungi kunda xalq tabobatida qo'llanilib kelayotgan va kishilar salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etgan ayrim usullar xususida ma'lumotlar beriladi. Bildirilgan fikrlar mazmuniga ko'ra mavjud kasalliklarni davolashda dorivor o'simlik (giyoh)lar yordamida tayyorlangan vositalardan samarali foydalanilgani ma'lum bo'ladi. Ana shunday dorivor vositalar sirasida kunjut, ko'knori, zira, piyoz, savsan, turp, xurmo, sabzi, behi, asal, zaytun moyi, shakar, shira hamda sedananing nomi qayd etiladi. Ayrim kasalliklarni bartaraf etishda dorivor o'simliklarning ildizi, poyasi, bargi, guli, mevasi va urug'laridan tayyorlangan qaynatmalarning foydasi katta ekanligi ta'kidlanadi. Kasalliklar rivojlanish davri, holati va turiga ko'ra rejim asosida, duo o'qitish, parhez saqlash, dori iste'mol qilish, shuningdek, jarrohlik amallarini tashkil etish kabi yo'llar bilan davolangan. Asarda tabiblar tomonidan e'tirof etilgan va ularning faoliyatlarida asosiy axloqiy-ma'naviy g'oya bo'lib xizmat qilgan qasamnoma matni ham keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, "Avesto" asarida insonning barkamol bo'lib yetishishida uning so'zi, **fikri hamda ishi ezgu bo'lishi va ezgulikning tantanasi uchun xizmat qilishiga** katta e'tibor beriladi. Ushbu axloqiy uchlilik g'oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ma'rifiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo'lgan.

Zero, unda insonning inson sifatida ma'naviy va moddiy jihatdan kamol topishi uchun zarur bo'lgan muayyan talablar o'z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida nafaqat sharq balki g'arb xalqlarining ham muhim ma'naviy merosi bo'lib qoldi.

Asarda ifoda etilayotgan masalalarining ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olganligi Zardusht g'oyalarining nazariy va amaliy ahamiyatini oshirib, uning qimmati bugungi kunda ham yuqori bo'lishiga olib kelgan.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o‘ziga xosligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
2. Qadimgi yozuvlar va ularning kelib chiqishi haqida nimalarni bilasiz?
3. Xalq og‘zaki ijodida insondagi qaysi xislatlar ulug‘langan?
4. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asaridagi o‘gitlardan misollar keltiring.
5. “Avesto” eng qadimgi yozma yodgorliklari nimalardan iborat.

XIII BOB. VII ASRDAN XIV ASRGACHA BO'LGAN DAVRDA MAKTAB, TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKR TARAQQIYOTI

1. Islom dini g'oyalarining ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Musulmon maktablarida ta'lim-tarbiya mazmuni

Islom dinining asoschisi va targ'ibotchisi Muhammad ibn Abdulloh 570 yilda Makkada quraysh qabilasiga mansub Hoshimiylar xonodonida tug'iladi. Otasi Abdulloh Shom safariga keta-yotib Madina shahrida vafot etganda, yoshi 30 ga yetmagan edi. Yosh Muhammad besh yoshida onasi Ominadan ham ajraladi. Shundan so'ng uni bobosi Abdul Mutallib o'z tarbiyasiga oladi. Bu chog'da Abdul Mutallibning yoshi yuzdan oshgan edi. Ko'p o'tmay u ham vafot etadi. Bobosining vafotidan so'ng uning vasiyatiga ko'ra, hali voyaga yetib utgurmagan Muhammadni amakisi Abu Tolib tarbiyalaydi. Ushbu yillarda u savdogarlik kasbining sir-asrorlarini o'rgana boshlaydi. Voyaga yetgach Makka shahrining badavlat ayollaridan biri bo'lgan Xadichanining xizmatiga ishga kiradi.

609–610-yillardan boshlab Muhammad payg'ambar sifatida yagona Allohga e'tiqod qilish g'oyasini targ'ib eta boshladidi. Islom dinining g'oyalarini quraysh va boshqa qabilalarning a'zolari o'rtaida targ'ib etishda Muhammad alayhissalomga Xadicha har jihatdan ko'mak beradi, ular bir umr maslakdosh, hamfikr bo'lib qoladilar. Islom dini g'oyalari targ'ibotining dastlabki yillari payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning g'oyaviy e'tiqodlariga qarshi kofirlar va Makka mushriklarining adovati tobora kuchayib boradi. Bir necha urushlar bo'ldi. Shundan so'ng Allohning izni bilan Makka shahridan Madina shahriga hijrat etishga ruxsat bo'ldi. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom 622 yilda o'z sahoba va tarafdoqlari bilan Madina shahriga yo'l oldilar. Musulmonlarning hijriy yil hisobi xuddi shu yildan

boshlanadi. Madinada qabilalar qo'shilib, yangi ittifoq – jamoa tuziladi. Bora-bora Madina shahrida musulmon jamoalari kuchli davlatga aylanadi.

632 yilda Muhammad alayhissalom Makka shahriga yana bir bor haj qiladilar, oradan uch oy o'tgach, Madina shahrida vafot etadilar.

"Qur'on" - dunyo madaniyatining ulkan boyligi, musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lib, arab tilida "qiroat" ma'nosini anglatadi. "Qur'on" 114 suradan iborat bo'lib, ularning 90 tasi Muhammad alayhissalom Makka shahrida, 24 tasi esa Madina shahrida istiqomat qilgan davrlarda nozil bo'linganligi to'g'risida manbalarda ma'lumotlar keltiriladi. "qur'on" g'oyalari kishilarni tenglik, birodarlik, tinch-totuv yashash va ezgulikka undaydi. Shunga ko'ra, u katta axloqiy qimmatga ega. "qur'on" g'oyalaring ma'naviy-axloqiy xususiyatlari xususida so'z yuritilar ekan, uning insonning ma'naviy kamolga yetishida qay darajada muhim o'ringa ega ekanligiga amin bo'lamiz. Shuning uchun u mana necha asrlardan beri insoniyatning eng ulug' qadriyati sifatida e'zozlanib kelinmoqda. Qur'oni Karim kishilarni tinch-totuv yashash, birodarlik, tenglik, saxiylik va bir-biriga mehr-muhabbat ko'rsatishga undaydi. Shunga ko'ra u katta axloqiy ahamiyatga ega. "Qur'on"ning axloqiy qimmati uning insonni ma'naviy kamolotga erishishida rioya etishi lozim bo'lgan talablarni bir butun holda mujassam eta olganligi bilan belgilanadi. Shu bois u necha asrlardan buyon insoniyatning eng ulug' qadriyatlardan biri sifatida e'zozlanib kelinmoqda. Ota-onalar "Qur'oni karim" g'oyalariiga ko'ra eng birinchi navbatda ehson ko'rsatilishiga loyiq kishilar sifatida qayd etilgani holda ularning haqlari belgilab beriladi. Ota-onaning farzand oldidagi haqqi quyidagilardan iboratdir:

- farzandga ota-onaga xatti-harakatlarining malol kelmasligi;
- ota-onaga bilan gaplashganda ularning dillariga og'ir botadigan so'z aytmaslik;
- ota-onaga ehtirom bajo keltirish;
- ota-onaga rahm-shafqat ko'rsatish;
- ota-onaning haqlariga duo qilish.

“Qur’on”da faqat ota-onas emas, oilaning boshqa a’zolariga, qarindoshlar, yetimlar, kambag‘allar, qo‘ni-qo‘shnilarga ham yaxshilik qilish ta’kidlangan. “Niso” surasining 36-oyatida “Ota-onangizga ham qarindosh-urug”, yetim va miskinlarga, qarindosh, qo‘shni va begona qo‘shniga, yoningizdagи hamrohingizga, yo‘lovchi musofirga yaxshilik qilingiz!” (58 bet) deya, kishilarni bir-biriga yaxshilik qilishga undaydi. Bu oyat katta ijtimoiy-axloqiy ahamiyatga ega. Chunki har bir oilaning mustahkamligi jamiyatni mustahkamlashga, har bir yetimga g‘amxo‘rlik esa jamiyatning taqdiri uchun harakat qiladigan ma’naviy yuksak insonni kamolga yetkazishga olib keladi. Qo‘ni-qo‘shnilar bilan totuvlik esa mahalla hayotining tinch-totuv bo‘lishini ta’minlaydi, bu esa o‘z navbatida jamiyatning barqarorligiga olib keladi. Demak, yuqoridagi sura oila va jamiyat o‘rtasidagi mustahkam aloqa mohiyatini ham ifoda etadi. “Qur’on”da sabr-qanoatga ham yuksak axloqiy fazilat sifatida katta e’tibor beriladi. Shuning uchun ham sabr “Qur’on”da eng ko‘p zikr etiladigan xislat bo‘lib, quyidagi xislatlarni kamol toptiradi. Shu o‘rinda shijoat qiyinchiliklarga, iffat - shahvoniy hirsga, halimlik esa jahlga sabr qilishning mezoni sifatida talqin etiladi. “Qur’on”da ta’kidlanganidek, sabrli, sabotli bo‘lish - bu qiyinchiliklarga bardosh berish, yomon kishilar tomonidan yetkazgan nohaqliklarga chidash, boshga tushgan musibatlarga nisbatan bardoshli bo‘lishdan iboratdir. Quyida keltiriluvchi oyatlarda qayd etilgan fikrlarga rioxat etish insonda sabr-toqat hamda matonat kabi xislatlarni tarbiyalaydi: “Va albatta, sizlarni xavf-u xatar, ochlik, mol-u jon va meva-chevalarni kamaytirish kabi narsalar bilan imtihon qilamiz. Biror musibat kelganda: “Albatta biz Allohning (bandalarimiz) va albatta biz u zotga qaytguvchilarimiz”, deydigan sobirlarga xushxabar bering (Ey Muhammad)! Ana o‘shalarga Parvardigorlari tomonidan salovot (ma’rifat) va rahmat bordir. Ana o‘shalar haq yo‘lini topguvchilardir” (“Baqara” surasi, 155-157-oyatlar).

Yuqorida keltirilgan oyatlar mazmunidan anglanadiki, sabrli kishilar hayotda doimo to‘g‘ri yo‘lni tanlab oladilar, har qanday qiyinchiliklarga bardosh beradilar, musibatlar oldida bosh egmaydilar. Qur’oni karim insonni sabr-bardoshli bo‘lishga

undaydi. Bu esa har bir kishining eng oliv xislati sanaladi. "Qur'on"da insonda tarkib topishi kerak bo'lgan oliv xislatlardan yana biri sadoqat deb ta'lim beriladi. Har bir jamiyatning ravnaqi shu jamiyatda yashayotgan kishilarning o'z vatani va xalqiga bo'lgan sadoqatiga ham bog'liqdir. Zero, sadoqat bor joyda ishonch, e'tiqod mavjud bo'ladi. Jamiyat a'zolarining vatani hamda xalqiga nisbatan sadoqatli bo'lishlari jamiyat ravnaqini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan biri hisoblanadi. "Qur'on"da sadoqat barcha yaxshiliklarning debochasi sifatida, shuningdek, rostgo'ylik ma'nosida ham talqin etilgan. Sadoqat o'zgalarning omonatiga xiyonat qilmaslik, bergen va'dasiga vafo etish kabi holatlarni ham ifoda etadi. Shunga ko'ra Allah musulmonlarni bir-birlariga sadoqatli bo'lishga undagan: "Ey mo'minlar, Allohdan qo'rqingiz va iymonlarida sadoqatlilar bilan birga bo'lingiz", - deyiladi "Tavba" surasining 119-oyatida. "Qur'on"da kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilash to'g'risida ham gap boradi va bu oliy darajadagi insoniy xislat bo'lib, pok qalbli kishilargina bunga erisha oladi, deyiladi. Jamiyat a'zolarining bunday xislatga ega bo'lishlari ham jamiyatda, ham odamlar orasida tinchlik va osoyishtalikning barqaror bo'lishiga zamin hozirlaydi. Shu bois ham kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqani mustahkamlash musulmonchilikning asosiy talablaridan biri sanaladi. "Hujurat" surasining 10-oyatida bu xususda: "Mo'minlar, hech shak-shubhasiz, og'a-inilardir. Bas sizlar ikki og'a-iningizning o'rtasini o'nglab qo'yinglar", - deyiladi. Kishilar o'rtasidagi kelishmovchiliklarning oldini olish yoki ularning o'zaro totuv yashashlariga erishish jamiyat ahamiyatiga egadir. Ijtimoiy hayotda har bir shaxs yoki umumxalqning farovon va baxtli hayoti ko'p jihatdan ularning o'zaro tinch-totuv yashashlariga bog'liq. "Qur'on"da kishilar o'rtasida yo'lga qo'yiluvchi o'zaro yordamga alohida ahamiyat beriladi. Atrofdagilarga nisbatan yaxshilik qilish hamda taqvodorlik yo'lida bir-biriga yordam berishga chaqiriladi. "Qur'on"da yaxshilik tushunchasi ostida rostgo'ylik, omonatga xiyonat qilmaslik, saxiylik, shijoat va boshqa barcha fazilatlar nazarda tutiladi. Shu bilan birga "Qur'on"da jamiyat, shuningdek, biror kishining manfaatiga zarar yetkazuvchi yomonlik hamda

dushmanlik qoralanadi. "Qur'on"da insondagi eng zarur xislatlar- dan sanalgan olivjanoblik haqida ham fikr yuritiladi. Oliyjanoblik-yaxshilikni o'zi uchun emas, boshqalar uchun ham zarurligini anglash istagidir. Demak, olivjanoblik ruhiy holat bo'lib, inson kamolotini ko'rsatuvchi xislatdir. "Xashr" surasining 9-oyatida "Garchi o'zlarida ehtiyoj bo'lsa-da, o'zlarini qo'yib (o'zgalarni) iysor-ixtiyor qilurlar. Kimki o'z nafsining baxilligidan saqlana olsa, bas, ana o'shalar najot olguvchi zotlardir", – deya o'zgalarga nisbatan olivjanoblik qila olgan insonlar sharaflanadilar. Muomala madaniyatiga rioya qilish qonun-qoidalari Islom dini g'oyalari yaratilgunga qadar ham tizimlangan bo'lsada, biroq Islom ta'limotigina uning asl mohiyati, shuningdek, inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini to'laqonli ravishda ohib berdi. Kishilarida shirinso'zlik, madaniy muomala qila olish ko'nikmalari taraqqiy etgan mamlakatlardagina ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyot ro'y beradi. Shirinso'zlik insonning muomala madaniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi, uning obro'sini oshiradi, elning hurmatiga sazovor qiladi. Shu bois "Qur'on"da har bir insonning shirinso'z bo'lishi ham o'zi uchun, ham jamiyat uchun foydali ekanligiga alohida urg'u beriladi. Boshqa oyatda esa Alloh kishilarni so'zlashganda past ovoz bilan so'zlashga undaydi: "Kishilarga chiroyli so'zlar so'zlangiz" ("Baqara" surasi, 53-oyat).

"Qur'on"da yana insonni axloqiy kamolga yetkazishga zid xususiyatlar: manmanlik, aroqxo'rlik, qimorbozlik, yolg'onchilik, boshqalarni kamsitish, badgumonlik, joususlik, g'iybatchilik, maishiy buzuqlik, g'azabnoklik, xasadgo'ylik, ochko'zlik kabilalar xususida ham muhim fikrlar bildirilgan.

Manmanlik - o'z aybini tan olmaslik, takabburlik sanaladi. Manmanlik illati kishilarni sog'lom fikr yuritishdan, o'zini takomillashtirib borishdan mahrum etadi. Natijada jaholat illati paydo bo'ladi ("A'rof" surasining 146-oyati). "Qur'on"da aroqxo'rlik va qimorbozlik ham insonni tubanlik sari yetaklovchi, or-nomusini oyoq osti qiluvchi illat sifatida qoralanadi. Chunki aroqxo'r astasekin or-nomusini unuta boshlaydi, maishiy tubanlikka yuz tutadi. Inson naslining buzilishi, jamiyatning inqiroziga sabab bo'ladi. Aroqxo'rlik va qimorbozlik ruhan va jismonan insonning ma'naviy

qashshoqlanishiga olib keladi. Bunday inson ham oila, ham jamiyat uchun bevosita zarar keltiradi. Shunga ko'ra, islam ta'lomit g'oyalarida aroq xarom hisoblanishi qayd etiladi.

Qimor esa insonga ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan zarar keltiradi, inqirozga yuz tutishga olib keladi. Shuning uchun ham ushbu yomon illatlarning oldini olish ta'kidlanadi. "Qur'on"da yolg'onchilik va uning turlari, zararli oqibatlari haqida ham batafsil to'xtab o'tilgan. Unda yolg'onchilik razolat bilan bir qatorga qo'yiladi. Odamlar yolg'onchi kishining gaplariga ishonmay qo'yadilar, unga bo'lgan ishonchlarini yo'qotadilar. Shuningdek, mazkur kitobda yolg'onchilikning turlari ham bayon etiladi. Shulardan eng xavflisi xiyonat deb ta'kidlanadi. Zero, xiyonat jamiyat uchun ham, shu jamiyatda yashovchi odamlar uchun ham zarar keltirib, uni xarob etadi. "Anfol" surasining 27 hamda "Niso" surasining 107 oyatida xiyonat qilganlarni Allah kechirmasligi ta'kidlangan. Yolg'onchilikning yana bir turi va'daga vafo qilmashlik deb ko'rsatiladi. Irodasiz, birovga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan, ishonchsiz kishilar va'daga vafo qilmashligi bayon etiladi. Islomda va'dasining ustidan chiqmaslik - munofiqlik deb tushuntiriladi. Bu xususidagi fikrlar hadislarda ham o'z ifodasini topgan, xusan, "Munofiqlikning belgisi uchta: gapirsa-yolg'on gapiradi, va'da bersa-vafo qilmaydi, omonatga xiyonat qiladi" tarzida ifoda etilgan. Yolg'on guvohlik berish ham kishilarga jabr-zulm o'tkazishga sabab bo'lishiga "Qur'on"da alohida e'tibor beriladi.

Chaqimchilik ham yolg'onning bir turi sifatida, kishilar o'rtasiga nifoq soluvchi razolat tarzida qoralanadi. "Qur'on"da haqiqiy inson o'zgalarni kamsitmasligi, boshqalarni hurmat qilishi, shu bilan kishilar o'rtasida totuvlikni mustahkamlash mumkin ekanligi kabi g'oyalar ham mavjud. Islom ta'lomitida hasad ham eng qabih xislat sifatida qoralanadi. "Qur'on"da insonning axloqiy kamol topishida bekorchi gap-so'zlardan yiroq yurish, mayda va behuda gaplarga vaqt ketkazmaslik, ulardan o'zini chetga olish kabilarni ham bajarish farz ekanligi ta'kidlanadi. Insonning ma'naviy kamol topishiga salbiy ta'sir etuvchi xislatlardan biri - ochko'zlik ekanligi ta'kidlanib, kishilarning bunday xislatga ega bo'imasligi darkor ekanligi uqtiriladi. Chunki mol-u dunyo

orttirishga bo‘lgan rag‘bat manmanlik, berahmlik, isrof garchilik kabi yomon xislatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi (“A’rof” surasining 31-oyati). Ochko‘zlik, xasislik esa mol-dunyoga ruju qo‘yishga olib keladi.

“Qur’on”da ta’lim berilishicha, mol-dunyo insonni sinash uchun beriladi. Mol-dunyoga erishgan har bir inson uni to‘g‘ri yo‘lda sarflashi lozim (“Anfol” surasi, 28 oyat). “Qur’on”da boylik emas, haqiqat va yaxshilik abadiydir, deyiladi. Ba’zilar mol-dunyosi ortganda manmanlik kasaliga giriftor bo‘ladilar, aql vaadolatni unutadilar. Inson boylik orttirsa, haddidan oshadi, shu sababli kishilarning boylik orttirgan chog‘ida kekkayib, gerdayib ketishlaridan saqlanish masalalari keng yoritiladi. Islom ta’limotida ilgari surilgan g‘oyalardan yana biri va uning eng muhim tarkibiy qismi poklik va tozalikka rioya qilishdir.

Xulosa qilib aytganda, Islom va uning asosiy ta’limoti mujassamlashgan Qur’oni karim insonda aqliy, axloqiy hamda jismoniy xislatlarni shakllantirish, bir so‘z bilan aytganda, komil insonni tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

2. Hadis ilmining paydo bo‘lishi. Imom Ismoil al-Buxoriy

“Sahih” yo‘nalishining asoschisi eng yetuk va mashhur muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. Imom Ismoil al-Buxoriy hadis ilmida “Amir-ul-mo‘minin”, “Imom al-muhaddisiyn” (“Barcha muhaddislarning peshvosi”) degan sharaflı nomga sazovor bo‘lgan. U 810 yilning 13 mayida (ba’zi manbalarda 810 yilning 20 iyulida) (hijriy 194 yil shavvol oyining 13 kuni) Buxoroda tug‘ilgan. Go‘dakligida otadan yetim qolgan. Dastlabki savodini mакtabda chiqargan, 10 yoshidayoq arab tilida yaratilgan kitoblar yordamida hamda roviylardan og‘zaki ravishda eshitish asosida hadislarni yodlay boshlagan. Alloma hadis ilmini zo‘r ishtivoq va katta qiziqish bilan o‘rgandi. Abdulloh ibn al-Muborak, Vaqi’ ibn Jarroh kabi olimlar tomonidan to‘plagan hadislarni yod olgan, shuningdek, hadis rivoyatchilari xususida so‘z yuritilgan bahslarda ishtirot etgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy 825 yilda, o‘n olti yoshida onasi va akasi bilan Hijozga safar qiladi. Makka-yu Mukarrama va Madinai Munavvarada bo‘lib, haj ibodatini ado etadi. Balx, Basra, Kufa, Bog‘dod, Xume, Damashq, Misr, Makka va Madina kabi shaharlarda bo‘lib, safar jarayonida muhaddislar bilan uchrashadi. Muhaddislar bilan uyuştirilgan suhbatlarda ular tomonidan aytigelan hadislarni yodlab borar edi. Olti yil Hijoz shahrida yashab, u yerda yetuk muhaddislardan hadis ilmi bo‘yicha, Damashq, Qohira, Basra va Bag‘dod shaharlarining mashhur olimlaridan esa fiqh ilmi bo‘yicha ta’lim oladi. Shuningdek, allomaning o‘zi ham turli bahs va munozaralarda ishtirok etib, toliblarga dars ham beradi. Imom Ismoil al-Buxoriy iste’dodli, o‘tkir zehnli hamda ziyrak olim bo‘lgan. “Manbalarga ko‘ra, Bag‘dod shahrida istiqomat qilgan vaqtida ko‘pincha qorong‘u kechalari sham yorug‘i va oyning nurida ijod qilib, kitob yozar ekan. Tunda yodiga bexosdan biror-bir fikr-mulohaza tushib qolsa, shamni yoqib, darhol o‘sha fikrni qog‘ozga tushirar, shu taxlitda ba’zan shamni yigirma martagacha o‘chirib-yoqar ekan”¹. Rivoyatlarga ko‘ra, u qaysi bir kitobni qo‘lga olib, bir marotaba mutoala qilsa, unda bayon etilgan barcha fikrlar, ma’lumotlarni yodda saqlab qolavergan. Imom Ismoil al-Buxoriyning qayd etishicha, yuz ming sahih (ishonchli) va ikki yuz ming g‘ayri sahih (ishonchsiz) hadisni yod bilgan. Shogirdlaridan Amir ibn Fallos “Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyga ma’lum bo‘lmagan hadis, albatta, ishonchli hadis emasdur”, - deydi. Ustoz Imom Ahmad ibn Xanbal al-Marvaziyning aytishicha, “Butun Xurosondon Muhammad ibn Ismoil kabi olim chiqqan emas”. Imom Ismoil al-Buxoriy o‘ta kamtar, insonparvar, xulq-odobda tengsiz, sahovatli inson ham bo‘lgan. U hadis ilmining yetuk olimi sanalsada, zamondoshlari hamda shogirdlaridan ham ilm o‘rgangan. Alloma bir ming sakson nafar muhaddisdan hadis eshitgan. Allomaning o‘zidan esa to‘qson ming nafar kishi ishonarli hadislarini eshitgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Imom Ismoil al-Buxoriy 600 mingga yaqin hadisni to‘plagan., 100 ming “sahih” va 200 ming “g‘ayri sahih” hadislarni

¹ Уватов У. Надис илмининг сultonни. Ўзбекистон адабиёти ва санъати:1993, 29 октябрь. №43-44.

yod olgan. Imom Ismoil al-Buxoriy uzoq safardan ona yurti Buxoroga qaytgach, talaba va ulamolarga hadis ilmidan saboq beradi va mazkur ilmnning targ‘ibotchisiga aylanadi. Rivoyatlarga ko‘ra, xalifaning Buxorodagi noibi Xolid ibn Ahmad ibn Xolid az-Zuhaliy uni saroya kelib hadis ilmidan saboq berishga taklif etadi. Ammo Imom Ismoil al-Buxoriy bu taklifni qabul etadi va: “Men ilmni xorlab sulton-u amirlar eshigiga olib bormayman. Agar amirga ilm kerak bo‘lsa, bolalarni (ikkinchi rivoyatda saroydagilarni) uyimga yoki masjidimga yuborsin”, -deb javob beradi¹. Shu bois alloma bilan amir Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy o‘rtasidagi munosabatga biroz putur yetadi. Bunga ayrim xasadgo‘y shaxslarning ig‘volari ham sabab bo‘ladi. Amir allomaning shahardan chiqib ketishga farmon beradi. Samarqand ulamolari Imom Ismoil al-Buxoriyni o‘z yurtlariga taklif etadilar. Yo‘lga chiqqan Imom Ismoil al-Buxoriy Samarqand shahriga yaqin bo‘lgan Hartang qishlog‘i (hozirgi Poyariq tumanining hududi)da betob bo‘lib qoladi va shu yerda hijriy 256 yili ramazon oyining oxirgi kuni (milodiy 872 yil 1 sentyabr) 62 yoshida vafot etadi va shu yerga dafn etiladi.

Imom Ismoil al-Buxoriy juda boy ijodiy meros qoldirgan. Uning “Al-jome’ as-sahih” (“Ishonchli to‘plam”), “Al-adab al-mufrad” («Adab durdonalari»), “At-tarix al-kibor” (“Katta tarix”), “At-tarix as-sag‘iyr”, (“Kichik tarix”), “Al-qiroatu xalfa-i-imom” (“Imom ortida turib o‘qish”), “Vaf‘ul-yadini fi-s-saloti” (“Namozda ikki qo‘lni ko‘tarish”) kabi asarlari mavjud bo‘lib, ularning qo‘lyozmalari bizgacha yetib kelgan. Ammo “At-tarix al-avsat” (“o‘rta tarix”), “At-tafsir al-kabir” (“Katta tafsir”), “Al-jome’ al-kabir” (“Katta to‘plam”), “Kitob-ul-hiba” (“Hadya kitobi”) nomli asarlari ham bo‘lganligi ma’lum, biroq ular bizgacha yetib kelmagan. Shubhasiz, yuqorida nomlari qayd etib o‘tilgan asarlarining eng yirigi, shoh asari “Al-jome’ as-sahih”dir. Bu asar “Sahih al-Buxoriy” nomi bilan ham dunyoga mashhur. 4 jilddan iborat mazkur kitobda payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom hadislardan tashqari, islom huquqshunosligi, islom marosimlari, axloq-odob, ta’lim-tarbiya, tarix va etnografiyaga oid ma’lumotlar

¹ Бобохонов Шамсиддин. Кўрсатилган асар, 9-бет.

ham berilgan. Unga 600 ming hadisdan 7275 ta eng “sahih” hamda 4000 ta takrorlanmaydigan hadislar kiritilgan. Bu kitob Islom ta’limotida Qur’oni karimdan keyingi asosiy manba hisoblanadi.

3. Muhammad ibn Iso at-Termiziy

Mashhur muhaddislardan yana biri vatandoshimiz Muhammad ibn Iso at-Termiziy bo‘lib, u 824-yilda Termiz yaqinidagi Bug‘ qishlog‘i (hozirgi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani)da tug‘ilgan. Uning oilasi va ota-onasi haqida ma’lumotlar yo‘q. Ba’zi tadqiqotchilar uning otasi asli Marvlik bo‘lgan deb qayd etadilar.

Muhammad ibn Iso at-Termiziyning zehnining o‘tkirligi, xotirasi, va yod olish qobiliyatining kuchliligi tufayli Imom Ismoil al-Buxoriy ham uni faqatgina shogird sifatida emas, balki hamkor, hamfikr va do’st sifatida ham hurmat qilgan. Muhammad ibn Iso at-Termiziy uzoq safarda manbalardan o‘qigan yoki muhaddislardan eshitgan hadislarni to‘plab, kitoblar ta’lif qilishga kirishadi. U 863 yilda o‘z vataniga qaytadi va o‘zi ham shogirdlarga ta’lim beradi, ayni vaqtda kitoblar ham yozadi. Alloma tomonidan o‘ndan ortiq asarlar yaratilganligi ma’lum. Bular qatoridan “Al-jome’ as-sahih” (“Ishonchli to‘plam”), “Ash-shamoil an-nabaviya” (“Payg‘ambarning alohida fazilatlari”), “Al-ilal fi-l-hadiys” (“Hadislardagi illatlar va og‘ishlar haqida”) kabi asarlari o‘rin olgan bo‘lib, ular juda mashhurdir.

Muhammad ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozib qoldirilgan asarlarda o‘z ifodasini topgan hadislar ham Imom Ismoil al-Buxoriy tomonidan bayon etilgan hadislari kabi insonni halollik, adolat, e’tiqod, diyonat, poklik, mehnatsevarlik, muruvvatilik, mehr-shavqat, yoshi kattalar,, ota-ona va qarindoshlarga hurmat g‘oyalarini ilgari surish xususiyatiga ko‘ra shaxs ta’limi va tarbiyasini tashkil etishda katta ahamiyatga ega.

4. Hadislarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati

Hadislarda insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo‘lib, ushbu fazilatlar sirasiga

o‘zgalarga mehr-oqibat ko‘rsatish, saxiylik, ochiq ko‘ngillik, ota-on, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo‘lish, ularga g‘amxo‘rlik qilish, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug‘lash, halollik, poklik, do‘stlik, olivjanoblik, rahm-shafqatlilik, kamtarlik, rostgo‘ylik va vijdonlilik kabi xislatlar kiritiladi. Bundan tashqari, insonning o‘zini yomon illatlardan tiyishi, yaxshilik sari intilishi kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o‘z aksini topganki, bularning barchasi Qur’oni karimda qayd etilgan ko‘rsatmalarga asoslanilgan va komil insonni shakllantirishda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Hadislarda iymonning mukammal va mustahkam bo‘lishi quyidagi uch shartga qat’iy amal qilinishiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan:

- to‘g‘ri e’tiqodli bo‘lmoq;
- kishilar bilan yaxshi munosabatda bo‘lmoq;
- kishi o‘z ustida ishlamog‘i va o‘zini ibodat va itoatga chaqirmog‘i¹ (Keyingi misollar ham ushbu kitobdan olindi).

Iymon daraxtga tenglashtiriladi va uning 60 dan ortiq shoxlari bor deya iymonning belgilari sanab o‘tiladi. Sanab o‘tilgan belgilarning har biri inson ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi va mukammallashtiruvchi xislatlardir. Bular quyidagilardan iborat: “qo‘li bilan va tili bilan o‘zgalarga ozor bermagan kishi musulmondir”, “o‘zingiz yaxshi ko‘rgan narsani birodaringizga ravo ko‘rmaguningizcha hech biringiz chinakam mo‘min bo‘la olmaysiz” (3–4-boblar); “Uchta xislatni o‘zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo‘lgaydir:

- insofli va adolatli bo‘lmoq;
- barchaga salom bermoq;
- kambag‘alligida ham sadaqa berib turmoq” (20-bob).

Bundan tashqari, kishilar uchun xos bo‘limgan munofiqlik xislati xususida ham so‘z yuritiladi, chunonchi, «Rasulullohu sallalohu alayhi vasallam aytganlar: “quyidagi to‘rtta xislat kimda

¹ Ал-Бухорий, Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. Ҳадис. 4 жилдили китоб. 1-китоб. Алжомеъ Ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам). Арабчадан З. Исмоил таржимаси. – Тошкент, Қомуслар бош таҳририяги, 1991. 14-бет

bo'lsa, aniq munofiq bo'lg'aydir, kimdaki, ulardan bittasi bo'lsa uni tark etmaguncha munofiqlikdan bir xislati bor ekan, deviladir:

- omonatga xiyonat qilgaydir;
- so'zlasa yolg'on so'zlaydir;
- shartnomma tuzsa, shartida turmagaydir;
- urishib qolsa, kek saqlagaydir va nohaqlik qilaydir (25-bob).

Hadislarda inson ma'naviy kamolotining mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallaganligi, o'z bilimi bilan atrofdagilar va jamiyatga foyda keltirguvchi shaxs bo'lib yetishishida muhim omildir deya ko'rsatiladi. "Tolibi ilm qilish farzdir. Tolibi ilmga har bir narsa istig'for aytadi, hatto dengizdagি baliqlar ham". Bilimsizlik kishilarning nodonligiga zamin hozirlashi, ilmsiz jamiyatda esa jaholat hamda razolatning hukmronlik qilishi alohida ta'kidlab ko'rsatiladi. "Ilm o'rganmoq va o'rgatmoqning fazilati" borasidagi hadis (21 bob) da ilm o'rganish ko'p yoqqan yomg'irga qiyoslanadi va ilm ahli quyidagi uch turga bo'ladi: "Ba'zi yer sof, unumdar bo'lib, yomg'irni o'ziga singdiradi-da, har xil o'simliklar va ko'katlarni o'stradi va ba'zi yer qurg'oq, qattiq bo'lib, suvni emmasdan o'ziga to'playdir, undan Alloh taolo bandalari foydalangaydir. Odamlar suvdan ichgaydirlar, hayvonlari va ekinlarini sug'orgaydirlar. Ba'zi yer esa tekis bo'lib, suvni o'zida tutib qolmaydir, ko'katni ham ko'kartirmaydir. Bularni quyidagicha mushohada qilish mumkindir: Bir kishi Alloh ilmini (Islomni) teran o'rganadir, teran tushunadir va undan manfaatlanadi va Alloh yuborgan hidoyatni o'zi o'rganib, o'zgalarga ham o'rgatadir. Ikkinchi bir kishi ilm o'rganib, odamlarga o'rgatadir. Ammo o'zi amal qilmaydir. Uchinchi bir kishi mutakabburlik qilib, o'zi ham o'rganmaydir, o'zgalarga ham o'rgatmaydir".

Ammo ilmga e'tiborsizlik va nodonlik (jaholat)ning avj olishi jamiyatning inqiroziga olib keladi. Hatto "Rasululloh quyidagilar qiyomat alomatlaridir, deganlar:

- ilmnинг susaymog'i;
- jaholatning kuchaymog'i;
- zinoning avj olmog'i;
- xotinlarning ko'paymog'i;

- erkaklarning ozaymog‘i”

Demak, qiyomatni odamlarning o‘zлari sodir etadilar. «Ilm ravnaq topmagan mamlakatda zino avj olgan, o‘zaro urushlar kuchayib, erkaklar ozayib ketganda albatta, qiyomat qoyim bo‘ladi» (22-bob). Shu bois “Ilmga amal va rioya qiluvchi bo‘linglar, uni faqat hikoya qiluvchi bo‘lmanglar”, - deyiladi (637-hadis). Islomda ikki xil ilm haqida so‘z yuritiladi: biri huquqiy (fiqh), diniy yo‘l-yo‘riqlar to‘g‘risidagi ilm bo‘lsa, ikkinchisi dunyoviy ilmlardir. Har ikki turdagи bilimlarni chuqur egallash va ularga qat’iy amal qilish har bir mo‘min uchun farz hisoblanadi.

“Ilmning ofati unutishdir. Uni noahil kishiga gapirish esa uni zoye qilishdir”¹ mazmunidagi hadis orqali o‘zlashtirilgan ilmnin takrorlab borish, faqat chuqur va puxta bilimlargagina ega bo‘lgan kishilarning atrofdagilarga ilm berishining maqbul ekanligiga urg‘u beriladi. Shuningdek, hadislarda ilmning kishilarni fahm-farosatli, o‘tkir zehnli, zukko hamda xotirani kuchli qilishdagi ahamiyati ham ta‘kidlanadi va “Ilm-u hunarni Xitoydan bo‘lsa ham borib o‘rganinglar”, - deya da‘vat etiladi. “Olim bo‘l, ilm beruvchi bo‘l yoki ilm o‘rgatuvchi bo‘l yoki tinglovchi bo‘l. Beshinchisi bo‘lma, halok bo‘lsan” mazmunini ilgari suruvchi hadisning bayon etilishi orqali ham ilmli bo‘lish insonni falokat va uning yomon oqibatlaridan saqlovchi omil ekanligiga urg‘u beriladi (41-hadis).

Hadislarda kishilarning bir-biri bilan do‘sit, tinch-totuv yashashlari, o‘zaro muruvvatli, mehr-shafqatli bo‘lishlari kerakligi haqidagi g‘oya ham ilgari suriladi. Bu g‘oya opa-singil, aka-uka, qarindosh hamda qo‘snilar o‘rtasida tashkil etiladigan muomala va munosabatlar mazmunining ochib berishga yo‘naltirilgan hadislar mohiyatida aks etadi. Ma’naviy-axloqiy xislatlarga ega bo‘lgan inson ota-onasi, opa-singil, aka-uka va qo‘snilarga yaxshilik qiladi, bu yaxshilik ular o‘rtasidagi totuvlikni keltirib chiqaradiki, pirovardida jamiyat taraqqiy etadi, tinchlik barqaror bo‘ladi, aholi farovon hayot kechiradi. Har bir inson qilgan ezgu amallari va odob-axloqi bilan yaxshi nom qoldiradi. Mazkur holat hadislar mazmunida shunday talqin etiladi: «Mo‘min kishiga

¹ Мұхаммад пайғамбар киссасы. Ҳадислар. – Тошкент, Камалак, 1991, 60-бет.

vafotidan keyin savobi tegib yetib turadigan amali solihlar quyidagilardir:

1. Tarqatgan ilmi.
2. Qoldirgan solih farzandi.
3. Meros qoldirgan qur'oni.
4. Qurgan masjidi.
5. Yo'lovchilar uchun qurgan mehmonxonasi.
6. Qazigan arig'i.
7. Tirikligida va sog'lomligida sadaqa - ehson uchun ajratgan moli"¹.

Haqiqatdan ham inson hayotdan o'tadi, lekin u ilm-ma'rifat, ziyo tarqatishda, xalq farovonligi yo'lida qilgan ishlari bilan xalq orasida abadiy qoladi. Ana shunday xislatlardan eng muhim saxovatdir.

Hadislarda jamiyat ravnaqi, insoniyat taraqqiyotining ta'minlanishiga ta'sir etuvchi muammolarga ham jiddiy e'tibor berilgan. Ularning orasida ekologik muammolarga alohida o'rin ajratilgan bo'lib, necha asrlardan buyon o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ana shunday muammolar mohiyatini o'z mazmunida aks etirgan hadislarda ekin hamda ko'chatlarni o'tkazish, ularni himoya etish, ariq-zovurlar qazish va ularni vaqtি-vaqtি bilan tozalab turish, suv chiqarish kabi ezgu ishlarni amalgalashga undovchi g'oyalar mujassamlangan. Masalan, tirik jonivorlarni o'ldirmaslik (shariatdan o'ldirishga buyurilgan ilon va chayondan bo'lak), jonivorlarga g'amxo'rlik qilish, ularga ozor bermaslik, inson yashaydigan joyni unga ozor beradigan narsalardan tozalash (227 va 446 hadislар), kishilarga soya beruvchi daraxtlarni kesmaslik, hovli sahnlarini toza tutish haqidagi hadislар² shular jumlasidan. Demak, Hadislар Muhammad Payg'ambarimizning sunnatlari bo'lib, mazmunan har bir mo'minning ishonchi, e'tiqodini mustahkamlaydi, shu bilan insonni ma'naviy kamolotga yetaklaydi. "Islom dini ma'rifatga asoslangani uchun ham har bir shaxsni aqliy, jismoniy jihatdan kamolga yetkazishga oid e'tiqod va iymondan

¹ Ўма ақап, 71-бет.

² Al-Buxoriy, Imom Ismoil. Al-adab al-mufrad (Adab durdonlari). – Toshkent; O'zbekiston, 1990, 78-, 123-betfar.

iborat bo‘lib, faqat ezgulikka xizmat qilish, oliyjanob bo‘lish, pokiza yurish, bir burda luqmani halol qilib yeyish, jaholat va jaholatparastlikka yo‘l qo‘ymaslik, o‘z birodarining, qarindoshurug‘larining, millatining va vatanining qadriyatlarini asrashdan iboratdir”¹. Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi va undan yoshlari tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb muammolaridan sanaladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Musulmon maktablarida ta’lim tizimi va mazmuni qanday edi?
2. Qur’oni karimda ilgari surilgan axloqiy tamoyillar haqida so‘zlang.
3. Hadis ilmida qaysi davr “Oltin davr” deb nom oldi.
4. “Hadis” va “Sunna” tushunchalarining mazmunini so‘zlab bering.
5. Hadislarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyatini izohlang.

¹ Asror Samad. Payg‘ambar, din va dindorlik. Imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari») kitobiga sifninggi sifz. – Toshkent, O‘zbekiston, 1990, 183-184-betlar.

XIV BOB. SHARQ UYG'ONISH DAVRI VA UNDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

1. Sharq Uyg'onish davrida ilm-fan va madaniyat

Movarounnahr va Xurosonda IX asrlarga kelib ma'naviy ko'tarilish Sharq Renessansi-Uyg'onish davrining boshlanishga olib keldi.

Movarounnahrda ilm-fan va ma'rifat sohasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Ahmad al-Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar faoliyat olib bordilar. Qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida ta'limiy-axloqiy asarlar yaratishga ham katta e'tibor berib, bu asarlarda ilgari surilgan g'oyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, Sharq uyg'onish davrida sof pedagogik asarlar ham yaratilib, ta'lim-tarbiyada inson takomilining xususiy va umumiy metodlari haqida o'lmas ta'limoti bilan nom qoldirgan tarbiyashunos olimlar ham maydonga chiqdi.

2. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning ilmiy merosi va uning didaktik qarashlari

Qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida insonning aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik takomili masalalariga katta e'tibor berganlar. Masalan, Muhammad Al-Xorazmiy (783-850) insonning kamolga yetishi va insoniy munosabatlarni yo'lga qo'yishda ilm-fanning muhim ahamiyatga ega ekanligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan holda pedagogik fikr taraqqiyotida munosib o'rin egallaydi. Ayniqsa, u matematika sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi

hamda pedagog-uslubiyotchi olim sifatida tarixda qolgan. Xorazmiy o‘z davrigacha bo‘lgan qadimiy matematika fani rivojlangan mamlakatlar Vavilion (Bobil), Yunoniston, Hindiston, Xitoy, Misrdagi deyarli barcha matematiklarning kashfiyotlarini o‘rgandi va o‘zi hayotiy talablar nuqtayi nazarida ulardan farq etuvchi yangi kashfiyot yaratdi.

Muhammad al-Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazariyasiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shti. “Al-kitob al-muxtasar fi-hisob al-jabr va-l muqobala” asarida (“aljabr val muqobala hisobi haqida qisqacha kitob”) sonli kvadrat va chiziqli tenglamalar va ularni yechish yo‘llarini bayon etadi. Bu asar uch qismdan iboratdir. Birinchisi algebraik qism. Uning oxirida savdo muomalasiga oid kichik bir bo‘lim kiritiladi; ikkinchisi, geometrik qism-algebraik usul qo‘llab o‘lchashlar haqida; uchinchi qism vasiyatlar haqida bo‘lib, muallif uni “Vasiyatlar kitobi” deb ataydi.

Muhammad al-Xorazmiy matematika fanida abstraktsiya tu-shunchasini kengaytiradi. Induktsiya yo‘li bilan umumi yechish usullarini hal etadi, deduktsiya yo‘li bilan umumi usullar yordamida xususiy masalalarni yechadi. “Aljabr va-lmuqobala” asari bilan ham matematika fanini rivojlantirib, o‘zidan avvalgi bilimlarni o‘rgandi va ularni sintezlashtirdi hamda amalda qo‘llash usullarini bayon etdi.

Muhammad al-Xorazmiyning matematikaga oid ikkinchi kitobi “Hind arifmetikasi haqida kitob” (“Hisob al-hind”)dir. Asar o‘nlik tizim raqamlari (1,2,3,4,5,6,7,8,9)ga bag‘ishlangan. Mutafakkir hindlarning falakkiyot va matematikaga oid “Sindihin” nomli qo‘llanmasini o‘qib, uning yanglish va qiyin tomonlarini qayta tikladi, uning mundarijasiga yangi boblarni qo‘shti va bu asarni “qisqargan Sindihind” (“Algorizmi hind hisobi haqida”) deb atadi. Mazkur asar faqat Sharqdagina emas, Yevropada ham qo‘llanma sifatida shuhrat taratdi. U Hindistonda kashf etilgan raqamlarni soddalashtirdi va birinchi marta arab tilida bayon etdi. Ungacha ancha qo‘pol sanoq usullaridan foydalanib kelgingan. o‘nlik tizimining kashf etilishi fan olamida sanoq tizimida inqilobiy o‘zgarish deb ta’riflanadi. Yevropaga 1,2,3,4,5,6,7,8,9 raqamlaridan foydalanish va nol yordamida eng katta sonlarni

yozish va joylarni aniq ko'rsatish X-XI asrlarda arablardan kirib kelgan.

Muhammad al-Xorazmiy arifmetikaning algoritmlari bo'lgan qo'shish, ayirish, bo'lish hamda ko'paytirish qoidalarini yaratgan. Shuningdek, turli "jins"dagi sonlarni ko'paytirish algoritmini ham bergen. Masalan, minut va sekundlarni bir-biriga ko'paytirish uchun, avvalo bir xil shaklga keltirish, ya'ni, sekund yoki minutga aylantirish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatgan. Maxsus bobda kasr va ildizdan chiqarish amallarining mohiyatini bayon etgan.

Muhammad al-Xorazmiy o'zining falakkiyotga doir ishlarida hindlarning falakkiyot jadvallarini tahlil etib, "Xorazmiy ziji" nomi bilan mashhur astronomik jadvallar tuzdi. Ma'lumotlarga ko'ra VIII-XV asrlarda hammasi bo'lib, yuztacha zij (trigonometriya va falakkiyotga oid) jadvallar mavjud bo'lgan. Bu zijlar orasida boshqa olimlar bilan birga Muhammad al-Xorazmiy tuzgan zijlar ham bor edi. Bu kitob ham bir necha asrlar bu soha olimlariga qiziqish uyg'otadi va 1126 yilda lotinchaga tarjima qilinadi. Arab tilida birinchi yozilgan sinuslar va tangenslar ziji Xorazmiyga taalluqli. Tadqiqotchilar fanda tekis, uchburchak trigonometriyasini tadqiq qilish ham Xorazmiydan boshlangan deyishadi. Uning sinus zilari lotin tiliga o'girilib, Yevropa falakkiyotchi va geodez olimlariga qo'llanma sifatida xizmat qildi. Allomaning bu asari XII asrda lotin tiliga tarjima etilib, bir necha asr davomida undan foydalaniб kelindi. Bundan tashqari "Kitob surati-l-ard" ("Yevropa surati kitobi") birinchi yozilgan geografiyaga oid kitob sanaladi. Bu asar xaritani tavsiflagan asardir. Asar Muhammad al-Xorazmiyning ko'p yillik olib borgan tekshirish-kuzatish ishlarining natijasi edi. Alloma sharq mamlakatlari ustida kuzatishlar olib borib, mamlakat va shaharlarning xaritalarini chizadi, nomlar ro'parasiga uzunlik va kenglik darajalarini ko'rsatadi. U geografiyaga oid asarlarida yerni yetti iqlimga bo'ladi hamda yerning xaritasini chizadi. Olimning to'rt xaritasi (Azov dengizi, Nil daryosi, Yaqin va o'rta Sharq

xalqlari xaritasi) saqlanib qolgan¹. Uning yuqoridagi asari ham sharq va g'arbda katta ahamiyatga egadir.

827 yilda Xorazmiy rahbarligida yer kurrasining kattaligini aniqlash maqsadida yer meridianining bir gradusi o'lchab chiqildi. Bag'dodda yozilgan trigonometriyaga oid dastlabki asar ham Xorazmiyga tegishli bo'lib, unda sinus, tangeneslarning o'zgarish qonuniyati ko'rsatiladi. Uning trigonometrik jadvali o'sha davr jadvallaridan farq qilgan.

Muhammad al-Xorazmiyning tarix va musiqaga oid, quyosh soatlari to'g'risida ham asarlari bo'lib, "Tarix kitobi" ("Kitob at-tarix") xalifalik tarixiga oid va xalifalikning bиринчи tarixchilaridan sanaladi. Shuni ta'kidlash joizki, alloma o'zigacha bo'lган ilmiy bilimlarning asosiy g'oyalari, tamoyil va metodlarini sintezlashtirdi. U ilmiy bilimlarni o'r ganuvchilarning mustaqil bilim olishlariga e'tiborni qaratdi. Xorazmiy bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e'tibor berdi. Bunda u ilm izlovchilarning ilmiy manbalarni to'plash, ularni ifodalash va kuzatganlarni tushuntira olish malaka va ko'nikmalarini hosil qilishga katta baho berdi. Masalan, "Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va-al muqobala" asarida olimlarni uch guruhga bo'lib shunday yozadi: Ulardan biri o'zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi va uni o'zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qoldiradi. Boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi va bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi, yopiqni ochadi, yo'lni yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganni to'playdigan odam bo'lib, u o'zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo'ladi, takabburlik qilmaydi va o'zi qilgan ishidan mag'rurlanmaydi.

Muhammad al-Xorazmiyning bu fikri bir tomondan, olimlar faoliyatining ezgulikka xizmat qilishini yoritsa, ikkinchi tomondan, o'sha davrda ilmiy tadqiqot ishlari va o'qitishning metod va vositalalaridan qay darajada foydalanganligini ko'rsatadi. Barcha mutafakkirlar kabi Muhammad al-Xorazmiy ham ko'rgazmali-

¹ Irisov A. Xorazmiy va Farobi. --Toshkent, Uzbekiston, 1961, 8-9-betlar

tajriba metodlari, bilim berishning turli vositalari, savol-javob, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish metodlari, bilimlarni sinash metodlaridan foydalangan. Allomaning arifmetikaga oid risolalari tafakkurni rivojlantirish uchun bilimlarni izchil bayon etishga e'tibor berganligini ko'rsatadi. "Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi "Aljabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob"ni taklif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnomada tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda, shuningdek, yer o'lhashda, kanallar o'tkazishda, geometriyada va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun zarurdir"¹. Muhammad al-Xorazmiy bilishni sezgidan mantiqiy tasavvur orqali farq qilish haqida fikr bayon etgan: "sezgi" orqali bilish bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bilish esa haqiqiy bilimning muhim tomonini namoyon etadi.

Muhammad al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo'shdi. U birinchilardan bo'lib, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi (samoviy obyektlarning harakatini aks ettiruvchi jadval asosida matematik masalalarning algoritm metodida yechishni ishlab chiqdi). U matematik g'oyalar asosida odamlarning hayotiy zarurati yotishini, ilmiy kashfiyotlar odamlarning amaliy talablari asosida paydo bo'lishini asosladi. Masalan, yer ishlari, binolar qurish, kanallar ochish shunday paydo bo'lgan, deydi. U birinchi marta insonlar o'rtasidagi munosabatlarni matematik shakllarda ifodaladi. Alloma ilmiy faoliyatining metodologik jihatlariga katta ahamiyat berdi.

3. Abu Nasr Forobi (873 - 950)

O'rta asr ijtimoiy – falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobi nomi bilan bog'liq bo'lib, uning inson kamoloti haqidagi ta'limoti ta'lim – tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. Mashhur Yunon faylasufi Arastudan keyin Sharqda o'z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiyni yirik

¹ Ал-Хоразмий, Мұхаммад ибн Мусо. Таңл. асарлар. Ташкент, 77–78-бетлар.

mutafakkir – “Muallimiyl soniy” – “Ikkinchchi muallim” deb ataydilar. Abu Nasr Forobiy (to’liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzaliq ibn Tarxon al-Forobiy) hijriy 260 yil (milodiy 873 yil)da Shosh – Toshkentga yaqin Forob (O’tror) degan joyda harbiy xizmatchi oilasida tug‘ilgan. Forobda boshlang‘ich ta’limni olgach, Shoshda, Buxoroda, Samarqandda ta’lim olganligi haqida ma’lumotlar bor. Lekin arab xalifaligining yirik madaniy markazi Bag‘dodga xalifalikning turli tomonlaridan kelgan olimlar yig‘ilganligi, uning yirik ilmiy markazga aylanganligi tuyfayli Forobiy ham ilm olish istagida Bag‘dodga jo‘naydi. Bag‘dodda Forobiy o‘rtta asr fanini, turli fan sohalarini o‘rganadi. Masalan, unga Yunon tilida Abu Bashar Matta (Matta ibn Yunus), tibbiyat va mantiqdan Yuxanna ibn Haylon (Jilon) ta’lim bergen. Umuman, Forobiy Bag‘dodda matematika, mantiq, tibbiyat, ilmi nujum, musiqa, tabiat, huquq, tilshunoslik, poetika bilan shug‘ullandi, turli tillarni o‘rgandi. Ba’zi manbalarda Forobiy 70 dan oshiq tilni bilganligi haqida gapiriladi. Abu Nasr Forobiy qomusiy olim hisoblanadi. Tadqiqotchilar uning 160 dan ortiq ilmiy asarlar yaratganligini qayd etadilar.

Forobiy o‘zidan keyin juda boy ilmiy meros qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida asarlar yaratgan. Demak, Forobiy inson baxt – saodatga erishuvi uchun ularni baxtli – saodatli qila oladigan jamaoa rahbari bo‘lishi kerak deydi. U fozil shaharni boshqaradigan Hokim tabiatdan: 1 – sog‘ – salomat bo‘lib, o‘z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmasligi; 2 – tabiatni nozik, farosatli; 3 – xotirasi mustahkam, 4 – zehni o‘tkir, 5 – o‘z fikrini tushuntira oladigan notiq, 6 – bilim-ma’rifatga havasli, 7 – taom yeishida, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o‘zini tiya oladigan bo‘lishi (qimor yoki boshqa o‘yinlardan) zavq, huzur olishdan uzoq bo‘lishi, 8 - haq va haqiqatni, odil va haqgo‘y odamlarni sevadigan, yolg‘onni va yolg‘onchilarni yomon ko‘radigan, 9 – o‘z qadrini biluvchi va oriyatlari bo‘lishi, 10 – mol dunyo ketidan quvmaydigan, 11 – adolatparvar, 12 – qatiyatli, sabotli, jur’atli, jasur bo‘lishi muhimligini qayd etadi. Forobiy bu fazilatlarni har bir yetuk insonda ko‘rishni istaydi. Forobiy o‘zining

fozil jamoasida odamlarni turli belgilarga qarab guruhlarga bo‘ladi. Bunda u, kishilarning diniy mashabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, aqliy iqtidoriga, bilim ko‘nikmalariga e’tibor berishlik zarur deydi. U o‘zining “Baxt saodatga erishuv yo‘llar haqida risola” asarida “Davlatning vazifasi insonlarni baxt – saodatga olib borishdir, - deb yozadi. U, - bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo‘lga kiritadi”. Forobiy davlatni yetuk shaxs boshqarishi lozim deydi; ya’ni jamoani idora etuvchi adolatli, dono bo‘lishi, qonunlarga rioya etishi va qonunlar yarata olishi, kelgusini oldindan ko‘ra bilishi, boshqalarga g‘amxo‘r bo‘lishi lozim deydi. Forobiy ta’lim tarbiyaga bag‘ishlangan asarlarida ta’lim-tarbiyaning muhumligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. “Fozil odamlar shahri”, “Baxt saodatga erishuv to‘g‘risida”, “Ixso-al-ulum”, “Ilmlarning kelib chiqishi”, “Aql ma’nolari to‘g‘risida” kabi asrlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o‘z ifodasini topgan.

Forobiy o‘z ishlarida ta’lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta’lim bergen bo‘lsa ham, ammo har birining insonni kamolga yetkazishda o‘z o‘rnini va xususiyati bor ekanligini alohida ta’kidlaydi.

Forobiy «Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida» asarida bilimlarni o‘rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta’kidlashicha, avval bilish zarur bo‘lgan ilm o‘rganiladi, bu - olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o‘rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o‘rganish lozim. Undan so‘ng, umuman, jonli tabiat o‘simgilik va hayvonlar haqidagi ilm o‘rganiladi, deydi.

Forobiy inson kamolotga yolg‘iz o‘zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo‘lish, ularning ko‘maklashuvchi yoki munosabatlari muhtoj bo‘ladi. Uning fikricha tarbiya jarayoni tajribali pedagog, o‘qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhumdir. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa hodisalarini o‘zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o‘qituvchi lozim.

Bunga Forobiy ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalgalari

oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalari ni to‘g‘ri bilib oladi va hayotda to‘g‘ri yo‘l tutadi, boshqalar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi, jamiyat tartib qoidalari ga rioya etadi. Demak, Forobiy ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Forobiy ta’lim va tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan olim sanaladi. Ta’lim – degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya – nazariy fazilatni, ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, deydi olim, Abu Nasr Forobiy yana aytadi: “Ta’lim – degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir.

Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish - harakat, kasb-hunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishidir”.

Forobiy nazariy bilimlarni egallashga kirishgan har bir kishi xulq – odobda ham qay darajada pok bo‘lishi kerakligini «Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to‘g‘risida»gi risolasida shunday ta’riflaydi: “Falsafani o‘rganishdan avval o‘zingizni xirs-havaslardan shunday tozalashingiz lozimki, sizda maishiy va shahvoniyat kabi noto‘g‘ri tuyg‘ularga emas, balki kamolotga bo‘lgan xirs-havas qolsin.

Bunga xulq axloqni faqat so‘zdagina emas, balki haqiqatda (amalda) tozalash orqali erishish mumkin. Shundan so‘ng xato va adashishdan saqlovchi, haqiqat yo‘lini tushunib olishga boshlovchi (notiq – so‘zlovchi, fikrlash ma’nosida) nafsini, jonini, ruhini tozalash zarur”.

Forobiy axloqiy fazilatlar deganda bilimdonlik, donolik va mulohazali bo‘lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko‘pchilik manfaatini yuqori qo‘yish, haqiqat, ma’naviy yuksaklikka intilish, adolatlilik

kabi xislatlarni tushunadi. Ammo bu xislatlarning eng muhami har bir insonning bilimli, ma'rifatli bo'lishidir. Shuning uchun ham Forobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog'liq holda, tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi. Bundan biz Forobiyning axloqni xulq me'yorlari ifodasi sifatidagini emas, balki kishilarning aqliy faoliyatining natijasi sifatida ham talqin etganligini ko'ramiz. Forobiy "Aql ma'nolari haqida" risolasida aql masalasini tahlil qilib, aql bilish haqidagi ta'limotida mantiq (logika) ilmi muhim o'rinni tutadi deydi. U mantiq ilmi bilan grammatika o'rta sidagi mushtarakligini qayd etib, mantiqning aqlga munosabati, grammatikaning tilga munosabati kabitidir. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi, mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo'lida olib borish uchun aqlni to'g'irlab turadi deydi.

Forobiy "Musiqqa haqida katta kitob" degan ko'p jildi asari bilan o'rta asrning yirik musiqashunosi sifatida ham mashhur bo'ldi. U musiqqa ilmini nazariy, amaliy jihatdan yoritib, musiqani inson axloqini tarbiyalovchi sixat salomatligini mustahkamlovchi vosita deb qaragan. Uning musiqqa sohasida qoldirgan merosi musiqqa madaniyati tarixida muhim ahamiyatga molikdir.

Forobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l – ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat – nazariy bilimlar va amaliy kasb - humar, xulq odob fazilatlarini birlashtiradi. Ta'lim so'z va o'rganish bilan tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi. Har ikkalasi birlashsa yetuklik namoyon bo'ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qaydarajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ladi, deb ko'rsatadi.

Forobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy – axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi.

Bu muhim vazifa tajribali tarbiyachilar tomonidan ta'lim-tarbiyaning turli metodlari yordamida amalga oshiriladi. Forobiy ta'lim – tarbiya ishlarini ikki yo'l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

“Amaliy fazilatlar va amaliy san’at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasi”ga kelganda, bu odat ikki yo‘l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi – qanoatbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so‘zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagи g‘ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinci yo‘l (yoki usul) – majbur etish yo‘li. Bu usul gapga ko‘nmovchi, qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan qo‘llaniladi. Chunki ular o‘z istaklaricha so‘z bilan g‘ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o‘rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo‘ladi. Kasb hunarlarni va juz’iy san’atlarni egallashga intilish bo‘lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad – ularni fazilat egasi qilib va san’at ahllariga aylantirishdir.

Demak, Forobiy ta’lim-tarbiyada rag‘batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni har tomonlama kamolga yetkazish maqsadini ko‘zlaydi.

Xulosa qilib aytganda Forobiy pedagogik ta’limotining asosida komil insonni shakllantirish, insonni o‘z mohiyati bilan ijtimoiy, ya’ni faqat jamiyatda, o‘zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashi yotadi. Insonning kamolga yetishida ham aqli, ham axloqiy tarbiyaning o‘zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Forobiy tavsiya etgan ta’lim-tarbiya usullari hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotnaganligi bilan diqqatga sazovordir.

4. Abu Rayhon Beruniy (973 – 1048)

Qomusiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy X asrning ikkinchi yarmi va XI asrning boshlarida, g‘oyat murakkab tarixiy davrda yashadi va ijod etdi. Abu Rayhon Beruniy 362-yil 3 zulhijjada (milodiy 973-yil 4-sentyabr) Xorazmning Qiyod (Kot) shahrida dunyoga keldi. Berun yoki birun so‘zi “tashqari” degan ma’noni anglatadi.

XIII asr joshlarida Xorazmda bo‘lgan mashhur sayohatchchi va geograf Yoqut Hamaviyning aytishicha, Vatanidan tashqariga ketgan har bir kishini xorazmiyliklar “Beruniy” laqabi bilan ataganlar. Keyinchalik bu laqab shu an’anaga ko‘ra uning nomiga qo‘shilib qolgan bo‘lsa ehtimol. Chunonchi, olimni shaxsan bilgan mashhur tarixchi Abul Fazil Bayhaqiy unga nisbatan “Beruniy laqabini qo‘llamay, faqat “Abu Rayhon” deb ataydi. “Abu Rayhon” esa “marhamatli”, “rahmatli”, “rahmdil” ma’nolarini bildiradi”, - degan fikrlarni aytadilar.

Abu Rayhon Beruniy boshlang‘ich ta’limni olgach, o‘sha davrda fan-madaniyat taraqqiy etgan Xorazmning peshqadam olimlaridan saboq oladi.

Beruniy Xorazm tili bilan birga sug‘diy, forsiy, suryoniy, yunon, qadimgi yahudiy tillarini, hatto qadimgi hind tili sanskritni ham o‘rgangan. U yunon klassik ilmi, astronomiya, geografiya, botanika, matematika, geologiya, tarix, etnografiya, falsafa va filologiyadan ham chuqur bilim oladi.

Bundan tashqari o‘zidan oldin o‘tgan matematik, munajjim va geografiya olimi Muhammad Xorazmiy, geografiya olimi Abul Abbos, Ahmad Farg‘oniy (IX asr), Marvaziy (IX asr), Javhariy (IX asr), faylasuf va tabiatshunos Abu Nasr Forobiy, Abul Vafo Juzjoniy (940-998), seyistonlik Abu Said as-Sijiy (951-1024), Abu Muhammad Hamid Xo‘jandiy va boshqalarning asarlarini mustaqil o‘rganadi.

995 yilgacha Beruniy astronomiya, geografiya, geodeziyaning amaliy masalalarini hal etish bilan birga, Sharqda birinchi bo‘lib Yer va Osmon globusini yasadi va astronomiyaga oid bir necha kitob yozdi (“Kartografiya”, “Globus yasash kitobi”, “Yerdagi joylarning uzunlama va kenglamalarini aniqlash haqida maqola” va boshqalar).

Beruniy hali juda yosh olim bo‘lishiga qaramay, Kot shahrida 994-995 yillarda astronomik kuzatishlar o‘tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o‘zi astronomik asboblar ixtiro etgan.

994-995 yillarda Qoraxoniylar samoniylar davlatiga qarshi hujum qiladilar. Urganch amiri Ma’mun I tomonidan Beruniy ijod etayotgan Kot shahri zabit etilib (bu shahar Janubiy Xorazmning

poytaxti bo‘lgan), yagona Xorazm davlati tashkil topadi. Amir Abu Abdullo Muhammad xizmatida bo‘lgan Beruniy ham boshqa olimlar kabi Kot-Qiyotni tark etib, Jurjon (Kaspiy dengizining janubi-sharqi)da, so‘ng Rayda (Tehron yaqinida) yashaydi, Raydan yana Jurjonga qaytib, olim va kelajakdagagi ustoz Abu Sahl Iso Masihiy bilan tanishadi va undan ta’lim oladi.

O‘scha davrda Xorazmda va Kaspiy oldi viloyatlarida Qobus ibn Vushmagir yosh olimga xayrxohlik ko‘rsatadi. “Shams al-Maoliy” (“Oliy martabalar quyoshi”) laqabi bilan mashhur bo‘lgan bu podshohga bag‘ishlab Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarini yozadi va unga taqdim etadi. Bu asar Beruniy nomini Yaqin va o‘rta Sharqqa mashhur qildi.

1004 yilda Beruniy Ma’mun II ibn Ma’mun tomonidan Xorazmga chaqirib olinadi va uning yaqin maslahatchisi bo‘lib qoladi.

Ma’mun davrida Urganchda “Ma’mun akademiyasi” nomli ilmiy markaz tashkil etiladi va u yerda musulmon Sharqining yirik olimlari faoliyat ko‘rsatadi. Beruniy bir necha yil kamyob metallar va qimmatbaho toshlar ustida kuzatishlar va tajribalar olib boradi va keyinchalik ana shu tadqiqotlari asosida “Mineralogiya” asarini yaratadi. 1017-1018 yillarda yana taxt va hokimiyat uchun kurash boshlanib, Movarounnahrda Qoraxoniylar davlati barpo etiladi. Xuroson va Afg'onistonda Mahmud G'aznaviy (998-1030) xukmronligi o‘rnatalib, qoraxoniylar bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq Xorazm Mahmud davlatiga tobe bo‘lib qoladi. Ma’mun akademiyasidagi ko‘plab olimlar qatori Beruniy ham G‘aznaga olib ketiladi va u yerda ko‘p qiyinchiliklar bilan o‘z ijodini davom ettiradi. Beruniy bu yerda o‘zining “Xorazmning mashhur kishilari”, “Tahdid nihoyot al-amokin li tashih masofot al-masokin”, (“Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash”, ya’ni “Geodeziya”) asarini yaratdi. Bu asarda geografiya va astronomiya fanlari bilan bir qatorda paleontologik kuzatishlar natijalari ham bayon qilingan. Beruniyning yana bir muhim asari “Munajjimlik san’atidan boshlang‘ich tushunchalar”dir. Bu asarda ham u bir qancha fanlar yuzasidan dastlabki tushunchalar, ma’lumotlar bergen. Ma’lumki,

Mahmud G'aznaviy Hindistonga qarshi bosqinchilik urushlarini olib borgan. Mana shu yurishlarning birida Beruniy ham Mahmud G'aznaviyga hamroh bo'lib bordi. U sanskrit (eski hind tili)ni bilganligi uchun hind xalqi madaniyati, adabiyoti va san'ati bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi va bu mehnatlari natijasida 1030 yilda o'zining Sharq va G'arbda keng e'tirof qilingan mashhur "Hindiston" asarini yaratadi. Kitobning to'liq nomi "Kitobu fi taxqiqi molil Hind min maqulatin fil aqli av marzulatin", ya'ni "Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi" bo'lib, aytishga qulay bo'lishligi uchun qisqacha "Tahqiqu mo - mil hind" - ("Hindistonga oid tadqiqlar" yoki "Hindiston") deb yuritiladi. Uning bu shoh asari G'arb va Sharq olimlari, shu jumladan, hozirgi zamon hind olimlari tomonidan yuksak baholangan. Akademik V.R.Rozen "Sharq va G'arbning qadimgi va o'rta asrdagi butun ilmiy adabiyoti orasida bunga teng keladigan asar yo'q", - deb baholasa, Hindiston olimi Hamid Rizo olim haqida gapirib, "Hind madaniyatining chigal muammolarini biron-bir o'rta asr yoki hozirgi zamon muallifi Abu Rayhon Beruniydek muvaffaqiyatli ravishda tushunib yetmagan. Uning "Hindiston" asari qadimgi Hind madaniyati va fanining klassik na'munasi bo'lib qoladi".

Asarda Beruniyning Hindiston haqidagi barcha qarashlari o'z ifodasini topgan. O'sha yili (1030) Mahmud G'aznaviy vafot etadi. Uning kichik o'g'li Muhammad voris sifatida taxtga o'tirgan bo'lsa-da, ko'p o'tmay Mahmudning katta o'g'li Mas'ud (1030-1041) ukasini taxtdan ag'darib, o'zi hokimiyatni qo'lga oladi. Bilimdon va zukko, ilm ahlini qadrlovchi Mas'ud Beruniyni o'z himoyasiga olib, uning ijod qilishiga sharoit yaratib beradi.

Beruniy astronomiyaga oid "Al-Qonun al-Mas'udiy" ("Mas'ud qoununi") nomli yirik asarini shox Mas'udga bag'ishlaydi. Olimlar bu asarni matematika va astronomiyaga oid ungacha yozilgan barcha asarlardan yuqori qo'yadilar. O'sha asr olimlaridan biri Yoqutning yozishicha: "Mas'ud qonuni" kitobi matematika va astronomiya bo'yicha ungacha yozilgan hamma kitoblar izini o'chirib yuborgan deydi. Beruniy yana "qimmatbaho toshlarni bilib olish bo'yicha ma'lumotlar to'plami" ("Mineralogiya"), "Dorivor

o'simliklar haqida Kitob", "Kitob as Saydona fi – t-tibb" kabi asarlarni ham yozdi. "Mineralogiya" Sharqdagina emas, Yevropada ham qimmatbaho toshlarni izlash usullari va ular bilan savdo qilish, konlarni o'rganish, yer osti boyliklarini tekshirish haqida ma'lumot bersa, "Saydana" nomi bilan mashhur bo'lgan keyingi asarda Sharqdagi dorivor o'simliklarning tavsifi bayon qilingan. Beruniy "Saydana" kitobida o'zining 80 yoshdan oshganligini yozadi, shunga ko'ra uni 1050-1051 yillarda vafot etgan deb taxmin etish mumkin. Ba'zi manbaalarda esa, 1048 yil 13-dekabrda G'azna shahrida vafot etgan deb ko'rsatiladi. Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O'quvchiga bilim berishda:

- o'quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik;
- tahlil qilish va taqqoslash;
- ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, soddadan qiyinda qarab borish;
- takrorlash;
- yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish va hokazoga e'tibor berish kerakligi uqtiriladi.

Beruniy fan sohasidagi yodgorliklarni, ilmiy bilimlarga oid qoldirilgan barcha boyliklarni qunt bilan o'rganishga da'vat etadi.

Olim ilm toliblariga qalbni yomon illatlardan, inson o'zi sezishi mumkin bo'limgan holatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, xirsdan, behuda raqobatdan, ochko'zlikdan, shon-shuhratdan saqlanishi zarurligini uqtirgan. Shuningdek, har bir xalqning o'ziga xos ta'lim usullari, yo'llari, shakllari borligini ta'kidlash bilan birga har bir xalqning ham o'qitish tizimi alifboden boshlanishini ko'rsatadi. Grammatika, matematika fanlarini o'qitishga oid qimmatli fikrlar bayon etadi. Beruniy til va adabiyot, tarix, geografiya, geodeziya, biologiya, mineralogiya fanlari, tibbiyat va dorishunoslik, fizika, falakkiyot ilmiga oid tadqiqotlarini o'zi targ'ib etgan nazariya hamda kuzatishlar natijasida amaliyotda sinab ko'rib, fanda haqiqat ustivor turishini ta'kidladi.

Beruniy fikricha, axloqiylik insonning eng asosiy sifati bo‘lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o‘zaro muloqoti, ijtimoiy muhit – jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi. Beruniy ham axloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda ta‘rif beradi. Axloqiylik yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi kurash natijasida namoyon bo‘ladi va tarkib topadi deydi, u. Yaxshilik va yomonlik insonning xulq-atvorini belgilaydigan mezon sifatida qo‘llaniladi. U yaxshi xislatlarga to‘g‘rilik, odillik, o‘zini vazmin tutish, insof, kamtarlik, lutf, sobitqadamlik, ehtiyyotkorlik, saxiylik, shirinsuxanlik, rahbarlikdaadolatlilik, tadbirkorlik kabilarni kiritadi. Yomon illatlarga esa xasadgo‘ylik, baxillik, nosog‘lom raqobat, o‘z manfaatini ko‘zlash, mansabparastlik va hokazolarni kiritadi.

Beruniy faxrlanishni yaxshi xulq ma’nosida ishlatib, “Yodgorliklar”da shunday deydi: “Faxrlanish - haqiqatda yaxshi xulqlar va oliy fe’llarda oldin ketish, ilmu hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopliliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular yetishmasa, hukm uning zarariga bo‘ladi”.

Abu Rayhon Beruniy ezgu tilakka yetishga to‘sinqilik qiluvchi ziqnalik, yolg‘onchilik, munofiqlik, manmanlik, takkaburlik kabi nuqsonlarni qoralaydi, boylikka ruju qo‘yish va ta’magirlilik, g‘azab va johillik inson uchun eng ashaddiy dushman deb qaraydi.

Mutafakkir ilgari surgan axloqiy xislatlardan yana biriadolatdir. U jamiyatda adolat o‘rnatish, uni yovuzliklardan xalos etish uchun dono, adolatli hukmdor bo‘lishi kerak, deydi.

Beruniy kundalik turmush masalalariga ham katta e’tibor bergen. Har bir axloqan barkamol inson o‘zining turmush tarzini ham uyg‘un, go‘zal eta oladi. uyg‘unlik, go‘zallik va nafosatning asosi sanaladi. Beruniy insoniy xislatlardan muhimi – ozodlik, tarbiyalilik bo‘lsa, insonga eng yaqin narsa uning tabiatini, ruhi deydi. Shuning uchun inson o‘z tabiatiga yoqadigan ishlarni bajarishi zarur, deb ko‘rsatadi. Bunda insonning ichki dunyosi bilantashqi go‘zalligi, turmush tarzidagi go‘zallikning uyg‘un bo‘lishini talab etgan. Bunga inson kiyadigan kiyimidan tortib, kundalik

turmushidagi yurish-turushi, so‘zi, qalbi, qilgan ishi - hammasining go‘zal bo‘lishi ta’kidlangan.

Har bir shaxsda sharm-hayo, ozodalik, nafis did, iffat, latofat, shirinsuxanlikning tarkib topishi turmushning yanada go‘zal bo‘lishiga olib keladi. Olimning inson turmushiga xos xulq-odob qoidalari haqidagi fikrlari pedagogik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ham ichki, ham tashqi tomondan go‘zal bo‘lsagina haqiqiy kamolotga erishishi mumkin deydi. U ozodlik va arosatlikni olijanoblik bilan tenglashtiradi. Inson doimo bularga rioya etishi zarur deb ta’kidlaydi. Bunda inson o‘zini boshqara olishga qodir bo‘lishi, har bir yetuk inson uchun zarur bo‘lgan xislatlarni tarkib toptirishda kuch va irodaga ega bo‘lishi zarur, deydi. „Mineralogiya“ asarida bu fikrni quyidagicha ifodalaydi. „Inson o‘z ehtiroslariga hukmron, ularni o‘zgartirishga qodir, o‘z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagulik narsalarga aylantirishga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko‘rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir“.

Beruniy insonni kamolotga yetaklovchi xislatlardan yana biri olijanoblik deb ko‘rsatadi. Olijanoblikning mazmunini yaxshilik tashkil etadi. Bunda olim insonga inson sifatida muomala qilishni nazarda tutadi. Eng muhimi, mutafakkir, inson kamolotida, mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo‘ladi. Og‘ir mehnat sifatida binokor, ko‘mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa ilm ahli – olimlar mehnatiga alohida e’tibor berish, xayrxoh bo‘lishga chaqiradi, ularni ma’rifat tarqatuvchilar, jamiyat ravnaqiga hissa qo‘shuvchilar deb, biladi: shu bilan birga, og‘ir mehnat qiluvchi konchilar, yer ostida gavhar izlovchilar, dehqonlar haqida gapirib, ularning mehnatini rag‘batlantirib turish kerak, deydi. Ayniqsa, podshohlar bunday mehnat ahliga g‘amho‘r bo‘lishi kerakligini alohida eslatadi. Chunki, ana shu mehnat ahli ular hukmronligining tayanchi, deb ta’kidlaydi.

Olim bolalarni mehnatga o‘rgatish metodlari, yo‘llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshidan mehnatga o‘rgatish kerak deydi. Mehnat tarbiyasida o‘scha davr tarbiya

an'anasiga binoan vorislikka katta ahamiyat beradi. Buni E.To'raqulov va S.Rahimovlar „Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta'lif-tarbiya haqida“ nomli risolalarida juda yaxshi bayon etishgan. Beruniyning „Mineralogiya“ asarida faqat qimmatbaho metallar, toshlar haqida emas, hunarmandchilikka oid, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o'rgatish metodlari haqida ham qimmatli fikrlar bayon etilgan. Bunda hozirgi pedagogika Fani tili bilan aytganda, shaxsiy namuna metodidan foydalangani, ish jarayoni bevosita ham nazariy, ham amaliy jihatdan ustaxonaning o'zida bajarilgani shogirdlarning malakali usta bo'lib yetishishida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Shuning uchun ham o'sha davrda Xuroson va Movarounnahr metalluriya, konchilik, to'quvchilik, zebi-ziynat buyumlari yasash, qog'oz va oyna ishlab chiqarish va boshqa sohalarda dunyo bozorida nom chiqargan.

Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi davr pedagogikasi ham e'tirof qiluvchi irsiyat, muhit, tarbiyadir.

Ma'lum bir davrda olimlar inson kamolotiga irsiyat, muhitning ta'sirini inkor etib, faqat tarbiyani tan oldilar. Lekin Beruniy o'z zamondoshlari – buyuk mutafakkirlar Forobiy, ibn Sinolar kabi inson kamolotida har uchalasini ham muhim deb hisoblaydi. Ya'ni u insonning kamolotga yetishida ilmu ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy rol o'ynasa-da, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va ijtimoiy turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy nazarida inson kamolga yetishining eng muhim omillari ilm-ma'rifatli bo'lish va yuksak axloqlilikdir. Beruniy ilmiy bilishga oid, ta'lif metodlari haqidagi qarashlari bilan ta'lif nazariyasida o'ziga xos maktab yaratdi. Yoshlarni tarbiyalashda esa axloqiy mehnat tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, oila tarbiyasi, insonning shaxsiy gigiyenasi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik haqidagi tushunchalar katta ahamiyatga egadir. Yuqoridagilardan ko'rilib turibdiki, Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid bu fikrlari faqat o'z zamonasi uchun emas, hozirgi davr ta'lif-tarbiya ishlarini takomillashtirishda ham katta ahamiyatga ega. Zero, uning o'zi ham haqiqiy komil insonga xos

xislatlarga ega ekanligini, hayoti va ijodiy faoliyati, yozgan asarları bilan isbotlab, kelajak avlodlarga katta ma'naviy me'ros qoldirdi. Beruniy «Sharq Renessansi» davri qomusiy olimlaridan biri sifatida nom qozondi. Beruniyning ham tabiiy, ham ijtimoiy fanlarni qamrab olgan 150 dan ortiq yirik ilmiy asarlar yaratganligi ham bu fikrning o'rinni ekanligini tasdiqlaydi.

5. Abu Ali ibn Sino (980-1037)

Sharq va Ovro'pada ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligi tufayli, "Shayx – Ur – Rais" Sharqda "Olimlar boshlig'i", Ovro'pada "Olimlar podshosi" nomi bilan mashhur bo'lgan allomalardan biri o'rta asr buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino ham boshqa zamondosh qomusiy olimlar qatori matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, falsafa, filologiya, ta'lif – tarbiya sohalarida ijod etgan va dunyoga mashhur yirik asarlar meros qoldirgan olim.

Abu Ali ibn Sino 980 yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida kichik amaldor oilasida tug'iladi. Uning to'la ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sinodir. Abu Ali uning kuniyasidir. Oti Husan, otasining ismi Abdulloh edi. Keyinroq uning oilasi Buxoroga ko'chib o'tgach, u boshlang'ich mактабда o'qiy boshlaydi. Ibn Sinoning mutoalasi zo'r, mehnatsevar edi. Undagi tug'ma qobiliyat, o'tkir zehn, kuchli xotira o'zaro birikib ketgan edi. Ibn Sinoning otasi Abdulloh hamda uning do'stlari bilimdon kishilar bo'lib, ularning ilmiy munozaralari o'tadigan oilaviy muhit yosh ibn Sinoga ham ta'sir etadi. Shu bilan birga uning bolalik va o'smirlilik yillari o'tgan Buxoro shahri somoniylar davrining yirik madaniy markazi bo'lib hisoblanar edi. Buxoroda ko'plab maktab, madrasa, kasalkona va nodir kitoblar saqlanadigan kutubxona bo'lgan. Jahonning turli mamlakatlaridan kelgan olimlarning ilmiy munozaralarida yosh ibn Sino ham qatnashib, turli fanlarga oid bilimlarini chuqurlashtirib borgan. U ustozlaridan hind hisobi, fiqhidan bilim olgan. Keyin esa faylasuf Abu Abdulloh Notiliydan falsafa, mantiq, handasa va

boshqa fanlardan ta'lim oladi. Shundan so'ng ibn Sino o'zi mustaqil holda barcha fanlar bilan shug'ullana boshlaydi. U ayniqsa tib ilmini chuqur egallab oladi, bu sohada unga ta'lim bergen kishi buxorolik Abu Mansur Kamariy bo'ldi. Ibn Sino so'ngra falsafani o'rganishga kirishadi. Ayniqsa, Aristotel falsafasini, uning "Metafizika" asari mohiyatini buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning yozgan sharhi tufayli to'liq o'zlashtirib oladi. Ibn Sino haqiqiy qomusiy olim sifatida o'z davridagi fanlarning hammasi bilan muvaffaqiyatl shug'ullangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asarlari qayd etilgan. Shu 242 dan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43 tasi tabobatga oid, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi psixologiyaga, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 7 tasi astronomiyaga, 1 tasi matematika, 1 tasi musiqaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi etikaga, 4 tasi adabiyotga va 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan ilmiy yozishmalarga bag'ishlangan. Allomadan keyingi avlodlar uning ilmiy asarlari boy meros bo'lib qoldi.

Ma'lumki, ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog'liq holda ifodalagan, maxsus risolalarda talqin etgan. Shuningdek, fanlarni tasnif etadi. Bunda u birinchi o'ringa tibbiyot fanlarini qo'yadi. Falsafani esa ikki guruhga, ya'ni nazariy va amaliy guruhlarga bo'ladi. Nazariy guruh kishilarni o'zidan tashqaridagi borliq holati haqidagi bilimlarni egallahsga yo'llasa, amaliy qism bizga bu dunyoda nimalar qilishimiz kerakligini o'rgatadi deydi.

U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinci guruhga fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o'rganuvchi barcha fanlarni kiritadi.

Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma'rifatni egallahsga da'vat etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga yetkazishi kerak. Bu maqsadga yetishish uchun inson qiyinchiliklardan qo'rqmasligi zarur, deydi. "Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir". Zero, ma'rifatli kishi jasur,

o‘limdan ham qo‘rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo‘ladi, deydi u fikrini davom ettirib. Bilimsiz kishilar johil bo‘ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo‘lmagan kishilar qatoriga qushadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta’kidlaydi.

U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo‘lish kerakligi, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson o‘z biliminining haqiqiyligini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning ta’lim metodlari haqidagi ta’limoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak degan g‘oya yotadi.

Ibn Sino bolani maktabda o‘qitish va tarbiyalash zarurligini qayd etib, maktabga barcha kishilarning bolalari tortilishi va birga o‘qitilishi va tarbiyalanishi lozim deb, bolani uy sharoitida yakka o‘qitishga qarshi bo‘lgan. Bolani maktabda jamoa bo‘lib o‘qishini foydasi quyidagicha ifodalangan: Agar o‘quvchi birga o‘qisa u zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqaqlashish istagi rivojlanadi. Bularning hammasi o‘qishning yaxshilanishiga yordam beradi. o‘zaro suhbatda o‘quvchilar bir-biriga kitobdan o‘qib olganlari, kattalardan eshitganlarini hikoya qiladilar. Bolalar birga to‘planganlarida bir-birini hurmat qila boshlaydilar, do‘splashadilar, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda bir-biriga yordamlashadilar, bir-biridan yaxshi odatlarni qabul qiladilar.

Bilim olishda bolalarni maktabda o‘qitish zarurligini qayd etar ekan, ta’limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta’kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo‘ymaslik;
- ta’limda engildan og‘irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo‘lishi;
- o‘qitishda jamoa bo‘lib maktabda o‘qitishga e’tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borish.

Bu talabiar hozirgi davr ta'lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir. Yuqoridagi masalalarga o'zining "Tadbiri manzil" asarida maxsus bo'lim bag'ishlaydi. "Bolani mактабда о'qитиш ва тарбиялаш" ("Омо'зиш ва парвариш мадраса фарзанд") bo'limida ta'lim va tarbiya jarayonini ochib beradi. Yuqoridagi tamoyillar esa bolalarni yengil-yelpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishiga yordam beradi.

Talabaga bilim berish o'qituvchining mas'uliyatli burchidir. Shunga ko'ra ibn Sino o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, shunday yo'l-yo'riqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berishi;
- ta'limda turli metod va shakllardan foydalanishi;
- talabalarning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- fanga qiziqtira olishi;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;
- har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishishi zarur, deydi olim.

Ibn Sino ta'limotida bilishda qaysi metodlardan foydalanmasin – u og'zaki ifodami, bilimlarni tushuntirishmi, turli ko'rinishdagi suhbatmi, tajribalarmi, baribir talabada haqiqiy bilim hosil qilish mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyatga tadbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo'lgan.

Shu jihatdan olimning "Hay Ibn Yaqzon" asari kishilarning did farosatini o'stirishi, fikr doirasini kengaytirishi bilan ta'lim – tarbiyada katta ahamiyatga ega. Uning nomi ham shunga ishora qiladi: "Hay ibn Yaqzon" (Uyg'oq o'g'li Tirik). Bu asar farosat ilmi haqida ekanligini ibn Sinoning o'zi ham ta'kidelaydi.

Ibn Sino insонning kamolga yetishida uning axloqiy kamolotи muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotchilar uning falsafiy asarlarida axloqqa oid iki yuritganlari o'n ikkita deb qayd etadilar.

Ibn Sino axloqqa oid asarlarini "Amaliy hikmat" (Donish-mandlik amaliyoti) deb ataydi. Olimning fikricha, axloq fani kishilarning o'ziga va boshqalarga nisbatan xatti-harakati me'yorlari va qoidalarini o'rganadi.

Ibn Sino axloqlilikning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan ta'riflaydi:

Dunyoda mavjud bo'lgan jami narsalar tabiatiga ko'ra kamolot sari intiladi. Kamolot sari intilishning o'zi esa mohiyat e'tibori bilan yaxshilikdir..."

Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlarini ham tahlil etadi va har biriga ta'rif beradi: masalan, adolatni ruhiy lazzatning bosh mezoni sanaydi. Inson qanoat, jasurlik, donolik bilan adolatga ega bo'ladi, yomon illatlardan o'zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi olim. Insondagi ijobjiy, axloqiy xislatlarga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi – muhabbat, mo'tadillik, aqlilik, ehtiyyotkorlik, qat'iyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi.

Qanoat va mo'tadillikni insonning hissiy quvvatiga kiritadi, chidamlilik, aqlilikni g'azab quvvatiga, donolik, ehtiyyotkorlikni ziyraklikka, sadoqat, uyatchanlik ijrochilik, achinish, sofdislikni tafovut quvvatiga kiritadi.

Olim qanoatni hissiy fazilatlardan sanaydi va inson o'zini ta'magirlikdan tiysa, mo'tadillikka riosa qilsa, o'zida xirsnинг namoyon bo'lishini yengadi, inson yomon illatlarni yengishda o'z imkoniyatlarini ongli sarf etishi lozim, deydi.

Ibn Sino har bir axloqiy xislatning ta'rifini beradi:
mo'tadillik – tan uchun zaruriy oziq va xulq ma'yorlariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik;

sahiylik – yordamga muhtoj kishilarga ko'maklashuvchi insoniy quvvat;

g'azab – biror ishni bajarishda jasurlik; chidamlilik – inson o'z boshiga tushgan yomonliklarga bardosh beruvchi quvvat;

aqillilik – biror ishni bajarishda shoshma-shosharlikdan saqlovchi quvvat deydi. Ziyaraklikni narsalar va hatto harakatlarning haqiqiy ma’nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat, achinish, kishilar baxtsizlik, azob – uqubatga duchor bo‘lganda, ular bilan xushmuomalada bo‘luvchi insoniy quvvat; kamtarlikka xudbin ishlar bilan shug‘ullanishdan to‘xtatuvchi kuch sifatida ta’rif beradi.

Ibn Sino aqliy tarbiya turli bilimlarni o‘rganish natijasida amalga oshsa, axloqiy tarbiya ko‘proq yaxshi axloqiy xislatlarni mashq qildirish, odatlantirish, suhbat orqali amalga oshadi, deb ta’lim berdi.

Olim oilada ota-onaning vazifasi va burchiga katta e’tibor beradi. Oila munosabatlariga to‘xtalar ekan, ayniqsa ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o‘rgatishi borasida muhim fikrlar bayon etadi. Insonning xulqi va ruhiga mehnatning ijobiy ta’sirini ta’kidlash bilan bir qatorda turli kasb egalari: hunarmand, dehqonlar mehnatini ulug‘laydi va qimorboz, sudho‘r kabilarni qoralaydi. U mehnatsiz hayot kechirish insonga ham jismoniy ham ruhiy tomondan salbiy ta’sir etishini to‘g‘ri talqin etadi.

Ibn Sino aqliy, axloqiy tarbiya bilan bir qatorda inson kamolotida jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan tahlil etadi.

Ibn Sinogacha insonning kamolga yetishida jismoniy tarbiyaning ta’siri haqida bir butun, yaxlit, ta’limot yoritilmagan edi. Ibn Sino birinchi bo‘lib jismoniy tarbiyaning ilmiy pedagogik jihatdan bir butun tizimini yaratdi.

Jismoniy mashqlar, to‘g‘ri ovqatlanish, uyqu, badanni toza tutish tartibiga rioya etish inson sog‘lig‘ini saqlashda muhim omillardan ekanligini ham ilmiy ham amaliy jihatdan asosladi. Bolaga ham hali u tug‘ilmasdan turib g‘amxo‘rlik qilish, go‘daklik davridan boshlab tarbiyani boshlash zarurligini ta’kidlaydi. Bolaning yetuk inson bo‘lib shakllanishida unga g‘amxo‘rlik, poklik, mas‘uliyatni his etish, do‘stona manosabatlar tuyg‘usini singdirib borish zatur, deydi olim. Chunki, Ibn Sino merosininining asosiy qimmat va qudrati uning keng va kuchli gumanistik

mazmunidir. U o‘z ilmi, merosi bilan o‘rta asr sharqining ilmiy madaniy qudratini butun dunyoga namoyon qildi. Butun insoniyat madaniyatining rivojiga ulkan hissa qo‘shti. Shuning uchun ham Ibn Sino jahon madaniyatining buyuk siyoshi, insoniyat uchun hurmat qilgan olim, buyuk tabib, eng katta faylasuf, tabiatshunos, insonshunos, mashhur ensiklopedist sifatida tan olindi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Sharq Uyg‘onish davrida ilm-fan, madaniyat, ta’lim-tarbiya taraqqiyoti nimalarda namoyon bo‘ldi?
2. Al-Xorazmiyning ilmiy merosi va didaktik qarashlarining ahamiyati nimalarda ko‘rinadi?
3. Abu Nasr Forobi yashagan davrda ijtimoiy tuzum qanday edi?
4. Beruniyning fozil insonni shakllantirishga oid qarashlari ning hozirgi davrdagi ahamiyatini izohlang.
5. Ibn Sino oilada bola tarbiyasi haqida qanday fikrlarni ilgari surgan?

XV BOB. SHARQ PEDAGOGIK TA'LIMOTIDA TA'LIMIY-AXLOQIY QARASHLAR

Yusuf Xos Hojib

Ma'lumki, Sharq Uyg'onish davrida ma'naviy-ma'rifiy sohada asosiy masala inson muammosi bo'lgan. Shuning uchun ham ta'limgartarbiya masalalariga katta e'tibor berilgan. Didaktik asarlarda Sharqqa xos bo'lgan insonning axloqiy, ruhiy kamoloti, oliy darajadagi yuksalish muammosi yetakchi g'oya bo'lgan. Insoniylik, insonni ulug'lash g'oyasi ta'limgartarbiyaga oid yaratilgan asarlarning asosiy o'zagi sanalgan. Bu g'oyani, ya'ni insonparvarlik g'oyasini amalgalashirishning asosiy vositalari sifatida yuksak axloqiy odatlar, insoniy munosabatlar va xislatlarni tarkib toptirishga olib keluvchi ta'limgartarbiyani amalgalashirish muhim masala qilib qo'yilgan. Zero, insoniylik g'oyasida yuksak axloqiy xislatlar ifodalangani uchun ham Sharq Uyg'onish davri falsafasi va pedagogikasida ta'limiylaxloqiy yo'nalish muhim ahamiyat kasb etdi. Axloq masalasi faylasuflarning ham, buyuk mutafakkirlarning ham, tarixchi-yu shoir hamda adiblarning ham birdek diqqat markazida bo'ldi. Ta'limiylaxloqiy risolalar paydo bo'lib, axloqning ham nazariy, ham amaliy masalalari tahlil etildi. "Qutadg'u bilig", "Axloqi Nosiriy", "Qobusnoma", "Hibbat ul-haqoyiq", "Guliston", "Bo'ston", "Axloqi Jaloliy", "Axloqi Muh-siniy", "Mahbub ul-qulub" kabi Yusuf Xos Hojib, Nasiriddin Tusiy, Kaykovus, Ahmad Yughnakiy, Muslihiddin Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifilarning ta'limiylaxloqiy asarlari yuqorida ta'kidlaganimiz inson shaxsini ma'naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal etish sohasida yaratilgan sof pedagogik asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazkur ta'limiylaxloqiy asarlarda insonning ma'naviy kamolga yetishida yuksak axloqqa ega bo'lishi ilm-fanni egallashi asosidagina amalgalashishi mumkin, degan g'oya ilgari surildi. Chunki biz nazarda tutayotgan davrdan boshlab savod o'rgatish "Qur'on" va "Hadis"larni o'rganish va ulardagi ko'rsatmalarni o'zlashtirib olib

bilan birga olib borilgan. Shunga ko'ra, "Qur'on" va "Hadis"lardagi pand-nasihatlar ham olimlar, ham adiblar ijodiga ta'sir etgan. Hadis-larning ta'siriga sabab umuminsoniy fazilatlarga alohida urg'u berilgan. Ularda ilgari surilgan musulmonlikning muhim xislatlari: halollik, saxovat, himmat, mehru-oqibat, ehson, sharm-hayo, ilm izlash, muomala qoidalari, axloq mezonlari va boshqalar o'z ifodasini topgan va Sharq adabiyotiga, jumladan, ta'limiy-axloqiy asarlarga ta'sir etgan. Ta'limiy-axloqiy asarlar bevosita Hadislarda ilgari surilgan g'oyalar asosida yaratildi. Hadislар ta'siri Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridan boshlanib, Kaykovusning "Qobusnama", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq", Sa'diyning "Guliston", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" va boshqa asarlar negizida ko'rindi. Ham g'oya, ham mazmun, ham shakl buning dalilidir. Massalan "Qur'on"da ham, "Hadis"larda ham, ta'limiy-axloqiy dostonlarda ham ilm ta'rifi bilan birga, xulq-odob qoidalari, turmush odobi yoritiladi. Xullas, Sharq ta'lim-tarbiyasida ilmnii targ'ib etish, xulq-odob qoidalari islomiy tamoyillarga asoslangan, ta'limiy-axloqiy asarlardagi mundarijalarning o'xshashligi ular tayangan ma'naviy zaminga bog'liqidir.

Tadqiqotchilariga ko'ra Yusuf Xos Hojibning tarjimai holini faqat uning o'z asarida yozib qoldirgan ma'lumotlardan bilamiz, xolos:

Mo'nuqi tarug'laq Qo'z o'rdu eli,
 Tub-asli nasabdin yurishish tili
 Bu tug'mish elindin chiqib borgoni,
 Kitobni qo'shubon tugal qilg'oni.
 Barusin bitimish, yeturmish nizom,
 Bu Qoshg'ar elinda qo'shulmish tamom.
 Qo'z o'rdu o'lkasi aslida eli,
 Tub asli nasabdan so'z ochdi tili,
 Tug'ilgan elidan chiqib borgani
 Kitobni jam etib tugal qilgani.
 Borini bitibdir ne esa kalom,
 Bu Qashqar elida tugadi tamom¹.

¹ Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадгу билиг (Саодатга йўлковчи билим). Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тасвиф. Нашрия тайёрловчи Қадом Каримов. Тошкент, «Фар» нашрияти, Т., 1971, 57-бет.

Yuqoridagi misralardan Yusuf Xos Hojibning tug'ilgan joyi Qo'z o'rdu (ya'ni Bolasog'un) ekanini, ammo uni yozishda turli o'lkalarga safar qilgani, va nihoyat uni vatani Qashqarda tugatgani taxmin qilinadi. Demak, Yusuf Xos Hojib Bolasog'unda tug'ilgan, o'z asarini yoshi ellikdan o'tganda yozgan. Asarning hijriy 462-(1069–1070) yozib tugallanganligi, uni o'n sakkiz oyda, ya'ni 461 yilning birinchi yarmida boshlab, 462-yilning o'rtalarida tugatganligi, agar bu davrda Yusuf Xos Hojib 50 yoshlar atrofida bo'lsa, 410 (1019 milodiy)-yillarda tug'ilganligi taxmin etiladi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari 6500 baytdan yoki 13000 misradan iborat. Buyuk mutafakkir asarni yozib tugatgach, qoraxoniylar hukmdori Tavg'achxon (kitobda Tavg'och Ulug' Bug'ra Qoraxon (xoqon), Abo Ali Hasan binni Sulaymon Arslon Qoraxon (xoqon) nomlari bilan zikr etilgan) huzuriga kelib, unga taqdim etadi. Kitob xonga manzur bo'lib, uning muallifiga Xos Hojiblik unvonini beradi. "Qutadg'u bilig" asari katta shuhrat qozonadi. Shuning uchun ham "Qutadg'u bilig"ni chinliklar (Xitoy) "Adab ul-muluk" ("Hukmdorlar odobi"), mochinliklar (Sharqiy Turkiston) "Anis ul-mamolik" ("Mamlakatning tartib usuli"), eronliklar "Shohnomai turkiy", Sharq elida "Ziynal ul-umaro" ("Amirlar ziynati"), turonliklar "Qutadg'u bilig", ba'zilar esa "Pandnomai muluk" ("Hukmdorlar nasihatnomasi") deb atagani kitob muqaddimasida keltiriladi. Qutadg'u bilig – baxt va saodatga eltiluvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildiradi. Demak, asar nomidan ham uning pand-nasihatlar, ta'lim-tarbiyaga oid, har tomonlama komil insonni tarbiyalaydigan yetuk didaktik asar ekanligi yaqqol ko'rinish turibdi.

"Qutadg'u bilig" asarida yetuk insonni kamolga yetkazish masalalari

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida inson kamoloti masalasi markaziy masala bo'lib hisoblanadi. Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan o'rni, burch va vazifalari haqidagi muammolar o'ziga xos tarzda bayon etiladi.

Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” kitobining an’anaviy boshlamasidan keyinoq insonning haqiqiy baxti bilimda ekanligini bayon etadi. U ilm, zakovatning ahamiyati haqida fikr yuritish bilan birga unga alohida boblar ham bag‘ishlangan. Lekin olim faqat ilm-ma’rifatning ahamiyatini ko‘rsatibgina qolmaydi, u bilim va zakovatning amaliyotdagi o‘rnini ham yoritadi. U bilimli buyuk, uquvni ulug‘ deb ta’riflaydi. Chunki zakovatli inson ulug‘ bo‘ladi, bilimli kishi buyuk bo‘ladi, deb ilmli kishilarni asl toifadagi kishilarga qo‘sadi. Olim ezgu ishlarning barchasi ilm tufayli amalga oshirilishini aytadi. O‘sha davrdayoq olim “Bilim hatto osmon sari yo‘l ochur” deb bashorat qiladi. U dunyoda odam paydo bo‘libdiki, faqat bilimli kishilargina ezgu ish qilib, adolatli siyosat yurgizib kelgan, ana shu bilim va zakovati tufayli kishilar razolatdan poklanganligini ta’riflaydi. Hatto hukmdorlar ham yurtni, davlatni aql, ilm, zakovat bilan idora etsa, el-yurt farovon bo‘ladi, to‘q va tinch hayot kechiradi, deydi. U kuch va qurolni aql va bilimdan keyingi ikkinchi o‘ringa qo‘sadi.

Sechu (ya’ni har yerda ma’lum xudo) insonni yaratti, tanladi,
Unga hunar, bilim va uquv berdi.

Unga ko‘ngil (ya’ni aql) berdi, tilini yo‘riq (ravon) qildi,
Andisha, xulq hamda go‘zal fe‘l ato qildi,
Bilim berdi, (shu tufayli) inson bu kun ulug‘likka erishdi.
Uquv berdi, so‘ng (shu tufayli berk) tugunlar yozildi¹.

Yusuf Xos Hojib ilmli, ma’rifatli kishilarni qadrlash kerak, chunki ular mash‘al kabi yo‘lni yoritib, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi, yaxshi-yomonni farq etishni o‘rgatadi, deydi. Shuning uchun olimlarni hurmat etish kerakligini ta’kidlab, ilm ahlini o‘ta qadrlasa, ilmsizlarni johil kishilar deb biladi. Agar shunday johillar mansab va amalga ega bo‘lsa, ular egallagan to‘rni poygak deb biladi.

Dunyoda inson bilim va zakovati tufayli orzu-tilaklarga, ulug‘likka erishishi mumkinligini aytadi. Lekin shunday bilim va zakovatning qadriga faqat xuddi o‘zlariga o‘xshagan donolar va zakovatlilar yetadi, johil va telbalar bunday xislatlarga ega emas, deydi. Chunki jamiyatdagi barcha xatolar bilimsizlik, nodonlik,

¹ Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадгу билиг (Саодатга йўлловчи билим) Тронскрипция. Ҳозирги Ўзбек тилига тавсиф ва нашрга тайёрловчи И. Каримов. –Тошкент, Фан, 1971, 84–85-бетлар

jaholat tufayli sodir bo‘lishidan u qayg‘uga tushadi, hayotda nodon va johillar ko‘payib ketganligidan afsuslanadi. U yurtni idora etuvchilarni va xalqni boshqaruvchilarni ikki toifaga bo‘lib, birinchisi adolatli siyosatni yurituvchi beklar va ikkinchisi dono olimlar deydi. Chunki siyosatchilar yurtni boshqarsa, olimlar ma’rifiy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi.

Olim bilimni ziyoga, tengi yo‘q javohirga o‘xshatib, u insonni yuksaltiradi, jahonning sir-asrorini bilib olishga yordam beradi, deydi. Insoniyat nimaga erishgan bo‘lsa, bilim tufayli erishganligini ta’kidlaydi. Ammo bu boylikni hech kim o‘g‘irlay olmaydi, deb bilim va zakovatni muqaddas do‘s, mehribon qarindosh, kiyim va ozuqa sifatida ta’riflaydi. Lekin Yusuf Xos Hojib ilm-fanni anglashni targ‘ib etibgina qolmasdan, uni hayotga tatbiq etish, amalda qo‘llay bilishga ham da’vat etadi. Yusuf Xos Hojib insonga xizmat etmagan bilimni dengiz tubida foydalanilmay yotgan injuga o‘xshatadi. Shuningdek, yer ostida yotgan oltinni ham qazib olinsa, beklar boshiga toj bo‘lganidek, ilmni ham foydali narsalarga sarf etishga da’vat etadi. Olim bilimlilik va bilimsizlikning natijasi haqida ham fikr yuritar ekan, inson bilimsiz, nodon, johil bo‘lsa, yaramas ishlar qilishi, aksincha, bilimli, dono, zukko bo‘lsa ezgu ishlarni ro‘yobga chiqarishini ta’riflash bilan kishilarni tinmay ilm olishga undaydi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, buyuk alloma mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va moddiy, ma’naviy yuksalishida, el-u xalqning boy va farovon turmushi-barchasi ilm va ma’rifatning ravnaqiga bog‘liq ekanligini to‘g‘ri va ishonarli dalillar bilan badiiy ifodasini bera olgan va o‘zi ham ana shu ezgu ishni amalga oshirish uchun tinmay faoliyat ko‘rsatgan. Bunda dastlab, barcha yaxshi ishlarning manbaini ezgulik, yomon ishlarning asosini essizlik nomlari bilan talqin etadi. U inson hayotda qilgan ishi bilan yo yaxshi nom qoldiradi, yo yomon nom oladi, deydi. Alloma barcha ezgulikning boshi til odobi, asar uning foyda va zararlariga bag‘ishlanadi deya ta’kidlaydi. Til insonning qadr-qimmatini oshiradi yoki shu til orqali inson yuz tuban ham ketishi mumkin. Kishi ikki narsa bilan hayotda mangu qoladi: biri xushxulqlik bo‘lsa, ikkinchisi yaxshi so‘z, deydi. Insoniy munosabatlarning eng

oliy mezoni sanalgan hurmat va ehtiromni tarkib toptirishning barcha ko‘rinishlari asarda o‘z ifodasini topgan. Yusuf Xos Hojib jamiyat taqdirini hal etuvchi eng ulug‘ mansabdorlardan tortib, oila a’zolarigacha bir-biriga bo‘lgan muomala-munosabat masalalarini ham hayotiy misollar vositasida yoritadi. Katta yoshlilarning kichiklarga, kichiklarning ulug‘larga, amaldor va mansabdorlarning o‘z xizmatchilariga, xizmatchilarining o‘z xo‘jalariga, turli ijtimoiy guruh a’zolarining bir-birlariga, oilada oila a’zolarining bir-birlariga muomala madaniyatining eng oddiy ko‘rinishlarigacha tasvirlab, kishining ko‘z oldida yaqqol namoyon etadi. Buni biz farzand tarbiyasida uning tug‘ilganidan boshlab xulq-odob qoidalarni, bilim va hunarni o‘rgatish, buning uchun pok va bilimli muallim-murabbiy tanlash, farzandning xatti-harakatini doimo nazoratda saqlash kabi masalalarning bayon etilishidan ham bilsak bo‘ladi.

Yusuf Xos Hojib oilaviy-maishiy turmush ikir-chikirlariga ham katta e’tibor beradi. U kishilarni o‘ylab oila qurishdan boshlab, farzand tarbiya etish, oilaning moddiy ta’minotini yuritishgacha bo‘lgan eng ezgu zaruriy vazifalarni birma-bir bayon etadi. Shuningdek, yigitlik va keksalik fasllari haqida ham fikr yuritib, yigitlikni ehtiyyot qilish, yigitlik davrida qarilikning g‘amini yeyish, bu to‘g‘rida qayg‘urish kabi zaruriy narsalar haqida tavsiyalar beradi.

Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarini yozishda Sharqda keng yoyilgan o‘git-nasihat janriga tayanib ish ko‘rsa ham mulohazalarni bayon etishda ularga odamlarni to‘liq iqror qilish muayyan ishonch hosil qilish uchun hayotiy dalillarga ko‘proq murojaat etadi. Masalan, insonga yaxshilik bilan yomonlik qilishning oqibatlarini quyidagicha bayon etadi:

o‘zing ezgu bo‘lsang, oting maqtovga loyiqliqdir,
Agar yomon bo‘lsang, tahqirga mahkumsan, ey latif.
Tuban Zahhok ne tufayli tahqirga loyiq bo‘ldi,
Baxtli faridun qanday qilib madhga sazovor bo‘ldi.
Biri ezgu edi, uni madh qildilar,
Biri yomon edi, uni so‘kdilar.

Demak, ezgulik va essizlik bu o'rinda qiyos etiladi. Shunday qiyosni biz yaxshilik bilan yomonlik, rost bilan yolg'onchilik, yorug'lik bilan ziyo, samimiylilik bilan quvlik, kamtarlik bilan takabburlik, bilimlilik bilan johillik, saxiylik bilan baxillik va boshqa juda ko'p axloqiy xislatlarni taqqoslaganda ham ko'ramizki, bu uslub ham ma'lum u yoki bu maqsadni amalgalashirishda muhim ahamiyatga ega. Yusuf Xos Hojibning o'zi kishilarga munosabatda o'rtamiyona yo'l tutishni tavsiya etadi. Shunda do'st dushmanga aylanmaydi, ezgu ishlar amalgalashirishda deb ta'lim beradi. "Qutadg'u bilig"da yana jumboqlarni yechish usullaridan ham foydalanilgan. Bu uslub o'quvchini asarga qiziqtiradi, uni o'qimishli qiladi. Hozirgi davrda bu muammoli ta'lim deb yuritiladi. Ammo tarbiya va ta'lim merosimizda jumboqmumammoli ta'lim o'ziga xos xususiyatga ega. Masalan, asardagi Kuntug'mish (Elig) bilan Oyto'ldi munozarasini olaylik. Bu munozarada olim quyidagi fikrni ilgari suradi: Elig Oyto'ldiga o'rin berganda o'tirmagani, "xon yonida menga o'rinn yo'q", -degan edi. Yerga koptok qo'ygani va unga o'tirgani bilan Oyto'ldi -davlat koptok kabi barqaror emas, bir joyda turmaydi, degani. Elig boqqanda ko'zini yumib olgani-davlat ham ko'r kishi kabi bo'ladi, kimga ilashsa, unga qattiq yopishib oladi, degan edi. Yuzini yashirgani esa, barcha qilmishlarim - ya'ni davlat jafo, unga ishonma, degani, deb kishi davlat va baxtga quvonib ketmasligi, ulardan quvonib, ortiqcha g'ururlanib ketmay, aksincha, o'zini ehtiyyot qilishi, yig'ilgan narsalarni me'yorida sarflashi, bexud bo'lib, ichkilikka berilmasligi, narsalarni sovurmasligi kerak deb ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Xos Hojibning mazkur asari insonni har tomonlama kamolga yetkazishda yirik ta'limiy-axloqiy asardir. Shuning uchun ham bu asar o'zining ilmiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyatini shu paytgacha saqlab kelmoqda.

Nazorat uchun savol topshiriqlar.

1. IX-XII asrlarda ta'limiy-axloqiy asarlarning paydo bo'lishi shart-sharoitlari.

2. Ta'limiy-axloqiy asarlar mazmunidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlang.
3. Ta'limiy-axloqiy asarlarda ifodalangan komil insonga xos xislatlar jadvalini tuzing.
4. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida nimalar haqida fikr bildirilgan?
5. Inson kamoloti haqida "Qutadg'u bilig" asarida nimalar ilgari surilgan?

XVI BOB. XIV-XVI ASRLARDA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR

1. Sohibqiron Amir Temur (1336–1405)

Amir Temur Ko'ragon ibn Amir Tarag'ay Kesh (Shahrisabz)ning Xo'jailg'or (hozirgi paytda bu qishloq Yakkabog' tumaniga qarashli) qishlog'ida 1336 yilning 9 aprelida tavallud topgan. Uning otasi Amir Tarag'ay o'ziga to'q, badavlat kishi bo'lган. Onasi Tegina Begim esa buxorolik taniqli olim Ubaydullohning qizi bo'lган.

Temur 7 yoshidan bilim olishni boshlaydi. U yosh bolalik davridan boshlab mard, dovyurak, jasur bo'lib o'sadi. Harbiy san'atni mukammal egallaydi. Qur'oni karimni yod oladi, hadis ilmini o'rghanadi. Dunyoviy bilimlarga ham ega bo'ladi. Shuning uchun ham iymon-e'tiqodli, halol pok, aql-zakovatli, o'z e'tiqodiga mustahkam rioya qiladigan, adolatli inson bo'lib yetishadi.

Amir Temur o'z davlati qudratini yuqori ko'tarib dunyoga tanitadi.

Amir Temur johillik, yovuzlikni, zo'ravonlikni yoqtirmas, insonparvar, adolatli hukmdor edi. Masalan, "Temur tuzuklari" hukmdorning hokimiyatni boshqarish qoidalari hamda odob-axloq me'yorini belgilab beruvchi yo'riqnomadir. Taniqli olim Bo'riboy Ahmedov "Temur tuzuklari" podsholarning turish-turmush va axloq-odob normalarini belgilovchi risoladir, deb ta'riflaydi. Haqiqatan ham, mazkur asarni turmush odobi, hulq-odob qoidalari tartib berilgan an'anaviy asarlar qatoriga qo'ysak bo'ladi. Zero, tarixan ta'limiy-axloqiy asarlarning barchasida ham dastlab davlatni boshqarishga oid qarashlar, so'ng axloq me'yordi bayon etiladi. Shunga ko'ra bu asardan ta'limiy-axloqiy asar sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Amir Temur bu asarida insonparvarlik, mehnatsevarlik, adolatlilik, vatanga sadoqat, jasorat, to'g'rilik, do'stlik va hamkorlik,

mehr va muruvvat ko'rsatish, sabr-qanoat, yaxshilik kabi xislatlarni ulug'laydi va xiyonat, bevafolik, sotqinlikni qoralaydi. Hayotda "rosti-rusti" qoidasiga rioya etgan, Amir Temurning o'zi naqshbandiylik tariqatidagi "Dil ba yoru, dast ba kor" tamoyiliga ko'ra ish tutib, Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Forobiy, Jaloliddin Davoniy va boshqalar tomonidan targ'ib etilgan va haqiqiy komil inson, adolatli hukmdor uchun zarur bo'lgan quyidagi o'n ikki qoidani o'ziga yo'riq qilib olganini ko'ramiz:

- Har yerda va har vaqt islom dinini quvvatlash;
- davlat va sultanatni boshqarishda o'n ikki tabaqa, toifadagi kishilarga tayanish;
- dushman bilan kurashda maslahat, kengash, tadbirkorlik bilan ish ko'rish, faollik, hushyorlik, ehtiyyotkorlik ko'rsatish, sultanat ishini yurg'izishda murosay-u madora, muruvvat hamda sabr-toqat bilan ish ko'rish;
- davlat ishlarini yurg'izishda davlat qonun-qoidalariiga qat'iy rioya qilish; adolat va insof bilan ish yuritish;
- sayyidlar, ulamo, mashoyix, oqil-u donolar, muhandislar, tarixchilarni izzat-hurmat qilish;
- azm-u jazm bilan ish ko'rish (aytganiga rioya etish), buzuqchilikning oldini olish;
- fuqaroning axvoldidan ogoh bo'lib turish;
- barchaga hurmat-e'tiborda bo'lish, yaxshilik, muruvvat, ehson, izzatu ikrom, haqqini ado etish;
- farzandlar, qarindoshlar, oshnolar va do'st birodarlarni doimo yodda tutib, ular bilan yaqin aloqada bo'lish;
- sipohiyarlarni hurmat etish va ularga g'amxo'rlik qilish.

Ko'rinish turibdiki, Amir Temur mazkur talablarga rioya etgani tufayli uning sultanati rivoj topdi, fan va madaniyat taraqqiy etdi, davlatining nufuzi oshib, nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham mashhur bo'ldi. Bu o'n ikki qoidaga rioya qilishdan tashqari, Amir Temur o'zining hayoti tamoyillari haqida shunday degan: "Men o'z hayotim mobaynida besh narsaga qat'iy e'tiqod qo'ydim va hamishalig' ularga amal qildim, ular ushbulardir:

Allah — ul har narsaga qodir kuch, sidqidildan sig'insang, istagan murodu maqsadingga yetkazadi;

tafakkur — fikrlash va mushohada qobiliyati;

qilich — ul yigitning yo'ldoshi, el-yurt osoyishtaliginining posboni, har qanday dushmanni mahv etish quroli, aning quadrati ila dinsizlarni dinga solmoq mumkin;

iymon — ul insonni barcha jonlilardan farqlantirib turuvchi xususiyatdir. Imonli odam xiyonat qilmaydi, qarindosh-urug'lari, elu-xalqning or-nomusini himoya qiladi, halollik va poklikni fazilat biladi;

kitob (bitik) — barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql idrokning, ilm-u donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiyidir».

Demak, Amir Temur hayoti va faoliyatida o'zi qat'iy rioxha etgan, haqiqiy yetuklik belgisi sanalgan din, iymon, aql bilan ish yuritish va ilmga e'tiqodni boshqalarga ham tavsiya etgan hamda avlodlarni ham shu ruhda tarbiyalashga e'tibor bergan. Amir Temur zamonida musiqa, badiiy adabiyot, rassomlik san'ati rivoj topib, yoshlarga she'r yozish, rasm chizish, musiqa asboblarini chalish, kitobxonlik, lison ilmi, husnixat o'rgatilar edi. Bu san'at turlari o'sha davr tarbiyasi tarkibiga kiritilgan edi. Sohibqironning buyuk sultanatida ijod qilgan shoirlar, rassomlar, mashshoqlar va boshqalar buning yaqqol dalilidir. Bu davrda katta shahar hunarmandlari ham ashula, raqs, suxandonlik bilan shug'ullanganlari haqida Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida qayd etilgan. Amir Temur jismoniy tarbiyaga ham katta e'tibor bergan. Sharqda dilovarlik tarbiyasi, ya'ni yoshlarda mardlik, jasurlikni tarbiyalash asosiy masalalardan sanalgan. Yigitlar bolalikdan merganlik, chavandozlik, suvda suzish, ovchilik, qilichbozlik, shaxmat o'yini kabilarni mohir murabbiylardan o'rganib, bu borada mashq qilar edilar.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning buyuk davlatchilik siyosati — mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish bilan birga tarix oldida ma'rifiy xizmatlari ham beqiyos. Uning ta'lim-tarbiyaga oid o'gitlari, tutgan siyosati hozir ham o'z qiymatini yo'qotmagan.

Amir Temurning ta'lim-tarbiyaga oid ishlari, qarashlari hozirgi barkamol insonni shakllantirishda katta rol o'ynaydi.

2. Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek

Ulug‘bek 1394 yilning 22 martida Eronning g‘arbidagi Sultoniya shahrida bobosi Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishi paytida tavallud topdi. U Shohruh Mirzoning to‘ng‘ich o‘g‘li bo‘lib, unga Muhammad Tarag‘ay ismi berildi. Lekin uni bobosi alohida mehr bilan “**Ulug‘bek**” deb atayvergani uchun uning asosiy ismi Ulug‘bek bo‘lib qoladi va jahonga ana shu nom bilan shuhrat tarqatadi. Ulug‘bekning otasi Shohruh Amir Temurning uchinchi o‘g‘li bo‘lib, Xuroson hukmdori, ma‘rifatli, ilm-fanga qiziqqon shoh edi. Onasi Gavharshodbegim ham o‘z davrining oqila, bilimdon ayollaridan hisoblanardi.

... “Taqdir bu ulug‘ zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Buyuk sarkarda amir Temur bonyod etgan sultanatning vorisi bo‘lishdek mislsiz sinov aynan unga nasib etdi”.¹

Ulug‘bekning bolalik yillari bobosi Temurning harbiy yurishlarida o‘tdi. Garchi Ulug‘bek tug‘ilganda biroz zaif bo‘lgan bo‘lsa-da, harbiy yurishlar davrida chiniqdi.

Amir Temur nabirasi Ulug‘bekning o‘tkir zehnli, aqlu farosatlil bo‘lganligi uchun juda sevardi. “Ko‘zimning nuri, sultanatimning umidli niholi”, deb erkalatardi. Biroq, Ulug‘bek Mirzo nozik bo‘lib o‘sdi. Buning ustiga ko‘p vaqtini kitob mutolaa qilish bilan o‘tkazar, davlat ishlariga rag‘bati yo‘q ko‘rinar edi. Ulug‘bekning tarbiyasi bilan buvisi Saroy Mulk xonim shug‘ullanib, sevimli nabirasiga o‘quv-yozuvni o‘rgatgani, tarixiy mavzularda hikoya va ertaklarni so‘ylab bergani uning hayotida o‘ziga xos maktab bo‘ldi.

1405-1411 yillarda, o‘sha davrning qonun-qoidalariga binoan amir shoh Malik yosh mirzoga otabegi bo‘lib tayinlangan. Otabegi Ulug‘bekka asosan harbiy va siyosiy tarbiyadan ilm o‘rgatgan. O‘rtta asrlardan saqlanib qolgan kitoblarda ma‘lum bo‘lishicha, sultanatga vorislar davlatni boshqarishda muayyan tartib-qoidalar bayon qilingan qo‘llanmalar asosida tayyorlangan.

¹ И.А.Каримов. Истиқлол ва маънавият. Тошкент, «Ўзбекистон», 1994 й., 96-бет.

Shulardan biri Shahzodalar va Xonzodalar bilish zarur bo‘lgan “Suluk ul-muluk” (Podshohlarga qo‘llanma) kitobidir.

Ulug‘bek ham an'anaga ko‘ra mazkur kitobni mukammal o‘rganar va unda ko‘rsatilgan davlatni idora qilish san’ati – turli lavozim egalarini tayinlash, soliq to‘plash, ruhoniylar, mansabdorlar hamda boshqa yurtlardan kelgan elchilarni qabul qilish, xayru sadaqa berish kabi tartib-qoidalar bo‘yicha ko‘nikmalarini egallaydi.

Ulug‘bek yoshligidan ko‘p kitoblarni mutolaa qiladigan bo‘lib, u ayniqsa, matematika, astronomiya ilmlariga qiziqdi.

U bobosining xos munajjimi mavlono Badriddin bilan ko‘p vaqtini o‘tkazar, undan hisob va taqvimdan dars olar, ba‘zi kechalari, qor tinib osmon yorishgan paytlarda yulduzlarning o‘rni va harakatini kuzatish bilan mashg‘ul bo‘lar edi.

1411 yilda 17 yoshli Ulug‘bek Mirzo Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlanishi Temuriylar xonadonida Ulug‘bekning mavqeい naqadar yuksak ekanligidan dalolat beradi. Ulug‘bek hokim bo‘lgach, bobosidan farqli o‘laroq harbiy yurishlar bilan qiziqmadi. Aksincha, u o‘rta asrlardagi boshqa hokimlardan o‘zgacha yo‘l tutdi, ko‘proq ilm-fanga moyil edi.

Samarqanddagi madrasa qurilishi 1417 yili boshlanib, uch yilda qurib bitkaziladi. Tez orada Ulug‘bek madrasaga mudarris va olimlarni to‘play boshlaydi va shu tariqa uning falakiyatshunoslik maktabi shakllanadi. Bu maktabning asosiy mudarrislari ilmiy ishlarga qulay sharoit va panoh izlab Temur davridayoq Samarqandga kelgan Taftazoniy, Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiy kabi olimlar edi. Qozizodaning maslahati bilan Ulug‘bek otasining mulki Xurosonning Koshon shahridan G‘iyosiddin Jamshid Koshiyni chaqirtirdi. Shunday qilib, Movarounnahrning turli shaharlaridan va Xurosondon to‘plangan olimlar soni 1417 yilga kelib 100 dan ortib ketdi. Ular orasida adiblar, muarixlar, xattotlar, rassomlar, me’morlar bor edi. Lekin yulduzshunoslik va riyoziyot sohasidagi olimlar sharafliroq va obro‘liroq edi. Ular orasida Qozizoda va Koshiy eng salobatli va nufuzli edilar.

1420 yili Samarqand madrasasining tantanali ochilishi bo‘ldi. Manbalarda qayd etilishicha, “madrasa binosi bitishiga

yaqinlashganda, bu yerga to‘plangan adabiyot, san’at va fan namoyandaari Ulug‘bekdan madrasaga kimni mudarris etib tayinlamoqchisiz, deb so‘rashganda, Ulug‘bek, barcha fanlardan xabardor biror odamni qidirib topaman, deb javob bergen. Shu yerda g‘ishtlar orasida oddiy kiyimda o‘tirgan mavlono Muhammad Ulug‘bekning bu gapini eshitib qolgan va shu onda o‘rnidan turib, bu vazifaga men loyiqliqman, degan. Shundan keyin Ulug‘bek uni imtihon qilib, uning chinakam bilimdon odam ekanligiga ishonch hosil qilgan va uni hammomda yuvintirib, yaxshi kiyintirish to‘g‘risida buyruq bergen. Madrasanining ochilish kunida mavlono Muhammad mudarris sifatida ma’ruza o‘qigan; Mavlono Muhammadning olimlardan 90 kishi ishtirokida qilgan ma’ruzasini Ulug‘bek bilan Qozizoda Rumiyidan boshqa hech kim tushuna olmagan. Chunki bu ma’ruza haddan tashqari ilmiy jihatdan kuchli va murakkab masalalarni o‘z ichiga olgan edi.”

Bu yerda tilga olingan Qozizoda Rumiy (Salohiddin Musa bin Mahmud) mashhur matematik va astronomadir. U Ulug‘bek madrasasining dastlabki mudarrislardan biri edi. G‘oyat bilimli bu olimni zamondoshlari “**o‘z davrining Aflatuni**” deb ataganlar.

Ulug‘bek “Ziji” o‘rtta asrlardagi eng mukammal asar bo‘lib, tezda zamondoshlarining diqqatini o‘ziga jalb etdi. Eng avval, bu asar Samarqandda Ulug‘bek atrofida to‘plangan olimlar ijodiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

1449 yili Ulug‘bekning fojiali halokatidan so‘ng Samarqand olimlari asta-sekin Yaqin va o‘rtta Sharq mamlakatlari bo‘ylab tarqalib ketadilar. Ular o‘zlari borgan yerlarga Samarqand olimlarining yutuqlarini va “Ziji”ning nusxalarini ham yetkazadilar. Jumladan, Ali Qushchi 1473 yili Istanbulga borib, u yerda rasadxona quradi. Shu tariqa Ulug‘bek “Ziji” Turkiyada tarqaladi va Turkiya orqali Ovro‘pa mamlakatlariga ham yetib boradi.

Hozirgi kundagi ma’lumotlarga ko‘ra “Zij”ning 120 ga yaqin forsiy va 15 dan ortiq arabiy nusxasi mavjud. O‘rtta asrlarda yozilgan hech bir astronomik yoki riyoziy asar bunchalik ommalashmagan. “Ziji” musulmon mamlakatlarining deyarli barchasida o‘rganilgan.

Mirzo Ulug‘bek xizmatlaridan yana biri shundaki, u avvalo yosh avlodning aqliy va ma’rifiy tarbiyasiga katta ahamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarni egallahsga da’vat etdi, har qanday johillik va bilimsizlikka qarshi kurashdi. U insonning imkoniyatlari cheksiz ekanligiga ishora qilib, yoshlarni ilm egallahsga, insofli va himmatli bo‘lishga, halollik va rostgo‘ylikka da’vat etadi.

Ulug‘bekning bilimlarini nafaqat kitoblardan, balki bevosita hayotning o‘zidan ham olishni tavsiya etadi.

Ulug‘bek yangi-yangi ilmiy kashfiyotlar qilishni inson uchun oliy fazilat deb biladi. U Mavarounnahr shaharlarini, xususan Samarqand va Buxoroni ilm-u ma’rifat dargohiga aylantiradi. Ulug‘bek “Bilimga intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir” degan shiorni ilgari suradi va uni madrasanining peshtoqiga yozdirib qo‘yadi. Madrasada esa ilmnинг turli sohalarining o‘qitilishiga jiddiy e’tibor beriladi.

Ulug‘bekning fikricha, ta’lim-tarbiyada matematika, falakkiyot fanlari bolaning aqliy qudrati va qobiliyatini o‘stirishda muhim vosita bo‘lsa, tarix va adabiyot fanlari esa bolalarning vatanparvar bo‘lib yetishishlariga xizmat qiladi.

Ulug‘bek ta’lim-tarbiyada mudarrislarning odil va halol bo‘lishiga, o‘z pedagogik mahoratlarini, bilimlarini oshirib borishga, har bir mashg‘ulotni yuksak saviyada o‘tkazishga da’vat qiladi, ana shu bilangina o‘quvchilarda bilimga qiziqish orttirish mumkinligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, tarbiyachi avval o‘zini tarbiyalashi, bilim va malakalarini egallahshi lozim.

Ulug‘bek bolalarni tarbiyalashda uy sharoiti va ota-onalarning faoliyatiga yuqori baho beradi, ularni hayotda chidamli, mehnatsevar qilib tarbiyalash juda zarur deydi. Buning dalili sifatida “Zij” ustida ishslash paytidagi qiyinchiliklar haqida shunday deydi: “Yulduzlar jadvalini tuzish maqsadida biz kechayu kunduz ishладик, o‘z mo‘ljallagan maqsadimizga yetguncha biz o‘zimizga qadar yaratilgan jadvallarni taqqosladiк, qayta tuzdik va shu tariqa yuz qaytalab tuzatishlar kiritgach, o‘n sakkiz yildan so‘nggina o‘z ko‘zlagan niyatimizga yetdik”¹.

¹ Улугбек. Новые Гураганова астрономические таблицы. Т., изд. «Фан» АН. РУз, 1994 й. 3–32-бетлар.

Ulug‘bek axloqiy tarbiya haqida gapirar ekan, bu masalada insonlar orasidagi o‘zaro munosabat, do‘slik va birodarlik alohida ahamiyat kasb etish kerakligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, haqiqiy va soxta do‘slni ajrata bilish lozim, g‘arazli kishi hech vaqt do‘sli bo‘lmaydi, kishilarni u to‘g‘ri yo‘ldan ozdiradi. Shu bois g‘arazli kishilardan har qanday yo‘l bilan bo‘lsa-da, yiroq bo‘lish, kasbi va xulq-atvori yaxshi, hamma hurmat qiladigan, xushfe‘l kishi bilan do‘splashish lozimligini tavsiya etadi.

Har bir kishi do‘stona hamkorlik bilan hayotiy muammolarni hal etishi mumkin, kishi yolg‘iz o‘zi, do‘sliarsiz hech narsa qila olmaydi. Uning ta’kidlashicha, har bir insonning axloqiy shakllanishi olimlar o‘rtasidagi munosabatlarga ham bog‘liqdir, ular o‘rtasidagi yaxshi hamkorlik talabalarning axloqiy tarbiyasida g‘oyat muhimdir. Bunday do‘stona va beg‘araz hamkorlik mohiyatini biz Ulug‘bek faoliyati misolida ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Ali Qushchi umrining oxirigacha unga sodiq qoldi. Ulug‘bek o‘zining ko‘p yillik mehnati evaziga yaratilgan “Ziji Ko‘ragoniy” asarini unga ishonib topshirdi va u o‘z navbatida ustozining ishonchini oqladi.

3. Alisher Navoiy (1441-1501)

O‘zbek adabiyotining asoschisi, she’riyat mulkinining sultoni, ma’rifatparvar shoir, davlat arbobi Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevralda Hirot shahrida tug‘ilgan. Yosh Alisher favqulodda iste’dod egasi bo‘lib, iste’dodining dastlabki ko‘rinishlari u uch-to‘rt yoshga to‘lgan vaqtlardayoq namoyon bo‘la boshlagan. Shu vaqtida u Farididdin Attorning “Mantiq-ut-tayr” asarini yod oladi.

Alisherdagagi ilm o‘rganishga bo‘lgan kuchli qiziqish hamda ishtyoqni o‘z vaqtida anglagan ota-onasi uni 1445 yilda mакtabga beradilar. Maktabda talsil olayotgan chog‘larida o‘tmish mutafakkirlari va o‘z zamonasining zabardast shoirlarining ijodlari bilan yaqindan tanishadi. Mazkur davrda badiiy mavjud asarlar mazmu-nini o‘qib-o‘rganish bilan kifoyalanib qolmay, 10-12 yoshidayoq mustaqil ravishda she’rlar yoza boshlaydi. Yosh Alisher tomonidan yaratilgan she’riy misralar o‘zida yuksak badiiy va falsafiy

g‘oyalarni aks ettirar edi. Chunonchi, uning ustozi Lutfiyga o‘qib bergen quyidagi misralari bugungi kunga qadar she’riyat ixlos-mandlarining xayratiga sazovor bo‘lib kelmoqda:

*Orazin yopqoch ko‘zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lgach quyosh.*

Qomusiy bilimlarni chuqur o‘zlashtirgan Alisher Navoiy xalq orasida hurmat-e’tibor qozonadi. Bolalikda birga ulg‘aygan do‘sti sulton Husayn Boyqaro Alisher Navoiyning iste’dodi, bilimi hamda hayotiy qarashlarini yuksak qadrlagan holda uni o‘ziga vazir etib tayinlaydi. Davlat arbobi sifatida faoliyat olib borgan Alisher Navoiy fan va san’atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlari, musiqa, hattotlik, tasviriy san’at hamda me’morchilikning rivoji yo‘lida amaliy harakatlarni olib borish bilan birga yoshlarga ta’lim va tarbiya berish masalalariga ham alohida diqqat-e’tibor qaratdi. Ulug‘ mutafakkir o‘zining “Xamsa”, “Mahbub-ul-qulub”, “Munojot”, “Vaqfiya”, “Majolis-un-nafois”, “Muhokamat-ul-lug‘atayin”, shuningdek, Abdurahmon Jomiyning “Arba‘in” nomli asarining tarjimasi sifatida yaratilgan “Chihil hadis” (“Qirq hadis”) kabi asarlarida ta’lim-tarbiya masalalariga oid qarashlarini ifoda etadi.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ular qiyofasida namoyon bo‘luvchi ma’naviy-axloqiy sifatlarni ulug‘lagan bo‘lsa, ta’limiy-axloqiy muammolarni yorituvchi asarlarida esa komil insonni shakllantirish jarayonining mazmuni, ushbu jarayonning o‘ziga xos jihatlari, yo‘llari, shakl va usullari borasidagi mulohazalarni bayon etadi.

Allomaning tasavvuridagi komil inson o‘z qiyofasida eng yuksak insoniy fazilatlar mujassam eta olishi lozim. Chunonchi, u ijodkor, qobiliyatli, shu bilan birga ilm-fanga nisbatan muhabbatli bo‘lmog‘i zarur. Alisher Navoiyning qarashlariga ko‘ra, ana shunday sifatlarning sohibi bo‘la olgan insongina o‘z kuchi hamda aql-u zakovatiga ishonadi. o‘z kuchi va aql-u zakovatiga qattiq ishona olgan insongina turli qiyinchiliklarga bardosh bera oladi, u o‘ta murakkab muammolarni ham yechimini topa olishga qodir. Ilm-fan sirlaridan xabardor bo‘lishning inson ahamiyatini yoritar ekan, alloma ayni o‘rinda ilmni qorong‘ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo‘lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy

qiyo fasini ko'rsata oluvchi omil sifatida ta'riflaydi. Ushbu fikr mutafakkir tomonidan yaratilgan “Nazmul-javohir” asarida quyidagicha bayon etiladi:

*Kim olim esa nuqtasida barhaq de oni,
Gar bazm tuzar bihishti mutlaq de oni.
Har kimsaki yo'q ilm axmaq de oni,
Majlisdaki ilm bo'lsa uchmaq de oni¹.*

Mazkur to'rtlikning mazmunida ilmli, oqil odam o'z maqsadiga erishish yo'lida uchraydigan har qanday qiyinchilikni yengib o'tadi, kim ilmni o'ziga tayanch qilib olsa, u hech qachon qoqlmaydi, zero, ilm insonning baxt-saodatini ta'minlashga xizmat qiladi degan g'oya o'z aksini topgan.

Alisher Navoiy ilm o'rganishga intilishni inson kamolotini ta'minlash uchun xizmat qiluvchi eng zarur fazilatlardan biri deb biladi. Ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqazuvchi omil sifatida ta'riflaydi. Asarlari mazmunida ilgari surilgan g'oyalilar yordamida kishilarni ilmli va ma'rifatli bo'lishga undaydi. Mutafakkir ilm o'rganishni har bir kishining insoniy burchi deya e'tirof etadi. Zero, ilm o'rganishdan maqsad ham xalqning farovon, baxtli-saodatli hayot kechirishini, mamlakatning obod bo'lishini ta'minlashga hissa qo'shishdir, deya ta'kidlaydi. Bilimli va dono kishilar hamisha o'z xalqining manfaati hamda mamlakatining ravnaqi yo'lida faoliyat olib borishlariga ishonadi. Mazkur o'rinda Mirzo Ulug'bekni ana shunday xislatga ega bo'lgan kishilardan biri bo'lganligiga urg'u beradi hamda uning nomi tarix sahifalarida abadiy saqlanib qoladi, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy orzu qilgan komil inson faqat ilmli bo'lish bilan qanoatlanib qolmaydi. Uni yetuk inson sifatida ta'riflash uchun unda, yana shuningdek, sabr-qanoat, saxiylik, himmat, to'g'rilik, rostgo'ylik, tavoze, adab, vafo va hokazo sifatlarning ham mavjud bo'lishi taqozo etiladi.

Alisher Navoiy asarlari mazmunida o'z aksini topgan har bir fikr amaliy ahamiyatga ega, zero, mutafakkir ularni o'zining ulkan hayotiy tajribasiga tayangan holda bayon etadi. Alloma uzoq yillar davomida olib borgan hayotiy kuzatishlari va tajribasi asosida

¹ Алишер Навоий. Назм-ул жавохир. Арбаин. Насойим-ул мухаббат. Асарлар. Ўн беш томлик. 15-том. - Тошкент, Бадний адабиёт нашриёти, 1968, 45-бет.

“Mahbub-ul-qulub” (“Ko‘ngillarning sevgani”) asarini yaratadi. Ushbu asarda “Xamsa” dostonining tarkibiy tuzilmasidan o‘rin olgan “Hayrat-ul-abror”, shuningdek, “Nazm-ul-javohir” kabi ta’limiy-axloqiy asarlarida ilgari surilgan axloqiy qarashlarni mazmun jihatidan yanada boyitadi.

Mutafakkir “Mahbub-ul-qulub” asarini yozishdan ko‘zlagan asosiy maqsadini asar muqaddimasida quyidagi tarzda ochib bergen: “Har ko‘cha-ko‘yda yuguribman va olam ahlidin har xil kishilarga o‘zimni yetkazibman. Yaxshi va yomonning fe’l-atvorini bilibman, yomon-yaxshi xislatlarini tajriba qilibman.

Yaxshilik va yomonlikning aslini ham, zahrini ham tortib ko‘rdim. Xasislar va karamlar yetkazgan yara va bergen malhamni ko‘nglim tag-tugi bilan sezgandirman. Zamon ahlidan ba’zi hamsuhbatlar va davr kishilaridan ayrim do’stlar bu hollardan xabarsiz va ko‘ngillari bu yaxshilik va yomonliklardan asarsizzdir. Bu xildagi hamsuhbat va do’stlarni xabardor qilmoq va bu hollardan ogohlantirmoq lozim ko‘rinadiki, har toifaning xislatlaridan ma’lumotlari va har tabaqaning ahvoldin bilimlari bo‘lsin, keyin munosib kishilar xizmatiga yugursinlar va nomunosib odamlar suhbatidan tortinishni zarur bilsinlar va barcha odamlar bilan maxfiy sirlardan so‘z ochmasinlar. Shayton sifatlar hiyla va aldovlariga o‘ynichoq bo‘lib qolmasinlar. Kimki har xil kishilar bilan suhbatlashish va yaqinlashishni havas qilsa, bu borada kaminaning tajribasi yoshlar uchun yetarlidir”¹.

Asar uch qismidan iborat. Alisher Navoiyning o‘zi ta’kidlaganidek, asarning birinchi qismida turli toifaga mansub odamlarning fe’l-atvorlari; ikkinchi qismida yaxshi xislatlar va yomon fe’llar, ularning o‘ziga xos jihatlari; uchinchi qismida esa yaxshi fe’l va xislatlar, insonda ularni shakllantirishga oid qarashlar bayon etiladi.

Alloma mazkur asarda kishilarni munosib va nomunosib kishilar tarzida ikki toifaga ajratadi. Har bir insonning hayotda uchraydigan nomunosib kishilarni yaxshi xulqli insonlardan ajrata olish layoqatiga ega bo‘lishi muhim ekanligi, yomon xislatlarga ega kishilar bilan munosabatda bo‘lishdan saqlanish lozimligini uqtirib

¹ Alisher Navoiy. Maqbub-ul-qulub. Asarlar. 15 томлик. 13-том. – Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966, 192-193-betlar.

o'tar ekan, bu borada "Mahbub ul-qulub" asari yordamidan foydalanish foydadan holi bo'imasligini ta'kidlaydi. Mazkur holat Alisher Navoiyning shaxsiy hayotiy tajribalari asosida yoshlarni komil inson bo'lib voyaga yetishishga undashishidan dalolat beradi. Mutafakkir yoshlarning asar mazmunida o'z ifodasini topgan hayot saboqlaridan o'zlar uchun tegishli xulosalarini chiqarib olishlariga umid bildiradi. Alisher Navoiy ilm-fanning inson kamolotidagi o'rni, bilimlarni o'rganish asosida hosil bo'lgan aql va idrokning inson hayotidagi ahamiyati hamda aqliy tarbiya va uning mohiyatini yoritishga alohida e'tibor qaratadi. Alloma insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlari xususida so'z yuritadi hamda mazkur sifatlarning har biriga to'laqonli ta'rif berib o'tadi. Qanoat, sabr, tavoze (adab), o'zgalarga nisbatan mehrmuhabbatli bo'lish, ishqda vafodorlik, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko'ngillik (hilm) kabi xislatlarni ijobiy fazilatlar sirasiga kiritadi va ularning har biriga ta'rif bergenidan so'ng tanbeh va hikoyatlar vositasida shaxsiy qarashlarini dalillar bilan to'ldiradi. Asarda, shuningdek, axloqiy fazilatlarning antonimi hisoblangan salbiy illatlar va ulardan qutulish yo'llari ham bayon etilgan.

Mutafakkir axloqlilikning eng muhim mezoni odob deb hisoblaydi. Odobli, axloqli bo'lish insonga atrofdagi kishilar o'rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo'lishga yordam beradi. Odobga ega bo'lishning inson hayotidagi rolini ko'rsatib berar ekan, Alisher Navoiy shunday fikrlarni ifoda etadi: "Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod bahramand bo'ladi. Adab, kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi.

Yoshlarni ko'zga ulug' ko'rsatadi. Ularning yurish-turishini xalq ulug'vor biladi. o'ziga qarshi xalq tomonidan bo'ladigan humatsizlik eshigini bog'laydi va kishini hazil-mazaxdan va kamsitilishidan saqlaydi. Kishi tabiatini insonlik yo'liga soladi va odam mijoziga odamgarchilik manzilida orom beradi. Kichiklarga undan mucha natija hosil bo'lgach, kattalarga allaqachon bo'lishini ko'rarsan. Kimki, qanoatga odatlansa, shoh va gadoy bordi-keldisidan ozod bo'ladi qanoat qo'rg'ondir, u yerga kirsang

nafs yomonligidan qutularsan, tog‘liklardir – u yerga chiqsang dushman va do‘stga qaramlikdan xalos bo‘larsan; tubanlashishdir – natijasi yuksaklik; zoriqishlikdir – foydasi ehtiyoitkorlik urug‘ining mevasi farovonlik”¹.

Alisher Navoiy qanoatni to‘ldiruvchi insoniy fazilatlar sabr, saxiylik, karam, muruvvat, himmat ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Mazkur xislatlarning bir-biriga yaqinligi hamda ularni insonning obro‘-e’tiborini yuksak darajaga ko‘tarishga xizmat qiluvchi xislatlar sanalishini aytib o‘tadi. Ayni o‘rinda sabr deb ataluvchi xislatga shunday ta’rif beradi: “Sabr achchiqdir – ammo foya beruvchi, qattiqdir – ammo zararni daf etuvchi. Sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir.

U o‘rtoqdir – suhbatи zeriktirarli, ammo maqsadga olib boruvchi; u ulfatdir – umidi uzun, ammo oxiri istakka eltuvchi.

Ulovdir – yurishi taxir, ammo manzilga yetkazuvchi; tuyadir – qadami og‘ir, lekin bekatga tushirguvchi.

Achchiq so‘zli nasihatchiday tabiat undan olinadi, lekin zaminida maqsad hosil bo‘ladi. Badxo‘r dori beruvchi tabibday kasal undan qynaladi, ammo so‘ngida sog‘liq yuz beradi”².

Alisher Navoiy bilim olish jarayonida barcha fanlar asoslarini chuqur o‘rganish maqsadga muvofiqdir deb hisoblaydi. Shu bois alloma turli fanlar yo‘nalishlarida yetuk bilimlarga ega va xalq o‘rtasida alohida hurmat-e’tiborga ega bo‘lgan olimu fozillarni yig‘ib, ularning yordami bilan ilm-fanning rivojini ta’minalashga e’tiborni qaratadi. Ana shu maqsad yo‘lida Samarqandda o‘zining shaxsiy mablag‘i evaziga “Ixlosiya” madrasasini barpo etadi hamda uning yonida maktab ochadi. Madrasa va maktab faoliyatini shaxsiy mablag‘i hisobiga yo‘lga qo‘yadi. Madrasada o‘ziga xos tartib-qoidalarga muvofiq faoliyat yuritilgan. Talabalardan mavjud tartib-qoidaga qat’iy rioya qilish talab etilgan. Shuningdek, talabarning ilm-fan sirlarini mustaqil ravishda yoki yetuk ilm sohiblarining ta’limi asosida o‘zlashtirishlariga ijozat berilgan.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida ilm-fan asoslarini puxta o‘zlash-tirgan kishilarni ulardan amaliy faoliyatda samarali foydalanishga

¹ O‘scha asar, 203-bet.

² O‘scha asar, 204-205-betlar.

undaydi. Xususan, u "Mahbub ul-qulub" asarida ilm o'qib uni ishlatmagan kishi urug' sochib hosilidan baha olmagan kishiga qiyoslanishini aytib o'tadi.

Alisher Navoiy asarlarida zamонавија педагогика фани асослари qаторида мухим о'рин тутувчи омил о'з-о'зини тарбиялаш масаласининг мohiyati ham yoritiladi. Bu borada bildirilgan fikr mazmuniga ko'ra, bolaning o'zi yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini o'zi anglab olishi hamda ularni bartaraf etish uchun imkoniyat yaratish zarur.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar mazmunidan anglanadiki, alla ma o'z davrida ilm olish tamoyillarini to'g'ri ko'rsatib, shuningdek, ta'lim tizimi mohiyatini ham yoritib bera olgan. Alisher Navoiy tomonidan asoslangan ta'lim tizimi o'zida quyidagilarni aks ettiradi:

- a) maktab yoki madrasada tahsil olish;
- b) olim, hunarmand yoki san'atkorlarga shogird tushish asosida ta'lim olish;
- d) mustaqil ravishda ilm o'rganish.

Yoshlarga chuqur bilim hamda axloqiy tarbiya berishda muallimlarning roli beqiyosdir. Muallimlik faoliyatini olib borish o'ta mas'uliyatli va sharafli, ayni vaqtida murakkab ish sanaladi. Ushbu faoliyatni samarali yo'lga qo'yish mudarris hamda ustoz-murabiylarning muayyan talablarga to'laqonli javob bera olishlariga bog'liq. Eng muhim talab - ularning chuqur bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lishlaridir. o'qituvchining samarali o'qish (ta'lim berish) yo'llari va ularning mohiyatidan xabardor bo'lishi ham nihoyatda muhim.

Mutafakkir o'qituvchining hurmatini qay darajada yuqori baholasa, uning shaxsi va faoliyatiga nisbatan talabni shu darajada oshiradi. Ayniqsa, madrasa mudarrislarning bilimli, fozil, dono, kamtar va ma'naviy jihatdan pok bo'lishlarini talab etadi. Bu boradagi qarashlarini quyidagicha ifoda etadi: "Mudarris (dars beruvchi) kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgizmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa

ayvoni boshi unga o‘rin bo‘lmasa. Yaramasliklardan qo‘rqlas va nodonlikdan qochsa, nainki: o‘zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa: ishlarni qilmoq undan sodir bo‘lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo‘lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir”.

Nazorat uchun savol topshiriqlar.

1. Amir Temur va temuriylar davrida Mavarounnahrda fan, madaniyat, ta’lim qanday rivojlandi?
2. Nima sababdan XIV asrning ikkinchi yarmi – XVI asrlar Sharq Uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichi deyiladi?
3. Ulug‘bekning fan va ta’limni rivojlantirishdagi xizmati nimalardan iborat?
4. Alisher Navoiyning ta’limiy-axloqiy qarashlari nimalardan iborat?

XVII BOB. XIX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON O'LKASIDA TA'LIM- TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR

1. Markaziy Osiyoda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlariда ta'lism-tarbiya va pedagogik fikr

Markaziy Osiyo zaminida Temuriylar hukmronligi inqirozga yuz tutgandan keyin, bu o'lkani qo'lga kiritish uchun jahonning ko'pgina mamlakatlari harakat qildilar. Ana shulardan biri Chor Rossiyasi edi.

Markaziy Osiyonni Rossiyaga qaram qilish g'oyasi Petr 1 dan boshlanib, uning vafotidan so'ng Yekaterina hukumati tomonidan davom ettilidi. Nikolay II taxtga o'tirgach, tezlik bilan Markaziy Osiyonni o'ziga bo'yundirishga intildi.

Rossiyaning bosqinchilik yurishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Chunki bu davrda sobiq imperiya o'rniда 3 ta xonlik – Buxoro amirligi, Xiva hamda Qo'qon xonliklari bo'lib, bular o'rtaida nizo kuchaygan edi. Bundan foydalangan chor hukumati o'zining yovuz niyatlarini amalga oshirishga kirishib dastlab Qozog'istonni o'zlariga tobe qildilar. So'ngra Qozog'iston orqali 1864 yilda Turkmaniston, Chimkent, Avliyo otani, 1865-yilda Toshkentni zabt etdilar. 1867-yilda Yettisuv viloyati, 1868-yilda Samarqand, 1876-yilda Farg'onan viloyati Rossiya qo'liga o'tdi.

2. Turkiston o'lkasida diniy-islomiy tarbiyaviy muassasalar va pedagogik fikr taraqqiyoti

XIX asrning o'rtalarida Turkiston o'lkasida boshlang'ich ma'lumot beradigan maktab hamda o'rta va oliy diniy ta'lism beradigan madrasalar mavjud edi. Maktablarning aksariyati, shu jumladan, qishloq maktablarining ko'pchiligi diniy ta'lism beruvchi eng oddiy boshlang'ich maktablar edi. Bu maktabda machitlarning imomlari,

savodxon mullalar dars berardilar. Bunday maktablarda o'qitish eng oddiy diniy vazifalarni o'rgatish bilan, ya'ni arab tilida yozilgan Qur'oni o'qishni o'rgatish, har bir musulmon uchun zarur bo'lgan asosiy vazifalarni bildirish bilan cheklanardi.

Shahar maktablarida diniy ta'lidan tashqari, umumiy ta'lim elementlari – yozish va hisoblash yo'llari o'rgatilardi.

Shahar maktablarida o'quvchilar soni 20-30 taga qishloq joylarida esa 10-15 taga yetar edi. o'qishga 6 yoshdan qabul qilinib, o'zlashtirishga qarab 17-18 yoshlarigacha davom etardi. Maktabda avval "Haftiyak", keyin "Qur'on" yod olinar, so'ng "Chor kitob"ga o'tilardi.

"Chor kitob" 4 bo'limdan iborat bo'lib, 1-bo'lim – haq-xudonning nomlari tushuntirilardi, din qoidalari, tahorat, namoz bayon etiladi, ikkinchisida bidon-e'tiqodni anglash, uchinchi bo'limda kalomi nabi-rivoyatlar bahs etilgan. Shuningdek, xalq orasida mashhur shoirlarning she'r va g'azallari o'qitilar edi. Odatda, bunday maktablarning o'quvchilari badavlat oilalarning bolalari bo'lar edi. Ular o'qishni tamomlab, olgan bilimlarini savdo-sotiq ishlarida, hunarmandchilik ustaxonalarida qo'llar edilar, ba'zilari qo'shimcha ta'lim olib, xattotlik kasbi bilan shug'ullanar, ba'zilari madrasaga kirib o'qishni davom ettirardilar. Oliy diniy maktab bo'lgan madrasada o'rta asrga oid diniy falsafa va musulmon huquqlari, arab tilining grammatikasi va mantiq ilmlaridan dars o'tilardi. Uning o'quv rejalarini vaqt va sharoitga qarab o'zgarib turgan. Masalan: XV asrning 30-40 yillarda Samarqand va Hirot madrasalarida dunyoviy bilimlar: matematika, astronomiya, musiqa kabi fanlar ham o'qitilgan.

Madrasa uch bo'limdan iborat bo'lgan: birinchi bo'limda musulmon diniy aqidalari bayon qilingan kitob – arab tili va qonunchilik o'rgatilar edi. Bu bo'lim talabasi 9-10 yil o'qigan.

Ikkinci bo'limda qonunchilik, ilohiyot, (qonunchilik), mushkulot, mantiq, arab tili grammatikasi, notiqlik mahorati kalom o'qitilgan. Unda 7-8 yil o'qishgan.

Uchinchi bo'limda ilohiyot, qonunchilik, kalom o'qitilgan. Qonunchilik kursida geografiya va arifmetikadan ba'zi ma'lumotlar

berilgan. Madrasani tamomlab chiqqanlar imomlik bilan shug‘ullanish va qozixonalarda ishlash huquqiga ega bo‘lar edi. Maktab va madrasalarda asosan o‘g‘il bolalar o‘qitilar edi. Shaharlardagi diniy maktablarda ba’zi domlalarning xotinlari – otinoyilar qizlarni ham o‘qitish bilan shug‘ullanar edilar. Maktab va madrasalarda dars o‘zbek, arab va fors-tojik tillarida olib borildi.

Musulmon maktablarida ta’lim tizimi 5 toifaga bo‘lingan edi.

Quyi maktab – bu maktablarda o‘g‘il bolalarga savod o‘rgatishgan (4 yil).

Xalilxona maktabi – (namoz) yod oldirib o‘rgatilgan.

Qorixona - Qur’on yod olingan.

Madrasa.

Maktab internat – o‘rta madrasa. Bu mакtabda ham diniy, ham dunyoviy fanlar o‘qilib, o‘rta ma’lumot berilgan.

Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin maktab va madrasalarda ba’zi o‘zgarishlar yuz berdi. Musulmon maktablari uchun bosmaxonaga chop qilingan darsliklar paydo bo‘ldi. Qozondan bosmaxonada nashr qilingan qur’on va haftiyaklar, Hindiston va Erondon shoirlarning litografiyada chop qilingan to‘plamlari keltirildi, Toshkentning o‘zida ham maktablar uchun darsliklarni litografiya usulida nashr qilish yo‘lga qo‘yildi.

3. Turkistonda jadidchilik harakati va ta’lim-tarbiya

XIX asrning boshlaridan Buxorodagi ma’rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid’atlarni isloh qilish fikri paydo bo‘la boshlaydi. Shunday islohot tarafdoरlarini jadidchilar, ya’ni yangilik tarafdoरlari deb atay boshlaydilar. Jadidizm (arabcha “jadid” so‘zidan olingan bo‘lib “yangi” degan ma’noni bildiradi). o‘sha davrlardan boshlab bunga qarama-qarshi turgan oqim, ya’ni feodal-o‘rta asrchilik, diniy fanatizm ruhida bo‘lgan kishilarni esa qadimistlar, deb atay boshladilar. XIX asr boshlarida bir qancha ma’rifatparvar mudarrislar Buxoro shahridagi 200 ga yaqin madrasani isloh qilish g‘oyasi bilan chiqdilar. Bu harakat boshida madrasa mudarrisi Abu Nasr al-Kursaviy turgan edi. Qadimistlar

esa ularni kofirlik va xudosizlikda aybladilar. Buxoro amiri Haydar esa Kursaviyni zindonga tashlatib, o'lim jazosiga hukm qiladi. Ammo uning tarafdorlari uni zindondan qochiradilar. Kursaviy Qozonda o'z faoliyatini davom ettirib, 1813 yilda vafot etadi. XIX asrning 50-60 yillarida diniy islohotchilik harakati yanada kengaya boshlaydi. Endi bu harakat boshida buxorolik mudarris va tarixchi olim Marjoniy (1818-1889), g'ijduvonlik domla Fozil, Mo'minjon Vobkandiy, mulla Xudoyberdi Boysuniy va boshqa mudarrislar turar edilar. Ular madrasa va maktablarni isloh qilishni emas, balki ortiqcha darslarni olib tashlash tarafdoi ekanliklarini yozadilar. Islohotchilar rahnamosi Marjoniy o'zining dasturida quyidagi olti asosiy masalalarni qo'yadi:

Qur'ondag'i har qanday diniy masala yuzasidan kishilar bilgan holda o'zlarini erkin fikr yuritsinlar.

Birovning birovga ko'r-ko'rona ergashishi qat'iy man qilinsin.

Madrasalarda o'qitiladigan hoshiya va sharh kabi quruq mazmunga ega bo'lgan va madrassa o'quvchilari uchun foydasiz bo'lgan hamda ularning 8-10 daqiqa vaqtini bekorga oluvchi darslar dars jadvallaridan olib tashlansin.

Madrasalarda Qur'oni karim, Hadisi Sharif, ularning tarjimalari va islam tarixi kabi darslar o'tilsin.

Arifnetika, tarix, jo'g'rofiya, tabobat, xandas, mantiq, falsafa va boshqa dunyoviy fanlarni o'qishga qarshilik ko'rsatilmasin.

XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli eski tuzum, eski turmush, eski maktab tarafdarlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. Bu qarshi kuch vakillari qadim yo qadimchilar deb atalgan bo'lsa, yangi hayot shabadalarini olib kelishga uringan kishilar esa jadid yoki jadidchilar degan nom oldilar. Nafaqat Markaziy Osiyo, balki Rossiyada yashovchi xalqlar ham o'z taqdirlarini o'zgartiribgina, feodal tuzumning negizlarini parchalabgina yangi hayotga qadam qo'yishlari mumkin edi. Jadidchilik jamiyati to'ntarish yo'li bilan emas, islohotlar yo'li bilan rivojlantirishni o'zining asosiy vazifasi deb belgiladi. U

o‘zining bu vazifasini ado etishda, faqat bir sinfga – proletariatgagina tayanmadi. Umuman jadidchilik insoniyatni sinflarga bo‘lib tashlash tarafdori emas. Jadidlar hatto qadimchilar bilan ham ittifoq tuzib, xalq va kelajak manfaati yo‘lida baqamti ishslash, bugungi ifoda bilan aytganimizda turli siyosiy qarashlarga ega bo‘lgan xalq qatlamlarining tinch-totuv yashashi va ishlashi g‘oyasini ko‘tarib chiqdilar. Behbudiya ana shu “muttahid” front tuzish g‘oyasini bayon qilar ekan, “ulamo yoki ziyoli va taraqqiyparvarlarimiz boy va avomimiz birlashib, din va millat va vatanning rivoji uchun xizmat etsak”, - deb yozgan. Jadidlarning bunday muttahid frontni tuzishga intilganlarining boisi turli sharoit bilan belgilangandi. Avom ham, boylar ham, ulamo ham, ziyolilar ham chor hukumati qaramog‘ida bo‘lgan mustamlakaning biri oz, ikkinchisi ko‘p siquvda bo‘lgan kishilar edilar. Markaziy Osiyo bozorlarida rus savdo va sanoat burjuaziyasi hukmron bo‘lib, mahalliy burjuaziya vakillari sina boshlagan edilar. Boshqacha aytganda, mustamlakachilik azobini mahalliy boylar va savdogarlar ham seza boshladilar. Ana shunday tarixiy sharoitda, jadidlarning fikr-mulohazalariga ko‘ra, oddiy xalqning iqtisodiy-madaniy hayotini yaxshilash qanday zarur bo‘lsa, chet el kapitali iskanjasidan, mustamlakachilik kishanlaridan qutilish ham shunchalik kechiktirib bo‘lmas vazifa edi. Jadidlar 1906 yildayoq “Taraqqiy” deb nomlangan gazeta nashr ettirib, o‘z g‘oyalarini tarqata boshladilar, oradan ko‘p o‘tmay, “Xurshid”, “Shuhrat” singari yangi gazetalar dunyo yuzini ko‘rdi. Markaziy Osioning turli shaharlarida jadid maktablari bodroqdek ochilib, ularda diniy ilmlar bilan birqalikda dunyoviy bilimlar ham keng targ‘ib qilindi. “Jadidlar nima haqida gapirishmasin, hammasi yangi nafas, yangi g‘oya edi, proletar mafkurasi ham, ishchilar sinfi ham yo‘q edi, tabiat birlamchi deguvchilarning mafkurasini deyarli hech kim tushunmas, biladiganlar esa juda ozchilikni tashkil qilar edi. Shuning uchun jadidchilikning yangi g‘oyaclar bilan paydo bo‘lib, ruhoniylarga, hukmron sinflarga qarshi turishi, madaniyatni yaratishi, bir so‘z bilan aytganda, yangilik edi, «jadid» jumlasining ma’nosи ham “yangi” demakdir”.

Agar lo'nda qilib aytsak, jadidlarning harakat dasturi quyidagi masalalarni hal qilishga qaratilgan:

Diniy taassuf va fanatizmga qarshi kurash. Diniy aqidalarga asoslangan o'rta asr maktablari o'rniga Ovro'po qabilidagi dunyoviy ilmlarni ona tilida o'qitishga moslangan yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, feodal davri maorif tizimini isloq qilish.

Jadidchilik g'oyalarini keng xalq ommasiga yetkazish niyatida yangi o'zbek adabiy tilini ishlab chiqish, matbuot hurligi uchun kurash, xalq ommasiga tushunarli adabiyot va teatrni yaratish. Xotin-qizlarni paranjidan chiqarish va jadid maktablariga qatnashlarini ta'minlash yo'li bilan ular taqdirini o'zgartirish va oilada islohot o'tkazish. Mahalliy boylar va savdogar ahlining siyosiy va iqtisodiy jihatdan rus burjuaziyasi bilan bir huquqda bo'lishi, mahalliy amaldorlarning chor hukmdorlari tomonidan siuvuga olishiga qarshi kurash. Shu yo'l bilan mustamlakachilik siyosatini isloq qilish.

Asosiy talabalari ana shundan iborat bo'lgan jadidlar uchun ilm va ma'rifat yagona quroq bo'lib, ular shu quroq yordami bilan o'lkada ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun kurashmoqchi bo'ldilar.

4. Mahmudxo'ja Behbudiy (1874–1919)

Turkistonda jadidlar harakati asoschilaridan biri, jahonga mashhur bo'lgan o'zbekning yagona jo'g'rofiyashunosi, atoqli jamoat arbobi, buyuk islomshunos, ulug' pedagog va axloqshunos, yuksak didli jurnalist, Mahmudxo'ja Behbudiy 1874 yil 10 martda Samarqandning Baxshirepa qishlog'ida ruhoniy oilasida tavallud topdi.

Mahmudxo'ja 6-7 yoshlarida o'qib xat-savod chiqargach, otasi uni qori qilish maqsadida Qur'onne yodlata boshladi. Mahmudxo'ja Qur'onne yod olgach, qorilik bilan qanoatlanmay 15 yoshlaridan tog'asi mufti mulla Odil huzurida dars olishga kirishdi. Bu yerda u "Qofiya", "Shahri mullo", mantiqdan "Shamsiya", "Muxtasar al vakoya", "Hoshiya" va hisob ilmini ham o'rganadi. Mahmudxo'ja

o‘quvchilar orasida ibratlisi hisoblangan, o‘tkir zehnli va o‘qishga havasi balandlardan edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy otasi vafot etganidan so‘ng o‘qishni tark etib, kasbkorlik qilishga majbur bo‘ladi. Samarqand muzofati “Chashmi ob”da endigina qozi bo‘lgan tog‘asi Muhammad Siddiq huzurida mirzolik xizmatida ishladi. Bu yerda ikki yil xizmat chog‘ida, qozixona ishlari bilan keng tanishdi. Ish yuritish, huquqqa xos hamda muftilikka tegishli barcha yumushlardan xabardor bo‘ldi. U ikki yildan so‘ng “Qobul” bo‘lisiga o‘tib mirzolik qiladi va tez orada mustillikka ko‘tariladi. 1916 yilgacha shu yerda ishlaydi. Behbudiy Makkaga borish uchun jiddiy tayyorgarlik ko‘radi, arab tilini o‘rganadi, islom nazariyalari bilan tanishadi. Hajni yetuklik imtihoni deb biladi va nihoyat 27 yoshida Makkada bo‘lib, Hoji va mufti unvonlari bilan qaytadi.

Sharq xalqlarining ma’naviy hayotida, maktab-maorifida chinakam to‘ntarish yasagan, turkiy qavmlarning chinakam iftixori bo‘lgan Ismoilbek G‘aspirali tomonidan ishlab chiqilgan “usuli jadid”ida nomi tarixda katta o‘rin tutgani singari, Behbudiyning nomi ham Turkiston maktab-maorifida keng o‘rin egallaydi. U birinchi bo‘lib o‘lkada bu yangicha usuldagagi maktablarni tashkil etishni targ‘ibotchilaridan hamda amaliyotchilaridan hisoblanadi. Bu sohada Behbudiy Ismoilbek G‘aspiralidan ko‘p yangi tomonlarni o‘rgandi. “Tarjimon” gazetasi Behbudiy uchun vaziyatni anglashda zaruriy vosita bo‘ldi. Gazetaning dastlabki sonlarida: “Bir bechora faqirni ko‘rsak, achinamiz. o‘layotgan bechorani ko‘rsak, yuragimiz iztirobdan orinadi. Hatto biror hayvonning qiynalishi rahmimizni keltiradi. Lekin bir emas, minglab kishilarning, butun bir xalqning jaholatdan mislsiz qiynalayotganini ko‘rmaymiz...”, deb yozilgan satrlar bor. Keyin “Tarjimon” sahifalarida yangi maktablar tashkil etish, ilg‘or va yangi fikrlarni berish keng o‘rin egalladi. Bu esa Ismoilbek G‘aspiralining birinchi tomonidan millatlar qarindoshligini himoya etsa, ikkinchi tomonidan umumdemokratik xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham Behbudiy o‘ziga Gaspiralining tutgan yo‘lini tanlaydi va undan maslahatlar oladi hamda maslakdosh bo‘ldilar.

Behbudiy “usuli jadid” maktabining zarurligi, uning qonun-qoidalari, mактабда о‘tiladigan darslar, qanday imtihonlar olinishi, mактабning qay tarzda tuzilish, унга qanday asbob-uskunalar kerakligi, muallimlarning vazifalari, ularning ta’mинot masalalari va boshqa ko‘p jihatlarini Gaspiralidan va uning asarlari hamda maqolalaridan o‘rgandi. Shular asosida Turkistonda “usuli jadid” mактабларини tashkil etish uchun bor kuchini sarfladi. Nafaqat tashkil etish, u shu mактабларни kitoblar bilan ta’mинlashda ham jonbozlik ko‘rsatdi. U Samarqandning eski shahar qismida bepul kutubxona, qiroatxona, o‘z hovlisida mактаб ochdi. Mashhur pedagog Abdulqodir Shukuriyning yangi usuldagи mактабини o‘z hovlisiga ko‘chirib keldi.

1918 yilda Samarqandda “Musulmon ishchi va dehqon sho‘rosi” tuzilganda Behbudiy maorif komissari etib tayinlanadi. Shunda u yangi mактаблар tarmog‘ini yanada kengaytiradi. O‘quv rejalarini tuzish, yangi darsliklar yaratish, o‘qituvchilar tayyorlaydigan kurslar ochish kabi ishlarni rivojlantirib yuboradi. Mahmudxo‘ja Behbudiy “usuli jadid” mактаблари uchun bir qancha darsliklar yozadi. “Muxtarasi tarixi islom” (“Islomning qisqacha tarixi”), “Madxali jo‘g‘rofiya umroniy” (“Aholi jo‘g‘rofiyasiga kirish”), “Muxtarasi jo‘g‘rofi rusiy” (“Rossiyaning qisqacha jo‘g‘rofiyasi”), “Amaliyotchi islom” va hokazo kitoblari darslik sifatida o‘qitilgandi.

“Usuli jadid” mактабларida hamma o‘qish huquqiga ega bo‘lgan. Chor amaldorlari bu paytda Turkistondagi yangi usuldagи mактабларни biron ayb topib darhol bekittirib qo‘yar edi. Chunki, podsho hukumati “begona xalq”ning qisman bo‘lsa ham ilmma’rifatli bo‘lishini, dunyoviy bilimlarni o‘rganishini istamasdi. Yangi usul mактабларини faqat podsho hukumati emas, balki mahalliy ruhoniylar, eski mактабning domlalari ham yoqtirmas edilar. Ular yangi usul mактаблари “islom diniga rahna soladi”, “bu mактаблarning muallimlari “kofir”, deb tashviqot yuritar edilar. Bunday qarash va to‘siqlarga qaramasdan Behbudiy va uning maslakdoshlari “usuli jadid” mактабларida Turkiston farzandlarini o‘qitish ishlarini jadal suratda olib borardilar. Maxmudxo‘ja Behbudiying “usuli jadid” mактабидаги o‘qitish ishlari quyidagi

tartibda olib borilar edi: "Maktab ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqich – ibtidoiy qism, deb nomlangan. Buning tahsil muddati to'rt yil. Birinchi yilida: forscha va arabcha yozuv hamda o'qishni o'r ganilgan. Suralar yod olingan. Hisob darsi o'rgatilgan. Umuman bir yil davomida yozma o'qimoqni to'liq o'rganganlar. Ikkinci yilida: xaftiyak, imon va e'tiqoddan dars, fors, turkiy va arab tilida she'rlar, qasidalar o'qitilgan. Uchinchi yilida: Qur'oni karim, islom ibodati, tajvid, Sa'diydan nasihatlar, fors va turkiy til puxta o'rgatilib, undan insholar yozdirildi. Hisobdan turli taqsimot va ish yuritish kabi zaruriy jihatlar o'qitilgan. To'rtinchchi yilida: esa Kalom-u Sharif, mufassal tajvid, forsiy va turkiy nazm va nasr, axloq darsi, turkiy va forsiy til, hisob tarix, jo'g'rofiya o'qitilgan. Bu to'rt sinfni tamomlagan bolalarni muallimlarning o'zi taqsimlagan. Xohlasa ikkinchi bosqichga qoldirar, ularning o'zlashtirishlariga qarab madrasaga yuborar, bolaning o'zi xohlasa Yevropa maktablariga yuborar yoki tirikchilik uchun ishlashga yo'llanma berardi. Behbudiy butun vujudi bilan muallim edi. Uning o'zi ham yuqori sinf talabalariga jo'g'rofiya va tarixdan saboq berar. Misr, Turkiya, Qozon va boshqa joylardan olib kelgan turli yangi-yangi kitoblarini yuqori sinf o'quvchilariga hamda eng yaxshi o'qiganlarga hamda muallimlarga tortiq qilardi. U ne qilsa ulug' Turkiston uchun va uning kelajagi bo'lган yoshlar uchun qilardi. Behbudiy axloq va tarbiyaning asosi – maktab, barcha ilmnинг boshi va ibtidosi maktab. Saodatning, fozil insonning ma'naviy chashmasi – maktab degan aqidaga amal qilardi.

1917 yilning 16-23 aprelida Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining qurultoyida millatni o'zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo'lida birlashishga, ittifoq bo'lishga chaqiradi. Ammo u o'z orzulariga erisha olmadidi. Behbudiy 1919 yil 25 martda ana shu g'oyalari uchun millatchi jadid sifatida ayblanib, Shahrisabzda qamoqqa olinadi va qatl etiladi. U o'limi oldidan qilgan vasiyatida: «Biz o'z qismatimizni bilamiz. Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt saodati uchun qurbanlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz.... mumkin qadar ko'proq yaxshi maktablar ochish,

shuningdek maorif va xalq baxt-saodatini ta'minlash sohasida tinmay ishlash bizga haykal bo'ladi....”.

Mahmudxo'ja Behbudiyning yangi maktablar uchun yozgan asarlari maktablarning islohida katta hodisa bo'ldi. Ayni davrda bu darsliklar nazariy, ilmiy va amaliy jihatdan keng qo'llanildi. Bu kitoblarning bugungi kunda ham qadri yo'qolganicha yo'q. “Kitobatul atfol” (“Bolalar maktubi”) asari o'z davrida bir necha marta nashr etilgandi. Bu kitobga qirqtaga yaqin forsiy va turkiy insholardan na'munalar kiritilgan. Shahodatnoma va boshqa ish yuritishga doir hujjatlar yozishni o'rghanishdan ta'lim beradi hamda namunalar ham keltirilgan. Volochnoyxona, qozixonada yoziladigan hujjatlar ham mana shu kitob orqali o'rgatilgan. Yosh va kattalarga mo'ljallangan 36 sahifalik to'plam Respublikamizga davlat maqomi berilgan, mustaqillik qaror topayotgan damlarda bu kitob nazariy-ma'rifiyngina emas, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. O'zbek tilida ish yuritishimizda bu kitob juda qo'l keladi. Kitobning maqsadi ham shunga qaratilgan. Behbudiylar “Padarkush” dramasida boyning uydirma gaplariga ishongan o'g'li otasini o'lirganini ilmsizlik va tarbiyasizlik oqibatidan deb ko'rsatadi. Otasi o'ladi, o'g'li qamaladi, uyda yolg'iz qolgan onaga yangi fikrli domla tasalli berib aytadi:

“Onajon, sizga sabrdan boshqa chora yo'q, bu badbaxtlik va musibatga sabab, jaholat va nodonlikdir, beilmilik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi. Sizni beilmilik xonavayron qildi. O'g'lingizni beilmilik Sibirga yuboradi. Joningizdan aziz farzandingizni tarbiyasizlik balosi sizdan umrni ayritadur. Bolangizni otasi tarbiya etmadni, o'qitmadi. Oxiri baloga uchradi, yomon rafiqlar (odamlar) yo'ldan chiqardilarki, qurban ni jaholat bo'ldingiz”.

Nomaqlar o'g'il ota-onaning erkatalishlaridan taltayib, bekorchilikdan yomon kishilarga qo'shilib, yomon yo'llarga yurib, oxir-oqibatda o'zining va qolgan oila – a'zolari umrini xazon qiladi. “Bizlarni – deb yozadi Behbudiylar, - xonavayron... bevatan va bandi qilgan tarbiyasizlik va jaholatdir, bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqirlilik, zarurat va xorliklar - hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir... Modomiki, bizlar tarbiyasiz

bolalarimizni o'qitmaymiz, bu tariqa yomon hodisalar va badbaxtliklar oramizda doimo hukmron bo'lsa kerak. Bu ishlarni yo'q bo'lmoshiga o'qimoq va o'qitmoqdan boshqa iloj yo'kdir".

5. Abdulla Avloniy (1878-1934)

Taniqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, o'z asarlarida o'zbek xalqining eng yaxshi an'analarini, ta'lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalani aks ettirgan pedagog, olimdir.

Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida, mayda hunarmand-to'quvchi oilasida dunyoga keldi. Ota-onasi savodli kishilar bo'lganlar. Abdulla Avloniy eski usul mакtabini tamomlagandan keyin 12 yoshida madrasaga o'qishga kiradi. U yozda ishlab ota-onasiga yordam qilar, boshqa vaqtarda o'qir edi. O'ta iqtidorli bo'lgan Abdulla Avloniy 15 yoshida she'rlar yoza boshladi. Dastlabki she'rlarida va "Hijron" degan maqolasida xalqni yangi usul maktablarida o'qib-o'rganishga targ'ib qildi. Avbdulla Avloniy 1907 yilda "Shuhrat", "Osiyo" nomli yangi gazetalar chiqara boshladi, lekin chor amaldorlari tez orada gazetalarni yoptirib qo'yadi. Abdulla Avloniy keyinroq "Sadoyi Turkiston" (1914-1915), "Turon" (1917), "Ishtirokiyun" (1918) gazetalarida, "Kasabachilik harakati" (1921) jurnalida muharrir bo'lib ishlaydi. Shundan so'ng, u o'zbek matbuotning zabardast vakili, o'zbek matbuotning asoschilaridan biri sifatida taniladi.

Abdulla Avloniy xalq orasida ilg'or fikrlarni tarqatishda, ilm va ma'rifatni tashviq qilishda gazeta, jurnallarning roli g'oyat katta ekanligini yaxshi bilar edi. U 1907 yili "Shuhrat", "Osiyo" nomli gazetalar chiqarib unga muharrirlig qiladi. Gazetaning birinchi sonida matbuotning roli, gazetaning vazifasi haqida fikr yuritib, "Matbuot har insonga o'z holini ko'rsatuvchi, ahvol olamdan xabar beruvchi, qorong'i kunlarni yorituvchi, xalq orasida ilm, ittifoq, himmat g'oyalari"ni yoyuvchidir deb, baliqning suvsiz yashamog'i mumkin bo'lmasani kabi insonning ham ilmsiz yashamog'i mumkin emasligini uqtiradi.

XX asr boshlarida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida pedagogik fikrlarning rivojida Abdulla Avloniy alohida o'rin egalladi, butun faoliyati davrida u o'z xalqiga xizmat qiladigan komil insonni yetishtirish, uning ma'naviyatini shakllantirishga alohida e'tibor berdi. Abdulla Avloniy o'zbek xalqining san'ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta'limi ishlarini yo'lga qo'yishda katta xizmatlar qilgan adib, jamoat arbobi va iste'dodli pedagogdir. Abdulla Avloniy o'zbek ziyyolilari ichida birinchilardan bo'lib, o'zbek xalq teatrini professional teatrga aylantirish uchun 1913-yilda "Turon" nomi bilan teatr truppasini tashkil qiladi. Biroq bu truppaning professional teatrga aylanishi uchun katta to'siqlar bor edi. Chor hukumatining mustamlakachilik siyosati xalqning ijtimoiy ongining uyg'onishiga yordam ko'rsatuvchi teatrlarning barcha shakllariga qarshi edi. Teatrga ana shunday salbiy munosabatda bo'lgan bir paytda Avloniyning teatr truppasini tashkil qilish va ijtimoiy mazmundagi pesalarni sahnalashtirishi uning xalq ma'rifati yo'lidagi zo'r jasorati edi. Teatrshunos M.Rahmonov Avloniyning teatrchilik faoliyati haqida shunday yozadi: "Avloniy truppa uchun "Advokatlik osonmi?", "Pinak", "Ikki muhabbat", "Portug'oliya inqilobi" kabi dramalar yozdi, "Qotili Karima", "Uy tarbiyasining bir shakli", "Xiyonatkor oilasi", "Badbaxt kelin", "Jaholat", "O'liklar" kabi sahna asarlarini tatarcha va ozarbayjonchadan tarjima qiladi»¹. Ammo bu asarlar nashr qilinmadi.

Abdulla Avloniy "Usuli jaded" maktablari uchun to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" hamda "Birinchi muallim" (1912), "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913), "Ikkinci muallim" (1915), "Maktab gulistoni" (1917) kabi darslik va o'qish kitoblari yaratdi. Bu asarlarida hamda publisistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug'lab, o'z xalqini ilmli, madaniyatli bo'lishga chaqiradi.

XX asr boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbolar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning "Birinchi muallim" i ham o'ziga xos o'ringa ega; "Birinchi muallim" 1917-yil

¹ M.Rahmonov. O'zbek teatri tarixi (XVIII asrdan XX asr avvaligacha), «Fan», T., 1968-yil, 333-bet.

to‘ntarishiga qadar 4 marta nashr etilgan. Avloniy uni yozishda mavjud darsliklarga, birinchi navbatda Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval”iga suyanadi (dars berish jarayonida orttirgan tajribalaridan samarali foydalanadi). Avloniyning “Ikkinci muallim” kitobi “Birinchi muallim” kitobining uzviy davomidir. Biz birinchi kitobini, shartli ravishda, alifbo deb, ikkinchi kitobini xrestomatiya deb atasak joiz bo‘lar, desak xato bo‘imas. Kitob maktabni olqishlovchi she’r bilan boshlanadi:

Maktab sizi inson qilur,
Maktab hayot ehson qilur,
Maktab g‘ami vayron qilur,
G‘ayrat qilib o‘qing, o‘g‘lon!
Maktabdadur ilmu kamol,
Maktabdadur husnu jamol,
Maktabdadur milliy xayol,
G‘ayrat qilib o‘qing, o‘g‘lon!

Bu she’rda Avloniy maktabni insonning najot yo‘li, hayotning gulshani, kishilarni kamolot sari safarbar qiluvchi kuch, deb maqtaydi. Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida “Turkiy guliston yoxud axloq” asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o‘rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir. “Turkiy guliston yoxud axloq” asari axloqiy va ta’limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni “yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi» bir ilm-axloq haqida fikr yuritiladi. Shu jihatlardan qaraganda bu asar Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Nosir Xisravning “Saodatnoma”, Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Jomiyning “Bahoriston”, Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Ahmad Donishning “Farzandlarga vasiyat” asarlari shaklidagi o‘ziga xos tarbiyaviy asardir. Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib “Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo‘l uzatmak kabitidur”, – deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g‘oyat katta ahamiyatga ega. O‘zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta

pedagogikaga “Pedagogiya”, ya’ni “Bola tarbiyasining fanidir”, deb ta’rif berdi. Tabiiy bunday ta’rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi. Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to‘rt bo‘limga ajratadi:

1. “Tarbiyaning zamoni”.
2. “Badan tarbiyasi”.
3. “Fikr tarbiyasi”.
4. “Axloq tarbiyasi” haqida hamda uning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritadi. “Tarbiyaning zamoni” bo‘limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-onas, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta‘kidlaydi. “Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidur” deb uqtiradi, Avloniy.

Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq, deb hisoblaydi adib. Tarbiya surriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan – uy, bog‘cha, mакtab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan. Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma’noda tushunadi. Uni bиргина axloq bilan chegaralab qo‘ymaydi. U bиринчи navbatda bolaning sog‘ligi haqida g‘amxo‘rlik qilishi lozimligini uqtiradi.

Avloniyning fikricha, sog‘lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma’rifatga ega bo‘lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. “Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qumoq, o‘qutmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir”.

Abdulla Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sog‘lom qilib o‘stirishda ota-onalarga murojaat qilsa, bolani fikr tomonidan tarbiyalashda o‘qituvchilarning faoliyatlariga alohida e’tibor beradi.

Bolalarda fikrlash qobiliyatini o‘stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug‘ullanishi benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimlarning “diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga

yuklangan muqaddas vazifadur... Negaki fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog‘liqdur”¹.

Ayni zamonda muallif ta‘lim va tarbiya uzviy bog‘liq ekanini ham ta‘kidlaydi: “Dars ila tarbiya orasida biroz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur”² deydi. Abdulla Avloniyning fikricha, inson butun borliqning ko‘rki va sharafidir. Inson o‘z go‘zalligi va murakkabligi bilan Koinotdagि barcha mahluqotlardan afzaldir. Butun mavjudot insonga xizmat qilishi kerak, chunki inson uning sohibidir. Chunki insonning aqli bor. U shu aql yordamida ilm egallaydi, ilm tufayli dunyoni boshqaradi.:

“Aql, – deydi Avloniy, – insonlarning piri komili, murshidi yagonasidur, ruh ishlovchi, aql boshlovchidur. ...insonni hayvonlardan so‘z va aql ila ayirmishdur. Lekin inson aql va idroki soyasida o‘ziga keladirgan zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo‘ynidan boylab, iplarining uchini qo‘llariga bergen insonlarning aqidur”. Avloniy insonga va uning aqliga ana shunday yuksak baho beradi. “Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari najotidur. Agar aqlingni qo‘li nafsingni jilovini ushlasa, sani yomon yo‘llarga kirmoqdan saqlar. Har narsa ko‘p bo‘lsa, bahosi arzon bo‘lur, ammo aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko‘paysa, shuncha qimmatbaho bo‘lur”.

“Turkiy guliston yoxud axloq” kitobi ma’rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qiladi. Abdulla Avloniy kitobda ilm to‘g‘risida bunday deydi: “Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g‘oyat oliv, muqaddas bir fazilatidur. Zeroki, ilm bizga o‘z axvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilmoq, ... Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur...”. Avloniy ilmni umuman emas, balki uning amaliy va hayotiy foydalarini aytib, “Bizlarni jaholat, qorong‘ulikdan qutqarur. Madaniyat insoniyatni ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzug‘ ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va odob sohibi qilur... Alhosil butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz,

¹ Abdulla Avloniy. «Ikkinchи kitob», 14-bet

² O‘scha kitob, 15-bet.

sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog‘liqdur”¹.

Adibning obrazli ifodasiga ko‘ra, ilm bamisoli bodomning ichidagi mag‘iz. Uni qo‘lga kiritish uchun mehnat qilish, ya’ni chaqib uni po‘chog‘idan ajratib olish kerak. U ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham u, yoshlarni ilm sirlarini bilishga, hodisalar mohiyatini yechishga, kitob mutolaa qilishga chaqiradi. Uning fikricha, ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, xalq farovonligi yo‘lida qo‘llanmasa, u o‘likdir. A.Avloniy o‘z ilmini amalda qo‘llay oladigan kishilarga yuksak baho beradi, ularni dono insonlar, deb ataydi. Abdulla Avloniy o‘tmish mutafakkirlari kabi yoshlarni foydali kasb - hunar egallashga chaqiradi. Adib boylik ketidan quvuvchilarni, ularning odamgarchilikka to‘g‘ri kelmaydigan ishlar bilan shug‘ullanayotganini ko‘rib, ulardan nafratlanadi. Avloniy yoshlarni boylikka ruju qo‘ymaslikka undaydi. Boylikni o‘tkinchi bulutga o‘xshatadi. Abdulla Avloniy mehnatsiz kun kechirishni barcha yomon sifatlarning ibtidosi, deb hisoblaydi. Shuning uchun ham u, mehnatni ulug‘laydi, mehnat kishining eng go‘zal fazilatidir, deydi.

“Turkiy guliston yohud axloq”ning birinchi sahifasidan to so‘nggi sahifasigacha Avloniyning insonparvarlik g‘oyalari ifodalangan. U hammadan burun xalq manfaatini ko‘zlaydi, xalqqa bajonu dil xizmat qilishni o‘zining muqaddas burchi deb biladi. Uning nazarida kishilar g‘amini yemagan, xalqdan uzoq turgan ig‘vogar, g‘iybatchi inson emas. Muallif chaqimchilik, g‘iybat, hasad, munofiqlik, yolg‘onchilik, ikkiyuzlamachilik haqida to‘xtalib, ularning insonlar hayotiga zararini atroficha ko‘rsatib beradi. G‘iybatchi va chaqimchi kishilarni Avloniy buzoqboshiga o‘xshatadi. Buzoqboshi daraxt ildizini kemirib quritgani kabi chaqimchi va g‘iybatchilar ham kishilar o‘rtasidagi mehr-muhabbat daraxtini yemiradilar. Donishmandlardan biri aytganidek, “Mol va ashyo o‘g‘rilaridan ko‘ra odamlar orasida do‘stlik, ulfat, muhabbatni o‘g‘irlaydurgan odamlardan saqlanmoq lozimdir”².

¹ A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. 17-bet.

² Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. 50-bet.

Avloniy g‘iybatchilik va uning oqibatini shunday tahlil etadi: “Inson boshqa gunohlarini nafsnig lazzati uchun qiladur. Ammo g‘iybat sohibi lazzat o‘rniga o‘z boshiga yo bir boshqa kishining boshiga bir balo hozirlaydur. Chunki, so‘z borib g‘iybat qilinmish kishining qulog‘iga yetar. G‘azab qoni harakatga kirar. G‘iybatchidan o‘ch olmoq fursatini poylar. Shunday qilub, g‘iybat soyasida ikki musulmon orasiga zo‘r dushmanlik tushar. Oxiri o‘lumgacha borur. Shul tariqa g‘iybatdan tug‘ulgan adovat cho‘zulmoqg‘a oid bo‘lib, dushmanlik zo‘rayub, o‘z oralaridagi xususiy janjallar ila aziz umrlarini uzdirub, umumiy xalq foydasi uchun ishlanadurgan milliy ishlardan mahrum bo‘lmaklari ila barobar aholining orasidan ittifoqning yo‘qoluviga sabab bo‘lurlar”¹. G‘iybatni so‘ylamoq harom o‘lgani kabi eshitmoq ham haromdir.

Rasuli akram nabiyi muhtaram sallalohu alayhi vasallam afandimiz:

“G‘iybatdan saqlaningiz, g‘iybat zindondan ham yomon-roqdur”, – demishlar. Abdulla Avloniy 1934-yilning 25-avgustida Toshkentda vafot etdi.

Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o‘zbek xalqining ruhiyati, tur mush tarzi, milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘langan. Uning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu ma’noda Avloniyning siyoshi, faoliyati biz uchun qadrildir.

6. Abdurauf Fitrat (1886-1938)

Ma’naviyatimizning ilk namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat garchand qataq‘on qurban bo‘lib, jismonan oramizda bo‘lmasa ham u hamisha tirik. Qismati og‘ir bo‘lgan ulug‘ siymolar qatori Fitrat butun kuch-qudratini xalqqa bag‘ishladi. Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat 1886-yili Buxoro shahrida tug‘iladi. “Fitrat” Abduraufning adabiy taxallusi bo‘lib, bu so‘z “tug‘ma tabiat”, “tug‘ma iste’dod” degan ma’noni anglatadi. Abdurauf

¹ Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. 51-bet.

Fitrat zullisonayn yozuvchi sifatida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy an'analarini davom ettirib, o'zbek va tojik tillarida biday mukammal asarlar yaratma oldi.

Fitratning "Rahbari najot" asari to'la ravishda ta'lif-tarbiya masalalariga bag'ishlanadi. Ayniqsa, asarning uchinchi bobo oila, bola tarbiyasi, axloq-odob mavzulariga bag'ishlangan bo'lib, bu masalalar hozirgi davrda ham katta ma'rifiy ahamiyatga egadir.

Fitrat ota-onaning vazifasi o'z bolalarini yetuk kishilar qilib tarbiyalashlari zarurligi, bunda ayniqsa, uch tarbiyaga:

1. Jismoniy tarbiya salomatlik,
2. Aqliy tarbiya sog'lom fikrlilik,
3. Axloqiy tarbiya axloqiy sano, ya'ni axloqiy poklikka e'tibor berish kerakligi ta'kidlanadi.

Asarning "Bola tarbiyasi" masalalari bobida quyidagilar ko'rsatib o'tiladi.

Tarbiya-i avlod. "Oila vazifalaridan biri avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Yosh avlodni tarbiyalash hayotiy vazifalardan bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, dunyo kurashning umumiyl maydoniga o'xshaydi va bu maydonning pahlavonlari insonlardir. Har bir kishi barkamollik yoshiga yetgach, u o'z saodati ta'mini uchun shu maydonga kirmasdan iloji yo'qdir. Bu kurashda g'olib chiqish uchun uch xil o'Ichov quroli (salohi masseh)ga ega bo'lish kerak.

1. Salomatlik;
2. Sog'lom fikr (nuqson siz fikr, ya'ni yuqori iste'dod);
3. Axloqi sano (oliy darajali axloq, ya'ni axloqi poklik).

Fitrat "Har bir kishi shu uch quroldan birisisiz maydonga kirma, albatta mag'lub bo'lishi tabiiydir, deb aytib, bu bilan uch tarbiyani doimo qo'shib olib borish kerakligini, agar bu tarbiyalarning birontasi kam bo'lsa, yetuk kishi tarbiyalab bo'lmasligini ko'rsatmoqchi bo'ladi". Yana aytadiki: "Agar har bir ota o'z farzandining badbaxt bo'lishini xohlamasa, uni bu maydonning g'olibi qilib tayyorlashi kerak. Farzandingizni jismoniy, aqliy, ruhiy tomondan barkamollikka yetkazing va jamiyatning qobil a'zosiga aylanishi uchun g'amxo'rlik qiling". U bola tarbiyasi faqat oiladagina olib borilmasdan, bu ish bilan keng jamoatchilik, davlat ham shug'ullanishi kerakligini, chunki davlatning kelajagi mana

shu yoshlar qo‘lida bo‘lishini ta’kidlab o‘tadi. “Bolalarni barkamol qilib yetkazish uchun uning tarbiyasiga faqat oilagina javobgar bo‘lmasdan, butun qavm a’zolari javobgardirlar, chunki yoshlar har tomonlama yetuk inson bo‘lib tarbiyalansa, qavmning kelgusi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo‘ladi”.

Tarbiya-i badaniya. Fitrat jismoniy tarbiyaga, kishining salomat va baquvvat bo‘lib tarbiyalanishiga alohida e’tibor beradi: “Badan tarbiyasiga qadim zamonlardan boshlab katta ahamiyat berilgan. Insonning butun a’zosi salomat va quvvatga ega bo‘lmasa, unda inson uzoq yashamaydi. Agar insonning tanasidagi a’zolaridan biriga xalal tegsa, u kishi ishdan qo‘lini tortib, boshqalarning muhtojiga aylanadi. Bizning farzandlarimiz ilm olish bilan birga, ularning badan tarbiyasiga ahamiyat berishimiz lozimdir”.

Fitrat bolalarning toza havoda bo‘lishlari, atrof, tabiat go‘zalliklaridan estetik zavq ola bilishlariga ahamiyat beradi va deydi: “Havo inson uchun ovqatdan ham muhimdir. Besh-olti soat ovqatsiz turish mumkin, bir daqiqa havosiz turish mumkin emas. Shuning uchun go‘daklarni hamma vaqt sof havoga, bog‘-chorbog‘ larga olib chiqish lozimdir. Farangdagи shaharlarning har taraflarida bolalar uchun chorbog‘lar, havo maydonchalar yaratilgan. Bulardan tashqari, ularning maktablarida bolalar tanaffus vaqtlarida maxsus maydonchalarda turli o‘yinlar o‘ynaydilar.

Fitrat bolalarning jismoniy tarbiyasida turli harakatli o‘yinlar katta o‘rin tutishini ham aytib o‘tadi. Ota-onalariga o‘z bolalarining shunday o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lishlarini ta’min etishlarini maslahat beradi: Harakat har bir kishi uchun, ayniqsa bolalar uchun ham zarurdir. Shuning uchun bolalarni jismoniy chiniqtirishda ularni ayrim o‘yinlar bilan mashg‘ul qilish foydalidir. Bolalarni o‘yindan man etishning foydasi yo‘qdir. Ularning doimo bir joyda o‘tirishlari, harakat qilmasliklari ularni badanlarini zaif bo‘lishlariga olib keladi. Ota-onalar doim o‘z bolalarini o‘yinga tashviq va targ‘ib qilishlari lozimdir. Ammo bolalarning o‘yinlari odob va axloq doirasidan tashqari chiqmasligi kerak. Fitrat bu harakatli o‘yinlar bolaning aqli, farosati, ilmini rivojlanishiga va to‘g‘ri axloqiy tarbiya topishiga yordam berishi kerak, deb

hisoblaydi. U bu o‘yinlar orqali bolaga hayotni o‘rgatish, aqliy va axloqiy tarbiya ham berish mumkin, asosiysi bolani jismonan chiniqtiradi, deb biladi”.

Muallif bolalarga shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilishni o‘rgatishni alohida ta’kidlab o‘tadi: “Ota-onalar va muallimlar bolalarni har kuni yuzlarinisovunlab yuvdirsinlar, og‘iz va tishlarini tozalab yuvsinlar, doimo liboslarini nazorat qilsinlar, mumkin qadar bolalarni chivin va pashshalar bo‘limgan joylarga o‘tkaz-sinlar, chunki bu hasharotlar turli kasalliklarni tarqatuvchidirlar”.

Keyinroq Fitrat fikr – aql tarbiyasi to‘g‘risida, ya’ni aql rivoyjanishida muhokamaning roli haqida gapirib beradi.

Tarbiyai fikriya Fikr va aql insonni kamolotga yetkazadi va o‘qish, o‘rganish qobiliyati uni saodatmand qiladi. Insonning komil aqli yaxshilik muhokamasidir. Muhokama nima? Muhokama ikki qismga bo‘linadi: birinchisi Kaziyyatxoi ma’lum (ma’lum bo‘lgan hukm, voqeа va hodisalar), ikkinchisi Kaziyatxoi majhul (noma’lum voqeа va hodisalar)dan xulosa chiqarilishidir.

Masalan, “Vatan xizmati vojibdir” (shartdir). Bu hukm noma’lum (majhul)dir. Bu hukmga yana boshqa ikki ma’lum hukm lozimdir, ya’ni “Vatan bizning valine’matimizdir” (sahovat-mandimiz, ne’matlar bilan ta’minlovchimizdir). “Har bir valine’mat (oliy himmat inson)ning Vatan uchun xizmati vojibdir”, bas “Vatan xizmati vojibdir” degan hukm yuqoridaq iкki ma’lum kazi(y)yatlar bilan ochiladi.

Demak, muhokama uch qismdan tashkil topib, avvalgi hukm noma’lum bo‘lib, qolgan ikki qismi avvalgisini to‘ldiradi va kazi(y)yati ma’lum deb, ataladi. Demak, inson muhokama orqali kamolotga yetadi. Muhokamani aniq va ravshan bo‘lishi uchun uch narsa zarur bo‘lib hisoblanadi.

1. Isobot.
2. Istiqomat.
3. Sur’at.

Isobot ma’lum kaziyyati hukmnинг to‘g‘riligiga, bexatoligiga aytiladi. Istiqomat ma’lum voqeа-hodisalarning hukmnинг barqarorligi, sur’at esa to‘xtovsiz, tezlik bilan tartib berilishi demakdir.

Avvalo, bolalarni hisobot sohibi bo'lishlarida, bir voqeä va hodisa ustidan fikr yuritganlarida ularga to'g'ri, bexato ma'lumotlar beraylik, chunki xato fikrlar ularni xatolarga, xatarli yo'llarga olib borishi tabiiydir. Asossiz muhokama bolalar tarbiyasiga katta ziyon yetkazadi. Keyin bolalarni istiqomat sohibi qilib fikr yuritishlariga ahamiyat berishimiz kerak, ularni ma'lum kaziyatlarni noma'lum kaziyatlardan to'g'ri, aniq ajrata oladigan holatda tarbiyalash lozim, ya'ni har bir masala sohasidagi ma'lumotlarni g'alati tushunmasliklari uchun bolalarni muhokama qilishga odatlantirish kerak. Yomonning yomonligini, yaxshining yaxshilingini muhokama orqali tushuntiring, doimo shunga diqqat qilingki, bolalar hech narsani ko'r-ko'rona taqlid sifatida qabul qilmasinlar. Madaniyatli akvomlar (qavmlar, xalqlar) o'z mакtablarida hisob, tarix, madaniyat, fizika, jo'g'rofiya, ashyoviy darsi va boshqa maxsus fanlarni yuqoridagi ikki maqsad (Isobot va Istiqomat maqsadlari)ga jalb qilish uchun o'qitadilar.

Fitrat bu fikrlari bilan bolaga to'liq aqliy ta'lim berish uchun mana shu yuqoridagi ijtimoiy, ilmiy, dunyoviy fanlarni mакtab dasturlariga kiritish kerak degan xulosaga keladi. Va jadidlar bilan ochgan yangi usul mакtablarida iloji boricha shu fanlarni ham bolalarga o'rgatadilar.

Fitrat mакtablarda bolalarga nisbatan qo'llaniladigan tan jazolarini butunlay qoralaydi, unga qarshi chiqadi. Bolani tayoq zarbi bilan yaxshi inson qilib tarbiyalab bo'lmasligini tushuntirib beradi.

Fitrat o'quvchi shaxsini hurmat qilish zarurligini, unga nisbatan insoniy munosabatda bo'lish, qilgan gunohlarini o'ziga to'g'ri, yaxshi so'z bilan tushuntirish kerakligini, shunda u ham o'qituvchini hurmat qilishini uqtiradi. Fitrat yana bolaga beriladigan bilim uning yoshi va bilish darajasiga mos bo'lishi, bolaga qiyinlik qilmasligini, agar beriladigan bilim bolaga juda oson yo juda qiyinlik qilsa u bilim olishdan bezib qolishini uqtiradi.

Fitrat inson kamolotiga erishish uchun doimo intilishi, harakat qilishi lozimligi, doimo oldiga maqsadlar qo'yishi va unga yetishish uchun kurashishi kerakligini, hech bir baxt yoki boylik ham inson intilmasa o'z-o'zidan kelmasligini uqtirib o'tadi va bu

o‘rinda Qur’oni karimdan quyidagi parchani keltiradi: “Inson har nima topmasin, o‘zining intilishidan topadi, intilmas ekansiz, hech narsaga erisha olmaysiz”.

Fitrat bilim va iqtidor inson uchun eng zarur ekanligini, u mana shu bilimi va aqli bilan dunyodagi barcha mahluqlardan ham ustun turishini, shuning uchun inson doimo bilim olishga va o‘z bilimini yanada oshirib borishga intilishi kerak.

Fitrat deydi: Parvardigorimiz insonlarga “Sizlarni olamning eng oliy mahluqi qilib yaratdim”, – der ekan, shuni yaxshi bilish kerakki, biz ko‘z va qoshlarimiz evaziga e’tiborli mahluqqa aylan-ganimizcha yo‘q, balki e’tiborligimiz va ustunligimiz bilimimiz va iqtidorimizdan foydalanmasak, nainki, e’tiborli balki eng yomon va past mahluqlardan ham pastroq va yomonroq bo‘lib qolishimiz aniqdir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Jadidchilik harakatining kelib chiqish omillari nimalardan iborat?
2. Jadidchilik qanday g‘oyalarni ilgari surgan?
3. Turkistonning rivojlanishida jadidchilik harakati qanday ahamiyat kasb etadi?
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’lim tizimini rivojlantirishga qanday hissa qo‘shdi?
5. Avbdulla Avloniy va Abdurauf Fitrat Turkiston o‘lkasining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy rivojlanishiga qanday hissa qo‘shdilar?

XVIII BOB. CHET EL VA ROSSIYADAGI ILG'OR PEDOGOGIK G'OVALAR. G'ARBIY YEVROPADA MAKTAB, MAORIF HAMDA PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTI

1. Yan Amos Komenskiy (1592–1670)

Buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy 1592 yil 28 mart “Ugorskiy Brod” degan joyda Moravyada tegirmonchi oilasida dunyoga keladi. Uning oilasi ruhoniy “Chex qardoshlari” jamoasiga tegishli bo‘lib, bu jamoa Chexiyaning ozodligi uchun kurashuvchi vatanparvarlarni o‘z atrofiga to‘plagan edi.

Komenskiy ota-onasidan ajralib, ancha vaqt o‘qiy olmaydi, 16 yoshida “Chex qardoshlari” jamoasining yordami bilan lotin maktabiga o‘qishga kiradi, bu yerda u tarbiya tizimining yomonligini, o‘quv metodlarining yaramasligini ko‘radi va tushunadi. “Men o‘sha vaqtdayot tarbiya masalasida mamlakatimni orqada ekanligini ko‘rdim. Men o‘sha davrdayoq fan va tarbiya hammaga tegishli bo‘lishi kerakligini o‘yladim” – degan edi Komenskiy. Maktabni tugatgach Xorborni universitetiga (Germaniyada) o‘qishga kiradi, uni tugatgach Geydelberg universitetida ma’ruza kursini tinglaydi, bu universitetda o‘sha davrda ilg‘or professorlar ishlardi. Komenskiy Avstriya, Gollandiyada bo‘lib iqtisodiy, siyosiy va madaniy turmushni o‘rganadi. Shuningdek, o‘zining ilmi va dunyoqarashini kengaytiradi.

“Chex qardoshlari” ko‘chib kelib o‘rnashgan Polshadagi Leshno shahrida Komenskiy qardoshlik maktabiga rahbarlik qiladi, u yerda gimnaziya tashkil etadi. U o‘zining qariyb 80 yillik umri davomida pedagogika, ta‘lim-tarbiya, falsafa, ilohiyotga oid 250 dan ortiq asarlar, darsliklar yaratdi. Bularidan yiriklari: “Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi” (1631), “Buyuk didaktika” (1632), “Onalar maktabi” (1632), “Pansofiya maktabi” (1651), “Yaxshi tashkil etilgan maktab qonunlari” (1953), “Hislar vositasi bilan

idrok qilinadigan narsalarning suratlari” (1658) nomli asar va darsliklar. Shuningdek, logika, fizika, lotin tili, grek tili kabi kitoblar yozadi. Darsliklari hayotlik davridayoq ko‘p tillarga tarjima qilinib, Komenskiyning nomini butun dunyoga tanitadi. Komenskiy “Kishilik jamiyatni ishlarini yaxshilash haqida hammaga taalluqli maslahat” nomli 7 jildli katta asar yozdi (U hayot ekanligi vaqtida hammasi bo‘lib 2 jildi bosilib chiqdi, qolgan jiddlari esa faqat 1935 yilda topildi va Chexoslovakiyada chop qilindi). Bu asarida “Hammani va hamma narsada har tomonlama tuzatish”ning insonparvarlik va demokratik dasturini belgilab chiqdi va kishilik jamiyatini isloq qilish rejasini ilgari surdi.

“Buyuk didaktika” asarida “*pan sofiya g‘oyasini*” (*pan* grek-cha – butun, hamma, *sofiya* – donolik, aqlililik) **hamma narsani bilish, hamma uchun bilim berish**” demakdir. Pan sofiyada u tabiat va jamiyat bilimlarining yig‘indisini beradi. Maktab – bu muassasa, u yerda “Hammani har narsaga o‘rgatmoq kerak” degan fikr ko‘p marta takrorlanishini ko‘ramiz.

Komenskiyning pansofiya ishi Angliyaning ilg‘or kishilari tomonidan quvvatlanib, parlament tomonidan chaqiriladi. Komen-skiy 1641 yili Angliyaga keladi, lekin grajdalar urushi boshlanib ketib, bu ish qolib ketadi. Komenskiy dunyoga tanilgandan so‘ng hamma mamlakatlarga uni taklif eta boshlaydilar. Shvetsiyada **lotin tili darsligini va til o‘qitish metodikasini** tuzadi. Komenskiy chek qardoshlari jamoasiga yepiskop qilib tayinlangach, 1648 yilda Leshnoga qaytib keladi. Jamoa tarqatilgandan so‘ng u yana o‘qituvchilik faoliyatini davom ettiradi. Bir necha yil Vengriyada maktablarni boshqaradi. “**Vidimo‘y mir v kartinkax**”, ya’ni “**Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari**” degan asar yozib, **o‘qish ishini** rasmlar bilan olib borishni ilgari suradi. Bunda “Yoshlarning xulq qoidasi”, “Yaxshi tashkil topgan maktablarning qonuni” degan bir qancha pedagogikaga doir ishlari berilgan.

Komenskiyning dunyoqarashi. Komenskiyning dunyoqarashi-da uch xususiyat ta’sirini ko‘ramiz.

1. Natur falsafasi. 16-17-asrlarda ingliz faylasufi - materialist Bekon sensualistik falsafa nazariyasini ilgari suradi. Komenskiy

o'qitish jarayoniga shu pozitsiyadan qaraydi. Bilish sezishdan boshlanadi. Sezish bo'limgan yerda bilish ham yo'q, deydi u.

2. Chex qardoshlari jamoasi diniy jamoa bo'lganligi uchun Komenskiy ham dindor ruhoniyidir. Lekin Komenskiyning ruhoniyligi turmushga amaliy qarash bilan bog'liq edi.

3. Komenskiy dunyoqarashining ba'zi jihatlari Uyg'onish davri ta'sirida vujudga keladi. Odamlarga nisbatan muhabbat, hushchaqchaqlik, odamlarning yaxshilik yaratishiga ishonch bilan qarash, bularning hammasi o'rtta asr odamiga nisbatan ishonchsizlik bilan qarashga qarama-qarshidir.

Komenskiy tashqi obyektiv dunyoning hukm surishiga ishonadi. Dunyo bir butun. Dunyoda hamma narsa bir-biri bilan bog'liq. Ajralib qolgan narsa yo'q. Dunyo qarama-qarshiliklardan iborat. Dunyo qotib qolgan emas. U o'sishda, o'sish esa o'z qonuniyatiga ega. Qonuniyat borliqqa, ya'ni xudoga tegishli, deydi. Komenskiy o'zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi tushunchani ilgari suradi. „Buyuk didaktika“da o'qitish tabiiylikka bo'ysunishi, o'qitish tabiat talabiga bo'ysunishi kerak, deydi. **Bolaning aqliy va jismoniy o'sish jarayoni tabiatdagi o'sish jarayoniga o'xshagan bo'ladi.** Masalan, bog'bon daraxtlarni parvarish qiladi, uning o'sish xususiyatlarini hisobga oladi. Xuddi shunday o'qituvchi tarbiyalash qonuniyatiga bo'ysinadi. o'qitish jarayoni tabiatga o'xshab sekinlik bilan amalga oshadi. Tabiiylik printsipida kishini tabiatning bir bo'lagi deb qarashi (xudo tomonidan bunyod etilmagan) tabiat qonunlari uning o'sishiga ta'sir etadi deyishi o'z davrida ilg'or sanaladi. Lekin kishi ijtimoiy borliq bo'lib, ijtimoiy qonun ta'sirida o'sadi.

Komenskiy, tarbiyachi boladagi iste'dodni o'stirishi kerak. Agar bola pedagogik ta'sirsiz yashasa, bu iste'dod tasodifan o'sadi. Kishi dunyoga kelganda kishiga xos iste'dodga ega bo'ladi. Xuddi olmadagi urug'ga o'xshab ba'zida ko'proq, ba'zida kamroq bo'ladi.

Komenskiy tarbiyaning tabiatga uyg'unlik masalasida hamma narsaning asosi 4 ta deydi. Masalan: Olam 4 narsadan yuzaga kelgan, ya'ni; yer, suv, havo, yorug'lik. Dunyoning rivojlanishi

ham 4 qismga bo'linadi, bular: bahor, yoz, kuz, qish. Insonning rivojlanishi ham 4 davrga bo'linadi; go'daklik, bolalik, o'smirlik, yetuklik. Shuningdek ta'lim jarayoni ham 4 ga bo'linadi; maktabgacha tarbiya, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, oliy ta'lim.

Umumta'lism g'oyasi. Komenskiy yashagan davrda hammani o'qishga tortish shart emas, qobiliyatli kishigina o'qishi kerak, degan g'oya mavjud edi. Komenskiy esa o'qishga hammaning tortilishini, hamma o'z ona tilida umum boshlang'ich ta'lim olishi kerakligini uqtiradi. Umumta'lism to'g'risida gapirganda ayollarni ham hisobga oladi. o'sha davrda xotin-qizlar uchun o'qish juda katta muammo edi, shunga qaramay, u bu masalani ilgari surdi.

Komenskiyning pedagogik nazariyasining yana bir qimmatli tomoni **o'quvchilar bilim olish tushunchasiga ega**. Oynani qanchalik chang bosgan bo'lsa ham, baribir kishi o'z aksini ko'rsatadi. o'qituvchining vazifasini oynadagi changni artib tashlash, ya'ni bilimni bola ongiga yetkazish, yani aqliy tomondan o'stirishdir, degan edi.

Komenskiy o'z asarlarida tarbiyaning maqsadini ko'rsatadi. Tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlashdan iboratdir. Buni uch xil tarbiya orqali amalga oshirish mumkin:

1. Aqliy tarbiya.
2. Axloqiy tarbiya.
3. Diniy tarbiya.

Bu maqsad bolaning tug'ilganidan to 24 yoshigacha amalga oshadi, bu davr ichida bola to'rt maktabni o'qib tugatishi, har birida 6 yil o'qishi kerak, deb hisoblaydi.

Komenskiyning bolani yosh davrlarga bo'lishi. Bunda u tabiiylik prinsipiiga amal qilib, bola yoshini 4 davrga bo'ladi.

1. Tug'ilganidan 6 yoshgacha ona maktabi. Bu davrda bolaning sezish organlarini o'stirishga, bolaning qabul qilishini, atrofdagi dunyo bilan tanishtirishga katta ahamiyat beradi. Bolani mehnatga o'rgatish, o'z-o'ziga xizmat qilishga jalb etish kerak. Ona boladagi axloqiy tarbiyaning asoslarini, to'g'rilik, haqqoniylilik, mehnatni sevish va boshqalarini vujudga keltiradi. Ona maktabi bog'cha yoshidagi bola tarbiyasini ko'zda tutadi.

2. 6-12 yoshgacha xalq maktabi yoki ona tili maktabi. Bunda o‘quvchi esda saqlashi, so‘zlashga o‘rganishi, yozish, boshlang‘ich maktab ko‘nikmasini hosil qilishi kerak bo‘lib, buning uchun geometriya, geografiya, tabiat fanlarini o‘rganishi lozim.

3. 12-18 yoshgacha - gimnaziya. Bu o‘quv yurtining vazifasi bola tushunchasini, tafakkur qobiliyatini o‘stirishdan iborat bo‘lib, unda klassik tillar, tabiat bilimlari, axloq, ilohiy fanlar o‘qitilishi kerak.

4. 18-24 yoshgacha – Universitet. Akademiya. Bu o‘quv yurtlari o‘quvchining irodasini, shaxsini bir butun o‘stirishi kerak.

Komenskiyning pedagogik nazariyasida ta’lim-o‘qitish, ya’ni didaktika katta o‘rinni egallaydi. Bunda u tabiiylik usulini asos qilib oladi. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, bunda bolaning yoshi, bilim darajasi, psixologik xususiyatlari hisobga olinib, darsni tabiat borlig‘iga moslab olib borish kerak, degan g‘oya ilgari suriladi.

Masalan: Qush o‘ziga uya yasaydi, uya issiq va yumshoq bo‘lishi kerak. Maktab ham xuddi shunday bo‘lishi kerak.

Komenskiy o‘zining “Buyuk didaktika” asarida mактабда o‘qitish tizimini amalga oshirishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilishni tavsiya etadi.

1. Ko‘rsatmalilik tamoyili;
2. Onglilik tamoyili;
3. Izchillik va tizimlilik tamoyili;
4. Mashq qilish, bilim va malakalarни puxta egallah tamoyillari.

Sinf – dars tizimi. Komenskiy o‘qituvchi butun sinf bilan jamoa bo‘lib ish olib borishini, ya’ni sinf – dars tizimida o‘qitishni olib borishni tavsiya etdi. Komenskiy sinf – dars tizimini ishlab chiqadi. Dars vaqtida o‘tgan darsni qaytarish, yangi mavzuni tu-shuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish kerakligini ko‘rsatadi. Darsni rejalashtirish va olib borish to‘g‘risida ko‘rsatmalar beradi. Har bir darsning o‘z mavzusi va o‘z vazifasi bo‘lishini aytadi. o‘qituvchi o‘quvchilarning dars mashg‘ulotlarida faol qatnashishlarini ta’minlashi, kuzatib borishi, sinfdan intizom saqlanishi kerakligini uqtiradi. o‘quv jarayonini tashkil qilishni

haddan tashqari oshirib yuborib, o‘qituvchi bir vaqtida 300 o‘quvchi bilan dars olib borishi mumkin, deb hisobladi. O‘qituvchi o‘ziga yaxshi o‘quvchini yordamchi qilib olishi mumkinligini aytadi. U mакtabda o‘quv yili va uni o‘quv choraklariga bo‘lish, ta’tillar berilishini kiritdi. O‘quv kunini (ona tili mакtabida 4 soat, lotin mакtabida 6 soat) belgilab berdi. o‘quvchilar mакtabga bir vaqtida qabul qilinib, o‘qish kuzda (sentyabrda) boshlanishi kerak, deb hisobladi.

Komenskiy darslik qanday bo‘lishi to‘g‘risida qimmatli fikrlar aytib, o‘z zamonasi uchun na’munali bo‘lgan bir necha darsliklar yozdi. O‘zining nazariy fikrlarini darsliklarida amalga oshirdi. Darslikda o‘quv materiali yetarlicha bo‘lishi, qisqa, mazmunli, tushunarli, izchil berilishi kerak. Darslik oddiy, bolalarga tushunarli tilda yozilishi, rasmlarga boy bo‘lishi kerak. Darslikdagi material muntazam tartib bilan joylashtirilishi, bolalarning yoshiga qarab ravshan bayon etilishi shart, deydi. Bu fikrlarni o‘zining “**Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi**” va “**Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari**” kabi darsliklarida bayon etadi.

“Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi” darsligini o‘zining didaktik tamoyillariga amal qilgan holda tuzdi. Darslik turli sohalarda bolalar tushuna oladigan bilimlar bilan tanishtiradi. “Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari”ni boshlang‘ich bilimlarning bolalar uchun yozilgan ensiklopediyasi deyish mumkin. 150 ta suratlar bilan berilgan qisqa maqolada tabiat haqida (olam, geografiyaga doir, o‘simliklar, hayvonlar, inson tanasi haqida), odamning faoliyati haqida (kasb-hunar, qishloq xo‘jaligi, madaniyat), ijtimoiy hayot haqida (davlat boshqarmalari, sud haqida) ma’lumotlar beradi. Bu kitob ko‘p tillarga tarjima qilindi, boshlang‘ich ta’lim uchun 150 yildan ko‘proq yaxshi darslik sifatida xizmat qiladi.

O‘qituvchining o‘rni va unga qo‘yiladigan talablar. Komenskiy o‘z davrida iste’dodsiz, ma’lumotsiz o‘qituvchilarni qattiq tanqid etdi. o‘qituvchilikni “**Yer yuzidagi har qanday kasbdan ko‘ra yuqoriyoq turadigan juda faxrli kasb**” deb hisobladi. Bu o‘qituvchiga nisbatan yangi ilg‘or qarash edi, chunki

o'sha davrda o'qituvchilik kasbiga hurmat bilan qaralmas edi. Komenskiy aholining o'qituvchiga hurmat bilan qarashini talab etishi bilan o'qituvchining o'zi jamiyatda muhim vazifani bajarayotganini tushunib olishi va o'z qadr-qimmatini yaxshi bilib olishi lozimligini uqtiradi. o'qituvchi sof vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli bo'lishi, o'z ishini sevishi, o'quvchilariga otalardek muomala qilishi, ularda bilimga havas tug'dirishi lozim. "o'zi" namuna ko'rsatib, o'quvchilarni o'ziga ergashtirishi o'qituvchining birinchi vazifasidir" - degan edi.

Komenskiyning pedagogikasi ilmiy pedagogik bo'lib, jahon madaniyatiga qo'shilgan katta hissadir. Uning qarashlari hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

2. Adolf Disterveg (1790–1866)

Atoqli nemis pedagogi Fridrix Vilgelm Adol'f Disterveg Vestfaliyadagi sanoat shaharchasi Zigenda chinovnik-yurist oilasida tug'ildi. Distervegning o'zi o'rta maktabda o'qigan chog'idayoq dogmatik ta'lidan umrbod nafratlanadigan bo'lib qolganligini aytadi. U 1808-yilda Gerborn universitetiga kirib o'qidi, matematika, falsafa va tarixni o'rgandi, so'ngra Tyubingen universitetiga o'tdi va uni 1811-yilda tamomladi, keyinroq borib esa falsafa fanlari doktori unvonini oldi.

U xalqqa ma'rifat berish ishiga o'zini bag'ishlashga qaror qildi va dastlab Mers-Reynda, so'ngra esa Berlinda o'qituvchilik seminariyalariga uzoq vaqt boshchilik qildi, ularni namunali seminariyalarga aylantirishga muvaffaq bo'ldi. Disterveg seminariyada pedagogika, matematika va nemis tilidan dars berdi, ayni vaqtda shu seminariyalar huzuridagi boshlang'ich tajriba maktablarida ham o'qituvchilik qildi. Disterveg pedagoglik sohasida samarali ish olib borish bilan bir vaqtda, adabiy va metodik ishlarini ham zo'r muvaffaqiyat bilan bajarib turdi. U "Nemis o'qituvchilarini o'qitish uchun qo'llanma" degan kitobni nashr qildirdi (1835), bu kitobda Disterveg ta'limning umumiyl vazifalarini va printsiplari to'g'risidagi o'zining progressiv qarashlarini bayon qilib berdi, shuningdek, u matematika, nemis

tili, geografiya, matematik geografiya, astronomiyaga doir yigirmadan ortiq darslik va qo'llanmalar nashr qildi; bu darsliklar va qo'llanmalar Germaniyada va boshqa ko'pgina mamlakatlarda katta shuhrat qozondi.

Disterveg hayot chog'idayoq asarlari Rossiyada mashhur bo'l-gan edi. Chunonchi, 1862-yilda uning "Elementar geometriya"si rus tilida nashr etildi; Rossiyaning ilg'or pedagoglari bu kitobni boshlang'ich maktablarda geometriya o'qitish uchun eng yaxshi qo'llanma deb hisobladilar.

Disterveg 1827-yildan to'umrining oxirigacha "Tarbiya va ta'lim uchun Reyn varaqlari" degan jurnal chiqarib turdi. U bu jurnalda pedagogikaning turli masalalariga doir to'rt yuzdan ortiq maqolasini bostirdi. Disterveg boshlang'ich maktablarning o'qituv-chilarini tayyorlash ishini tubdan yaxshilash uchun kurashdi. U nemis xalq o'qituvchilarini birlashtirish uchun juda ko'p ish qildi.

Disterveg hayot chog'idayoq "nemis muallimlarining muallimi" degan faxli unvonga sazovor bo'ldi. Disterveg umrining oxirgi kunlariga qadar progressiv ijtimoiy pedagogika ishlari bilan shug'ullandi. Disterveg vabo bilan og'rib, 1866-yilda vafot etdi. Disterveg Germaniyada toifaviy maktab tarafdorlari bilan hamma uchun barobar bo'lgan umumiyl maktab tarafdorlari o'rtaida avj olib ketgan kurashda aktiv qatnashdi. Toifaviy maktab tarafdorlari nemis xalq maorifi tizimida aholining har bir toifasi uchun alohida maktab bo'lishini (aholining eng kambag'al toifasi uchun – xalq maktabi, byurgerlar uchun – real o'rta maktabi, dvoryanlar va chinovniklar uchun – klassik gimnaziya bo'lishi) lozim deb hisoblar edilar. Hamma uchun barobar bo'lgan maktab tarafdorlari va shular qatorida Disterveg ham bolalar uchun ochiq bo'lgan maktab vujudga keltirishni talab qildilar.

Tarbiyaning mohiyati, maqsadi va asosiy prinsiplari. Disterveg umuminsoniy tarbiya g'oyasini himoya qilib chiqdi, shu g'oyaga tayanib turib, pedagogikaga oid masalalarni yuqori toifaviy va shovinistik manfaatlarni ko'zlab hal qilishga qarshi kurashdi. Uning fikricha, maktabning vazifasi "chinakam prussiyaliklar" emas, balki insonparvar kishilar va ongli grajdanzlar tarbiyalab yetishtirishdir. Odamlarga insoniyatga va o'z xalqiga

bo‘lgan muhabbat bir-biriga chambarchas bog‘langan holda rivojlantirilishi lozim. Disterveg “*in son – mening nomim, nemis – mening laqabimdir*” deydi.

Disterveg Pestalotsi singari tarbiyaning eng muhim printsipi – uning tabiatga uyg‘un bo‘lishidir, deb hisobladi. Disterveg tarbiyaning tabiatga uyg‘un bo‘lishini quyidagi mazmunda talqin qildi, ya’ni tarbiya odamning tabiiy kamol topishiga qarab olib borilishi, o‘quvchining yoshi va o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi kerak, dedi. Disterveg o‘qituvchilar bolalar diqqati, xotirasi, tafakkurining o‘ziga xos belgilarini sinchiklab o‘rganishlari kerak, deb aytdi; u psixologiyani “tarbiya to‘g‘risidagi fanning asosi” deb bildi. Distervegning katta xizmati shundaki, u pedagoglik tajribasini pedagogikani taraqqiy ettirishning manbai deb hisobladi. U mohir pedagoglarning bolalarmi tarbiyalash va bu sohadagi ish tajribalarini o‘rganish zarurligini ta’kidlab o‘tdi.

Disterveg tabiatga uyg‘un bo‘lish printsipiga qo‘srimcha ravishda tarbiya madaniy uyg‘un xarakterda bo‘lishi ham kerak, deb talab qildi.

Disterveg tarbiyaning oliy maqsadini belgilab, bu “haqiqatga, go‘zallikka va yaxshilikka xizmat qilishga qaratilgan tashabbuskorlikdir” deb aytdi.

Aqliy ta’lim. Disterveg ham Pestalotsi singari, ta’limning asosiy vazifasi bolalarning aqliy kuchlarini va qobiliyatlarini o‘stirishdan iboratdir, deb hisoblaydi. Lekin u formal ta’lim moddiy ta’lim bilan chambarchas bog‘langanligini ko‘rsatib, Pestalotsisiga nisbatan olg‘a tomon katta qadam qo‘ydi. Disterveg, umuman sof formal ta’lim bo‘lmaydi, lekin o‘quvchining o‘zi mustaqil olgan bilimlari va malakalarigina qimmatga egadir, deb uqtirdi.

Distervegning fikricha, boshlang‘ich maktabda o‘quvchilarning o‘qitilgan materialni o‘zlashtirish ustida mustaqil ishlay oladigan qilishga, ularda buning uchun malaka hosil qilishga, ularning aqliy kuch va qibiliyatlarini o‘stirishga asosiy e’tibor berilishi zarur. O‘qituvchi ko‘rsatmali o‘qitish yo‘li bilan bolalardagi barcha sezgi a’zolarini o‘stirishga alohida e’tibor berishi lozim. o‘rtalik maktabda “moddiy maqsad ham asta-sekin oldinga surila beradi” –

o‘quvchilar xilma-xil va chuqur ilmiy bilimlar bilan qurollantira beriladi.

Disterveg o‘rganilayotgan materialni ongli o‘zlashtirishga katta ahamiyat beradi. o‘quvchilarning o‘rganilgan material mohiyatini ravshan va aniq bayon qilib bera oladigan bo‘lishi shu materialning o‘zlashtirilganligini ko‘rsatuvchi belgilarning biridir. Disterveg o‘qitilayotgan materialning mustahkam o‘zlashtirilishiga ko‘p e’tibor beradi. Disterveg “o‘quvchilar o‘rganib organ narsalarni unutib qo‘ymasliklariga harakat qil” degan qoidani ilgari suradi va o‘tilgan material esdan chiqib qolmasligi uchun uni tez-tez takrorlab turishni maslahat beradi. Distervegning qoidalardan birida “asoslarni o‘rganishdan shoshilma” deyiladi.

O‘qituvchiga nisbatan qo‘yiladigan talablar. Distervegning fikricha, o‘qitish chog‘ida bolalarning tashabbuskorligini o‘stirish, ularni bilimlar bilan qurollantirish o‘qituvchi rahbarlik rolini o‘ynaganidagina mumkin bo‘ladigan ishdir. Komenskiy singari o‘qitish ishida puxta ishlangan o‘quv rejasи va yaxshi darslikning bo‘lishiga katta ahamiyat beradi. Distervegning Komenskiydan farqi shuki, u ta’limning muvaffaqiyatli bo‘lishi oqibat natijada darslik yoki metodga emas, balki o‘qituvchiga bog‘liq deb ta’kidlaydi. Distervegning fikricha, yaxshi o‘qituvchi o‘z fanini mukammal egallab organ bo‘lishi hamda o‘z kasbini va bolalarni sevishi kerak. Dars chog‘ida hamma bolalar tetik bo‘lib turishi, o‘qituvchi g‘ayrat bilan dars berib, o‘quvchilarning aqliy kuchini uyg‘otishi, ularning irodasini mustahkamlashi, ularning xarakterini tarkib toptirishi kerak. o‘quvchilar o‘zlarining ilgarilab borayotganliklarini hamisha sezib turishlari lozim. Yaxshi o‘qituvchi, – deydi Disterveg, – o‘zining tarbiya prinsiplarini qat’iyat bilan og‘ishmay o‘tkazib boradi, bu prinsiplardan hech qaytmaydi. O‘qituvchi muttasil o‘z ustida ishlashi lozim. Shundagina u o‘quvchilarni bilimlarni egallahda matonatli bo‘lishga o‘rgatadi va ularni o‘z yo‘llarida uchraydigan qiyinchiliklarni yenga oladigan qilib tarbiyalaydi. Disterveg o‘qituvchining mustahkam xarakteri va o‘tkir iroda kuchi ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. O‘qituvchi qattiqqo‘l va talabchan bo‘lish bilan birga, adolatli bo‘lishi ham kerak, faqat

shundagina u o‘z o‘quvchilari orasida obro‘ qozonishi mumkin. o‘qituvchi haqiqiy inson, mustahkam e’tiqodli bo‘lishi lozim, deydi.

Distervegning fikricha, “yomon o‘qituvchi haqiqatni aytib berib qo‘ya qoladi, yaxshi o‘qituvchi esa haqiqatni topishiga o‘rgatadi”. Disterveg o‘qituvchilarga o‘z bilimlarini qanday qilib oshirishlari to‘g‘risida bir qancha qimmatli maslahatlar beradi, o‘qituvchilarga o‘zлари o‘qitayotgan fanga taalluqli asarlarni birinchi navbatda o‘qishni tavsiya qiladi, shuningdek, o‘qituvchi tarix va adabiyotni bilishi, pedagogika, psixologiya va metodikaga doir chiqayotgan yangi asarlarni kuzatib borishi kerak, deb ta’kidlaydi. Disterveg o‘qituvchilarni amaliy pedagoglik mahorati va malakalari bilan qurollantirishga katta ahamiyat berdi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Ya.A.Komenskiyning sinf-dars tizimi nimalardan iborat edi?
2. Ya.A.Komenskiyning didaktikasi va undagi yangiliklar nimalardan iborat?
3. Adolf Distervegning hayoti va ijtimoiy-pedagogik faoliyati haqida.

V BO'LIM

XIX BOB. PEDAGOGIK MAHORAT

1. Pedagogik mahorat fanining nazariy asoslari va uning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati

Milliy mustaqillikni mustahkamlash va rivojlantirish sharoitida respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy va ma'naviy hayotida ro'y berayotgan hodisalar, uni jahon hamjihatligiga tezkor kirishini, hamda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish borasida olib borayotgan islohotlarni tezlashtirishni talab etmoqda. Buni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri mamlakat mehnatkashlarining, hususan yoshlar ta'lim, tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilarining kasb malakalari va mahoratlarini takomillashtirish ehtiyojini tug'diradi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'qituvchi va talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularning egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Zero, bugungi kunda axborotlar oqimining keskin ko'payishi, rivojlanishi, ilmiy texnikaviy taraqqiyotning jadallahuviga, mavjud pedagogik, psixologik, metodik, amaliy tayyorgarlikning ma'lum darajada "eskirishi" ga olib keldi va bu o'z navbatida pedagogik mehnat bilan shug'ullanuvchilarining kasbiy mahorati, ijodkorligini rivojlantirishga e'tiborni yanada ko'proq qaratish lozimligini taqozo etdi.

Pedagog avvalo pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo'ladi.

Mahorat-bu alohida qudrat. Mahoratga erishish ham, erishmaslik ham mumkin. Pedagogik mahoratga yetishish pedagogning muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi.

Pedagogik mahorat yuksak darajada pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi.

"Pedagogik mahorat" bir kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga ega. Olimlarning ilmiy yondashuvlari bu jarayonga nisbatan quyidagicha xulosa qilishga imkon berdi:

Pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko'rinishi sifatida tushuniladi.

Pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtayi nazaridan kishining individualligini xarakterlaydi.

Hozirgi tadqiqotlarda pedagogik mahoratning o'ziga xosligi quyidagi kategoriyalarda jamlanadi:

• Pedagogik mahorat
• Pedagogik ijod
• Novatorlik
• Kasbiy bilimdonlik
• Faoliyat uslubi
• Innovatsion faoliyat
• Pedagogik texnologiya
• Mahorat

Ta'lim - tarbiya ishlari jarayonida yuqori natijalarga erishib, ish faoliyatning yuksak darajada baholanishi va hamma tomonidan tan olinishini istamaydigan pedagog topilmasa kerak. Bunga erishishni

hamda orzu-istiklarining ushalishini pedagogik mahorat deymiz. Shu o'rinda savol tug'iladi. Mahorat nima?.

Mahorat bu – yuqori va doimo yuksalib boruvchi tarbiya va o'qitish san'atidir. Mahorat faoliyat jarayonida shakllanadi va takomillashadi. U ishbilarmonlik, zukkolik, layoqat va zehn vositasida rivojlanib boradi. Bu xususiyatlarning barchasi faoliyat jarayonida tarkib topib boradi.

"Faoliyat – deb yozgan edi, akademik A.N.Leontev – dunyoni o'zlashtirishning birinchi shartidir". Shunday ekan pedagogik mahoratni shakllantirishi va rivojlantirishda faoliyat yetakchidir. Pedagogik mahoratni egallashda o'qituvchining pedagogik faoliyati asosiy ro'l o'ynaydi. Pedagogik mahorat pedagogik faoliyat bilan uzviy bog'liqidir. Pedagogik faoliyat o'qituvchining kasbiy mahorati va mehnati orqali qo'lga kiritiladi, mehnat esa, faoliyatning tarkibiy qismlari (o'qish, ijtimoiy ish, o'yin, sport mashg'ulotlari va h. k.) dan biri hisoblanadi. Shu asosda pedagogik faoliyat o'qituvchi mehnatining istiqboli, texnologiyasi, vazifalari va ta'sir ko'rsatish usullarining majmuidir. Pedagogik mahoratni shakllantirish muayyan sohani mukammal egallah, nazariy, amaliy ma'lumotlarga to'liq ega bo'lish, kasbiy tayyoragarlik ustida tinmay ishlashdan iborat. Pedagogik mahoratning betakror, noyob, mohir ustasi bo'lish uchun o'qituvchi – tarbiyachiga ilhom, ijod va o'z kuchiga ishonch bo'lishi kerak. Mana shu ilhom, ijod va ishonchni yo'lga qo'yuvchi, uning imkoniyatlarini to'la ishga soluvchi kuch faoliyatdir. Pedagogik mahoratni shakllantirishda pedagogik faoliyat muhim o'rin tutadi. Faoliyat to'la ma'noda usullar, xolatlar, shakllarning umumlashgan tizimidan iborat bo'lib, u xar xil sharoitlarda ham mavjud bo'ladi. Har qanday faoliyat singari o'qituvchilik faoliyati ham maqsad, usul, vosita, obyekt va subyektdan iborat.

Pedagogik maqsad – o'qitish, tarbiyalash va shu asosda talabalar shaxsini shakllantirishdan iborat. Usul esa tarbiyalanuvchilar obro'sini egallah, hurmatiga sazovor bo'lishi va ta'sir ko'rsatishdir. Pedagogik mehnatning obyekti sifatida – o'qituvchi shaxsi turadi, uning xarakteri, irodasi, ongi, aqli, odob – axloqining asosi hisoblanadi. Pedagogik faoliyat subyekti esa –

tarbiyalanuvchiga ta'sir ko'rsatuvchi – pedagogning o'zi. Chunki, u o'quvchi – talabalarga tabiat, jamiyat, tafakkur qonunlari to'g'risida ma'lumot berish uchun, avvalo, ularni o'z faoliyatining obyektiga aylantiradi. Shu tariqa bilimlar o'zlashtiriladi, o'zlashtirilgan bilimlar o'quvchi - talabalarga yetkaziladi. Pedagogik mahorat – bu o'qituvchi – tarbiyachining kasbiy va shaxsiy faoliyati natijasining umumlashmasi sifatida, muayyan bilim, ko'nikma, malakalar yig' indisidan iborat.

Pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi – talabalarda o'qish, o'qitish, tarbiyalash jarayonida diqqatlarini aniq taqsimlash, bilim, ko'nikmalarini, psixik holatlarini boshqara olish va pedagogik texnika madaniyatini o'zlashtirish malakalarini shakllantiradi.

Albatta, bu malakalarni shakllantirishda uzuksiz ta'lim tizimining turlari, ayniqsa, oliv ta'lim muassasalarining o'rni beqiyos. O'zining aql – zakovati, ilmiy salohiyati, ma'naviyati, madaniyati bilan milliy istiqlol g'oyalarini mustahkamlashda, ozod va obod Vatanni qurishda yonib yashaydigan shaxs bo'lib shakllanadi va ta'lim islohotlari hujjatlarida belgilangan vazifalarini bajarishga o'z hissasini qo'shamdi. Shunday qilib, insonning ma'naviy yuksalishi, hayotiy tajribasi, bilimi, xatti-harakati, odob – axloqi, kasbiy mahorati, shakllanib takomillashib boradi. Bu esa pedagoglarning kasbiy mahoratini shakllantirishning ilmiy, nazariy, amaliy jihatdan o'qitishni yanada yuksaltirish, uning samaradorligini oshirishga da'vat etadi.


O'qituvchilik kasbi murakkab va mas'uliyatli kasbdir. Ushbu kasbning sharafliligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo ongning yagona sohibi bo'lgan inson bilan muloqotda bo'ladi. Ongli va tirik jonzot esa aqliy, ruhiy, hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo'ladi. Shuning uchun, o'quvchi bilan doimo muloqotda bo'lganda, unga ta'sir ko'rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya, tarbiya nazariyasi kabi fanlarni mukammal o'rganib, o'z kasbiy mahorati ustida muttasil ish olib borishi kerak. Bu o'qituvchidan pedagogik, psixologik va metodik tayyorgarlikni talab etadi. Darhaqiqat, har bir yosh mutaxassisni puxta ilmiy, nazariy bilimlar bilan qurollantirish, egallagan ilmiy

bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llash, ko'nikma va malakalarga ega qilish, tarbiyalash albatta oson ish emas.

O'qishga ilmiy, ongli munosabat bilan qaraydigan, mustaqil fikrlaydigan, mukammal ma'lumotlarni egallagan, aqliy mehnat madaniyatini o'zida mujassamlashtirgan yoshlarni voyaga yetka-zish muhim va davlat ahamiyatidagi vazifadir. Buning uchun:

1. Pedagog – kasbiy faoliyatning pedagogik yo'nalishlarini aniq belgilay oladigan shaxs bo'lishi lozim. Bu esa o'z navbatida jamiyatning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, pedagogik mahorat asoslarining zamonaviy pedagogikaning ilg'or g'oyalari zaminida shaxsga insonparvarlik nuqtayi – nazaridan yondoshish imkonini beradi.

2. Pedagog – pedagogik jarayonni aniq tashkil qilishi, bosh-qarishi, kutilayotgan natijalarni oldindan loyihalashi va uni ro'yoga chiqarish texnologiyasini, shuningdek, pedagogik jarayonda vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarni oldindan ko'ra bilishi va ularni bartaraf etish uchun tayyor bo'lishi kerak.



Buning uchun o'qituvchidan pedagogik mahorat talab qilinadi. Pedagogik mahoratni shakllantirishning bиринчи шарти, faoliyatdir. Faoliyatga intilish har bir kishida juda barvaqt paydo bo'ladi va hayot davomida takomillashib boradi, insonga qoniqish, mammuniyat bag'ishlab, kasbning haqiqiy egasi va maftunkori bo'lishga zamin yaratadi. O'qituvchining bunday faoliyatiga quyidagilar kiradi.

Uzluksiz ta'lim tizimini amalgalash oshirish jarayonida yosh avlodga ta'lim berish va tarbiyalash g'oyat murakkab va ko'p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar bilan amalgalash oshirish mumkin. Shuning uchun, o'qituvchilik kasbiga, ya'ni sog'lom avlod uchun chinakam murabbiy bo'lishga havasi, ishtiyobi zo'r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalgalash oshirib boruvchi, mustaqillik g'oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirilgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar.

Pedagogik mahorat tug'ma talant yoki nasldan – naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki uning negizida izlanish va ijodiy mehnat yotadi. Shunga asosan pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi. Bu jarayonda ilg'or o'qituvchining pedagogik mahorati va tajribalarini boshqa o'qituvchi o'rganishi, undan ijodiy foydalanishi va o'z faoliyatini ilg'or tajribalar bilan boyitishi zarur.

2. Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning pedagogik – psixologik tasnifi

Muvaffaqiyatli ishslash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Qobiliyat hamma insonlarda mavjud bo'lib, bir tekisda bo'lmay, biri yuqori biri o'rtalig'ida va biri quyi darajadan iboratdir. Faqat aqli zaif insonlarda qobiliyatni uchrata olmaymiz. Maktab o'qituvchisining faoliyati inson shaxsini tiklantirishga qaratilgan. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo

bo'ladi va rivojlanadi, qobiliyatni rivojlantirish esa layoqat, zehn, iste'dod ya'ni inson asab tizimida anatomik – fiziologik xususiyat bo'lishi ham zarur. O'qituvchining ba'zi psixik protsesslari unda shaxsga xos sifatlarining shunday kompleksini tashkil qiladiki, buni pedagogik qobiliyat deb atash mumkin.

O'qituvchilik faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgandir. O'qituvchining barkamol insonni tarbiyalash, unda milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarkib toptirish, yuksak va shu bilan birga eng murakkab vazifadir. O'qituvchi (pedagog, muallim, ustoz) – maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan va pedagogik faoliyat bilan (professional) shug'ullanuvchi inson. O'qituvchilik kasbini tanlagan inson hamma narsani biladi va hamma narsaga javobgar. O'qituvchilik vazifasi uning har bir o'sib kelayotgan avlod, jamiyat, davlat taqdiri uchun javobgarligi bilan xarakterlanadi. O'qituvchi ta'lim–tarbiya jarayonining assosiy tashkilotchisidir. O'quvchilarning umumiyligi tayyorgarlik darajasi asosan o'qituvchiga, uning kasbiga, iymon–e'tiqodi bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun o'quvchilar tarbiyasiga oid pedagogik ishlari maxsus uyushqoqlik hamda muayyan malaka va ko'nikmalarnigina emas, balki pedagogik qobiliyatlarini darajasiga taalluqli bo'lgan psixik xususiyatlari ham mavjud bo'lishi kerak.

Qobiliyat – shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ishini muvaffaqiyatli bajarishdagi subyektiv shart – sharoitini ifodalovchi individual psixik xususiyatlariidir. O'qituvchining kasbiy faoliyati favqulotda umumiyligi va xususiy qobiliyatlarini talab etadi. Kasbiy pedagogik faoliyatning muaffaqiyati, xususiy pedagogik qobiliyatlarga bog'liq bo'ladi. Pedagogik qobiliyatlarning quyidagi guruhlari farqlanadi:

- O'quvchiga nisbatan sezgirlik;
- Kommunikativlik – insonlarga yuz tutish, xayrxohlik, xushmuomilalik;
- Perseptiv qibiliyatlar – kaspiy yetuklik, empatiya, pedagogik tuyg'u;
- Shaxs dinamikasi – irodaga ta'sir eta olish va mantiqiy ishontira olish qobiliyati;

- Hissiy barqarorlik – o‘zini boshqara olish;
- Kreativlik – ijodiy ish qobiliyati.

Pedagogning xususiy qobiliyatlariga bilish, malaka va ko‘nikmalarini egallash faoliyati va shaxsni tarbiyalash qobiliyati ham tegishlidir.

O‘qitish, o‘rganish va o‘rgatish bo‘yicha qobiliyatlariga quyidagilar kiradi:

– O‘quvchini tushunishini ko‘rish va sezish hamda bunday tushinishning darajasini va xarakterini o‘rganish qobiliyati;

– O‘quv materialini mustaqil tanlab olish hamda o‘qitishning samara beruvchi usul va metodlarini belgilash qobiliyati;

– Materialni yetarli bayon qilish hamda uning barcha talabalarga tushunarligini ta’minlash qobiliyati;

– Talabalarning individualligini hisobga olgan holda o‘qitish jarayonini tashkil etish qobiliyati;

– O‘qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish qobiliyati;

– O‘quvchilaning katta odimlar bilan rivojlanishini tashkil etish qobiliyati;

– O‘zining pedagogik mahoratini takomillashtirish qobiliyati;

– Mustaqil ta’lim olish va mustaqil takomillashish qobiliyati.

Pedagogik jarayonga qaratilgan pedagogik qobiliyatlariga quyidagilar kiradi:

– Boshqa insonning ichki holatini to‘g‘ri baholash, unga hamdardlik bildirish, hamnafas bo‘la olish qobiliyati (empatiya qobiliyati);

– Taqlid qilish uchun na’muna bo‘lish qobiliyati;

– Tarbiya jarayonida individual xususiyatlarini inobatga olish qobiliyati;

– Muloqatning lozim topilgan uslubini hamda o‘z o‘rnini topish, kelisha olish qobiliyati;

– Hurmat qozonish, ya’ni talabalar o‘rtasida obro‘ga ega bo‘lish qobiliyati.

Pedagogik qobiliyatlar ichida pedagogik muloqatga bo‘lgan qobiliyat alohida ajralib turadi.

O‘qituvchining talabalar bilan davomiy va samarali aloqalarini tashkil etishni kommunikativ qobiliyat bilan bog‘laydilar.

Kommunikativ qobiliyat – bu pedagogik o‘zaro aloqalar doirasida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladigan muloqot qobiliyatidir.

Hozirgi jamiyatimizda o‘qituvchining mustaqil ravishda bilimlarni egallab, o‘z malakasini oshirib borishi – bir tomonidan o‘qituvchilik faoliyatining borgan sari naqadar muvaffaqiyatli borayotganligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomonidan muhim vazifa ekanligidan dalolat beradi – chunki bu kechiktirib bo‘lmas jarayon shaxsni intellektual qashshoqlikdan qutqarib qoladi. Psixologik nuqtayi nazardan o‘qituvchi doimiy ravishda o‘z bilimlarini oshirishi bilan shug‘ullanishi zarurdir. Chunki o‘qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog hamma vaqt odamlar orasida bo‘larkan, u odamlarni ko‘pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o‘z qarashlari bo‘yicha to‘g‘ri tushuntirib berishi lozim.

4. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish – kommunikativ qobiliyatning asosiy usuli sifatida

Pedagogik ta’sir ko‘rsatish – tarbiyalanuvchiga ongli intizom va mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilish, tarbiyani ma’lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta’sir ko‘rsatish, jamiyatning ijtimoiy–tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning xulq–atvori va dunyoqarashini takomillashtirish, yosh avlodni muayyan maqsad asosida tarbiyalash, ijtimoiy ong va xulq–atvorni xalqimizning boy mafkuralari asosida shakllantirishga yo‘naltiligan faoliyat jarayonidir. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma’naviy boyligi va his-tuyg‘ulari rivojlanadi, unda ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo‘ladi. Ta’lim va tarbiya jarayonida o‘qituvchi tomonidan

pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullariga: talab, istiqbol, jamoatchilik fikri, rag'batlantirish va jazolash kabilar kiradi.

Pedagogik munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o'qituvchi:

- o'quvchilar bilan bo'lajak munosabatni modellashtira olishi;
- munosabatda bo'ladigan sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan bilishi;
- bevosita samimiy va hamjihatlikka asoslangan munosabat o'rnatish;
- munosabatda ustunlikka ega bo'lib, uni demokratik talablar asosida oqilona boshqarish;
- munosabatning ijobiy va salbiy jihatlarini uzluksiz tahlil etib borishi lozim.

Ijtimoiy – psixologik tekshiruvchilar pedagogik muloqot malakasida ikkita asosiy kommunikativ ta'sir etish turlarini ajratadilar: ishonch hosil qilish va ishontirish. Pedagogning har bir harakati tarbiyalanuvchining munosabatlari, fikrlari, hissiyotlari, faoliyatlarini shakllantirishga, ya'ni ularning psixikasi va xulqiga har tomonlama ta'sir etishga qaratiladi. Lekin ishonch hosil qilish va ishontirishning psixologik jarayoni turlichadir. Ta'sir etishning har bir yo'li o'z spetsifik xarakteriga ega. Ishonch hosil qilish yangi qarashlar, munosabatlarni shakllantiradi, noto'g'ri qarashlar va munosabatlarni o'zgartiradi. Ishonch hosil qilish shakllariga: disputlar, diskussiya, suhbat, o'qituvchi himoyasi, shaxsiy namuna kiradi.

Ishonch hosil qilishda o'zaro ta'sir qilish metodi sifatida maksimal ta'sirli bo'lishi uchun, u bir qancha shartlarga rioya qilish kerak:

- ishonchning mazmuni va shakli bolalarning yosh xususiyatlariga mosligi;
- ishonch hosil qilish tarbiyalanuvchining shaxsiy dunyoqarashiga mosligi;
- tarbiyachi bolalarda ishonch hosil qilishda avvalo o'zi shu narsaga nisbatan ishonch hosil qilishi.

Ishonch hosil qilishning natijasi o'qituvchining so'zlarini va harakatlariga ham bog'liq. Tarbiyachining so'zi va harakatlari

bir-biriga mos tushishi kerak. Masalan, tarbiyachi jahl ustida bolaga qattiq jazo berishini aytadi, lekin esidan chiqib ketadi. Yoki biror nima va'da qilib, o'z so'zining ustida turmaydi. Bolalar bunday pedagogning so'zlariga ahamiyat bermay qo'yadilar. Yanayam yomoni, agar o'qituvchi balandparvoz, to'g'ri so'zlarni gapirsa – Yu, lekin kundalik hayotida bunga amal qilmasa bunday o'qituvchilar jamiyatga zarar yetkazadilar. Ishontirishning yuqori effekti o'quvchilarning olgan bilimlarining mustahkamlaydigan mashqlari (ruhini tetiklash, to'g'ri xulq hosil qilish) orqali hosil bo'ladi. Ishontirishning usulini boshqatdan tarbiyalash, ya'ni qarash va muomalarни hosil qilish maqsadida qo'llash mumkin. Isbotlash shaxs dunyoqrashining yetakchi struktura elementi bo'lib, ishontirishning o'zagi bo'lgan bilimlar hisoblanadi. Isbot orqali bilim egallayotgan o'quvchida unga to'g'ri kelmaydigan hamma ishontirishni qattiqqo'llik, isbotlash yo'li bilan qaytara olish qobiliyati rivojlanadi. Pedagogik ta'sir qilish usuli bo'lgan ishontirish bilan birga pedagogik jarayonda ta'sir etish ham o'ziga xos o'rniqa ega. Ta'sir etish – odamlarning ish va muomala jarayonida bog'liqlikni belgilaydigan vositalarning biri. Uning asosiy o'ziga xosligi shundaki, u odamning psixikasiga va xarakteriga o'zi bilmagan holda ta'sir qiladi, shaxsning psixika strukturasiga nazoratsiz holatda kirib, kundalik ishi, xarakterida ko'rindi.

4. Pedagogik muloqotni tashkil etish yo'llari

Ta'kidlash joizki, o'qituvchining pedagogik faoliyatida o'quvchilar bilan olib boradigan muloqoti muhim ta'lim–tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu pedagogik muloqotning butun tizimida uning ma'naviy mazmundorligini oshirishni talab etadi, zero aynan pedagogik muloqot, ta'lim – tarbiyaning ma'naviy asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Ijtimoiy, psixologik, tarbiyaviy va ma'naviy vazifalarning murakkabligi o'qituvchining kommunikativ faoliyatiga yuksak talablarni qo'yadi.

O'qituvchi kasbiy faoliyatida yuksak pedagogik va psixologik natijalarga erishishi uchun, ko'p yillik nazariy va amaliy tajribalar asosida tadqiqotchi olimlar tomonidan taklif etilgan muloqotning quyidagi yo'nalishlaridan foydalanish tavsiya etiladi:

1. **Prognostik yo'nalish.** O'qituvchining muloqotga bevosita tayyorgarlik jarayonida o'quvchilar bilan bo'lajak har qanday muloqot turini modellashtirish.

2. **Muloqotning boshlang'ich yo'nalishi.** O'quvchilar bilan dastlabki muloqotni tashkil etish jarayonidayoq bevosita o'zaro ta'sir metodlaridan foydalanib, tashabbuskorlikni qo'lga olish.

3. **Muloqotning uchinchi yo'nalishi.** Tobora takomillashib, rivojlanib borayotgan pedagogik faoliyatda muloqotning turli texnologik shakllaridan unumli foydalanish va uni boshqarish.

4. **Muloqotning to'rtinchi yo'nalishi.** Keyingi pedagogik faoliyat uchun olib boriladigan muloqot tizimini modellashtirish va muloqotning amalga oshirilgan tizimini doimiy tahlil qilib borish. Pedagogik ta'sir ko'rsatish vazifalari va vositalari hamda o'qituvchining o'quvchilar bilan pedagogik muloqoti quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- Kommunikativ muloqot
- Interaktiv muloqot
- Perseptiv muloqot.

1. **Kommunikativ** muloqotda bir tomonlama axborot uzatiladi. Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashuvini qamrab olgan bo'lib, kommunikativ muloqot sifatida tavsiflanishi mumkin. O'qituvchi va o'quvchi birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muloqotning muhim vositalari bo'lmish til va nutq faoliyati bevosita muhim ahamiyat kasb etadi.

2. **Interaktiv** muloqotning muhim jihatni ikki tomonlama bir-biriga ta'sir etishdir. Muloqotga kirishuvchi o'qituvchi o'zaro ta'sir etishda, ularning tarbiyaviy faoliyatiga nafaqat so'z orqali, balki fikr almashinuv, xatti-harakat va xulq-atvori bilan o'zaro ta'sir o'tkazishi tushuniladi.

3. **Perseptiv** muloqotda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi o'zaro bir-birlarini idrok qilishi, anglashi tushuniladi.

4. Bunda muloqotda kirishuvchilar o‘zaro bir-birlarini idrok qilish asosida ulardan biri ikkinchisining ishonchini qozonadi, aqli, farosatli, tajribali, yuksak tayyorgarlikka ega barkamol shahs sifatida idrok qilinadi.

Muloqotning har uchala tomonini yaxlit olib qaraganda o‘zaro hamkorlik faoliyatini tashkil qilishning usullari va unda ishtirok etuvchilarining munosabatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Pedagogik muloqot muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan xamkorlik faoliyatiga chuqr kirishib keta olishi, shaxsni har tomonlama shakllantirishning maqsad va vazifalarini chuqr anglab, faoliyat olib borishi lozim.

Jonli muloqot-o‘qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta’lim-tarbiyaviy tadbir mohiyatini og‘zaki so‘z bilan o‘quvchilarga yetkazadigan, ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo‘lgan faoliyatdir. O‘qituvchi pedagogik mahoratida mujassamlashgan nutqning jozibadorligi, bilim saviyasining va tafakkurining kengligi, o‘tkir dunyoqarashi, ma’naviy madaniyat darajasi, pedagogik qobiliyati, ta’lim-tarbiyaviy maqsadlarning mutanosibligi har qanday dars va darsdan tashqari ta’lim-tarbiyaviy tadbirning muvaffaqiyatini ta’minlovchi hamda o‘qituvchi jonli muloqotini tashkil etuvchi omillardir. O‘qituvchi kasbiy faoliyatidagi jonli muloqot qobiliyatini takomillashtirish uchun o‘z oldiga doimo quyidagi savollarni qo‘yib, unga mustaqil fikr-mulohazasi asosida javob bera olishi kerak.

O‘qituvchining muloqot usullari. Avtoritar usulda faoliyat olib boradigan o‘qituvchi ish faoliyati xarakterida quyidagi xususiyatlar mujassamlashgan bo‘ladi:

- o‘zi yakka holda guruh faoliyatining yo‘nalishlarini belgilaydi;
- ta’lim-tarbiyaviy jarayonga javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi;
- o‘quvchilarning unga so‘zsiz bo‘ysunishini da‘vo qiladi;
- qattiq intizom asosida ish olib boradi;
- topshiriqlarning to‘liq bajarilishini talab qiladi;
- gap qaytargan, fikr bildirgan o‘quvchini yoqtirmaydi;

- o'quvchilarga biror muammoni to'liq tushuntirmasdan talab qiladi.

Demokratik usul asosida faoliyat olib boradigan o'qituvchining bosh shiori o'quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko'nikmalarini va ongli intizomni hosil qilishdan iborat. O'qituvchining muloqoti barcha demokratik talablar asosida quriladi. Liberal usul asosida faoliyat olib boruvchi o'qituvchi xususiyatlariiga sho'rolar zamonidan qolgan talim-tarbiya tizimga xos mafkuraviy qarashlar mujassamlashgan. O'qituvchining pedagogik faoliyati va xarakterida quyidagi xususiyatlar mavjud:

- tashabbussiz, eski qolipda pedagogik faoliyat olib boradi;
- ta'lim - tarbiyaga oid muammolarga yuzaki qarab chiqadi;
- o'z mustaqil fikriga ega emas, javobgarlikdan o'zini olib qochadi;
- o'quvchilarga berilgan topshiriqlarning natijalari bilan qiziqmaydi;
- o'quvchilar kelajagiga, taqdiriga e'tiborsiz, beg'am qaraydi;
- o'z pedagogik faoliyatiga sovuqqonlik bilan munosabatda bo'ladi.

5. Pedagogik texnika

Hozirgi zamon pedagogika fani o'qituvchining pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning ro'li beqiyos deb biladi. Chunki u o'qituvchiga o'z gavdasini tuta bilish (mimika, pontamimika) his-tuyg'ularini (emotsiyasini) boshqara olish, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallash va ularni o'quv faoliyatida, o'qishdan tashqari ishlar jarayonida qo'llash yo'llarini tushuntiradi.

O'qituvchining pedagogik texnikasi tizimida mimik, pantomimik ifodalar ham muhim o'rinni tutadi. Pedagogning mimik va pantomimik ifodasi, o'qituvchining imo-ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassumida namoyon bo'ladi va ular o'quvchi, tarbiyachining pedagogik ta'sir

ko'rsatishida, o'quvchi mashg'ulotlarini samaratli va mazmunli o'tishi uchun puxta zamin yaratib beradi.

Mimika bu - o'z fikrlari, kayfiyati, holati, hissiyotini yuz muskullarining harakati bilan bayon qilish san'atidir. Ba'zan yuzning va nigohning ifodasi o'quvchilarga katta ta'sir ko'rsatadi. Mimik harakatlar, ifodalar ma'lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtirish imkonini beradi. O'quvchilar o'qituvchiga qarab uning kayfiyatini, munosabatini "o'qib" oladilar. Shuning uchun uydagi ba'zi noxushliklar o'quvchi mashg'ulotlariga o'z ta'sirini ko'rsatmasligi kerak. Yuz ifodasida, mimik belgilarida faqat dars mashg'ulotlariga o'z ta'sirini ko'rsatmasligi kerak. Yuz ifodasida, mimik belgilarga faqat dars mashg'ulotlariga xos bo'lgan, o'quvchi tarbiya topshiriqlarini yechishga yordam bera oladigan ko'rinishlarni ifodalashi lozim. Yuz ifodasi, nutq, munosabat xarakteriga mos bo'lishi kerak. U ishonch, ma'qullash, ta'qiqlash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, ikkilanish kabi xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Mimik ifodaning asosiy detali sifatida qosh, ko'z, yuz ko'rinishi ishtirot etadi. Ko'z, qosh, yuz o'quvchilar javobidan qoniqish, xursand bo'lish, faxrlanish yoki e'tirof, norozilik, qoniqmaslik, hafa bo'lish va boshqa belgilarni ifodalasa o'qituvchilar diqqatini bo'lmasdan, boshqalarga halaqit bermasdan o'quvchi-tarbiya ishlarini olib borishga yordam beradi. Shuni ham alohida qayd qilib o'tish joizki, mimik ifodalar namoyish qilinayotgan paytda o'qituvchining nigohi o'quvchilarga, yoki ayrim o'quvchiga qaratilgan bo'lishi zarur. Doskaga, eshikka, derazaga, ko'rgazma qurollarga yoki devorga nigoh tashlab mimik ifodalarni namoyish qilishdan ochish lozim.

Pantomimika – bu gavda, qo'l, oyoq harakatidir. O'qituvchi darsda o'quvchi ma'lumotlarini bayon qilar ekan, gavda holati orqali ma'lumotlarning obrazini chiza olsa, o'quvchilar bundan zavqlanadilar, ichki his-tuyg'ulari, tashqi hissiyotlari bilan qo'shilib butun borliq materiallar mazmunini o'zlashtirishga qaratiladi. Gavdani rost tutib yura bilish, fikrlarini aniq va to'liq bayon qila turib qo'l, boshni turli harakatlarda ifodalash o'qituvchining o'z bilimiga, kuchiga ishonchini bildiradi. Shuning

uchun o'qituvchi o'quvchilar oldida o'zini tuta bilish holatini tarbiyalash lozim (oyoqlari 12-15 sm. kenglikda, bir oyoq sal oldinga surilgan holda turish). O'qituvchining harakatlari ma'noli, ortiqcha harakatlardan holi bo'lmos'i darkor.

Masalan: keraksiz hollarda qo'llari bilan imo – ishoralar qilish, boshini uyoq – buyoqqa tashlash va h.k. Bunday holatlar o'quvchilarning g'ashini keltiradi va o'quvchi predmetiga, o'qituvchiga nisbatan hurmatsizlik his-tuyg'ularini uyg'otadi. O'qituvchi sinda yurgan paytida faqat oldin va orqaga yurishi tavsiya qilinadi. U yondan, bu yonga yurish o'quvchilar fikrini bo'ladi. Old tomonga yurayotganida o'qituvchi muhim voqealarni bayon qilishi lozim, chunki bunda o'quvchilar o'qituvchini butun diqqatlari bilan eshitayotgan bo'ladi. Orqa tomonga qarab yurayotganda uncha ahamiyatga molik bo'laman fikrlar aytilsa ham bo'ladi. Chunki bu vaqtida o'quvchilar bir oz erkin holatda bo'ladi.

O'qituvchining o'z xatti-harakatini idora qilishi tizimida o'z hissiy (psixik) holatini boshqara olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi ta'sir ko'rsatish vaqtida (darsda, darsdan tashqari mashg'ulotlar paytida, tarbiyaviy ishlar jarayonida) o'z hissiyotini boshqara olishi, jiddiy bo'lishi, umidbaxshlik, xayrxohlik kayfiyatda bo'la olish qobiliyatlarga ega bo'lishi zarur. Bir adib aytganidek, "Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin" va o'qitsin. Bunday malakaga ega bo'lgan pedagog o'z-o'zini nazorat qila oladi, ko'p yillik faoliyati davomida sog'lom asab tizimini o'zida tarbiyalab asabiyashishdan, hissiy va aqliy zo'riqishlardan o'zini saqlay oladi. O'z xatti-harakatini, hissiy holatini nazorat qilishda pedagog o'zida quyidagilarni shakllantirishi lozim:

- o'z xulqini nazorat qilish, (muskul zo'riqishini, harakati, nutq tempi, nafas olishini tartibga solish):

- faoliyatni dam oldirish, ya'ni lirik, musiqaviy, humoristik, jismoniy pauzalarni yaratish:

- o'z-o'ziga salbiy ta'sir ko'rsatish va hokazo.

O'qitish samaradorligini oshirish va ijobjiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun o'qituvchi aktyorlik va rejissyorlik malakalariga

ham ega bo‘lishi lozim. Ma’lum mavzular, obrazlar, tarixiy qahramonlarni xarakterlayotganda aktyorlik, o‘quvchilarda ushbu xususiyatlarni tarbiyalashda esa rejissyorlik malakalari zarur. Yuqorida qayd qilib o‘tilgan kasbkorlik malakalari o‘qituvchining o‘quv va maxsus fanlar bo‘yicha bilimlari, pedagogik mahoratni egallahsga intilish, o‘z kasbiga qiziqish va burch, hamda ma’suliyatni his qilish asosida egallanadi. Va ular yoshlarni o‘qitish, tarbiyalash, tashkil qilish, targ‘ibot qilish, mustaqil bilim olish ishlariga yordam beradi. Masalan, nutq texnikasini, his – tuyg‘u, mimik, pantomimik malakalari bilan qo‘sib olganda amalga oshirish bunda so‘z, gap ohangi, qarash, imo – ishora bilan, kutilmagan pedagogik vaziyatda osoyishtalik bilan aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatiga asoslansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu xususiyatlar pedagogning individual psixik fiziologik fazilatlari asosida tarkib topadi. Individual pedagogik texnika o‘qituvchining yoshi, jinsi, mijozи, fe'l – atvori, sihat – salomatligi va anatomik – fiziologik xususiyatiga bog‘liqdir. Shunday qilib, o‘qituvchi – tarbiyachi o‘zida yuqoridagi malakalarni tarbiyalasa, ularning mazmunini chuqur o‘zlashtirsa pedagogik texnikani egallahshning imkonni bo‘ladi va u o‘qituvchini pedagogik mahorat sari yetaklaydi.

6. Pedagogik texnikani egallahsh yo‘llari

Pedagogik texnikani egallahsh uchun avvalo, o‘qituvchi o‘z fanini, o‘qitadigan predmetini, pedagogika, psixologiya fanlarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi, kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini tarbiyalay oladigan bo‘lishi zarur. Chunki pedagogik texnika individual kasbiy xususiyatga ega. Birinchidan har bir o‘qituvchi, har bir tarbiyachi o‘zining kasbiy yo‘nalishiga ega. Bu yo‘nalish o‘qituvchini mustaqil fikr yuritish, mustaqil ijod qila olish orqali qo‘lga kiritiladi va mohir o‘qituvchiga xos fazilatlarni tarbiyalaydi.

Ikkinchidan pedagogik texnikani tashkiliy – metodik malakalarni egallahsga bog‘liq. Bu malakalar zarur bilimlar bo‘yicha ma’ruzalarni tinglash, maxsus adabiyotlarni o‘qish orqali qo‘lga kiritiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yo‘l – yo‘riqlar,

ko'rsatmalarni o'zining individual kasbiy tajribasida sinab ko'nikma hosil qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Tashkiliy-metodik malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo'lib ishlash, o'qish, faoliyat ko'rsatish asosida qurilgani ma'qul. Chunki guruh yoki jamoa bo'lib o'qish, ishlash har bir pedagogga o'zini boshqalar ko'zi bilan ko'rishni, faoliyatidagi nuqsonlarni sezalishni, muomala va hulq-atvorning yangi shakllarni izlab topish va sinash imkonini beradi. Bu esa o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini tarbiyalash uchun asos bo'ladi va pedagogik vazifalarning yangi usullarini tekshirib ko'rish, nazariy masalalarini hal qilish uchun tajriba maydoni bo'lib qoladi. Demak, tashkiliy-metodik malakalarni egallahda guruh, jamoa faoliyati, mashg'ulotlari pedagogik texnika asoslarini egallah imkonini beradi.

Uchunchidan pedagogik texnikani egallagan-har bir pedagog individual dasturini ishlab chiqmog'i lozim. Bunday dasturni tuzishdan oldin pedagogik texnika malakalarini shakllanganligining boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur. Ya'ni pedagogning dastlabki o'quv-tarbiya ishlaridagi natija, nutq madaniyatining to'g'ri yoki noto'g'ri qo'yilishi, mimik va pantomimik aniqliklar va hokazo. Bunda natija yaxshi bo'lsa, kelajakda pedagogik texnikani egallah ancha oson bo'ladi. Chunki ushbu ko'nikma va malakalarni rivojlantiradi. Individual dastur pedagogik texnika malakalarining yetishmaydiganini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Bu dastur ma'lum mashqlar yoki mashqlar majmuini o'z ichiga oladi. Shuni ham unutmaslik lozimki, pedagogik jarayonda pedagogning umumiy madaniyati, ma'naviy va estetik dunyo-qarashi muhim o'rinn tutadi. Agar o'qituvchining nutqi qashshoq, so'zlarni talaffuz qilish qobiliyatli past, estetik jihatdan omil, bo'lar-bo'lmasga hissiyotiga erk beradigan bo'lsa tarbiyalanuv-chilarning e'tiqodiga, aql-idrokiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, o'qituvchi o'zidagi ana shu nuqsonlarni qayta tarbiyalashi lozim ekan. Bu pedagogik texnikani egallahning to'rtinchisi yo'lidir. Shunday qilib, pedagogik texnika, uning malakalari, egallah yo'llari to'g'risida bildirgan fikrlarga e'tibor bermaslik, pedagogik faoliyat jarayonida ularning roliga yetarli baho bermaslik, shuningdek pedagogik texnika malakalarini tanqidiy, har bir

pedagogning individual xususiyatlarini hisobga olmay ish yuritish pedagogik mahoratni egallahsga salbiy ta'sir ko'rsatadi va o'quv tarbiya ishidagi nuqsonlarning ko'payishiga olib keladi. Pedagogik texnikani egallahshning asosiy yo'llari o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rghanish) va mustaqil ishslash (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash) dir. Pedagogik texnika malakalarining individual – kasbiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallahshda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni mohir o'qituvchi kasbiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi ro'l o'ynaydi, deb aytish mumkin. Tashkiliy – metodik jihatdan pedagogik texnika mashg'ulotlari individual, guruhiy yoki ketma-ketlikda o'tkazilishi mumkin. Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda guruhiy ish olib borish alohida rol o'ynaydi. Pedagogik texnika mashg'ulotlarining bu shaklini ancha batafsilroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar o'qituvchilar uchun mo'ljallangan o'quv va metodik adabiyotlarda lozim darajada ko'rsatib berilmagan. Xuddi shunday ishda pedagog oldida o'zini boshqa kishilar ko'zi bilan ko'rish, hulq-atvor va muomalaning yangi shakllarini izlash va sinab ko'rish, o'zining odamlar bilan birga qiladigan ishi xususiyatlarini anglash va kasbiy faoliyatining individual uslubini ongli ravishda shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Psixologlarning pedagogik texnikani guruh bo'lib o'rgatish rahbarlarining tajriba ishida bunday guruhlarning eng qulay miqdori 10–14 kishidan iborat bo'lishi belgilab berilgan. Qatnashchilarning xuddi shunday miqdori ulardan har biriga boshqa kishilar bilan birga ishslashning individual psixologik muammolarini juda to'liq ravishda aniqlab, hal etish, refleksiya va empatiya darajasini jiddiy oshirish, pedagogik fahm – farosatni rivojlantirish, boshqalarga ta'sir etish vositalarini kengaytirish imkonini beradi. Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak pedagoglar kasbiy jihatdan birga ishslash malakalarini egallahsga faol intilishlari, o'z-o'zini bilish va kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha chuqur ish olib borishga, psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak. Barcha hollarda ham individual, ham

guruhiy mashq'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi lozim. Biroq, tajribaning ko'rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, shu bilan birga dastlab avtomatlashtirilgan (ta'limni boshlash vaqtiga kelib) ko'nikmalar haqida ham borishi mumkin ekan. Bular, masalan, nafas olish va ovozning tabiiy yo'lga qo'yilishi, to'g'ri talaffuz, bundan oldingi tarbiyaning natijasi bo'lgan savodli, ifodali nutq, mimik va pantomimik aniqlik va boshqalar bo'lishi mumkin. Bunday ko'nikmalarning mavjudligi pedagogik texnika malakalarini shakllantirishni ancha osonlashtiradi. Shunga qaramasdan barcha hollarda ana shu ko'nikmalarni tegishli malakalar tarkibiga kiritish yuzasidan muayyan ish olib borilishi zarur. Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishning boshlang'ich darajasiga qarab uni egallashning individual dasturi yetishmaydigan malakalami shakllantirishga qaratilgan ayrim mashqlarni yoki mashqlarning to'liq majmuini o'z ichiga oladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Pedagogik mahorat fani va uning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni va ahamiyati.
2. O'qituvchi faoliyatidagi pedagogik qobiliyatlar. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlariga ta'rif bering.
3. Pedagogik texnika deganda nimani tushunasiz va uni egallah yo'llari.
4. Kommunikativ qobiliyatga ta'rif bering.
5. Sharq mutafakkirlari Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiyning ijodiy merosida mudarris-larni tanlash, ularga qo'yiladigan talablar, ularning mahorati, muloqoti va muomala madaniyati munosabatga kirishish mahorati, ularni egallahga qo'yiladigan talablar haqidagi fikringiz.

Pedagogik mahoratni oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarning ahamiyati

O'quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash ta'lif metodlarining samaradorligini oshirishga, o'qituvchilar mehnat faoliyatining o'zgarishiga, ularning pedagogik mahoratlarini takomillashtirishga, pedagogik tizimlarning tarkibiy o'zgarishiga samarali ta'sir etadi. Bu esa pedagogik jarayonlarni axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishda o'ziga xos vazifalarni qo'yadi.

Pedagogik ta'lif jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

- masofaviy o'quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoa o'qituvchilar, kompyuter dasturchilari, tegishli mutaxassislarning birgalikda faoliyat olib borishini;
- o'qituvchilar o'rtaida vazifalarning bir maromda to'g'ri taqsimlanishini;
- ta'lif va tarbiya jarayonini yanada mukammal tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirish monitoringini tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'qituvchining pedagogik faoliyatida:

- ta'lifning texnologik asosini zamon talablari darajasida rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan murakkab jarayon yengillashadi;
- dars jarayonini zamonaviy texnik vositalar asosida tashkil etish uchun maxsus ko'nikma va malakalar shakllantiriladi;
- masofaviy kurslarning ochiqligi tufayli ularning sifatiga bo'lgan talablar va o'quv materiallarining sifatini nazorat qilishga ehtiyoj paydo bo'ladi;
- talim jarayonida o'quvchilarning mustaqil faoliyati takomillashadi, dars jarayonining samaradorligi o'qituvchidan o'quvchiga ko'chadi;

- o‘quv jarayonini tashkil etishda, o‘quvchining tashkilot-chiligi va shaxsiy ishtiroki ortadi;
- zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida o‘qituvchi pedagogik faoliyatida har bir o‘quvchi bilan teskari aloqasi vujudga kelishi ta’minlanadi.

Hozirgi kunda o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning imkoniyatlari va talablarini inobatga olishi zarur. O‘qituvchi tomonidan targ‘ib etilayotgan ta’lim va tarbiya tizimi shaxsga yo‘naltirilgan xarakterda bo‘lishi, ya’ni shaxsning har xil xususiyatlari va sifatiga e’tibor qilgan holda tabaqlashtirilgan bo‘lishi kerak.

Har qanday ta’lim va tarbiya tizimi ma’lum bir ijtimoiy, ilmiy-texnik, iqtisodiy, madaniy va nihoyat, siyosiy muhitda shakllanadi va rivojlanadi. Bu muhitlarning eng ustuvori ijtimoiy-iqtisodiy omillardir. Ilmiy-texnik taraqqiyot, madaniy va siyosiy muhit ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni rivojlantirishi yoki sekinlashtirishi mumkin. Ta’lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining asosiy vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi, chunki umumta’lim maktablari, oliy ta’lim muassasalari insonni iqtisodiyot, madaniyat, siyosiy jihatdan hayotda qizg‘in faoliyat ko‘rsatish uchun tayyorlaydi. Shuning uchun ham ta’lim muassasalari o‘qituvchisi ta’lim-tarbiya jarayonining tayanch bo‘g‘ini sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari shakl va mazmunining rang-barangligi – o‘quvchining qiziqlishi, imkoniyati va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib taklif etilayotgan holatlardan tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat ta’lim tizimida ham o‘z aksini topishi zarur. O‘qituvchining har xil sathli o‘qitishni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etishi bunday muammoning yechimi bo‘la oladi.

O‘quv mashg‘ulotlarini o‘quvchilarning kundalik fanlar majmuasi va ular bo‘yicha berilgan kundalik topshiriqlar majmuasi asosida belgilanishi, har bir o‘tilgan mavzuni keyingi darsda so‘rab baholanadigan qilib tashkil etilishi ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday holda o‘quvchilar biron bir fanga o‘zlarining asosiy diqqat e’tiborini to‘liq qarata olmaydilar. Bunday

notugalliklarni bartaraf etishda, modulli o'qitish eng yaxshi yechim hisoblanishi mumkin.

Zamonaviy jamiyatda ta'lif tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi – bu insonning turli sohalarda maqsadli mustaqil faoliyat asosida intellektual va axloqiy rivojlanishidir. Bunda uchta asosiy vazifaga e'tibor qaratiladi:

1. Ta'lif tizimini isloh etish.

2. Mustaqil faoliyat tamoyilini ta'lif va tarbiyaning asosiy tamoyili sifatida e'tirof etish.

3. Ta'lif va tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish.

Zamonaviy insonning o'qish jarayoni faqat bog'cha, umumta'lif maktablari, akademik litseylar yoki kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lif muassasalari bilan tugamaydi. Inson butun umri davomida ta'lif olishi zarur, ya'ni ta'lif uzlusiz bo'lishi kerak. Demak, uzlusiz ta'lif – davr talabidir. Zero, bu muammo zamonaviy axborot texnologiyalariga bo'lgan ehtiyojni yanada shakllantirishi shubhasiz.

XXI asr – axborotlashtirish asrida ta'lif sohasini axborot-lashtirish, har bir ta'lif muassasasidan:

- o'qitish va o'qish jarayonining;
- ta'lif muassasasi boshqarilishining;
- ta'lif muassasasi bo'linmalarining;
- ta'lif muassasasi faoliyati muhitining axborotlashtirilishini talab qiladi.

Ta'lif-tarbiya jarayonida kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish

Kompyuter texnologiyalari (kompyuter savodxonligi)dan foydalanishda, o'qituvchi uning mazmuniga ko'ra bir qancha vazifalarni bajarishi mumkin. Faol foydalanish imkoniyatiga ega kompyuter texnologiyalari quyidagi asosiy didaktik funksiyalarni bajaradi:

- multimedia texnologiyasini qo'llash evaziga o'quvchilarda fanlarga qiziqishni rivojlantiradi;

- bunda ta'limning interfaolligi tufayli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlari faollahashi va o'quv materialini o'zlashtirish samaradorligi oshadi;

- real holatlarda namoyish qilinishi qiyin yoxud murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va ko'rish imkoniyatini berishi bilan muhim ahamiyatga ega ;

- o'quv materiallarini o'zlashtirilishi faqat darajasiga ko'ra emas, balki o'quvchilar erishgan mantiqan qabul qilishlarining darajasiga ko'ra ham samarali hisoblanadi;

- masofadan turib ta'lim olishni faqat o'zlashtiruvchi o'quvchilar yoki internet ta'limi uchun tashkil etilmaydi, balki sababsiz dars qoldirgan o'quvchilar uchun ham tashkil etish imkoniyatini beradi;

- o'quvchilarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob berish orqali ma'lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratadi;

- o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma'lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratadi.

Ma'lumki ta'lim mazmunini takomillashtirishning bosh xususiyatlaridan biri kompyuter bilan muloqot jarayonida uning doimiy murojaat qilinadigan «qo'llab-quvvatlovchi axborot»ini ko'paytirish, kompyuter axborot muhiti va hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajadagi axborot bazasining yaratilganligi, gipermatn va multimedia, o'qitishda immitatsiya, kommunikatsiya tizimlari qabul qilingan.

Ma'lumotlar bazasi deganda, axborotni kompyuter texnikasi yordamida kiritish, tizimlashtirish, saqlash va foydalanish uchun tavsiya qilish tushuniladi.

Bir qator axborotlarni an'anaviy qayta ishslash uchun ularni tayyorlashning standart shakllari mavjud bo'lib, ularga bibliografiya, statistik ma'lumotlar, referatlar kiradi. Ma'lumotlar bazasi axborot tarkibiga statistik, matnli, grafik va ko'rinishli axborotlarni cheksiz ko'p miqdorda va albatta, belgilangan shakllardagi ko'rinishlarini qabul qiladi.

Bilimlar bazasi esa, yopiq tizimda, mazkur mavzu bo'yicha qo'shimcha axborotlarga ehtiyoj sezmagan holda va uning har bir elementi, mantiq jihatdan bog'langan boshqa elementlarga chiqa olishi bo'yicha tuzilmali axborotlashtirilgan tizimga ega bo'ladi. Bunda ushbu bilinilar bazasiga kiritilmagan, ya'ni undan tashqi elementlarga murojaat qilinishiga imkon bo'lmaydi. Bilimlar bazasining birlamchi bibliografik o'xshashliklari sifatida turli ensiklopediyalar, lug'atlar xizmat qiladi.

O'quvchilar bilimi sifatlarini test savollari yordamida aniqlash va psixofiziologik rivojlanayotganligini tashxis qilish maqsadida kompyuter tizimiga eksport tizimi qo'shimcha kiritilgan bo'lib, bu tizim yordamida elektron tarmoq orqali bilimlarni baholash va bu masala bo'yicha yetarlicha natijalarni aniqlash mumkin.

Bunday dasturiy vositalardan, ta'limdagi holat va uning maqsadiga ko'ra, ba'zan o'quvchilarning ehtiyojlarini chuqurroq anglash zaruriyati nuqtayi nazaridan, ularning ma'lum fan sohasida bilimlarini tahlil qilish bo'yicha boshqa bir hollarda esa, o'qitishning psixologik tamoyillarini hisobga olish maqsadida keng foydalilaniladi.

Kompyuter yordamida turli ilmiy axborotlar, o'quv materiallari bo'yicha axborotlarni tavsiya etishning boy imkoniyatlari, xususan ularga integrativ kurslarni kiritish, fanning tarixi va metodologiyasi bilan tanishish, turli fanlar bo'yicha ularning zamонавија darajasiga oid bilimlar, madaniyat va ijtimoiy ongga daxldor bilimlarni kiritish, ta'lim mazmunini sezilarli o'zgartirish va keskin boyitishga yordam beradi, uni faollashtirish va rivojlantirishda muhim omil bo'ladi.

Kompyuter vositalari yordamida mustaqil ta'limni tashkil etish nuqtayi nazaridan tahlil etadigan bo'lsak, aksariyat uning interfaolligini, bevosita muloqot yordamida o'quvchi o'quv rejasida ko'rsatilgan, istalgan fan sohasida maxsus o'quv dasturlari yordamida bilim olish imkoniyatiga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Kompyuter vositasi, o'quvchi yoxud o'qituvchi murojaatlariga «javob beradi», ular bilan bemalol «muloqotga kirishadi», bular kompyuter ta'limi metodikasining asosiy xususiyatlaridan biri sanaladi.

Kompyuterli o'qitish metodikasining boshqa bir muhim xususiyati, u o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida, jumladan yangi o'quv materialini tushuntirishda, qaytarishda, umumlash-tirishda, o'quvchilarining ma'lum fan bo'yicha erishgan bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirishda namoyon bo'ladi. Bunday jarayonda o'qituvchi kompyuterning o'quvchi uchun turli vazifalarni, xususan o'qituvchilik, ishchi qurol, ta'lim obyekti, o'zaro muloqot kabi funksiyalarni bajarishini bilishi kerak. Bunda o'qituvchining vazifasi dars jarayonida o'quvchilarni kompyuterdan to'g'ri foydalanishlarini nazorat qilishdan iborat:

KOMPYUTERNING O'QITUVCHILIK VAZIFASINI BAJARISHI QUYIDAGI JARAYONLARDA NAMOYON BO'LADI:

o'quv axborotining manbai (o'qituvchini yoki darslikni qisman, ba'zan to'la o'rmini bosuvchi sifatida);

ko'rgazmali qo'llanmalar (multimedia-telekommunikatsiya imkoniyati bo'lgan yangi sifat darajasida);

individual axborot fazosining yaratilganligi;

mashq qildirgich;

o'quvchi bilimi, ko'nikma va malakasi tashxisi va nazorati muhiti.

ishchi qurol sifatida kompyuter quyidagi vazifalarni bajaradi:

matnlarni tayyorlash va saqlash muhiti;

matnlar muharriri;

grafiklar quruvchi va ularning muharriri;

keng imkoniyatli hisoblash mashinasi (olingan natijalarni turli ko'rinishda ifoda etuvchi);

modellashtirish vositasи.

Kompyuterning ta'lim obyekti sifatidagi vositachilik vazifasi:

dasturlashtirish (vazifali jarayonlar bo'yicha kompyuter yordamida o'qitish);

dasturiy mahsulotlarni yaratish;

turli axborot muhitidan foydalanish.

Kompyuter va internet yordamida keng auditoriya bilan bog'lanish va uning natijasi sifatida o'zaro muloqotlashuvchi jamoa muhiti yaratiladi.

Kompyuter texnologiyalari asosida o'qituvchi o'zining kasbiy mahoratini oshirish uchun mustaqil faoliyatida quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

1. O'quv jarayonini bir butun guruh va bir butun fan (o'quv jarayonining grafigi, tashqi tashxis, joriy, oraliq va yakuniy nazorat va boshqalar) sifatida tashkil etish.

2. O'quv jarayonida guruhni faollashtirish va muvofiq-lashtirish, ish joylarini taqsimlash, ko'rsatmalar, guruh ichida boshqarish va boshqalar.

3. O'quvchilarni individual kuzatish, individual yordam ko'rsatish, har bir o'quvchi bilan individual muloqot olib borish. Kompyuter yordamida eshitish va ko'rish imkoniyatlari, individual o'qitishning eng samarali shakllariga erishiladi.

4. Axborot muhitini tashkil etuvchilari (shaxsiy kompyuter, o'quv va namoyish qurilmalarining har xil turlari, dasturiy vositalar va tizimlar, o'quv-metodik ko'rsatma, qo'llanmalar va boshqalar) ma'lum o'quv kursining mazmuni bilan aniqlangan bog'liqlik asosida tayyorlanadi.

Mustaqil ta'limni ta'minlashda o'qituvchilar kompyuter texnologiyasi (kompyuter savodxonligi) mazmunining quyidagi tuzilmalari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishlari kerak:

informatika va hisoblash texnikasining asosiy tushunchalarini biliши;

kompyuter texnikasining funksional imkoniyatlarini biliши; zamonaviy operatsion tizimlarni biliш и улarning asosiy buyruqlarini o'zlashtirishi;

zamonaviy dasturiy vositalar va operatsion tizimlarni (Norton Commander, Windows, улarning versiyalarini) biliш и улarning vazifalarini o'zlashtirishi;

kamida bitta matn muhariri bilan tanish bo'lishi;

algoritmlar, tillar va dasturlashtirish haqida dastlabki tushunchalarga ega bo‘lishi; amaliy dasturlardan foydalanish to‘g‘risida dastlabki tajribaga ega bo‘lishi.

Ta’limni jadallashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, bunda:

- o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar jahonning salmoqli ilmiy, metodik adabiyotlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;
- uzoq hududlarda joylashgan yetakchi ta’lim muassasalarining ilmiy laboratoriyalari bilan tanishadilar;
- turli mavzularda videokonferensiyalar tashkil qilish va amalga oshirishga erishiladi;
- o‘qituvchilarning o‘zaro seminar va treninglari o‘tkaziladi;
- masofaviy ta’lim, axborotlar almashinish va shunga o‘xshash juda ko‘p imkoniyatlarga ega bo‘ladilar.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’lim muassasalari tizimiga tatbiq etish o‘quv jarayonida zamonaviy o‘qitish metodlarini qo‘llashga hamda o‘qituvchi pedagogik mahoratini namoyish etishga keng imkoniyatlar ochadi.

O‘qituvchining kompyuter texnologiyalari asosida o‘quvchilar bilimini nazorat qilishi

O‘quvchilar bilimini baholashning kompyuter tizimi va o‘zlashtirish monitoringini tashkil etish uchun avvalo, zamonaviy ta’lim tizimida o‘qitishning sifatini tashxis qilishga, ya’ni uning holatini aniqlamay turib, undagi jarayonlarni samarali boshqarishga, ta’limda ma’lum bir maqsadga erishishning iloji yo‘qligi hech kimda shubha tug‘dirmaydi. O‘quvchilarning yakunlovchi bilim va malakalarini ta’lim jarayonida turli mezonlar va yondashuvlarga tayanib aniqlash, bu jarayonlarga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash, ularning qo‘yilgan didaktik talablarga haqiqatan mosligini nazorat qilish mumkin.

Bunda pedagogik tashxis, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish darajasini aniqlashni, nazorat qilishni, baholashni, yig‘ish va statistik ma’lumotlarning tahlili hamda kelgusida bu jarayon rivojini bashorat qilishni o‘z ichiga oladi. Metodik adabiyotlarda o‘quvchilar o‘zlashtirishlarining tashxisi, ular tomonidan erishilgan yutuqlarning darajasi sifatida qayd etish ekanligiga e’tiborni qaratsak, unda pedagogik tashxisning maqsadi, ta’lim jarayoni borishining tahlili va uni baholashni o‘z vaqtida aniqlanishidan iborat bo‘ladi.

Ma’lumki, ta’lim jarayonini bunday baholash, faqat o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini belgilash bilan chegaralanib qolmay, o‘qish jarayonini rag‘batlantirishda muhim pedagogik vosita va ijobjiy motiv uyg‘otish bilan o‘quvchi shaxsiga kuchli ta’sir etadi. Shu xilda o‘quvchini obyektiv baholash asosida unda adekvat ravishda o‘z-o‘zini baholash imkoniyati tug‘iladi va o‘z muvaffaqiyatlariga tanqidiy munosabatning shakllanishi qayd etiladi. Shu nuqtayi nazardan o‘quvchi bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash, ayniqsa, bilimlarini nazorat qilishning kompyuterlashtirilgan tizimi, zamonaviy axborot-pedagogik tizimlarida, ularda bilimni nazorat qilishni tashxisiy ahamiyati va haqqoniyligini samarali bajarish maqsadida tinmay izlanishlar va takomillashtirish ishlarini olib borish taqozo qilinadi. Mazkur masalaning yechimi o‘qitishning maqsadga muvofiq va haqqoniy bo‘lishida, iloji boricha aniq va asoslangan usul sifatida qayd qilingan.

Kompyuter texnologiyalari asosidagi o‘quvchilar bilimini nazorat qilish faqat mutaxassis o‘qituvchilar tomonidan emas, balki pedagogik jarayon ishtirokchilari tomonidan ham amalgao shirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday texnologiyalarni monitoring tizimida joriy qilishda pedagogik jarayon ishtirokchilarining axborotga, bilimga bo‘lgan ehtiyoj va ishtiyoqlarini faollashtirishga erishish zarur.

O‘quvchilar bilimi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish kompyuter tizimining asosiy maqsadi, ular erishgan yutuqlar va muvaffaqiyatlarni aniqlash, uni takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatish, shu asosda o‘quvchilarga samarali ijodiy faoliyat ko‘rsatish uchun sharoit yaratishdan iborat. Bu maqsad, birinchi

navbatda, o‘quvchilar tomonidan o‘quv materiallarini o‘zlashtirish sifati bilan, ya’ni o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash darajasi bilan bog‘liq. Ikkinchidan, kompyuter nazoratining asosiy maqsadini aniqlashtirish, o‘zaro, shuningdek, o‘z-o‘zini nazorat qilish bo‘yicha yondashuvlarni amalga oshirish hamda o‘zaro va o‘z-o‘zini nazorat qilishga bo‘lgan ehtiyojning shakllanishi bilan bog‘liq. Uchinchidan esa, bu maqsad o‘quvchilarda bajarilgan ish uchun javobgarlikning namoyon bo‘lishi kabi shaxsning ijobiliy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi.

O‘qituvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish malakalarini shakllantirish

O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri, bu ta’lim jarayonlariga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishdir.

Nima uchun bugungi kunda ta’limda axborot texnologiyalarini joriy etishning nazariy asosini yaratish va amaliyatga tatbiq etish zaruriyati paydo bo‘ldi? Birinchidan, o‘qituvchini o‘quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki bilimlarni egallash manbalaridan biriga aylanib qolayotganligini ta’kidlash mumkin.

Ikkinchidan, ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ortib borayotganligi va ulardan o‘qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek, o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga mukammal tayyorlash talablari ta’lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Ta’lim tizimini isloh qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri – axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan ta’lim jarayonini tizimli integratsiyalash va uni boshqarish hisoblanadi. Islohotlar jarayonida bosh vazifa qilib, o‘quv jarayonini tashkil etish, uning mazmunini tubdan yangilash, kompyuterlashgan muhitda o‘qituvchilarning pedagogik faoliyati va o‘quvchilarning bilim olish jarayonini tashkil etish bilan belgilanadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'limni intensivlash-tirish va optimallashtirish imkoniyatlari masofaviy malaka oshirishni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchi kadrlari malakasini oshirishdan asosiy maqsad o'qituvchilarda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalaniib bilim, ko'nikma va malakalarini hamda pedagogik mahoratlarini shakllantirishdir.

Bugungi kunda pedagogik ta'lim samaradorligini oshirish bilan bevosita aloqador bo'lgan bir qator, hozirgacha yechimi topilmagan muammolar mavjud. Bu muammolar ta'lim sohasini axborot-lashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida o'qituvchi kadrlar tayyorlash, o'qituvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish malakasining yetarli emasligi bilan bog'liq.

Bu muammolarning muhim qirralaridan biri sifatida o'qituvchilarning o'zlarida ta'limni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlashga bo'lgan munosabatlarini ko'rsatish mumkin. Shunarsani ta'kidlash joizki, axborotlashtirish sharoitida o'qituvchining pedagogik mahorati hozirgi zamon talablari darajasida yanada oshadi.

Hozirgi kunda barcha ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu o'z navbatida o'qituvchilarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. O'quv jarayonida yangi texnologiyalarni joriy etilishi, o'qituvchini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishga emas, balki uning vazifalari, rolini o'zgartiradi, o'qituvchilik faoliyatini yanada serqirra kasbga aylantiradi.

Kompyuter va zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal sur'atda rivojlanishi endilikda hozirgi zamon o'qituvchisining pedagogik mahorati naqadar serqirra ekanligini namoyon etmoqda. Hozirgi kunda zamonaviy o'qituvchidan:

- *o'quv kurslari dizayneri* – o'quv kurslarining yaratuvchisi;
- *fasilitetor* – o'qitish metodlari bo'yicha maslahatchi;

- *tyutor* – o‘quv kurslarini interfaol taqdim etish bo‘yicha mutaxassis;

- *invigilator* – ta’lim natijalarini nazorat qilish usullari bo‘yicha mutaxassis bo‘lishni talab etmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar, masofaviy oliy pedagogik ta’limni yangicha tashkil qilinishiga zamin yaratadi. Bunday ta’limda o‘qituvchilar, kompyuter dasturchilari va mutaxassislari yordamida o‘qituvchilarning yangicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish talab qilinadi. Masofaviy o‘qitish kurslarini yaratishda dastlab:

- kurslarning maqsadi;
- maqsadga erishish yo‘llari;
- o‘quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o‘qitish metodlari;
- o‘quv topshiriqlarining turlari;
- muhokamalar uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo‘llari;
- o‘zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlash lozim.

O‘qituvchi kadrlar pedagogik mahoratlarini oshirish maqsadida masofaviy malaka oshirishlari nuqtayi nazaridan kelib chiqib, tinglovchilarda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlari dan foydalana olish bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Ta’limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haqida tushuncha, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari, ularni ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari, shaxsnинг ta’lim-tarbiyasi va rivojlanishida zamonaviy axborot texnologiyalari va pedagogik dasturiy vositalar, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini yaratish, ularni o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llashning didaktik asoslari, o‘quv maqsadli elektron vositalarni yaratish va foydalanishdagi pedagogik-ergonomik talablar va ularning sifatini baholash, o‘quv-tarbiya jarayonining axborot-metodik ta’milotini va ta’lim muassasalari tashkiliy-boshqaruvi tizimini avtomatlashtirish va uning istiqbollari, elektron-o‘quv materiallari bazasining tuzilmasi va tarkibi, ta’limiy internet resurslar va

ulardan o'quv jarayonida foydalanish, elektron o'quv-metodik materiallar majmuasi, uning tuzilmasi va tarkibi, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan ta'limiy maqsadlarda samarali va qulay foydalanishning pedagogik-ergonomik shart sharoitlari, informatika va axborot texnologiyalari xonasiga qo'yiladigan talablar va unda ta'lim jarayonini tashkil etishning metodik jihatlari, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan ta'lim jarayonida foydalanishning istiqbolli yo'nalishlari va kelajagi.

Pedagogik dasturiy vositalar. Asosiy tushunchalar: pedagogik dasturiy vositalarning umumiy ta'rifi, namoyish etuvchi dasturlar, nazorat qiluvchi dasturlar, o'rgatuvchi dasturlar, dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlari, ekspert-o'rgatuvchi tizimlar, avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi tizimlar, foydalanuvchi va pedagogik-dasturiy vositalarning o'zaro hamkorligini tashkil etish metodlari. Pedagogik-dasturiy vositalar yaratish tamoyillari: talabalarning psixofiziologik xususiyatlarini va kompyuterning texnik imkoniyatlarini hisobga olish, o'qitish strategiyasining ustuvorligi; pedagogik, psixologik va funksional to'lalik, motivatsiyali faollashtirishning ta'minlanganligi, qo'llashdagi universallik va modul tuzilishga egalik. Pedagogik-dasturiy vositalar ssenariyasini yaratish texnologiyasi: foydalanish maqsadini aniqlash, o'quv materiallarini tahlil qilish va tanlash, uni strukturalash va formallashtirish, pedagogik ssenariyni taqdim etish. Pedagogik-dasturiy vositalar asosida o'quv faoliyatini boshqarish. Dasturlash tillarida pedagogik-dasturiy vositalar yaratish texnologiyasi. Avtomatlashgan o'rgatuvchi tizimlar. O'qitish uchun axborot resurslarining integratsiyasi: didaktik vositalarning uyg'unligi, an'anaviy va pedagogik-dasturiy vositalardan kompleks foydalanish. Pedagogik-dasturiy vositalarni yaratishning texnik vositalari. "Lektor" tizimi va undan pedagogik-dasturiy vositalarni yaratishda foydalanish. Pedagogik-dasturiy vositalar bo'yicha praktikum.

Elektron o'quv materiallarini yaratish texnologiyalari. Elektron o'quv materialari va ularning turlari: elektron darslik, elektron o'quv qo'llanmasi, elektron ma'lumotnoma, elektron

majmua, elektron katalog va boshqalar. Elektron o'quv materiallarini yaratish bosqichlari va texnologiyasi; elektron o'quv materiallarini yaratish prinsiplari; HTML va JavaScript asosida elektron o'quv materiallarini yaratish. Zamonaviy dasturlash tillari asosida elektron o'quv materiallarini yaratish (Delphi, Visual Basic, C++ va boshqalar). PowerPoint va FrontPage muhitida ilovalar yaratish. Hypermethod muhitida multimediali ilovalar va elektron o'quv materiallarini yaratish. O'quv materiallariga ovoz berish texnologiyasi va uning vositalari.

O'qitishning zamonaviy texnik vositalari. Audiovizual axborot: manbalari, o'zgartiruvchilar, tashuvchilari. Audiovizual madaniyat: tarixi, konsepsiyalari, tuzilmasi, faoliyat ko'rsatishi. Inson tomonidan audiovizual axborotni qabul qilishning psixofiziologik asoslari. Audiovizual texnologiyalar: rasm va rasmga olish, optik proyeksiya (statik va dinamik) va uning vositalari, tovush yozish (analogli va raqamli) va uning vositalari, televideniye va videoyozuv (analogli va raqamli) va uning vositalari, kompyuterlar va multimediali vositalari. O'qitishning audiovizual texnologiyalari: tele va videokonferensiylar, ularni tashkil etish, audio, video va kompyuterli o'quv qo'llanmalari, audio, video va kompyuterli materiallarning banki, audio, video va kompyuterli o'quv qo'llanmalarini yaratishning didaktik prinsiplari. O'qitishning interaktiv texnologiyalari.

Mazkur kurs yakunida o'qituvchilar zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llay olish bo'yicha pedagogik mahoratlarini oshiradilar, bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

O'qituvchilar masofaviy o'qitish kurslarini yaratishda ta'lim oluvchilar motivatsiyasi, o'quv maqsadlarining qo'yilishi, o'quv materiallarini qabul qilishga sharoitlar yaratish, o'quv materiallarini yetkazish, teskari aloqa, baholash kabi talablarni inobatga olishlari zarur.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’lim va tarbiya jarayonida qo’llay olish bo‘yicha o‘qituvchilar pedagogik mahoratning quyidagi ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishlari kerak:

- axborotlarni saqlash, qayta ishlash, tarqatish va namoyish qilish tamoyillarini bilishi;
- ta’limda qo’llash mumkin bo‘lgan texnik vositalar va ularning tavsiflarini bilishi;
- ta’lim jarayoni va ilmiy izlanishlarda Internetdan foydalanishi;
- ta’lim jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanish metodologiyasini bilishi;
- dasturiy ta’midotning asosiy turlarini bilish va ulardan foydalanishi;
- fan sohasida ilmiy izlanishlarning dasturiy ta’midotidan foydalanishi;
- ta’lim jarayonida amaliy masalalarni yechishda axborot tarmoqlarini qo’llashi;
- masofaviy ta’lim elektron o‘quv-metodik resurslaridan foydalanishi;
- multimediali hujjat va loyihalarni yaratishni bilishi;
- interaktiv interfeysning asosiy xossalari va vazifalarini tavsiflashi;
- turli darajadagi kompyuter tarmoqlarining imkoniyat va vazifalarini tavsiflashi;
- kompyuter tarmoqlari orqali olinadigan axborot xizmatlari turlarini tavsiflashi;
- elektron pochta ishining asosiy tamoyillarini tushunishi;
- gipermatn texnologiyasi asosini tushunishi;
- Internetning asosiy texnologik tamoyillarini tushunishi;
- HTML asoslarini bilishi;
- Web-sahifa va Web-saytlar yarata olishi;
- fanlarni o‘qitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishi;
- pedagogik dasturiy vositalardan foydalana olishi;
- zamonaviy dasturlash tillari haqida tushunchalarga ega bo‘lishi;

fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning maqsadi, mazmuni va vazifalarini bilishi;

axborot texnologiyalarini o'qitishda joriy etishning didaktik tamoyillarini bilishi;

axborot texnologiyalaridan darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishi va uning mazmunini yarata olishi;

axborot texnologiyalaridan mustaqil ta'limni tashkil etishda foydalanishi;

ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va ulardan dars jarayonida foydalanishi;

o'z-o'zini takomillashtirish, rivojlantirish, nazorat qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash sohalarini bilishi;

axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari va ularning didaktik imkoniyatlaridan foydalana olishi;

Internet ta'limiy resurslari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;

axborot va kommunikatsiya texnologiyalari tuzilmasi va ta'minotini, texnik va dasturiy vositalarini egallashi;

pedagogik dasturiy vositalarni va ularni yaratish tamoyillarini bilishi;

pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini o'zlashtirishi;

pedagogik dasturiy vositalarni tanlay olishi;

pedagogik dasturiy vositalardan o'quv jarayonida samarali foydalana olishi.

Taklif etilayotgan «Ta'limda axborot texnologiyalari» kursini malaka oshirish tizimida joriy etilishi o'qituvchi kadrlarning innovatsion bilimlarni egallashlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish to'g'risida qanday Qarorlar qabul qilingan?

2. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning samaralari va imkoniyatlari?
3. O'qituvchilarning pedagogik faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyatini ta'riflang?
4. Hozir kunda jamiyatning axborotlashuvi davrida o'qituvchining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Pedagogikada shaxsga yo'naltirilgan o'qitish nima?
6. Kompyuter texnologiyalari qanday didaktik funksiyalarni bajaradi?
7. Pedagogik faoliyatda kompyuter texnikasining ma'lumotlar bazasi deganda nima tushuniladi?
8. Kompyuterning o'qituvchilik vazifasini bajarishi qaysi holatlarda namoyon bo'ladi?
9. Ta'limda kompyuter ishchi qurol sifatida qanday vazifalarni bajaradi?

XX BOB. MAKTABSHUNOSLIK

1. Maktab ishini boshqarish va unga rahbarlik qilish

O'quv-tarbiya ishlariga rahbarlik. Prezident I.A.Karimov rahbar ma'suliyati xususida shunday yozadi: "Ayniqsa, zamonning yurishi, o'zgarishi bilan avvalo rahbarlar, yetakchilar o'zgarishi kerak. Biz XXI asr – inteluktual taraqqiyot asri, deb ko'p gapiramiz. Modomiki, shunday ekan, bugungi kunda rahbar nafaqat aniq bir kasb-hunarning egasi avvalo, o'zining faoliyati va insoniyligi bilan xalqning ishonchiga munosib bo'lishi yuksak intelektual tafakkur sohibi, uzoqni ko'ra oladigan, doimo yangilikka intilib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashaydigan qattiyatl shaxs bo'lishi lozim".

Ta'lif muassasasi uning rahbari (direktor yoki rektor) tomonidan boshqariladi. Ta'lif muassasasi direktori o'quvchilarni ma'nnaviy barkamol, jismonan sog'lom bo'lishlari, fan asoslarini puxta o'zlashtirishlari, umumiy ta'lif muassasasining bugun faoliyati uchun javobgar shaxs sanaladi. Tashkilotchi oliy ma'lumotli, kamida uch yillik pedagog ish stajiga ega bo'lgan eng yaxshi o'qituvchi tuman xalq bo'limi tavsiyasiga binoan viloyat xalq ta'limi (Toshkent shahrida shahar xalq ta'limi) bo'limi tomonidan direktor tayinlanadi. Bir maktabdan ikkinchi maktabga ko'chiriladi, ishdan bo'shatiladi. Viloyat xalq ta'limi bo'limi bu haqida O'zbekiston Respublikasi XTB ga ma'lum qiladi. Maktab direktori ta'lim muassasasi boshqaruvni zamonaviy usullarda tashkil etishi zarur. Bu esa ilg'or tajribalarni va fan texnika yutuqlarini muntazam o'rganib o'z faoliyatiga tatbiq etib borishni, kasbiy faoliyatiga ijodiy yondoshuvni talab qiladi. Xalqimizda rahbar kadrlar va ularga xos xususiyatlarga sharqona yonda-shuvning boy tarixiy-madaniy an'analari mavjud. Abu Nasr Forobiy rahbar tabiatan nozik, farosatli bo'lib, umumiy axvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi; voqeal-hodisalarini

xotirasida to'la-to'kis saqlab qoladigan; zehni o'tkir zukko, o'z fikrini chiroyli so'zlar bilan ifodalaydigan, ravshan tushuntira oladigan; ta'lim olishga, bilim va ma'rifatga havasli bo'lib, uning mashaqqatlaridan haq va haqiqatni, odil va haqiqiy odamlarni sevadigan, yolg'on va yolg'onchilarni yomon ko'radigan; o'z qadrini biluvchi, oriyatlari; tabiatan adolatparvar va o'zi zarur deb hisoblaganda chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli kabi insoniy hislatlarga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tilgan. Zamonaviy maktab faoliyatini tashkil etish va boshqarishda ta'lim muassasasi barcha xodimlarini o'z mehnat faoliyati natijalaridan birdek qoniqish hosil qilishlari jamoadagi to'g'ri mehnat taqsimoti, xodimlarni o'z vazifalariga nisbatan ma'sulyat hissining shakllanishi o'quv jarayonini hozirgi zamon talablari darajasida ilmiy asosda tashkil etish samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muassasasi rahbarlarining funksional vazifalarini qay darajada tushunib yetish va amalga oshirishga bog'liq bo'ladi. Rahbar xodim ta'lim muassasasidagi mavjud munosabatlar, o'quvchilarning jismoniy, ruhiy va intellektual rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ya'ni o'qituvchilar bilan o'quvchilar, ota-onalar bilan ta'lim muassasasi hamda o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlardan yaxshi xabardor bo'lishi lozim. Jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarni o'z vaqtida aniqlash hamda unga ta'sir ko'rsatishning eng maqbul yo'llarini belgilash, ta'lim tarbiya jarayonining holati to'g'risida ishonchli axborotlar to'plash, qayta ishlash va obyektiv baholash muhim ahamiyatga ega.

Rahbarning ta'lim muassasasidagi vazifalari asosan quyida-gilardan iborat: o'quv muassasasining pedagogik jamoasiga rahbarlik qilish, kadrlarni to'g'ri tanlash, joy-joyiga qo'yish, xodimlarning ijtimoiy-g'oyaviy saviyasini, malakasini oshirish uchun zarur shart-sharoitni yaratish, o'quvchilar bilimi va tarbiyasi sifatli bo'lishini ta'minlash, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tashkil etilishiga rahbarlik qilish va tegishli nazorat o'rnatish. O'quvchilarning to'g'ri kasb tanlashini ta'minlashni yo'nga qo'yish, ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan ishlarni tashkil etish. Maktabda ichki intizom, sanitariya gigiyena,

mehnatni muhofaza qilish, umumiy tartib va texnika xavfsizligi qoidalariiga rioya etishni ta'minlash va hokazolar. Maktab direktori o'qituvchi yoki yordamchi xodimlarni ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi, xodimlar va o'qituvchilarini rag'batlantiradi, shuningdek, ayrim holatlarda ularni jazolaydi, alohida o'rnak ko'rsatgan o'qituvchi va xodimlarni davlat mukofotlariga tavsiya etadi. Rahbar muayyan masalalarni hal etishda pedagogik jamoa fikr-mulohazalarini inobatga oladi. Ta'lim muassasasi faoliyati yuzasidan tegishli masalalarni hal qiladi, davlat oldida javob beradi. Ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etishda rahbarga o'quv hamda tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rribbosarlari ko'maklashadilar.

O'quv ishlar bo'yicha direktor o'rribbosari ta'lim muassasasining o'quv ishlari bo'yicha mas'ul shaxsdir. U o'quv ishlariga bevosita rahbarlik qiladi.

Oliy ma'lumotli, kamida uch yillik pedagogik stajga ega bo'lган eng yaxshi o'qituvchilargina mazkur lavozimda ishlashlari mumkin. Uning nomzodini ta'lim muassasasi rahbari tavsiya etadi, tuman, (shahar) xalq ta'limi bo'limi tasdiqlaydi. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rribbosari maktabdagagi ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, o'quv dasturlari talablarining bajarilishi, dars mashg'ulotlarning to'g'ri tashkil etilishi hamda o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishlari uchun javobgar bo'lib, ta'lim ishini yo'lga qo'yilishi o'quvchilar bilim darajasining o'sishi ustidan nazorat olib boradi. O'qituvchilarga metodik yo'l-yo'riq ko'rsatadi, ta'lim ishining uyushtirilishini rejalashtiradi, metod birlashmalarning ishiga rahbarlik qiladi.

Ma'naviy ishlar bo'yicha direktor o'rribbosarlari ta'lim muassasalarining tarbiyaviy ishlarga bevosita rahbarlik qiluvchi mas'ul shaxsdir. Oliy ma'lumotli, kamida uch yillik pedagogik stajga ega bo'lган eng yaxshi o'qituvchilargina mazkur lavozimda ishlashlari mumkin. Uning nomzodini ta'lim muassasasi rahbari tavsiya etadi, tuman, (shahar) xalq ta'limi bo'limi tomonidan tasdiqlanadi. Ma'naviy ishlari bo'yicha direktor o'rribbosari ta'lim muassasasida tarbiyaviy jarayonning to'g'ri tashkil etilishini, tarbiyaviy ishlarning yillik rejasini ishlab chiqarish va uning bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish, ichki tartib qoidalariiga rioya

etilishini ta'minlash, o'quvchi va xodimlarning ma'naviy qiyofasini shakllantirish, ularning xulq-atvorlari ustidan nazoratni tashkil etish kabi ishlarni olib boradi.

Xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari ta'lim muassasa-sining xo'jalik-moliyaviy ishlarni yuritish ishiga mas'ul sanalgan shaxsdir. Ushbu lavozimga nomzodni ta'lim muassasasi rahbari tavsiya etadi va tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi tasdiqlaydi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy mablag' bilan o'quv muassasa-sining ta'minlanishi, qo'shimcha daromad manbalarini yaratish borasidagi takliflar bilan chiqish, ta'lim muassasasining o'quv jihozlar bilan ta'minlanishi, binoning joriy hamda to'la ta'miranishiga erishish kabi masalalarni hal etishdan iboratdir.

Maktab direktorining funksional vazifalari. Maktab direktori ta'lim muassasasining asosiy maqsadi bo'lgan ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish rivojlantirishda o'ziga xos bo'lgan axborot-tahlil, maqsadli-motivlashtirish, oldindan ko'rish, rejalashtirish, tashki-lij-ijrochilik, nazorat-tashxis va tartibga solish, muvofiqlashtirish funksiyalarini tizimli va to'g'ri amalga oshirishi zarur.

Axborot-tahlil funksiyasi boshqaruvda alohida ahamiyatga ega bo'lib, axborotlarni olish va tahlil qilish nazarda tutiladi. Bundan ko'zlangan birinchi maqsad - pedagogik tizimlar to'g'risida muntazam ravishda axborotlar to'plab borish, ularni chuqur o'rganish hamda obyektiv baholashdan iborat.

Olingan xulosalar asosida boshqaruv faoliyatining strategiyasi, rivojlanish omillarini aniqlash, chora-tadbirlarini belgilash, ularning bajarilishini tashkil etish va nazorat qilib borishni yo'lga qo'yish lozim. Bunda axborotlar ishonchli, yangi bo'lishi zarur.

Maqsadli – motivlashtirish funksiyasini amalga oshirishda, avvalo, ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsad umumiy ekanligini hamda mavjud shart-sharoitlar va vaziyatlarni hisobga olish zarur. Shuningdek, vazifalarni taqsimlashda maqsadlarning birligini saqlash, topshiriqlarning bajaruvchilar tomonidan o'z vaqtida va samarali bajarilishi uchun maqsadni belgilash jarayoniga ularni ham jalb etish, kutilayotgan natija yuzasidan oldindan tushunchaga ega bo'lish, topshiriqlar tahlil qilinib ularning bajarilish muddatini aniq belgilash zarur. Bunda motivlarning xususiyatlarini hisobga

olish, ya'ni ularning qaysi biri boshqaruv faoliyatini to'g'ri yo'naltirishga, qaysilari samarali harakatlar rejasini tuzishga imkoniyat yaratishini bilish o'ziga xos ahamiyatga ega.

Oldindan ko'ra bilish – rejalahshtirish funksiyasi tashkiliy shakllar, usullar bo'lib, ta'sir etuvchi vositalarni aniqlaydi, nazoratning me'yori va natijalarini baholashga xizmat qiladi. Shuningdek, pedagogik tizim va uning ishtirokchilari faoliyatini muvofiq-lashtirish, tartibga solishga imkoniyat yaratadi. Demak, rahbar tomonidan ta'llim muassasasining holatini, erishgan natijalarini, rivojlanish imkoniyatlari va dinamikasini aniqlash, jamoadagi ruhiy muhit, o'zaro munosabat va ehtiyojlarni o'rghanish hamda barcha uchun qulay bo'lgan o'zaro ta'sir jarayonini vujudga keltirish strategiyasini belgilash oldindan ko'rish-rejalashtirish funksiyasining asosini tashkil etadi.

Tashkiliy – ijrochilik funksiyasi. Boshqaruv faoliyatining barcha yo'nalishlarida o'z ifodasini topadi. Bu funksiyaning mohiyati kadrlarni tanlash, ularni joyiga qo'yish, ijrochilarning o'zaro ta'sir etish tizimini shakllantirish, axborotlar to'plash va ularga ishlov berish bilan bog'liq. Bu faoliyat natijasida ma'lum bir pedagogik boshqaruvga xos tarkibiy tizim vujudga keladi. Uni samarali amalga oshirish o'zaro ishonch va yordam, har kimga tanlash huquqini berish, faqat maqsadni emas, balki unga erishish mezonlarini ham belgilash, xodimlarning kasbiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini to'la namoyon etish uchun sharoitlar yaratish, tashabbuskorlikni rag'batlantirish va har bir xodimning mehnatini obyektiv baholash bilan bog'liq bo'lib, jamoada sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitning vujudga kelishiha o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Nazorat - tashxis funksiyasi. Nazorat boshqaruv jarayonida amalga oshiriladigan barcha funksiyalar bilan bog'liq bo'ladi. Pedagogik tizimni boshqarish jarayonida ko'zlangan yo'nalishdan ma'lum bir ma'noda og'ishlar ham vujudga kelishi mumkin. Aynan shunday vaziyatlarda yo'l qo'yilayotgan xatolaming sababini o'z vaqtida aniqlash va tuzatish usullarini belgilashda nazoratning o'mi muhim.

Tartibga solish-muvofiqlashtirish funksiyasi pedagogik tizimning holatini zaruriy, belgilangan darajada ushlab turish, uni yangi

sifat darajasiga ko‘tarish va pedagogik jarayonda yo‘l qo‘yilayotgan xatolarni tuzatish hamda ishtirokchilarning xatti-harakatlarini tartibga solish uchun xizmat qiladi. Mazkur funksiya yordamida pedagogik tizim subyektlarning faoliyati o‘zaro muvofiqlashtiriladi. O‘z navbatida muvofiqlashtirish pedagogik tizimning harakat yo‘nalishi bilan birga barcha bo‘g‘inlarning o‘zaro uyg‘unlashuvida yuqori darajadagi tezkorlikni talab etadi. Maktab rahbari boshqaruvda pedagogik jamoaning ilmiy-pedagogik faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va shakllantiradi, rejalashtiradi, rag‘batlan-tirish vositalari va usullarini belgilaydi, shu jarayonlarni nazorat qilib boradi. Jumladan yosh pedagogning o‘zi tanlagan kasbiga mehr qo‘yishi, o‘qituvchilik kasbining sirlarini mukammal o‘rganishi va unda o‘z kelajagiga nisbatan ishonch tuyg‘ulari rivojlani-shida ham maktab direktori katta ta’sir kuchiga ega shaxs hisoblanadi. Maktab direktori yosh o‘qituvchilarning darslarini kuza-tishi, tahlil qilishi, zaruriy ko‘rsatmalar berishi zarur.

Darslarni taxminan quyidagisha tahlil qilish mumkin:

- dars haqida umumiy ma’lumot: sinf, fan, mavzu, o‘qituvchi ma’lumoti va ish faoliyati;
- darsning maqsad va vazifalari, tuzilishi, darsni rejalash-tirilishi, vaqtidan foydalanish, sinfning sanitariya-gigiyena sharoiti;
- darsning mazmuni, berilayotgan materialning dasturga mosligi, ilmiyligi, bolalar yoshiga muvofiqligi, hayot bilan bog‘liqligi, yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish tartibi, mavzu mazmunining tarbiyaviy xarakteri;
- dars o‘tish usuli, yangi dars materialining o‘tgan mavzuga qanday bog‘lanishi, takrorlash va bolalar bilimini baholash, ko‘rsatmali materiallardan foydalanish, o‘quvchilarning mustaqil ishlari, uy vazifasining berilishi;
- o‘quvchilarning darsdagi diqqati, qiziqishi, faolligi, ishtiyoqi, intizomi;
- o‘quvchining xulqi, o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muo-malasi, sinfni boshqara olishi, nutq madaniyati, tashqi qiyofasi, shu sinf o‘quvchilari o‘rtasida uning obro‘sisi;

- darsning natijasi;
- darsning ijobiy va salbiy tomonlari.

Maktab direktori rahbarlik vazifasini bajarishda:

1. *Ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy yetuklik:* davlat va ta'lim siyosatini to‘g‘ri tushunish va talqin qilishi;
2. *Direktorlik lavozimiga zarur bo‘lgan tajriba, bilim, ko‘nikma, malakaga ega bo‘lishi;*
3. *Ta’lim tizimi va o‘quv muassasasi o‘qituvchilari, xodimlari, o‘quvchilar faoliyatini oldindan sezalish, shunga qarab chora tadbirlarni belgilashi;*
4. *Axloqli va tarbiyalanganligi obro‘-e’tibori, rostgo‘ylik, adolatlilik, kamtarlik, kamtarinlik, barcha kamchiliklarga murosasiz bo‘lishi;*
5. *So‘zi bilan ishi birligi - ishchanlik va uddaburonlik;*
6. *Inson psixologiyasini bilishi - aniq bir maqsadga yo‘naltirilganlik, har tomonlama rivojlangan psixologik muhit o‘rnatishga intilishga erisha olishi;*
7. *Ta’lim muassasasining barcha rahbariyati - pedagogik xodimlarning vazifalarini to‘g‘ri taqsimlay olish ularning natijalarini xolisona baholashi;*
8. *Ta’lim muassasalari pedagogik xodimlari va o‘quvchilar bilan samimiy munosabatda bo‘lish, mumkin qadar qulay sharoit yaratma olishi;*
9. *O‘z mehnat faoliyatini to‘g‘ri tashkil eta olish, o‘quv tarbiyaviy jarayonini samarali bo‘lishiga imkoniyat yarata olishi;*
10. *Pedagog - o‘qituvchilar, xodimlari, o‘quvchilarning sog‘lom bo‘lishlari, ishchanlik holatlarini saqlashi, ularning kundalik ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan sharoitni yaratish, zarur moddiy hamda ma’naviy yordam berishning imkoniyatlarini tanlay bilishi zarur.*

Rahbarlik amal kursisi emas, kasbdir. Direktoring rahbarlik tushunchasini quyidagicha ifodalash mumkin. Rahbarlik – bu:

Yo‘naltirish – pedagogik va o‘quvchilar jamoasini milliy istiqlol mafkurasining asosiy g“oyalari, tamoyillari asosida faoliyat ko‘rsatishga yo‘naltirish;

Vazifa qo'yish - “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonun, shuningdek, shu kabi rasmiy hujjatlar asosida pedagog va o‘quvchilar jamoasi oldiga shaxs va jamoani tarbiyalash bo‘yicha vazifa qo‘yadi;

O‘rganish - Pedagogik jamoani ta’lim-tarbiya jarayonini samsalari tashkil etish uchun aniq maqsad qo‘yish va kerakli metod, shakllari topishga o‘rganish;

Yordam berish - jamoada mehnat faoliyati va ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish va faollashtirishga yordam beradi;

Qo’llash - pedagogik va o‘quvchilar jamoasi, o‘qituvchi o‘quvchilar tashabbusini qo’llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;

Maslahat berish - jamoaga o‘z imkoniyatlarini to‘liq ishlashlari uchun kerakli amaliy uslubiy maslahatlar berish;

Kuzatish - kattalar va bolalar jamoasining saviyasi, axloqiy va madaniy-ma’rifiy o‘sishini takomillashtirib borishini kuzatish va o‘rgatish;

Tartibga solish - jamoaning ishga bo‘lgan va o‘zaro munosabatlarini, jamoa a’zolarining mehnat faoliyatlarini ijobiy salbiy tomonlarini tartibga solish;

Ko‘rsatma berish - jamoaga mehnat faoliyatlarini tashkil etishlariga kerakli ko‘rsatma berish;

Nazorat qilish - pedagogik xodimlar va o‘quvchilar faoliyatlarini natijalarini muntazam nazorat qilib berish.

Boshqaruvning quyidagi turlari farqlanadi:

1. *Avtoritar*: ya’ni yakka hokimlik usulida barcha ishlarni o‘zi hal etishga harakat qilishi “Men”ini yuqori qo‘yish;

2. *Demokratik*: ya’ni pedagogik jamoa va o‘quvchilar bilan hamkorlikda fikrashib ish olib borish;

3. *Liberal*: ya’ni o‘z ishiga, vazifalariga e’tiborsizlik bilan qarash, mas’uliyatni sezmaslik.

SHAKL	MAZMUNI
AVTORITAR USLUB	
Qisqa ish farmoyishlari; Po‘pisali ta’qiqlar; Qo‘l osti-	Guruh ishlari rahbar tomonidan oldin rejalashtiriladi; Qa-

dagilar bilan sovuqqon muomala; Maqtov va tanbeh subyektiv; Rahbarning o'rni-guruhdan tashqarida, undan yuqorida.	rorlar o'zboshimchalik bilan qabul qilinadi; Rahbarning so'zi - qat'iy; Faqat bevosita maqsadlar qabul qilinadi, istiqbol noma'lum.
---	---

DEMOKRATIK USLUB

Qo'llanmalar taklif sifatida beriladi; O'rtoqlik, muomala, xodimlarga hurmatli va e'tiborli munosabat; Farmoyishlar va ta'qiqlar munozaralar asosida bo'ladi; Maqtov va tanbehlar-maslahat bilan; Rahbarning o'mi -guruh ichida.	Tadbirlar yakka emas, guruh bilan rejalashtiriladi; Qarorlar kollegial muhokama qilinadi; Taklifni bajarilishida hamma javobgar (rahbar ham, xodimlar ham).
--	---

LIBERAL USLUB

Maqtov va tanbehlar yo'q; Jamoa ishlarida rahbar umuman chetlashgan;	Ishlar guruhda o'z-o'zidan boradi; Rahbar topshiriqlar bermaydi; Kichik guruhlar liderlarning ayrim manfaatlari hisobiga ish qisman bajariladi.
Hech qanday hamkorlik yo'q.	

2. Maktab pedagogik jamoasi

Maktab pedagogik kengashi. Pedagogik kengash mактаб директори huzuridagi maslahat kengashi bo'lib, uning qarorlari o'qituvchilar jamoasining yagona va umumiy fikrini aks ettiradi. Shuning uchun uning ta'sir kuchi katta. Pedagogik kengash qabul qilgan qarorlar mактаб uchun ham, direktor uchun ham majburiy hisoblanadi. Chunonchi, ta'lim-tarbiya ishlarining holati, yutuq va kamchiliklari, o'qituvchi-xodimlarni davlat mukofotlariga tavsiya etish, (maktablarda o'quvchilarni sinfdan sinfga ko'chirish) o'quvchini haydash kabi masalalar pedagogik ilmiy kengashda hal qilinadi, pedagogik kengash ilmiy yig'ilishlarida respublika hukumati qarorlari, Prezident farmonlari, yuqori organlarning ko'rsatmalari masalan, XTV va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklarining amalga oshirishga doir tadbirlarni belgilash, ta'lim

jarayonini amalga oshirish, ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, innovatsion va axborotli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ilg'or ish tajribalarini ommalashtirish, oila, jamoatchilik bilan ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni yuzaga keltirish uni mustahkamlash va hokazo masalalar ko'rib chiqiladi. Kengashning har bir a'zosi ta'lim-tarbiya ishiga oid masalani o'z tashabbusi bilan Kengash yig'ilishi muhokamasiga olib chiqish huquqiga ega. Kengash qarori ta'lim muassasasi rahbari tomonidan tasdiqlanganidan so'ng kuchga kiradi va jamoaning har bir a'zosi uchun majbuliy hisoblanadi.

Pedagogik kengashga - maktab direktori (rais), o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari, ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosarlari, maktabdag'i barcha o'qituvchilar, kutubxona mudiri, maktab shifokori, ota-onalar kengashining raisi a'zo bo'lib kiradilar (jadvalga qarang).

PEDAGOGIK KENGASHNING DOIMIY TARKIBI

MAKTAB DIREKTORI	MAKTAB DIREKTO RINING O'RINBOSARLARI	MAKTAB-NING BARCHA O'QITUV-CHILARI	KUTUBXONA MUDIRI, MAKTAB SHIFO-KORI	OTA-ONALAR KENGASHNING RAISI
↓	↓	↓	↓	↓

Pedagogik kengash ishini rejalashtirish va tashkil etish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Pedagogik kengash ishini bir yilga rejalashtirish;
- Har bir pedagogik kengash ishiga avvaldan tayyorgarlik ko'rish;
- Pedagogik kengashni reja asosida o'tkazish;
- Pedagogik kengash qarorlarini bajarish.

Pedagogik kengash ishining vazifalari:

- Ijodiy faoliyat yurituvchi jamoani shakllantirish;
- Metodik ishlarni takomillashtirish;

- Har bir darsning yuqori natijali bo'lishiga erishish;
- O'qitish ishlarini sifatli bo'lishini ta'minlash;
- Iqtidorli bolalarni aniqlash, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- "Tarbiyasi og'ir" bolalar bilan olib boriladigan ishlarni takomillashtirish;
- O'quvchilarning jipslashgan jamoasini shakllantirish;
- Maktabning barcha yo'naliishlari bo'yicha ish rejalarini tasdiqlash, uning bajarilishini muhokama qilish;
- Turli yo'naliishdagi to'garaklarni tashkil etish haqidagi qarorlarni qabul qilish;
- O'quvchilarning sog'ligini, maktabning sanitari-gigiyenik hamda psixologik-valeologik holatini nazorat qilish.

Pedagogik kengashning qarorlari maktabning ish tajribasiga, rahbar tashkilotlarning ko'rsatmalariga va pedagogika fanining yutuqlariga asoslangan bo'lishi kerak. Pedagogik kengashning qarorlari maxsus daftarga yozib boriladi, rasmiylashtiriladi, bajari-lishi kuzatiladi va nazorat qilinadi, natijasi navbatdagi yig'ilishda kengash a'zolariga xabar qilinadi. Qarorlar daftari maktabning muhim hujjati bo'lgani uchun uni yuritishga alohida e'tibor beriladi.

Ta'lim muassasalarining muhim hujjatlari sirasiga:

1. O'quvchilarning alfavit asosidagi ro'yxati.
 2. O'quvchilarning kasbiy ishlari.
 3. Sinf jurnallari.
 4. Fakultativ mashg'ulotlar jurnali.
 5. Kuni uzaytirilgan guruuhlar jurnali.
 6. To'liqsiz o'rta ma'lumot haqidagi shahodatnoma berish qayd daftari.
 7. Maktab pedagogik kengashi qarorlari kitobi.
 8. Buyruqlar daftari.
 9. Pedagogik xodimlarni hisobga olish daftari kiradi.
- Maktabda ish yuritish hujjatlari quyidagi tartibda joylashtiriladi:***
1. Rahbar organlarining ko'rsatmalari.
 2. Tashkiliy masalalarga oid hujjatlar.

3. O'quv masalalariga oid hujjatlar.

4. Tarbiyaviy masalalarga oid hujjatlar.

5. Kadrlarga oid hujjatlar.

6. Jamoatchilik bilan olib boriladigan hamkorlik, ta'lif muassasalarining ommaviy ishlariga oid hujjatlar.

7. Moliya, xo'jalik ishlariga moddiy ta'minot va ta'mirlash ishlariga oid hujjatlar.

8. Ta'lif muassasasidan yuborilgan va unga kelgan hujjatlar qayd etiladigan daftar va boshqalar.

Pedagoglar va sinf rahbarlarining hujjatlariga esa quyidagilar kiradi:

1. Dars rejasi.

2. Tarbiyaviy ish rejasi.

3. Tematik ish reja.

Mazkur hujjatlarning yuritilishi ta'lif muassasasi faoliyatiga to'la baho berish, mavjud kamchiklarni aniqlash imkonini beradi.

Maktabning ota-onalar bilan olib boradigan ishlari. Hamkorlik ishlarini maktabda ota-onalar bilan suhbatlar, majlislar, maslahatlar o'tkazish, ota-onalar kengashi shakllarida amalga oshirish mumkin.

Ota-onalar bilan individual suhbatlar o'tkazish. Bola maktabga kirib, to uni tamomlab chiqqunga qadar ota-ona maktab bilan yaqindan aloqada bo'lishi, o'z bolasingining xulq-atvoridan, o'qishidan doimo xabardor bo'lib turishi, bola tarbiyasiga doir masalalarni o'qituvchi bilan maslahatlashib hal qilishi, mактабдан ташқаридаги боланинг нима билан mashg'ul bo'lishidan o'qituvchini xabardor qilib turishi lozim.

Ota-onalar majlisi. Sinf va umummaktab ota-onalar majlisi maktab bilan oila o'rtaida aloqa bog'lashda katta rol o'ynaydi. Bunday majlislarning tematikasi ota-onalarni qiziqtiradigan, ularning talablarini qondiradigan bo'lishi kerak.

Ota-onalar uchun maslahatlarlar o'tkazish. Maktab ma'muriyati o'quvchilarning ota-onalari bilan yaqindan aloqada bo'lish va ularni ta'lif-tarbiyaviy bilimlar bilan qurollantirib turish maqsadida ota-onalar uchun maslahatlar o'tkazadi.

Ota-onalar kengashi. O‘quvchilarning ota-onalari bilan yaqindan aloqada bo‘lish va ularga to‘g‘ri rahbarlik qilish maqsadida maktablarda ota-onalar kengashi tashkil etiladi. Ota-onalar kengashiga asosan, maktab direktori rahbarlik qiladi.

Maktab direktori ota-onalar kengashining ishini yaxshi yo‘lga qo‘ysa, u kengash matabning barcha ishida katta yordam beradi.

Ota-onalar kengashining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni keng yo‘lga qo‘yishda maktabga yordam berishdir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Maktab direktori matabni boshqarishda nimalarni hisobga olishi kerak?
2. Rahbarning ta‘lim muassasasidagi vazifasi nimalardan iborat?
3. Maktab pedagogik kengashining vazifasi nimalardan iborat?
4. Maktab direktorining funksional vazifalarini sanab o‘ting?

GLOSSARIY

Akademik litsey - o‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo‘naltirilgan ta’lim olishlarini ta’minlash maqsadida davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘rta maxsus ta’lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.

Akademiya - kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo‘yicha oliy va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim dasturlarini amalga oshirishga imkon beruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.

Amaliy ishlar metodi - o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo’llash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi usul.

Anomaliya (yunoncha – anomal) - me’yordan, umumiylardan chetlanish, noto‘g‘ri rivojlanish.

Anomal bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish- korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo‘lib, nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirish.

Axloq- (lotincha “moralis” - xulq-atvor ma’nosini bildiradi) - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig‘indisi.

Axloqiy ong - shaxsga axloqiy me’yorlar va xulq-atvor qoidalari to‘g‘risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.

Axloqiy tarbiya - muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o‘quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Aqliy tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘-risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Absolyut va nisbiy haqiqat - bilish jarayonining taraqqiyotini belgilovchi kategoriyalar. Nisbiy haqiqat o‘sib absolyut haqiqatga aylanadi.

Abstrakt tafakkur - narsa va hodisalarning bevosita idrok qilish mumkin bo‘lmagan xususiyatlari, o‘zaro munosabatlari, qonuniyatlari haqidagi mavhum tushunchalar asosida fikrlash turi. Bunda mavhum tushunchalar hosil qilinadi.

Abstrakt tushuncha - narsa va hodisalarning mavhum belgi, xususiyat, sifat va o‘zaro munosabatlarini aks ettiradigan tushunchalar.

Avtoritar pedagogika (avtoritar pedagogik texnologiya) - ta’lim-tarbiya jarayoniga rahbarlikda o‘qituvchining obro‘siga asoslanish, unga o‘quvchilarning ko‘r-ko‘rona, so‘zsiz itoat etishlari. Bunda o‘quvchilarning erkin va mustaqil fikrlashlari, shunday harakatlar qiliqlari cheklangan bo‘ladi.

Avtoritet - shaxsning boshqalar e’tirof qilgan obro‘sni, fazilati, boshqalarga nisbatan ta’siri va ular tomonidan qadrlanishi. Avtoritet chin yoki soxta bo‘ladi.

Adaptiv mashg‘ulot - o‘quvchining tashqi muhitga, jamoaga, mehnat vazifalarini bajara olishga moslashuvini ta’minlashga qaratilgan mashg‘ulot.

Atama - tabiiy tildagi so‘z yoki so‘z birikmalari (real yoki abstrakt narsalarni ifodalovchi). Atamaning u yoki bu kontekstdagi ma’nosini to‘g‘risidagi masala doim muhokama qilinadi, chunki odatdagi til ko‘p ma’noli. Odatdagi til ko‘p ma’noli bo‘lgani sababli, atamaning har bir holatdagi qo‘llanilishi ma’nosini muhokama qilib boriladi. Bir fan yoki ilmiy nazariyada atamalar bitta ma’noda ishlataladi. Atamalar nazariy, empirik turlarga ajratiladi. Nazariy atamalar tajriba bilan asoslangan, empirik atama esa tajriba orqali tasdiqlangan xulosalarga tegishli bo‘ladi.

Baynalminallik (“inter” – orasida, o‘rtasida, aro, “natio” – xalq) – o‘zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an’analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma’naviy-axloqiy fazilat.

Bakalavriat - mutaxassisliklar yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta’lim olish muddati kamida to‘rt yil davom etadigan tayanch oliy ta’lim.

Bashoratlash - bo‘lajak darsni tashkil etilishining turli variantlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma’qulini tanlab olish.

Baho - ta’lim oluvchilarga ularning ta’lim olishi, bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan ijodiy yondoshishini rag‘batlantirish maqsadida ta’sir ko‘rsatish vositasi.

Bilim olish - borliqni idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko‘nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.

Boshlang‘ich ta’lim - o‘quvchilarga murakkab bo‘lmagan ilmiy bilimlarni berish asosida ularda o‘qish, yozish va hisoblashga oid dastlabki bilim, ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish asosida ularda shaxsiy gigiyena va sog‘lom turmush tarzi elementlarini hosil qilish bosqichi.

Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi - boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarini tarbiyalash, ularga ta’lim berish, ularning o‘ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o‘rganadi.

Bilim - borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi. Obyektiv reallikning inson ongida adekvat aks ettililishi (tasavvur, tushuncha, mulohaza, nazariyalar). U kundalik, ilmiy, empirik, nazariy bilimlarga ajratadi. Kundalik bilim sog‘lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga asoslanadi. Insonning atrof-

muhitga moslashuvi, uning xatti-harakatlari va oldindan ko'ra bilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy bilim - tizimli, asosli va narsa, hodisalar mohiyatiga churqur kirib boradigan bo'ladi. U empirik va nazariy darajada bo'ladi.

Empirik bilim - bilishning kuzatish, o'lchash, tajriba usullarini qo'llash natijasi. Narsa-hodisalarning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini ifodalaydi. Empirik ko'rsatkichlar orasidagi bog'liqlarning muntazam takrorlanishi empirik qonunlar yordamida ifodalanadi, ular, ko'pincha, ehtimollik xususiyatiga ega bo'ladi.

Nazariy bilim - empirik holatlarni tasvirlash, tushuntirish, ya'ni narsa-hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonunlarni ochishni nazarda tutadi.

Bilish - obyektiv borliqning ongda aks etishining oliv shakli, haqiqiy bilimlar hosil qilish jarayoni. Bilish quyidagi darajalarda bo'ladi:

Missiy bilish - sezgilar, idrok, tasavvur orqali.

Ratsional bilish - tushunchalar, mulohazalar, aqliy xulosalaridan o'tib nazariyalarda o'rinn oladi. Shu bilan birga bilish – kundalik, badiiy, ilmiy bo'ladi. Ilmiy bilish tabiatni va jamiyatni bilishga ajraladi.

Birlamchi modul - pedagogik texnologiyani uning biror daramasidan boshlab tasvirlashda dastlabki modul sifatida tanlangan va o'z tarkibiga bitta yoki bir nechta kichik modullarni oladigan modul to'plami.

Vatanparvarlik (lotincha "patriotes" – vatandosh, "patris" – vatan, yurt) - shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.

Verbal – bilim (ma'lumot, axborot)larni so'z yordamida (og'zaki) yetkazib berish, ifoda etish.

Gnoseologiya (yunon tilidan gnosis – bilim, ong, o'rganish) – bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatları,

uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo‘lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta’limot.

Davlat ramzları - muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidllari, intilishlari va maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g‘oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmui.

Davlat ta’lim standarti – 1) ta’lim olish shaklidan qat’iy nazar bitiruvchilar erishishlari zarur bo‘lgan ta’lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat; 2) o‘quv fani bo‘yicha ta’limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat; 3) ta’lim dasturlari mazmunining minimumi, o‘quvchilar tomonidan bajariladigan o‘quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo‘yiluvchi talablar.

Dars - bevosita o‘qituvchi rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli.

Darslik – muayyan fan bo‘yicha ta’lim maqsadi, o‘quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni beruvchi manba.

Didaktika (ta’lim nazariyasi) – (yunoncha “didaktikos” “o‘rgatuvchi”, “didasko” – “o‘rganuvchi”) - ta’limning nazariy jihatlari (ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatları, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati mazmuni, ta’lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari va hokazo muammolari)ni o‘rganuvchi fan.

Didaktika tamoyillari (lotin tilidan “principium” - har qanday nazariyaning asosiy, boshlang‘ich, dastlabki holati) – ta’limni tashkil etishga qo‘yilgan me’yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta’lim jarayonining asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki holatini belgilovchi qarashlari.

Didaktik tashxis maqsadi - o‘quv jarayonining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish.

Didaktik tizim (yunoncha “systema” - yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) - ma’lum mezonlari asosida ta’lim jarayoning yaxlit holatini belgilash, ajratib ko‘rsatish.

Didaktik o'yin - o'rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faoliydarajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyatini turi.

Dunyoqarash - tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyatini mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimi.

Jazolash - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish usuli.

Jamoa (lotincha "kollektivus" so'zining tarjimasi bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma'nolarni anglatadi) - bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

Jamoaning analari - jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.

Jamoaning norasmiy tuzilmasi - jamoa a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi, shuningdek, jamoada mikroguruhnini tashkil qiluvchi ayrim shaxslar o'rtasidagi tanlash munosabatlarining mazmuni.

Jamoaning rasmiy tuzilishi - turli ko'rinishdagi jamoa faoliyatini yo'lga qo'yishning tashkiliy jihatlari.

Jinsiy tarbiya - o'zida shaxsni jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o'rgatish, o'z sog'ligi uchun g'amxo'rlik qilish va mas'uliyatli bo'lishni ta'minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat mazmuni.

Jismoniy tarbiya - o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.

Joriy nazorat - ta'lim jarayonida o'quvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan muayyan mavzularni o'zlashtirilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

Idrok – aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha “adapto” - moslashish) – anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.

Ijtimoiylashuv – ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar - o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlar, e’tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg‘usi va irodasiga ta’sir ko‘rsatish usullari.

Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g‘oyalarning tutgan o‘rnii va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirish muammolarini o‘rganadi.

Ijtimoiy reabilitatsiya (yunoncha “reabilitas” – layoqati, qobiliyatini tiklash) - anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlariga tayangan holda uning ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etishi uchun zarur sharoit yaratish, ijtimoiy faoliyat va mehnatga jalg etish.

Izohlash (tarbiya metodi sifatida) – tarbiyalanuvchiga hissiyog‘zaki ta’sir etish usuli.

Ilmiy dunyoqarash - uzlusiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlashgan dunyoqarash shakli.

Ilmiy tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqeа-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuv.

Ilmiy qarash (yunoncha “idea” - g‘oya, tasavvur, tushunchalar yig‘indisi) - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g‘oya.

Individ (lotincha “individuum” bo‘linmas, yagona, alohida degan ma’nolarni anglatadi) – xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Individuallik - shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari.

Institut - bilimlarning bitta sohasi doirasida aniq yo‘nalishlar bo‘yicha oliy va qoidaga ko‘ra oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.

Iqtisodiy tarbiya - o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila budgetini shakllantirish, xo‘jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko‘paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

Iqtisodiy ta’lim - o‘quvchilarga xo‘jalik yuritish tizimi (oila byudjetini shakllantirish, xo‘jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko‘paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish va hokazolar) to‘g‘risidagi nazariy bilimlarni berishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Inversnoy ta’lim - ag‘darish, joyini almashtirish; tafakkur tizimini shakllantirish yo‘nalishidagi ta’lim.

Innovatsiya - yangilanishni, o‘zgarishni amalga joriy etish, kiritish jarayoni va faoliyati.

Integral - chambarchas bog‘liq, butun, yagona; o‘z cheksiz kichik qismlarining yig‘indisi.

Intellekt - insonning umuman bilish faoliyati, fikrlash qobiliyati; tushunish, mulohaza, tafakkur, aql.

Interfaol mashg‘ulot - o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘zaro faol ishtirok etadigan mashg‘ulot; jarayon **hamkorlikda** kechadi.

Yosh xususiyatlari - muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash - mutaxassislarining kasb bilimlari va ko‘nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi ta’lim bosqichi.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” - “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariiga muvofiq, milliy tajribaning tahlili hamda ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-

hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqlol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish mazmunini belgilab beruvchi yuridik hujjat.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli - shaxs, davlat va jamiyat, uzlusiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida "yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi" mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha Uning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat.

Shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

Davlat va jamiyat - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari.

Uzlusiz ta'lim - malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Fan - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi;

Ishlab chiqarish - kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta'minlash jarayonining faol ishtirokchisi.

Yo'l (ruscha - priyom) - biror maqsadni amalga oshirish uchun tanlangan harakat turi.

Kasb-hunar kolleji - o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan

kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Kategoriya - fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha.

Kompensatsiya (yunoncha "compensatio" - o'mini to'ldirish, tenglashtirish) - oliv nerv faoliyatining zaxira imkoniyatlariga tayangan holda organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o'mini to'ldirish yoki qayta qurish.

Korrekteziya (yunoncha "correctio" - tuzatish) - pedagogik uslub va tadbirdardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to'liq tuzatish.

Korrektsiyon (maxsus) pedagogika (defektologiya – yunoncha "defectus" - nuqson, kamchilik, "logos" - fan, ta'limot) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'r ganuvchi fan.

Korrektsiyon-pedagogik faoliyat - yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Korrektsiyon-tarbiyaviy ishlari - shaxsning anomali rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiyligida pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimi.

Ko'nikma - olingen bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi.

Ko'rgazmali metodlar - predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko'rsatishda qo'llaniluvchi usullar.

Kichik modul - pedagogik texnologiya tarkibidagi eng kichik birlikni ifodalaydi. Amalda bunday kichik modulni tashkil qiluvchi boshqa kichik modullarga ajratish mumkin emas deb hisoblanadi.

Kognitiv - atrof odam haqidagi bilim doirasini kengaytirish, differensiyalovchi tafakkurni shakllantirish, bilish ehtiyojlarini rivojlantirish ta'limi.

Kreativ - tadqiqotchilik xarakteriga ega; o'quvchilarda ijodiy tafakkurni jadal (maqsadga yo'naltirilgan) ravishda rivojlantirish ta'limi.

Litsey (kollejda) ma'ruza - o'quv materialini o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini faollashtirish uslublari bilan birgalikda davomli og'zaki bayon etish (80-90 minut), berilayotgan materialning sxematik modelini tuzish (assosiy fikrni tezis yoki loyiha ko'rinishida yozib olish) va boshqalar.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) - o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish.

Logopediya (yunoncha "logos" - so'z, nazariya, ta'limot, "paideia" - tarbiyalash) - nutqiy nuqsonlarni o'rghanish, ular kelib chiqishining oldini olish va ularni qisman yoki to'liq tuzatish masalalarini o'rghanuvchi fan; korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Magistratura - aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta'lim muaddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim.

Madaniyat ("cultura" so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) - ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) - ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Maktabgacha ta'lim - bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlovchi, unda o'qishga intilish

hissini uyg‘otuvchi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta’lim bosqichi.

Maktabgacha ta’lim pedagogikasi - maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o‘rganadi.

Maktabdan tashqari ta’lim - madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarda yo‘lga qo‘yiluvchi, bolalar hamda o‘smirlarning ta’limga bo‘lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqt va dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan ta’lim bosqichi.

Malaka - ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

Materialni og‘zaki bayon qilish metodlari - o‘quv materiali mohiyatini ozg‘aki (hikoya, tushuntirish, maktab ma’ruzasi kabi shakllarda) yoritishda qo‘llaniluvchi usullar.

Mafkura (arabcha “mafcura” – naqtayi nazar va e’tiqodlar tizimi, majmui) - jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma’naviy-axloqiy yuksalish, ma’rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta’minlovchi, ularning maqsad va yo‘nalishlarini aniqlashda yetakchi o‘rin tutuvchi g‘oyalar tizimi.

Mashq va o‘rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari - muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me’yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.

Ma’lumot - ta’lim-tarbiya natijasida o‘zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Ma’naviyat (arabcha “ma’naviyat” - ma’nolar majmui) - mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir o‘tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g‘oyalar majmui.

Ma'rifat - shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Ma'ruza - yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish shakli.

Menejment - mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish uchun shaxs (xodim) yoki guruhga ta'sir o'tkazish asosida ularning faoliyatini tashkil etish tamoyillari, shakllari, metodlari va usullari.

Metod - yunoncha tarjimasi "tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li" kabi ma'nolarni anglatadi.

Metodika (fan sifatida) - xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Mehnat tarbiyasi - shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Munozara (tarbiya metodi sifatida) - tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli.

Malaka amaliyoti - o'quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va uquv hosil qilish, ta'lim das turining ma'lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo'yicha materiallar toplash uchun o'tkaziladigan bir qismi.

Malaka oshirish - mutaxassislar va rahbar xodimlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilash hamda rivojlantirish jarayoni.

Malaka talablari - uzlusiz ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiyl bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar.

Mahorat - shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati. Biror sohadagi moslashuvchan ko'nikma va ijodkorlik asosida hosil bo'lgan kasbiy ko'nikmalarning yuqori darajasi, kasbiy mohirlilik. Biror faoliyat sohasidagi yuqori darajada egallangan bilim, ko'nikma, malakalarни amaliyotda yuqori sifat va samaradorlik bilan qo'llash.

Modul - pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi tushuncha. Bu tarkibiy bo'laklar, ya'ni modullar eng kichik bo'laklardan hamda ularning turli miqdordagi to'plamlaridan iborat bo'ladi. Bunda eng kichik tarkibiy bo'lakni eng kichik modul, boshqalarini esa o'z ichiga qancha shunday modulni olishiga qarab, tegishlicha darajadagi modullar deyiladi.

Modul darajasi - pedagogik texnologiyani tasvirlash ko'lamiga muvofiq ravishda tanlangan birlamchi modullarning o'z tarkibida aslida qancha modullarga ega ekanligi ko'rsatkichi.

Modul to'plami - pedagogik texnologiyani uning biror darajasidan boshlab tasvirlash maqsadi asosida bitta modul sifatida hisoblangan bir nechta modullar yig'indisi.

Modullashtirish - pedagogik texnologiya materiallarini modullarga ajratish jarayoni.

Monitoring - korxona, tashkilot, muassasa holatini har tomonlama baholash va uning faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida maxsus tashkil qilingan tizimli kuzatuv. Me'yoriy hujjatlar, yuqori tashkilotlarning buyruq va qarorlari ijrosi o'z muddatida hamda qanday sifat va darajada amalga oshirilayotganligini kuzatuv tizimi.

Ta'lim-tarbiya sohasida monitoring — o'quv jarayoni va uni boshqarishning uzlusiz kuzatuvini olib borish.

Metodik - metodikaga tegishli qat'iy ketma-ketlikka, tizimga, ilgaridan o'rnatilgan reja, tizimga aniq, roya qilish.

Metodist - biror o'quv fanini o'qitish yoki tarbiyaviy ishlar metodikasi sohasidagi mutaxassis.

Metodologik - metodologiyaga tegishli, nazariy asoslanish.

Metodologiya - bilishning ilmiy metodi haqidagi ta'limot. Biror fanda qo'llanadigan metodlar majmuasi.

Motiv - odamni o'qishga yoki biror harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi.

Nazorat (ta'lim jarayonida) - ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayoni.

Nafosat didi - shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, obyektiv nafosat o'lchovi.

Nafosat madaniyati - go'zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go'zallikkarni asrash va boyitish yo'lida o'zlashtirilgan bilim hamda amalga oshiriladigan nafosat faoliyatini tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Nafosat ongi - go'zallik, go'zallikni his etish, uning mohiyatini anglash, nafosat his-tuyg'usi, nafosat didi kabi tushunchalarining ongda aks etishi.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya- lotincha "estezio" go'zallikni his qilaman) - o'quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, ular tomonidan go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Oila - kishilarining nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiylar turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.

Oilaviy munosabatlar - ota-onalar (yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar) hamda farzandlar o'rtaida turli yo'naliishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.

Oila tarbiyasi - ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun mas'ul shaxslar) tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Oligofreniya (yunoncha "olygos" – kam, "phren" - aql) - bu natal (tug'ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta-

bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.

Oliy ta'lim - o'rtalik maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etiladigan hamda mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlab beruvchi ta'lim bosqichi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim - jamiyatning oliy mala-kali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim – kasb-hunar manfaatlarini qanoatlan-tirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasa-larida tayanch doktorantura va doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladigan ta'lim bosqichi.

Oraliq nazorat - o'quvchilar tomonidan o'quv materialining muayyan bob yoki bo'limlari bo'yicha o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

Oliy ma'lumot darajasi - shaxs tomonidan oliy ta'limning muayyan ta'lim dasturini mazkur ma'lumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda, o'zlashtirishi natijasi.

Oliy ma'lumot haqida davlat hujjati (diplom) - akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasalarini bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy ta'limning ta'lim dasturlarini bajargan-liklarini tasdiqlovchi davlat na'munasidagi hujjat. Hujjat uzuksiz ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishlash huquqini beradi.

Oliy ta'lim - uzuksiz ta'limning yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi. Oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim ikki bosqichdan iborat: bakalavriyat va magistratura.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori - oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriyat ta'limi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtiril-gan ro'yxati.

Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti - ta’limning bakalavriat muayyan yo‘nalishi yoki magistratura mutaxassisligiga qo‘yiladigan malaka talablari, ta’lim mazmuni, bakalavr yoki magistr tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan me’yoriy hujjat.

Pedagogika (yunoncha “paidagogike” bo‘lib, “paidagogos” - bola, yetaklayman) - ijtimoiy tarbiyaning umumiyligini qonuniyatlar, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan.

Pedagogika tarixi - ta’lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda yetakchi o‘rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o‘rganadi.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari - shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.

Pedagogik mahorat - bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o‘rganadi.

Pedagogik paradigma (yunoncha “paradeigma” - misol, namuna) - pedagogika fani rivojining ma’lum bosqichida ta’limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e’tirof etilgan nazarriy hamda metodologik ko‘rsatmalar to‘plami; ta’limning kontseptual modeli.

Pedagogik talab - turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o‘quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari.

Pedagogik texnologiya - ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaliviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganadi.

Pedagog kadrlar tarkibi - o‘qituvchi, metodist, tarbiyachi, psixolog, defektolog, logoped, sport instruktori, musiqa, badiiy ijobiyot, radiotexnika, sport va boshqa yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatuvchi to‘garaklarning rahbarlaridan iborat mutaxassislar.

Pedagogik mahorat - ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

Pedagogik talab - turli harakatlarni bajarish, muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o‘quvchi amal qilishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini ifodalovchi vazifa; tarbiyaning eng muhim usuli.

Rag‘batlantirish - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobjiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko‘ngilini ko‘tarish va uni qo‘llab-quvvatlash usuli.

Rivojlanish - shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Reyting (baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash) - muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo‘yicha baholash.

Sinf - yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo‘lgan, ma’lum o‘quvchilar guruhi.

Surdopedagogika (yunoncha “surdus” – kar) - eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonini o‘rganuvchi fan; korrektcion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Suhbat - savol va javob shaklidagi dialogik ta’lim metodi.

Tamoyil - (yunoncha “principium”) - biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang‘ich qoidasi; boshqaruvchi g‘oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni - o‘qituvchi va o‘quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni - shaxsning shakllanishiga qo‘yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi (yunoncha “metodos” - yo‘l) - tarbiya maqsadiga erishish yo‘li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi - pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o‘rganadi.

Tafakkur - (ijtimoiy voqeа-hodisalarning ongda to‘laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli).

Tashhis - didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

Ta’lim - o‘quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayon.

Ta’lim va tarbiya mazmuni - shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta’lim vositalari - ta’lim samaradorligini ta’minlovchi obyektiv (darslik, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, video-magnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va subyektiv (o‘qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

Ta’lim jarayoni - o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta’lim menejeri - ta’lim muassasasi faoliyatini zamонавий menejment qonuniyatlariga muvofiq boshqaruvchi mutaxassis.

Ta’lim metodlari - ta’lim jarayonida qo‘llanilib, uning samarasini ta’minlovchi usullar majmui.

Ta'lim muassasi ustavi - ta'lim muassasasiga rahbarlik mohiyatini yorituvchi hamda uning faoliyatini boshqarish tizimini aniqlovchi hujjat.

Ta'lim konsepsiyalari (lotin tilidan “conceptio” – tizim) – ta'lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi; uzlusiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida ta'lim muassasalari faoliyati yo'nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.

Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) - ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya.

Ta'lim mazmuni - davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitida muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) - ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Ta'limni boshqarish - ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o'rganadi.

Ta'limning sinf-dars tizimi - dars shaklida muayyan o'quvchilar guruhi bilan o'quv rejasiga muvofiq tuzilgan aniq jadval bo'yicha olib boriladigan ta'lim jarayoni.

Ta'lim tizimi - davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida faoliyat yurituvchi barcha turdag'i ta'lim muassasalari majmui.

Ta'lim shakli - ta'lim jarayonining tashkiliy tuzilmasi.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) - o'zaro bog'langan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtasidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlik.

Tiflopedagogika - (yunoncha typhlos - ko'r) – ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish muammolarini o'rganuvchi fan; korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Test - aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Topshiriq - o'quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan usul.

Tushuntirish - o'quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish.

To'garak - o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida sinfdan yoki mакtabdan tashqari sharoitda uyushtiriluvchi qo'shimcha ta'lism Shakli.

Taktika - bosh maqsad yo'lida xususiy, oraliq masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan harakatlarni tashkil qilish usuli. Pirovardida strategik maqsadlarga ko'proq samara bilan erishishni ta'minlash uchun sharoitning o'zgarishlarini mos ravishda hisobga olish.

Tafakkur operatsiyalari - qiyoslash, tahlil, sintez, abstraktlashtirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, tasniflash, tizimlash.

Ta'lism dasturi - o'quv fanlarining bakalavriat yo'nalishlari yoki magistratura mutaxassisliklariga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va yetarli darajadagi tayyorgarligini ta'minlovchi, bloklarga jamlangan ro'yxati.

Ta'limning jamoa usuli (jamoat'a'limi) - o'quvchilarning bir-birini o'qitish shakli. Har bir o'quvchiga yangi dars mavzusi bo'yicha bir varaqdan kam bo'limgan hajmdagi ilmiy matn yoki maqolani qayta so'zlab berish va hamma savollarga javob bera olish darajasida o'r ganish topshiriladi. Har bir o'quvchi navbatmanavbat bir necha o'quvchi bilan bittadan abzatsni, misolni, savolni o'zaro muhokama qilib, o'zlashtiradi. So'ngra kichik guruh yoki butun sinf oldida so'zlab beradilar va o'qituvchining savollariga javob qaytaradilar, yozma bayon qilishlari ham mumkin. Bu usulni qo'llash jarayonida yakka va guruhli ta'lism shakllari ham amalga oshiriladi.

Ta'lismetodi - o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarini egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli.

Ta'lismifatini nazorat qilish - o'qitish mazmuni va natijalarining davlat ta'lism standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish.

Texnolog - biror texnologiya mutaxassisasi.

Texnologiya - biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llanadigan yo'llar, usullar majmuasi.

Trener - ma'lum yo'nalishda ta'lism olish, mashqlar bajarish bo'yicha trening mashg'ulotlarini olib borish (rahbarlik qilish) uchun maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassis.

Trening - ma'lum yo'nalishda ta'lism olish, mashqlar bajarish bo'yicha trenerlar tomonidan (rahbarligida) o'tkaziladigan mashg'ulotlar.

Tushuncha - narsa va hodisalar, ularning xossalari, ular orasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi fikrlar.

Umumiy pedagogika - maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lism berish masalalarini o'rghanadi.

Umumiy o'rta ta'lism - o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umum-bashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlash ko'nikmalarini shakllantirish bosqichi.

Universitet - kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo'yicha oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lism dasturlarini amalgaga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta'lism muassasasi.

Uslub - biror narsa, hodisa, jarayonni o'rGANISH yoki amalgaga oshirish uchun qo'llash lozim bo'lgan usullar majmuasi.

Usul - biror narsa, hodisa, jarayonni o'rGANISH yoki amalgaga oshirish tartibi.

Faoliyat - shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvo-fiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko‘rinishi.

Fuqaro - fuqaroligi huquqiy jihatdan e’tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a’zosi bo‘lgan shaxs.

Fuqarolik - huquqiy va axloqiy me’yorlarga ongli rioya etish, ma’lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas’ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma’naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Fuqarolik tarbiyasi - fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o‘quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoiy fuqarolar etib tarbiyalashdan iborat.

Faollik - biror maqsad yo‘lida aqliy, jismoniy va boshqa harakatlarni tez va unumli amalga oshirishga intilish.

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyat a’zosi.

Shaxsni ijtimoiylashtirish - uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me’yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o‘zlash-tirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni.

Shkalalash - aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Ekologik madaniyat - o‘quvchining ijtimoiy talablarga muvo-fiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

Ekologik ong - tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi.

Ekologik madaniyat - o‘quvchining ijtimoiy talablarga muvo-fiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

Ekologik tarbiya - o‘quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, ularning mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.

Ekologik ta’lim - o‘quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzlucksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo‘naltirilgan ta’limiy jarayon.

Ekologik faoliyat - ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash boraşida amalgalashirilayotgan xatti-harakatlar majmui.

Estetik tarbiya - o‘quvchilarni tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go‘zalligini idrok etish, to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish va hayotiga go‘zallik olib kirish qobiliyatini tarbiyalash jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

E’tiqod - dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy-falsafiy, huquqiy, ma’naviy-axloqiy, estetik iqtisodiy, hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko‘rinishi; muayyan g‘oyaga cheksiz ishonch.

Evristik - yo‘naltiruvchi savollar berish yo‘li bilan o‘qitish tizimi; topqirlik, faollikni rivojlantirishga yordam beruvchi ta’lim metodi; o‘quv-izlanishli; optimallashtirilgan tafakkurni rivojlan-tiradi.

Eksklyuziv - g‘ayri oddiy, faqat ma’lum bir obyektga taalluqli, o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlar va boshqa belgilar. Faqat o‘ziga berilgan (huquq).

Empirik - hissiy tajriba asosidagi bilimlar va ularning yagona manbaini hissiy tajriba deb tushunish.

Yakuniy nazorat - ta’lim oluvchilarning chorak yoki yarim yillik uchun belgilangan o‘quv materiallari bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

Yakka ta’lim - ikki xil shaklda bo‘ladi: 1) bir o‘quvchini bir o‘qituvchi o‘qitishi – ta’limning juft shakli; 2) mustaqil ta’lim olish – ta’limning yakka shakli.

Yakunlovchi davlat attestatsiyasi - bakalavr yoki magistr darajasiga qo‘yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma’lum talab va tartibotlar vositasida (fanlar bo‘yicha davlat attestatsiyasi,

bitiruv ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan oliv ta’lim dasturining bajarilishi sifatini baholash.

O‘z-o‘zini baholash - mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o‘z shaxsiga baho berishga yo‘naltilgan faoliyat usuli.

O‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari - o‘quvchilarning o‘zini o‘zi idora qilishlari, turli o‘quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta’minalash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo‘llaniluvchi usullar.

O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish - o‘z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O‘z-o‘zini qayta tarbiyalash – shaxsning o‘zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo‘qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyat jarayoni.

O‘zlashtirish - ta’lim jarayonida ustuvor o‘rin tutuvchi ijtimoiy talablarga muvofiq shaxs tomonidan muayyan xatti-harakat va xulq usullarining egallanishi.

O‘rgatish - tarbiyanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalarini, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlari.

O‘qituvchi (pedagog) – pedagogik, psixologik va mutaxassislilik yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus ma’lumot, kasbiy tayyorgarlik va ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega hamda ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs.

O‘qish - ma’lum usullar yordamida tashkil etilgan bilimlarni o‘rganish jarayoni; o‘quvchilar tomonidan o‘quv faoliyatini usullarini egallab olishga yo‘naltilgan faoliyat.

O‘quv dasturi – muayyan o‘quv fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar mazmuni, umumiyligi vaqtning mavzularini o‘rganilishi bo‘yicha taqsimlanishi, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o‘rganilish darajasini yorituvchi me’yoriy hujjat.

O‘quv rejasi - ta’lim muassasida o‘qitiladigan o‘quv fanlarning tartibi, ularning o‘quv yili bo‘yicha taqsimlanishi, har bir o‘quv faniga ajratiladigan haftalik va yillik o‘quv soatlari, shuningdek, o‘quv yili tuzilishini belgilovchi me’yoriy hujjat.

O‘quv fani - ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo‘yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni ta’minlovchi manba.

O‘quvchilar jamoasi - ijtimoiy-foydali ahamiyat kasb etuvchi umumiy maqsad va birgalikdagi faoliyatga asosan jipslashgan o‘quvchilar birlashmasi, guruhi.

O‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarishi - o‘quvchilarning jamoa faoliyatini uyuştirish va boshqarishdagi faol ishtiroklari.

O‘quv qo‘llanmasi - 1) ma’lum o‘quv fanlari bo‘yicha metodik materiallar, tushuntirishlar, tavsiyalarni yorituvchi hamda o‘qituvchi yoki o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan manba; 2) muayyan fan bo‘yicha tayyorlangan hamda metodik jihatidan o‘quvtarbiyaviy jarayonda bevosita foydalanish imkonini beruvchi qo‘srimcha o‘quv materiallari.

O‘zlashtirish - tushunish, o‘rganish orqali axborotning ma’nomazmuni, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to‘g‘risida bilim va ko‘nikmalar hosil bo‘lishi.

O‘rganish - axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko‘rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko‘nikmalarini egallash.

O‘qitish sifatini nazorat qilish - talabaning bilim saviyasini tekshirish va uning o‘quv dasturini o‘zlashtirish darajasini aniqlash.

O‘qitishning me’yoriy muddati - ta’lim oluvchilar tomonidan ta’lim dasturi o‘zlashtirilishi uchun belgilangan muddat.

O‘quv yili - oliy ta’lim muassasasida bir ta’lim kursini yakunlashga mo‘ljallangan o‘quv faoliyati davri. O‘quv yili ikki kalender yil bilan belgilanadi, masalan, 2014-2015 o‘quv yili.

O‘quv fanlari bloki - ta’lim dasturining kadrlar tayyorlash jarayonida aniq maqsad va vazifalarga erishish uchun muayyan

bilim sohasi yoki faoliyatning o'zlashtirilishini ta'minlaydigan o'quv fanlarini birlashtiruvchi tarkibiy qismi.

O'quv semestri - oliv ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning ma'lum majmuini o'zlashtirishga mo'ljallangan va ular bo'yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi - yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Hikoya - o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi.

Hisobga olish - ta'limming muayyan davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirish, xulosalash.

Huquqiy madaniyat - shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Huquqiy ong - muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Huquqiy tarbiya - shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, unda ijobjiy huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Huquqiy ta'lim - o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlardan mohiyati to'g'risidagi tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongini shakllantirish jarayoni.

Huquqiy faoliyat - huquqiy me'yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish,

qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e'tirof etish, huquqiy munosabatlар jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo'naltirilgan amaliy xatti-harakatlar majmui.

Hamijodkorlik - ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning birgalikda ijodiy faoliyat olib borishi.

Hamkorlik pedagogikasi (hamkorlik pedagogik texnologiyasi) - ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilarning o'zaro mu-loqotiga asoslangan shaklda ta'lim berishga yo'naltirilgan tizim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi” –Toshkent, 2016.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. –T., 1997.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. –T.,1997.
- 4.I.A. Karimov. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostona-sida”. –T., 2011.
- 5.I.A. Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. –T.: “Ma’naviyat”, 2008.
- 6.I.A. Karimov. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi “O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralar”. –T.: O‘zbekiston, 2009.
- 7.I.A. Karimov. “Barkamol avlod orzusi”. –Toshkent: Sharq, 1997.
- 8.I.A.Karimov.“O‘zbekiston XXI-asr bo‘sag‘asida: xavfsizlik-ka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. –T.: O‘zbekiston, 1997.
- 9.I.A.Karimov, Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T.: O‘zbekiston, 2015.
10. “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar”. –T.: O‘zbekiston, 2000.
11. Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri.” –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
12. Abdulla Avloniy.”Turkiy Guliston yoxud axloq”.–T., 1996.
13. Abu Rayhon Beruniy. “Hikmatlar”. –T.: Yosh gvardiya, 1973.
14. A.Xoliqov. “Pedagogik mahorat”. –T.: Iqtisod-moliya. 2010.
15. J.Tulenov, Z.G‘ofurov. “Falsafa”. –T.: O‘qituvchi, 1997.
16. A.Minovarov. “Pedagogika”. –T.: O‘qituvchi, 1996.
17. R.Mavlonova va boshqalar. “Pedagogika”. –T.: O‘qituvchi, 2008.

18. R.Mavlonova, N.Raxmankulova, N.Vohidova. "Pedagogika nazariyasi va tarixi." Darslik. –T.: Fan va texnologiyalar. 2010.
19. J.Yo'ldoshev, F.Yo'ldosheva, G.Yo'ldosheva. "Interfaol ta'lif sifat kafolati". –T., 2009.
20. J.Xasanboyev, H.Sariboyev, G.Niyozov, O.Hasanboyeva, M.Usmonboyeva. " Pedagogika". O'quv qo'llanma. –T.: Fan, 2006.
21. M.Inomova. "Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi". T., 1999 y.
22. R.Mavlonova, N.Raxmonqulova, N.Voxidova, K.Matnazarova. "Pedagogika" –Toshkent, 2013.
23. A. To'xtayev. "Ekologiya". –T.: O'qituvchi, 1998.
24. M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar "Pedagogika nazariyasi va tarixi" –T., 2006.
25. S. Jo'raqulov. "Pedagogik mahorat". –Toshkent, 2008.
26. A.Kosimov, F. Xoliqova. "Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar". –Toshkent, 2004.
27. M.Axmedjonov, B.Xo'jayev, Z.Hasanova. "Pedagogik mahorat". –Buxoro, 2008.
28. O.Suvonov, S.Astanova. "Pedagogik mahorat". –Guliston, 2010.
29. Michael Uljens. School Didactics and Learning: A School Didactic Model Framing an Analysis of Pedagogical Implications of Learning Theory. 2008.
30. John Dewey, How we think (1910) Martin, Jay. The Education of John Dewey. (2003). Columbia University Press.
31. Gutek, Gerald L. (2009). New Perspectives on Philosophy and Education. Pearson Education, Inc.
32. Kenklies, K. (2012). "Educational theory as topological rhetoric. The concepts of pedagogy of Johann Friedrich Herbart and Friedrich Schleiermacher". Studies in Philosophy and Education.
33. Peter Menck. Looking Into Classrooms: Papers on Didactics. 2010y
34. Stephen D. Brookfield, Stephen Preskill. Discussion as a Way of Teaching: Tools and Techniques for Democratic Classrooms, 2nd Edition, 2010 y

35. Howard Pitler. Using Technology with Classroom Instruction That Works, 2nd Edition 2nd Edition. 2011y
36. M. D. Roblyer. Integrating Educational Technology into Teaching (5th Edition) 5th Edition. 2013 y
37. Haydarova G, Pardayeva K “O‘zbek xalq pedagogikasi”. Jizzax 2007y.
38. Jumaniyozova R. “Xalq ijodi”. Toshkent. O‘zbekiston, 1989-yil.
39. Mutualipova M.J. “Xalq pedagogikasi”. Toshkent. O‘zbekiston, 1988 yil.
40. A.K.Munavvarov. “Oila pedagogikasi.” Toshkent 1994-yil.
41. N. Abdulahatov, O.Abbubakirova “Allomalar to‘g‘risidagi asotirlar”. Farg‘ona 2012 y.
42. H.T.Omonov va boshqalar “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”. Darslik Toshkent – 2007.

Elektron ta’lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.lex.uz;
5. www.bilim.uz;
6. www.gov.uz;

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
-------------	---

I BO'LIM

I BOB. PEDAGOGIKANING ILMIY ASOSLARI

PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA UNING

PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALAR

1. Pedagogika predmeti.....	4
2. Pedagogika fanining vazifalari.....	5
3. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari.....	7
4. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.....	8
5. Pedagogika fanlari tizimi.....	10
6. Pedagogika fanining metodologiyasi.....	12
7. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari.....	14

II BO'LIM

II BOB. KADRLAR TAYYORLASH MILLIY MODEL. HOZIRGI DAVRDA O'QITUVCHILIK KASBI VA UNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI

1. O'zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati.....	21
2. Maktabgacha ta'lism.....	30
3. Umumiy o'rta ta'lism.....	41
4. Kasb-hunar ta'limi.....	52
5. Oliy ta'lim.....	53
6. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.....	55
7. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash talim tizimi.....	56
8. Maktabdan tashqari ta'lim.....	66

II BO'LIM

III BOB. DIDAKTIKA-TA'LIM NAZARIYASI

1. Didaktikaning predmeti va uning vazifalari.....	69
2. Didaktikaning asosiy kategoriyalari.....	75
3. Turli tarixiy davrlarda didaktik tizimlarning shakllanishi va rivojlanishi.....	77
4. Didaktika tamoyillari.....	84

IV BOB. TA'LIM MAZMUNI

O'zbekiston maktablaridagi ta'larning mazmuni.....	98
1. Ta'larning maqsad va vazifalari.....	98
2. Ta'l mazmuni va uning tuzilishi.....	106

V BOB. O'QITISH JARAYONI

1. O'quv jarayonini tashkil etishning shakllari.	122
2. Ta'linda sinf-dars tizimining vujudga kelishi.....	123
3. Dars mакtabda o'quv ishlарini tashkil qilishning asosiy shakli.....	125
4. Darsga qo'yiladigan talablar.....	127
5. Dars tizimi strukturasi elementlari va tiplari.....	128
6. Darslarning turlari.....	135
7. Darsga qo'yiladigan psixologik talablar.....	136
8. Darsga tayyorlanish.....	140

VI BOB. O'QITISH METODLARI

1. O'qitish metodlarining nazariy asoslari.....	144
2. O'qitish metodlarining tasnifi.....	149
3. O'qitish metodlarining mohiyati va mazmuni.....	152
4. O'qitishning induktiv va deduktiv metodlari.....	162
5. Nazariy bilimlardan foydalaniladigan mashqlar.....	164
6. Mashq – o'quvchilarda malakalarini shakllantirish faoliyatining asosiy turi.....	165

VII BOB. TA'LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

1. Ta'l mazmuni.....	170
2. Innovatsion pedagogika mazmuni.....	174
3. Innovatsion jarayonning rivojlanishida umumiy yo'naliш.	178
4. Ta'linda muammoli va axborot texnologiyalardan foydalanish.....	183
5. Muammoli ta'l mazmuni.....	187
6. Ta'l mazmuni axborot texnologiyalarning o'rni.....	189

VIII BOB. KREATIV TALIM

1. Kreativ talimga zamонавија yondashish.....	198
2. Kreativlik va uning tashxislanishi.....	205
3. Kreativ dars tuzilishiga doir metodik tavsiyalar.....	210

4. Kreativ dars yo'nalishlarining mazmuni va psixologik asosi.....	213
--	-----

III BO'LIM

IX BOB.TARBIYA NAZARIYASI VA USULLARI

1. Tarbiya jarayonining mohiyati va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.....	222
2. Tarbiya qoidalari.....	228

X BOB. MA'NAVIIY-AXLOQIY TARBIYA

1. Ma'naviy qadriyatlар-tarbiyaning omili.....	233
2. Milliy tarbiya va uning mazmuni.....	239
3. Milliy tarbiyaning o'ziga xosligi va mezonlari.....	245
4. Sharqona tarbiyaning o'ziga xoc ko'rsatkichlari.....	248

XI BOB. TARBIYA USULLARI

1. Tarbiya usullari haqida umumiy tushuncha.....	251
2. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va taffakurni shakllantirish.....	261
3. Shaxsning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda allomalarimizning fikrlari.....	265
4. Manaviy-axloqiy tarbiya mazmuni.....	271
5. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish usullari.....	275
6. Huquqiy tarbiya mazmun mohiyati.....	280
7. Mehnat tarbiyasi	287
8. Iqtisodiy tarbiya.....	295
9. Ekologik tarbiya.....	300
10. Nafosat tarbiyasi.....	307
11. Jismoniy tarbiya.....	313
12. Oila tarbiyasi.....	319
13. Oilada bola tarbiyasida ota-onaning o'rni.....	323

IV BOLIM

XII BOB. PEDAGOGIKA TARIXI

1. Pedagogika tarixining maqsad va vazifalari.....	330
2. Eng qadimgi davrdan VII asrgacha ta'lif-tarbiya va pedagogik fikrlar.....	332
3. "Avesto"	340

XIII BOB. VII ASRDAN XIV ASRGACHA BO'LGAN DAVRDA MAKTAB, TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKR TARAQQIYOTI

1. Islom dini g'oyalarining ta'lif-tarbiyaga ta'siri.	
Musulmon maktablarida ta'lif-tarbiya mazmuni.....	345
2. Hadis ilmining paydo bo'lishi, Imom Ismoil al-Buxoriy..	351
3. Muhammad ibn Iso at-Termiziy	354
4. Hadislarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati.....	354

XIV BOB. SHARQ UYG'ONISH DAVRI VA UNDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

1. Sharq Uyg'onish davrida ilm-fan va madaniyat.....	360
2. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning ilmiy merosi va uning didaktik qarashlari.....	360
3. Abu Nasr Forobiy (873-950).....	364
4. Abu Rayhon Beruniy (973-1048).....	369
5. Abu Ali ibn Sino (980-1037).....	377

XV BOB. SHARQ PEDAGOGIK TA'LIMOTIDA TA'LIMIY-AXLOQIY QARASHLAR

Yusuf Xos Hojib.....	384
----------------------	-----

XVI BOB. XIV-XVI ASRLARDA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR

1. Sohibqiron Amir Temur (1336-1405).....	392
2. Muhammad Tarag'ay Ulug'bek.....	395
3. Alisher Navoiy (1441-1501).....	399

XVII BOB. XIX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON O'LKASIDA TA'LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR

1. Markaziy Osiyoda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ta'lif-tarbiya va pedagogik fikr.....	407
2. Turkiston o'lkasida diniy-islomiy tarbiyaviy muassasalar va pedagogik fikr taraqqiyoti.....	407
3. Turkistonda jadidchilik harakati va ta'lif-tarbiya.....	409
4. Mahmudxo'ja Behbudiy (1874-1919).....	412
5. Abdulla Avloniy (1878-1934).....	417
6. Abdurauf Fitrat (1886-1938).....	423

XIII BOB. CHET EL VA ROSSIYADAGI ILG'OR PEDAGOGIK G'OYALAR. G'ARBIY YEVROPADA MAKTAB, MAORIF HAMDA PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTI

1. Yan Amos Komenskiy (1592-1670).....	429
2. Adol'f Disterveg (1790-1866).....	435

V BO'LIM

XIX BOB. PEDAGOGIK MAHORAT

1. Pedagogik mahorat fanining nazariy asoslari va uning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati.....	440
2. Pedagogik qobliyat, qobiliyatning pedagogik –psixologik tasnifi.....	445
3. Pedagogik ta'sir ko'rsatish – kommunikativ qobiliyatning asosiy usuli sifatida.....	448
4. Pedagogik muloqotni tashkil etish yo'llari.....	450
5. Pedagogik texnika.....	453
6. Pedagogik texnikani egallash yo'llari.....	456

XX BOB. MAKTABSHUNOSLIK

1. Maktab ishini boshqarish va unga rahbarlik qilish...	477
2. Maktab pedagogik jamoasi.....	485
Glossariy.....	490
Adabiyotlar ro'yxati.....	518

QAYDLAR UCHUN

UMUMIY PEDAGOGIKA

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2018

Muharrir:	F.Ismoilova
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musavvir:	F.Tishabayev
Musahhih:	Sh.Mirqosimova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Raxmatullayeva

E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.

**Nashr.lits. AIN[№]149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 12.11.2018.
Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 32,75. Nashriyot bosma tabog'i 33,0.
Tiraji 300. Buyurtma № 453.**

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.

ISBN 978-9943-11-882-9



9 789943 118829

F
FAN VA
TEKNOLOGIVALAR